**Abstract:** *One of the special types of intangible cultural heritage, the art of khalif is a type of art that has been formed and developed since ancient times. Even now, many artists are creating in Khorezm. Halfa's creativity raises the mood of the population and contributes to their spiritual well-being.*

**Key words:** *khalfa, khalfachilik, folklore, song, musical instruments, history, music, spirituality.*

**Аннотация:** *один из особых видов нематериального культурного наследия, искусство “Халфа” – это вид искусства, сформировавшийся и развившийся на основе образцов хорезмского искусства. Даже сейчас многие халфы творят в Хорезме. Творчество халфа поднимает настроение населения и способствует его духовному благополучию.*

**Ключевые слова:** *халфа, халфы, фольклор, песня, музыкальные инструменты, история, музыка, духовность.*

**KIRISH.** Keyingi yillarda respublikamizda nomoddiy madaniy merosni asrash va keng targ‘ibot qilishga alohida e‘tibor qaratilmoqda. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 25.12.2023-yildagi “Nomoddiy madaniy merosni muhofaza qilish, ilmiy o‘rganish va targ‘ib qilishni rivojlantirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-405-sonli qarori sohadagi aniq vazifalarni belgilab berdi [1].

Qadimdan madaniyat va san‘at maskani bo‘lgan O‘zbekistonda o‘ziga xos xalq musiqa

ijodiyoti (bolalar va marosim qo‘shiqchlari, xalfa laparlari va boshqalar), og‘zaki an‘anadagi kasbiy musiqa (doston, talqinchi va go‘yandalar san‘ati, maqom va boshqalar) namunalari keng o‘rin tutadi. Jumladan, Xorazm musiqasida xalq musiqasining eng qadimgi davrlariga mansub kuy-ohang namunalari o‘z aksini topgan. Jumladan, bolalar (“Momom moshiydi”, “Aravachi mani doyim”, “Tuyalar, ho tuyalar” va boshqalar) va mavsum-marosim qo‘shiqchlari (“Sust xotin”, “Ashsha daroz” va boshqalar)da musiqaning ilk bosqichlariga oid



dastlabki tuzilma va ohang alomatlarini, boshlang'ich parda asoslari saqlanib qolgan.

#### **ADABIYOTLAR TAHLILI VA METOD.**

Xorazmda xonandalik, sozandalik va raqqoslikni o'ziga kasb qilib olgan san'atkorlar guruhlari "sozanda qo'shlari" deyilgan. Ular ikki xil tarkibda, ya'ni 2 ta surnaychi, doirachi, tanburchi, ashulachi, sozchi (garmonchi), ashulachi-raqqos, masxaraboz, so'z ustasi (shuning o'zi mag'aldoqchi – akrobat); dorbozchi, chodir xayol (qo'g'irchoqboz) va boshqalardan tashkil topgan. Sozanda qo'shlarining vazifasi to'ya baxshi dostonni tugatgandan keyin yoki to'yni yanada qizdirish maqsadida o'z san'atlarini (lazgi kabi kuy va raqslarni ijro etib) namoyish qilishdan iborat. El orasida tanilgan sozanda qo'shlarining boshliqlaridan Husayn Kalot, Sobir Kalot, Shomurod surnaychi, Ushli Kal (mashhur "Ushlini uforisi" yallasining muallifi), Durdi karnaychi, Sobir Dorboz, Xo'ja Ko'r, Otoq Jonli, Ko'pal Hoji, Bayotvoy, Ollabergan Hoji, Xudoybergan Vovoq va boshqalar mashhur.

Xorazm musiqa uslubining baxshi-dostonchilar san'ati o'ziga xos bo'lib, alohida o'ringa ega. Dostonning nasriy qismi hikoya, nazmiy qismi esa qo'shiq shaklida ochiq ovozda cholg'u ansambl jo'rligida ijro etiladi. Xorazm baxshichiligi Shirvoniy va Eroniy uslublarga bo'linadi. Shirvoniy uslub Amudaryoning chap sohili hududda tarqalgan (markazi — Xiva). Bu uslub namoyandalari dutor, g'ijjak, bulamon va doira jo'rligida kuylaydilar. Unda 72 ta doston kuylari mavjud bo'lib, bular: Muxammaslar turkumi (5 ta kuy), Ilg'orlar (4), Eshvoylar (5), Naylarmanlar (5), Nolishlar (7), Shirvoniylar (3), Zorinjilar (2), "Rahm ayla", "Boboxonim", "Gulandom" va boshqalar [4, 37].

Eroniy uslub Amudaryoning o'ng sohil hududida tarqalgan (markazi — Mang'it shahri). Ushbu uslub baxshilari dutor, g'ijjak, bulamon jo'rligida doston kuylashadi. Ularning qo'shida doira qatnashmaydi. Eroniy uslubda 32 ta doston kuylari bo'lib, ularning ko'pchiligi Shirvoniy nomalar bilan o'xshash, lekin Sarparda, Ko'r qiz, Qo'shadas, Qo'shim Polvon, Ilg'ori va boshqalar bilan ajralib turadi. XVIII asr oxiri va XIX asr boshlarida Xiva xonligida 40 dan ortiq baxshilar faoliyat ko'rsatgan va ulardan eng mashhurlari Eshvoy baxshi, Muhammadniyoz Go'rji, Rizo baxshi, Ernazar baxshi, Suyov baxshi, Jumanazar baxshi, Ahmad baxshi, Bola baxshi Abdullayev va boshqalar.

Xorazm musiqa uslubida talqinchi va go'yandalar ijodi aniq bir janr bilan chegaralanmagan bo'lsa-da, ularning o'z yo'llari va o'ziga xos usublari mavjud. Ayniqsa, ular suvoralar va ularning savtlari hamda boshqa yirik shakldagi mumtoz ashulalarni Mashrab, So'fi Olloyor, Maxtumquli, Mulla Nafas kabi shoirlarning tasavvuf yo'lidagi g'azallari, nasihat hamda o'gitlariga solib kuylaganlar. Shuningdek, musulmonchilikni targ'ib qiluvchi "Kiyiknoma", "Sayid Vaqqos", "Kaptar", "Amir Hamza", "Me'rojnoma", "Sultonbobo hikoyati", "Payg'ambarlar hikoyati" kabi nomalarni ham ijod qilganlar. Talqinchi va go'yandalar "Diyralishma" deb nomlangan erkin tanlovlarda sinalgan, ulardan Polli Duzchi, Kalandar Bangi, Qurji ota va boshqalar mashhur bo'lgan.

**MUHOKAMA.** Xorazmda savodxon, gapga chechan, ayni paytda xonandalik qobiliyatiga ega bo'lgan zukko ayollarni "xalfa" deb yuritishadi. Xalfa qo'shiqlari xalq ruhini, xalq orzu-armonlarini yorqin aks ettirib, odamlar yuragiga ta'sir etib, xususan ayollar tomonidan ijro etiladigan san'at turi. Aynan xalfa qo'shiqlari mehnatkash ommaning ozodlik va baxt uchun kurashida madadkor bo'lib, xalqning dardi, ayniqsa, ayollarning hayoti, nohaqlik, ayollarning manfaati kuylangan, g'oyalarni jonli gavdalanitirib sodda, ravshan til bilan kuylarga solib badiiy shaklda tarannum qilgan janrdir.

Bir vaqtlar zardushtiylikning muqaddas kitobi "Avesto"ni o'qib ularni xotin-qizlar davrasida targ'ib qilgan ayollarni ham "qalpa" deb yuritishgan. Biroq, bu o'qimishli ayollar faqat diniy mavzudagi kitoblarni targ'ib qilish bilan kifoyalanmasdan, buyuk shoirlar asarlarini, shuningdek, kitobga ko'chirilgan xalq dostonlarini ham kuyga solib o'qishgan va xotin-qizlar dilini xushnud qilib kelganlar [5, 31].

Xorazmda ayol qo'shiqchilar "xalfa" deb yuritiladi, ular faqat ashula aytish bilan cheklanmaganlar, chunki xalfalar san'atning ko'p turlaridan xabardor bo'lganlar, ular xotin-qizlar o'rtasida rang-barang xalq qo'shiqlari, mumtoz ashulalari, shoirlarning g'azallarini va oshiqlik dostonlaridan parchalar kuylashgan, diniy mavzuda suhbatlar qilishgan. Xalfalar bu davrada asosan xalq dostonlarini o'qish bilan birga, ularni musiqa jo'rligida maromiga etkazib kuylab ham beradilar.

Qadimiy Xorazm xalqi Markaziy Osiyoda o'ziga xos yuksak madaniyati bilan katta iz qoldirgan.



Xorazm san'atkorlarining qadim zamonlarga borib taqaladigan nafis san'ati ko'p asrlar davomida sayqal topib ommani o'ziga jalb qiladigan sehrli kuchga aylanadi va xalq tarixi bilan bog'liqdir.

Ma'lumki, xalq bayramlarida oila marosimlari bilan bog'liq to'y va tomoshalarda, urf-odatlarida va sayillarda musiqa jo'rligida qo'shiq, raqslar ijro qilingan. Deyarli 3000 yillik tarixga ega muqaddas "Avesto" kitobida (xususan uning "Yashta" va "Vispart" bo'limlarida) qadim Xorazm san'ati, to'y va marosimlari haqida qimmatli ma'lumotlar keltirilgan [5, 32].

**NATIJALAR.** Xorazmda olib borilgan arxeologiya va etnografiya ekspeditsiyalari natijasida bu hududda miloddan avvalgi VI-V asrdayoq an'analar tarkib topganligiga oid ma'lumotlar mavjud. Mil. avv. IV asr Jonbosqal'a, milodiy I-IV asr Tuproqqal'a qo'rg'onlari ichida olovxona borligi va u yerda tantanalalar o'tkazilganligi aniqlangan. Qadimgi Xorazmshohlarning Afrig'iylar davrigacha bo'lgan qarorgohi Tuproqqal'ada "Shohlar zali", "G'alaba zali" "Raqsga tushuvchi niqoblar zali" borligi aniqlangan [6, 185].

"Raqsga tushuvchi niqoblar zali"da topilgan suratlarda sozandalar qo'llaridagi arfa, ikki tomoni qum soatiga o'xshash nog'ora, ikki torli dutor aks ettirilgan. Ushbu dalillarda islomgacha bo'lgan davrda madaniyat, san'at, kuy, qo'shiq, doston ham ma'lum darajada rivojlanganligidan darak beradi.

Milodning V-VI asrlarida Xorazmda turmush va siyosiy hayot keskin sur'atda o'zgardi. Bu taraqqiyot o'sha davrdagi Xorazm hukmdori surati tushirilgan tangalarda ham o'z aksini topdi. Siyovushning otga mingan tasviri tushirilgan tangalar islomgacha bo'lgan davrga oid. Siyovush tasvirining old tomonida musiqachi ayol – mutriba san'atkorga xos kiyimlarni kiyib olgan go'zal malika sifatida tasvirlangan. Tangachalardagi tasvir islomgacha bo'lgan davrda ayollar musiqa chalish, qo'shiq kuylash, raqsga tushish san'atlarini mukammal o'rganib olib, uni ko'pchilik oldida namoyish etganini tasavvur qilishimizga asos bo'ladi.

Keyingi davrda Xorazm madaniyati va san'atining eng yuksak rivojlanish davri bo'ldi, al-Xorazmiy, al-Beruniy, qomusiy olimlar al-Farobiy, ar-Roziy, Ibn Sino, az-Zamaxshariy, matematika ilmiga asos solgan Abu Abdulloh Muhammad Xorazmiy IX-XIII asrlarda yashab ijod qilganlar va Xorazm san'ati, to'y va marosimlari haqida turli

musiqiy janrlar, maqomlar, cholg'uchilar va cholg'u asboblari turlari, ularning nomlari, ashulachilar haqida qimmatli ma'lumotlar qoldirganlar [9].

Buyuk ipak yo'li orqali Buxoro, Eron, Turkiya, Hindiston, Astraxan, Rusiya, Markaziy Osiyo, jumladan Xorazm bilan o'zaro aloqalar rivojlandi. Savdo-sotiq, tijorat ishlarini rivojlantirish bilan birgalikda madaniyatni taraqqiy ettirish borasida harakatlar bo'ldi. Abulg'oziy Bahodirxondan keyingi barcha xonlar musiqaga ixlos va ishtiyoq bilan qaraganlar. Abdullaxon (1854) Sayid Muhammadxon davrida g'ijjak va tanburda soz va suhbat kechalari uyushtirib, o'zi ham dutor va g'ijjakni o'rganib chalgan [8].

Muhammad Rahimxon II Feruz Xorazm adabiyot va san'atini yanada yuqori pog'anaga ko'tardi, uning rahnamoligida mashhur sozanda va go'yandalar yetishib chiqdi. Sayil, bayram va tantanalarda Feruzxon ashulachi, sozanda, baxshi, masxarabozlar ko'rigini o'tkazib rag'batlantirgan. Bayramlarda adabiyot va san'atning barcha turlari namoyish qilingan va ular shu tariqa rivojlangan. Xorazm vohasida, ayniqsa, Xivada xalfachilik san'ati keng rivoj topgan.

Xotin-qiz xalfalarning bir turi piyola va likobchalarni bir-biriga urib undan chiqqan ovozga jo'r bo'lib kuylaganlar. Shu bilan birgalikda, xonanda va sozandalardan iborat xalfalar garmon va doira jo'rligida xalq qo'shiqlari, laparlar, yor-yorlar, allalar, dostonlardan parchalar ijro qilganlar. XIX asr oxiri - XX asr boshlarida, xususan, 1895-yildan boshlab garmon cholg'usini xalfalar san'atiga qo'shilishi bilan ularning ijodi yanada yuqori pog'anaga ko'tarildi.

Garmonni avval sozchi san'atkorlar ijroda qo'llashgan, keyinchalik garmon xalfalar ijodida yetakchi o'rin egalladi. 1936-yilda Xivada garmonchi qizlar ansambli tuzildi. Uni tuzishda O'zbekiston xalq artisti Gavharxonim Rahimova Toshkentdan kelib, tashabbus ko'rsatdi. Unda Onajon Sobirova (Anash xalfa) va Madrahim Sheroziylar hamkorlik qiladilar. Xalfachi qizlar ansambli 1939-yilda Toshkent va respublikamiz bo'ylab gastrol safarda bo'ladi. Bu ansamblda Onajon Sobirova (Anash xalfa) Soraxon Ollaberganova, Roviya Otajanova, Reyma Hakimova, O'g'iljon Masharipova, Poshshaxon Matchanova kabi iste'dodli xalfalar xizmati katta. Bundan 50 yil keyin Gavharxonim Rahimova tashabbusi bilan Xivaga kelib Ozod

Zaripov rahbarligidagi Xiva shahar musiqa maktabida garmonchi qizlar ansambli tashkil qilindi [3, 88].

**XULOSA.** Xalifa san'atining o'ziga xos qirralari zamon talablariga muvofiq shakllangan va rivojlangan. Xorazm vohasida ilgari beri davom etib kelayotgan an'anaga muvofiq xalfalar ijod qilganlar. Ular ustoz-shogird uslubida o'z ijodlarini biladigan qo'shiq va dostonlarni shogirdlariga o'rgatganlar.

#### **ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 25.12.2023-yildagi "Nomoddiy madaniy merosni muhofaza qilish, ilmiy o'rganish va targ'ib qilishni rivojlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-405-sonli qarori // [www.lex.uz](http://www.lex.uz) .

2. Xiva — ming gumbaz shahri. – Toshkent: O'zbekiston. 1997. – B. 135.
3. Bobojonov D, Abdurasulov M. Abadiyat farzandlari. – Xiva: Ma'mun akademiyasi, 2012. – B. 88.
4. Matyoqubov O. Maqomat. – Toshkent: Musiqa, 2004. – B.37.
5. Ro'zimboyev S. Xalfachilik an'alarining qadimiy ildizlari // Xorazm Ma'mun akademiyasi axborotnomasi. №2/2013. – 30-32-b.
6. Toprak-kala. Dvrores // TXAEE. XIV. – M.: Nauka, 1984. – s. 307.
7. O'zbekiston nomoddiy madaniy merosi. – Toshkent: Mega Basim, 2017. 257 b.
8. [www.xorazm.uz](http://www.xorazm.uz)
9. <http://xorazmiy.uz/oz/pages/view/286>



## XIX ASRNING OXIRI - XX ASR BOŞLARIDA SURXON VOXASI AĖOLISINING DEMOGRAFIK JARAËNLARI

*Holmuminov Xusan Eshmuminovich, Termez davlat  
universiteti doçenti, tarix fanlari doktori*

## DEMOGRAPHIC PROCESSES OF THE INHABITANTS OF SURKHAN OASIS IN THE LATE 19TH AND EARLY 20TH CENTURIES

*Kholmuminov Khusan Eshmuminovich, Associate Professor,  
Termez State University, Doctor of Historical Sciences*

## ДЕМОГРАФИЧЕСКИЕ ПРОЦЕССЫ НАСЕЛЕНИЯ СУРХАНСКОГО ОАЗИСА В КОНЦЕ XIX - НАЧАЛЕ XX ВЕКОВ

*Холмунинов Хусан Эшмунинович, доцент Термезского  
государственного университета, доктор исторических наук*



[https://orcid.org/  
0009-0003-6634-6020](https://orcid.org/0009-0003-6634-6020)

e-mail:  
[xusan75xolmuminov  
@mail.ru](mailto:xusan75xolmuminov@mail.ru)

**Аннотация:** Ушбу мақолада XIX асрнинг охири - XX аср бошларида Сурхон воҳаси аҳолисининг ижтимоий турмуш тарзи ва демографик жараёнлари таҳлил этилган. Жумладан, бу даврда Россия империясининг мустамлакачилик сиёсати ҳамда оғир ижтимоий шароитлар натижасида юзага келган муаммоларнинг демографик жараёнларига таъсири масалалари илмий таҳлил этилган.

**Калим сўзлар:** Бухоро амирлиги, Шеробод, Бойсун, Денов бекликлари, демографик жараёнлар, кўчириш ишлари, ирригация тизими, аҳоли миллий таркиби.

**Abstract:** This article analyzes the social lifestyle and demographic processes of the inhabitants of the Surkhan oasis in the late 19th and early 20th centuries. In particular, during this period, issues of the influence of the colonial policy of the Russian Empire and the problems that arose as a result of difficult social conditions on the demographic processes were scientifically analyzed.

**Key words:** Bukhara Emirate, Sherabad, Boysun, Denov districts, demographic processes, resettlement works, irrigation system, national structure of the population.

**Аннотация:** В данной статье анализируется социальный образ жизни и демографические процессы жителей Сурханского оазиса в конце XIX - начале XX веков. В частности, в этот период были научно проанализированы вопросы влияния колониальной политики Российской империи и проблем, возникших вследствие сложных социальных условий, на демографические процессы.

**Ключевые слова:** Бухарский эмират, Шерабадский, Байсунский, Денауский бекства, демографические процессы, переселенческие работы, ирригационная система, национальный состав населения.

### КИРИШ/ВВЕДЕНИЕ/INTRODUCTION

Бугунги кунда дунёнинг йирик илмий ва стратегик тадқиқот марказлари томонидан Марказий Осиё, жумладан, Ўзбекистонда кечган тарихий-демографик жараёнларни ўрганишга доир катор тадқиқотлар олиб борилмоқда. Бу тадқиқотларда аҳолининг ижтимоий демографик ҳолати, аҳоли

миграцияси, урбанизация жараёнларини фанлараро ёндашув асосида турли соҳа мутахассислари томонидан кенг миқёсда илмий тадқиқ этилмоқда.

Ўзбекистоннинг жанубий ҳудудларидаги тарихий-демографик жараёнларни ўрганиш бўйича олиб борилган тадқиқотлар шуни кўрсатадики, Марказий Осиё Россия империяси мустамлакасига

айлантирилганидан сўнг, XIX асрнинг иккинчи ярми – XX аср бошларида демографик жараёнлар ва унинг аҳоли ижтимоий ҳаётида тутган ўрни бўйича дастлабки изланишлар рус шарқшунос сайёҳ олимларининг кузатувлари ва тадқиқотлари асосида яратилган. Бу маълумотлар тавсифий характерга эга бўлиб, уларда жараёнлар муаммовий-даврийлик нуктаи-назаридан тадқиқ этилмаган.

**АДАБИЁТЛАР ТАҲЛИЛИ ВА МЕТОД/ЛИТЕРАТУРА И МЕТОД/ MATERIALS AND METHODS.** Мустақиллик йилларида маҳаллий ва хорижий мутахассислар, демограф олимлар томонидан демографик жараёнларни тарихий нуктаи-назардан муайян ҳудудлар мисолида ўрганилмоқда. Бу даврда яратилган тадқиқотлар, ўрганилаётган ҳудуддаги тарихий-демографик жараёнларини ёритишда муҳим аҳамият касб этади.

Шунингдек, бу даврда жамиятда демографик жараёнларни ўрганишга доир социологик сўровномалар ҳамда аҳоли сонини статистик маълумотлар асосида ўрганиш, ва унинг миллий таркибини ўрганиш бўйича олиб борилаётган тадқиқотлар муҳим ўрин тутди.

XIX аср охирида жанубий воҳалар бекликларидаги ижтимоий-сиёсий жараёнлар ўзига хос тарзда кечди. Жумладан, бу даврдаги ички низолар, хонликларнинг истилочилик юришлари мамлакатнинг сиёсий ва иқтисодий ҳолатига салбий таъсир кўрсатган эди. Шунингдек, марказлашган давлат бошқарувининг мавжуд эмаслиги, барча соҳалар каби халқ оммаси турмуш даражасининг оғирлашувига, ижтимоий жараёнларнинг издан чиқишига ҳамда аҳоли демографик жараёнларига таъсир кўрсатмасдан қолмади. Шу билан бирга, бу даврда амалга оширилган мустамлакачилик сиёсати ижтимоий-иқтисодий жараёнларига ва ўз навбатида аҳоли турмуш даражасига таъсир кўрсатаётган омиллардан бири эди.

#### **МУҲОКАМА/ОБСУЖДЕНИЕ/DISCUSSION.**

XIX аср охирида Бухоро амирлигида 27 та беклик бўлиб [1:56], шундан жанубий ҳудудларда Бойсун, Денов, Шеробод, Қарши, Китоб, Яққабоб, Чироқчи, Ғузор бекликлари мавжуд эди [2:21]. Бухоро амирлигининг жанубий беклиги ҳудудлари аҳолисининг катта қисмини ўзбеклар ва

озчилик қисмини бошқа миллат вакиллари ташкил этган [3:44].

Бу даврдаги маълумотларга кўра, 1886 йилда Бойсун беклигида 30000, Денов беклигида 50000, Шеробод беклигида 65000 аҳоли истиқомат қилган бўлса, 1920 йилга келиб, Бойсун беклиги аҳолиси 42806, Денов беклигида 69352, Шеробод беклиги аҳолиси эса 113281 кишига ортганлигини кўришимиз мумкин [4:63]. Бу даврда аҳоли сони ортиши бекликларга тегишли амлоқликлар сони орта бошлаганлиги билан изоҳланади. Жумладан, бу даврда Шеробод беклиги 6 амлоқлик, Денов беклигига Юрчи беклигидаги 5 та амлоқлик кўшилиши натижасида жами 11та амлоқлик, Бойсун беклиги 10 амлоқликдан иборат бўлиб, аҳоли сони ҳамда миллий таркибида ўзига хос тарзда маълум ўзгаришлар бўлганлигини кузатишимиз мумкин [5:92].

XIX аср охири – XX аср бошларидаги Чор Россиясининг мустамлакачилик сиёсати натижасида демографик жараёнларда ҳам ўзгаришлар юз берган. Яъни, турли миллат вакиллари кўчирилиши натижасида воҳаларнинг маъмурий марказларида аҳоли сонининг ҳамда миллий таркибининг ортиши ҳолатлари кузатилса-да, аммо уларнинг ижтимоий турмуш даражаси, кўпроқ қишлоқ ҳудудларида анча оғир даражада эди. Жумладан, аҳолига ижтимоий ёрдам кўрсатиш, уларнинг ижтимоий турмуш тарзида тоза ичимлик суви билан таъминлаш ҳамда тиббий хизматни ташкил этиш ишларига етарлича эътибор қаратилмаган.

Россия маъмурлари томонидан ўлкага аҳолини кенг миқёсда кўчиришдан мақсад, аввало, Туркистон ўлкасида пахтачилик сиёсатини кенг миқёсда авж олдириш ҳамда чегара ҳудудларни мустаҳкамлаш бўлиб ҳисобланган. Шу мақсадда мустамлакачилар Бухоро амирлигига қаршли ҳудудларда ҳарбий истехкомлар қуриш ишларига катта эътибор қаратганлар.

Шунингдек, XX асрнинг бошларида Қарши-Карки-Келиф-Термиз, шунингдек, Қарши-Ғузор-Китоб йўналиши бўйича темир йўллар қурилиши бу ҳудудларга рус миллатига мансуб аҳоли вакиллари кўпроқ кўчиб келишига сабаб бўлган омиллардан бири эди [6:89]. Бу



даврдда Қарши, Ғузур, Шеробод беклигида бўлган рус сайёҳларининг келтирган маълумотларига кўра, Қарши, Ғузур, Паттакесар ҳудудларида аҳоли гавжум эди, ва уларнинг этник таркиби ҳам хилма-хил бўлганлигини алоҳида таъкидлаб ўтишган. Жумладан бу ерда рус, яҳудий ва бошқа ўнлаб турли миллат оилалари истиқомат қилганлиги тўғрисида маълумотлар келтирилган [7:526].

Кўчирилган аҳолининг ижтимоий турмуш тарзини яхшилаш, аввало аграр сиёсат, яъни пахтачилик масаласини ҳал этиш мақсадида Россия империяси томонидан аста-секин Туркистонда суғориш тизимига эътибор қаратила бошлади [8:82]. Шунингдек, Россия империяси маъмурлари томонидан биринчи галда рус аскарлари ҳамда уларнинг оилалари кўчириб келтирилган рус қишлоқларида озик-овқат ҳамда сув таъминотини яхшилаш масалаларига катта эътибор қаратила бошланди. Бу даврда Сурхон воҳасининг муҳим марказларидан бири ҳисобланган Термиз шаҳри ва унинг атрофидаги ҳудудларда ирригация соҳаларида дастлабки ишлар амалга оширила бошланди. Ана шундай ишлардан бири 1898 йилдаёқ Термиз шаҳри атрофидаги 10 минг десятина ерни Сурхон дарёсининг ирмоғи бўлган Қизилсув дарёси ёрдамида суғориш мақсадида муҳим ишлар амалга оширилди. Сув муаммоси туфайли аҳоли экинлари қисқартилди ҳамда 20та хўжаликлар бошқа жойларга кўчирилди [9:110].

Шу ўринда таъкидлаш керакки, Термиз ҳамда Паттакесар манзилгоҳлари асосан рус ҳарбий маъмурлари жойлашган манзилгоҳлар ҳисобланган. Шу сабабли 1897 йилда асосий сув таъминоти ҳисобланган Паттакесар ҳамда Саловат ариғини таъмирлаш ишларига жиддий эътибор қаратила бошланди 1898 йилга келиб бироз сув таъминоти яхшиланса-да, аммо бу ушбу ҳудудда жойлашган аҳоли хўжаликларининг барчасини қамраб олмас эди. Яъни, шуни алоҳида таъкидлаш керакки, Саловат ариғи асосан Сурхондарё суви билан таъминланган. Ариқларни тозалаш ишлари эса, ҳашарлар ёрдамида, яъни қўл кучи ёрдамида амалга оширилган [10:75]. Бундай ҳолатларда тозалаш ишлари аҳоли зиммасига оғир юк ҳисобланиб, буни доимий тарзда амалга ошириш имконияти мавжуд бўлмаган. Буларнинг барчаси албатта сув таъминоти масаласида катта муаммо ҳисобланган.

Термиз ҳамда Паттакесар қишлоқлари атрофини сув билан таъминлаш борасидаги ушбу тадбирлар барча аҳоли вакиллари қамраб олмас эди. Яъни бу ҳолатлар шу жиҳатлар билан изоҳланадики, ушбу ислохотлар авваламбор маъмурий марказларда истиқомат қилаётган аҳоли вакиллари, асосан рус ҳарбий аскарлари ҳамда уларнинг оила аъзолари манфаатларини таъминлашга ижтимоий турмуш тарзини яхшилашга қаратилаган. Воҳанинг чекка ҳудудларида эса бундай муаммолар ҳал этиш ишларига жиддий эътибор қаратилмаган.

Шунингдек, бу даврда Сурхон воҳаси ҳудуди жойлашган Шеробод беклигида ҳам сув таъминоти масаласида жиддий муаммоли ҳолатлар мавжуд бўлган. Жумладан, Шеробод беклиги ҳудудларида ҳам сув таъминотини яхшилаш борасида бир қатор тадбирлар амалга оширила бошлаган. Чор Россияси маъмурлари ҳамда маҳаллий ҳокимият вакиллари бу даврда сув таъминотини яхшилаш борасидаги тадбирларда маҳаллий аҳолининг қўл кучи ёрдамида амалга ошириш орқали янгидан-янги суғориш тармоқларини вужудга келтира бошлаган.

**НАТИЖАЛАР/РЕЗУЛЬТАТЫ / RESULTS).** Шеробод беклиги ҳудудига Сурхондарёдан сув чиқариш мақсадида 1906 йилда Бухоро амири вакили Боймурод қоровулбеги маҳаллий амлоқлик оқсоқоллари билан шартнома имзолайди. Шартномага мувофиқ, Жарқўрғон йўналишида бир минг беш таноб ерни ўзлаштириб сув чиқаришга келишилади. Ушбу келишув шартномасини Бухородаги Россия империясининг сиёсий бошқарма вакили билан Шеробод беги Мирза Салимбек ва қози Мулла Абдулла Хўжа имзолашади [11:248]. Шуниси диққатга сазоворки, 1908 йил қурилиши бошланган Занг канали лойиҳасини Эшонбек исми киши чизган. Эшонбек 55 – 60 километр узунликдаги ариқнинг йўлини от устида юриб кўрсатиб берган. Занг каналини қозишга бекнинг ўзи бош бўлган. Канал қозиш ҳашарида 4 мингдан ошиқ киши қатнашган. Жарқўрғон ариғи Занг қишлоғига кенгайтирилади. Занг каналининг қазилиши аҳолининг сув таъминотига бўлган талабларини таъминлаш билан бир қаторда, уларнинг ижтимоий турмуш даражасининг яхшиланишига



хизмат қилган. Жумладан, сувга бўлган эҳтиёжнинг қондирилиши билан бир қаторда қишлоқ хўжалиги, деҳқончилик экинларидан яхши ҳосил олиш имкониятлари яратилган. Буларнинг барчаси аста-секин аҳолининг ижтимоий фаоллигининг ошишига, яхши турмуш тарзининг таъминланишига хизмат қилган.

#### **ХУЛОСА/ЗАКЛЮЧЕНИЕ/CONCLUSION**

Хулоса ўрнида таъкидлаш керакки, бу даврда Россия империясининг мустамлакачилик сиёсати натижасида амалга оширилган кўчириш сиёсати албатта аҳолининг демографик таркибининг ортишига сабаб бўлган. Шунингдек, аҳолининг ижтимоий турмуш жараёнларини яхшилаш борасидаги чора-тадбирлар барча ҳудудларни камраб олмаган. Бу ислоҳатлар асосан маъмурий марказларда истикомат қилаётган аҳоли вакиллари, асосан рус ҳарбий аскарлари ҳамда уларнинг оила аъзолари ижтимоий турмуш тарзини яхшилашга қаратилган. Воҳанинг чекка ҳудудларида эса, аҳолининг демографик муаммоларига етарлича эътибор қаратилмаган.

#### **АДАБИЁТЛАР/ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА/REFERENCES:**

1. Холиқова Р.Э. XIX асрда Бухоро амирлиги // Жамият ва бошқарув. 2000, № 3. – Б.56.
2. Қобулов.Э. Россия-Бухоро шартномаси ва шарқий Бухоро бекликларидаги сиёсий ҳаёт. Турон тарихи. 1995 йил №1 (83). -Б 21

Туркистон Чор Россияси мустамлакачилиги даврида:Ўзбекистонинг янги тарихи. Т,1-Тошкент, 2000-Б.44.

3. Қобилов.Э.Сурхон воҳаси хўжалиги-Тошкент. Академнашр.2012.-Б 63.

4. Населенные пункты Бухарского эмирата. – Ташкент: Университет, 2001. – С.92.

5. Логофет Д.Н. Бухарское ханство под русским протекторатом России. Т. I. – СПб., 1911. – С 89.

6. Шодиев. Ж.М. Бухоро амирлиги давлатчилигининг ривожланиши. Ўқув қўлланма. – Тошкент: ТДЮИ нашриёти, 2010. – Б. 42.

7. Холмунинов, Хусан Эшмунинович. “Социально-культурные процессы в Сурхандарьинской области в начале XX века”. Бюллетень науки и практики 7.5 (2021): 521-526.

8. Қобилов.Э.Сурхон воҳаси хўжалиги-Тошкент. Академнашр.2012.-Б 82.

9. Kholmuminov, Husan Eshmuminovich, and Ozodbek Ziyodulla ugli Eshmuminov. “Migration processes of the population in uzbekistan (surkhandarya oasis over the years 1925-1941)”. World Bulletin of Social Sciences 4.11 (2021): 108-110.

10. Қобулов.Э. Россия империясининг Сурхон воҳаси суғориш тизимидаги тадбирлари. Ўзбекистонда ижтимоий-гуманитар фанларнинг муаммолари. Илмий-амалий мақолалар тўплами. VII жилд – Тошкент:, 2016. – Б 75.

11. ЎзР МА, 3-жамғарма, 1-рўйхат, 133-иш, 248-варақ.



## SURXONDARYO VILOYATIDA AHOLINING ISH BILAN BANDLIGINI TA'MINLASH MASALALARI

*Tursunov O'ktam Saypullayevich, Termiz davlat universiteti "Jahon tarixi" kafedrasida magistranti*

## ISSUES OF PROVIDING EMPLOYMENT OF POPULATION IN SURKHANDARYA REGION

*Tursunov Oktam Saypullayevich, graduate student of the Department of "World History" of Termiz State University*

## ВОПРОСЫ ОБЕСПЕЧЕНИЯ ЗАНЯТОСТЬЮ НАСЕЛЕНИЯ В СУРХАНДАРЬИНСКОЙ ОБЛАСТИ

*Турсунов Уктам Сайпуллаевич, аспирант кафедры «Всемирная история» Термезского государственного университета*



[https://orcid.org/  
0009-0004-4942-0601](https://orcid.org/0009-0004-4942-0601)

e-mail:  
[utursunov089@gmail.com](mailto:utursunov089@gmail.com)

**Annotatsiya:** Mustaqillik yillarida aholini ijtimoiy himoya qilishda davlatning o'rni va roli katta bo'lishi bilan birga, bu jarayonda nodavlat tashkilotlari, tadbirkor, ishbilarmonlarning roli ham kuchaya bordi. Ayniqsa, tadbirkorlik harakati kuchaya bordi. Pirovard natijada tadbirkor, ishbilarmonlarning aholini ijtimoiy muhofaza qilishdagi o'rni kengaya bordi. Maqolada Surxondaryo viloyatida ijtimoiy muhofaza tizimida tadbirkorlik faoliyati haqida so'z boradi.

**Kalit so'zlar:** ijtimoiy himoya, tadbirkorlik, ishbilarmonlar, Surxondaryo viloyati, bank kreditlari, F.J.Yormatov.

**Abstract:** In the years of independence, the role and role of the state in social protection of the population increased, as well as the role of non-governmental organizations, entrepreneurs, and businessmen in this process. In particular, the entrepreneurship movement grew stronger. As a result, the role of entrepreneurs and businessmen in social protection of the population increased. The article talks about entrepreneurship in the social protection system of Surkhandarya region.

**Key words:** social protection, entrepreneurship, businessmen, Surkhandarya region, bank loans, F.J. Yormatov.

**Аннотация:** В годы независимости возросла роль государства в социальной защите населения, а также роль в этом процессе неправительственных организаций, предпринимателей и бизнесменов. В частности, усилилось предпринимательское движение. В результате возросла роль предпринимателей и бизнесменов в социальной защите населения. В статье говорится о предпринимательстве в системе социальной защиты Сурхандарьинской области.

**Ключевые слова:** социальная защита, предпринимательство, бизнесмены, Сурхандарьинская область, банковские кредиты, Ф.Ж.Ёрматов.

**KIRISH.** Mustaqillik yillarida haqqoniy tarixni yaratish, sodir bo'lgan va bo'layotgan ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy voqea va hodisalarni xolisona o'rganish borasida ancha samarali ishlar amalga oshirildi. O'rganilishi, muhim xulosalar qilinishi lozim bo'lgan muhim muammolardan biri – aholini ijtimoiy himoyalash masalasidir.

**ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR.** Mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayotiga oid B.Rahimovning O'zbekistonning mustaqillik yillarida ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayoti (Surxondaryo viloyati misolida. 1991-2005 y.y.) nomli nomzodlik dissertatsiyasini e'tiborga olish lozim. Ushbu tadqiqotda tanlangan mavzu Surxondaryo viloyati

misolida o'rganilgan. Ayni paytda N.O'roqovanning O'zbekistonda mustaqillik davrida sanoat sohasidagi islohotlar va o'zgarishlar jarayoni (Janubiy viloyatlar misolida) nomli nomzodlik dissertatsiyasi to'g'risida ham xuddi shunday fikrni bildirish mumkin. Shuningdek, F.J.Yormatovning "O'zbekistonda aholini ijtimoiy himoyalash tizimi: holati, shakllanish jarayoni, rivojlanish istiqbollari (1991-2010 yillar. Janubiy viloyatlar misolida)" nomli nomzodlik dissertatsiyasi ham mavzuni o'rganishda muhim manba hisoblanadi.

**MUHOKAMA. Ijtimoiy himoya** – keng ma'noda mamlakat aholisini ijtimoiy va moddiy muhofaza qilinishini ta'minlaydigan va jamiyatda qaror topgan huquqiy, iqtisodiy, ijtimoiy chora-tadbirlar majmui; tor ma'noda — davlat va jamiyatning yoshi, salomatligi holati, ijtimoiy ahvoli, tirikchilik vositalari bilan yetarli ta'minlanmagani tufayli yordamga, ko'makka muhtoj fuqarolar to'g'risidagi g'amxo'rliqi.

**Tadbirkorlik** – keng ma'noda shaxsiy va ijtimoiy manfaatni qondirishga asoslangan aqliy va jismoniy faoliyatni bildiradi. U subyekt o'z oldiga qo'ygan maqsadga erishishiga yo'naltirilgan bo'lib, bu maqsadga uning bevosita qatnashuvi va xususiy omillari (mulki, jismoniy va aqliy qobiliyati, bilimi, tajribasi, ijtimoiy muhitdagi o'rni, bu o'ringa bog'liq imtiyozli huquqlari)dan foydalanish yo'li bilan erishiladi. Tor ma'noda tadbirkorlik faoliyati iqtisodiy hayotning barcha sohalarini – uy xo'jaligini boshqarishdan tortib ishlab chiqarishgacha, tovarlar sotish va xizmat ko'rsatish turlarigacha qamrab oladi.

Aholini ijtimoiy himoya qilishda tadbirkor, ishbiarmonlarning faolligini oshirish masalalariga hukumat darajasida katta ahamiyat berildi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1994-yil 23-avgustdagi "Kam ta'minlangan oilalarni himoyalashni kuchaytirishga oid tadbirlar to'g'risida"gi, 1996-yil 10-dekabrda "Bolali oilalarni ijtimoiy qo'llab-quvvatlashni kuchaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmonlari va shular asosida qabul qilingan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1994-yil 24-avgustdagi "Kam ta'minlangan oilalarni ijtimoiy himoyalashni kuchaytirishga oid tadbirlar to'g'risida"gi va 1996-yil 10-dekabrda "Bolali oilalarni ijtimoiy qo'llab-quvvatlashni kuchaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarorlarida fuqarolarning muayyan

tabaqalariga ijtimoiy yordam ko'rsatishda tadbirkorlar alohida o'rin egallashi mumkinligi ta'kidlangan [3].

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish evaziga aholini ijtimoiy himoyalash bo'yicha Surxondaryo viloyatida ham ancha ijobiy ishlar amalga oshirildi. Viloyatda mikrofirmalar tashkil etilishi ayniqsa tez rivoj topdi. Mikrofirmalar kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning bir ko'inishi bo'lib, ular ishlab chiqarish va xizmatlar sohasining turli yo'nalishlarini o'z ichiga oldi. Odatda mikrofirmalar qisqa muddatda tez faoliyat ko'rsatuvchi, harakatchan ishlab chiqarish sohasi sifatida aholini ijtimoiy himoyalash, ayniqsa fuqarolarning ish bilan bandlik muammosini tezlikda hal etishda muhim omil edi [1].

Agar 2003-yilda Surxondaryo viloyatida jami 11533 ta mikrofirmalar faoliyat ko'rsatgan bo'lsa, bu raqam 2004-yilda 13432 taga, 2005-yilda esa 15615 taga yetdi. Shuningdek, viloyatda kichik korxonalar soni ham yildan yilga ortib bordi. 2003-yilda viloyatda bunday korxonalar soni 1944 ta bo'lgan bo'lsa, 2004-yilda ular soni 1224 taga, 2005-yilda esa 1327 taga yetdi. Termiz shahri, Jarqo'rg'on, Uzun, Sherobod tumanlarida bu raqam ancha yuqori bo'ldi. Ayni paytda bunday ijobiy ishlar barcha tumanlarda ham bir xil bo'lmadi. Masalan, Bandixon tumanida 2003-yilda jami 71 ta kichik korxonalar faoliyat ko'rsatgan bo'lsa, bu raqam 2004-yilda 37 taga, 2005-yilda esa 22 taga tushib qoldi. Xuddi shunday holni Muzrabot, Sariosiyo, Qiziriq tumanlarida ham ko'rish mumkin edi [3].

Surxondaryo viloyatida aholini ijtimoiy himoyalash maqsadida xayriya tadbirlarini o'tkazishga ham alohida e'tibor berilgan. Xayriya tadbirlari asosan homiylik, tadbirkor va ishbiarmonlar tomonidan amalga oshirildi. Bunday tadbirlardan to'plangan mablag' aholining kam ta'minlangan qismi, ish bilan band bo'lmaganlar, yolg'iz fuqarolarga taqsimlab berilgan. Jumladan, 2003-yili viloyat bo'yicha xayriya tadbirlaridan 9746,7 ming so'm, 2004-yili 7637,9 ming so'm, 2005-yili 10851,5 ming so'm, 2006-yili 422998,4 ming so'm to'plandi va ular yuqorida nomlari keltirilgan toifadagi aholi o'rtasida taqsimlab borilgan [4].

Xususiy tadbirkorlik, kichik biznesni rivojlantirish asosida 2007-yil 1-yanvar holatiga ko'ra Surxondaryo viloyatida 72732 nafar fuqaro mehnat daftarchasi olish va yuritishga ariza berdi. Shu asosda 39909 kishiga yangi mehnat daftarchasi berildi.

Yuqoridagi hujjatlar bo'yicha ish bilan ta'minlashga ko'maklashish davlat jamg'armasi mablag'lari hisobiga 400 mln so'm kam ta'minlangan oilalarga, asosan qoramol sotib olish uchun, imtiyozli kreditlar berildi. Umuman viloyat bo'yicha 2070 kam ta'minlangan va ko'p bolali oilalarga bepul sigirlar berildi [5].

**NATIJARLAR.** O'zbekiston Respublikasida faoliyat ko'rsatayotgan ko'plab banklar ham aholini ijtimoiy himoyalash, mushkulini oson qilish, kam ta'minlangan oilalarni qo'llab-quvvatlash borasida katta ishlarni amalga oshirdi. Birgina aksiyadorlik tijorat "Hamkorbank"ning Termiz filiali tomonidan 2007-yilda tadbirkorlar va ishbilarmonlarga 5,4 mlrd so'm kreditlar berdi. Buning 1,8 mlrd so'mini iste'mol kreditlari tashkil etdi [6]. 2007-yili "Paxta Bank" ning viloyat boshqarmasi 700 dan ortiq yosh oilalarga qariyb 1 mlrd so'mlik mikro, iste'mol va ipoteka kreditlari ajratdi.

Mamlakat Prezidentining "Shaxsiy yordamchi, dehqon va fermer xo'jaliklarida chorva mollarini ko'paytirishni rag'batlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi (2006-yil 23-mart) Qarori bo'yicha 1 milliard 744 million 200 ming so'm kredit ajratildi. Natijada 1769 ta kam ta'minlangan oila 3184 bosh qoramol sotib olib, sharoitini yaxshilab oldi. "Paxta Bank"ning viloyat boshqarmasi Sherobod tumanidagi "Agroxizmat Shingdon" O'zbekiston-Koreya qo'shma korxonasi o'simlik yog'i ishlab chiqarish loyihasini qo'llab-quvvatladi. Sho'rchidagi "Mirzo Eson" xususiy firmasi bank krediti hisobidan Xitoydan shifer ishlab chiqarish texnologik liniyalarini sotib oldi, natijada 120 kishi ish bilan ta'minlandi [7].

Viloyatda tadbirkor ayollarga, xotin-qizlar mehnatidan foydalaniladigan va ayollar boshqaradigan korxonalarga, shuningdek, yakka tartibda faoliyat yuritadigan 5 mingga yaqin tadbirkor xotin-qizlarga 8,8 milliard so'm miqdorida kreditlar ajratildi. Ajratilgan kreditlar hisobiga 10 ming 483 nafarga yaqin ayol ish bilan ta'minlandi. Xotin-qizlar uchun maqbul ish o'rinlari yaratishda ularni ish bilan ta'minlashga ko'maklashish Davlat jamg'armasi hisobidan katta hajmdagi kreditlar ajratila

boshlanganligi ham ijobiy ahamiyat kasb etdi. 2008-yilning birinchi yarim yilligida viloyatda chorva sohasini rivojlantirishga hissa qo'shishga istagi bo'lgan 45 nafar ayolga 49,5 mln so'mlik kredit berildi. Umuman, ushbu yarim yil davomida 908 nafar tadbirkor ayolga 3 milliard 46 million 800 ming so'm miqdordagi mablag' tijorat banklari tomonidan ajratildi[8].

**XULOSA.** Shunday qilib, o'rganilgan davrda O'zbekistonda olib borilgan iqtisodiy va ijtimoiy siyosat tufayli tadbirkorlik va ishbilarmonlik harakati ancha rivoj topdi. Mazkur harakat aholining kam ta'minlangan qismini ijtimoiy himoyalashda ma'lum ahamiyatga ega bo'ldi. Mamlakat hukumati tadbirkorlikning erkin faoliyat ko'rsatishiga kengroq imkoniyat yaratib berishga harakat qildi. Uning qonunchilik va huquqiy bazasi rivojlana boshladi.

Tadbirkor, ishbilarmonlarning aholini ijtimoiy himoya qilishda milliy qadriyatlar, milliy mentalitetni e'tiborga olishi kuchaydi. Muhtojlarga yordam, insonparvarlik, saxovatparvarlik, o'zganing qiyinchiligiga sherik bo'lish, uni moddiy va ma'naviy jihatdan qo'llab-quvvatlash kabi xislatlar tadbirkorlar, homiylarning eng muhim sifatleri shaklida paydo bo'la boshladi.

## **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**

### **RO'YXATI:**

1. Yormatov F.J. "O'zbekistonda aholini ijtimoiy himoyalash tizimi: holati, shakllanish jarayoni, rivojlanish istiqbollari (1991-2010 yillar. Janubiy viloyatlar misolida)". Tarix fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. Toshkent. 2010. 172-bet.
2. O'zbekiston Respublikasi "Mahalla" jamg'armasi Surxondaryo viloyat bo'limining IV konferensiyasi hujjatlari to'plami.- Termiz, 2007. - B. 42.
3. O'zR MA. M-15-fond, 1-ro'yxat, 1045-ish, 345-varaq.
4. Surxondaryo viloyati. Statistika ma'lumotlar. 2005.- B.63.
5. Chag'oniyon. 2007-yil 6-aprel.
6. Chag'oniyon. 2008-yil 29-fevral.
7. Ishonch. 2008-yil 15-mart.
8. Xalq so'zi. 2008-yil 17-oktyabr.





## KLASSIK NEMIS FALSAFASINING YO'NALISHLARI VA BOSQICHLARI


*Qunishev Ulug'bek Ulashevich*  
*Samarqand davlat chet tillar instituti tadqiqotchisi*

## НАПРАВЛЕНИЯ И ЭТАПЫ КЛАССИЧЕСКОЙ НЕМЕЦКОЙ ФИЛОСОФИИ

*Кунисhev Улузбек Улашевич*  
*научный сотрудник Самаркандского государственного института*  
*иностранных языков*

## DIRECTIONS AND STAGES OF CLASSICAL GERMAN PHILOSOPHY

*Kunishev Ulugbek Ulashevich*  
*Researcher of the Samarkand State Institute of Foreign Languages*



[https://orcid.org/  
0000-0011-6000-105x](https://orcid.org/0000-0011-6000-105x)

E-mail:  
[ulug'bek00@gmail.com](mailto:ulug'bek00@gmail.com)

**Annotatsiya:** Maqolada falsafiy tafakkur rivojiga hissa qo'shgan nemis klassik falsafasining namoyondalarini jamiyat taraqqiyoti bilan bog'liq g'oyalari tadqiq etilgan. Shuningdek, klassik nemis falsafasining yo'nalishlari va bosqichlari haqida ma'lumotlar bayon etilgan.

**Kalit so'zlar:** nemis klassik falsafasi, inson, axloqiy tamoyil, demokratiya, qonun, Kant, Gegel, Shelling, Fixte, madaniyat.

**Аннотация:** В статье рассматриваются идеи представителей немецкой классической философии, которые способствовали развитию философского мышления, связанного с развитием общества. Также представлены сведения о направлениях и этапах классической немецкой философии.

**Ключевые слова:** немецкая классическая философия, человек, моральный принцип, демократия, право, Кант, Гегель, Шеллинг, Фихте, культура.

**Abstract:** The article examines the ideas of representatives of German classical philosophy, who contributed to the development of philosophical thinking, related to the development of society. Information about the directions and stages of classical German philosophy is also presented.

**Key words:** German classical philosophy, man, moral principle, democracy, law, Kant, Hegel, Schelling, Fichte, culture.

**Kirish.** XVIII-asr oxiri va XIX-asr boshlaridagi davrda Germaniyada G'arbiy Evropa mamlakatlariga nisbatan iqtisodiy va siyosiy jihatdan birmuncha tang holat hukm suradi. Ammo fransuz inqilobining kuchli ta'siri ostida shunday falsafiy ta'limot vujudga keldiki, uning shakllanishida tabiatshunoslik va ijtimoiy fanlarning rivoji asosiy o'rinni egalladi. Tabiiy fanlar yutuqlarga erishdi, tabiatni o'rganishga katta e'tibor berila boshlanadi, yangi ixtirolar vujudga keldi. Bu ixtiro

va yutuklar hamda insoniyat jamiyatining rivoji haqidagi nazariyalar borliqni o'rganishning uslubi va nazariyasi bo'lib xizmat qiladigan rivojlanish haqidagi g'oyalarni ishlab chiqishni tarixiy bir zaruriyat qilib qo'yadi. Mana shunday tarixiy sharoitlar taqozosi bilan XVIII asrning II yarmi va XIX asr boshlarida nemis falsafasi vujudga keladi.

Nemis falsafasi – nemischa falsafaning umumlashtirilgan nomi, shuningdek nemis mutafakkirlari falsafasi. [1].



**Adabiyotlar tahlili.** Nemis klassik falsafasining asosiy vakillari I.Kant, I.G.Fixte, F.R. Shelling, G.F.Hegel va L.Feyerbaxlardir. Ular falsafadagi turli oqimlar ga mansubdirlar. Falsafiy fikr taraqqiyotiga katta hissa qo'shgan nemis klassik falsafasining vakillari I. Kant, G.Hegel va L.Feyerbax hisoblanadi.

Nemis falsafasining yirik nomoyondalaridan hisoblangan, nemis falsafasi asoschilaridan biri Immanuil Kant faqat mashhur faylasufgina bo'lib qolmasdan, yirik tabiatshunos olim hamdir. Kant tomonidan yaratilgan gaz holatidagi ulkan tumanlikdan Quyosh sistemasining kelib chiqishi haqidagi nazariya hozirgi davrda ham astronomiya sohasidagi eng muhim nazariyalardan biridir. Shuningdek Kantning inson irqlarining tabiiy kelib chiqishi haqidagi nazariyasi ham muhim ahamiyatga ega. Kant ta'limoti bo'yicha, falsafaning eng muhim muammolari bo'lmish - borliq, axloq masalalarini tahlil qilish uchun, eng avvalo, inson bilimining imkoniyatlari va chegaralarini aniqlash zarur. Bizning bilimlarimiz narsaning hodisasini, ya'ni bizga qanday holatda namoyon bo'la olishini bila oladi. Ular bizning tajribamiz mazmunini tashkil qiladi. [2].

Kant ta'limoticha, biz dunyoni qanday mavjud bo'lsa, shundayligicha bila olmaymiz, balki uning ifodalanishini bilamiz xolos. Kishilar «narsa o'zida»ning mohiyatini bila olmaydi, ular hodisalarnigina biladi. Kant fikricha, hodisalar dunyosi tartibsiz, u hech qanday qonuniyat vazaruriyatga bo'ysunmaydi. Inson bilish jarayonida hodisalar dunyosiga tartib kiritadi, uni ma'lum birvaqt va makon bilan bog'lab o'rganadi. Kantning falsafadagi xizmati shundaki, u dialektik yuyalar masalasini ko'ndalang qilib qo'ydi, oqilona fikrga dialektika xos ekanligini yaxshi tushundi

**Natija va tahlillar.** Adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, umuman olganda, XIX asr nemis falsafasining to'rt bosqichini farqlash mumkin:

-Klassik nemis falsafasi (XVIII asr oxiri - XIX asrning birinchi yarmi);

-Materializm (XIX asrning o'rtalari va ikkinchi yarmi);

-Irratsionalizm (XIX asrning ikkinchi yarmi va oxiri);

-Hayot falsafasi" (XIX asrning ikkinchi yarmi va oxiri).

Klassik nemis falsafasining o'zida uch xil falsafiy yo'nalishlari mavjud.

-Obyektiv idealizm (Kant, Shelling, Gegel);

-Subyektiv idealizm (Fixte);

-Materializm (Feyerbax).

Klassik nemis falsafasi taraqqiyotida sodir bo'ladigan uchta asosiy yo'nalishlarni farqlash mumkin:

Birinchi, uyg'onish davrining yuzaga kelishi bilan ma'naviy inqilob sodir bo'ldi, odamlarning fikrlash tarzini o'zgartirdi. Natijada, fransuz inqilobi atrofida mamlakatlar nafaqat mafkuraviy, balki haqiqiy ma'noda ham 1792-1815 yillar o'rtasida bo'lib o'tgan urushlar bilan esda qoldi. Shundan so'ng, tinchlik davrida feodal monarxiya tuzumlari yana kuchayib bordi. Natijada bir qator burjua-demokratik inqiloblar sodir bo'lganligi aniqlandi. Hatto ba'zi mamlakatlarda ham inqilobiy proletariatning nutqlari ham to'xtadi. Fransuz inqilobi g'oyalarini amalda qo'llash mumkinligi haqidagi illyuziyani yaratdi. Bu holat shunday vaziyatni yaratdiki, natijada u o'z goyalarini ushbu asoslarga asoslanib qayta ko'rib chiqishga majbur bo'ldilar.

Ikkinchidan, XVIII -asrning ikkinchi yarmida erkin fikrlash va din o'rtasida kurash keskinlashdi. Shunday qilib, Buyuk Fransuz inqilobidan keyin din o'rnini qaytarib olishga urindi, biroq keyin muvaffaqiyatsizlikka uchradi.

Nihoyat, uchinchi, dunyoni tushunishdagi tub o'zgarish sodir bo'ldi, fan, asosan, tabiatshunoslik fanlari rivojlana boshladi. Yangi davr boshida kimyo va fizikaning yangi bo'limlari, elektromagnetizmni o'rganuvchi ilmiy yo'nalishlar fanga kirib keldi. [4].

Klassik nemis falsafasi o'z tabiatiga ko'ra inqilobiy, ijtimoiy jarayon edi. U evolyutsiyalarning nazariy asosida siyosiy inqilobdan oldin edi. Klassik nemis falsafasi axloqiy shakllanishlarning butun turkumidir hisoblanib, falsafa g'oyalari tarixida betakror rolini tushunishda farqlanadi. Klassik. nemis falsafasi vakillari falsafani madaniyatning tanqidiy ruhi, madaniyatning "ruhi" deb atashgan.

Ikkinchidan, bu nafaqat insoniyat tarixi, balki inson tabiatini keng o'rganishdir. Kantda inson axloqiy mavjudot sifatida, Fixteda ong va inson faoliyati, Shellingda o'z-o'zini anglash, ob'ektiv va

sub'ektiv birligi sifatida, Gegelda bo'lgani kabi, Feyerbaxda ham o'z-o'zini anglash va individual ongning turli xil munosabatlari haqidagi g'oyalar mavjud.

Uchinchidan, shu falsafa vakillari, falsafiy fanlar kategoriyalari va g'oyalarning o'ziga xos tizimi sifatida qaraladi. Masalan, I. Kant falsafiy tushunish uchun gnoseologiya va etika, falsafa va ontologiya uchun Shelling; N.Fixte "fan ta'limoti", Gegel tabiat falsafasi, mantiq, tarix falsafasi, falsafa, tarix, huquq falsafasi, axloq falsafasi, diniy falsafa, davlat falsafasi, individual ongning rivojlanish falsafasi va L. Feyerbax ontologiyasi, gnoseologiya, etika, din tarixi va falsafasini o'rgangan.

To'rtinchidan, mumtoz nemis falsafasi dialektikaning yaxlit konsepsiyasini ishlab chiqildi. Kantning inson bilish tuyg'ulari, aql va aql dialektikasi bu hudud va imkoniyatlar dialektikasi. Fixte dialektikasi "men"ning yaratuvchisidir. U qarama-qarshilik sifatida "men" va "men" ning aralash ta'siridan insonning o'z-o'zini anglashi sodir bo'ladi. Buyuk dialektik Gegel idealistik dialektikaning keng va har tomonlama tizimini ishlab chiqadi, butun tabiiy, tarixiy va ma'naviy dunyoni yaratgan va birinchi marta uzluksiz o'zgarish va rivojlanishda, qarama-qarshiliklarda uzluksizlik, miqdor va sifat o'zgarishlari, uzluksizligini har tomonlama ko'rib chiqadi va tahlil qildi. Feyerbax o'z tadqiqotlarida dialektikadan, voqeadan qochmadi va jarayonlar qarama-qarshiliklarning birligi sifatida (tana va ruh, inson ongi va moddiy tabiat) ko'rib chiqadi. Bu jamoatchilik va shaxs o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni ochib berishga harakat qiladi. Uning ustoz Hegelning Feyerbax falsafa tizimi idealistik dialektikani tanqid qilishda esa

dialektikaga mutlaqo e'tibor bermaslik jihatlarini tahlil qiladi.

Nihoyat, insonparvarlik muammolarini ishlab chiqishda klassik nemis falsafasi falsafaning rolini qayd etib, inson faoliyatini o'rganishga harakat qilgan. [3].

**Xulosa** sifatida aytish mumkinki, nemis falsafasi ta'limotning muhim yutug'i shundaki, u ma'rifatli insoniyatga umuminsoniy kategoriyalarda fikr yuritish imkonini berdi. Falsafa fani uchun kognitiv va ijodiy faoliyatning rivojlangan g'oyalari, qarama-qarshiliklar yaratish orqali rivojlanish va ularni hal qilish faoliyati muhim yutuqlarga aylandi. Butun dunyoda asos sifatida qabul qilingan keng qamrovli kategorik va kontseptual apparat ishlab chiqilgan. Bizning zamonamizning ilmiy faoliyatida faol foydalaniladi. Asosiy meros - bu muomalaga kiritilgan tafakkurning tarixiyliigi bo'lib, u odamlar, alohida ob'ektlar va butun madaniyat olamida sodir bo'ladigan vaqt o'zgarishlarini o'rganadi. O'tmishni takrorlash va hozirgi kunni mantiqiy tushunish orqali kelajakni loyihalash imkoniyatida ushbu usuldan foydalaniladi. Shuning uchun nemis idealizmi klassik falsafa deb ataladi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Фалсафа: қомусий луғат. –Тошкент: Шарқ, 2004.
2. Каримов И., Рустамова М. Фалсафа фани тарихи ва назарияси. –Тошкент: ТДПУ нашриёти, 2007. 102-бет
3. Abbasova M. Siyasi milli şüur: quruluşu, mærhælælæri væ inkişafı// Tarix væ onun problemlæri. № 4. 2009. sæh. 332-334
4. [https://uz-m-wikipedia-org.translate.google/wiki/Nemis\\_falsafasi](https://uz-m-wikipedia-org.translate.google/wiki/Nemis_falsafasi)



## XOTIN-QIZLARNING HUQUQIY ONGI VA MADANIYATINI RIVOJLANTIRISHNING IJTIMOY- FALSAFIY MEKANIZMLARI

*Hakimova Dilnoza Yusufxonovna*

*Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti doktoranti*

## СОЦИАЛЬНО-ФИЛОСОФСКИЕ МЕХАНИЗМЫ РАЗВИТИЯ ЖЕНСКОГО ПРАВОВОГО СОЗНАНИЯ И КУЛЬТУРЫ

*Хакимова Дильноза Юсуфхановна*

*Докторант Самаркандского государственного университета  
имени Шаофа Рашидова*

## SOCIO-PHILOSOPHICAL MECHANISMS OF DEVELOPMENT OF WOMEN'S LEGAL AWARENESS AND CULTURE

*Hakimova Dilnoza Yusufkhanovna*

*Doctoral student of Samarkand State University named after Sharof  
Rashidov*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada xotin-qizlarning huquqiy ongi va madaniyatini rivojlantirishning ijtimoiy-falsafiy jihatlari tahlil qilingan. Shuningdek, O'zbekistonda ayollar huquqiy ongi va madaniyatini yuksaltirishga qaratilgan chora tadbir va dasturlarning mohiyati, ularning natijalari va samaradorligi yoritib berilgan.

**Kalit so'zlar:** huquqiy ong, gender tenglik, ayllar huquqlari, ijtimoiy omillar, huquqiy madaniyat, xotin-qizlar huquqlari.

**Аннотация:** В данной статье анализируются социально-философские аспекты развития женского правосознания и культуры. Также освещен характер мер и программ, направленных на повышение правового сознания и культуры женщин в Узбекистане, их результаты и эффективность.

**Ключевые слова:** правосознание, гендерное равенство, права женщин, социальные факторы, правовая культура, права женщин.

**Abstract:** This article analyzes the socio-philosophical aspects of the development of women's legal consciousness and culture. Also, the nature of measures and programs aimed at raising the legal consciousness and culture of women in Uzbekistan, their results and efficiency are highlighted.

**Key words:** legal awareness, gender equality, women's rights, social factors, legal culture, women's rights.

**Kirish.** Sayyoramiz aholisining yarmini ayollar, qizlar tashkil etadi, bu insoniyat salohiyatining yarmi, degani. Shu nuqtai-nazardan gender tenglik insonning eng muhim huquqlaridan biri bo'lib, jamiyatda tinchlik va hamjihatlikni ta'minlashda, barqaror rivojlanishga asoslangan holda inson

salohiyatini boricha amalga oshirishda muhim o'rin tutadi.

Keyingi yillarda demokratik huquqiy davlat qurish tamoyillari, bu tamoyillarni amalga oshirish maqsadida qator chora tadbirlar izchil amalga oshirilmoqda: fuqarolik jamiyatini barpo etish, aholi o'rtasida huquqiy ong va huquqiy madaniyatni



<https://orcid.org/>

[0008-0010-6030-1053](https://orcid.org/0008-0010-6030-1053)

e-mail:

[dilnoza@gmail.com](mailto:dilnoza@gmail.com)

rivojlantirish, fuqarolarni manfaatlarini himoya qilish, jamiyatda gender tenglik tamoyilini ta'minlash shular jumlasidan. Shunday bo'lsada, hozirgi kunda jamiyatimizda yechimini topilishi kutilayotgan ba'zi muammolar uchraydi. Shulardan biri sifatida xotin-qizlarni huquqiy savodxonligi oshirish masalasidir. Jamiyatda xotin-qizlarni sha'ni, qadr-qimmatini kamsitilishi, huquqlari cheklanishini oldini olish, ular orasida huquqiy savodxonlikni rivojlantirish borasida qator vazifalar turibdi. Bu borasida qator hujjatlar qabul qilinishi bilan bir qatorda, ularni amaliyotda tatbiq etishni ta'minlash maqsadida mamlakatda turli huquqiy institutlar tashkil etilmoqda, ammo yillar davomida odat bo'lib kelgan bu kabi muammolarning yechimini jamiyatni tashkil etilishining asosiy bo'g'ini hisoblangan oiladan boshlash foydadan holi bo'lmas edi.

O'zbekistonda mustaqillikning ilk yillaridan boshlab oila institutini rivojlantirishga, xotin-qizlarning huquqiy madaniyatini oshirish bilan bog'liq islohotlar ijrosiga davlat miqyosida katta e'tibor qaratilmoqda. Jamiyatimizning turli sohalarida ularning faol ishtirok etishlari uchun barcha sharoitlar yaratilmoqda. Xotin-qizlarning manfaatlarini himoya qilish, ijtimoiy qo'llab-quvvatlash, ularning jamiyatdagi mavqeyini yanada mustahkamlash, bandligini ta'minlash, kambag'allikning oldini olish, davlat va jamiyat taraqqiyotida xotin-qizlarning faolligini oshirish, ularning bilim olishlari, kasb egallashlari uchun keng imkoniyatlar yaratish, ularning turli sohalarida qobiliyat va imkoniyatlarini ro'yobga chiqarishi uchun shart-sharoitlar yaratish, davlat va jamiyat taraqqiyotida ijtimoiy faolligini oshirish, gender tengligini ta'minlash kabi qator masalalarga oid 100 ga yaqin huquqiy-me'yoriy hujjatlar qabul qilindi.

**Adabiyotlar tahlili.** Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son Farmonida xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash, ularning jamiyat hayotidagi faol ishtirokini ta'minlash uchun quyidagi 7 ta ustuvor yo'nalish belgilangan:

1. Jamiyatda xotin-qizlarga ustidan tazyiq va zo'ravonlikka nisbatan murosasizlik muhitini yaratish, xotin-qizlarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini ta'minlash.

2. Gender tenglikni ta'minlash siyosatini davom ettirish, xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish, ularni qo'llab-quvvatlashga doir islohotlarni amalga oshirish.

3. Xotin-qizlarning ta'lim va kasbiy ko'nikma olishlari, munosib ish topishlariga har tomonlama ko'maklashish, tadbirkorligini qo'llab-quvvatlash, iqtidorli yosh xotin-qizlarni aniqlash va ularning qobiliyatlarini to'g'ri yo'naltirish.

4. Hududlarda, ayniqsa, qishloqlarda xotin-qizlarga ko'rsatiladigan tibbiy-ijtimoiy xizmatlar sifatini, ular o'rtasida sog'lom turmush tarzini ta'minlash borasidagi ishlar samaradorligini oshirish.

5. Turarjoyga muhtoj xotin-qizlarni uy-joy bilan ta'minlash, turmush va mehnat sharoitlarini yaxshilash, daromadlarini ko'paytirish borasida tizimli chora-tadbirlarni belgilash.

6. Og'ir ijtimoiy ahvolga tushib qolgan xotin-qizlarga ijtimoiy-huquqiy, psixologik yordam ko'rsatish, ularni manzilli qo'llab-quvvatlash.

7. "Ayollar daftari" bilan manzilli ishlash, mutasaddi tashkilotlar tomonidan xotin-qizlarning muammolari o'z vaqtida bartaraf etilishi ustidan jamoatchilik nazoratini amalga oshirish. [1].

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 1-martdagi "Oila va xotin-qizlar bilan ishlash, mahalla va nuroniylarni qo'llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 81-son Farmoni qabul qilindi. Mazkur Farmonda oila institutini mustahkamlash va xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash bo'yicha davlat siyosatining asosiy yo'nalishlari etib quyidagilar belgilandi:

- xotin-qizlarning ta'lim va kasbiy ko'nikmalar olishlari, munosib ish topishlariga har tomonlama ko'maklashish, tadbirkorligini qo'llab-quvvatlash, iqtidorli yosh xotin-qizlarni aniqlash va ularning qobiliyatlarini to'g'ri yo'naltirish;

- gender tenglikni ta'minlash siyosatini davom ettirish, xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish, ularni qo'llab-quvvatlashga doir islohotlarni amalga oshirish;

- hududlarda, ayniqsa, qishloqlarda xotin-qizlarga ko'rsatiladigan tibbiy-ijtimoiy xizmatlar sifatini, ular o'rtasida sog'lom turmush tarzini ta'minlash borasidagi ishlar samaradorligini oshirish;

- turar joyga muhtoj xotin-qizlarni uy-joy bilan ta'minlash, turmush va mehnat sharoitlarini



yaxshilash, daromadlarini ko'paytirish borasida tizimli chora-tadbirlarni belgilash;

- og'ir ijtimoiy ahvolga tushib qolgan xotin-qizlarga ijtimoiy-huquqiy, psixologik yordam ko'rsatish, ularni "Ayollar daftari" orqali manzilli qo'llab-quvvatlash;

- jamiyatda xotin-qizlar ustidan tazyiq va zo'ravonlikka nisbatan murosasizlik muhitini yaratish, xotin-qizlarning huquq va qonuniy manfaatlarini ta'minlash;

- oilaning tarbiyaviy-ta'limiy salohiyatini mustahkamlash, jamiyatda oilaviy qadriyatlarni saqlash, oilalarda ma'naviy-axloqiy muhitni yaxshilash va ularning farovonlik darajasini oshirish. [2].

**Natija va tahlillar.** Demak, mazkur ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki, xotin-qizlarni huquqiy madaniyatni yuksaltirish, ularni davlat organlarida faoliyat olib borish erkinliklarini yaratish, ayollarning oiladagi o'rini kuchaytirish, jamiyatimizdagi gender tenglik masalasini ta'minlash bo'yicha keng ko'lamli ishlar amalga oshirilmoqda.

Bu holatni amalga oshirish ayollarning o'z kuchi va imkoniyatlariga ishonchini oshirish bilan birga jamiyatning barqaror taraqqiyotini ta'minlashda, ijtimoiy hayotning barcha jabhalarida faol ishtirok etishini ta'minlashga imkoniyat yaratadi. Ma'lumki, shaxsning ijtimoiy va psixologik fazilatlarini ijtimoiy munosabatlar doirasida shakllanadi. [3]. Har tomonlama chuqur bilimga ega bo'lish ayollar uchun nashr etilgan turli ma'lumotlarni o'zlashtirishga, zaruriy amaliy malaka hosil qilishga, ilg'or texnologiyalarni o'zlashtirishga yordam beradi. O'z navbatida ayollarning bunday imkoniyatlarga ega bo'lishi ularning hayotini yaxshilaydi. Shuning uchun ham investitsiyalarni ayollarning ma'lumot olishi va bilimining mukammallashtirishga sarflash maqsadga muvofiqdir, deb topildi. Ayollarning bilim olish huquqi insonning asosiy huquqlaridan va eng muhimi, tenglik, taraqqiyot, tinchlik kabi maqsadlarga erishish vositalaridan biridir.

Fan-texnika taraqqiyotining hozirgi sur'atlari shu qadar ildamki, muttasil bilim olish muammosini yuzaga keltirmoqda. Kamsitilishlarga yo'l qo'ymay bilim berish nafaqat qizlarga, balki o'g'il bolalarga ham foyda keltiradi va shu bilan pirovardida erkaklar va ayollar orasida teng huquqli munosabatlarni o'rnatishga ko'maklashadi. Bilim olishda tenglik va

uni olish imkoni ko'p sonli ayollar hukumat islohotlarining faol ishtirokchilariga aylanishlari uchun zarurdir.

Demak, O'zbekistonda xotin-qizlarning huquqiy ongi va madaniyatini rivojlantirish jamiyatdagi katta ahamiyatga ega bo'lgan masalalardan biridir. Bu jarayon jamiyatimizda xotin-qizlarning huquqiy ongini himoya qilish, ularda huquqiy madaniyatni rivojlantirish mexanizmlari mavjud. Xotin-qizlar huquqlari [fuqaroligi](#), yoshi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e'tiqodi, shaxsiy va ijtimoiy mavqeyidan qat'i nazar, har bir [xotin-qizning](#) ajralmas [huquqlaridir](#). [4]. Misol uchun, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va boshqa qonunlar xotin-qizlarning huquqlarini himoya qilishga oid asosiy hujjatlardir. Shuningdek, Xotin-qizlarning huquqlari va erkinliklarini himoya qilishni ta'minlovchi qonunlar, qarorlar va dasturlar ishlab chiqilgan. Bu dasturlar xotin-qizlarning huquqlarini himoya qilish va ularning o'zaro munosabatlarni rivojlantirishga yordam beradi. Ularning amalga oshirilishi, xotin-qizlarning jamiyatda o'z o'rniga ega bo'lishiga yordam beradi.

**Xulosa.** Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, yuqorida belgilangan vazifalarni amalga oshirishda e'tiborsizlik qilib bo'lmaydi. Mazkur masalalarga samarali yechim sifatida quyidagilarga e'tibor berish zarur.

Birinchidan qizlarimiz tarbiyasi, ularni mustaqil hayotga tayyorlash, zamonaviy bilim va hunarlarni egallashi, ish joyiga ega bo'lishi, jamiyatda munosib o'rini topishiga alohida ahamiyat berish zarur;

Ikkinchidan, bog'cha, maktab, oily ta'limda xotin-qizlarimiz qadr-qimmatini, sha'nini ulug'ovchi tadbirlar, materiallar orqali ayollarning jamiyat rivojidagi hissasini yetkazish;

Uchinchidan, umumta'lim maktablarida boshlang'ich ta'lim tizimidan boshlab o'quvchilarning yosh xususiyatlarini hisobga olgan holda, huquqiy ong qonun va huquqiy madaniyatni shakllantirishga qaratilgan darslar tashkil qilish, yoshlarning huquqiy bilim va savodxonlik darajasini yuksaltirib borish;

To'rtinchidan, ayollarni davlat va jamiyat boshqaruvida erkaklar bilan teng asnoda ish o'rinlari, mehnat sharoitiga erishish bo'yicha ishlab chiqilgan dasturlarini keng jamoatchilikka yetkazish.

Beshinchidan, shu g'oya mujassamlashgan materiallarni OAV vositalari bilan birgalikdagi hamkorlik orqali keng ommaga tatbiq etish.

Xotin-qizlarni huquqiy savodxonligini, huquqiy ong va huquqiy madaniyatini oshirish asosiy jarayon hisoblanadi. Shu maqsadda xotin-qizlarning huquqiy ongi, huquqiy madaniyati, huquqiy savodxonligini yanada yuksaltirish asosiy maqsad va muddaolardan biri hisoblanadi. Jamiyatda o'z haq-huquqini biladigan va qonun qoidalariga og'ishmay amal qiladigan fuqarolar huquqiy davlatning poydevoridir.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “2022–2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг

тараққиёт стратегияси тўғрисида”ги 2022 йил 28 январдаги ПФ-60- сон Фармони.

2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Оила ва хотин-қизлар билан ишлаш, маҳалла ва нурунийларни кўллаб-қувватлаш тизимини такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида” 2022 йил 1 мартдаги ПФ-81-сон Фармони.
3. Умаров Б. “Оилавий тарбия сабоқлари”. Илмий-услубий қўлланма. – Тошкент: “Tasvir nashriyot uyi”, 2019, 52 б.
4. Hosken, Fran P., 'Towards a Definition of Women's Rights' in *Human Rights Quarterly*, 3-jild, 2-jild. (1981-yil may), s. 1-10.



**MANG‘IT AMIRLARI DAVRIDA MADRASALAR***Elmurodova Nigora Jobir qizi**Buxoro davlat universiteti Tarix va yuridik fakulteti, Arxeologiya va Buxoro tarixi tayanch doktoranti***МЕДРЕСЕ ВО ВРЕМЕНА МАНГИТСКИХ ЭМИРОВ***Эльмуродова Нигора Джабировна**Бухарский государственный университет, историко-юридический факультет, базовый докторант по археологии и истории Бухары*

<https://orcid.org/0009-0002-2898-5879>

[Elmurodovanigora96@gmail.com](mailto:Elmurodovanigora96@gmail.com)

+998906358101

**MADRASAHS DURING THE TIME OF THE MANGHIT EMIRS***Nigora Daughter of Jobir Elmurodova**Bukhara State University Faculty of history and law, base doctoral student of Archaeology and history of Bukhara*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada Buxoro amirligi mang‘it hukmdorlarining ilm-fan va madrasalar faoliyatining rivoji uchun amalga oshirgan ishlari to‘g‘risida ma‘lumot beriladi.

**Kalit so‘zlar:** madrasa, ta‘lim, Buxoro amirligi, maktab, Sadriddin Ayniy, Fitrat, hujra, mudarris, talaba, vaqfnoma, amir Shohmurod, Amir Haydar, qozikalon.

**Аннотация:** В данной статье представлена информация о работе, проделанной правителями Бухарского эмирата по развитию науки и медресе.

**Ключевые слова:** медресе, образование, Бухарский эмират, школа, Садриддин Айний, Фитрат, худжра, мудarris, ученик, вакфнама, Амир Шахмурод, Амир Хайдар, Казикалон.

**Abstract:** This article provides information about the work done by the rulers of Bukhara Emirate for the development of science and madrasahs.

**Key words:** : madrasah, education, Bukhara Emirate, school, Sadriddin Ayniy, Fitrat, hujra, mudarris, student, vaqfnama, Amir Shahmurad, Amir Haydar, kozikalon.

**KIRISH**

Buxoro zamini musulmon sharqidagi eng yirik ilmiy-madaniy markaz sifatida tarixda chuqur iz qoldirgan. Bu hududda turli xildagi olim-u ulamolarning yetishib chiqqanligi buni isbotlaydi. Buxoro islom madaniyatining yoyilishida ham alohida ahamiyatga molik shaharlardan biridir. Shahar o‘zining ko‘plab ilm dargohlari, madrasalar va kutubxonalar bilan shuhrat qozongan. Ilm olish maqsadida turli hududlardan asrlar davomida ilmu toliblar bu shaharda yashab ketganlar. Aynan shu sababdan Buxoro amirlari poytaxtning ilmiy salohiyatini yuksaltirish va O‘rta Osiyoda ilmiy jihatdan nufuzi baland shahar maqomida saqlab qolish uchun ta‘lim tizimini takomilllashtirishga e‘tibor berganlar. Birqancha maktablar, madrasalar

bunyod ettirganlar. Vaqf ta‘minoti masalasida islohotlar o‘tkazib turganlar. Buxoro madrasalari xususida turli xil tadqiqotlar amalga oshirilgan bo‘lib, ushbu maqolada biz Buxoro amirlarining madrasalar faoliyati uchun qilgan ishlari to‘g‘risida so‘z yuritmoqchimiz.

**ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA**

Muammoning o‘rganilganlik darajasini tahlil etar ekanmiz, mazkur masalaga bag‘ishlab mahalliy va xorijiy tarixchilar ko‘plab ilmiy izlanishlar amalga oshirganini ko‘rishimiz mumkin. Jumladan, A.Jumanazar, F.Bobojonova, Q.Rajabov, T.Muhamedov, H.To‘rayev kabi mahalliy olimlarimiz Buxoro amirligida ta‘lim tizimi va madrasalar faoliyati haqida ilmiy ma‘lumotlar

berganlar. Jadid marifatparvarlari bo‘lmish Abdurauf Fitrat, Mahmudxo‘ja Behbudiy, Sadridin Ayniyilar bevosita o‘z asarlarida amirlik tarixi va madrasalar faoliyati haqida yozib qoldirganlar.

### **NATIJALAR VA MUHOKAMA**

O‘zbek davlatchiligi tarixida muhim o‘rin tutgan mang‘it urug‘i hukmronlik qilgan Buxoro amirligida ham ilm-fanni rivojlantirish va ta‘lim tizimini takomillashtirish muhim vazifalardan biri edi. Mang‘it amirlari hisoblanmish Muhammad Rahimiy va Doniyolbiy davrida ta‘lim tizimi Ashtarxoniyilar davridagidek edi. Mahmudxoja Behbudiyning yozishicha, Doniyolbiy ta‘lim sohaisda ba‘zi islohotlarga qo‘l uradi. Jumladan, madrasalar faoliyati uchun vaqflar ajratadi. Ushbu vaqflardan tushgan daromadlar mudarrislariga maosh va talabalarga nafaqa sifatida berilgan [4;34].

Mang‘it xonadonining yorqin namoyondalari hisoblanmish Amir Shohmurod va uning vorisi Amir Haydar Amir mamlakatda ta‘lim tizimining barqarorlashuvi uchun qator muhim tadbirlarni amalga oshirganlar. Haydar ta‘lim tizimining uzviylikni ta‘minlash maqsadida oliy madrasalardagi o‘quv jarayoni va mudarrislar faoliyatini o‘z nazorati ostiga oladi.

Amir Shohmurodning ta‘lim tizimidagi ijobiy ishlari quyidagilar edi:

1. Birqancha madrasalar jumladan, Shayboniyxon va Xoja Ahror Valiy madrasalarini qayta tiklaydi;
2. Uning hukmronligi davrida Ernazar elchi, Xalifa Xudoydod, Muhammadamin to‘pchiboshi, Nazarak va Rahmonquli kabi yangi madrasalar bunyod etiladi. G‘uzor shahrida ham madrasa va masjid qurdiradi. O‘z nomi bilan madrasa bunyod ettiradi;
3. Madrasa talabalariga nafaqa to‘lash tartibini joriy ettirgan;
4. Vaqf mulklarini tartibga keltirib, masjidlarda yangi imom va muazzinlar, madrasalarda mudarrislar, ziyoratgohlarga shayxlar tayinlaydi va ular ustidan nazoratni o‘z qo‘liga oladi;
5. Amir Buxoro amirligining madrasalarida islom fiqhshunosligi murabbiysi sifatida faoliyat yuritgan.

Tarixchilardan Sadridin Ayniy o‘zining esdaliklarida Amir Shohmurodning madrasa hujralarini ta‘mirlash to‘g‘risidagi farmoni haqida to‘xtalib o‘tib quyidagilarni yozadi: “Har bir talaba

madrasa hujralaridan birini o‘z xarji va mehnati bilan obod qilib, unga kirib o‘tirsas, hujra u talabaniki bo‘ladi va qachonki talaba hujrani tark etmoqchi bo‘lsa, hujrani tuzatishga sarf qilgan mablag‘larini boshqa bir talabadan olib, hujrani uning nomiga o‘tkazishi mumkin. Bu tadbir yaxshi natija berib, Buxoro va Samarqand madrasalarining hujralari ikki-uch yilda obod bo‘lib, bir qancha yillar madrasa hujralarining talabadan talabaga o‘tishi, tuzatishga sarf bo‘lgan haqiqiy mablag‘ning “oldi-sotdi”si bo‘lar va talaba bo‘lmagan kishi, bunday turar joyga yaqinlashmas edi”, - deb yozadi [9;160]. Bu tadbir orqali bevosita madrasalarning doimiy ta‘mirida bo‘lishini va talab darajasida bo‘lishini va ta‘lim olishga kelgan talabalarning yashash joyi bilan ta‘minlangan.

Amir Shohmurodning vorisi bo‘lmish Amir Haydar davrida ham ilm-fan va ta‘limga alohida e‘tibor qaratildi. U ta‘lim tizimida uzviylikni ta‘minlash maqsadida oliy madrasalardagi o‘quv jarayonlari va muallimlar faoliyatini o‘z nazoratiga oldi. Rus tarixchisi A.Semyonov fikriga ko‘ra Amir Haydar Ilohiyot fanlarining bilimdoni bo‘lgan va bu sohaga juda qiziqqan. Amir Buxoro Arkidagi saroy masjidi qoshida madrasa qurdirgan va o‘zi shu madrasada mudarrislik qilgan [7;59].

Amir Haydar hukmronligi davrida maktab ta‘limi ham isloh qilindi. Dastavval 1803-1804-yillardagi ta‘lim islohotiga ko‘ra, amirlikdagi barcha fuqarolar uchun zaruriy umumiy ta‘lim joriy etildi. Tog‘li hududlar aholisi uchun esa davlat hisobidan maktablar qurilib, poytaxtdan mudarrislar, darslik va o‘quv qurollari jo‘natildi. Muallim va amaldorlar faoliyatini nazorat qilish uchun esa beklklarga maxsus vakil jo‘natildi. Bu haqida T.Muhamedovning “Savod tarixiga oid hujjat” maqolasida aytib o‘tilgan. [6;156-157]

Sadridin Ayniyning yozishicha, Amir Haydar davrida madrasalar ulamolarga topshirilgan. Ulamolalar esa madrasa hujralarini ba‘zi o‘quvchilarga hadya tariqasida berganlar. Bundan foydalangan talabalar madrasa hujralaridan chiqib ketishidan oldin boshqa bir talabaga pul evaziga sotgan. Amir Nasrullo davridan bu odatiy holga aylangan. Keyinchalik esa mana shu oldi-sotdi tufayli kambag‘al talabalar oliy madrasalar hujralarida joylasha olmaganlar [2;12].

Buxoro amirlari orasida o‘zining nihoyatda qattiqqo‘lligi bilan shuhrat qozongan amir



Nasrulloxon (1827-1860) ham ta'lim va madaniy sohada ba'zi islohotlar o'tkazgan. U xuddi otabobosi singari ilm-fan sohasiga homiylik qilib, atrofida ilm va san'at ahlini yig'ishga harakat qilgan. Amir davrida madrasalarda dars kunlarini ko'paytirishga urinishlar bo'lganligi manbalarda qayd etilgan. Amir Nasrulloxon maktablar va madrasalar faoliyatini rivojlantirish maqsadida masjidlar yonidagi maktablarni ta'mirlatib, poytaxtda madrasalar bunyod ettiradi. Jumladan, Badriddin, Yoshi Uzoqbek, Ahmadjon po'stindo'z, Mulla Solih, Modarixon Xo'rd madrasalari Amir Nasrulloxon davrida qurilgan. [3;209,252,204,373,368]. Ammo Amir Nasrulloh ko'plab tarixiy manbalarda salbiy qiyofada ko'rsatilgan. Jumladan, Abdurauf Fitrat Nasrulloxonning Qo'qonga yurish qilganida va'dasiga vafo qilmaganini, turli xil fitnalarni bilan o'z yaqinlarini o'ldirib yuborganini yozadi [8;39]. Shunga qaramay, hukmdorning ilm-fanga homiylik qilganini qator manbalar isbotlab turibdi.

Nasrulloh vafotidan so'ng uning o'g'li Amir Muzaffar taxtni egallaydi. Amir Muzaffar (1860-1885) davrida Amir Muzaffar madrasasi, Abdulkarimboy Attor madrasasi va Abdurahmonboy madrasalari qurilgan [3;152,169,189].

1885-yilda taxtga kelgan Amir Abdulahad davrini tarixchilar mamlakat tanazzuli davri sifatida qayd etganlar [10;123]. Tarixchi Mirzo Salimbek Abdulahad shaxsini maqtab uni rahmdil va saxiy kishi sifatida ta'riflaydi. [5;44]. Aynan Amir Abdulahadning davriga kelib mamlakat ziyolilari orasida jadidchilik g'oyalari kuchaydi. Amir

Abdulahadning vorisi amir Olimxon (1910-1920) davrida Dorul-ilm nomli madrasa qurdirilib, ushbu madrasada talabalarning sarf xarajatlari amir tomonidan yetkazib berilgan. Abdurauf Fitrat bu davrda Buxoroda 200ga yaqin madrasa faoliyat yuritganini aytib o'tadi [1;10].

### **XULOSA**

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, mang'it amirlari ilm-fan va maorif sohasi, madrasalar va ularning faoliyatiga davlat siyosatining muhim bir bo'lagi sifatida qaraganlar. Madrasalarda vaqf mulklarini taqsimlash, mudarrisni tayinlash, talabalarni imtihon qilish ham hukmdorlar nazaridan chetda qolmagan. Madrasalar faoliyatida ko'proq diniy fanlar, falsafa va tarix fanlariga e'tibor qaratildi. Aniq va tabiiy fanlarga esa o'rta asr olimlari faoliyati va ilmiy bazasiga tayanilgan holda o'qitildi. Bu esa keyinchalik mamlakat taraqqiyotiga salbiy ta'sir ko'rsatdi.

### **ADABIYOTLAR RO'YXATI**

1. Abdurauf Fitrat. Хинд сайёҳининг киссаси. «Шарқ юлдузи» журнали 1991 йил, 8-сон
2. Айний С. Бухоро инқилоби тарихи учун материаллар. Москва: СССР халқларининг марказий нашриёти, 1926.
3. Жуманазар А. Бухоро таълим тизими тарихи. Тошкент: Akademyashr, 2017. – 592 б.
4. Mahmudxo'ja Behbudiy. Amir Doniyolbiyning qabrdan yozmish maktubi. // Sho'ro, 1912 №23.
5. Мирза Салимбек. Тарих-и Салими (Источник по истории Бухарского эмирата). Ташкент. Академия. 2009.



## O‘ZBEK VA RUS TILLARIDA FE’L BOG‘LOVCHILARNI QO‘LLASH IMKONIYATLARI

*Mansurova Taxmina Toxirovna*  
*Chirchiq Davlat pedagogika universiteti Gumanitar fanlar fakulteti*  
*“Fakultetlararo rus tili” kafedrası, katta o‘qituvchi*

## ВАРИАНТЫ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ГЛАГОЛЬНЫХ СОЮЗОВ В УЗБЕКСКОМ И РУССКОМ ЯЗЫКАХ

*Мансурова Тахмина Тохировна*  
*Чирчикский государственный педагогический университет*  
*факультет гуманитарных наук кафедра “межфакультетский*  
*русский язык”, старший преподаватель*

## OPTIONS FOR APPLYING VERB BINDERS IN UZBEK AND RUSSIAN

*Mansurova Tahmina Tokhirovna*  
*Chirchik State Pedagogical University Faculty of Humanities”*  
*Faculty of Russian language " department, senior lecturer*



[https://orcid.org/  
0009-0008-8957-  
302X](https://orcid.org/0009-0008-8957-302X)

[mansurovataxmina1  
029@gmail.com](mailto:mansurovataxmina1029@gmail.com)

**Annotatsiya:** O‘zbek tilida fe’l bog‘lamalarining qo‘llanishi turli shakllarda aks etadi. Ba’zi hollarda til grammatik taraqqiyoti jarayonida fe’l bog‘lamalrning nutqda qo‘llanmasligi ham kuzatiladi. Bu holat yana bir xususiyati bilan muhimki, keyingi davrda o‘zbek tilida paydo bo‘lgan fe’l bog‘lamalarining nutqda ifodasiz qo‘llanishi bevosita rus tili orqali o‘tgan gap konstruksiyalari orqali shakllangan.

**Kalit so‘zlar:** fe’l va uni tasniflash masalalariga doir izlanishlar, mustaqil ma’noga ega bo‘lgan fe’l otlar bilan birikib, bog‘lama vazifasida qo‘llanganda ham ot orqali ifodalangan narsa-hodisa.

**Abstract:** In some cases, during the grammatical development of the language, verbs are not used in speech. Another feature is that the non-expressive use in speech of verbs that appeared in the subsequent period in the Uzbek language was formed directly in the Russian language.

**Key words:** research into the questions of verb and its classification, what is expressed through the noun, even when a verb with an independent meaning is combined with nouns and applied in a binding task, is a phenomenon.

### KIRISH

O‘zbek tilida fe’l bog‘lamalarining qo‘llanishi turli shakllarda aks etadi. Ba’zi hollarda til grammatik taraqqiyoti jarayonida fe’l bog‘lamalrning nutqda qo‘llanmasligi ham kuzatiladi. Bu holat yana bir xususiyati bilan muhimki, keyingi davrda o‘zbek tilida paydo bo‘lgan fe’l bog‘lamalarining nutqda ifodasiz qo‘llanishi bevosita rus tili orqali o‘tgan gap konstruksiyalari orqali shakllangan.

### METODOLOGIYA

Ushbu maqolani tayyorlashda tegishli xorjiy va mahalliy olimlarning ilmiy ishlaridan foydalanildi.

Jahon tishunosligida so‘zlarni turkumlarga ajratish, grammatik ma’no talqini, grammatik kategoriyalar, fe’l va uni tasniflash masalalariga doir izlanishlar bir qancha tilshunoslar tomonidan amalga oshirilgan. Jumladan, rus olimlari O.P.Sunik, V.A.Kochergina, B.N.Golovin, V.B.Kasevich,

M.D.Stepanova, G.N.Voronsovalar <sup>[1]</sup> tadqiqotlari bunga yaqqol misol bo'ladi. O'zbek tilshunos olimlari U.K.Yusupov, M.T.Irisqulov, Sh.Shohobiddinova, A.B.Botirovalar[2]ning tadqiqotlarida ham so'z turkumlari haqida nazariy fikrlar yoritilgan. Xususan, tilshunos olim A.Hojiyev tomonidan o'zbek tilidagi "to'liqsiz fe'llar va ular yordamida yasalgan fe'l shakllarining ma'no va vazifalari, qo'llanishdagi xususiyatlar" [3] tahlil qilingan. Tilshunos R.Rasulov tomonidan esa aynan "o'zbek tilidagi holat fe'llari" [4] tadqiqi amalga oshirilgan. Shuningdek, tadqiqotchi Sh.M.Jalolovning "Ingliz va o'zbek tillarida fe'l turlarining chog'ishtirma tadqiqi" [5] nomli dissertatsiyasida ingliz va o'zbek tillarida grammatika va leksika o'rtasidagi aloqadorlik inobatga olingan holda fe'l turlari chog'ishtirib aniqlangan.

### ASOSIY QISM (XULOSA VA NATIJA)

Turkiy tillarda bog'lama fe'l vazifasida qadimdan *-dir(-dur)* qo'shimchasi, *edi, emas, emish, ekan, esa* kabi to'liqsiz fe'llar qo'llanib kelgan. Ulardan *emas* bo'lishsizlikni ifodalovchi shaklga, *esa* fe'l bog'lovchiga aylanib ketgan. *Emas* va *esa* to'liqsiz fe'lining *edi, ekan* kabi formalari turli-tuman ma'no ifodalovchi va fe'lining turli shakllarini yasovchi vositalar sifatida qo'llanilmaydi. Ular gapda asosan kesim tarkibida qo'llanilib, uning kesimlik belgisining grammatik ifodasini ta'minlashga xizmat qiladi.

O'zbek tilida fe'l bog'lamarining qo'llanishi turli shakllarda aks etadi. Masalan, "**kuchli shamol**" so'z birikmasi "**shamol kuchli**" shaklida ishlatilsa gapga aylanadi. Bunda uning ot kesim o'rnida kelgan sifat – "**kuchli**" so'zining bog'lama kesimligi ifodalash uchun aslida *-dir* bog'lamasini qo'llanishi lozim edi. Biroq hozirgi o'zbek tilida bunday bog'lama ifodasiz amalga oshadi.

To'liqsiz fe'l shaklidagi bog'lamar *edi, ekan, emish* shakllari ham harakat ma'nosiga ega emas. Ular turli ma'nolarni ifodalash uchun turli grammatik vazifalarda qo'llanadi. To'liqsiz fe'llar keng ma'noda otlar bilan ham, fe'llar bilan ham qo'llanadi: ***bog' edi, ishlar edi; go'zal ekan, kelgan ekan*** kabi.

Tilshunos olim A.Hojiyev to'liqsiz fe'llar *edi, ekan, emish* shakllarining o'ziga xos xususiyati bilan birga, ularning uchulasi uchun umumiy bo'lgan

bog'lovchilik xususiyatlarini sanab o'tadi [6]. Ular quyidagilar:

1. To'liqsiz fe'l mustaqil ma'noga ega emas. Lekin tarixan mustaqil ma'noli bo'lgan.

2. To'liqsiz fe'l o'zicha harakat bildira olmasligi sababli fe'llarga xos bo'lishsizlik, daraja, zamon kabi ma'nolarga va bu ma'nolarni ifodalovchi shakllarga ega bo'lmaydi, ular faqat gapning sintaktik mazmunini to'ldiradi, gap bo'laklarini o'zaro bog'lanishiga xizmat qiladi. Binobarin, shaxs-son qo'shimchalari to'liqsiz fe'lga qo'shilsada, lekin ular bildirgan shaxs ma'nosi to'liqsiz fe'lga emas, balki kesim vazifasidagi butun majmuaga oid bo'ladi, ularning o'zaro bog'lanishiga xizmat qiladi: *xabardor ekan+man, xabardor ekan+san; bilgan edi+m, bilgan edi+ng; bilar emish+man, bilar emish+san.*

3. To'liqsiz fe'l shakllarida o'zak va unga qo'shilgan affiks tashqi tomondan aniq ajralib turadi. Lekin hozirgi o'zbek tilida to'liqsiz fe'lning o'zi mustaqil ma'noni saqlamagani kabi, unga qo'shilgan affikslar ham shu shakl doirasida o'z xususiyatini to'la saqlamagan yoki butunlay yo'qotgan. Hatto o'tgan zamon fe'lining bir necha turini hosil qilishda qatnashadigan *edi* to'liqsiz fe'li tarkibidagi *-di* shakli ham o'z xususiyatini to'la saqlamagan. Shu sababli *edi* to'liqsiz fe'li doim ham o'tgan zamon fe'li shaklini ifodalayvermaydi.

4. To'liqsiz fe'llar fe'l shakllari bilan birikkanda, asosiy fe'l shakliga xos ma'no ma'lum darajada saqlanishi mumkin. Lekin umumiy ma'no asosiy fe'l shakli bilan to'liqsiz fe'l shakli ma'nosining oddiy arifmetik yig'indisidan iborat bo'lmaydi. Shuning uchun ma'lum shakllar doirasida to'liqsiz fe'lni nutqdan tushurib bo'lmaydi yoki tushurib qoldirish mumkin bo'lgan hollarda ma'no butunlay o'zgarib ketadi. Eng muhimi bu bog'lanish gapda payt (zamon), shaxslararo munosabatlarda alohida ahamiyat kasb etadi, nutqning grammatik butunligini ta'minlashga xizmat qiladi. "*Ishlar edi*", "*bilar edi*" fe'llaridan to'liqsiz fe'l tushirilib qoldirilsa, aniqlik ma'nosi gumon ma'nosi bilan almashadi.

Demak, "asosiy fe'l + to'liqsiz fe'l" tipidagi qo'shilmalarda shakl butunligi ma'no butunligini ta'minlashga xizmat qiladi, aniqrog'i shakl va ma'no butunligi, bog'lanishligi yaratiladi.

5. To'liqsiz fe'l orqali shakllanadigan ma'no butunligi faqat bir so'z yoki jumlagi emas, balki

nutq konstruksiyasining xarakteriga qarab butun bir gap yoki matnga oid bo'lishi mumkin. Masalan, "Uzunni qo'y, qisqani kes", ekan-da dunyoning ishi; Davraning to'rida o'tirib kelgan Komiljon edi.

6. To'liqsiz fe'l bog'lama otlarga ham, fe'llarga ham birika oladi. Ularning tuslanishli fe'llarga birikishiga nisbatan sifatdosh va ravishdosh shakllariga birikishi ko'proq uchraydi. Chunki ikki fe'lning o'zaro birikishida odatda ravishdosh yoki sifatdosh shakllari vosita bo'ladi. To'liqsiz fe'lning tuslanishli fe'l shakliga birikishi til taraqqiyotining nisbatan ancha keyingi davrlarida yuz bergan.

7. Bir kesim tarkibida *edi*, *ekan*, *emish* shakllaridan birining qo'llanishi hozirgi o'zbek tilida asosiy holat hisoblanadi. Lekin kam bo'lsa-da, bir kesim tarkibida ikki to'liqsiz fe'lning qo'llanishi hollari uchrab turadi. Masalan, .... bu sukunat yana qancha *davom etar edi ekan*?

To'liqsiz fe'lning *edi* shakli orqali ifodalanadigan o'tgan zamon ma'nosi bilan boshqa zamon fe'l shakllari orqali ifodalanadigan ma'nosi bir xil emas. *Edi* to'liqsiz fe'li otlarga birikib kelganda, narsa-hodisa yoki belgining mavjud bo'lishi nutq momentiga nisbatan emas, hozirga nisbatan olinadi. Shu sababli "qachon" so'rog'iga bo'ladigan javob ham "edi" shaklida o'tgan zamon fe'llaridagidan boshqacha bo'ladi. Masalan, "Xatni tugatdim" gapiga nisbatan qo'yiladigan "qachon?" so'rog'iga "hozir", "endigina" so'zlari javob bo'lishi mumkin. Lekin "haqiqiy edi" shakliga nisbatan qo'yilmaydi. Demak, o'tgan zamon fe'l shakllarida harakat holatning nutq momentida emas, balki nutq momentidan oldin (nutq momentigacha) bajarilishi ifodalansa, "edi" shaklida narsa-hodisa belgining hozir emas, balki avval, ilgari (hozirgacha) mavjud ekanligi ifodalanadi[7]. Shu sababli narsa-hodisa, belgi kabilarning avvalgi va hozirgi holatlari qiyos qilinganda, birinchi gapning kesimi (avvalgi holatni bildiruvchi kesim) *edi* shaklida, hozirgi holatni bildiruvchi gapning kesimi o'tgan zamon fe'li shaklida bo'ladi. Lekin hozirgi holatni bildirgan gapning kesimi hech vaqt *edi* shaklida bo'lmaydi: *Kim edim? Endi kim bo'ldim*. Bu o'rinda keyingi gapning kesimi o'tgan zamon shaklida bo'lishidan qat'i nazar, undagi *bo'ldi* fe'li o'rnida *edi* to'liqsiz fe'lini qo'llab bo'lmaydi.

Mustaqil ma'noga ega bo'lgan fe'l otlar bilan birikib, bog'lama vazifasida qo'llanganda ham ot orqali ifodalangan narsa-hodisa, belgi kabilarning

yuzaga kelganligi, yuzaga kelayotganligi yoki endi yuzaga kelishi ifodalanadi: *go'zal bo'ldi*, *go'zal bo'layapti*, *go'zal bo'ladi*. Demak, bularda nutq momentiga munosabat bor. Shunga ko'ra, *go'zal bo'lgan* – o'tgan zamon, *go'zal bo'lyapti* – hozirgi zamon, *go'zal bo'ladi* – kelasi zamon hisoblanadi. [8]

Hozirgi o'zbek tili bilan mustahkam aloqada bo'lgan rus tilidagi fe'l bog'lamalarning nutqdagi paradigmalarini ham o'rganishga harakat qildik. Bu holat yana bir xususiyati bilan muhimki, keyingi davrda o'zbek tilida paydo bo'lgan fe'l bog'lamalarining nutqda ifodasiz qo'llanishi bevosita rus tili orqali o'tgan gap konstruksiyalari orqali shakllangan. Ingliz tiliga qarindosh hisoblangan rus tilida fe'l bog'lamalar qanday semantik-stilistik imkoniyatlarga egaligi, ularning semantik-morfologik ifodasi muammosi tadqiqot ishimizning maqsadlaridan biri ekanligidan kelib chiqib aytganda, qarindosh va noqarindosh tillardagi morfologik-semantik jarayonlar umumiy tilshunoslikning ayrim muammolariga oydinlik kiritishi aniqdir.

Rus tilida yozilgan ishlarda "вспомогательный глагол", "недостаточный глагол", "неправильный глагол", "служебный глагол" terminlari, o'zbek tilida yozilgan ishlarda "ko'makchi fe'l", "yordamchi fe'l", "to'liqsiz fe'l" terminlari qo'llangan. Bulardan "ko'makchi fe'l" va "yordamchi fe'l" terminlari ruscha "вспомогательный глагол" termini bildirgan ma'noda, "to'liqsiz fe'l" termini esa rus tilidagi "недостаточный глагол" termini bildirgan ma'noda qo'llangan. Rus tilida yozilgan ishlarda ham, birinchidan, "неправильный глагол" termini maxsus sarlavha sifatida ishlatilmaydi, balki "вспомогательный глагол" sarlavhasi ostida shu termin ham qo'llanadi. Ikkinchidan, bu termin juda kam ishlarda qo'llangan. Keyingi davrda yaratilgan ishlarda bu termin deyarli qo'llanmaydi.

## XULOSA

Fe'llarning ma'lum diskursiv sharoitda yordamchi vazifalarni bajarishlari olimlar tomonidan qayd qilingan. Bu borada, ayniqsa rus va o'zbek olimlarining e'tiborga loyiq tadqiqotlar olib borganligi kuzatiladi. Rus va o'zbek tillaridagi bog'lama vazifasini bajaruvchi fe'llarning ingliz tiliga qiyosi jaryonida ularning o'z til doirasidagi



sementik-stilistik va funksional xususiyatlarini o'rganish muhim ahamiyat kasb etadi.

Bog'lovchi fe'llarning semantik-stilistik xususiyatlarini tahlil qilishda maydon nazariyasini qo'llash til lug'at tarkibining tizimiy xarakterini aniqlashda samarali vosita hisoblanadi. Bu nazariy asoslar ingliz tili bog'lovchilari va bog'lovchi fe'llarining leksik-grammatik paradigmalari tahlilida dastur vazifasini bajarishi mumkin.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Суник О.П. Глаголы в тунгусо-маньчжурских языках. – М.: 1962. – Ст. 233; Кочергина В.А. Учебник санскрита. – М.: “Добросовет МЦНОМ”, 2015. – Ст. 348; Головин Б.Н. Введение в языкознание. [Учеб. пособие для филол. специальностей ун-тов и пед. ин-тов] // Головин Б.Н. 3-е изд., испр. – М.: Высш. школа, 1977. – 311 ст.
2. Юсупов У.К. Проблемы сопоставительной лингвистики. –Ташкент: Фан, 1980. – 135 ст.;

Ирискулов М.Т.Тилшуносликка кириш. – Тошкент: Ўқитувчи,1992. – Б. 252.; Ботирова А.Б. Ўзбек тилида сўз туркумланинг бирламчи ва иккиламчи вазифалари. JO - ULUSLARARASI TÜRK LEHÇE ARAŞTIRMALARI DERGİSİ (TÜRKLAD)ER, 2018. – Б. 428-433.

3.Хожиев А. Тўликсиз феъл. –Тошкент: “Фан” нашриёти, 1970. – 263 б.

4.Расулов Р. Ўзбек тилидаги ҳолат феъллари ва уларнинг облигаторлар валентликлари. – Тошкент: 1989. –143 б.

5.Ш.М.Жалолова. Инглиз ва ўзбек тилларида феъл турларининг чоғиштирма тадқиқи: Филол. фан. бўйича фал. док. ...дисс. – Тошкент, 2019. – 132 б.

6.«Грамматика алтайского языка» (составлена членами Алтайской миссии), Казань, 1869. – С. 265.

7.Хожиев А. Тўликсиз феъл. –Тошкент: “Фан” нашриёти, 1970. –Б. 18.\

8. Фуломов А. Ф. Феъл. – Тошкент: 1954. – 83 б.



## O'ZBEKISTONDA TARJIMONLIK FAOLIYATINING RIVOJLANISHI

Nurullayev Mirzabek Qobil o'g'li

Navoiy davlat pedagogika instituti

“Amaliy Ingliz tili” kafedrasi o'qituvchisi

## РАЗВИТИЕ ПЕРЕВОДЧЕСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ В УЗБЕКИСТАНЕ

Нуруллаев Мирзабек,

Навоийский государственный педагогический институт

Преподаватель кафедры «Практический английский»

## DEVELOPMENT OF TRANSLATION ACTIVITY IN UZBEKISTAN

Nurullayev Mirzabek

Navoi State Pedagogical Institute Teacher of "Practical English" department

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada O'zbekistonda tarjima faoliyatining rivojlanishini o'rganib, sohadagi evolyutsiya, muammolar va istiqbollarni yoritib beradi. Unda tarixiy sharoit, zamonaviy tendensiyalar va O'zbekistonda tarjima amaliyotini takomillashtirishga qaratilgan tashabbuslar, uning madaniy, lingvistik va geosiyosiy ahamiyatini hisobga olgan holda ko'rib chiqiladi. Tarjima faoliyatining o'sishiga turki bo'lgan omillarni tahlil qilib, ushbu izoh til va madaniy tafovutlarni bartaraf etish va xalqaro hamkorlikni rivojlantirishda tarjimaning roli haqida tushuncha beradi.

**Kalit so'zlar:** tarjima faoliyati, O'zbekiston rivojlanishi, til va madaniyat, tilning xilma-xilligi, xalqaro hamkorlik, qiynchiliklar, istiqbollar, madaniy almashinuv, geosiyosiy ahamiyat.

**Аннотация:** В данной статье рассматривается развитие переводческой деятельности в Узбекистане, освещаются эволюция, проблемы и перспективы в этой сфере. В ней рассматриваются исторический контекст, современные тенденции и инициативы, направленные на совершенствование практики перевода в Узбекистане с учетом ее культурного, лингвистического и геополитического значения. Анализируя факторы, способствующие росту перевода, этот комментарий дает представление о роли перевода в преодолении языковых и культурных различий и развитии международного сотрудничества.

**Ключевые слова:** переводческая деятельность, развитие Узбекистана, язык и культура, языковое разнообразие, международное сотрудничество, вызовы, перспективы, культурный обмен, геополитическое значение.

**Abstract:** This article examines the development of translation activities in Uzbekistan, highlights the evolution, problems and prospects in the field. It examines the historical context, contemporary trends, and initiatives aimed at improving the practice of translation in Uzbekistan, taking into account its cultural, linguistic, and geopolitical significance. By analyzing the factors driving the growth of translation, this commentary provides insight into the role of translation in bridging linguistic and cultural differences and promoting international cooperation.

**Key words:** translation activity, development of Uzbekistan, language and culture, language diversity, international cooperation, challenges, perspectives, cultural exchange, geopolitical importance.

### KIRISH (INTRODUCTION)

So'nggi yillarda mamlakatimizda xorijiy tillarni o'rganishga katta ahamiyat berilmoqda. Ushbu jarayon davlat siyosati darajasiga ko'tarilgan hamda davlatimiz rahbari tomonidan bu sohani

rivojlantirishga oid ko'plab qarorlar qabul qilinmoqda. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «O'zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o'rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora-

<https://orcid.org/0009-0007-4315-3663>

[mnurullayev@internet.ru](mailto:mnurullayev@internet.ru)

+998 91 338 93 28

tadbirlari to'g'risida» 2021 yil 19 maydagi PQ-5117-son qarori qabul qilindi [1]. Ushbu qarorning ijrosini ta'minlash maqsadida bugungi kunda talabalarga xorijiy tillarni mukammal o'rgatish, ushbu jarayonga yangi pedagogik texnologiyalarni joriy qilish, talabalarning kasbiy mahoratlarini oshirish bo'yicha pedagoglar tomonidan bir qancha ishlar amalga oshirilmoqda. Tarjima tillar va madaniyatlar o'rtasidagi ko'prik sifatida chegaralar osha muloqot va tushunishni osonlashtirishda hal qiluvchi rol o'ynaydi. Tarix, madaniyat va tillar xilma-xilligiga boy mamlakat O'zbekistonda tarjima faoliyatining rivojlanishi xalqning global miqyosdagi faolligi va madaniy o'ziga xosligini aks ettiruvchi jadal jarayon bo'ldi. Sivilizatsiyalar chorrahasida joylashgan O'zbekiston uzoq yillik madaniy almashinuv va ko'p tillilik tarixiga ega. Asrlar davomida mintaqa turli madaniyatlar, jumladan, fors, arab, turk va rus tillari ta'sirida bo'lgan. Bu tarixiy xilma-xillik mamlakatda tarjimonlik faoliyatining rivojlanishiga zamin yaratdi, chunki olimlar va ziyolilar tarjima orqali lingvistik bo'shliqlarni bartaraf etishga, madaniy merosni asrab-avaylashga intildi.

Sovet Ittifoqi davrida turli sovet respublikalari o'rtasida bilim va adabiyotni yoyishda tarjima katta rol o'ynadi. O'zbekistonning boy adabiy an'analari, jumladan, Alisher Navoiy, Abdulla Qodiriy kabi atoqli shoir va yozuvchilarning asarlari rus va boshqa tillarga tarjima qilinib, o'zbek adabiyotining xalqaro miqyosda keng targ'ib qilinishiga xizmat qildi.

Mustaqillik davrida O'zbekistonda tarjimaga qiziqish qayta kuchayganiga guvoh bo'ldik, bu esa mamlakatning jahon hamjamiyatiga integratsiyalashuvining kuchayishi bilan izohlanadi. O'zbekistonda davlat tili siyosatining qabul qilinishi bilan o'zbek tilini keng targ'ib qilish, chet el adabiyoti va akademik asarlarini o'zbek tiliga tarjima qilish ishlari boshlandi. Shu bilan birga, o'zbek adabiyotining xorijiy tillarga tarjimasini ham jadallashib, o'zbek adabiyoti va san'atining madaniy almashinuvi hamda xalqaro miqyosda e'tirof etilishiga turtki bo'ldi. Raqamli inqilob O'zbekistondagi tarjima faoliyatiga ham katta ta'sir ko'rsatdi. Tarjima vositalari va resurslarining keng miqyosda mavjudligi, onlayn platformalar va raqamli kontentning o'sishi bilan birgalikda tarjima qilingan asarlarning tarqalishini osonlashtirdi va

butun dunyo bo'ylab tarjimonlar va til mutaxassislari o'rtasida hamkorlik qilish imkonini berdi.

Erishilgan yutuqlarga qaramay, O'zbekistonda tarjima faoliyati hali ham bir qancha muammolarga duch kelmoqda. Resurslarning cheklanganligi, malakali tarjimonlarning yetishmasligi va institutsional yordamning yetarli emasligi mamlakatda tayyorlanayotgan tarjimalarning sifati va miqdoriga to'sqinlik qilmoqda. Qolaversa, jahon nashriyot sanoatida asosiy jahon tillarining hukmronligi o'zbek adabiyoti va madaniyatini xorijda targ'ib qilishda ham qiyinchilik tug'dirmoqda. O'zbekiston hukumati tarjima sohasini qo'llab-quvvatlash, jumladan, tarjima markazlari va tashkilotlarini tashkil etish, ta'lim muassasalarida tarjimashunoslikni targ'ib etish borasidagi tashabbuslari to'g'ri qo'yilgan qadamdir. Qolaversa, o'zbek madaniyati, tili va adabiyotiga xalqaro qiziqish ortib borayotgani xorijiy hamkorlar bilan hamkorlik qilish va almashish imkonini bermoqda.

O'zbekistonda tarjimonlik faoliyatining rivojlanishi mamlakatning o'z madaniy merosini asrab-avaylash, tili va adabiyotini targ'ib qilish, jahon hamjamiyati bilan muloqotga kirishish borasidagi izchil intilishlarini aks ettiradi. O'zbekiston XXI asrning muammolari va imkoniyatlarini yengib o'tishda davom etar ekan, tarjima xalqlar o'rtasida ko'prik o'rnatish, o'zaro tushunishni rivojlantirish va jahon miqyosida madaniy muloqotni boyitish uchun muhim vosita bo'lib qoladi. Birgalikda sa'y-harakatlar va hamkorlik natijasida O'zbekistonning tarjima sohasi kelgusi yillarda mamlakatning madaniy diplomatiyasi va jahon miqyosidagi ishtirokiga hissa qo'shib, muhim yutuqlarga erishishga tayyor. Tarjimaviy asarlar tufayli kitobxonlar jahon adabiyoti durdonalaridan bahramand bo'ladilar, ularning estetik tuyg'ulari oshadi, didlari o'sadi, ularda go'zal narsalar haqida tushunchalar xosil bo'ladi. [2]

#### **NATIJALAR (РЕЗУЛЬТАТЫ / RESULTS).**

O'zbekistonda tarjimonlik faoliyatining rivojlanishi o'tgan yillar davomida mamlakatning tarixiy, madaniy va geosiyosiy sharoitlarini aks ettiruvchi muhim o'zgarishlarni boshdan kechirdi. Tarjima xalq tarixining dastlabki bosqichlarida eng avvalo diniy va adabiy matnlarni turli til va madaniyat sohalari bo'ylab uzatish vositasi bo'lib xizmat

qilgan. Fors, arab va turk tillarining ta'siri, jumladan, O'zbekistonning tarjima landshaftini shakllantirdi, ko'p tillilik va madaniy almashinuvning boy an'alarini rivojlantirdi.

Sovet Ittifoqi davrida O'zbekiston Sovet Ittifoqining ajralmas qismiga aylanganidan so'ng O'zbekistonda tarjimonlik faoliyati jadal rivojlandi. Tarjima g'oyaviy, ilmiy va adabiy asarlarni sovet respublikalari bo'ylab tarqatishda muhim rol o'ynadi, o'zbek tilini standartlashtirish va modernizatsiya qilishga hissa qo'shdi. Bundan tashqari, o'zbek adabiy mumtoz asarlarining rus va boshqa tillarga tarjimalari mamlakat madaniy merosini kengroq ommaga namoyish etishga yordam berdi.

Istiqolol davrida O'zbekistonda tarjima faoliyatiga e'tibor yana qaytadan boshlandi, bu xalqning madaniy jonlanishga intilishi va jahon miqyosidagi ishtiroki bilan bog'liq. O'zbek tilini targ'ib qilish, xorijiy adabiyot va akademik asarlarni o'zbek tiliga tarjima qilish, tillar xilma-xilligi va madaniyatini boyitish bo'yicha sa'y-harakatlar amalga oshirildi. Shu bilan birga, o'zbek adabiyotining xorijiy tillarga tarjimalari madaniy almashinuvni yo'lga qo'ydi va O'zbekistonning xalqaro maydondagi nufuzini oshirdi. Raqamli asr O'zbekistondagi tarjima sohasiga yangi imkoniyatlar va muammolarni keltirib chiqardi. Tarjima texnologiyalari va onlayn platformalarning mavjudligi tarjima qilingan asarlarning tarqalishini osonlashtirdi va butun dunyo bo'ylab tarjimonlar o'rtasida hamkorlik qilish imkonini berdi. Biroq asosiy jahon tillarining hukmronligi o'zbek adabiyoti va madaniyatini jahon miqyosida targ'ib etishda qiyinchiliklar tug'dirmoqda. Bunday qiyinchiliklarga qaramay, O'zbekiston tarjima sohasini qo'llab-quvvatlash va rivojlantirish bo'yicha faol qadamlar tashladi. Shu o'rinda tarjimon va tarjimashunos so'zlariga ta'rif berib o'tsak. "Tarjima" arab tilidan olingan bo'lib, "bir tildan ikkinchi tilga ag'darish, o'girish, izohlash, sharxlash" degan ma'nolarni bildirib, bir tildagi matnni boshqa tilda qaytadan yaratishdan iborat adabiy ijod turidir. "Tarjimon" – tarjima qiluvchi shaxs. "Tarjimashunos" – tarjima nazariyasini, uning qonun qoidalarini o'rganuvchi mutaxassis, olim. [3]

**MUHOKAMA (ОБСУЖДЕНИЕ / DISCUSSION).** O'zbekistonda tarjimonlik faoliyatini rivojlantirish mamlakatning madaniy

boyligi, tillar xilma-xilligi va global intilishlarini o'zida aks ettiruvchi katta qiziqish va muhim mavzudir. O'zbekiston tarixi qo'shni hududlar va sivilizatsiyalar bilan ko'p asrlik madaniy almashinuv va o'zaro aloqalar bilan ajralib turadi. O'zbek tarjimashunos namoyondalaridan biri Qudrat Musayev Toshkent davlat pedagogika universiteti Xorijiy tillar fakultetida bir necha yillar davomida ijodiy faoliyat olib borgan bo'lib, talabalarga Tarjima nazariyasi va amaliyoti fanidan saboq berib keldi. Shu bilan birga uning "Tarjima nazariyasi" (2003), "Tarjima nazariyasi asoslari" (2005) darsliklari talabalar tomonidan shu kunga qadar asosiy darslik sifatida qo'llanilib kelinmoqda [4]. Bu tarixiy sharoit O'zbekistonda tarjima faoliyatining rivojlanishiga zamin yaratdi, chunki olimlar va ziyolilar uzoq vaqtdan beri turli tillar va madaniyatlardagi matnlarni tarjima qilishda hal qiluvchi rol o'ynagan. Diniy, adabiy va ilmiy asarlarning tarjimasi nafaqat muloqotni osonlashtirdi, balki O'zbekiston madaniy merosini asrab-avaylash va ommalashtirishga ham hissa qo'shdi.

So'nggi o'n yilliklarda O'zbekistonda tarjimonlik faoliyatiga qiziqish qayta kuchayganiga guvoh bo'ldik, bu mamlakatning jahon hamjamiyatiga tobora kuchayib borayotgan integratsiyasi hamda o'z tili va madaniyatini jahon miqyosida targ'ib qilishga intilishi bilan bog'liq. Tarjima markazlarini tashkil etish va ta'lim muassasalarida tarjimashunoslikni targ'ib qilish kabi tarjimoni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan hukumat tashabbuslari O'zbekistonda tarjima sohasining o'sishida muhim rol o'ynadi. Qolaversa, o'zbek adabiyoti, san'ati va madaniyatiga xalqaro qiziqishning kuchayishi o'zbek asarlarining xorijiy tillarga tarjimasiga bo'lgan talabning oshishiga olib keldi, bu esa mamlakatimizda tarjima faoliyatini yanada rag'batlantirdi.

Oldinga nazar tashlaydigan bo'lsak, O'zbekistonda tarjima faoliyatining kelajagi istiqbolli ko'rinadi, turli sohalarda o'sish va rivojlanish imkoniyatlari mavjud. Tarjimoni institutsional qo'llab-quvvatlashni kuchaytirish, tarjimonlar tayyorlash va ta'limga sarmoya kiritish, o'zbek asarlarini xorijiy tillarga tarjima qilishni rag'batlantirish O'zbekistonda tarjima sohasini izchil rivojlantirishning asosiy ustuvor yo'nalishlaridan hisoblanadi. Bundan tashqari,



texnologik yutuqlarni qamrab olish va xalqaro hamkorlar bilan hamkorlikni rivojlantirish O'zbekistonning tarjima imkoniyatlarini yanada oshirishi va jahon miqyosidagi madaniy diplomatiya sa'y-harakatlariga hissa qo'shishi mumkin.

**XULOSA (ЗАКЛЮЧЕНИЕ / CONCLUSION)** O'zbekistonda tarjimonlik faoliyatining rivojlanishi mamlakatning o'z madaniy merosini asrab-avaylash, tili va adabiyotini targ'ib qilish, jahon hamjamiyati bilan muloqotga kirishish borasidagi izchil intilishlarini aks ettiradi. O'zbekiston XXI asrning muammolari va imkoniyatlarini yengib o'tishda davom etar ekan, tarjima xalqlar o'rtasida ko'prik o'rnatish, o'zaro tushunishni rivojlantirish va jahon miqyosida madaniy muloqotni boyitish uchun muhim vosita bo'lib qoladi. Birgalikda sa'y-harakatlar va hamkorlik natijasida O'zbekistonning tarjima sohasi kelgusi yillarda mamlakatning madaniy diplomatiyasi va jahon miqyosidagi ishtirokiga hissa qo'shib, muhim yutuqlarga erishishga tayyor. O'zbekistonda tarjima faoliyatining rivojlanishi ko'p qirrali va jadal jarayon bo'lib, u mamlakatning boy madaniy merosi, tillar xilma-xilligi va jahon miqyosida ishtirok etishga intilishlarini o'zida aks ettiradi. Muammolarni hal qilish, imkoniyatlardan foydalanish va madaniy boyliklaridan foydalanish orqali O'zbekiston global tarjima landshaftida tobora ta'sirchan rol o'ynash uchun yaxshi mavqega ega.

Bugungi kunda tarjima jarayoni tarjimashunos olimlarning sa'y-harakatlari bilan kun sayin rivojlanib bormoqda. Ammo, bu jarayonda ba'zi kamchiliklarni kuzatishimiz mumkin. O'zbekistonda tarjima nazariyasi va amaliyotining rivojlanishiga hissa qo'shgan olimlar ko'p. Bugungi kunda yosh avlod yuqorida aytib o'tilgan tarjimashunoslar ijodi asosida bu sohada izlanishlar olib bormoqdalar.

**ADABIYOTLAR RO'YXATI  
(ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА /  
REFERENCES)**

1. Sh.Mirziyoyev. «O'zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o'rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida» PQ-5117. 2021-yil 19-may. <https://lex.uz/docs/-5426736>
2. Мусаев Қ. Таржима назарияси. – Тошкент; 2003.
3. E. Begmatov, A. Madvaliyev, N.Mahkamov va boshqalar... O'zbek tilining izohli lug'ati. [https://n.ziyouz.com/books/uzbek\\_tilining\\_i\\_zohli\\_lugati/](https://n.ziyouz.com/books/uzbek_tilining_i_zohli_lugati/) O'zbek%20tilining%20izohli%20lug'ati%20-%20A.pdf
4. G'. Salomov. Tarjima nazariyasi asoslari. Toshkent. 1990.
5. Мусаев Қудрат. Таржима назарияси асослари. - Тошкент; Фан; 2005



## SHARQ MADANIYATI: IBN SINO TA'SIRIDA YEVIROPA MADANIYATINING O'SISHI

*Axatova Dildora Axtamovna  
Shahrisabz davlat pedagogika instituti  
Ijtimoiy fanlar kafedrasida o'qituvchisi*



[dildoraaxatova434@gmail.com](mailto:dildoraaxatova434@gmail.com)

<https://orcid.org/0009-0001-6849-0603>  
+998 97 799 11 55

## ВОСТОЧНАЯ КУЛЬТУРА: РОСТ ЕВРОПЕЙСКОЙ КУЛЬТУРЫ ПОД ВЛИЯНИЕМ ИБН СИНЫ

*Ахатова Дильдора Ахтамовна  
Шахрисабзский государственный педагогический  
институт Преподаватель кафедры общественных наук*

## EASTERN CULTURE: THE GROWTH OF EUROPEAN CULTURE INFLUENCED BY IBN SINA

*Akhatova Dildora Akhtamovna  
Shahrisabz State Pedagogical Institute  
Teacher of the Department of Social Sciences*

**Annotatsiya:** Bu maqola Sharq faylasufi Ibn Sino (Avicenna)ning G'arb falsafasiga ta'siri va uning asosiy fikrlari tahlil qilinadi. Maqola, Ibn Sino haqida umumiy ma'lumotlar bilan boshlanadi va keyinchalik G'arb falsafiy tasavvurlari, ularning mohiyati, uning fikrlariga ta'siri va metodlar ta'riflanadi. Natijalar bo'limida, maqola, Ibn Sinoning G'arb falsafiyasiga ta'siri mavzusidagi muhim ma'lumotlarni va ularning tahlili natijalarini taqdim etadi.

**Kalit so'zlar:** madaniyat, Sharq va G'arb munosabatlari, falsafa, ta'lim va ilm, estetika, tibbiyot, shoirlik, mutafakkirlar.

**Аннотация:** В статье анализируется влияние восточного философа Ибн Сины (Авиценны) на западную философию и его основные идеи. Статья начинается с общих сведений об Ибн Сине, а затем описываются западные философские идеи, их сущность, влияние на его мысли и методы. В разделе результатов статьи представлены важные данные и результаты их анализа на тему влияния Ибн Сины на западную философию.

**Ключевые слова:** культура, отношения Восток-Запад, философия, образование и наука, эстетика, медицина, поэзия, мыслители.

**Abstract:** The article analyzes the influence of the Eastern philosopher Ibn Sina (Avicenna) on Western philosophy and his main ideas. The article begins with general information about Ibn Sina, and then describes Western philosophical ideas, their essence, influence on his thoughts and methods. The results section of the article presents important data and the results of their analysis on the topic of Ibn Sina's influence on Western philosophy.

**Key words:** culture, East-West relations, philosophy, education and science, aesthetics, medicine, poetry, thinkers.

### KIRISH (INTRODUCTION)

Yaqin-yaqinlargacha madaniy hayotda, Sharq xalqlari azaldan qoloq bo'lganlar, ularning Yevropaga ta'sir etgudek hech narsalari yo'q, deb kelinar edi. Sharq madaniyatiga past nazar bilan qarash, ayniqsa, "Yevropatsentrizm" tarafdorlari

orasida kuchli bo'lgan; uning aks-sadosi esa haligacha davom etib kelmoqda. Ammo jahon taraqqiyparvar olimlari bu holni inkor etib, ildizi asrlarga ketgan qadimgi va O'rta asr Sharq madaniyati yutuqlarini kundan kunga tobora teranroq dalillamoqdalar.

## ADABIYOTLAR TAHLILI VA METOD (MATERIALS AND METHODS)

Fransuz faylasufi Aleksandr Koyrening ta'kidlashicha: "...yunon tilidagi falsafiy va ilmiy asarlarning lotin tiliga dastlabki tarjimalari bevosita yunonchadan emas, balki arab tilidan tarjima qilingan bo'lsa, bunga G'arbda qadimgi Yunon tilini biladiganlarning qolmaganligi yoki yo'qligi emas, balki murakkab asarlar bo'lgan Arastuning "Fizika" yoki "Metafizika" sini, yoki Ptolomeyning "Almagesti" ni Forobiy, Avitsenna yoki Averroisning yordamisiz hech kim tushunish qobiliyatiga ega bo'lmaganligidadir. Arastu va Aflotunni tushunish uchun qadimgi Yunon tilini bilish kifoya qilmaydi, bundan tashqari yana falsafani ham bilish kifoya qilmaydi, bundan tashqari yana falsafani ham bilish zarur"<sup>1</sup>. A. Koyrening bu e'tirofi Sharq, xususan Markaziy Osiyo mutafakkirlarining Yevropa madaniyatiga katta ta'sir ko'rsatganligini tasdiqlaydi.

Akademiklar N.Konrad, I.Kpachkovskiy, I.Orbeli, professorlar B. Jirmunskiy, I.Braginskiy, P.Grintser, B.Riftin, O'zFA akademiklari I.Mo'minov, M.Xayrullayev, atoqli olimlar S.Tolstov, A.Qayumov, F.Sulaymonova, M.Shahidiy, P.Bulgakov, Sh.Shomuhamedov, faylasuflar A.Sagadev, S.Grigoryan, V.Chaloyan, fan tarixi mutaxassislari J.Sarton, J.Tomson, M.Rojanskaya va boshqalarning ilmiy tadqiqotlarida ham ta'kidlanadi.

Ular Sharqda, jumladan, O'rta Osiyoda X-XV asrlar davomida ulkan madaniy yuksalish – Renessans (Uyg'onish) ro'y berganligini ko'rsatib, u X-XVI asr Yevropa Uyg'onish madaniyatini asosiy belgilarini o'zida mujassam etganligini ta'kidlaydilar, G'arbiy Yevropa bu davrga kelib ko'tarilgan insonparvarlik g'oyalari, faol kurashchanlik, san'at va adabiyot sohasidagi favqulodda taraqqiyot O'rta Osiyoda bir necha asr muqaddam buyon bo'lgan.

Ammo, ilg'or Sharq taraqqiyparvarligi, ayrim tadqiqotchilar aytganlaridek "Osiyo daryolari kabi qumliklarga singib ketib, o'z qobig'idan, nom-nishonsiz yo'qolgan" emas<sup>2</sup>. Aksincha, bu ulkan

madaniyat umumbashariy sivilizatsiyaga qo'shib uning uzluksiz rivojiga omil bo'ldi, turli aloqa vositalari orqali G'arbga o'tib, yangi Yevropa tafakkur taraqqiyotiga ta'sir ko'rsatadi. Yetti asr davomida arab xalifaligining qo'l ostida turgan Ispaniyaning Qurdoba, Shiviliya, Fironada viloyatlarida Sharq ilm-ma'rifati keng qanot yoydi. Ispan qirollari arab tilini mukammal bilar, o'z saroylarida arab shoirlari va olimlarni saqlar, barcha ispan ziyolilari arabcha ta'lim olib, sharqona urf-odat ruhida tarbiyalanar edilar. Gyotening ustoz, jahon madaniy taraqqiyot tarixini yaxlit o'rganib, har bir xalqning bashariyat tafakkur taraqqiyotiga qo'shgan hissasini xolisona baholagan G.Gerber quyidagilarni yozadi: "O'sha paytda, jaholat changalidagi Yevropaning ko'pgina qismida arablar ilm chirog'ini yoqdilar"<sup>3</sup>.

### MUHOKAMA (DISCUSSION)

Sharq olimlari asarlarigina emas, balki qadimgi Yunoniston ilmi fani durdonalari ham Yevropa, dastavval, arabchadan o'girilgan tarjimalari orqali kirib borgan. Aristotel va uning Sharqdagi izdoshlari – Forobiy, Ibn Sino, Ibn Rushd falsafasi o'sha davr qoloq aqidalari, diniy xurofotlar ildiziga bolta urdi; fikriy uyg'onish yangicha dunyoqarashni boshlab berdi.

Hatto buyuk Gegel ham "evropasentrizm" ta'siridan qutula olmagan holda, Sharq xalqlarning missiyalarini tan olishga majbur bo'lgan: "G'arb xristianlari orasida, - deydi u, - fan inqirozga uchragan, Arastu yulduzi Sharq xalqlari orasida yangi shu'la sohib porladi. Keyinchalik ular (Sharqliklar – N.K.) g'arbni Arastu falsafasi bilan yoritdilar"<sup>4</sup>.

Sharq faylasuflarining Yevropa ilmiy falsafiy tafakkuriga ta'siri ayniqsa Ibn Sino misolida yaqqol ko'rinadi. Ibn Sinoning tibbiyot, falsafaga oid asarlarining Yevropa tillariga tarjima qilinishi va o'rganilishi natijasida, uning ta'limotiga hamohang bo'lgan G'arb olimlari ijodidan o'rin olganlarini kuzatish mumkin.

### NATIJALAR (RESULTS)

Shunday ekan, "Ibn Sino falsafasi shu merosning o'rta asrlardagi oliy darajada rivojlantirilgan nuqtasidir" (Fon Gryunebaum), deb

<sup>1</sup> Koyre A. Ocherki istorii filosofskoy misli. M.: Progress. 1985. s- 52-53.

<sup>2</sup> Chiloyann B. Vostok- Zapad, M., "Nauk" nashriyoti, 1979, 150-151-betlar.

<sup>3</sup> Gerder butun musulmon Sharqida yaratiladigan madaniyatni arablar madaniyati deb ataydi. Aslida, bunda arab bo'lmagan xalqning, jumladan Markaziy Osiyolik ulug' olimlar hissasi benihoya ulkan ekanligi hozirda butun dunyoga ayonir.

<sup>4</sup> Gegel. Soch., 1-tom., 319- bet.

tan berilganida, faqat yunon xalqlari merosigina emas, balki qadimgi Sharq madaniyatini ham nazarda tutulishi zarur. Chindan ham, Ibn Sino Aristotel va Platon fikrlarini yuqori bosqichga ko'taradi. Birgina ko'rib o'tganimiz "Risola fil-ishq"da keltirilgan aksariyat fikrlar va ta'riflar, butun-butun qarashlar yunon mutafakkirlarida yo'q ekanligini aytish kifoya. "Risola fil-ishq"da Arastu va Aflotun qarashlarini qadimgi Sharq mutafakkirlari ta'limoti qo'shib ketgan hamda shu asosda allomaning o'z tafakkurida shakllangan g'oyalari yaxlit holda, ulug'vor ifodalangan. O'rta asr Yevropasi Nevplatonizmni va qadimgi Sharq xalqlari ilmiy tajribalarini arabchalashgan shaklda, yangidan ishlanib, taraqqiy ettirilgan mazmunda qabul qildi. Natijada, bu g'oyalar materialistik fikrlarning tug'ilishi, ijtimoiy faollikning paydo bo'lishiga olib keldi.

Ulug' Ibn Sino Sharqda falsafiy she'riyatni boshlab bergan allomadir. U fors-tojik tilida bitgan ruboiy va qit'alari, arabcha g'azal-u qasidalaridan tashqari, tib ilmni muxtasar bir tarzda she'riy tilda bayon etuvchi "Urjuza"ni ta'klif etadi.

Uningcha: "Shoirilar – olam shahzodalari... ya'ni ruh hokimlari" dirlar. Aristotelning "She'r ilmi" asariga yozgan sharhida alloma lirika xususiyatlarini ta'riflab, taxayyul va tuyg'u, insoniy kechinmalarning she'rda ifodalanishini tahlil etadi. She'r, adabiyot insonni inson qiladigan omillardan. Zero "u ruhning quvvatidir". Ibn Sino mazkur fikri badiiy estetik tafakkur tarixida ilk ilmiy xulosa edi va u G'arbiy Yevropa Uyg'onishiga borib ulanadi. Ta'kidlaganimizdek, O'rta asr Yevropasi Sharqining ilm madaniyat yutuqlari bilan birga, estetik qarashlari, adabiy-badiiy an'alarini ham qabul qilib olgan. G.Gerder aytganidek: "Arablar falsafa bilan pozitsiya sintezini nihoyasiga yetkazdilar hamda she'riyatni ko'tarinki tasavvuf g'oyalari ila sug'ordilar... arab faylasuflari ayni paytda shoir ham edilar, shuning uchun O'rta asr xristianlarida tasavvuf bilan adabiyot doimo yonma – yon yuradigan, bir – biriga o'tadigan bo'ldi"<sup>5</sup>.

#### **XULOSA (CONCLUSION)**

Ibn Sinoning "Hayy ibn Yaqzon" qissasi o'zidan keyingi adabiyotga g'oyat kuchli ta'sir ko'rsatgan. Abul Majid Sanoiyning "Sayrul ibod ilal ma'od" ("Bandalarning sayr qilib, o'z joylariga qaytishalari") dostoni buning yorqin misolidir.

<sup>5</sup> G.Gerder. Idei k filosofii istorii chelovechstva, 573-574 betlar.

Ibn Sino falsafiy axloqiy g'oyalarining Yevropa adabiyotiga ta'sirini Dantening "Ilohiy komediya" asari orqali kuzatish mumkin. "Ilohiy komediya" tub falsafiy ma'nosi bilan "Risola fil-ishq" mazmunini qamrab olganidek, o'z navbatida, u mazmunan va g'oyani obrazlarga talqin etish tarziga ko'ra, "Hayy ibn Yaqzon"ga yaqin turadi.

Fransiya universitetlarida esa o'sha paytlarda Ibn Sino kitoblari zo'r qiziqish bilan o'rganilar, dahriylik kayfiyati, tasavvufga intilish kuchli edi<sup>6</sup>. Ibn Sino (lotincha Avitsenna) Yevropada ulkan faylasufgina emas, atoqli tabib hamda tabiatshunos olim sifatida ham shuhrat qozongan. VI asr davomida barcha Yevropa universitetlarida tibbiyotdan asosiy darslik sifatida o'qitilgan "Al-qonun" bevosita ilmiy meterialistik qarashlarni ham targ'ib etuvchi bir asardirki, unda inson va uning organizmi sof ilmiy nuqtai-nazardan, tabiatning bir bo'lagi sifatida o'rganiladi. Qadimgi dunyo hamda O'rta asr Sharq tibbiyoti qomusi hisoblanmish "Al-Qonun fit-tib" inson va uning tabiati to'g'risidagi yaxlit, mukammal bir fandır. Ibn Sino ta'limoti insonni himoya qilish uni e'zozlash va ulug'lashdan iborat.

Allomaning tibbiy, ilmiy asarlari Sharqda va G'arbda ham tibbiyotga hamda falsafaga oid bilimlarnigina tarqatib qolmay, umumfalsafiy, insonparvarlik g'oyalarining tomir otishiga ham turtki bo'lgan.

#### **ADABIYOTLAR RO'YXATI (REFERENCES)**

1. Адам Мец. Мусулманский ренессанс. Москва. «Наука». 1966.
  2. Абу Али ибн Сина. Освещение// Избранные произведения. Душанбе. Ирфон. 1980.
  3. Абу Али ибн Сина. Трактат о любви. Москва. 1989.
  4. Abu Ali ibn Sino. Qush hikoyati//Salomon va Ibsol. Toshkent. "Fan", 1973.
  5. Abu Ali ibn Sino. Hayy ibn Yaqzon//Salomon va Ibsol. Toshkent. "Fan", 1973.
  6. Dante. Ilohiy komediya. Toshkent, 1991.
- Irisov A. Abu Ali ibn Sino hayoti va ijodiy merosi. Toshkent, "Fan", 1980

<sup>6</sup> Чалоян Б. Восток-Запад. Москва. «Наука». 1979.187-с.



## SHET TILINDE SÓYLEW KOMPETENSIYASIN RAWAJLANDIRIWDA MEDIATEXNOLOGIYALARDIŃ ÁXMIYETI

*Nurabullaeva Kamila Joldasbaevna*  
*Ájiniyaz atindađı Nókis mámleketlik pedagogika instituti 1-kurs*  
*doktoranti*

[rysbajbekimbetov@gmail.com](mailto:rysbajbekimbetov@gmail.com)  
<tel:+998934598818>

## DEVELOPMENT OF SPEAKING COMPETENCE USING MEDIA TECHNOLOGIES IN FOREIGN LANGUAGE

*Nurabullaeva Kamila Joldasbaevna*  
*First year doctoral student of the Nukus State Pedagogical Institute*  
*named after Ajiniyaz*

## РАЗВИТИЕ РАЗГОВОРНОЙ КОМПЕТЕНЦИИ С ИСПОЛЬЗОВАНИЕМ МЕДИАТЕХНОЛОГИЙ НА ИНОСТРАННЫХ ЯЗЫКАХ

*Нурабуллаева Камила Жолдасбеевна*  
*Докторант 1 курса Нукусского Государственного*  
*педагогического института имени Ажинияза*

**Annotaciya:** *Socialliq tarmoqlardıń ishinde eń bir belgilisi bul - YouTube hám bul kóp ǵana abzallıqlarǵa iye, ásirese shet tilin úyreniwde bul judá maqul keledi. Bul maqalada YouTube socialliq tarmasınıń uliwma bilim beriw mektebindegi 7-klass oqıwshılarınıń sóylew kónlikpesin rawajlandiriwǵa qaratılǵan. Maqaladaǵı baqlawlarǵa kóre YouTube oqıwshılardıń sóylew kónlikpesiniń jaqsilaniwına kómek beredi hám shet tilin úyreniwge bolǵan qızıǵıwshılǵın arttıradi, sebebi oqıwshılar óz smartfonlarınan YouTube videoların hár qanday orınlarda qollaniwi múmkin.*

**Tayanish sózler:** *YouTube, socialliq tarmaq, innovaciya, kommunikaciya, emocia, mimika, prezentaciya.*

**Annotation:** *YouTube is the most popular social network and it has many advantages, especially when learning a foreign language. This article focuses on the development of speaking competence on the YouTube social network. The comments in the article show that YouTube helps 7 grade students improve their speech competence, and it increases their interest in learning a foreign language, because students can use their smartphones to watch YouTube videos at any place and time.*

**Key words:** *YouTube, social network, innovation, communication, emotion, mimicry, presentation.*

**Аннотация:** *Самой популярной из социальных сетей является YouTube и она имеет множество преимуществ особенно полезна при изучении иностранного языка. В данной статье основное внимание уделяется развитию разговорной компетенции в социальной сети YouTube. Исходя из представлений статьи, служит для улучшить речевую компетентность 7 класс учащихся и повысить их интерес к изучению иностранного языка, поскольку студенты могут использовать свой смартфоны для просмотра видео на YouTube в любое время.*

**Ключевые слова:** *YouTube, социальный сети, инновация, коммуникация, эмоция, мимика, презентация.*

### Kirisiw

Til bul óz ara baylanis qurali. Til arqali insan ózge insan menen baylanis ornata aladi. Baylanis qurali sipatında til hár bir insan tárepinen ázge bir insanǵa oy pikirlerin, sezimlerin eki usilda jazba

yaki awizeki usilda bayan etiwı múmkin. İnsanlar til quralın paydalanbastan turıp bir biri menen baylanis ornatan halda álbette málim bir qiyınshılıqlarǵa dus keledi. Qosımsha qılıp aytqanda insan tildi qollaniwi nátiyjesinde ol insanlardıń oy órisiniń qay

dárejede keńligin biliw múmkin sebebi til-insanlar biliminiń ólshemidur. Ilm pán-hár qanday mámlekettiń búgingi kúnin hám keleshegin belgileydi [1:4]. Ilm pándi rawajlandiriwda media qurallardıń qosqan úlesi búgingi kúnde joqari dárejede, sonday-aq socialliq tarmaqlar keńnen tarqalğan. Innovaciya hám kreativ mediadan paydalanıw shet tilin úyreniwde bir qansha jeńillikler keltirip shıǵaradı. Úyreniw jumisin alıp bariwdan maqset oqıwshılardıń kewlin kóteriwden hám sabaqti mazmunli qılıp ótkeriwden. Birlesken milletler shólkeminiń bilimlendiriw, ilm pán hám mádeniyat shólkemi sipatında YUNESCO rawajlanǵan hám rawajlanıp atırǵan mámleketlerde jaslarǵı zamanagóy ómirge tayarlaw hám bilim rawajlanıwına salmaqlı úles qosıw ushin zarúr bolǵan eń jaqsı shárt sharayatlarǵa iye ekenligi aniqlandı. Tildi úyreniwdegi maqsetlerdiń biri-kúndelikli sóylewde de sol tildi qollana alıw, biraq olar mektepten universitetke shekem úyrengen bolıwına qaramastan hár bir adam qollana almawı múmkin. Ásirese nemis tili kúndelikli turmista jiyi ushıraspaydı, sonıń ushında shet tilin úyreniwde YouTube videoların kúndelikli kórip bariw maqsetke muwapiq. Házirgi kúnde ulıwma bilim beriw mekteplerindegi muǵallımlar shet tili tilin oqıtıwda grammatikaǵa ko`birek diqqat awdaradı, biraq oqıwshılarda sóylew qabiletiniń rawajlanıwında áhmiyetli. Sóylew-kommunikaciyanı ornatiwda áhmiyetli esaplanadı, insanlar sóylew arqalı bir qansha informaciyanı ańsat alıwı múmkin. Biraq ulıwma bilim beriw mekteplerindegi mektep oqıwshıları kúndelikli turmisqa tán bolǵan real waqıyalardan shet tili tilinde kóp ameliyat alıp barmaydı klasstaǵı sóylesiwler menen ǵana sheklenedi. Bul oqıwshılardıń sóylew qabiletin kóp rawajlandırmaydı. Oqıwshılardıń sóylew qabiletiniń rawajlanıwına tásir etiwshi bir neshe faktorlar bar bolıp, birinshiden sabaq waqtında jeterlishe waqıttıń bolmawı. Ekinshiden oqıtıwshi sabaq waqtında shet tilinde sol kúngi sabaqqa say shınıǵıwları durıs shólkemlestirmewi, úshinshiden oqıtıwshılardıń sabaq úyretiwde sirtqi faktorlardıń unamsız tásiiri. Multimediani tiykarǵı islenetuǵın tarawlarınan biri - tálim sisteması [3:57].

Bazi oqıwshılar shet tilinde sóylesiw júda qiyin dep esaplaydı [4:18]. Bul jaǵdayda bir neshshe sebepler keltiriw múmkin: gruppı bolıp keliwi, bazi háriplerdiń úziliske ushırawı, jazılǵan formadaǵı

sózler oqılǵanda basqa bolıp oqılıwi, ayılǵan sózge say til say halında jetkizilmewi, sózge pát túsiwi, ritm, intonaciya hám óz ara baylanis ornatiw.

Maǵliwmat aliwdaǵı qiyinshiliq tekstti oqıw waqtında aniqlanadı, oqıw texnikası hám til materialları qiyinshiliqları orınlanǵan shınıǵıwlar esabınan alınadı [2:260].

### **Adebiyatlar izertlewleri hám metodologiyası**

Házirgi dáwirde texnologiya shet tilin kúndelikli úyreniw ushin eń áhmiyetli sheshim bolıp tabıladı. Video, audio, prezentaciya úyretiw hám úyreniw processlerinde eń kóp ushiraytuǵını bolıp esaplanadı. Aqırǵı waqıtları socialliq tarmaqlar júda keń tarqalǵan esaplanadı, olar ózleriniń smartfonlarınan socialliq tarmaqlarǵa hár kúni kire aladı. Bul social tarmaqlar ishinde eń keń tarqalǵanı YouTube tarmaǵı bolıp esaplanadı. YouTube dúnyadaǵı eń úlken vebsaytlardıń biri. YouTube 2005-jili Chad Hurley, Steve Chen, Jawed Karim tárepinen jaratılǵan. YouTube videoları tarqatıwshi vebsayt bolıp, bul vebsayt videoları júklep aliwǵa, kóriwge hámde ózge insanlarǵa úlesiwden qollanıladı. Kópshilik insanlar YouTube vebsaytınan zawiqlanıw ushin hám informaciya alıw ushin, hátteki bazıları pul islew ushin qollanadı. Oqıtıwshılar YouTube dan shet tilin úyreniw maqsetinde qollanadı. Ol jerde kóplegen shet tilin rawajlandırıwshi kanallar bar bolıp, oqıtıwshılar ózlerine mütajligine maqul bolǵan videoni saylap alıwı múmkin. Bul jerde birneshshe klassta qollanıwı múmkin bolǵan video texnikalar tásiiri bar, olar:

- a) Bunda oqıtıwshılar bir videoni tamashalaydı, oqıtıwshi videodaǵı maǵliwmatlarǵa baylanisli sorawları doskaǵa jazıp beredi. Oqıtıwshılar videoni kórip otırǵan waqtında sorawlarıń juwabın jazıp aladı, sorawlarǵa awızeki formada juwap beriwleri múmkin boladı.
- b) Oqıtıwshi bazi sózlerge hám sóz birikpelerine túsinik beriw maqsetinde videoni pauza qılıp qoyadı, oqıtıwshılardıń diqqatin tartıw maqsetinde tamashalanıp atırǵan video haqqında sorawlar beredi.
- c) Oqıtıwshi dawissiz rejimdegi videoni qoyadı hám oqıtıwshılardan video qaharmanlarınıń ózin uslap tutıwı, videoda ne haqqında sóz barıp atırǵanlıǵı videodaǵı qaharmanlarıń óz ara sawbeti haqqında pikirlerin soraydı.

- d) Dawis bar biraq kórinis joq bolǵan shiniǵiw. Bunda oqiwshilar videoniń tek ǵana dawisin esitedi al videodaǵı kórinisti kórmeydi. Bul shiniǵiw dawamında esitken dialoglari tiykarında ne haqqında gáp berilip atirǵanlıǵı soraladi.
- e) Qaytalaw hám rolli oyınlar. Oqitiwshi videodaǵı qaharman qollanǵan bazi bir qiyin dep sanalǵan sóz birikpelerin qollanǵan halda saxnaliq kórinis shólkemlestiriledi. Bul shiniǵiw olardıń ózleriniń jaman minez xulqın dúzetiw ushında imkaniyat bolip tabiladi.
- f) Qayta aytıp beriw shiniǵiwi. Bul shiniǵiwda oqiwshidan ótken sabaqta tamashalanǵan video haqqında sorawlar juwap beriwı yaki qayta aytıp beriwı soraladi.
- g) Toliqtiriw shiniǵiwi. Bul shiniǵiwda oqiwshiniń sóylew kónlikpesin rawajlandiriwǵa úlken diqqat awdarılǵan. Tamashalanǵan videoǵa tiykar diskussiya alıp bariladi hám hár bir oqiwshi óz pikirin aytadi.

Sóylew kónlikpesin asiriw boyınsha YouTube videosi haqqındaǵı maǵliwmatlar jańalıq emes, bazibir bir aldingi izertlewshiler álle qashan YouTube vebsaytinin abzallıq tárepleri haqqında keltirip ótken. Birinshi izertlewlerde YouTube videolariniń shet tili tilindegi taza sózlerdi úyreniwde, olardi dawis shıǵarıp aytiwda, shet tili tilinde gáp qurawda paydalanǵan. Ekinshi izertlewshi media texnologiyasi sipatında YouTube videolari qollanıp sabaqti zawqlı qilip ótkiziw maqsetinde rolli oyınlar hám diskussiya formatlarin keltirip ótti. Úshinshi izertlewlerde bul YouTube vebsaytiniń tanis emes sózlerdi tez yadlap aliwdaǵı áhmiyetli tárepleri haqqında aytip ótken. Tórtinshi izertlewshi óziniń izertlewlerinde sóylew kompetenciyasiniń rawajlanıwında YouTube vebsaytiniń paydali hám zıyanli tárepleri haqqında aytip ótken.

### **Natıyjerler**

Bul izertlewde YouTube vebsaytinan paydalanıp oqiwshilarǵa shet tilindegi taza sózlerdi úyretiw maqset etilgen. Shimbay rayonındaǵı 38-sanli uliwma orta bilim beriw mektebiniń 7-“a”,-“b” klass oqiwshilarin salıstirip kóridi. Oqiwshilardi eki gruppaga bólip bir gruppaga har sabaqta YouTube vebsaytındaǵı video qoyıp berildi, bul videodaǵı sóz

birikpeleri ayriqsha atap úyretildi. 7 sabaq dawamında 7 túrli video qoyıp berildi, videodaǵı sóz birikpeleri oqiwshilarǵa tanıstirildi.

Al qalǵan ekinshi yarimina dástúriy usılda taxtaǵa jazilip tap sol videodaǵı taza sóz birikpeleri oqiwshilarǵa úyretildi. 7 sabaq dawamında hár eki gruppada baqlanıp barildi hám eki gruppada test alıǵanda videoǵa tiykarlanıp taza sóz úyrenilgen gruppa kórsetkishi joqari boldi, sebebi real videoǵa tiykarlanıp sóylegenin kórgeninde qaharmaniń emociyasi, mimikalari, qol háreketi bárshe bárshe diqqatti tartadi. Al dásturiy usılda yaǵniy doskaǵa jazıp, hesh qanday multimedia qurallarisiz taza sózler úyretilgende oqiwshilardiń sapa kórsetkishi tómen boldi.

Izertlewlerden bizge málim YouTube vebsaytiniń sóylew kónlikpesin rawajlandiriwda qollaniwdiń paydali hám zıyanli tárepleri bar.

### **YouTube vebsaytin qollaniwdiń paydali tárepleri:**

YouTube hár qanday pándı úyretiw hám úyreniw processinde kóp ǵana úles qosadi. YouTube daǵı shet tili tilindegi video oqiwshilardiń esitiw sóylew kónlikpesin rawajlandirip qoymastan shet el mádeniyatin úrip ádetlerin, jasaw tárizin úyreniwinede imkan jaratadi, jergilikli adamlar tárepien esittirilgen dialoglar úyreniwshilardiń shet tilin ózleriniń kúndelikli ibaralarında qollay aliwina imkan jaratadi. Nemis tilin, sonday-aq basqa shet tilin úyretiwshiler ushında bul videolar tayar kórgizbeli qural bolip esaplanadi, sabaqliq kitaplarǵa qosimsha resurs bolip esaplanadi. YouTube videolari oqiwshilardiń shet tilin úyreniw procesin qizikli bolıwın támiyinleydi.

Bul mashqala oqitiwshilar tárepien juz beredi, sabaq dawamında hár bir oqiwshida teńdey hámmesine birdey sóylew kónlikpesin rawajlandiriwǵa qiyinshiliq tuwilatuǵınlıǵı aytip ótilgen. Sol sebepli oqitiwshilar oqiwshilar texnologiyalardan paydalanǵan halda diqqatin tartiwdi duris dep esaplaǵan. Oqiwshilar úyreniwdiń hár túrli uyreniw stillerine iye, texnologiyadan paydalanıw hár biri ushin tuwri keliwi múmkin [5:115].

Oqiwshilar YouTube videolarınan klass xanasi ishinde hám sirtında da qollaniwi múmkin. Oqiwshilarda sóylew kónlikpesin rawajlandiriw tek klasstaǵı úyreniw waqti menen sheklenip qalmawi tiyis, sebebi sabaq waqti sheklengen bolıwi

múmkín, bazida oqitiwshilar sabaq dawamında video qoyılıp ol tánepis waqtında da dawam etiwí múmkín. Oqiwshilardıń sóylew shiniǵıwların orınlap atırǵan waqtında olar oqiwshilardıń aldına shıǵıp sóylewge bolǵan isenimi joqlıǵı sebepli bir qansha mashqalaǵa dus keledi sonday-aq olar qate so`ylep qoyıwdan da qaweterleniwí múmkín. Bazi oqiwshilar oqitiwshi sabaq waqtında qollanǵan materiallardı da túsiniwge qıynaladı. Al YouTube vebsaytınan paydalanıw hár bir jerde hám hár bir waqıtta qolaylı bolıp tabıladı, úyreniwshilerde sonday-aq videolardı júklep alıw, dostısına úlesiw hám takırlap alıw imkanıyatında bar boladı.

### **YouTube vebsaytınan paydalanıwdıń zıyanlı tárepleri:**

Bir qansha unamli tásirlerine qaramastan zıyanlı tárepleri de bar. YouTube videolarınıń hámmeside ilm úlesiwge qaratılǵan emesligi. Bul videolardıń hámmeside qiwshilardıń jasına, úrp ádetine hám mádeniyatına tuwri kelmewi múmkín. Al bul mas kelmeytuǵın videolarda oqiwshilar tárepinen tamashalanıwı múmkín. Bazida óz dárejesine tuwri kelmewi múmkín.

YouTube videolarınıń bazıları úyreniwshilerdıń diqqatin ánsatǵana shalǵıtwı múmkín. YouTubeda sonshellı kóp qızıqlı kewil ashar videolar bar misal ushin:muzika, oyınlar,filmler hám taǵıda basqa kewil ashar kórsetiwler. Úyreniw sapaşın bul videolar bir qansha tómenletedi hám bul videolardı tamashalap waqtın kóp sarplap qoyıwına sebepshi boladı.

Oqitiwshilar yaki ata-analar hámme waqıtta da perzentin qadaǵalay almawı múmkín. Oqiwshilar YouTube dan qalegen orında hám qalegen waqıtta óz kompyuterlerinen yaki smartfonlarınan paydalana alıwı múmkín. Sol sebepli oqitiwshi hám ata-

analardıń oqiwshilarǵa duris jónelis beriwı hám duris túsiniw beriwı tiyis boladı.

### **Juwmaqlaw**

Sóylew kónlikpesi baylanis ornatiw qurallari arasındaǵı eń ahmiyetli soǵan qaramay barlıq oqiwshilarda shet tilinde sóylew kónlikpesin rawajlandiriwǵa birdey qızıǵa bermeydi, kópshilik oqiwshilar shet tilinde sóylesiwdi úyrenip atırǵanda ózlerin zerikken sezinedi. Oqitiwshilar bul mashqalani YouTube videolarınan olardıń sóylew kónlikpesin asiriw maqsetinde qollanadı hám olar sóylew kónlikpesin rawajlandiriwda ahmiyetli ekenligin atap ótedi. YouTube hár bir sabaqqa maslasıwshań multimedia qurallarınıń biri, ol úyreniw procesiniń zawqlı bolıwına hám oqiwshilardıń shet tilin úyreniwge bolǵan qızıǵıwshılıǵın arttırıwǵa úles qosadı. YouTube videolarınıń bir qansha abzallıqlarına qaramastan onnan oqiwshilar paydalanǵan waqıtta oqitiwshi yaki ata-analar tárepinen qadaǵalawǵa alınıwı kerek.

### **Ádebiyatlar:**

1. “Xalq tálimi” ilmiy-metodik jurnali. Sh.M.Mirziyoyev. “Ilm mashaqqat, mas’ulyat va majburiyat”. 2021.
2. J.Jalolov. “Chet til o`qitish metodikasi”. O`qituvchi nashriyoti, 1996.
3. J.S.Ótepbegenov. “Tálimde xabar texnologiyalari”.-Tashkent. Yosh avlod matbaa-2022.
4. H.D.Brown. Teaching by principles an Interactive Approach to Language Pedagogy, 1994. New Jersey A. Paramount Communication Company.
5. M.R. Ahmadi. The Use of Technology in English Language learning: A literature Review. International journal of Research in English Education. 2018.





UDK:8.100.4.8(045)

## GENDER TENGLIKKA AMAL QILISHNI SHAKLLANTIRISHDA IJTIMOYIY TARMOQLARNING O‘RNI

*Raximova Dildora Abzalovna*  
*Fan va texnologiyalar universiteti*  
*“Ijtimoiy fanlar” kafedrasi o‘qituvchisi*



*E-mail:*  
[dildor1975@mail.ru](mailto:dildor1975@mail.ru)

[https://orcid.org/  
0009-006-5552-  
1235](https://orcid.org/0009-006-5552-1235)

## РОЛЬ СОЦИАЛЬНЫХ СЕТЕЙ В ФОРМИРОВАНИИ ПРИВЕРЖЕННОСТИ ГЕНДЕРНОМУ РАВЕНСТВУ

*Рахимова Дилдора Абзаловна*  
*Университет науки и технологий*  
*Преподаватель кафедры «Общественные науки»*

## THE ROLE OF SOCIAL NETWORKS IN THE FORMATION OF ADHERENCE TO GENDER EQUALITY

*Rakhimova Dildora Abzalovna*  
*University of Science and Technology*  
*Teacher of the "Social Sciences" department*

**Annotatsiya:** Maqolada ijtimoiy tarmoqlarning gender tenglikning ijtimoiy-falsafiy, huquqiy jihatlariga ta'siri bugungi kunda qanchalik ahamiyat kasb etishi borasida shakllangan qarashlar va ularga xos bo'lgan asosiy qarashlari, bir-biridan farq qiluvchi jihatlari tahlil qilinib, ijtimoiy munosabatlar, huquqiy-mehnat munosabatlari gender tenglikning qo'llanishiga doir mulohazalar keltirilgan.

**Kalit so'zlar:** inson, jamiyat, ayollar, erkaklar, jins, gender, gender tenglik, gender yondashuv, qonun, farqlar, oila, oila psixologiyasi, nikoh, oilaviy munosabatlar, huquqiy asoslar.

**Аннотация:** В статье сформированы мнения о влиянии социальных сетей на социально-философские и правовые аспекты гендерного равенства, актуальные на сегодняшний день, анализируются их основные взгляды, различные аспекты, даются комментарии по его применению.

**Ключевые слова:** человек, общество, женщины, мужчины, пол, гендер, гендерное равенство, гендерный подход, право, различия, семья, семейная психология, брак, семейные отношения, правовые основы.

**Abstract:** In the article, the opinions formed about the influence of social networks on the socio-philosophical and legal aspects of gender equality are important today and their main views, different aspects are analyzed comments on its application are given.

**Key words:** person, society, women, men, sex, gender, gender equality, gender approach, law, differences, family, family psychology, marriage, family relations, legal foundations

**Kirish.** XX - XXI asrlarda jamiyatning dolzarb muammolaridan biri sifatida gender tenglik muammolarini qayta ko‘rib chiqish va uni o‘zgartirish masalalari katta o‘rin egallagan. Ushbu o‘zgarishlarning asosiy yo‘nalishi o‘zbekistonlik ayollarning mehnat va ijtimoiy faoliyatning turli sohalarida tutgan o‘rni va roliga yangicha qarashda, har ikkala jins vakillarining manfaatlari, pozitsiyalari va faoliyatining uyg‘unligi g‘oyasidadir.

O‘zbekistonda so‘nggi yillarda gender tengsizligini bartaraf etish bo‘yicha ancha ishlar amalga oshirildi. Gender siyosati muammolari, gender tadqiqotlari, ayniqsa, “Ayollar muammosi” bilan bog‘liq masalalar rasmiy darajada davlat siyosatining ustuvor masalalari qatoriga kiritilgan. Xotin-qizlarning mavqeyini oshirish, ayniqsa, ularning huquqlarini qonuniy hujjatlari orqali himoya qilish va kengaytirish bo‘yicha chora-tadbirlar belgilandi.

O‘zbekiston gender tengligi ko‘rsatkichi ro‘yxatida 2019-yildan boshlab qatnashishni boshladi. 2019-yil holati bo‘yicha O‘zbekistonning gender tengligi ko‘rsatkichi ro‘yxatdagi 189 mamlakat ichida 62-o‘rinni egalladi. Birlashgan Millatlar Tashkilotining Aholishunoslik jamg‘armasi (UNFPA) ekspertlarining fikriga ko‘ra, O‘zbekistondagi har 100 000 dan 29 ayol gender tengsizlik tufayli vafot etishi va 15-19 yoshdagi har ming o‘spirin qiz uchun tug‘ish ko‘rsatkichi 23,8 ni tashkil qiladi.<sup>[1]</sup>

O‘zbekistonda 2019-yil 2-sentabrda 562-sonli O‘zbekiston Respublikasi „Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to‘g‘risida“gi Qonuni qabul qilingan.<sup>[2]</sup> O‘zbekistonda Gender tenglik bo‘yicha Komissiya 2019-yildan boshlab ish yuritib keladi. Oliy Majlis Senati Raisi Tanzila Narbaeva O‘zbekiston Respublikasi Gender tenglikni ta‘minlash masalalari bo‘yicha komissiyasining raisi hisoblanadi.

Bu borada Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev ta‘kidlaganlaridek: “Odamlarimiz bilishi kerak, oila

muqaddas biz uchun. Oilani saqlab qolmasak, biz o‘zligimizni yo‘qotamiz”.

### **Adabiyotlar metodologiyasi va tahlili**

“Bugun yaratilayotgan shart-sharoitlar, qo‘llab-quvvatlash chora-tadbirlari, har xil tanlovlar, ta‘lim olish va kasb-hunar egallash uchun berilgan imtiyozlar, moliyaviy vositalardan foydalanish imkoniyati yaratilgani – bularning barchasi va yana ko‘p boshqa narsalar xotin-qizlarning hayotning barcha jabhalarida o‘zini namoyon qilishi uchun keng imkoniyatlar ochmoqda”.<sup>3</sup>

Dastavval, gender tengligini ta‘minlashda oila institutining roliga to‘xtalib o‘tsak. Hech kimga sir emas, oila inson tarbiyasida eng asosiy rol o‘ynaydi, bola oilada tug‘iladi, ulg‘ayadi, olam haqidagi tasavvurlari unda shakllanadi, dastlabki axloqiy qoidalarni o‘zlashtiradi. Oilada insonning his-tuyg‘ulari tarbiyalanadi, olam, unda insonlarning o‘rni haqidagi qarashlari paydo bo‘ladi. Xuddi shu davrda bola ongida gender stereotiplar ham shakllanishni boshlaydi.

Bu stereotiplarning shakllanishida bolaga jinsiga qarab qanday kiyim kiydirish, sochini turmak qilish, mashina yoki qo‘g‘irchoq olib berish kabi bolaning ilk go‘daklik davridagi kattalarning qarorlari va xatti-harakatlari muhim ahamiyat kasb etadi. O‘z navbatida bunday gender stereotiplarning inson ongida mavjudligi va xatti-harakatlarida aks etishi jamiyat, oilaning katta vakillari tomonidan qo‘llab-quvvatlanadi. Ovqat pishirishga taqlid qilib o‘tirgan o‘g‘il bola yoki mashinalar rasmini chizishga qiziqadigan qiz bola kattalar tomonidan tanbeh olishi mumkin. Chunki gender stereotiplar ijtimoiy ongda chuqur o‘rin egallagan.<sup>4</sup>

Oxirgi vaqtlarda ijtimoiy tarmoqlarda oilalardagi tehgisizliklar, ayol huquqlari kamsitilishi, oiladagi zo‘ravonlik kabi muammolar tarqalishi avj olmoqda. Ayniqsa, bu muammolarning bir tarafdama ko‘rsatilishi ijtimoiy tarmoq foydalanuvchilarining noroziligiga ham sabab bo‘lmoqda.

Feysbuk ijtimoiy tarmog‘idagi ayrim ayollardan tashkil topgan guruhlarda ko‘p hollarda ayollarni milliy qadriyatlarini inkor etgan holda ajrimni targ‘ib qilish holatlari ko‘paygan. Diniy va

milliy qadriyatlarimizga asoslangan holda oilada ota ulug' ekanligi, erkak roli kabi tushunchalar tenglik darajasidan past holatda ko'rsatilishi kuchaygan.

Vaholanki, Bosh qomusimiz hisoblanmish O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida har ikkala jins egalarining tengligi kafolatlangan. Xotin-qizlar va erkaklar o'rtasida haqiqiy tenglikka erishish, jamiyat hayotining barcha sohalarida ularning ishtirokini kengaytirish, jins bo'yicha bevosita va bilvosita kamsitishni bartaraf etish hamda ularning oldini olish maqsadida davlat tomonidan gender siyosati amalga oshirilishini ta'minlashga doir vaqtinchalik maxsus choralar ko'rilishi nazarda tutilgan. Gender tenglikni yaratamiz deb fuqarolarning huquqlariga ziyon yetkazmaslikni e'tiborda tutish lozim.

Muqaddas dinimizda oila qurishga ayol va erkak birdek targ'ib qilingan jumladan, Alloh taolo Qur'oni Karimda "Sizlar eslatma olishlaringiz uchun biz har bir narsani juft qilib yaratdik",-deb marhamat qiladi (Zoriyot surasi, 49-oyat). Asrlar davomida o'z etirofini topgan va diniy axloqiy qadriyatlar darajasiga ko'tarilgan oilaviy munosabatlarda halol yashash, mehnat qilish, farzand tarbiyasi ijtimoiy hayot tarzini rivojlantirish manbaidir. Sharqona tarbiyada shaxsning umummadaniy dunyoqarashi-ning shakllanishi asosi oiladan boshlanadi.

Oila qancha sog'lom bo'lsa jamiyat ham shunga munosib bo'ladi, lekin tagiga zil ketgan oila oxiri ajralish bilan tugaydi, bolalar yetim, xonadonlar parokanda bo'ladi. Bu esa jamiyat ravnaqiga albatta putur yetkazadi. Bu borada islom mutafakkirlari tomonidan ko'p sonli durdona asarlar yozilgan bo'lib, mana shunday olimlardan biri Abu Ali ibn Sinodir. Ibn Sino o'zining "Tadbir ul- manzil" asarida oila uning inson va jamiyat hayotidagi bebaho ahamiyati, oila boshlig'ining vazifalari, uy-joy idora etish shartlari farzand tarbiyasi amal qilinishi lozim bo'lgan jihatlari, oila rahbarining o'ziga juft tanlashda e'tibor qaratishi lozim bo'lgan masalalar bayon qilingan. Ibn Sinoning "Tadbir ul- manzil" risolasi oilaviy munosabatlarni tartibga solishda jamiyat rivojiga hissa qo'shuvchi fozil insonlarning yetishib chiqishida katta ahamiyatga ega bo'lib oilani boshqaruvchilar va uning a'zolari uchun o'ziga xos dasturil amal vazifasini bajaradi.

**Xulosa.** Sog'lom muhitda tarbiya topgan bola har tomonlama jismoniy, psixologik va ta'limiy jihatdan ustun bo'ladi. Biz jamiyatda oilada shaxslar o'rtasidagi munosabatlarda Gender tenglikni targ'ib qilish orqali kelajagimizning mustahkam imoratiga bir g'isht qo'shgan bo'lamiz. Biz bugungi kundagi islohotlarga befarq bo'lmasligimiz, jamiyat va davlat hayotidagi o'zgarishlarga o'zimizning munosib hissamizni qo'shishimiz kerak.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. Mirziyoyev Sh.M. Milliy tiklanishdan milliy yuksalish sari –Toshkent:O'zbekiston, 2021. –B. 406.
2. O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 2-sentyabrdagi O'RQ-562-son "Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to'g'risida"gi Qonuni. <https://lex.uz/docs/4494849>
3. <http://lex.uz//uz/docs/-6345528> 2030-yilga qadar O'zbekiston Respublikasida gender tenglikka erishish strategiyasining 2021-2022-yildagi ijrosi hamda uni amalga oshirish bo'yicha 2023-yilga mo'ljallangan chora-tadbirlarni tasdiqlash haqida.
4. Abdurauf Fitrat. "Oila" asari
5. Abu Ali ibn Sino. "Tadbir ul-manzil" risolasi.
6. <https://cyberleninka.ru/article/n/yangilanayotgan-ozbekistonda-gender-tenglikka-erishishstrategiyasi-hamda-uning-huquqiy-asoslari>
7. <https://yuz.uz/uz/news/tanzila-narbaeva-gender-tenglik-yangi-ozbekiston-ustuvor-yonalishining-ajralmas-qismiga-aylandi>

### Electron manbalar:

1. [Gender tenglik bo'yicha butunjahon statistikasi.](#)
2. <https://lex.uz/docs/-4494849> Xotin-qizlar teng huquq kafolatlari to'g'risidagi O'RQ-562 02.09.2019
3. <https://yuz.uz/uz/news/tanzila-narbaeva-gender-tenglik-yangi-ozbekiston-ustuvor-yonalishining-ajralmas-qismiga-aylandi>
4. <http://lex.uz//uz/docs/-6345528>. 2030-yilga qadar O'zbekiston Respublikasida gender tenglikka erishish strategiyasining 2021-2022-yildagi ijrosi hamda uni amalga oshirish bo'yicha 2023-yilga mo'ljallangan chora-tadbirlarni tasdiqlash haqida.

## MUSTAQILLIK DAVRI O'ZBEK SHE'RIYATIDAGI O'XSHATISH VA METAFORALARNING LINGVOKULTUROLOGIK XUSUSIYATLARI

*Qurbonov Davronbek Mamadiyorovich*

*Navoiy davlat pedagogika instituti magistranti*

## ЛИНГВОКУЛЬТУРНАЯ ОСОБЕННОСТЬ СРАВНИЙ И МЕТАФОРОВ В УЗБЕКСКОЙ ПОЭЗИИ ПЕРИОДА НЕЗАВИСИМОСТИ

*Курбанов Давронбек Мамадиерович*

*магистрант Навоийского государственного педагогического  
института*

## LINGUOCULTURAL CHARACTERISTICS OF SIMILE AND METAPHORS IN UZBEK POETRY OF THE INDEPENDENCE PERIOD

*Kurbonov Davronbek Mamadiyorovich*

*master's student at Navoi State Pedagogical Institute*

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada mustaqillik davri o'zbek she'riyatidagi o'xshatish va morfemalarning lingvokulturologik xususiyatlariga e'tibor qaratiladi. Muallif tarixiy, ijtimoiy-madaniy va adabiy kontekstlarni aks ettirgan holda o'zbek she'riyatida o'ziga xos madaniy tushuncha va qadriyatlarini ifodalash uchun ushbu lingvistik elementlardan qanday foydalanilishini tahlil qiladi. Tadqiqotda o'xshatish va metaforalarning lisoniy-madaniy xususiyatlarini tahlil qilish mustaqillik davri o'zbek she'riyatining o'ziga xos xususiyatlarini, uning adabiy merosga qo'shgan hissasini chuqurroq anglash imkonini berishi ta'kidlanadi.

**Kalit so'zlar:** o'zbek she'riyati, til va madaniy xususiyatlar, qiyoslar, metaforalar, mustaqillik davri, madaniy tushunchalar, ijtimoiy-madaniy kontekst, adabiy meros.

**Аннотация:** В данной статье рассматриваются лингвокультурные особенности сравнений и морфем в узбекской поэзии периода независимости. Автор анализирует, как эти языковые элементы используются для выражения конкретных культурных концепций и ценностей в узбекской поэзии, отражая исторический, социокультурный и литературный контексты. В исследовании подчеркивается, что анализ лингвокультурных особенностей сравнений и морфем позволит глубже понять особенности узбекской поэзии периода независимости, ее вклад в литературное наследие.

**Ключевые слова:** узбекская поэзия, языковые и культурные особенности, сравнения, морфемы, период независимости, культурные концепции, социокультурный контекст, литературное наследие.

**Abstract:** This article focuses on linguistic and cultural characteristics of similes and morphemes in Uzbek poetry of the period of independence. The author analyzes how these linguistic elements are used to express specific cultural concepts and values in Uzbek poetry, reflecting the historical, socio-cultural and literary contexts. In the research, it is emphasized that the analysis of linguistic and cultural features of similes and morphemes will allow a deeper understanding of the specific features of Uzbek poetry of the period of independence, its contribution to the literary heritage.

**Key words:** Uzbek poetry, language and cultural features, similes, morphemes, period of independence, cultural concepts, socio-cultural context, literary heritage.



[https://orcid.org/  
0009-0008-0099-  
3803](https://orcid.org/0009-0008-0099-3803)

[dqurbonov0302@  
mail.ru](mailto:dqurbonov0302@mail.ru)

+998915579550



## KIRISH/ВВЕДЕНИЕ/INTRODUCTION

Mustaqillik davri o'zbek she'riyati Markaziy Osiyodagi ushbu mamlakatning ko'p asrlik tarixi va an'analarini o'zida aks ettiruvchi noyob madaniy hodisadir. Istiqloq davri o'zbek she'riyatidagi o'xshatish va metaforalarning lingvokulturologik xususiyatlari muhim o'rin egallaydi. O'zbek she'riyatida qiyoslar muhim o'rin tutib, matnlarga nafasat, rang-baranglik baxsh etadi. Mustaqillik davri o'zbek she'riyatida qiyoslashning lingvomadaniy xususiyatlari ko'pincha shu yurtning boy madaniy merosini aks ettiruvchi obrazlarni qamrab oladi. Masalan, "vodiy ustidagi oydek" o'xshatish go'zallik yoki oliyjanoblikni ifodalash uchun ishlatilishi mumkin.

Metafora she'riyatda muhim o'rin tutadi, chunki u shoirlarga murakkab g'oyalar, his-tuyg'ular va obrazlarni obrazli o'xshatishlar orqali ifodalash imkonini beradi. She'riyatdagi metafora rolining bir qancha vazifalari mavjud:

- Vizualizatsiya va konkretlashtirish vazifasi: metaforalar mavhum yoki murakkab tushunchalarni yanada aniqroq bayon etadi. Ular bir obyekt yoki hodisaning ma'nosini boshqasiga o'tkazadi, bu shoirga o'quvchi ongida yorqin va esda qolarli tasvirlarni yaratishga imkon beradi.

- Hissiy quvvatni oshirish vazifasi: metafora she'riy matnga hissiy chuqurlik va shiddatlikni qo'shishi mumkin. Ular o'quvchida kuchli tuyg'ularni uyg'otib, she'riy obrazni chuqurroq his qilishlariga sabab bo'lishi mumkin.

- G'oya va obrazlarni o'zgartirish vazifasi: metafora shoirlarga g'oyalar va obrazlarni qaytadan tasavvur qilish imkonini beradi, yangi nuqtayi nazar va talqinlarni keltirib chiqaradi. Ular ijodiy tajriba va til bilan o'ynash imkoniyatini ochadi, bu esa she'rni yanada samimiy va noyob qiladi.

- Tilni boyitish vazifasi: metafora yangi va o'ziga xos tasvir va iboralar yaratish orqali tilning boyishiga hissa qo'shadi. Ular she'riyatni rang-barang va serqirra qiladi, matnga chuqurlik va tekstura beradi.

- Simvol va allegoriya yaratish vazifasi: metafora timsol va allegoriya yaratish uchun asos bo'lib xizmat qilishi, shoirga murakkab tu-shuncha va g'oyalarni obrazli taqqoslash orqali yetkazish imkonini beradi. Bu she'riyatni yanada noaniq va talqin qilish uchun ochiq qiladi.

Umuman, metafora shoir qo'lidagi kuchli vosita bo'lib, u o'z fikr va tuyg'ularini ijodiy ifodalash, o'qigandan keyin ham uzoq vaqt o'quvchi ko'z

o'ngida qoladigan obraz va olamlarni yaratish imkonini beradi.

O'zbek she'riyatida metaforalar ham katta o'rin tutib, matnlarga o'zgacha teranlik va hissiy boylik qo'shadi. Mustaqillik davrida o'zbek shoirlari milliy o'zlikni, tarixiy voqealarni, madaniy an'analarni aks ettiruvchi metaforalardan faol foydalandilar.

Mustaqillik davri o'zbek she'riyatidagi o'xshatish va morfemalarning lisoniy-madaniy xususiyatlari tarixiy, ijtimoiy-madaniy va adabiy sharoitlarda ildiz otgan. Ular shoirlarga o'ziga xos madaniy tushuncha va qadriyatlarni ifodalash, o'sha mamlakat adabiy merosiga hissa qo'shish imkonini beradi. Mustaqillik davri o'zbek she'riyati ushbu xalqning madaniy an'analari, o'ziga xosligi va qadriyatlarini aks ettiruvchi o'xshatish va metaforalarning til va madaniy xususiyatlarining boyligi bilan ajralib turadi. Bu xususiyatlarni o'rganish nafaqat O'zbekistonning she'riy merosini chuqurroq anglash, balki uning jahon adabiyotiga qo'shgan hissasini ham baholash imkonini beradi [1].

## NATIJALAR/РЕЗУЛЬТАТЫ/RESULTS

Mustaqillik davri o'zbek she'riyatida o'xshatish va metaforalarning lingvomadaniy xususiyatlarini o'rganish jarayonida O'zbekiston she'riy merosini tahlil qilish va tushunishda e'tiborga olish muhim bo'lgan bir qator qiziqarli natijalar aniqlandi.

### Natijalar bo'yicha tahlillar quyidagicha:

**Madaniy obrazlarning o'ziga xosligi:** O'zbek she'riyatida qo'llanilgan o'xshatish va metaforalar ko'pincha shu o'lkaning boy tarixiy-madaniy merosini aks ettiruvchi o'ziga xos madaniy obraz va timsollarga asoslanadi.

**Milliy tildan foydalanish:** Mustaqillik davri shoirlari o'ziga xos lisoniy va madaniy xususiyatlariga ega o'zbek tilidan his-tuyg'ularni, g'oyalarni, tushunchalarni yetkazishda faol foydalanmoqdalar, bu esa o'zbek madaniyatini asrab-avaylash va targ'ib etishga xizmat qilmoqda.

**Zamonaviy mavzular integratsiyasi:** Mustaqillik davri o'zbek she'riyatida o'xshatish va metafora qo'llanish kontekstida zamonaviy mavzu va masalalarning o'zaro uyg'unlashuvini kuzatish mumkin, bu esa she'riyatni dolzarb va ijtimoiy ahamiyatga ega qiladi.

**An'analarni saqlash va yangilik:** Bu davr she'riyatida an'anaviy til va madaniy xususiyatlarni saqlash va yangilik o'rtasidagi mutanosiblik namoyon

bo'lib, she'riy ijodga o'ziga xos uslub va yondashuv yaratadi.

Umuman, mustaqillik davri o'zbek she'riyatidagi o'xshatish va metaforalarning lingvomadaniy xususiyatlarini o'rganish o'zbek madaniyati va tilini, shuningdek, ularning she'riy ijodga, bu xalqning o'ziga xosligiga ta'sirini chuqurroq anglash imkonini beradi. Q.Yo'ldosh va M.Yo'ldoshlarning "Badiiy tahlil asoslari" kitobida badiiy tahlilning ilmiy asoslari yoritilgan. Unda asarning badiiyligini ta'minlagan omillar, uning estetik jozibasini tashkil etgan unsurlar, shoirning uslubi, asar va ijodkor dunyoqarashi, asar va jamiyat munosabati, unda inson ruhiyatining ifodalanish yo'sini kabi bir ko'p jihatlar nazariy yo'sinda tekshirilgan. Asarga asosli ilmiy baho berish yo'llarini o'rgatish maqsadi ko'zlangan.[2] O'zbek adabiyotshunosligida Istiqlol davri o'zbek she'riyatini o'rganish bo'yicha bir qancha tadqiqotlar amalga oshirilib kelinmoqda. B.Nazarov, Q.Yo'ldoshev, D.Quronov, B.Karim, N.Jabborov, I.Yoqubov, S.Meli, U.Jo'raqulov singari adabiyotshunoslarning so'nggi yillarda yaratgan tadqiqotlarida Istiqlol davri she'riyatining o'ziga xos jihatlari, rivojlanish tamoyillari, uslubiy xususiyatlari tahlil etiladi.[3]

**Metafora** – bu ma'no yoki fikrni ifodalash uchun, odatda, bir narsa yoki hodisani boshqasi bilan bog'lash orqali majoziy taqqoslashdan foydalanadigan adabiy vosita. **Bu yerda metaforalarning asosiy xususiyatlari** – metafora ikki xil narsa, hodisa yoki g'oyalarni "sifatida" yoki "bir xil" so'zlarini ishlatmasdan taqqoslashga asoslanadi. Buning o'rniga, ma'lum bir ma'no yoki hissiyotni yetkazish uchun bir narsa yoki hodisa boshqasi bilan bog'lanadi. Yaxshi metafora ko'pincha kutilmagan va o'ziga xosdir. U tanish obyekt yoki vaziyatga qarashning yangi usulini taklif qilishi mumkin, bu esa o'quvchining tanish narsani yangi nuqtayi nazardan ko'rishiga sabab bo'ladi. O'quvchi e'tiborini jalb qilish uchun metafora vizual tarzda ajoyib va original bo'lishi kerak. U uzoq vaqt davomida ongda qoladigan yorqin va esda qolarli tasvirlarni yaratishi kerak. Metafora ko'pincha chuqur ma'no yoki ko'plab mumkin bo'lgan talqinlarni o'z ichiga oladi. U har doim ham oddiy tilda ifodalab bo'lmaydigan murakkab his-tuyg'ularni, g'oyalarni yoki tushunchalarni aks ettirishi mumkin. Metafora butun matn bo'ylab o'zgarishi va rivojlanishi, asarning turli elementlari o'rtasida murakkab analogiya va parallelliklarni yaratishi mumkin. U

simvolizm va allegoriya yaratish uchun asos bo'lib xizmat qilishi mumkin. Metafora ko'pincha kuchli hissiy kuchga ega bo'lib, o'quvchida quvonch, qayg'u, qo'rquv yoki hayrat kabi his-tuyg'ularni uyg'otishga qodir. Bu xususiyatlar metaforani o'quvchida chuqur va esda qolarli taassurot qoldirish uchun she'riyat, nasr, dramaturgiya va boshqa adabiy janrlarda qo'llaniladigan kuchli va ko'p qirrali adabiy vositaga aylantiradi.

## MUHOKAMA/OBSUJDENIJE/DISCUSSION

Mustaqillik davri o'zbek she'riyatidagi o'xshatish va metaforalarning lisoniy va madaniy xususiyatlari haqidagi bahs O'zbekiston til va madaniy merosining turli qirralarini ochib beruvchi qiziqarli bahsdir. Ushbu munozarada muhokama qilinishi mumkin bo'lgan bir nechta asosiy fikrlar mavjud. O'xshatish va metaforalarning madaniy o'ziga xoslikni saqlashdagi o'rni quyidagicha: Mustaqillik davri o'zbek she'riyatida milliy madaniyat va an'analardan kelib chiqqan o'xshatish va metaforalardan ko'p foydalaniladi. Bu O'zbekistonning boy madaniy merosini she'riy asarlar orqali asrab-avaylash va yetkazishga xizmat qiladi. Milliy ongning namoyon bo'lishi orqali Mustaqillik davri o'zbek she'riyatida o'xshatish va metaforalar ham milliy ongni ifodalash, milliy o'zlikni mustahkamlash yo'llaridan biri sifatida namoyon bo'lmoqda. Bu lingvistik elementlar o'zbek madaniyati, tarixi va qadriyatlarining o'ziga xos tomonlarini aks ettiradi. Mustaqillik davri o'zbek she'riyati til, madaniyat va millatning o'ziga xosligi o'rtasidagi murakkab munosabatlarni aks ettiruvchi o'ziga xos madaniy hodisadir. O'xshatish va metaforalarning lisoniy va madaniy xususiyatlari o'ziga xos she'riy uslubning shakllanishida, milliy o'zlikni ifodalashda asosiy o'rin tutadi. Bu hodisani chuqurroq anglash uchun mustaqillik davri o'zbek she'riyatining eng tipik namunalari adabiy tahlil qilish muhim ko'rinadi.

Mustaqillik davri o'zbek she'riyatida o'xshatishlar ko'pincha o'zbek madaniyati va an'alariga xos obraz, timsol va metaforalarni o'zida mujassam etgan. Masalan, shoir Abdulla Avazovning "Bahor" she'rida "Bahor atirguldoy gullaydi vodiy" qiyosini uchratish mumkin. Bu yerda go'zallik va hayot timsoli bo'lgan atirgul bilan qiyoslash tabiat qiyofasini butun tarovati va go'zalligi bilan yetkazishga yordam beradi. O'zbek she'riyatida metaforalar ham muhim o'rin tutib,

she'riy matnlarga hissiy boylik va teranlik olib keladi. Masalan, shoir Jahongir Aminovning "Jon" she'rida quyidagi metaforaga e'tibor qaratish mumkin: "jon". Ruh yoki hayotni bildiruvchi bu metafora o'zbek she'riyatida ko'pincha shahvoniy va falsafiy g'oyalarni ifodalashda qo'llanib, matnlarga chuqur ma'no va ahamiyat beradi.

Mustaqillik davri o'zbek she'riyatidagi o'xshatish va metaforalarning lisoniy-madaniy xususiyatlari o'zbek madaniyatining boyligini, uning tarixiy an'analarini, milliy o'zligini namoyon etadi. Ulardan foydalanish shoirlarga noyob she'riy obrazlarni yaratishga, zamonaviy dunyo haqidagi o'z fikr va his-tuyg'ularini ifoda etishga yordam beradi. Xulosa o'rnida aytish mumkinki, mustaqillik davri o'zbek she'riyatidagi o'xshatish va metaforalarning lingvomadaniy xususiyatlarining adabiy tahlili bu xalq tili, madaniyati, she'riy ijodi o'rtasidagi bog'liqlikni chuqurroq anglash imkonini beradi. U o'zbek she'riyatining o'ziga xosligini, jahon adabiyotiga qo'shgan hissasini alohida ta'kidlaydi.

Zamonaviy mavzu va masalalar integratsiyasi hal qiluvchi ahamiyatga egadir. Hozirgi o'zbek she'riyatida zamonning ijtimoiy, siyosiy va madaniy muam-molarini aks ettirish uchun o'xshatish va metaforalardan foydalanishni ko'p kuzatish mumkin. Bu shoirlarga zamonaviy voqelik haqidagi o'z fikr va his-tuyg'ularini ifodalash, jamoatchilik muloqotini kuchaytirish imkonini beradi. Milliy adabiy an'ananing shakllanishida she'riyatning o'rni beqiyos. Mustaqil-lik davri o'zbek she'riyati o'zbek adabiyotining boy an'analarini davom ettirib kelmoqda, bu jarayonda o'xshatish va metaforalar muhim o'rin tutadi. Ular o'ziga xos poetik uslubni yaratishga va shoirlarning oldingi avlodlari bilan aloqalarni saqlashga yordam beradi.

Mustaqillik davri o'zbek she'riyatida o'xshatish va metaforalarning lingvomadaniy xususiyatlarining shu va boshqa jihatlari qizg'in muhokama mavzusiga aylanishi mumkin, unda ishtirokchilar til va madaniyatning o'rni haqidagi o'z qarashlari va fikrlarini bildirishlari mumkin.

Istiqlol davri o'zbek she'riyati bu foydali yomg'irdan so'ng potrap o'sib chiqqan qo'ziqorin emas, aksincha, asrlar davomida tinimsiz o'zgarib – yangilanib kelayotgan o'lmas jarayonning qonuniy bir uzvi bo'lib, o'zida juda katta va ko'pdan-ko'p tajribalarni jamlagan g'oyat murakkab va bebaho san'atimizning bir bo'lagidir. U shunisi bilan o'zidan

avvalgi barcha davrlarga ham o'xshaydi, ham o'xshamaydi. O'xshash jihati – o'sha davrlar she'riyatidan o'sib chiqqan, binobarin, ularning eng yashovchan unsurlarini o'ziga meros qilib olgan. Farqli jihati – dunyoga keng ochilgan jamiyatning, xususan, uning bir a'zosi hisoblanmish shoirning ozod tafakkurini o'zida aks ettiradi.

#### **XULOSA/ЗАКЛЮЧЕНИЕ/CONCLUSION**

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, mustaqillik davri o'zbek she'riyatidagi o'xshatish va metaforalarning lisoniy-madaniy xususiyatlarini o'rganish O'zbekiston tili, madaniyati va adabiyotining o'zaro chuqur ta'sirini ochib beradi. Bu davr she'riy asarlarida qo'llanilgan o'xshatish va metaforalar nafaqat lingvistik vosita, balki xalqning madaniy qadriyatlari, o'zligi va tarixini yetkazish vositasi sifatida ham xizmat qiladi.

Bu tadqiqot o'zbek tilining o'ziga xos lingvomadaniy xususiyatlarining she'riy ijodda qanday aks etishini aniqlash imkonini berdi, o'zbek madaniyatining boyligi va serqirraligini ta'kidladi. O'xshatish va metaforalar she'riyatda rang-barang obrazlilik, emotsional teranlik yaratish bilan birga, o'tmish va bugun o'rtasida ko'prik vazifasini o'taydi, madaniy merosni asrab-avaylash va avlod-dan-avlodga yetkazishda ham xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalariga ko'ra, mustaqillik davrida o'zbek she'riyatining o'ziga xos she'riy uslubi shakllanishida o'xshatish va metaforalarning lingvomadaniy xususiyatlari muhim o'rin tutadi, degan xulosaga kelish mumkin. Ular nafaqat she'riy ijodning estetik va hissiy jihatlarini ifodalash, balki milliy o'zlikni mustahkamlash, O'zbekiston madaniy merosini adabiy kontekstda saqlashga hissa qo'shadi. Umuman olganda, bu boradagi kelgusi tadqiqotlar til, madaniyat va adabiyot o'rtasidagi munosabat, shuningdek, she'riyatning milliy o'zlikni shakllantirish va saqlashdagi o'rni haqidagi tushunchamizni kengaytirishda davom etishi mumkin.

#### **Adabiyotlar ro'yxati/Использованная**

#### **Литература / References**

1. Расулов А. Тахлил, талқин, баҳо. – Т.: Фан, 2006.
2. Қозоқбой Йўлдош, Муҳайё Йўлдош. Бадий тахлил асослари. – Т.: Камалак, 2016.
3. Ёқубов И. Бадий-эстетик сўз сехри. – Т.: Фан ва технология, 2011.
4. Мирзиёев Ш. Эркин ва фаровон, демократик Ўзбекистон давлатини мард ва олижаноб халқимиз билан бирга қурамыз. Халқ сўзи. // 2016 йил 16 декабр.



## КУЛОЛЛИК ИДИШЛАРИНИНГ МОДДИЙ ВА МАЪНАВИЙ МАНБА СИФАТИДАГИ ТАЛҚИНИ

Муминова Гулчехра Исмаиловна  
Жиззах давлат педагогика университети,  
ўқитувчи

## ИНТЕРПРЕТАЦИЯ КЕРАМИЧЕСКИХ СОСУДОВ КАК МАТЕРИАЛЬНОГО И ДУХОВНОГО РЕСУРСА

Муминова Гульчехра Исмаиловна  
Джизакский государственный педагогический университет,  
учитель

## INTERPRETATION OF CERAMIC VESSELS AS A MATERIAL AND SPIRITUAL RESOURCE

Muminova Gulchekhira Ismailovna  
Dzhizak State Pedagogical University,  
teacher



Gulchekhrat Muminova  
[8420@gmail.com](mailto:8420@gmail.com)

**Аннотация:** Ушбу мақолада муаллифнинг уструсоналикларнинг исломга қадар диний эътиқоди ва тасаввурлари ҳақидаги фикр-мулоҳазалари келтирилган бўлиб, унда асосий эътибор илк ўрта асрларда кулоллик идишларининг моддий ва маънавий манба сифатидаги талқинига қаратилган.

**Калим сўзлар:** Уструсона, “Дэси руҳи”, зардуштий, будда, насроний, остодон, сюжет, локал, ритуал ашёлар.

**Аннотация:** В статье представлены взгляды автора на религиозные верования и представления уструсонистов доисламского периода, уделяя особое внимание трактовке керамических сосудов как материального и духовного ресурса в раннем средневековье.

**Ключевые слова:** Уструсона, «дух Дези», зороастрийский, буддистский, христианский, мастер, сюжет, локаль, ритуальные предметы.

**Abstract:** The article presents the author's views on the religious beliefs and ideas of the Ustrusonites of the pre-Islamic period, paying special attention to the interpretation of ceramic vessels as a material and spiritual resource in the early Middle Ages.

**Key words:** Ustrushona, “Desi spirit”, Zoroastrian, Buddhist, Christian, master, plot, locale, ritual objects.

### КИРИШ (ВВЕДЕНИЕ / INTRODUCTION)

Илк ўрта асрлар (IV-VIII) Ўрта Осиё халқларининг сиёсий, ижтимоий, иқтисодий ва маданий-маънавий ҳаётида катта ўзгаришлар содир бўлган муҳим бурилиш даври сифатида тарихдан ўрин олган. Дастлаб эфталийлар, сўнгра Турк ҳоконлиги и хукмронлиги остида бирлашган Ўрта Осиёнинг икки дарёси оралиғи ва ҳавзаларида бир-бири билан ёнма-ён яшаган халқларнинг диний-руҳоний ҳаёти турли хилда кечган бўлиб, улар зардуштийлик, буддавийлик,

насронийлик каби халқаро йирик динлардан тортиб, моний, шомоний, тотемизм каби турли маҳаллий диний тасаввурларга ҳам эътиқод қилишган.

### АДАБИЁТЛАР ТАҲЛИЛИ ВА МЕТОД (ЛИТЕРАТУРА И МЕТОД / MATERIALS AND METHODS)

Уструсоналикларнинг исломга қадар диний эътиқоди ва тасаввурлари ҳақида ёзма манбаларда атрофлича маълумотлар келтирилсада,



айнан ушбу тарихий масалаларнинг ечимига доир махсус тадқиқотлар мавжуд эмас.

Шу сабабли Уструшонанинг илк ўрта асрлар даври диний эътиқоди тарихи, аввало археологик материаллар асосида, қолаверса Суғд, Чоч, Фарғона каби қўшни ўлкалардаги мавжуд маълумотларга нисбатан қиёсий солиштириш тарзида ва албатта, афсонавий-эпик, халқ оғзаки ижоди ҳамда этнографик материаллар асосида ўрганишни тақозо қилади. Хитой йилномалари илк ўрта асрларда Уструшолада таомилда бўлган “Дэси руҳи”, “Кўк тангри”си ва муқаддас қадамжойга айлантирилган ғор, муқаддас олов, бут-санам топинчи ҳақида маълумотлар беради.

Исломият даври муаллифлари Уструшона, хусусан унинг тасарруфидаги Буттам вилояти аҳолисининг бутпарастлиги ҳақида хабар берадилар. 841 йилда халифалик пойтахти Бағдодда Уструшона афшини Ҳайдар ибн Қовусга нисбатан ташкил қилинган суд жараёни ҳақида батафсил маълумот берган ат-Табарийнинг ёзишича, икки гувоҳ ал-Афшинга қарши, унинг сохта мусулмон (мунофик) эканлиги ҳақида кўрсатма беради. Асли суғдий бўлиб, мусулмончиликни қабул қилган, бири имом, бири муаззин сифатида фаолият кўрсатган бу гувоҳлар Уструшоладаги бутхона ичидаги санамларни чиқариб ташлаб уни масжидга айлантирадилар. Бундан хабар топган Ҳайдар ал-Афшин уларга минг қамчи уриш тан жазосини тайинлайди. Араб халифаси пойтахтида яшаётган, халифа Муътасим(833-842)нинг энг ишончли саркардаларидан бири бўлган, мусулмончиликни қабул қилган Ҳайдар ал-Афшин учун бу жуда қаттиқ айблов эди. Ушбу воқеани у қуйидагича изоҳлайди: яъни Уструшона ҳукмдори билан Уструшона афшини ўртасида тузилган битимга мувофиқ бу икки мамлакат аҳолиси диний эътиқод эркинлиги билан таъминланганлигини, бу икки шахс ушбу битимни қасддан бузганлигини рўқач қилади.

Бизнинг фикримизча, масжидга айлантирилган бутхона Суғд билан чегарадош бўлган Уструшона рустоқлари Харакана (Ғаллаорол) ёки Фағнон (Жиззах)га қарашли мавзеда бўлган. Чунки икки суғд фуқароси бўлган мазкур шахсларнинг бундай ишни Уструшонанинг марказий мавзеларига бориб қилиши мантиққа зиддир. Ҳайдар ал-Афшиннинг Самарра шаҳрининг Матира даҳасидаги қасри тинтув қилинганда

ёғочдан йўнилган, одам қиёфасидаги бут топилади. У қимматбаҳо тошлар билан безатилган, тилла ипларга тизилган марваридлар қулоғига тақилиб жуда улуғланган эди. Худди шундай иккинчи бут ал-Афшиннинг Вазирия маҳалласидаги қасридан ҳам топилади ва унинг ҳали-ҳануз ўз аждодлари динига топиниб, исломни хўжа кўрсинга қабул қилгани исботланади ва оғир жазога тортилади [1]

**МУҲОКАМА (ОБСУЖДЕНИЕ / DISCUSSION)** Уструшона аҳолисининг бутпараст бўлганлигини ат-Табарий маълумотларидан ҳам билса бўлади. Муаллифнинг ёзишича, 737 йилда араб босқинидан Хутталон валиаҳди Аха Жиш бошчилигидаги қочоқлар Уструшоладан паноҳ топади ва ўзлари билан кўп сонли бутларни олиб келишади ва уларни Уструшоладаги, эҳтимол юқорида қайд этилган ибодатхона (бутхона)га ўрнатишади. Буттам вилоятини қайтадан истило қилган Қутайба Жаҳма ибн Заҳро қўшини қўлга киритган ўлжалар орасида олтиндан ясалган бутлар ҳам бўлган [2]

Демак, ёзма манбалар маълумоти асосида маълум бўлишича, илк ўрта асрларда Уструшолада бутпарастлик дини муомалада бўлган. Бу борада Зомин шаҳридан 3км шарқда Четарик қишлоғида жойлашган қадимий Мозортепа қишлоқ маконидан тасодифан топилган терракота-санам ҳайкалча диққатга сазовордир. Санам ҳайкалча яхши ишлов берилган лойдан “матрица”-қолип ёрдамида ясалган, бир маромда пиширилган, оч малла ангоб билан бўялган.

Ҳайкалчанинг бел қисмидан пасти синган, унинг сақланиб қолган бўйи – 6,5см.га тенг. Ҳайкалчанинг бош қисми тик, бироз ерга қараган, сочлари силлиқ орқага таралган, юз тузилиши узунчоқ, қошлари деярли тўғри, бир-бири билан туташган жойи эгарчасимон кўринишда, кўзлари бодомсимон, қорачиқлари рельефли, бўртиб чиққан, бурни тўғри, пастки қисми синган, мўйлови тўлқинсимон тизимча шаклида, узунлиги туфайли қулоқлари тагигача етган. Энгаги овалсимон соқали йўқ, бўйни қисқа, елкалари тор, суйрисимон, қўллари чалкашган тарзда, чап қўл ўнг қўлнинг устидан ўтган, чап қўлнинг бош бармоғи аниқ ифодаланган, билаги-га орқама-кетин 2та билакузук тақилган. Худди шундай билакузуклар икки қўлнинг елкадан паст қисмига тақилган. Ҳайкалчанинг кийими ҳам

аниқ ифода этилган бўлиб, унга кафтан ёки олди ёпиқ кўйлак кийдирилган, унинг бўйнига 9та мунчоқдан иборат тақинчоқ тақилган [3].

Зомин шаҳридаги Оқтепа шаҳар ёдгорлигининг илк ўрта аср қатламларидан топилган навбатдаги терракота ҳайкалча тасвир жиҳатдан биринчисига умуман ўхшамайди. Ушбу ҳайкалчада ҳам эркак образи тасвирланган бўлиб, унинг боши юқорига кўтарилган, нигоҳлари тепага (осмонга) қараган. Ҳайкалча ўртача сифатли лойдан ясалган бўлиб, қизил ангоб билан бўялган. Иккала қўли ҳам қадимги даврда, чап оёғининг бир қисми эса кейинчалик синган [3].

Уструшонашунос олим А.А. Грицинанинг эътирофича, биринчи ҳайкалча қўллари чалкаштирганча бир-бирини устига қўйиб хоч тасвирини бериш аънанаси (хункар ифодаси) хинд иконографиясида кенг тарқалган бўлиб, бу орқали Вазра хункар маъбуд ифодаланган. Иккинчи ҳайкалча тимсолида тиззасини ерга теккизиб, чўккалаб ўтириб тоат-ибодат амалини бажараётган маъбуд (бут, санам) тасвирланган [3].

Шундай қилиб, ёзма ва археологик манбалар асосида илк ўрта асрларда Уструшонада бутпарастлик дини таомилда бўлган, деган фикрни бермоқда. Бу эса баъзи уструшонашунослар ўртасида Уструшонада Будда дини фаолиятда бўлган, деган фикрга келишларига сабаб бўлган.

630 йилда Ўрта Осиёда бўлган хитойлик сайёҳ Сюан-Цзаннинг маълумотларига қараганда, Суғд ва Уструшонада буддавийлик динига сиғинувчилар умуман бўлмаган. Яна бир хитойлик сайёҳ Хой Чаонинг 726 йилга оид маълумотларига кўра, Самарқандда ягона Будда ибодатхонаси мавжуд бўлиб, унда бор-йўғи бир нафар коҳин фаолият кўрсатган. Қолган ҳудудларда ибодатхоналар мавжуд бўлмаган. Ушбу тарихий манбаларни чуқур таҳлил қилган тадқиқотчи Н. Негматов бут, санамлар билан боғлиқ диний тасаввурларни Ўрта Осиё, жумладан Уструшона халқлари диний таомилида бўлган зардуштийликнинг ўзига хос кўриниши сифатида талқин қилишни таклиф қилади. Муаллиф ушбу фикрларини бут, санамларга топиниш ҳақидаги манбалар маълумоти оловга сиғиниш (муғ) ҳақидаги хабарлар билан бирга берилиб уларни уйғунлашиб кетгани билан, хусусан Хой Чаонинг Суғд ва Уструшона аҳолиси

осмон маъбуд ифодаси оловга сиғиниши ҳақида хабар билан асослайди.

Шунингдек, Н. Негматовнинг ёзишича, юқорида суд жараёни баён қилинган Ҳайдар ал-Афшиннинг Вазириядаги қасри тинтув қилинганда муғлар (оташпарастлар) фойдаланадиган “китоблар-китоби” Заравах топилади. Ҳайдар ал-Афшин Заратуштра динининг асл мазмун, моҳиятини ўзида ифода этган, зардуштийларнинг муқаддас китоби Заравахни тилло-забаржадлар билан безаган, ипак парча матолари билан ўраган ҳолда, асраб-авайлаб сақлаган экан. Судда Ҳайдар ал-Афшинни мусулмон бўлатуриб Куръондан эмас, балки оташпарастлар китобидан адаб ва таълим олганликда айблашади [1].

## НАТИЖАЛАР (РЕЗУЛЬТАТЫ / RESULTS)

Ўзбекистон Республикаси Фанлар Академияси Я.Фулумов номидаги Археология институти Жиззах экспедицияси 2010 йилнинг октябр ойи сўнггида Ғаллаорол тумани Муллабулоқ ҚФЙга қарашли Тепа Мулкуш қишлоғи ҳудудида режадан ташқари, тезкор қидирув-қазув тадқиқотларини ўтказди. Бунинг сабаби, экспедиция раҳбарига етказилган хабарга кўра, Тепа Мулкуш қишлоғининг шимолий қисмидаги Саодат Даурбоевага қарашли фермер хўжалиги боғидан тасодифан, сопол оstonлар мажмуаси топилган.

Авалло, ушбу маълумотларни ҳақиқийлигини аниқлаш мақсадида фермер хўжалиги раҳбари С. Даурбоева билан учрашдик. Саодат опанинг айтишича, 2007 йил ёз ойлари мазкур ноқзор боғни суғориш учун ишчиларга ҳар бир дарахтни тагини хандақ қилиб чуқурлаш ҳақида топшириқ берган. Ушбу юмушни бажарган ишчилардан бири Ғофур Сувоновнинг айтишича, ер сатҳидан тахминан 70-80 см чуқурликдан устма – уст қилиб тахлаб қўйилган, қутичага ўхшаш асосан бир хил ўлчам ва шаклдаги сопол идишлар чиқа бошлаган. Сопол идишларнинг учтаси синдириб олинган, уларнинг ичида одамнинг бош чаноғи, бошқа аъзолари суяклари билан бирга тартиб билан тахлаб қўйилган экан. Қишлоқ оқсоқоларининг маслаҳати билан одам суяклари Муллабулоқ қабристонига, сопол синиқлари эса аввалги жойига қўйиб қўмиб ташланган. Бу “ғалати

топилма” ҳақида ҳеч қарга хабар берилмаган. Маҳалла оқсоқолларининг эслашларига қараганда, аввал ушбу топилмалар қайд этилган жой ўрнида узунлиги тахминан 15 м., эни 9 – 10 м., баландлиги 1,5 м лар чамаси кичик тепалик мавжуд бўлган. Ўтган асрнинг 80-йилларида бу ердаги пахтазор ўрнида боғ барпо этиш ишлари бошланган ва тепалик техникалар ёрдамида текислаиб боғ майдонига қўшиб текислаб юборилган.

Шундай қилиб, етарли даражада оғзаки маълумотларга эга бўлгач, тасодифий топилмалар “муалифлари” кўрсатган жойда кичик ҳажмли қазув-қидирув ишлари бошланди. Икки кун давом этган қазув ишлари натижасида, 2x1 м майдонда шурф қазилди ва шурфнинг 1,6 м чуқурликдан кўп миқдорда сопол синиқлари, уларнинг орасидан деярли уқаланиб кетган одам суяклари топилди. Тупроқ қатламлари аввал қазилиб жойидан кўзғатилгани сабабли, уларнинг стратиграфиясини аниқлаш мумкин бўлмади. Ҳандақдан чиққан аралаш тупроқнинг таркиби кумоқ, кўнғир ғовак тупроқлардан иборат. 1,6 м чуқурликдан кейин тартибсиз равишда ташланган турли сопол бўлаклари қайд этилди. Сопол синиқларидаги кунгуралар, махсус “қолип-муҳр”да чекичлаб туширилган безаклар, геометрик нақшлар ва бошқа хусусиятларга кўра, бу идишлар зардуштий қавмларга тегишли остадонлар эканлиги маълум бўлди.

Топилмаларнинг ҳаммаси қайдномадан ўтказилиб Археология институтининг реставрация ва консервация бўлимига топширилди. Натижада, Тепа-Мулкуш қишлоғидан ўн дона остадон мажмуаси тарих илми учун ғоят катта топилма эканлиги аён бўлди. Бу Жиззах вилояти ҳудудидан топилган дастлабки, кўп сонли “классик” усулдаги остадонлар мажмуаси бўлиб, шу пайтгача воҳамиздан фақат 2 дона тасодифан топилган остадонлар маълум эди.

Уструшонада шу пайтгача, яъни Ғаллаоролдан топилган мазкур остадонлар мажмуасига қадар мумтоз остадонлар ниҳоятда кам топилган. Авваллари қайд этилган остадонлар ҳам ўзига хослиги билан ажралиб турган. Хусусан, оддий лойдан ясаиб, офтобда қуритилиб, дарҳол фойдаланишга сафарбар қилинган Куркат остадонлари, Зомин тумани

Қизилсой мавзесидан топилган “ўтовсимон” остадон бу тарихий ўлкадан шу пайтгача топилган кам сонли намуналар эди [4].

Уструшонада, айниқса унинг шимолий-ғарбий сарҳадларида ҳам исломга қадар бўлган даврда аввало ўтроқ деҳқон аҳоли зардуштийликка кенг ва қатъий амал қилган. Ўлим ҳодисаси билан боғлиқ маросим ва урф-одатларда остадонлар ўрнини сопол идишлар, хусусан, турли ўлчамдаги хум ва хумчалар бажарган. Жиззах шаҳридаги Қалиятапа шаҳар ёдгорлиги атрофидан, Комилбоботепа қалъаси маданий қатламларидан, Зомин воҳасидаги Қўштепа қишлоқ ёдгорлиги, Бирлашган қишлоғидан кўплаб хум остадонлар қайд этилган[5]. Тепа-Мулкуш остадонлари маҳаллий соз тупроқ лойидан қўлда тайёрланган, хумдонда пиширилган, ички ва сирт томонлари куюқ, қизғиш рангли ангоб билан бўялган. Уларнинг аксарияти овалсимон шаклда ясалган, узунлиги 45-52 см., эни 17-21 см, баландлиги 15-18 см атрофида бўлсада, 2 та майда “болалар остадони” ҳам мавжуд. Остадонлар устки қисмининг олд тарафи шаҳар, қалъа кўрғонининг мудофаа иншоотлари тасвирини берувчи кунгурадор девор шаклида ясалган, унинг ички томонида идиш қопқоғи зич жойлашиши учун махсус новсимон айлана мослама, кунгурадор деворнинг тагига эса юқорида таъкидланган турли безак ва нақшлар туширилган.

Остадонларнинг “функцияси” эса қуйидагича бўлган. Маълумки, дастлабки дунёвий дин зардуштийликка мил.эрадан аввалги VIII асрда Ўрта Осиё иккидарё оралиғи (Хоразм)да асос солинган. Бу дин пайгамбари Спитама Заратуштра бўлиб, диннинг асосий ғояси бўйича ҳаёт яхшилик билан ёмонлик, ёруғлик билан зулмат, ер усти дунёси билан ер ости дунёси ўртасидаги курашдан иборатдир. Ер усти дунёси яхшилик, тириклик ва эзгулик тимсоли бўлиб, у худо Ахурамазда тасаруфидадир. Ер ости дунёси эса ёмонлик, ўлим ва қабоҳат тимсоли бўлиб, у худо Ахриман тасаруфидадир. Ер усти ёруғ оламни табиатнинг тўрт унсури – олов, сув, ҳаво(шабода), ер (тупроқ) ташкил этади ва шу сабабли, улар муқаддаслаштирилган. Диний ақида бўйича ер-сувни, олов ва ҳавони ифлослантормасдан, тоза ва озода сақлаш зардуштий қавмларнинг энг масъулиятли

вазифаси ҳисобланган. Шу нуқтаи-назардан инсон вафот этгач унинг жасади тўғридан-тўғри она заминга дафн этилмаган. Ерни макруҳ қилмасликнинг зарур чора-тадбирлари кўрилган. Ўргатилган итлар, қарға-қузғунлар ва ҳатто ўша давр “жарроҳлари” томонидан майитнинг суяклари этдан тозаланган, қуёшда қуритилган. Сопол идишларда (хум, хумча, остодон) сақланиб, махсус жойлар хусусан, хилхона-сағаналарга қўйилган.

Бизнинг фикримизча, остодонлар топилган жойдан, қишлоқ оқсоқоллари эслатган ва 1980 йилларда текисланиб кетган кичик тепа ўрнида уструсоналик зардуштий қавмларнинг хилхона-сағанаси мавжуд бўлган. Бундай дейилишига етарлича асос бор. Хусусан, остодонлар топилган худуддан 350м.лар чамаси жануб томонда Мулкуштепа номли илк ўрта аср қишлоқ макони ҳозиргача сақланиб қолган. Қолаверса, Тепа Мулкуш қишлоғидан тахминан 1,5км.лар шимолий-шарқда, Катта Ўзбек трактининг ёқасида, кейинчалик қабристонга айлантирилган яна бир илк ўрта асрларга оид (V-VIII аср) йирик қишлоқ харобалари сақланиб қолган. Бу эса ушбу манзилларда яшаган аҳолининг ислом дини тарқалгунга қадар зардуштийликка эътиқод қилганларидан, остодонлар ушбу аҳолининг диний, моддий-маънавий ҳаётини ойдинлаштирувчи муҳим топилма эканлигидан далолат беради.

Шундай қилиб, Ғарбий Уструшондан топилган остодонлар мажмуаси ўзининг ясашиш техникаси, шакли, нақшлар ва безакларидаги “сюжет”лари ва албатта қўлланилишига кўра, аввало “локал”, маҳаллий хусусиятларни ўзида тўлиқ акс эттиради. Шунга қарамасдан, остодонлардаги баъзи хусусият ва кўринишлар Фарғона, Чоч, Суғд зардуштий қавмларида истеъмолда бўлган қутисимон, қайиксимон остодонларга ўхшаб кетади [6]. Қиёсий таҳлилларга кўра, Ғарбий Уструшона остодонлари мажмуасини милодий эранинг VII асри иккинчи ярми VIII аср бошлари билан даврлаш мумкин [7].

Хулоса қилиб айтганда, Ўрта Осиё бўйлаб тарқалган остодонларнинг шакли асосан икки хил эканлиги тадқиқотчилар назаридан четда қолмаган. Бир гуруҳ остодонлар ташқи кўриниши овал-айлана шаклида, чорвадорлар ўтовига қиёслаб ясалган бўлса, иккинчи гуруҳга қалъа,

работларга менгзаб уларда дарвозалар, ҳарбий миноралар, ёйандозлар шинаклари моҳирлик билан тасвирланган. Мутахасислар фикрича, бу ҳол зардуштий уруғларининг ҳаёт тарзини кўрсатувчи омил. Яъни, ўтовсимон остодонлар кўчманчи чорвадор зардуштийларга, қалъа, работ, минорадан нусха олиниб ясалганлари эса ўтроқ ҳаёт кечирувчи қавмларга тегишлидир. Чунки, овал остодонлар ўтовга қиёслаб ясалган ва уларда устун ва пештоқлар нусхасини ифодаловчи чизмалар мавжуд бўлиб, бу чорвадор кўчманчи қавмларга алоқадор муҳим исботловчи далилдир. Айрим тадқиқотчиларимиз эса овал шаклидаги остодонларни қабр устига қурилган гумбазли иншоот, кириш коплекси бўйича эса унга ўхшаб кетадиган Фарғона муғ-хоналари билан боғлайди.

Демак, бундан кўринадики, овал шаклидаги остодонларнинг пайдо бўлишига VI-VII асрларда Ўрта Осиёга кириб келган чорвадор туркий халқлар маданияти билан маҳаллий суғд маданиятини аралашиб кетиши сабаб бўлган. Туркийларни ўз дини ва урф-одат маросимларига жалб этган суғдийлар уларнинг дини ва тушунчалари билан ҳисоблашишган.

#### **Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:**

1. Негматов Н.Н. Историческо-географический очерк Уструшаны с древних времен по X веков н.э // МИА. –М.: 1953. – № 37 С. 74
2. Бартольд В.В, История культурной жизни Туркестана. Л. 1927, с. 39-49.
3. Буряков Ю.Ф., Грицина А.А., Кочнев Б.Д. Древний Заамин.– Ташкент:Фан, 1994. С.121-123-125
4. Грицина.А.А. Уструшанские были. Т., 2000. с.190-193
5. Пардаев А.Х. Жиззахнинг сўнги ўрта аср тарихий географиясига оид дастлабки мулоҳазалар. (ёзма манбалар ва археологик маълумотлар асосида). // ЎММТ. 33-нашри. –Т.: Фан. 2002. Б. 262-268.
6. Матбабаев Б.Х.Кистории культуры Ферганы в эпоху раннего средневековья. – Тошкент: “Тафаккур” 2009. С. 49-50; Пардаев М.Х., Гофуров Ж.И. Шимолий-ғарбий Уструшонада зардуштий қавмлар излари. // Ўзбекистон Археологияси. №(2)3, Самарқанд, 2011.



## O‘ZBEK VA JAHON TILSHUNOSLIGIDA KONSEPT VA KONSEPTOSFERANING O‘RGANILISHI

*Axmedova Dildora Jo‘raxon qizi,*

*Termiz davlat pedagogika instituti o‘qituvchisi*

## RESEARCH OF CONCEPT AND CONCEPTOSPHERE IN UZBEK AND WORLD LINGUISTICS

*Dildora, Jurakhan kizi, Akhmedova,*

*teacher of Termiz State Pedagogical Institute*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada konsept va konseptosferaning tilshunoslikda o‘rganilishi va uning o‘zbek va jahon tilshunosligida ko‘plab olimlar tomonidan keltirilgan ta‘riflari hamda matn orqali ifodalanishi tahlil qilingan.

**Kalit so‘zlar:** konsept, konseptosfera, tilshunoslik, kognitiv, lingvokognitiv, lingvokulturalogiya, lingvistika, til, idrok.

**Аннотация:** В данной статье анализируются исследования концепта и концептосферы в лингвистике, его определения, данные многими учеными узбекского и мирового языкознания, и его выражение через текст.

**Ключевые слова:** концепт, концептосфера, лингвистика, когнитивная, лингвокогнитивная, лингвокультурная, лингвистика, язык, восприятие.

**Abstract:** This article analyzes the study of concept and conceptosphere in linguistics and its definitions given by many scientists in Uzbek and world linguistics and its expression through text.

**Key words:** concept, conceptosphere, linguistics, cognitive, linguo-cognitive, linguo-cultural, linguistics, language, perception.

### KIRISH/ВВЕДЕНИЕ/INTRODUCTION.

Bilamizki, kognitiv tilshunoslikning markaziy tadqiqot obyekti tushunchalar – xotiraning mazmunli birliklari, inson ongi va psixologiyasida aks etgan dunyoning butun manzarasi hisoblanadi. Keyingi yillarda kognitiv ilmning jadal rivojlanishi lingvistik tadqiqotlarda ham konsept tushunchasi muammosining dolzarblashishiga sabab bo‘ldi. Chunki, kognitiv va konsept yondashuv asosida lingvistik tadqiqotchi aynan til orqali inson kognitiv mexanizmini angelaydi. Bu esa, tilning barcha sath, sistemasi yuzasidan olingan faktik ma‘lumotlarni yangi-yangi xulosalar bilan boyitish imkonini yaratadi.

**ADABIYOTLAR TAHLILI VA METOD/LITERATURA И МЕТОД/MATERIALS AND METHODS.** Bugungi kunga kelib, barcha fan sohalari qatori tilshunoslik sohasi ham tez suratlarda

rivojlanib kelmoqda. Konsept so‘zining vujudga kelish tarixini o‘rganadigan bo‘lsak, dunyo tilshunosligida ilk bor, konseptlar, asosan, leksik hamda leksik-frazeologik birliklar orqali ifodalanadi, degan fikr ustun bo‘lgan bo‘lsa, keyingi davrlarda esa fanda sintaktik konseptlar ya‘ni sintaktik strukturaviy jihatdan yondashildi. Konsepsiyani aniqlashga birinchi urinishlar XIX asrda boshlangan. XXI asr boshlaridan boshlab, lingvokulturologik, lingvokognitologik, sotsiolingvistik hamda psixolingvistik tamoyillar yordamida tahlil qilish kuchaydi. Xususan, insonning bilish faoliyati bilan shug‘ullanuvchi lingvokognitologiyaning paydo bo‘lishi 1956-yildan deb e‘tirof etadilar. Shu bilan birga, mamlakatimizda tilga antroposentrik yondashuv tilshunoslik sohasining eng so‘nggi yutuqlarini o‘zida mujassam etib, mustaqil paradigma sifatidagi maqomini tobora



[https://orcid/](https://orcid.org/0002-0007-1400-8341)

[0002-0007-1400-8341](https://orcid.org/0002-0007-1400-8341)

**E-mail:**

[dildora\\_juraxonovna24](mailto:dildora_juraxonovna24@mail.ru)

[@mail.ru](mailto:dildora_juraxonovna24@mail.ru)

**Tel:** +99894-261-90-26

mustahkamlanib bormoqda. O'tgan asrning so'nggi choragida o'zining ilk qadamlarini qo'ygan kognitiv tilshunoslik XXI asr boshidayoq lingvistikaning peshqadam sohalaridan biriga aylanib ulgurdi. Ko'plab olimlar tilshunoslikda kognitiv yondashuvning paydo bo'lishini Jorj Miller va Filipp Jonson-Leyrdlarning mashhur "Til va idrok" kitobining chop etilishi bilan bog'lashadi. Kognitiv tilshunoslikning vujudga kelishi ayni paytning o'zida kognitiv tilshunoslikka oid Xalqaro konferensiyaga aylangan. 1989-yilning bahorida Duysburgda Xalqaro lingvistik simpozium boshlanadi. Ushbu simpoziumning a'zolari Xalqaro Kognitiv Lingvistika Assotsiatsiyasi (International Cognitive Linguistics Association)ni tuzishadi. Shu bilan birgalikda assotsiatsiya faoliyatini yoritib boruvchi "Kognitiv lingvistika" (Cognitive Linguistics) jurnaliga asos solishadi. To'plam materiallarining yuzaga kelishi, tilni anglash va unga bog'liqligi holda nutqni qurish, tashkillashtirish va axborotni mukammal darajaga keltirish va uni kommunikativ jarayonga ko'chirish kabi ko'p qirrali jarayon mahsuli sifatida qarash imkonini berdi. Tilga bo'lgan bunday yondashuv esa hozirgi kun tilshunoslik ilmida yangi yo'nalish kognitiv tilshunoslikning yuzaga kelishiga turtki bo'ldi. O'zbek tilshunoslaridan hisoblangan S.Safarovning fikriga ko'ra, "Kognitiv tilshunoslikning vazifasi til yordamida bilim olish va saqlash, tilni amalda qo'llash, hamda uzatish, umuman til tizimi va takibini inson miyasidagi in'ikosi sifatida tafakkur bilan bog'lab, chuqur ilmiy tadqiq etish"[2]dir. Bu fikrlardan shu ayon bo'ladiki, kognitiv fanda asosiy e'tibor insonni bilishga qaratiladi, kuzatilgan harakatlar shunchaki o'rganilmaydi, balki ularning aqliy ko'rinishlari (ichki tasvirlar, modellar), ramzlar, bilimga asoslangan harakatlarni yuzaga keltiradigan inson strategiyalari o'rganiladi; ya'ni insonning bilish dunyosi uning xulq-atvori va faoliyati bilan o'rganiladi, bu tilning faol ishtiroki ila sodir bo'ladi, u har qanday inson faoliyatining nutqiy tafakkur asosini tashkil qiladi – uning motivlari va munosabatlarini shakllantiradi, natijaga ishora qiladi. Professor A. Mamatov esa til tizimini kognitiv jihatdan tahlil qilish borasida fikr yuritarkan, shunday deb yozadi: "Kognitiv fan kognitsiya bilan shug'ullansa, kognitiv tilshunoslik kognitsiyaning, ya'ni bilishning tilda aks etishini, verballashuvini tadqiq qiladi. Tilga bo'lgan kognitiv

yondashuv - bu til shaklining oxir-oqibat inson ongi, fikri, bilish strukturalarining aks ettirilishidir. Kognitivlik o'z tuzilishiga ko'ra insonning bilish faoliyatiga tayangan barcha tipdagi bilimlarning tizimlashishini ifodalaydi"[3]. Kognitiv faoliyat axborotni qayta ishlash bilan birga keladigan jarayonlarni anglatadi va ongning maxsus tuzilmalarini yaratishdan iborat. Til nutq faoliyati kognitiv faoliyat turlaridan biri hisoblanadi. Kognitiv lingvistika o'z-o'zidan insonning kognitiv faoliyati bilan chambarchas bog'liq bo'ladi. Konsept, ssenariy, kognitsiya, freym atamallari kognitiv lingvistikaning markaziy tushunchalaridir. Ular orasida konsept atamasi lingvokulturologiya, lingvokognitologiya hamda adabiyotshunoslikda qo'llaniladi. Ammo izohi esa o'zaro farqlanadi. Rus tilshunosligida "konsepsiya" tushunchasi birinchi marta S.A. Askoldov 1928-yilda "Ruscha nutq" jurnalida chop etilgan "So'z va tushuncha". Ushbu maqolada u tushunchani kognitiv vositalarning o'rini bosuvchi sifatida belgilaydi, uni aqliy shakllanish deb ataydi. "Tushunchalarning mohiyatini tushunishga yondashish uchun ularning kognitiv vosita sifatidagi eng muhim jihatini tushunish kerak. Biz bu tomonni almashtirish funktsiyasida ko'ramiz. Tushuncha - fikrlash jarayonida biz uchun bir xil turdagi obyektlarning noaniq to'plamini almashtiradigan ruhiy shakllanishdir".

O'zbek tilshunosligida "konsept" tushunchasi turli talqinga egadir. Tilshunos olim N. Mahmudov o'zining "Til tizimi tadqiqi" nomli risolasining "Tilning mukammal tadqiqi yo'llarini izlab" mavzusidagi maqolasida "konsept tafakkurga oid, mazmuniy mental tushuncha, lekin uni milliy, madaniy unsurdan tamoman holi bo'lgan hodisa sifatida qarash anchayin munozaralidir"[5] deb yozadi. Bundan tashqari, tilshunoslikning yangi yo'nalishi lingvomadaniyat til va madaniyat o'rtasidagi bog'liqlikni o'rganadi. Konsept uning markaziy tushunchasi hisoblanadi. Professor N.Mahmudov shu nuqtai nazarga yondoshgan holda lingvokulturologiya konseptining o'rganilishi xususida shunday yozadi: "Lingvokulturologik tadqiqotlarda aynan konseptning ifodalanishi muammolariga juda katta e'tibor qaratilmoqda, internet materiallari bilan tanishganda, masalan, Rossiyadagi tilshunosliklarda bu yo'nalish nihoyatda keng tarqalganini ko'rish mumkin, bu

boradagi ishlarni sanab, sanog'iga yetish mushkul. Hatto so'nggi yillarda yoqlangan nomzodlik dissertatsiyalarining juda katta qismi aynan u yoki bu tilda konseptning lingvokulturologik tadqiqiga bag'ishlangan" [6].

"Konsept" - lotincha "conceptus" so'zidan olingan bo'lib, "tushuncha" ma'nosini ifodalaydi. Kognitiv atamalar lug'atida esa konsept atamasiga quyidagicha ta'rif beriladi: "Konsept bizning tafakkurimizdagi aqliy va psixik resurslarning inson bilim va malakalarida aks etishiga xizmat qiladigan tushunchadir" [4]. Konsept atamasi zamonaviy tilshunoslikda biror bir leksik birlikning tafakkurdagi obrazini ifodalash uchun qo'llanadi. Kundalik ilmiy ijodda esa konsept atamasi "tushuncha" bilan sinonim sifatida qo'llaniladi. Konsept lingvomadaniy birlik sifatida u yoki bu xalq madaniyatining o'ziga xos jihatlarni ifodalaydi. Masalan, uy konsepti o'zbek kishilarining tafakkurida quyidagicha assotsiatsiyalanadi: a) yashash joyi - bino - ko'p qavatli uy - hovli - xonadon - oila; b) katta, kichik, chiroyli, shinam, yorug', yangi, eski; d) mehribonlik uyi, dam olish uyi, madaniyat uyi. Ko'chma ma'noli birliklarni yuzaga chiqaradi: Uy ichi "oila a'zolari", uyi buzilmoq "er-xotinning ajralishi" kabilar orqali namoyon bo'ladi.

**MUHOKAMA/OBCYЖДЕНИЕ/DISCUSSION.** Bu atama kognitiv tilshunoslik va lingvokulturologiya uchun ham muhim kategoriya hisoblansada, uning ushbu fanlardagi izohi farqlidir. Ushbu termin tilshunoslikda o'tgan asrning 80-yillariga qadar tushuncha so'ziga sinonim sifatida ishlatilgan bo'lsa, bugungi kunga kelib uning izohi tushuncha terminiga nisbatan kengayib, boshqa sohalar bilan birga tadqiq etilishi orqali turli xil ma'nolarni yuzaga chiqqanligini anglab olishimiz mumkin. Konsepsiya kontsepsiyasi tizimli tadqiqotlarga D.S.Lixachev "tushunchani o'ziga xos "algebraic" ifoda sifatida ko'rib chiqishni taklif qilgan. Hozirgi vaqtda "konsepsiya" atamasi kognitiv tilshunoslikning asosiy tushunchasi sifatida o'zini namoyon qildi va eng ko'p qo'llaniladi. "Konsepsiya" atamasi bir qancha ilmiy yo'nalishlarning predmet sohalarini "o'z ichiga oladi": birinchi navbatda, fikrlash va bilish, axborotni saqlash va qayta ishlash muammolari bilan shug'ullanuvchi kognitiv psixologiya va kognitiv lingvistika. Konsepsiya - bu shaxsning fikrlash jarayonida harakat qiladigan mavhum birlik. Bu

birliklar insonning olgan bilimlari va to'plagan tajribasi natijalarini aks ettiradi. Inson tushunchalarda fikr yuritadi. Aqliy faoliyat jarayonida turli tushunchalarni tahlil qilish, solishtirish, bog'lash, tafakkur natijasida yangi tushunchalarni shakllantiradi. Tushuncha - «lisoniy shaklga ega bo'lmagan sof ma'no; bu birlamchi ma'no, prototipdir". N.D.Arutyunova konsepsiyani "haqiqatning turli omillarini aks ettiruvchi amaliy falsafa tushunchasi" deb hisoblaydi. Konsepsiya - bu "alohida yaxlit mazmunga ega bo'lgan va aslida kichikroq fikrlarga ajralmaydigan fikrlash birligidir, ya'ni ichki qatlamning elementar tomoni". Tushunchalar "fikr va bilimning kognitiv jihatdan asosiy quyi tizimlarini tashkil etuvchi ma'nolar". A.Vejbitskaya konsepsiyani "Ideal" dunyosining obykti sifatida taqdim etadi, u nomga ega va insonning "Haqiqat" dunyosi haqidagi madaniy shartli g'oyasini aks ettiradi. Tushuncha - "kognitiv psixik tuzilma bo'lib, uning tashkiliy xususiyatlari voqelikni turli sifat tomonlari birligida aks ettirish imkoniyatini ta'minlaydi". O'.Q.Yusupov konseptni "Tashqi yoki ichki dunyodagi biror bir narsa yoki hodisa haqidagi ongimizdagi bilimlar majmuasi, u haqidagi obrazlar va unga bo'lgan ijobiy, salbiy, neytral munosabatlar, ya'ni baholashlardir", deb belgilaydi. Tushuncha va konseptni farqlashda olim quyidagicha fikr bildiradi: "Konsept bilan tushunchani aysbergga o'xshatish mumkin. Agar konsept aysberg bo'lsa, uning suvdan chiqib turgan qismi tushunchadir". Yuqoridagi barcha fikrlarni o'rganish natijasida shunday qarorga kelish mumkinki, konsept tushunchasi har bir shaxs uchun individual va jamiyat uchun umummilliy bo'lgan ong, til va ruhiyatning bog'liqligida kechuvchi jarayondir. Qanchalik insonning madaniy tajribasi kam bo'lsa, nafaqat uning tili, balkim aktiv va passiv so'z boyligining "konseptosferasi" ham kambag'al bo'ladi. Har bir millatning so'z boyligining konseptosferasi uning tarixan shakllanib kelayotgan urf-odatlaridan, qadriyatlaridan, yashash tarzidan, o'sha madaniyat sivilizatsiyasidan darak beradi. O'zbek tilidagi to'y konsepti ham bizning madaniyatimiz, qadimdan shakllangan urf-odatlarimiz, dinimiz kabi jihatlarni aks ettirgan holda, ingliz tilidagi shu konseptdan farq qiladi, ona tilimizdagi to'y konseptining konseptosferasi ham juda boy hisoblanadi. Badiiy asarlardagi konseptlarni kuzatish orqali shu ayon bo'ladiki,

o'zbek tilida yaratilgan mikromatnlarda "Holat konsepti" ham rang-barang ifodalarga ega ekanligi bilan ajralib turadi. Qo'rquv konsepti. "Unsinning ko'z oldiga oppoq kafanga o'ralib sag'ana va go'rlar atrofida yelib yurgan arvohlar keldi. Uning eti jivirlashib, sochi boshidagi ro'molini bir qarich ko'tarilganday bo'ldi. Unsin beixtiyor bir qadam orqaga chekindi, lekin shu ondayoq xuddi o'likdan qo'rqmasligini birovga pisanda qilayotganday, baqirib: "o'likning joni yo'q!" - deb olg'a intildi, shu yugurganicha ostidagi Onhazratim sag'anasi oldida to'xtadi" [9].

#### **XULOSA/ЗАКЛЮЧЕНИЕ/CONCLUSION**

Yuqorida keltirilgan mikromatndan ko'rinadiki, asar qahramonining qo'rquvga tushgan holati, asosan, uning vujudida ro'y berayotgan o'zgarishlarni ifodalovchi birliklar berilgan. Bu esa badiiy konsept ifodasi ko'p hollarda implikativ xarakterga ega bo'lishidan dalolat beradi. Konseptlarni tahlil qilish jarayonida har qanday tilda madaniy o'ziga xos konseptlar mavjudligi aks etadi. Kartoshka ruslar uchun nochor ovqatlanish etaloni bo'lib, buni "сидеть на одной картошки" frazeologizmi misolida ham ko'rish mumkin; belaruslar uchun odatiy milliy taom, shuningdek, ularning ikkinchi nonidek muhim hisoblanadi. Keltirib o'tilgan fikrlarni xulosalagan holda, konsept bu inson ongida shakllanuvchi uning hayot tajribasiga asoslangan, individual, madaniy, ijtimoiy dunyosini o'zida aks ettiruvchi, ma'lum bir ramziy belgini tashuvchi mental birlikdir. Konseptosfrera esa konsept bilan

chambarchas bog'liq holda madaniy va ijtimoiy kelib chiqish jarayonlarini aks ettiradi.

#### **ADABIYOTLAR RO'YXATI /ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА / REFERENCES:**

1. Safarov Sh.S. Kognitiv lingvistika. – Jizzax: 2006. – B.10.
2. Mamatov.A.E. Tilshunoslikning dolzarb masalalari. – Andijon: 2012. – B.212-219.
3. Аскольдов С.А. Концепт и слова / Русская словесность. От теории словесности к структуре текста. Антология. – Москва: Academia, 1997. – С.267-280.
4. Лихачев Д.С. Концептосфера русского языка // Изв. РАН – СЛЯ. – 1993, №1.
5. Тентимишова А. К. Концепт и концептосфера в исследованиях ученых-лингвистов // Научно-методический электронный журнал «Концепт». – 2016.
6. Mahmudov N. Til tilsimi tadqiqi. – Toshkent: Mumtoz so'z, 2017. – B.60.
7. Mahmudov N. Tilning mukammal tadqiqi yo'llarini izlab. // O'zbek tili va adabiyoti. – Toshkent: 2012. – B.9.
8. Шведова Н. Избранные работы. – Москва: Языки славянской культуры, 2005. – С.603.
9. Kistner M. Linguistic sign theories. 2005.
10. A.Qahhor. Daxshat hikoyasi.– Toshkent. – B.3.





## QIYOSIY JIHATDAN CHOLG‘U ASBOBLARI TERMINOLOGIYASIDA SEMANTIK DIFFUZIYA

*Qodirova Munisa Erkinjon qizi*  
*TerDU, tayanch doktorant*

## SEMANTIC DIFFUSION IN THE TERMINOLOGY OF MUSICAL INSTRUMENTS FROM A COMPARATIVE VIEWPOINT

*Munisa, Erkinjon qizi, Kadirova*  
*TerSU, basic doctoral student*

**Annotatsiya:** Maqolada cholg‘u asboblari terminologiyasi hamda sohaviy terminologiya yo‘nalishining murakkab lingvistik tabiati nazariy jihatdan o‘rganilgan. Shuningdek, semantik tahlilining ijtimoiy-pragmalingvistik parametrlari va qiyosiy tipologik diffuzion yondashuvni o‘zida mujassam etgan tavsifiy-qiyosiy tahlil modeli va uni tavsiflashning kompleks integrativ metodologiyasi ko‘rib chiqiladi. Ushbu model tahlilning uchta darajasidan iborat bo‘lib, ularning har biri o‘z navbatida bir qator toifalar, parametrlar va xususiyatlardan iborat bo‘lgan bir qator jihatlarni o‘z ichiga oladi.

**Kalit so‘zlar:** termin, terminologiya, sohaviy terminologiya, cholg‘u asboblari, tavsifiy-qiyosiy tahlil, kompleks integrativ metodologiyasi.

**Аннотация:** В статье теоретически изучается сложная языковая природа терминологии музыкальных инструментов и направление отраслевой терминологии. Также рассмотрены социопрагмалингвистические параметры семантического анализа и модель дескриптивно-сопоставительного анализа, включающая в себя сравнительно-типологический диффузионный подход и комплексную интегративную методологию его описания. Данная модель состоит из трех уровней анализа, каждый из которых, в свою очередь, включает ряд аспектов, состоящих из ряда категорий, параметров и характеристик.

**Ключевые слова:** термин, терминология, отраслевая терминология, инструментарий, описательно-сравнительный анализ, комплексная интегративная методология.

**Abstract:** In the article, the complex linguistic nature of the terminology of musical instruments and the direction of field terminology is theoretically studied. Also, the socio-pragmalinguistic parameters of the semantic analysis and the descriptive-comparative analysis model incorporating the comparative typological diffusion approach and the complex integrative methodology of its description are considered. This model consists of three levels of analysis, each of which, in turn, includes a number of aspects consisting of a number of categories, parameters and characteristics.

**Key words:** term, terminology, field terminology, instruments, descriptive-comparative analysis, complex integrative methodology.

### KIRISH/BВЕДЕНИЕ/INTRODUCTION

Inson ongi ilmiy va psixologik diskussiyalar bilan doimiy band bo‘lishi, ong faoliyatining susayishi hamda uning samaradorligiga putur

yetishiga sabab bo‘lishi bugungi kunda barchaga ma’lumdir. Ongning chuqur depressiyaga botishi yoki turli boshqa tramalardan yiroqlashtiruvchi omillardan biri sifatida musiqa, kuyni e’tirof etamiz.



[https://orcid.org/  
0006-0001-8500-8111](https://orcid.org/0006-0001-8500-8111)

**e-mail:**  
[Munisakadirova98@  
mail.ru](mailto:Munisakadirova98@mail.ru)

**Tel:** +998902677800

Cholgʻu, musiqa asboblari ijro etish hamda betakror ijro mahsulotlarini yaratish har qanday sivilizatsiyaning asosiy ijodiy kuchlaridan biridir, chunki ikkinchisini ong osti erkinligini taʼminlovchi, turli katta-kichik trama, depressiyalardan olib chiqishda asosiy koʻmakchi vosita sifatida qaraladi. Sanʼat olamidagi olib borilayotgan oʻzgarishlar, internatsional cholgʻu asboblarining ommalashuvi bugungi kun sohaviy terminologlari oldiga musiqaviy terminlarning semantik jihatdan tahlil qilish zaruratini birinchi oʻringa qoʻydi. Yuqori nutq madaniyati, sanʼat va sanʼatni til nuqtai nazaridan rivojlantirish bir-biridan ajralmas qismga aylandi. Zamonaviy sanʼat olamida muvaffaqiyatga erishish uchun musiqaviy terminlar savodiga ega boʻlish juda muhim, chunki birinchidan, musiqa olamidagi koʻplab muammolarni hal qilish turli vaziyatlarda odamlarning bevosita musiqiy terminal koʻnikmasiga asoslanadi. Ikkinchidan, sanʼatga oid muammolarni muhokama qilish va hal qilishning eng yaxshi usuli hisoblanadi.

Zamonaviy dunyoda Media xodimlari, sanʼatkorlar, bastakorlar va sanʼatshunoslar oʻrtasidagi yaxshi tashkil etilgan muloqot tizimi sanʼatda asosiy rol oʻynaydi. Butun dunyo miqyosidagi integratsiya va musiqaviy terminologiya hamda musiqani integratsion tarzda oʻrganish va til nuqtai nazaridan musiqa asboblari taftish va oʻrganishga faol kompleks tadqiqot qiziqishlarini ragʻbatlantirish - bu bizga cholgʻu asboblari terminlarining universalligi, shuningdek, sohaviy terminologiya haqida gapirish imkonini beradi. Natijada, turli jamiyatlar vakillari cholgʻu asboblariga oid terminlarni semantik differensiyalashda universal modellarga amal qiladilar. Bizningcha, Musiqa asboblariga oid terminlar – birinchidan, sanʼat kontekstidagi ijtimoiy muloqot tili (social action in business contexts) yaʼni musiqaga "choʻmilgan" nutq hamda ikkinchidan, musiqa asboblariga oid terminlardan xabardorlikka erishish uchun maxsus koʻnikmalar toʻplamidir.

#### **ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR/ЛИТЕРАТУРА И МЕТОД/ MATERIALS AND METHODS**

XX asr oxiri va XXI asr boshlarida madaniyatlararo muloqot dinamikasi filologlar, tilshunoslar, antropologlar, lingvistik madaniyatshunoslar va nutq aloqasi mutaxassisleri oldiga kommunikativ kompetensiyani shakllantirish

va rivojlantirish mexanizmlarini oʻrganish va samarali sohaviy terminologiyani rivojlantirishda mexanizmlardan foydalanish usullarini takomillashtirish bilan bogʻliq amaliy vazifalarni qoʻydi. Ushbu muammolarni hal qilish maqsadida tadqiqotchilar terminologiya, sohaviy terminologiya sohasida bir qator ishlarni olib borib, muammoning yechimi turlicha yondashuvlar bilan berishga intildilar. Keling Termin va terminologiya sohasidan boshlaylik:

**Termin** (lot. terminus – chek, chegara, chegara belgisi). Fan, texnika va boshqa sohaga oid narsa haqidagi tushunchani aniq ifodalaydigan, ishlatilish doirasi shu sohalar bilan chegaralangan soʻz yoki soʻz birikmasi; atama. Terminlar bir maʼnoli boʻlishi, ekspressivlik va emotsionalikka ega boʻlmasligi kabi belgilari bilan ham umumisteʼmoldagi soʻzlardan farqlanadi [5; C.472; 8. B.104.]. Masalan: *dirijyor, gitara, gʻijak, fleyta, karnay, konsert, maestro, nay, repertuar, rubob, solist, sunray, oboe, clarinet, bassoon, saxophone, trumpet, tuba, piano* musiqaga oid terminlar. Termin maʼlum terminologik tizimning bir qismidir, fan, texnika, ishlab chiqarishning muayyan sohasini anglatadi va terminning kontseptual mazmuni uning maʼlum bir terminologik tizimdagi oʻrni bilan belgilanadi. Terminlar tilning umumiy leksik tizimiga muayyan terminologik tizim, terminologiya orqali kiradi.

**Terminologiya** - bu inson kasbiy faoliyatining turli sohalari obʼektlari va tushunchalarini nomlaydigan va umumiy foydalanishda boʻlmagan soʻzlar va iboralarni oʻz ichiga olgan maxsus lugʻatning bir qismi. Maxsus maqsadlar uchun tilning asosiy komponenti sifatida maxsus lugʻatni har tomonlama oʻrganish XX asrda boshlanadi. Ular sarasiga quyidagi xorij, rus va mahalliy olimlar ishlarini qayd etish mumkin: G.O.Vinokur, D.S.Lotte, A.A.Reformatskiy, O.S.Axmanova, E.N.Tolikina, V.V.Gak, V.M.Leichik, B.N.Golovin, V.P.Danilenko, J.K.Seyjer, A.V.Superanskaya, T.S.Rosyanova va oʻzbek olimlaridan - H.Dadaboyev, T.Oʻrunov, A.Qosimov, Q.Xurramov, K.Sapayev, A.Madvaliyev, I.Yoʻldoshev N.Usmonov, Z.Miragmedova, N.Mamatov, M.Saidova, G.Gʻulomova va b. Biroq, termin shakllanishini oʻrganish va tadqiq qilish muammosi hanuzgacha dolzarb, chunki baʼzi soha terminlari shakllanishi

muammosi tadqiqi yoki terminlarni chog'ishtirmaqiyosiy tahlili o'rganilayotgan terminlar tizimi doirasidagi qonuniyatlarini aniqlash imkonini beradi. Shundan kelib chiqib, o'zbek tilining san'atga oid terminologiyani ingliz tiliga chog'ishtirib o'rganish, uning rivojlanish jarayonlarini, til tizimida faoliyat ko'rsatish xususiyatlarini aniqlash zarurdir.

Barcha dunyo tillari o'z o'tmishining izlarini, shu jumladan tabiat va jamiyat taraqqiyotining turli bosqichlarini saqlaydi. Til oldingi avlodlar g'oyalarini o'z ichiga oladi, jumladan, zamonaviy tilni tahlil qilish orqali siz avlodlaringizning hayotiy faoliyati, dunyoqarashi haqida ko'p narsalarni bilib olishingiz mumkin.

San'atga oid terminologiya doimo takomillashib, bir tomondan, musiqa san'atining o'zining murakkab shakllanish va rivojlanish jarayonini, ikkinchi tomonda u haqidagi ilmiy tafakkurdagi sifat o'zgarishlar jarayonini aks ettiradi.

Rus va boshqa tillarda san'atga oid terminlar tadqiqiga bag'ishlangan bir nechta ishlarni ham e'tirof etish mumkin. Xususan, Sh.Samusiamning «Музыкальная терминология в современном русском языке» ("Zamonaviy rus tilidagi musiqa terminologiyasi", S.Lubenskayaning «Пути и источники формирования музыкальной терминологии в английском языке» ("Ingliz tilida musiqa terminologiyasining shakllanish yo'llari va manbalari"), L. Peretsmanning «Становление и развитие немецкой музыкальной терминологии, ее экспрессивно-стилистические функции» ("Nemis musiqa terminologiyasining shakllanishi va rivojlanishi, uning ekspressiv va stilistik vazifalari") nomli ilmiy asarlarini aytish mumkin.

## **МУНОКАМА/ОБСУЖДЕНИЕ / DISCUSSION**

San'atga oid terminologiya – san'at, musiqa terminologiyasini ifodalovchi asosiy terminlarni o'z ichiga oladi. San'at arabcha **صنعت** so'zidan olingan bo'lib, ish, mehnat; mahorat; kasb-hunar ma'nolarini anglatadi [7; B.442]. U quyidagi ma'nolarni ifodalaydi:

- 1) Badiiy ijodiyat va uning har bir ayrim sohasi;
- 2) Amaliy-tatbiqiy sohalarning o'ziga xos ish uslubi, tizimi;
- 3) Yuksak mahorat, ustalik [3; 220 b.].

San'atga oid terminologiya, boshqa bilim sohalari terminologiyasi kabi, kamida ikkita sohada

mavjud: fiksatsiya va funksiya. Ushbu tushunchalar: "fiksatsiya sohasi" va "funktsional sohasi" 1971-yilda V.P.Danilenko tomonidan ilmiy muomalaga kiritilgan [6]. Uning ta'kidlashicha, terminlarni, birinchidan, ideal sharoitda, ular barcha kamchiliklardan xoli bo'lishi mumkin bo'lgan sharoitlarda, ya'ni leksikografik janrlarda (maxsus lug'atlar, terminologik me'yorlar, tavsiya etilgan atamalar to'plamlarida va hokazo) aniqlanish imkoni bo'ladi. Ikkinchidan, atamalardan foydalanishning yana bir muhim va ehtimol asosiy sohasi, uning fikricha, funktsional sohasi - ilmiy nutq, so'zning keng ma'nosida maxsus ilmiy adabiyotlar. Ushbu sohalarni aniqlash maqsadida, keling ba'zi san'atga oid terminlar tahliliga to'xtalamiz:

"Musiqiy termin" tushunchasining shakllanishiga to'xtalib o'tamiz. Musiqiy termin - bu sahna san'atining musiqiy terminologiyasi doirasidagi til leksik tizimining semantik jihatdan uzviy, funktsional jihatdan muhim elementi bo'lgan qat'iy professional tushunchadir. Musiqiy termin musiqashunoslikning istalgan sohasiga tegishli so'z, ibora yoki grafik belgi bo'lishi mumkin. Shunday qilib, biz musiqiy atamani sahna san'atida maxsus tushunchani nomlash uchun zarur bo'lgan tabiiy yoki sun'iy belgi deb tushunamiz. Ijro san'atining musiqiy terminologiyasi musiqa fanining og'zaki va grafik atamalari yig'indisidir. Musiqashunoslik terminologiyasi keng qamrovli terminologik soha bo'lib, turli terminologik tizimlarni o'z ichiga oladi.

*Mumtoz musiqa/Classical music* – leksik birligi terminologik tushuncha bo'lib, kontekstga qarab polisemantikdir. Shuning uchun tavsifning yaxlitligi uchun klassik musiqani uchta ma'noda ifodalash uchun leksik birlikni ko'rib chiqamiz: *qualitative evaluation* – "sifatli baholash"; *historical and musical- theoretical sense* – *tor tarixiy va musiqiy nazariy ma'no*; *typological sense* – "tipologik ma'no".

*Mumtoz musiqa/Classical music*ning tashkil etuvchi leksik birliklariga quyidagilarni keltirish mumkin: *past genres, viennese operetta, waltzes, classic jazz, classic pop, Viennese classicus, music composition, lazgi, andijon polkasi, tanovar, shoshmaqom, maqom*.

## **NATIJAR/РЕЗУЛЬТАТЫ / RESULTS**

**Banjo** – to'rt, besh yoki olti torli musiqa asbobi. Banjoning sodda formalarini birinchi AQShdagi kelib chiqishi Afrikalik bo'lgan xalqlar



Afrikada uchraydigan bir qancha asboblarga o'xshatib yasashgan. Banjo odatda *country, folklor, irland* milliy musiqasi va *bluegrass* musiqa stillarida ishlatiladi. Banjo XVII asrda G'arbiy Afrikadan AQShning janubiy shtatlariga keltirilgan. XIX asrning 30-yillarida takomillashtirilgan shakli yuzaga kelgan. Avvaliga faqat afrikalik amerikaliklar ichida ma'lum bo'lgan asbob keyinchalik butun Amerikada keng tarqaldi. XX asrda banjoning yangi turlari yuzaga keldi va o'z navbatida ulardan yangi terminlar hosil bo'ldi: *banjo-ukulele, banjo-mandolina, banjo-tenor, banjo-gitara*.

**Bag pipe** - ko'pgina mamlakatlarda ma'lum bo'lgan qadimiy xalq cholg'u asbobi: Polsha (*kozsa*), Germaniya (*zakpfeife*), Bolgariya (*gaida*), Angliya (*bagpipe*), Moldova (*chimpoy*), Gollandiya (*dudelzak*), Fransiya (*kornemuse*) va boshqalar. Shotlandiyada keng tarqalgan, u erda asosiy xalq cholg'usi bo'lib, qopqoqli bir nechta naychalardan iborat sumka yoki havo pufagi ko'rinishidagi cholg'u asbobi. Ushbu musiqa asbobining O'zbek tilida muqobili mavjud emas.

**Gembeng** – Indoneziya milliy zarbli asbobi, yog'och yoki metallardan tashkil topgan bo'lib, yog'och stendlarga yozuvlar yozilgan. Ovoz yog'och tayoqlar yordamida ishlab chiqariladi. Ovozi baland va qattiq bo'ladi.

**Gensle** – tanasi egilgan nok shaklidagi yog'ochdan yasalgan qadimiy polyak xalq cholg'usi. Kvintga sozlangan 3-4 tordan iborat, tovushi o'tkir va teshuvchi.

San'at terminlarining shakl xususiyatlarini o'rganish jarayonida ularni so'z va birikma shaklidagi terminlar guruhiga ajratish mumkin. So'z shaklidagi san'at terminlari: 1) sodda so'z shaklidagi terminlarga (*lapar, gitar, banjo*); 2) qo'shma so'z (*shoshmaqom*) shaklidagi terminlarga bo'linadi. Har qanday yasama so'z ikki qismdan – so'z yasash asosi va so'z yasovchi qismdan iborat bo'lib, bu kabi maxsus birliklar yordamida yasalgan so'zlarning ma'nosi uning qismlari ma'nosidan yuzaga keladi, ya'ni, uning ma'nosini qismlari ma'nosi bilan asoslash mumkin bo'ladi: *dutorchi – dator chaluvchi (sozanda)*.

Leksik-semantik tizim voqelikni bo'lishning o'ziga xos vositasi bo'lib, uni bilishning boshqa usulini aks ettiradi va tilning leksik-semantik tizimining o'ziga xosligining birinchi belgisidir.

## XULOSA /ЗАКЛЮЧЕНИЕ / CONCLUSION

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkin-ki, san'at sohasidagi so'z boyligi oddiy odam uchun ko'pincha farqlash qiyin bo'lgan hodisalarni aks ettiradi. Biroq, musiqa san'atining barcha nozik tomonlarini tushungan sozandalar bu atamalarning ma'nosini shunchaki bilish bilan cheklanib qolmay, ularni o'z ongida darajalar, darajalar bo'yicha joylashtiradilar, doimo bir-biri bilan qiyoslaydilar. Musiqa haqidagi aniq bilimlarni aks ettiruvchi leksik birliklarni tizimlashtirish ona tilida so'zlashuvchilar tomonidan fikr ifodasini ta'kidlash zarurligini ta'minlaydi. Shuningdek, san'at qaysi ko'rinishda bo'lmasin, kishilarning his-tuyg'usiga, ruhiyatiga ta'sir etuvchi vosita sifatida ko'rinadi. Shu bois, san'atga oid terminologiyani o'rganish bugungi kunda dolzarbdir.

## ADABIYOTLAR RO'YXATI ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА / REFERENCES:

1. Корыхалова Н. Музыкально-исполнительские термины: возникновение, развитие значений и их оттенки, использование в разных стилях. СПб.: Композитор, 2000. 272 с.
2. Надольская О.Н. Музыкальная лексика: константы и переменные //Научный альманах. – 2017. – No 5-2(31). – С. 260-262.
3. Hojiyev A. va b. Hozirgi o'zbek tili faol so'zlarining izohli lug'ati. Toshkent: Sharq, 2001. 340 b.
4. [https://furqatbek.ucoz.net/news/chet\\_39\\_el\\_cholg\\_39\\_u\\_asboblari/1-0-1](https://furqatbek.ucoz.net/news/chet_39_el_cholg_39_u_asboblari/1-0-1)
5. Ахманова О.С., Словарь лингвистических терминов. – Москва: «Сов. Энциклопедия», 1966. – 608 с.
6. Даниленко, В.П. Русская терминология: опыт лингвистического описания. – Москва: Наука, 1977. – 248 с.
7. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. III жилд. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2007. – 688 б.
8. Ҳожиёв А. Тилшунослик терминларининг изоҳли луғати. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси. 2002. – 168 б.
9. <https://pitchfork.com/reviews/albums/asap-rocky-testing/>
10. <http://fierymusic.ru/teoriya-zvuka/chto-takoe-leering>



## RESPECT FOR THE ELDERLY PEOPLE AND THE OPPORTUNITIES IN THE NEW UZBEKISTAN

*Fakhriddin Yormatov,*

*Candidate of historical sciences, associate*

*Associate Professor of Termez University of Economics and Service,  
Termez, Uzbekistan*

## YANGI O‘ZBEKISTONDA KEKSALARGA HURMAT VA YARATILAYOTGAN IMKONIYATLAR

*Faxriddin Yormatov,*

*tarix fanlari nomzodi, dotsent*

*Termiz iqtisodiyot va servis universiteti dotsenti,  
Termiz, O‘zbekiston*



[https://orcid.org/  
0007-0001-1138-1293](https://orcid.org/0007-0001-1138-1293)

*E-mail:*

[faxriddin1973@mail.](mailto:faxriddin1973@mail.com)

[com](mailto:faxriddin1973@mail.com)

+998 93 791 07 73

**Abstract:** In this article, systematic changes in respect and respect for the elderly people in New Uzbekistan have been studied and scientifically analyzed. The work carried out to protect the health of the elderly, especially those who need social protection and live alone, has been highlighted on the basis of many evidences. This article provides comprehensive information about the special attention given to our elderly enlightened fathers and mothers according to the principle of “honoring human dignity above all else” put forward by the President of the Republic of Uzbekistan Shavkat Miromonovich Mirziyoyev.

**Key words:** New Uzbekistan, independence, President, citizens, social protection, reform, support, medical examination, system, youth, elderly week, financial assistance.

**Аннотация:** В данной статье изучены и научно проанализированы системные изменения в уважении и уважении к старикам в Новом Узбекистане. На основании многих факторов освещена работа, проводимая по охране здоровья пожилых людей, особенно тех, кто нуждается в социальной защите и проживает одиноко. В данной статье представлена исчерпывающая информация об особом внимании, уделяемом нашим пожилым просвещенным отцам и матерям согласно принципу «уважение человеческого достоинства превыше всего», выдвинутому Президентом Республики Узбекистан Шавкатом Миромоновичем Мирзиёевым.

**Ключевые слова:** Новый Узбекистан, независимость, Президент, граждане, социальная защита, реформа, поддержка, медицинское обследование, система, молодежь, неделя пожилых людей, финансовая помощь.

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada Yangi O‘zbekistonda keksalarga hurmat va ehtiromdagi tizimli o‘zgarishlar o‘rganilib, ilmiy tahlil qilindi. Ayniqsa, ijtimoiy himoyaga muhtoj, yolg‘iz yashayotgan keksalar salomatligini muhofaza qilish borasida amalga oshirilayotgan ishlar ko‘plab dalillar asosida alohida ta’kidlandi. Mazkur maqolada O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Miromonovich Mirziyoyev tomonidan ilgari surilgan “Inson qadr-qimmatini hamma narsadan ustun” tamoyiliga ko‘ra nuroniy otaxon va onaxonlarimizga alohida e’tibor qaratilayotgani haqida atroflicha ma’lumotlar berilgan.

**Kalit so‘zlar:** Yangi O‘zbekiston, mustaqillik, Prezident, fuqarolar, ijtimoiy himoya, islohot, qo‘llab-quvvatlash, tibbiy ko‘rik, tizim, yoshlar, keksalar haftaligi, moddiy yordam.

## **INTRODUCTION/БВЕДЕНИЕ/КIRISH**

In Uzbekistan, increasing public attention to the social sphere, guaranteeing targeted social protection has become one of the main priorities of state policy since the early days of independence, and it has been further improved in recent years, which is called New Uzbekistan, and more special attention has been paid to this issue. We all know from the changes in our daily life. President Sh.M.Mirziyoyev, from the beginning of his work as the President, developed a number of measures that serve to fundamentally reform the social sphere, in particular, the sphere of social support of the population, on a new basis, and strengthened the legal framework in this regard. It is necessary to note that he paid special attention.

## **MATERIALS AND METHODS/ ЛИТЕРАТУРА И МЕТОД/ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR**

Studying and scientific analysis of the issue of the history of all-round support of intellectuals in Uzbekistan is an extremely important issue to study. In Uzbekistan, a number of literatures have been created on the issues of providing social protection and material support of intellectuals. Some information is provided by Sodikova in her works such as "old age and spiritual heritage" and "the role of the elderly in educating young people in the spirit of love and loyalty to the motherland". Also, in the works of M. Usmonova, M. Kholmatova, S. Safayeva, etc., this issue is given a certain importance. In the work of M. Gafarli, A. Kasayev, issues related to the strong social protection system implemented in the country during the years of independence, its implementation based on humanitarian principles, and the main reforming role of the state were researched. [4]

## **DISCUSSION/ОБСУЖДЕНИЕ/МУХОКАМА**

Research results: In our people, showing respect and honor to the elderly and honoring them in every way is a high value characteristic of our nation. In the years of independence, the strong social protection of the population became the main priority of the state policy, and the only goal of all the reforms implemented in the Republic of Uzbekistan during the past period was to create a normal lifestyle for citizens, to consistently provide for the poor and needy part of the population. was economically supported. In particular, from the first period when the President of the Republic of Uzbekistan Shavkat Miromonovich Mirziyoyev began his work in the position of the

President, these works were continued more consistently, special attention was paid to the comprehensive support of the luminaries, and specific measures aimed at developing the system were developed. The declaration of 2017 as "the year of communication with the people and human interests" in our country has a great meaning. President Sh. M. Mirziyoyev spoke separately and said, "The main goal of these reforms is to ensure a decent level and quality of life for the population. The main priority is to consistently implement the noble idea that "Human interests are above all else". Today, the most important goal of our life expressed in our Constitution - comprehensive provision of human interests - is an urgent task. In order to ensure human interests, first of all, it is necessary to communicate with people, people, to know their pains and worries, dreams, life problems and needs well. "The people should serve our people, not the state agencies, and the leaders at all levels should first understand this fact". [2]

## **RESULTS/РЕЗУЛЬТАТЫ/NAIJALAR**

Based on the social protection programs of our state, 1,620 representatives of the elderly generation were given wheelchairs, 1,532 were given hearing aids, 1,600 were given canes (crutches), 400 were given glasses, and 3,005 were given other rehabilitation tools. At the same time, the homes of the elderly living in needy families are being inspected and food products and medicines are constantly being delivered to them. According to the recommendations of the World Health Organization, 45-59 years old are middle-aged, 60-74 old people, 75-89 years old, and 90-year-olds are long-lived. As of January 1, 2021, there are 1,517,034 people over the age of 65 in the republic (665,086 men, 851,948 women) or 4.4 percent of the total population (total population - 34,558,991). [6]

When talking about the reforms implemented in the field of support of Nurani in new Uzbekistan, it is appropriate to recognize the following positive changes. 20 legal documents related to the field, including 1 law, 3 Decrees and Decisions of the President of the Republic of Uzbekistan were adopted, more than 16 normative legal documents were improved:

- the Ministry of Neighborhood and Family Support was established as a competent state management body in the field of supporting the elderly, protecting their rights and interests;

- elder p public councils were established in the Republic of Karakalpakstan, regions and the city of Tashkent, districts and cities;

- the position of chairman's adviser, who operates on a public basis, was introduced in the neighborhoods on the affairs of the elderly;

- "Elderly Advice" groups and "Grandmothers School" public councils were established in the neighborhoods;

- The participants of the war of 1941-1945 were given the right to receive compensation equal to the average price of a ticket in sanatoriums every year;

- 30% of the funds of the Federation of Trade Unions have been allocated to health care of pensioners, first of all war and labor front veterans;

- On "Day of Defenders of the Fatherland" and "Navroz" holidays, a system of providing financial assistance to war veterans and veterans of the labor front was introduced at the expense of the "Nuradi" fund;

- The Order of "Honorary Coach" and the "Veteran of Labor" badge were established, and up to this time 947 luminaries were awarded with the "Veteran of Labor" badge; [5]

In his 2020 address to the Oliy Majlis, the head of state stated the need to create a comprehensive and effective system for working with the elderly, including lonely elderly, and providing them with social support, and revised the amount of social payments allocated for this category. If we can combine the knowledge and experience of the older generation, the qualities of foresight with the enthusiasm, courage and selflessness of our youth, we will definitely reach the desired goals. Nurani showed his high respect for our fathers and mothers by saying that it is both a debt and a duty to support them in every way.

Each of the representatives of the elderly generation, who make up only one tenth of the population of Uzbekistan, deserves support not only materially, but also mentally and spiritually. For information, it is worth saying that at the end of 2020, the total number of pensioners and allowance recipients in our country was 3 million 824 thousand, of which 2 849 118 were old-age pensioners, 402 were participants in the Second World War, 15 and some are veterans of the labor front. [1]

For the first time in 2020, this month was organized at a high level throughout our country, and

more than 56 thousand 228 elderly people were included in it. The fact that 10,151 of them are low-income people who need social protection made the event even more important. The "Waqf" charity public fund under the Office of Muslims of Uzbekistan provides spiritual support for the elderly even when free admission to 14 shrines in Tashkent, Samarkand, Bukhara, Kashkadarya, Khorezm and Navoi regions is established. Also, the Ministry of Culture has introduced discounts on admission to 49 cultural heritage sites in the Republic of Karakalpakstan, Bukhara, Kashkadarya, Samarkand, Syrdarya, Surkhandarya and Khorezm regions. A visit of 1200 veterans to concerts and theaters was organized.

According to the information provided by the "Nuroni" fund of the Ministry of Neighborhood and Family Support to the Republican Administration, 12 thousand 876 elderly Nurians recovered their health in various sanatoriums and sanatoriums, 66 thousand people received free in-depth medical examinations. conducted [3].

#### **CONCLUSION/ЗАКЛЮЧЕНИЕ/XULOSA**

Based on the decision of the President of December 28, 2016 "On additional measures to further improve the system of state support for the elderly and disabled", the "Nuroni" fund, in accordance with the appeal of the Republican Administration, "Dori-Darmon" joint-stock company provided 1,860 units of medicine to the fund to the disabled and lonely elderly, veterans of the Second World War and labor front veterans living in the Republic of Karakalpakstan, regions and Tashkent.

#### **REFERENCES/ИСПОЛЬЗОВАННАЯ**

##### **ЛИТЕРАТУРА / ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. "Collection of legal documents of the Republic of Uzbekistan", January 9, 2017, No. 1, Article 10.
2. President of the Republic of Uzbekistan Shavkat Mirziyoyev's speech at the extended meeting of the Cabinet of Ministers on the main results of the socio-economic development of our country in 2016 and the most important priorities of the economic program for 2017. January 15, 2017.
3. Strategy of actions on five priority areas of development of Uzbekistan in 2017-2021, adopted on February 7, 2017.
4. <https://lex.uz/docs/3270589>
5. <https://president.uz/uz/lists/viyew/4057>.
6. Newspaper "Ijtimoiy Hayot". Adopted on April 14<sup>th</sup>, 2021.

## IBN OBIDIN FAOLIYATINING ISLOMIY ILMLAR RIVOJIDAGI AHAMIYATI

*Nasrulloh To‘xtayev*

*Imom Termiziy o‘rta maxsus islom ta’lim muassasasi o‘qituvchisi*

## THE SIGNIFICANCE OF IBN ABIDIN’S ACTIVITY IN THE DEVELOPMENT OF ISLAMIC SCIENCES

*Nasrulloh Tokhtayev*

*teacher of Secondary special Islamic educational institution named  
after Imam Termizi*

## ЗНАЧЕНИЕ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ ИБН АБИДИНА В РАЗВИТИИ ИСЛАМСКИХ НАУК

*Насрулла Тухтаев*

*преподаватель среднего специального исламского учебного  
заведения Имам Термизи*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada XVIII asrda Usmoniylar imperiyasi hukmronligi davrida Suriyada yashagan olim, faqih va mufassir Ibn Obidinning ilmiy merosi yoritilgan. Alloma asarlarining islom ilmlari rivojidagi ahamiyatiga urg‘u berilgan.*

**Kalit so‘zlar:** *Islom, Ibn Obidin, fiqh, tafsir, Qur‘on, hanafiylik mazhabi, din, kalom, tasavvuf.*

**Аннотация:** *В данной статье описывается научное наследие Ибн Абидина, учёного, правоведа и мufассира, жившего в Сирии во времена правления Османской империи в XVIII веке. Подчеркивается значение трудов учёного в развитии исламских наук.*

**Ключевые слова:** *ислам, Ибн Абидин, фикх, толкование, Коран, ханафитская мазхаб, религия, калам, суфизм.*

**Abstract:** *This article describes the scientific heritage of Ibn Abidin, a scientist, fakih and mufassir who lived in Syria during the rule of the Ottoman Empire in the 18th century. The importance of the scientist’s works in the development of Islamic sciences is emphasized.*

**Key words:** *Islam, Ibn Abidin, fiqh, interpretation, Koran, Hanafi madhhab, religion, kalam, Sufism.*

### KIRISH / ВВЕДЕНИЕ / INTRODUCTION

Muhammad Amin ibn Obidin 1784-yilda Usmoniylar imperiyasi tasarrufida bo‘lgan Suriyaning Damashq shahrida dunyoga kelgan bo‘lib, o‘zining butun hayotini islomy ilmlarni o‘rganish va ular bo‘yicha ilmiy asarlar yozishga bag‘ishladi. U XIX asr hanafiy ulamolarining

oxirgilaridan biridir. Bu bizga Ibn Obidinning klassik davr hanafiy ulamolarining so‘nggi vakillaridan biri ekanligini ko‘rsatadi. Alloma Ibn Obidin nomi bilan mashhur bo‘lib, keyinchalik islom ilohiyotchisi, Usmonlilar saltanatining ko‘zga ko‘ringan musulmon huquqshunoslaridan (faqihlaridan) biri bo‘lib yetishdi. U fiqh, tafsir, turli



[https://orcid.org/  
0002-0006-89100-1411](https://orcid.org/0002-0006-89100-1411)

E-mail:  
[nasrulloh.tuxtayev@  
mail.ru](mailto:nasrulloh.tuxtayev@mail.ru)

Tel: +998 91 908 76 76



adashgan oqimlarga raddiyalar berilgan 50 dan ortiq asarlar muallifidir. Uning eng mashhur asari “Radd al-Muxtor ala ad-Durr al-Muxtor” bo‘lib, u hozirgacha hanafiy mazhabi bo‘yicha eng muhim asarlardan biri hisoblanadi [1].

Uning to‘liq ismi Muhammad Amin ibn Umar ibn Abdul Aziz Obidin al-Moturidiy al-Hanafi ad-Dimashqiydir. Asli kelib chiqishi payg‘ambarimiz Muhammad s.a.v avlodidandir. Yoshlik yillarida otasi hamrohligida savdo-sotiq bilan shug‘ullangan. Uning ilmga bo‘lgan ishtiyoqi bolaligidan yuksak darajada bo‘lib, juda tez fursatda Qur‘onni yod olgan. U Qur‘onni to‘g‘ri o‘qish (Tajvid)ni o‘sha paytdagi mashhur olim Shayx al-Kurra Said al-Hamaviydan o‘rgangan. Keyin Shofe‘iy mazhabini o‘rgandi. Said Muhammad Shokir Salimiydan Qur‘on tafsiri, hadis va ijtimoiy fanlarni o‘rgangan. Xolid al-Bag‘dodiy tavsiyasi bilan hanafiy mazhabiga o‘tgan. Ibn Obidin an‘anaviy islom ilmlari bilan bir qatorda kalom va tasavvufni ham o‘rgangan. Ibn Obidin o‘zining ilk diniy asarlarini o‘n yetti yoshida yoza boshlagan. Ustozlari hayotligidayoq u mashhur olim bo‘lib yetishdi. Alloma butun hayoti davomida Muhammad alayhissalom sunnatlariga qat‘iy amal qilgan holda yashagan [2].

Ibn Obidin Usmonlilar saltanatining tanazzulga uchrashiga guvoh bo‘lgan olimdir. U o‘sha davr allomalari tomonidan bu davrdagi siyosiy-huquqiy ixtiloflarni bartaraf qilish yo‘lida olib borilgan islohotlarga ham yaqindan guvoh bo‘lgan. Bu davrda Usmonlilar tomonidan olib borilgan urushlarda mag‘lubiyatlar ko‘paydi. Natijada, ayniqsa, tobe o‘lkalarda ahvol yanada og‘irlashdi, ba‘zi qozilar o‘z xizmat joylariga borish o‘rniga o‘zlarining tajribasiz o‘rinbosarlarini yuborishga moyil bo‘ldilar. Buning natijasida shafqatsizlik va adolatsizlik sezilarli darajada kuchaya boshladi. Ibn Obidin shunday davrda yashagan bo‘lsa-da, bu salbiy holatlar unga ta‘sir qilmagan [4].

#### **ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR / ЛИТЕРАТУРА И МЕТОД / MATERIALS AND METHODS**

Ibn Obidin hayoti va islom ilmlariga oid asarlari bugungi kunga qadar br qancha tadqiqotchilar tomonidan o‘rganilgan. Jumladan, A.Alizoda, Anvar Muhammad, Xolid Fazl kab olimlar uning fiqh ilmidagi asarlarini qiyosiy nuqtai nazardan

o‘rganishgan. Norman Calder, Haim Gerber, Farhat Ziadeh kabi olimlar esa Ibn Obidin asarlarining zamonaviy ijtimoiy masalalarni hal qilishdagi ahamiyatini yoritish bo‘yicha ilmiy maqolalar yozganlar [3].

Ushbu maqolani yozishda ilmiy taqiqotning islomshunoslik fanlarida qo‘llaniladigan analiz, sintez, qiyoslash va germenevtik tahlil kabi metod va usullaridan keng foydalanilgan.

#### **MUHOKAMA / ОБСУЖДЕНИЕ / DISCUSSION**

Ibn Obidin XIX asrning eng nufuzli hanafiy ulamolaridan biridir. Uning fiqhga oid “Durr-ul-muxtor” kitobi hanafiy mazhabidagi eng nufuzli kitoblardan biridir. Bu kitobda turli avlod fuqarolaridan barcha masalalar bo‘yicha unga ma‘lum bo‘lgan barcha huquqiy qoidalar (hukmlar) mavjud. Ibn Obidin bu kitobdan tashqari islom huquqi sohasidagi boshqa asarlar, Qur‘on tafsirlariga sharhlar, turli islom mazhab va oqimlari qarashlarini rad etishga mo‘ljallangan asarlar muallifidir. Uning eng mashhur asarlariga quyidagilarni kiritish mumkin:

Radd al-Muxtor ala al-Durr al-Muxtor;  
Sharh Manzuma Uqud Rasm al-Muftiy;  
Fatovo fil fiqh al-hanafiy;  
Al-Mutavval;  
Ifadatul Anvar [5].

Ko‘rinib turibdiki, Ibn Obidin deyarli barcha ilmiy faoliyati fiqh sohasi bilan bog‘liqdir. Uning tafsir, hadis va tilshunoslik kabi sohalarda ba‘zi asarlari bo‘lsa-da, uning asosiy qiziqish sohasi islom huquqi ekanligi asarlaridan oydinlashadi. Qolaversa, Ibn Obidin o‘zidan oldin yozilgan fiqh ilmiga doir asarlardan ham bahramand bo‘lgan. Shuning uchun ham uning kitoblarida tarixda, ayniqsa, furu mavzularida erishilgan yutuqlar yaqqol namoyon bo‘ladi.

Shunisi e‘tiborga loyiqki, Ibn Obidin sug‘urta shartnomasini hozirgi ma‘noda joriy etgan birinchi shaxsdir. Buning eng katta sabablaridan biri XII asrgacha sharqiy mamlakatlarda sug‘urta haqida ma‘lumot bo‘lmaganligidir. Bu borada Ibn Obidindan boshqa allomalarning asarlari bo‘lgan bo‘lsa ham, ular bugungi kungacha yetib kelmagan [2].

#### **NATIJALAR/РЕЗУЛЬТАТЫ / RESULTS**

Olimni yaxshiroq tushunish uchun uning zamondoshlari orasida qanday mavqega ega

ekanligini bilish lozimdir. Shu o'rinda aytish lozimki, Ibn Obidin o'zidan oldingi fiqhiy manbalarni juda yaxshi baholagan, o'z davri muammolariga yechim topgan allomadir. U tarbiyalagan ko'plab shogirdlari o'z davrida xalq orasida yuksak darajada qadrlanganligi ham buni isbotlaydi. Xayriddin Zirikli o'zining mashhur biografik asari "al-A'lom"da Ibn Obidin haqida shunday e'tirofni keltiradi: «Damashq diyoringing faqihi, o'z asri hanafiy mazhabining imomi». Bu iboralardan allomaning o'z davrida ko'zga ko'ringan va hurmatli shaxs bo'lganligi namoyon bo'ladi. Zuhayliy Ibn Obidinga nisbatan quyidagi iboralarni ishlatadi: "Uning imomligi haqida, xususan hanafiy fiqhida imom ekanligi borasida ijmo bor" [3].

Xayriddin Karamon aytadi: "U Hanafiylarning o'z asridagi yetakchisi, eng ko'zga ko'ringan alloma edi. U o'zidan oldingi allomalarga taqlid qilgan ulamolarda qatorida bo'lsa-da, uning tadqiqot natijasi bo'lgan bir qator risola va asarlari bor".

Kamolposhozoda (vaf. 940/1534) ma'lumotlariga ko'ra, Hanafiy mazhabida yetti daraja bor. Tabaqotul-fuqaho deb nomlangan bu tartib mazhab ichidagi ierarxiyani ko'rsatadi. Shuningdek, tariqat ichida ixtilofli masala bo'lsa, birinchi navbatda qaysi qarashlarga ustunlik berish kerakligi haqida ma'lumot beradi. Umuman olganda, Kamolposhozoda fuqarolarni ikkiga bo'ldi. Bu tafovutga ko'ra, dastlabki uch qatlam ijthod vakolatiga ega. Qolgan to'rtta qatlam taqlidchi, lekin ularning hammasi ham bir xil darajadagi taqlidchi emas. Darajasiga qarab taqlid darajalarida farqlar mavjud [1].

Ibn Obidin hanafiy faqihlari orasida qayerda ekaniga kelsak, biz yuqorida keltirgan ma'lumotlardan kelib chiqib, Ibn Obidinning hanafiy ulamolari orasidagi martabasi haqida turli fikrlar bildirilgan. Yusuf Eshitning doktorlik dissertatsiyasiga ko'ra, uni ba'zilar yettinchi qatlamga mansub deb hisoblashgan. Biroq Yusuf Eshit bu holatni tanqid qilib, Ibn Obidinni yaxshilik va yomonlikning eng past darajasini ham ajrata olmagan taqlidchilardan deb hisoblash o'rinli bo'lmasligini ta'kidladi. Asosiy matnlardagi kuchli va zaif hukmlarni ajrata bilish malakasiga ega bo'lgani uchun uni hech bo'lmaganda 6-tabaqa, ya'ni As'hobu-t-tamyiz qatlamida deyish mumkinligi ta'kidlangan.

Yuqorida qayd etilganlardan kelib chiqqan holda, Ibn Obidinning o'z davri muammolariga yechim topish, sug'urta shartnomasi bilan birinchi marta shug'ullanish kabi xususiyatlari e'tiborga olinsa, allomani hech bo'lmaganda 6-tabaqadan deb hisoblash mumkin [4].

Ibn Obidinning islom huquqshunosligiga oid bo'lgan eng mashhur asarlaridan biri "Sharh uqud rasm al-muftiy" nomli asardir. Asarning muhim bo'lishining asosiy sabablaridan biri shundaki, unda muallif mansub bo'lgan tariqatga oid ifto tartibi haqidagi ma'lumotlarning ko'p qismi o'rin olgan. Ibn Obidinning "Sharh uqud rasm al-muftiy" nomli asarini yozishdan maqsad fiqh qoidalarini o'rganish bo'yicha muftiylar va faqihlarga ma'lumot berishdir. Ibn Obidin asarda furu asarlarida tarqoq holda zikr qilingan asoslarni ma'lum tasniflar ostida jamlagan va shular asosida mazhablararo afzallikni tartibga soluvchi bir tuzilma yaratishga harakat qilgan.

#### **XULOSA/ЗАКЛЮЧЕНИЕ / CONCLUSION**

Xulosa o'rinda aytish lozimki, Ibn Obidin hanafiy an'anasiga qat'iy amal qiluvchi olim bo'lish bilan birga, yangi paydo bo'lgan masalalarni hal qilish uchun yangicha nuqtai nazarni taklif qildi. Uning "Sharh uqud rasm al-muftiy" asari muftiylar uchun qo'llanma sifatida yozilgan. Unda fatvo bermoqchi yoki biror masalada qanday yo'l tutish lozimligini o'rganmoqchi bo'lganlarga ko'rsatmalar berilgan.

#### **FOYDALANILGAN MANBA VA ADABIYOTLAR RO'YXATI/ ЛИТЕРАТУРА/REFERENCES**

1. Anwar Muhammad. Comparative study of insurance and Takafol (Islamic Insurance). Pakistan Development Review. 33.4 (1994): 1315-1330.
2. Apaydin, Yunus, İslam Hukuk Usulü, Bilay. – Ankara: 2019.
3. Calder Norman. İbn Âbidîn'nin Ukûdü Resmî'l-Müftî' Adlı Risâlesi., Usûl İslam Araştırmaları, çev. Şenol Saylan, sayı 2, Temmuz-Aralık, 2004, s. 189-208.
4. İbn Âbidîn, Muhammed Emin. Şerhu'l Manzûmeti'l-müsemmât bi Ukûdi resmî'l-müfti. Mecmûatü'r-Resail. – İstanbul: 1902. 1-2.
5. Ziadeh, Farhat J. Equality (Kafa'ah) in Muslim Law of Mariage. American Journal of Comparative Law. 6.4 (1957): 503-517.

## ERNEST HEMENGUEY ASARLARIDA BADIY KONSEPTNING VOQELANISHI

*Sattorova Nafisa Isomidinovna  
SamDCHTI mustaqil izlanuvchisi,  
SamDUKF ingliz tili o'qituvchisi*

## REALIZATION OF THE ARTISTIC CONCEPT IN THE WORKS OF ERNEST HEMENGUY

*Sattorova Nafisa Isomidinovna*

*independent researcher of Samarkand state institute of foreign languages,  
English teacher of Samarkand State University Kattakorgan branch*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada amerikalik jurnalist, yozuvchi Ernest Heminguey ijodi, yo'nalishi, asarlarida ishlatilgan badiiy konsept haqida ma'lumot berilgan.

**Kalit so'zlar:** urush, hayot uchun kurash, suv, dengiz, ozodlik, halol o'yin, ozodlik, qashshoqlik, realistik, qarama-qarshilik.

**Аннотация:** В данной статье представлена информация о творчестве, направлении и художественной концепции, используемой в творчестве американского журналиста и писателя Эрнеста Хемингуэя.

**Ключевые слова:** война, борьба за жизнь, вода, море, свобода, честная игра, свобода, нищета, реалистичность, противостояние.

**Abstract:** This article provides information about the creativity, direction, and artistic concept used in the works of the American journalist and writer Ernest Heminguey.


**Key words:** war, struggle for life, water, sea, freedom, fair play, freedom, poverty, realistic, confrontation.

### KIRISH/BВЕДЕНИЕ/INTRODUCTION

Ernest Heminguey amerikalik jurnalist va XX asrning eng mashhur yozuvchilaridan biri hisoblanadi. U turli xil qurolli to'qnashuvlarda, jumladan, Ispaniya fuqarolar urushi va Jahon urushlarida muxbir sifatida xizmat qilgan. Har qanday yozuvchi ijodi har doim o'z davrining ma'naviy muammolari bilan chambarchas bog'liq bo'ladi. Ernest Heminguey ijodida ham buni yaqqol kuzatish mumkin. Ernest Heminguey dastlab 1917-yildan Kanzas shahrida jurnalist-muxbir sifatida ish boshlagan. Dastlabki hikoyalar kitobi "Bizning zamonda" deb nomlanib, 1924-yida nashr qilingan. Adib asarlarida urushning bemisl mantiqsizliklari, inson haq-huquqlari, erkiga tajovuz, ayni paytda, insoniy mardlik, qadr-qimmat va muhabbatning har qanday yovuz kuchlardan ustunligini yorqin ifodalagan. 1930-yillarning 1-yarmida Heminguey

ijodida tushkunlik davri bo'ldi deyish mumkin. Shu davrda yozuvchi hayot yo'lini qayta mulohaza qilib ko'rishga, o'z ijodining muayyan yo'nalishlarini aniqlashga intiladi. [1]

**ADABIYOTLAR TAHLILI VA METOD /ЛИТЕРАТУРА И МЕТОД / MATERIALS AND METHODS.** Shu yillarda uning bir necha ocherk va reportajlari, "Motam qo'ng'irog'i" (1940) romani chop etiladi. Bu asarlardagi qahramonlar xalq ozodligi yo'lida fashizmga qarshi kurashadilar, insoniyat taqdiri uchun o'zlarining mas'ul ekanliklarini qalban his etadilar, kishilar bilan birga iztirobga tushadilar, xavf-xatardan qutulish choralarini izlaydilar. 1927-yilda "Fiesta" (Fiesta) nomi ostida Angliyada bosilib chiqqan roman Hemingueyga olamshumul shuhrat olib keldi. Muallif roman boshida "Yo'qotilgan avlod" (The Lost Generation) haqidagi mashhur iborani epigraf



<https://orcid.org/0008-0001-9200-8391>

e-mail: [fine-2014@mail.ru](mailto:fine-2014@mail.ru)

Tel:  
+998937278806



qilib keltiradi. Asar qahramoni Jeyk Barns urushdan qolgan og'ir jarohatiga qaramasdan, hayot oldida taslim bo'lmaydi, insoniy qadrini yo'qotmaydi, o'z obro'sini yerga urmay ishlashni, ijod qilishni davom ettiradi. 1929-yilda yozilgan "Alvido qurol" ("Farewell to arms") romanini u Birinchi Jahon urushi paytida Italiya frontidagi ko'rgan-kechirgan voqea-hodisalari asosida yozgan. Ispaniya fuqarolar urushidan so'ng u eng taniqli asarlaridan biri: "Qo'ng'iroq kim uchun" ("For whom the bell tolls") nomli asarini yozdi. Ernest Heminguey sarguzashtlarni sevuvchi, oshiq, mutafakkir va albatta, yozuvchi edi. Uning o'ziga xos yozish uslubi uni eng taniqli va mashhur yozuvchilaridan biriga aylantira olgan [2].

**MUHOQAMA/OBSUZHDENIYE/DISCUSSION.** Mavzular va uslublar tufayli Heminguey har doim boshqa yozuvchilar uslubiga o'xshamagan uslubni namoyish etgan yozuvchi sifatida tanilgan. Uning hayotiy tajribalari: urush, frontdagi xizmatlari, jurnalistlik faoliyatini haqiqiy jang maydonlarida olib borgani - asarlarni aniq va hayotiy qilib yozishga undagan va to'qimalardan qochgan. Biror bir qahramon yoki tabiatni tasvirlashda yozuvchi jimjimador so'zlardan foydalanishdan qochgan va bu bilan u o'ziga xos uslubga ega yozuvchi ekanligini isbotlagan. Lekin oddiy so'zlar yordamida asar yozish uning ta'sirchanlik darajasini kamaytirmaganligini Ernest Hemingueyning asarlari misolida ko'rishimiz mumkin. Yozuvchi sifatida u barcha yoshdagi o'quvchilarni qamrab olishi uchun sevgi, yo'qotish, tabiat, sport va urush mavzulariga e'tibor qaratishga qaror qildi [3].

Hemingueyning dastlabki hikoyalar to'plami hisoblanmish, "Bizning zamonda" (1925) kitobiga kirgan hikoyalarida yozuvchi, birinchidan asarning lirik qahramoni Nik Adamsning yoshligi, o'smirlik yillari, sevgisi va oilasi haqida hikoya qilsa, ikkinchidan tinch hayot haqidagi xayollarga qonli urush voqealarini qarama-qarshi qo'yadi. Individualistik xarakterda bo'lsa ham, asarda urushga qarshi qahramonning noroziligi bayon etiladi. Uning nuqtai nazari bo'yicha, ba'zi kamchiliklar faqat syujetni mustahkamlashga xizmat qildi, chunki o'quvchi bo'sh joylarni o'z hissiyotlari bilan to'ldirishi kerak bo'ladi. Ya'ni yozuvchi xulosani o'quvchining o'ziga qo'yib beradi [4].

## NATIJALAR/PEZYJITATY/RESULTS.

Bizga yaxshi ma'lumki, Ernest Heminguey o'z asarlarida dengiz, daryo, umuman suv obrazlaridan keng foydalana olgan yozuvchi hisoblanadi. Jumladan, adib qalamiga mansub "Daryolar ortida – daraxtlar soyasida", ("Across the river and into the trees"), "Chol ba dengiz" ("The old man and the sea"), "Ummon orollari" ("Islands in the stream") romanlarida suv obrazi asosiy motiv, konsept qilib olinganini yaqqol ko'rishimiz mumkin. Uning o'z asarlarida suv obrazidan keng foydalanganligiga asosiy omillardan biri bu adib bolalik yillarida otasi bilan baliq oviga borishni xush ko'rgani va soatlab vaqtini daryo bo'yida baliq ovlab o'tkazgani edi [2].

1952-yilda ko'pni ko'rgan, hayotda va ijodda yetarlicha tajriba to'plagan Heminguey "Chol va dengiz" (The Old Man and The Sea) qissasini yozadi. Ushbu asar muallifga chinakam shuhrat olib keldi, adibning adabiyot sohasida Nobel mukofotiga sazovor bo'lishiga zamin yaratdi. Ushbu asarni chuqur falsafiy ma'noga ega hikoya desa ham bo'ladi. Qissada dengiz go'yo tirik mavjudotdek namoyon bo'ladi. "Boshqa, yoshroq baliqchilar dengiz haqida xuddi makon, raqib, ba'zan dushmandek gapirishardi. Chol esa dengizni xuddi iltifotli, saxovat ko'rsatayotgan yoki undan mahrum etayotgan ayoldek his qilardi, garchi yovuzlik yoki bemulohaza ish tutsa, nima ham qilib bo'ladi, uning tabiati shunaqa". Cholning matonati va jasorati tabiiy, unda minglab muxlislarning ko'z o'ngida hayot-mamot kurashi olib borayotgan matadorning jazavasi ham, hayajoni ham yo'q [6].

Yuqorida aytib o'tilganidek, Heminguey o'ziga xos uslubga ega san'atkordir. Heminguey qahramonlarining nutqi shoirona metaforalardan xoli, fikr ustuvordir. Bu fikr so'zlar ichiga emas, balki asar ma'nosiga singib ketadi. O'quvchi qahramonning ruhiy holatini anglay boshlagandan keyingina ushbu ma'noni tushunib olishi mumkin. Asarda har bir buyum, har bir narsa ramziydir. Dengiz bu – hayot. Qayiq – umr. Baliq – orzu. Akulalar – dushmanlarimiz. Dengiz qayiqni chayqatganidek, ba'zan dovul bilan hamla qilsa, ba'zan sokin bo'lganidek, umrimiz davomida hayot bizga turli sinovlar, og'irlig-u yengillik, xursandchiliklar beradi. Chol baliqni tutgach, uni asrab qolish uchun jon olib, jon berganidek, biz ham yetishgan orzularimizni akula bo'lmish dushmanlarimizdan himoya qilishga tirishamiz [5].



Agar, Hemingueyning asari mavzusi sevgi bo'lsa, tabiat tasvirini ham shunga monand, mos qilib tasvirlaydi, agar u urush to'g'risida bo'lsa, tabiat tasviri ham shunga mos bo'ladi. Masalan, "Chol va dengiz" qissasini oladigan bo'lsak, bu qissani o'qiyotgan kitobxon o'zini dengizda xuddiki, baliq ovlayotgandek his qiladi, go'yo baliqchi Santyagoga yordam bergisi keladi. Uning asarlaridagi bu holat kitobga shunchaki ko'z yugurtirib chiqayotgan kitobxonni ham o'ziga jalb qiladi. Buyuk rus adabiyotshunos olimi va tanqidchisi hamda tarjimoni I.Kashkin Heminguey asarlarida suv obrazini faol qo'llagan va har bir asarida o'ziga xos ramzlantirilganini aytib o'tgan. Adibning yana bir o'ziga xos asarlaridan biri "Alvido, qurol" romanida urushning mantiqsizliklari, inson haq-huquqlari, erkiga tajovuz, ayni paytda, insoniy mardlik, qadr-qimmat va muhabbatning har qanday yovuz kuchlardan ustunligi yorqin ifodalangan. Asarda Birinchi jahon urushi yillarida Avstriya frontida ro'y bergan voqealar hikoya qilinadi. Sanitar xizmati leytenant amerikalik Genri urushning butun dahshatlari - ocharchilik, ifloslik, o'zaro qon to'kish va sonanoqsiz begunoh kishilarning o'lib ketayotganligini ko'rib, urush haqidagi fikrlarining puch xayoldan iborat ekanini biladi va umidsizlikka beriladi. Shuning uchun leytenant Genri urushdan yuz o'girib, qurolini tashlab, betaraf mamlakat - Shveysariyaga o'tib ketadi. Yozuvchi urush qabohatlariga shaxsiy hayotni qarshi qo'yadi. Genri Ketrin Berkliga bo'lgan sevgisi bilan urush dahshatlaridan ham tashqi, dunyo mashaqqatlaridan ham qutilishga intiladi. Lekin u shaxsiy hayot va muhabbatdan ham baxt topa olmaydi. "Alvido, qurol!" romanida Birinchi jahon urushi va umuman urush qoralanadi. [3]

Yozuvchining eng yaxshi hikoyalaridan biri "Kilimanjaro qorlari" ham davr va inson qismati mavzusiga bag'ishlanadi. Hikoya qahramoni yozuvchi Garri obrazida Hemingueyning Parijdagi hayoti, Yaqin Sharqqa ijodiy safari bilan bog'liq ko'p sahifalar bor. Adib ijtimoiy hayotdagi o'ta dolzarb muammo, ya'ni urushdan so'ng nochor ahvolda qolgan odamlar turmushi mavzusiga qayta-qayta murojaat qildi. Heminguey bu davrda Florida shtatidagi Ki-Uest shahrida yashab, mahalliy aholi bilan yaqindan tanishdi, ularning tashvish va quvonchlariga sherik bo'ldi [4].

Romanda muallif jamiyatda hukm surayotgan vaziyatni hech bir mubolag'asiz va bo'rttirishlarsiz ko'rsatishga harakat qiladi. Adib tasvirlagan jamiyatning bir tomonida nochor ahvolga tushib qolgan, hatto oddiy yashash imkonidan mahrum etilgan qashshoq odamlar, ikkinchi tomonida umrini ko'ngilxushlikda o'tkazayotgan "oqsuyak"lar joy olgandi. Asar g'oyasini kuchaytirish niyatida Heminguey Garri Morgan taqdiriga mantiqiy nuqta qo'yuvchi bir lavhani ham kiritadi. O'lim to'shagida yotgan Garri Morgan quyidagi chuqur ma'noli so'zlarni aytadi: "Odam yolg'iz yashay olmaydi. Odamni yolg'izlatib qo'ymaslik kerak. U to'xtab qoldi. – Baribir, odamning bir o'zi hech narsa qilolmas ekan. – U ko'zini yumdi. Shuni aytish uchun unga ko'p vaqt kerak bo'ldi, buni anglab yetishi uchun esa butun hayotini sarfladi" [5].

#### CONCLUSION/ЗАКЛЮЧЕНИЕ/XULOSA

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, Ernest Heminguey o'z yo'nalishiga ega, yozish uslubi boshqalardan ajralib turadigan, har qanday bo'rttirishdan qochadigan, hayotiy tajribalar asosida asar yaratadigan adibdir. U o'z asarlari orqali hayotdagi turli tuman qarama-qarshiliklarni tasvirlashga uringan va qahramonlari orqali har qanday urushni qoralagan, insonlarni yashash uchun kurashga undagan adibdir.

#### REFERENCES/ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА/ ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Kashkin I., Ernest Xeminguey, – Moskva: 1966.
2. Qodirova G. Chol va dengiz insonning yengilmas irodasi haqidagi asar. – Toshkent: 2023.
3. Sattorova N.I., Expressing lexical features in translation based on The old man and sea by Ernest Heminguey/ Research and education 2(5), 4-10, 2023.
4. Saminjonova S.N., Aliyeva S.A. Ernest Heminguey asarlari va ularda ifodalangan jonli urush talqini/Ilm-fan innovatsiya ilmiy-amaliy konferensiya, 2023.
5. Baker, Carlos Heminguey: The writer as artist. Princeton, NJ: Princeton University press. ISBN 970-691-01305-3.

## IKKINCHI JAHON URUSHI DAVRIDA O‘ZBEKISTONLIKLAR: JASORAT, MUKOFOT, E‘TIROF

*Abdullayev Diyorjon Nodirjon o‘g‘li - Urganch davlat pedagogika instituti dotsenti, tarix fanlari doktori (DSc)*

## УЗБЕКИСТАН ВО ВРЕМЯ ВТОРОЙ МИРОВОЙ ВОЙНЫ: МУЖЕСТВО, НАГРАДА, ПРИЗНАНИЕ

*Абдуллаев Диёржон Нодирджон угли – доцент Ургенчского государственного педагогического института, доктор исторических наук*



E-mail:  
[abdullaevdiyorjon@gmail.com](mailto:abdullaevdiyorjon@gmail.com),  
[adn20@mail.ru](mailto:adn20@mail.ru)

Orcid:  
<https://orcid.org/0000-0001-8560-5604>

Telefon raqam:  
+99899 889-39-20

## UZBEKISTAN DURING WORLD WAR II: COURAGE, REWARD, RECOGNITION

*Abdullaev Diyorjon Nodirjon o'gli - Associate professor of Urgench state pedagogical institute, doctor of historical sciences (DSc)*

**Annotatsiya:** Ushbu maqola Ikkinchi jahon urushi yillarida Sobiq Ittifoq Respublikalari tarkibida urushda qatnashgan o‘zbek qahramonlari tarixi, ularning mardlik va jasorati timsoliga bag‘ishlangan. Ikkinchi jahon urushi yillarida o‘zbek jangchilarining qahramonligi yuksak baholanib, Ittifoqning oliy mukofotlari bilan taqdirlangani tarixiy va xronologik jihatdan tahlil qilingan.

**Kalit so‘zlar:** O‘zbekiston, o‘zbek xalqi, ikkinchi jahon urushi, Sovet davlati, mukofot, orden, medal, unvon, qahramonlik, jasorat, mudofaa, islohot, Xotira kuni va faxriy yorliqlar.

**Аннотация:** Данная статья посвящена истории узбекских героев, участвовавших в войне в составе бывших союзных республик в годы Второй мировой войны, и символу их храбрости и отваги. Исторически и хронологически проанализированы факты о том, что в годы Второй мировой войны героизм узбекских воинов был высоко оценен и отмечен высшими наградами Союза.

**Ключевые слова:** Узбекистан, узбекистанцы, вторая мировая война, Советское государство, награда, орден, медаль, звание, героизм, отвага, оборона, реформа, День памяти и почести.

**Abstract:** This article is devoted to the history of the Uzbek heroes who participated in the war as part of the former Soviet republics during the Second World War, and the symbol of their courage and bravery. The facts that during the Second World War the heroism of Uzbek soldiers were highly appreciated and awarded the highest awards of the Union were analyzed historically and chronologically.

**Key words:** Uzbekistan, Uzbek people, the second world war, the Soviet state, award, order, medal, rank, heroism, courage, defense, reform, Memorial Day and honors.

### KIRISH (ВВЕДЕНИЕ / INTRODUCTION)

Ma‘lumki, Ikkinchi jahon urushi yillarida sovet davlati og‘ir sinovlarni boshidan kechirdi. Sovet xalqi shiddatli janglar alangasida o‘z Vatanining shon-sharafi, ozodligi hamda mustaqilligini saqlabgina qolmay, shu bilan birga butun insoniyatni fashizm asoratidan xalos etishda ham hal qiluvchi rol o‘ynadi. Qo‘qqisdan bo‘lgan bunday zarbaga Sovet davlati tarkibida mavjud bo‘lgan barcha xalqlar o‘z

matonatlari sababli bardosh berib urushni g‘alaba bilan yakunladi. Sobiq ittifoqning barcha respublikalari fashizmga qarshi kurashda yuksak jasorat namunalarini ko‘rsatdilar. Urush yillarida xalqlarning tabiiy yaqinlashuvi, do‘stligi va hamkorligi amalga oshdi. Ayniqsa, o‘zbek xalqi urush yillarida o‘zining mavjud qadriyatlarini hamda mehnatsevarlik an‘analariga sodiq qolgan holda

frontda hamda front ortida faol ishtirok etib, butun insoniyat tarixida nomini abadiylikka muhrladi.

Sovet hukumati urushning dastlabki kunlaridan boshlab xalq xo'jaligini harbiy izga solish, butun kuchni dushmanga zarba berish uchun safarbar qilish yuzasidan keng miqyosda tashkilotchilik ishlarini yo'lga qo'ydi. Dushman ustidan qozonilgan buyuk g'alabada ko'p millatli sovet davlati tarkibida bo'lgan barcha xalqlarning hissasi katta bo'ldi. Xususan, sovet respublika aholisining mehnati, ijtimoiy-iqtisodiy sohani ta'minlashi, mehr-saxovat, insonparvarlik namunalarini ko'rsatishi va boshqa qahramonliklari urush yillarida namoyon bo'ldi. Shuningdek, o'zbekistonlik harbiylarning urushdagi ishtiroki, ularning jangavor operatsiyalarda ko'rsatgan qahramonliklari va g'alabaga qo'shgan hissasi salmoqli bo'ldi. Aynan, o'zbekistonliklar urushning boshlanishidan to Berlingacha bo'lgan beayov janglarda matonat va vatanparvarlikning yuksak namunasini ko'rsatdilar.

O'zbek jangchilari nafaqat Yevropa, balki Osiyo xalqlarini ham dushmandan ozod etishda ishtirok etdi. Frontlarda dushman askarlarini tormor keltirgan respublikaning mard o'g'lonlari va jasur qizlari yuksak mukofotlar bilan taqdirlandi.

**ADABIYOTLAR TAHLILI VA METOD (ЛИТЕРАТУРА И МЕТОД / MATERIALS AND METHODS).** Ikkinchi jahon urushi yillariga bag'ishlangan arxiv ma'lumotlari, xususan, tadqiq etilayotgan mavzuga doir noyob tarixiy hujjatlar nafaqat O'zbekiston Milliy arxivi va joriy arxivlarda, balki Rossiya va MDH davlatlaridagi arxivlarda saqlanmoqda. Mazkur hujjatlar qatoridan evakuatsiya muassasalari va ilmiy xodimlar ro'yxati, hisobotlar va ma'lumot materiallari komissariati; evakuatsiya va shaxslarni qidirish uchun Oliy Sovet Prezidiumi yozishmalari; axborot, rejalar va ish muassasalari hisobotlari; mukofot hujjatlari; respublikadagi nodir fotosuratlar jamlanmasi kabi arxiv ma'lumotlari o'rin olgan [1, 29]. Qayd etib o'tilgan hujjatlar ikkinchi jahon urushi yillarida amalga oshirilgan mukofotlash tizimi tarixini kengroq tadqiq etish imkoniyatini beradi.

Ma'lumki, Sovet davrida ittifoq hududi uchun mo'ljallangan 90 ga yaqin mukofot shakllari - orden, medal, unvonlar ta'sis etilgan edi. Ular orasida ayniqsa, ikkinchi jahon urushi yillarida ta'sis etilgan mukofotlar muhim ahamiyat kasb etgan. Chunki, urush yillarida mukofotlash sohasini yuqori

darajaga olib chiqmasdan turib, urushda g'alaba qozona olmaslik muhim bir faktorga aylanib ulgurgan edi. 1941-yil iyunidan 1945-yil mayigacha bo'lgan urush yillarida mukofot va rag'batlantirish tizimi sezilarli o'zgarib, 10 yaqin orden hamda 20 dan oshiq medallar ta'sis etilgan. Urush yillarida davlat mukofotlaridan tashqari Qizil armiya harbiy xizmatchilari, partizanlar va front orti ishchilari faxriy yorliqlar, turli sohalar a'lochisi ko'krak nishonlari shuningdek, pul mukofotlari, qimmatbaho sovg'alar bilan taqdirlangan [2, 3-4]. 1933-1945-yillarda sovet davlatida ta'sis etilgan "Sotsialistik Mehnat qahramoni" unvoni, Lenin, Suvorov, Kutuzov, Aleksandr Nevskiy, Qizil Yulduz singari ordenlar bilan bir qatorda harbiy, mehnat orden va medallari, shuningdek, Moskva, Leningrad, Kiyev, Odessa, Minsk, Berlin, Budapesht, Varshava, Praga kabi shaharlarni nemis-fashistlardan ozod etganligi uchun ta'sis etilgan medallar, ko'krak nishonlari hamda "Qahramon ona", "Qahramon shahar" va "Qahramon qal'a" unvonlari yaratildi. Ushbu mukofotlar bilan taqdirlanganlarning soni bir necha million kishini tashkil etadi [3, 7].

#### **MUHOKAMA(OBSUZJDENIE/DISCUSSION)**

Dastlabki tadqiqotlarga ko'ra (1945-1991-yillar), urushda qozonilgan g'alaba natijasida Markaziy Osiyo, jumladan, O'zbekistondan 120 ming, Qirg'izistondan 42 mingdan ortiq, Tojikistondan 50 mingga yaqin, Turkmanistondan 19 mingga yaqin jangchilar mukofotlangan [4, 300-301]. Aynan, urush yillarida 120 ming o'zbekistonlik jangchilarning hukumat orden va medallari bilan mukofotlangani xalqimizga berilgan munosib baholardan biri bo'lganini ta'kidlash joiz. Urush yillarida 11 mingdan ortiq jangchilar "Sovet Ittifoqi Qahramoni" unvoniga munosib ko'rib [5, 36], ular orasidan o'zbekistonliklardan 250 dan ortig'i urush qahramoni unvoniga sazovor bo'lib, 75 nafari o'zbek millatiga mansub bo'lgan. O'zbekistonlik jangchilaridan 84 kishi "Shuhrat" ordenining uchala darajasi bilan mukofotlangan (Sovet davridagi tadqiqotlarga ko'ra).

Ikkinchi jahon urushi yillarida amalga oshirilgan mukofotlash-taqdirlash ishlarini quyidagi yo'nalishlar asosida ko'rib chiqish maqsadga muvofiq:

- Respublikadan safarbar etilgan harbiy qismlar hamda diviziyalar faoliyati;



- Sovet ittifoqi hamda Yevropa hududlarida, xususan, “Qahramon shahar”lardagi o‘zbekistonliklarning harakati;

- Vatanni ozod qilishda shakllantirilgan partizanlar harakati va unda o‘zbekistonliklarning faoliyati;

- o‘zbekistonliklarning front va front ortidagi jasoratlari (xotin-qizlar ishtiroki, tibbiyot, ilm-fan, maorif, matbuot, teatr va boshqa soha vakillari).

So‘nggi yillarda ikkinchi jahon urushi davri tarixini chuqurroq o‘rganish hamda yangi tarixiy ma’lumotlarni ilmiy muomalaga kiritish maqsadida yangi tadqiqotlar amalga oshirilmoqda [6, 294-296]. Mustaqil O‘zbekistonning yangi avlodi xalqimizning urush yillarida ko‘rsatgan so‘nmas jasorati, ona-Vatanga, jonajon diyorga mehr-muhabbatini qalbida saqlab, front yo‘llarini bosib o‘tganlar xotirasini, xalqni muqaddas urushga otlantirgan, ana shu yo‘lda dushman o‘qidan halok bo‘lgan kishilar xotirasini minnatdorlik bilan yodda saqlaydi. Shu bois, mustaqillik yillarida O‘zbekiston tarixini yangidan va xolisona tadqiq etish, mustabid tuzum yillarida ataylab soxtalashtirilgan tarixiy

voqealikalarga milliy g‘oya ruhida adolatli baho berish zarurligi O‘zbekiston Respublikasi hukumatining me‘yoriy-huquqiy hujjatlarida alohida ta’kidlanadi. Jumladan, har yili 9-mayning “Xotira va qadrlash kuni” sifatida nishonlanishi hukumatimiz tomonidan bu kunga alohida e’tibor berilayotganining dalilidir. Bugungi kunda mashaqqatli mehnat qilgan faxriylarga ham alohida e’tibor qaratilmoqda. O‘ttiz uch yillik yangi tarix davomida O‘zbekiston Respublikasi rahbariyati tomonidan urushda halok bo‘lganlar xotirasiga, urush qatnashchilariga, front ortida mehnat qilganlarga katta g‘amxo‘rlik ko‘rsatilib, bir qator farmonlar qabul qilindi. Mazkur Farmonlar asosida urush ishtirokchilari va qatnashchilariga har yili pensiyalari oshirilgan miqdorda mukofot pullari berilmoqda. Hozirgi vaqtda Ikkinchi jahon urushi qatnashchilariga shahar atrofi temir yo‘l, suv va avtomobil transportlarida bepul yurish huquqi belgilangan. Bunday tadbirlar mustaqillikning 25 yili davomida O‘zbekiston Respublikasi hukumati tomonidan qabul qilingan meyoriy-huquqiy, rasmiy hujjatlar asosida amalga oshirildi<sup>1</sup>.

<sup>1</sup> Ўзбекистон ХДП МҚ сиёсий ижроия кўмитасининг 1941-1945 йиллардаги фашизмга қарши урушнинг ўзбекистонлик қатнашчиларига, фронт ортида меҳнат қилиб ғалабани яқинлаштирган юртдошларимизга, республикамизнинг барча фуқароларига табриги // Ўзбекистон овози, 1992 й. 8 май; Ўзбекистон Республикаси Президентининг “1941-1945 йиллардаги урушда фашизм устидан қозонилган ғалабанинг 50 йиллигига тайёргарлик кўриш ва уни нишонлаш тўғрисида”ги 1994 й. 16 март Фармони // Қишлоқ ҳақиқати, 1994 й. 19 март; Ўзбекистон Республика Президентининг “1941-1945 йиллардаги уруш қатнашчилари ва мамлакат ичкарасида ишлаган меҳнатқашларни фашизм устидан қозонилган ғалабанинг 50 йиллиги байрами муносабати билан мукофотлаш тўғрисида”ги 1995 й. 20 апрель Фармони // Саховат, №3 1995 й.; Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Ғалаба куни байрами муносабати билан Иккинчи жаҳон уруши қатнашчиларини рағбатлантириш тўғрисида”ги Фармони // Халқ сўзи, 1996 й. 2 май; Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Ғалаба куни байрами муносабати билан Иккинчи жаҳон уруши қатнашчиларини рағбатлантириш тўғрисида”ги 1997 й. 8 май Фармони; Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Иккинчи жаҳон уруши иштирокчиларини рағбатлантириш тўғрисида”ги Фармони // Қишлоқ ҳаёти, 1998 й. 8 май; Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг “Иккинчи жаҳон уруши қатнашчиларини рағбатлантириш тўғрисида”ги 2000 й. 26 апрель Қарори // Қишлоқ ҳаёти, 2000 й. 27 апрель; Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг “Иккинчи жаҳон уруши қатнашчиларини

(9000 сўм мукофот билан) рағбатлантириш тўғрисида”ги 2002 й. 3 май Қарори // Ватанпарвар, 2002 й. 4 май; Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг “Иккинчи жаҳон уруши қатнашчиларини рағбатлантириш (13000 сўм мукофот пули бериш) тўғрисида”ги 2003 й. 1 май Қарори // Адолат, 2003 й. 2 май; Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Иккинчи жаҳон урушидаги ғалабанинг 60 йиллиги нишонланиши муносабати билан 1941-195 йиллардаги уруш қатнашчилари ва ногиронларини мукофотлаш тўғрисида”ги 2005 й. 6 апрель Фармони // Адолат, 2005 й. 8 апрель; Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Иккинчи жаҳон уруши қатнашчиларини рағбатлантириш тўғрисида”ги Фармони // Халқ сўзи, 2006 й. май; Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Иккинчи жаҳон уруши қатнашчиларини рағбатлантириш тўғрисида”ги Фармони // Халқ сўзи, 2007 й. 28 апрель; Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Иккинчи жаҳон уруши қатнашчиларини рағбатлантириш тўғрисида”ги Фармони // Халқ сўзи, 2008 й. 25 апрель; Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Иккинчи жаҳон уруши қатнашчиларини рағбатлантириш тўғрисида”ги // Халқ сўзи, 2009 й. 17 апрель; “О мерах по выполнению Указа Президента Республики Узбекистан от 24 марта 2010 года № УП-4207 “О награждении участников и инвалидов войны 1941-1945 годов в связи с празднованием 65-летия Победы во Второй мировой войне” Постановление Каб.Министров РУз, №71. 15 апреля 2010 г. // Собр. Законодательства РУз, № 14/15, 2010; Ўзбекистон Республикаси Президентининг



## **NATIJALAR (РЕЗУЛЬТАТЫ / RESULTS).**

So'nggi besh yillik davr mobaynida, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.M.Mirziyoyev tashabbusi bilan urushda ishtirok etgan faxriylarni rag'batlantirish hamda e'zozlash borasida katta ilmiy va amaliy ishlar yo'lga qo'yildi. Jumladan, rasmiy me'yoriy-huquqiy hujjatlar qabul qilinib, o'zbek xalqining ko'rsatgan matonati va jasur qahramonligiga oid yangi ilmiy izlanishlar amalga oshirildi. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.Mirziyoyev tomonidan "G'alaba bog'i" yodgorlik majmuasi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qaror imzolandi [7]. Davlat rahbari tashabbusi bilan ikkinchi jahon urushida mardlik va jasorat, front ortida matonat hamda insonparvarlik namunalarini ko'rsatgan ko'p millatli O'zbekiston xalqining fashizm ustidan qozonilgan buyuk G'alabani ta'minlashga qo'shgan munosib hissasini keng miqyosda yoritish, ikkinchi jahon urushi qatnashchilari va front ortida fidokorona mehnat qilgan yurtdoshlarimizning nomlarini abadiylashtirish, ularning beqiyos jasorati va matonatini tarix sahifalariga muhrlash, yosh avlodni Vatanga muhabbat va sadoqat ruhida tarbiyalash maqsadida Toshkent shahrida "Shon-sharaf" davlat muzeyi, "Mangu jasorat" va "Matonat madhiyasi" monumentlarini, tarixiy-badiiy ekspozitsiyalarni o'z ichiga olgan "G'alaba bog'i" yodgorlik majmuasi barpo etildi.

## **XULOSA (ЗАКЛЮЧЕНИЕ / CONCLUSION).**

So'nggi uch yil davomida (2020-2022) olib borilgan ilmiy izlanishlar natijasida jangovar orden va medallar bilan mukofotlangan o'zbekistonliklarining soniga oydinlik kiritildi. Shu paytga qadar bu ko'rsatkich 120 ming nafar deb qayd etilgan edi. Yangi ma'lumotlarga asosan 200 mingdan ziyod askar va ofitserlarimiz jangovar davlat mukofotlari bilan taqdirlangani aniqlandi. Shular qatorida ilgari 280 nafar deb hisoblab kelingan "Sovet Ittifoqi Qahramonlari"ning soni 301 nafar ekani, 70 nafar yurtdoshimiz uchala darajadagi "Shuhrat" ordeniga sazovor bo'lgani tarixiy tadqiqotlar orqali o'z tasdig'ini topdi [8]. 200 mingdan ortiq vatandoshlarimizning jang maydonlarida ko'rsatgan jasorati va qahramonligi yuqori baholangan hamda ular turli xil sovet mukofotlari

bilan taqdirlangan [9, 97-98]. Shuningdek, Italiya, Angliya, Fransiya, Yugoslaviya, Polsha, Chexoslovakiya, Vengriya kabi mamlakatlarning ordenlari bilan taqdirlangan hamyurtlarimiz bir necha ming kishini tashkil etganligi ma'lum bo'ldi.

## **Adabiyotlar ro'yxati/ Исползованная литература / References)**

1. Ильина И.Н. Эвакуированная наука: академические учреждения в Узбекистане в годы великой отечественной войны (по документам архива РАН) // Сбор. материалов межд. конф. Серия: Евразийский перекресток. Вып. 12. - Оренбург: Университет, 2019. - С. 29.
2. Шуняков Д.В. Наградная система СССР в годы Великой Отечественной войны (1941–1945 гг.). Дисс. канд. ист. наук. – Екатеринбург, 2018. – С. 3-4.
3. Норхўжаев Ф.Х., бошқ. Халқ хотирасида мангу яшайди (расмли альбом). – Тошкент: Ўзбекистон, 1981. - Б. 7.
4. Советский тыл в Великой Отечественной войне. Трудовой подвиг народа / Ред. П.Поспелова. Москва: Мысль, 1974. - С. 300-301.
5. Узбекистан в годы великой отечественной войны (1941-1945). - Ташкент: Фан, 1966. - С. 36.
6. Ўзбекистон Республикаси ШОН-ШАРАФ Давлат музейи. – Тошкент: Zamin nashr, 2021. - Б. 294-296.
7. Ўзбекистон Республикаси Президентининг "Ғалаба боғи" ёдгорлик мажмуаси фаолиятини ташкил этиш чора-тадбирлари тўғрисида"ги 2020 йил 9 сентябр ПҚ-4820-сон Қарори // Янги Ўзбекистон, 2020 йил 10 сентябрь.
8. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг буюк Ғалабанинг 75 йиллиги ҳамда Хотира ва кадрлаш кунига бағишланган тантанали маросимдаги нутқи // <https://president.uz/uz/lists/view/3564> (мурожаат 09.05.2020)
9. Иккинчи жаҳон уруши ва Ўзбекистон халқи: тадқиқотлар / Тўплам. – Тошкент: Tamaddun, 2020. – Б. 97-98

"Иккинчи жаҳон уруши қатнашчиларини рағбатлантириш тўғрисида"ги Фармони // Халқ сўзи, 2011 й. 23 апрель; Ўзбекистон Республикаси Президентининг "Иккинчи жаҳон уруши қатнашчиларини рағбатлантириш тўғрисида"ги 2012 й. 18 апрель Фармони // Халқ сўзи, 2012

й. 19 апрель; Ўзбекистон Республикаси Президентининг "Иккинчи жаҳон уруши қатнашчиларини рағбатлантириш тўғрисида"ги Фармони // Халқ сўзи, 2014 й. 19 апрель ва бошқалар.

## LINGUISTIC ANALYSIS AND PRINCIPLES OF ARTISTIC TEXT IN LITERARY STUDIES

*Qayumova Mohinur Murodullayevna*

*Teachers, Denau Entrepreneurship and Pedagogy Institute*

### ADABIYOTSHUNOSLIKDA BADIY MATNNING LINGVISTIK TAHLILI VA TAMOYILLARI

*Qayumova Mohinur Murodullayevna*

*Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti o'qituvchisi*



E-mail:

[mohinurqayumova2606@gmail.com](mailto:mohinurqayumova2606@gmail.com)

<https://orcid.org/0007-0002-8100-9212>

**Abstract:** The article's abstract explains the guidelines, procedures, and tools used in linguistic analysis of literary texts. For students to become proficient in the guidelines, procedures, and techniques of linguistic analysis of a literary work, this article is crucial.

**Key words:** complicated analysis, linguistic analysis, literary analysis, and language transformation (experiment).

**Аннотация:** В статье описаны правила, методы и способы лингвистического анализа художественного текста. Данная статья имеет большое значение для усвоения учащимися правил, методов и способов лингвистического анализа художественного текста.

**Ключевые слова:** лингвистический анализ, литературоведческий анализ, языковая трансформация (эксперимент), комплексный анализ.

**Annotatsiya:** Maqolada badiiy matnning lingvistik tahlil tartibi qoidalari, usul va yo'llari yoritilgan. O'quvchilarning badiiy matnning lingvistik tahlil tartibi qoidalari, usul va yo'llarini puxta egallashda mazkur mavzu kata ahamiyatga ega.

**Kalit so'zlar:** lingvistik tahlil, abadiy tahlil, til transformatsiyasi, kompleks tahlil.

### INTRODUCTION/BВЕДЕНИЕ/KIRISH

The concept of an artistic text refers to a written or spoken work that is created with the intention of expressing aesthetic, emotional, or imaginative qualities. Artistic texts often go beyond the mere transmission of information and focus on the use of language as a form of art. They may include various genres such as poetry, literature, drama, and other forms of creative expression.

The study of artistic texts in world linguistics involves analyzing the linguistic, stylistic, and structural elements that contribute to the artistic or aesthetic qualities of the text. Scholars in linguistics may explore how language is used creatively, how meaning is constructed, and how the form of the text contributes to its artistic value.

Key aspects of studying artistic texts in world linguistics include:

**Stylistics:** This field examines the choices made by authors in terms of language, structure, and expression to convey specific meanings or evoke certain responses from the audience. Stylistic analysis helps uncover the artistic features of a text.

**Semiotics:** The study of signs and symbols, semiotics in linguistic analysis can explore how language is used as a sign system to convey artistic meaning. This includes analyzing metaphors, symbols, and other figurative language.

**Pragmatics:** Pragmatics focuses on the use of language in context. In the study of artistic texts, pragmatics can help analyze how language is

employed to achieve specific communicative and artistic goals. [2]

**Narratology:** Particularly relevant in the analysis of literary texts, narratology examines the structure and elements of narratives, including plot, characters, and point of view. Understanding these elements contributes to the appreciation of the artistic qualities of the text.

**MATERIALS AND METHODS/ЛИТЕРАТУРА И МЕТОД/ADABIYOTLAR TAHLILI VA METOD** The study of artistic texts in world linguistics contributes to a deeper understanding of how language is used for creative expression and the ways in which linguistic choices shape artistic meaning. This interdisciplinary approach involves elements of linguistics, literature, philosophy, and cultural studies to provide a comprehensive analysis of artistic language use. [3]

Linguistic analysis of artistic text is important in learning philological subjects at a high level at school. Therefore, it is necessary for the teacher to thoroughly master the rules, methods and ways of linguistic analysis. First of all, the linguistic analysis of the artistic text should be distinguished from the literary analysis. True, both types of analysis are carried out on the basis of artistic text. But each type of analysis differs from each other according to its purpose and function. In the literary analysis, the idea of a work of art, its literary and artistic aspects are interpreted, while in the linguistic analysis, the characteristics of the speech events that make up the text, their interaction, and their service in forming the content of the work of art are interpreted and evaluated. [1]

#### **DISCUSSION/ОБСУЖДЕНИЕ/МУХОКАМА**

In the natural analysis, the phonetic phenomena and regularities in the language of the artistic work are interpreted as a separate system, and lexical semantic units (for example, labels, dialectal, historical, professional lexicon and phraseological units) are interpreted as another system. In the linguistic analysis, the special place of morphological and syntactic units is determined and their relationship with the phonetic, lexical-semantic system is explained. specific methods, and they rely on specific directions. However, when these rules are applied to a specific artistic text, they are interpreted with their specific aspects. That is, language units in the text are approached from the point of view of

history. Each language phenomenon is evaluated from the point of view of the period in which the work was created. The principle of individuality. Each language fact is explained separately in a specific text and systematized accordingly. For example, it was found that more than a hundred cattle breeding terms were used in the speech of the mountain herdsmen in the novel “Karakozlar” by P. Kadirov. These lexemes served to reflect the real life of the herdsmen, to form the language of the work as a universal language. The scientific principle. Each language phenomenon in the text is approached scientifically. For example, the terms of bird and place in Gulkhani’s “Zarbulmasal” or the discussion of Tortoise and Scorpion are scientifically analyzed, that is, if they are analyzed in connection with the vices of the social life of that time, the expected result will be achieved. The principle of unity of form and content. Language phenomena are approached from the point of view of unity of form and content. For example, in the analysis of the text “Valley of Happiness”, the syntactic-semantic characteristic of the refrain “Blue-blue, blue-blue, blue-blue...” is the basis for the content and construction of the work. The principle of taking into account the genre characteristics of the text. The artistic language of each work differs depending on its genre. In fact, the form specific to the genre of an artistic work is determined by its syntactic construction. There are different ways and methods of linguistic analysis of a literary text: The method of following the general rules of linguistics. In this, philological factors such as imagery, proportion, and comparison specific to language phenomena are determined. In this process, the language facts of other subjects are referred to. For example, when talking about the portrait of the great poet in the artistic-historical works written about Alisher Navoi in different genres, this method is followed, and specific places of language facts related to the image of the portrait are identified and summarized. As a result, Navoi’s portrait is formed not by means of paints, but by language materials. [4]

#### **RESULTS /РЕЗУЛТАТЫ/NATIJARLAR**

The method of linguistic scientific observation. In the linguistic analysis of the literary text, language units are scientifically observed from the point of view of linguistics. Textual materials are evaluated in terms of literary language norms.



Dialect elements and professional lexicon are compared with the literary norm. For example, Nechun sehen, do you get up early, Malik yanglig, are you alone? Method of linguistic transformation (experiment). Based on this method, it is determined to what extent the writer used language materials in a concrete artistic text by re-structuring the sentence. For example, you can change the row of Buds decorating Branches in the style of Buds decorating Branches. In this case, the verse will sound more powerful. But the logical-theoretical side of the issue does not allow this. After all, in the author's text, buds belong to branches. Buds decorate the branches only when they bloom. When it is changed, this logic is broken. So, as a result of the translation, it is determined that the author's text is linguistically correct. The method of comparing the variants of the text of the work. Through this method, the text of a certain work is compared with other variants, and the essence of linguistic differences is explained in relation to the author's point of view and the idea of the work. For example, when the text of the first version of the poem "Kokan" is compared with the language features of the main text, the difference is clearly visible. When the text of the writer's work is analyzed linguistically, his scientific and theoretical views related to linguistics should be taken into account. For example, without knowing the scientific works of Abdulla Kadiri, Oybek, A. Qakhor, Pirimkul Kadirov on the problems of the folk language and artistic language, it is not acceptable to analyze the text of those works. The method of using scientific-theoretical dictionaries. This method is of great practical importance in linguistic analysis. For example, it is difficult to analyze the text of classical works without the "Dictionary of Navoi's Works". Or, it is difficult to explain some language units found in contemporary literary texts without the "Annotated Dictionary of the Uzbek Language" and other scientific dictionaries related to specific disciplines. [6] Analysis and results (Analysis and results) :to achieve mental readiness of students to analyze the text; to pay attention to the socio-social and artistic aspects of the selected text, moving from simple to complex; to interpret the text in general linguistic and art-historical terms; to provide information about the socio-historical content of the work; interpreting the composition and construction of the text. [5]

## CONCLUSION/ЗАКЛЮЧЕНИЕ/ XULOSA

Special importance is given to phonetic, lexical-semantic, dialectological, phraseological and grammatical features. At the end of the work, all these are summarized as one linguistic system. Such a generalization is linguistic of the artistic text in the analysis it is called complex analysis. Such an analysis is carried out on a chapter of a work or a whole work.

## REFERENCES /ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА/ ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Akbar, Allashev. "Adabiy tarjima muammolari va xususiyatlari adabiy matn. Universal journal of academic and multidisciplinary research 1.1 (2023): 29-33.
2. Badiiy matnning lingvopetik tahlil. "Badiiy matnning lingvopetik tahlil metodologiyasi". Oriental Journal of Academic and Multidisciplinary Research 1.3 (2023): 311-313.
3. Ergashovna M. G. Types of fabrics and their analysis //Proceedings of Scientific Conference on Multidisciplinary Studies. – 2023. – T. 2. – №. 5. – C. 59-61.
4. Heyns N., van Zaanen M. Finding topic boundaries in literary text //Journal of the Digital Humanities Association of Southern Africa. – 2021. – T. 3. – №. 01.
5. Huelsenbeck, Bart. "Community Rules for a Common Literary Topic". Reading Roman Declamation: Seneca the Elder (2020): 151.
6. Ismoilova M. M. Badiiy tarjimaning leksik xususiyatlari //Golden Brain. – 2023. – T. 1. – №. 9. – C. 97-101.
7. Qayumova, Mohinur Murodulayevna. "Theoretical-methodological analyze of cosmos and individual on context of experimental science". Интернаука 28 (2018): 77-79.
8. Qayumova, Mohinur Murodulayevna, Muhlisa Sobirjonovna Sobirjonova, and Feruz Qurbonaliyevich Saidov. "Galileo's influence on John Milton concept "individual". Similarities and differences between the outlook of Galileo and John Milton". Science and Education 2.6 (2021): 494-498.



## МАТН КАТЕГОРИЯЛАРИ ХУСУСИДА АЙРИМ МУЛОҲАЗАЛАР

Самандаров Рустам Дўсёрович

Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институти  
филология фанлари бўйича фалсафа доктори (Phd)  
SOME COMMENTS ON TEXT CATEGORIES

Samandarov Rustam Duserovich

Phd in Philology Samarkand Institute of Economics and  
Service



Email:

[samandarovr962@gmail.com](mailto:samandarovr962@gmail.com)

Тел: +998 97 907 72 72

**Аннотация.** Бугунги тилшунослигимизда матн лингвистикаси муаммолари билан боғлиқ талай тадқиқот ишлари вужудга келди. Мазкур ишлар матннинг турли хил кўринишлари, шу жумладан, микро- ва макроматн шаклларидаги лингвистик табиатини ўрганиш билан ҳам бевосита алоқадордир. Бундай ишлар жумласига матннинг деривацион хусусиятларини ўрганиш доирасида бажарилган тадқиқотлар ҳам киради. Чунки деривация тушунчаси биринчи галда шаклланиш маъноси билан узвий боғлиқдир.

**Калит сўзлар:** локал-темпорал, модаллилик, боғланишлилик, сегментлаш, когезия, когерентлик, дистант, контакт, антропоцентриклик, концепталлик, информативлик.

**Annotation.** Research papers related to the problems of text linguistics have appeared in modern linguistics. These works are also directly related to the study of various manifestations of text, including the linguistic nature of micro- and macro-text forms. Such work includes research conducted as part of the study of the derivational properties of the text. Because, first of all, the concept of derivation is inextricably linked with the meaning of the formation of a particular structure. In our work, we pay attention to the exact category of coherence of the text.

**Key words:** local-temporal, modality, connectivity, segmentation, cohesion, coherence, distant connection, contact connection, anthropocentricity, conceptuality, informativeness.

**Кириш.** Бугунги тилшунослигимизда матн лингвистикаси муаммолари билан боғлиқ талай тадқиқот ишлари вужудга келди. Мазкур ишлар матннинг турли хил кўринишлари, шу жумладан, микро- ва макроматн шаклларидаги лингвистик табиатини ўрганиш билан ҳам бевосита алоқадордир. Бундай ишлар жумласига матннинг деривацион хусусиятларини ўрганиш доирасида бажарилган тадқиқотлар ҳам киради. Чунки деривация тушунчаси биринчи галда шаклланиш маъноси билан узвий боғлиқдир.

Биз ишимизда матннинг айнан боғланишлилик категориясига ўз эътиборимизни қаратамиз. Аммо шундай бўлса-да, матннинг боғланишлилик категорияси билан узвий боғлиқ унинг бошқа категорияларига ҳам қисқача тушунча бериб ўтишни лозим топдик.

**Мавзуга оид адабиётлар таҳлили.** Маълумки инсонни тилсиз, тилни эса инсонсиз тасаввур этиб бўлмайди. Мазкур мулоҳаза

Хумбольднинг тилга оид назарияларида алоҳида эслатиб ўтилган. Олимнинг таълимотида тилни тил қилувчи инсон эканлиги таъкидланади. Ва шу билан бирга инсоннинг инсон бўлиши учун тил даркор эканлиги мутлақо тўғри қайд этилади.

Хумбольднинг ушбу ғояси асосида бугунги кунда когнитив тилшунослик фаолият кўрсатмоқда. Бунда биринчи навбатда инсоннинг тил ҳақида билимлари ва улар орқали дунёни билишга қодир эканлиги ўз аксини топади. Когнитив тилшунослик том маънода инсон тушунчасига таянади.

Бироқ Хумбольднинг инсон ва тил ҳақидаги илмий ғоясига кўра йиллар мобайнида етарли даражада эътибор берилмади. Бу ҳақда мулоҳаза юритганда Е.А.Попова куйидагиларни таъкидлайди: “Бугунги кунда биз тил таракқиётининг инсон омилини эътиборга олмай иш юритган даврни тасаввур қилишда қийналамиз, зотан, бунда тилшунослик инсон тушунчасидан

ташқарида эди (лингвистика была бесчеловечной)” [1. 78].

Е.А. Попованинг мазкур фикри бироз муболағали бўлса ҳам, олима тил муаммоларини ўрганишда ҳозирча инсон омилига мурожаат этилмаганлигини тўғри таъкидлайди.

Э. Бенвенист ўзининг “Умумий тилшунослик” номли асарининг етти бобини инсон ва тил муносабати муаммоларини ўрганишга қаратганини кўрамиз. Бу ўринда унинг қуйидаги фикрларини айнан келтиришни мақсадга мувофиқ топдик: “Невозможно вообразить человека без языка и изобретающего себя язык. ... Именно в языке и благодаря языку человек конституируется как субъект, ибо только язык придаёт реальность, свою реальность, которая есть свойство быть, - понятию “Эго” – “мое я”” [2,293].

**Тадқиқотлар методологияси.** Антропоцентриклик ва локал-темпораллик категориялари. Бенвенистнинг тилнинг тил бўлиши ўзини субъект тарзида намоён этувчи инсон омили билан боғлиқ эканлиги ҳақидаги фикри ҳам ибратлидир [2,294]. Ана шулардан келиб чиқиб, матннинг грамматик категориялари ичида антропоцентриклик категорияси ҳам алоҳида аҳамият касб этишини таъкидламоқчимиз. Антропоцентриклик муаммоси, албатта, бу ўринда бадиий асар билан, унинг сюжети билан боғлаб ўрганилади. Мазкур тизимни албатта инсон бошқаради. Бошқача айтганда бадиий асарда бу ўринда унинг қахрамонлари муҳим вазифа бажаради. Зотан бадиий асарда локал-темпорал ҳолат инсон иштирокисиз аҳамият касб этмайди:

*Кечга яқин улар яйлов тугаб сахро бошланадиган ерга етиб келдилар, сарғиш барханлар, чиройли гуллаган саксовул буталари кўринди (А.Мухтор. Чинор).*

Берилган мисолда локал темпорал ҳолат ифодаланиши инсон омили билан узвий боғлаб берилаётганлигини кўрамиз: *кечга яқин* – темпорал ҳолат, *сахро бошланадиган ер* – локал ҳолат ифодаси, улар – субъект.

Бадиий асарда антропоцентриклик ҳодисаси унинг ҳар бир парчасида намоён бўлади. Бирок мазкур ҳодиса ҳар доим муаллифнинг иқтидорига боғлиқ ҳолда муайян жой, табиат манзаралари, шунингдек, темпораллик белгилари билан қўшилган тарзда ўз ифодасини топади. Фикр исботи учун қуйидаги мисолга мурожаат этамиз:

*Камолова ҳовлисига кириб келганда мевалари қип-қизил, чанг ола бошлаган олма дарахти ёнига ариқ бўйига ўрнатилган чорпоя сўрида эри Комилжон Хонободдан келган меҳмон, юртда “Мироб домла” деб танилган кекса ўқитувчи Илҳом Зуфаров билан суҳбатлашиб ўтирар, беш ёшлик ўғли Ботиржон катталар суҳбатига эътибор билан қулоқ солар, икки яшар қизчаси Нодира эса дадасининг тиззасида пишиллаб ухлаб ётар эди (Ҳ.Ғулом. Қорадарё).*

Келтирилган макроматнда тасвирланаётган воқеа иштирокчилари беш кишидан иборат бўлиб, у Комилжон ва Камоловаларнинг ҳовлисида рўй бериб ўтганлигини кўрамиз. Айни пайтда макроматннинг антропоцентриклик белгиси, бизнингча, изоҳ талаб қилмайди.

Макроматнда антропоцентриклик ҳодисаси ҳар доим замон тушунчаси билан боғлиқ бўлади. Зотан инсон ҳаракатда экан, у муайян замон оғушида яшайди. Бу хусусида сўз юритганида В.А.Кухаренко қуйидагиларни тўғри таъкидлайди: “Пространство в его художественном отражении, в отличие от времени более самостоятельно. Описание места – интерьера, ландшафта – нередко составляет относительно автономный фрагмент текста” [3,75].

Дарҳақиқат, бадиий асарларда табиат манзараларининг тасвири асар сюжетида кучли таъсир кўрсата олмайди. Ва улар деривацион хусусиятларига кўра автоном характерли бўлади: *Савр ойининг момоқалди роқли ёмғирларидан кейин Самарқанд атрофидаги ойлар ям-яшил бўлиб, яшнаб турибди. Олма ва беҳилар гулни тўкканидан сўнг анор ва жийдалар энди гулга кирган (П. Қодиров. Она лочин видоси).*

Мазкур матн абзац мақомида бўлиб, унда табиат тасвири берилаётганини кўрамиз. Бунда матннинг характерли белгиси шундаки, ифодаланаётган табиат тасвирининг асар сюжетида алоқаси йўқ. Аммо у рўй бериши лозим бўлган воқеа-ҳодисалар, бошқача айтганда, инсон омили иштирок этиши лозим бўлган воқеаларга нисбий таъсир ўтказади. Масалан, табиат тасвири асар қахрамонларининг ҳаракатига, кайфиятига таъсир ўтказа олади. Бу эса, ўз навбатида, табиат тасвири ифодаси ҳам инсон омилларидан ҳоли эмаслигини кўрсатади. Концептуаллик ва информативлик категориялари. Концептуаллаик деганда матн ғояси билан боғлиқ ҳодисани, ин-

формативлик деганда эса матнда ифодаланиши кўзда тутилган мазмуний ифодани (информацияни) тушунамиз.

Концепт ифодаси ҳеч қачон бир йўла яхлит ҳолда берилмайди ва бундай бўлиши мумкин ҳам эмас. Концепт ифодаси асарнинг бошидан охиригача муайян парчаларда ўз ифодасини топади. Бунда гап, муракаб синтактик қурилма абзац, боб ва ҳ.к. лар концепт ифодасининг объектлари ҳисобланади:

1. *Юпқа девор тагидан оқиб чиқиб ҳовузгача қуйилаётган сувни шапиллатмоқчи бўламан, лекин катта лагандай ҳовузчада ёнгоқдай кичик икки-учта олма рақс этади, шарча каби яқинлашиб бирин-кетин шўнғийди (Ойбек. Болалик).*

2. *Холамлар ва тогаларим тер тўкиб ишлайдилар, дам жиққа ҳўл рўмоллари билан елпиниб, дам энгашиб манглайларидан терини сидирадилар, аммо бобом тушқур мунчоқ-мунчоқ тер бўлса ҳам писанд қилмайди, бемалол ишлайди, шартта-шартта чарм қирқади, ишдан тинмайди (Ойбек. Болалик).*

Келтирилган мурақаб синтактик қурилмаларнинг ҳар иккиси ҳам Ойбекнинг “Болалик хотиралари” концепти билан характерланувчи “Болалик” асарининг муайян парчаларини тақозо этади. Айни пайтда мисолларнинг ҳар иккиси ҳам асар муаллифининг болалик хотираларини тўлдириш учун хизмат қилмоқда. Қизиғи шундаки, бу ўринда асарнинг номи унинг концептини тақозо этмоқда.

Албатта, концепт ифодаси бир гап, бир муракаб синтактик қурилма ёки бир абзац доирасида ўз аксини топмайди. Бунинг учун гаплар, мурақаб синтактик қурилмалар ва абзацлар мажмуаси талаб қилинади.

Информативлик категорияси мазмуний фактуал маълумотни ҳамда мазмуний концептуал маълумотни ўз ичига олади. Аввал эслатиб ўтганимиздек, мазмуний фактуал маълумот матн сатҳида қатнашаётган ҳар бир сўзнинг луғавий маъноси билан боғлиқ ҳолда шаклланади ва асарда нималар содир бўлмоқда, деган саволга жавоб бўлади. Бошқача айтганда у бадий матн сюжети билан алоқадордир. Мазмуний концептуал маълумот эса асар воқеа ҳодисалари нима учун содир бўлмоқда деган саволга жавоб бўлади. Кўринадик, мазмуний фактуал ва мазмуний концеп-

туал маълумотлар (информациялар) узвий боғлиқдир. Матннинг система эканлиги унипг таркибий қисмлари ҳисобланувчи гапларнинг, катта матнларда эса мурақаб синтактик қурилмалар, абзацлар ва ҳатто бобларнинг ўзаро боғлиқлигида намоён бўлади:

1. *Қозонларда қайнаган энг “қашшоқбоп” таомнинг ҳидидан Аҳмад Хусайннинг сўлаги оқди, ичаклари узилгандай бўлди. ... фақат шоирнинг хонасига кириши биланоқ, ўз шахсий қайғусини унутди. Муҳаммаджамол хаста ётар эди (Ойбек. Покистон таассуротлари).*

2. *Икки ишчи – Усмон Собир ва биродари терлаб-пишиб ҳажсвияни тамом қилдилар. Одамлар каттик, узоқ олқишлаб, дув ташқарига чиқдилар.*

Биринчи мисолда берилган абзац мақомидаги матн синтактик деривацияси операндлари вазифасида бешта содда гап қатнашиб, уларнинг бирининг қўлланилиши иккинчисининг бўлишини ҳам талаб қилаётганини кўрамыз. Бу эса, ўз навбатида, матн компонентларининг систем боғланишидан далолат беради.

Иккинчи мисолда эса микро абзац мақомидаги иккита синтактик структура қатнашмоқда. Мазкур абзацларнинг бирини тушириб қолдирадиган бўлсак, у ҳолда, абзацлар боғланишидан ташкил топаётган катта матн шаклланишига путур етказган бўламыз. Ана шунинг ўзи ҳам матннинг систем характерда бўлишини далиллайди.

Тугалланганлик ва модаллилик категориялари. Ҳар қандай матн ҳам тугалланганлик белгисига эга бўлади. Бу унинг грамматик категорияларидан бирини тақозо этади. Бироқ, айни пайтда биз тугалланганлик тушунчасини нисбий тушунамиз. Айниқса, макроматн таркибига кирган микромаатнларни мутлақ тугалланган деб бўлмайди:

1. *Ҳозир арқони давлат йиғилган саройда бегим ўзини Абусаиднинг оёғига ташласа, балки тирик қолиши мумкиндир. Лекин қайси гуноҳи учун авфу сўрасин (П. Қодиров. Она лочин видоси).*

2. *Бунинг хабари Ҳиротга ҳам етиб келди-ю, Хусайн Бойқаронинг барча ганимларини қўзғатиб юборди. Бу ганимларга энди Поянда Султон бегим деган аёл киши бош бўлди ... (П. Қодиров. Она лочин видоси).*



Берилган мисолларнинг биринчисида микроматн мақомидаги мураккб синтактик қурилма абзац таркибида келмоқда. Унинг насбий тугалланганлиги изоҳ талаб қилмайди, албатта. Бироқ уни мутлақ тугалланган деб бўлмайди. Чунки ундан кейин келаётган гап *лекин* боғловчиси билан боғланмоқда. Бу эса, ўз навбатида, абзацнинг олдинги ва кейинги компонентларини ҳам мазмунига кўра, ҳам синтактик жиҳатдан боғланмоқда. Шунини ҳам айтиш керакки, тилшунослик адабиётларида матнни мутлақ тугалланган ва шу боис ёпиқ системали воқелик деб таърифлашадилар [3,78].

Бироқ тил материалининг таҳлили ҳар қандай матн ҳам нисбий тугалланган бўлишини кўрсатмоқда. Буни бадий матн таркибида қатнашувчи нисбий макроматн мақомидаги абзацлар мисолида кўрсатишимиз мумкин:

1. *Турғун ака ҳар неки гапларни алдов деб ўйламаса, буларга заррача шак келтирмаса ҳам, яна қарориди маҳкам турди. Лекин тўра даргоҳида ҳар қандай мушкул аҳволдан қутулиши макри топилар эди (М. Исмоилий. Фарғона тонг отгунча).*

2. *Дилшод юраги узилиб тушгандай бўлди. Ахир у ҳовлига қайтаётган эди-ку. Қандай келиб қолди бу ерга? ... Дилшод юрагига ваҳм солган бу саволга ўзини ишонтиргилик жавоб топа олмади ... (М. Исмоилий. Фарғона тонг отгунча).*

Айни пайтда берилаётган абзацларнинг мазмунан боғлиқ эканлигини кўраимиз. Тўғри, уларнинг ҳар иккисини тугалланмаган деб бўлмайди. Улар тугалланган. Бироқ бу тугалликни нисбий деб биламиз. Шунга кўра, уларнинг систем ёпиқлиги ҳам нисбий характерлигидир.

Бадий матн учун модаллик тушунчаси ҳам муҳим аҳамият касб этади. Мазкур ҳодиса асар муаллифининг воқеликка қай тарзда муносабат билдираётгани билан узвий боғлиқдир. Бошқача айтганда модаллик муаллиф томонидан асар учун мавзу танланиши унинг номланиши жараёнида вужудга кела бошлайди.

**Таҳлил ва натижалар.** Умуман, боғланишлик матнларда икки кўринишда намоён бўлади: контакт ва дистант боғланиш. Контакт боғланиш бевосита боғланиш бўлиб, унда матн компонентлари бир бирига ҳам семантик, ҳам синтактик жиҳатдан узвий боғланган бўлади. Дистант боғланишда эса матн компонентлари бир бирига

боғланиши нисбатан сустроқ бўлади. Бу вазиятда матн компонентларининг боғланишлик категорияси матннинг умумий мазмунидан келиб чиқади. Бундай боғланишни К.Кожевникова радиал боғланиш деб атайди [5,49-67].

Шу нарса характерлики, матннинг ҳар қандай тури ҳам боғланишли нутқ маҳсули саналади. Бу ўринда ҳам ҳар бир тилларинг лексик-морфологик воситалари муҳим омиллар саналади. Матн шаклланишининг назарий жиҳатларини ўрганишда энг аввал шу нарсага эътибор қаратиш лозимдир. Аммо шу билан бирга, матннинг бошқа грамматик категориялари ҳам матн деривацияси жараёнида муҳим рол ўйнайди. Юқорида кўриб чиқилган матн категориялари ана шулар жумласига қиради.

Хулоса қилиб айтадиган бўлсак, юқорида таҳлилга тортилган матн категориялари орасида асосийси (етақчиси) сифатида унинг боғланишлик категориясини кўрсатиш мумкин. Албатта, бир томондан боғланишлик категорияси ҳар қандай матннинг мажбурий тоифаларидан биридир, чунки боғланиш матннинг хусусияти бўлиб, унинг ёрдамида унинг семантик яхлитлиги таъминланади. Бошқа томондан эса муаллифларнинг фикрича, “матннинг универсал категориялари асосини яхлитлик (мазмун режаси) ва изчиллик (ифода режаси) ташкил этиши билан бирга модаллик, когренглик, когезия, сегменланиш хусусиятига эгаллиги ҳам муҳим ўрин эгаллайди. Улар бир-бирини тўлдирувчи ва диархия муносабатларига қиради” [6, 496].

#### **Адабиётлар/References:**

1. Попова Е.А. Человек основопологающая величина современного языкознания. // Филологические науки, № 3, 2002.
2. Бенвенист Э. Общая лингвистика. – М., 1974. – С. 293.
3. Кухаренко В.А. Интерперетация текста. – М, 1988. – С.296.
4. Соссюр. Ф.де. Труды по языкознанию. - М.: Прогресс, 1977, 695 с.
5. Кожевникова К. Об аспектах связности в тексте как целом Синтаксис текста. – М.: Наука, 1979, 368 с. (49-67).
6. Бабенко Л. Г., Казарин Ю. В. Лингвистический анализ художественного текста. М.: Флинта; Наука, 2008. 496 с.



## БАДИЙ АДАБИЁТДА “АЁЛ” ОБРАЗНИНГ ВЕРБАЛЛАШУВИ

*Адилова Дилором Кадировна*

*Иқтисодийёт ва Педагогика Университети катта ўқитувчиси*

*Қарши шаҳри, Ўзбекистон Республикаси*

**Аннотация:** Мақолада бадий адабиётда яратилган аёллар образлари таҳлил қилинади. Адабиётдаги бадий образ ҳаётни акс эттириш шакли бўлиб, оламнинг умумлаштирилган манзарасини ифодалайди. Санъат ҳаётни шартли равишда, гўзаллик қонунларига мувофиқ яратилган иккинчи табиатини рамзийлаштириш асносида қайта тиклайди. Бу, албатта, ҳақиқий воқелик эмас, балки ҳақиқий образ бўлиб, у билан фақат тасаввур орқали учрашиш мумкин. Аёлларнинг ҳуқуқлари, бурчлари, хулқ-атвори ҳам асрдан-асрга ўтиш баробарида ўзгариб туради. Илгари - юз, икки юз йил аввал - аёлга муносабат бугунги муносабатдан фарқли эди, бу муносабат жуда кўп тарихий воқеалар ва ўзгаришларни бошидан кечирди. Шунга кўра, адабиётдаги аёл образи ҳам ўзгарди.

**Калит сўзлар:** бадий образ, тақлид, феномен, тасаввур, таъриф, эстетик аҳамият, поэтик фикр.

## VERBALIZATION OF THE CHARACTER OF A "WOMAN" IN FICTION

*Adilova Dilorom Kadirovna*

*Senior Lecturer of the University of Economics and Pedagogy*

*Karshi city, Republic of Uzbekistan*

**Abstract:** The article analyzes the characters of women created in fiction. The literary character in literature is a form of reflection of life and represents a generalized picture of the universe. Art reconstructs life conditionally, in the sense of symbolizing its second nature, created in accordance with the laws of beauty. This, of course, is not a real reality, but a real character, with which it is possible to meet only by imagination. Women's rights, duties, behavior also change with the transition from century to Century. Previously - a hundred, two hundred years ago - the attitude towards a woman was different from today's attitude, this attitude went through a lot of historical events and changes. Accordingly, the character of a woman in literature also changed.

**Key words:** artistic image, imitation, phenomenon, imagination, definition, aesthetic significance, poetic thought.

### Кириш / Введение / Introduction

Бадий образ назарияси қадимги даврда яратилган ва тақлид тушунчаси билан боғлиқ ҳолда тушунилган. Бу шуни англатадики, расом ҳаётни ўзига хос ва индивидуал маънода қайта тиклайди. Арасту (Аристотель) бадий асарни ўз

қоидаларига бўйсунадиган, муаллиф бадий ижоди тасарруфидан чиққандан сўнг эстетик завқ "маҳсулотини ишлаб чиқарадиган" тирик мавжудот сифатида тушунган [1]. Георг Вильгельм Фридрих Гегель XIX аср адабиёти фанига қуйидагича таъриф берган: “сўз санъати



<https://orcid.org/0009-0000-8220-2471>

E-mail:  
[diloromkadirovna@gmail.com](mailto:diloromkadirovna@gmail.com)

Тел.: 91 225 51 11.

аниқ ҳақиқатни очиб берадиган образлар орқали фикрлашдир” [2].

### **Адабиётлар таҳлили ва метод/Литература и метод / Materials and methods**

Бадий адабиётда яратилган образлар моҳиятини тадқиқ этиш ижодкорнинг воқелик билан муносабатига ойдинлик киритади. В.Е.Хализев образнинг икки хилини ажратади: англаш феномени сифатидаги образ ва тасаввурнинг ҳиссий (кўриш ва эшитиш воситасида) гавдаланиши орқали ҳосил бўлувчи образ. Шунингдек, В.Е.Хализев “образ”ни санъат назарияси учун энг ўринли асос эканини қайд этади [5]. А.А.Потебня эса ўз тадқиқотида образни “тасаввурнинг қайта ишланиши” деб атайди [Потебня. 1990]. “Образ” тушунчасига берилган бошқа таърифлар ҳам мавжуд. Л.И.Тимофеевнинг сўзларига кўра, “образ – бу бадий адабиёт ёрдамида яратилган ва эстетик аҳамиятга эга бўлган инсон ҳаётининг аниқ ва айна пайтда умумлаштирилган тасвиридир” [4].

### **Муҳокама /Обсуждение / Discussion**

Бадий образнинг бир тури ҳисобланган поэтик образ шеърӣ тафаккур мазмунини акс эттиришнинг асосий шаклидир. Образ санъаткор томонидан реалликнинг қайта идрок этилган ва муайян мақсадни амалга ошириш йўлида бадий сайқалланган, ижодкор идеали билан шакллантирилган фикр натижасидир. Туйғу, руҳий кечинма билан поэтик фикр уйғунлиги лирик образ яратишнинг асосий шартини саналади.

### **Натижалар /Результаты / Results**

Адабиёт асрлар давомида халқ хис-туйғуларининг ифодачиси, кўнгил кўзгуси, дард-у қувончини куйлаш, сатрларда муҳрлашдек адабий-эстетик вазифани бажариб келмоқда. Улуғбек Ҳамдамнинг эътирофича: “...Энди шоир ўз нигоҳини ташқаридан — атрофда юз бераётган оламшумул воқеа-ҳодисалардан узиб, ўз мискин кўнглига қаратди ва уни “таржима” этишга киришди”[6]. Бадий тафаккур мудом янгиланишга эҳтиёжманддир. “Чинакам лирика, — деб ёзади Гегель, — бошқа ҳар қандай ҳақиқий поэзия каби инсон юрагининг чинакам мазмунини ифода қилиб бериши керак. Бироқ ҳамма нарса ва ҳатто, энг холис, энг предметли ва энг моддий ҳодисалар

ҳам лирик мундарижа касб этаркан, шахсан ҳис қилинган, кўнгул кўзгусида йўғрилган, тасаввур қилинган ва ўйланган ҳолда гавдаланмоғи лозим” [2].

Аёл образини ўрганишга эътибор сўнгги йилларда тадқиқотчиларнинг адабиётда муҳим ўрин эгаллаган аёл қаҳрамонларга қизиқиши ортиб бораётгани билан изоҳланади. Аёл образи бўйича тадқиқотлар билан танишиш, биринчи навбатда, ушбу тушунчани ташкил этадиган асосий уч компонент таърифини тушунишни талаб этади: “ички компонент” – характер хусусиятлари, ахлоқий фазилатлари ва интеллектуал қобилиятлари; “ташқи компонент” – биологик ва физиологик хусусиятлар, ташқи кўриниш; “ижтимоий компонент”– оилавий мақоми, ижтимоий мавқеи, ижтимоий аҳамиятга эга фаолияти.

Санъат асарининг қаҳрамони бўлган аёлнинг номи бадий-эстетик идеалларнинг гавдаланиши билан боғлиқ. Гўзал ғоялар билан бир қаторда, маънавий ва жисмоний гўзаллик чўққисига интилишни ҳаётга татбиқ этиш учун санъат ва адабиётда аёл образи энг яхши фазилатлар билан ҳамоҳанг тарзда ифодаланади. Шунинг учун санъат ва адабиётдаги аёл кўпинча рамзий маънога эга бўлди. Қиз, маҳбуба, аёл, инсон наслининг давомчиси, оила ўчоғининг ҳимоячиси, рўзгор бекаси, меҳрибон она... Инсониятнинг ярми ҳисобланмиш *Аёл* киёфаси жуда хилма-хил, сирли ва гўзал, ҳар бир халқ ҳаётида инсон фаолиятининг барча жабҳаларида доимо муҳим ўрин тутган. Ҳамиша шоирлар шеърларида аёл сиймоси янграган, таниқли созанда ва хонандалар ижодларида аёлни улуғлаб куйлаганлар, улуғ рассомларнинг асарлари учун мавзу бўлган аёллар уларнинг суратларида мангуга муҳрланган, шеърятнинг муқаддас саҳифасини ҳам, шубҳасиз, азиз ва яқин, ғамхўр инсон, она деб эътироф этилгувчи аёл ҳақидаги шеърлар ташкил қилади. Ҳамма замонлар шоирлари *Аёл* олдида тиз чўкиб, унинг муқаддас оналик бурчига садоқатига, сабр-тоқатига, фидойилигига, меҳрига ҳамдлар айтишган. Ҳеч ким онанинг инсон ҳаётидаги ролини шоирларчалик кучли ва самимий ифода эта олмаган.

Адабиёт, айниқса, мумтоз адабиёт ҳамиша ғоялар теранлиги, персонажлар

образларининг мукамаллиги билан ажралиб туради. Ва аёл образисиз, албатта, бирор-бир асар мавжуд бўлиши шунчаки мумкин эмас, аёл ҳар қандай романда, ҳар қандай ҳикояда ва қиссада, ва албатта, шеърятда мавжуд. Асрдан-асрга эса бу образ ҳар бир кейинги авлоднинг қарашлари ва тарбиясига, шунингдек, муаллифнинг мақсади, нияти, ғояларига монанд ўзгариши мумкин.

#### **Хулоса / Заключение / Conclusion**

Жаҳон маданияти ва шеърятда, сирли Шарқ гўзалига бўлган муҳаббатдан кўра ҳаяжонлироқ сюжетни топиш, эҳтимол, қийиндир, бу образ барча асрларда Шарқ, Ғарб ва Россия даҳолари – Ҳофиз, Румий, Саъдий, Байрон, Гёте, Пушкин, Лермонтов, Тўқай, Бунин ва бошқалар учун битмас илҳом манбаи бўлган. Аёл мавзуси Н.А.Некрасов шеърятда чуқур янграган ва унинг анъаналари С.А.Есенин шеърларида ўз аксини топган. Бу мавзу А.Т.Твардовскийнинг бутун ижодий йўлида ҳамроҳ бўлиб, Р.Г.Гамзатов асарларида она-аёл образи Ватан образига айланади.

А.С.Пушкин ўзининг "Евгений Онегин" романида Татьяна Ларина образи орқали аёлнинг ақл бовар қилмайдиган, унутилмас ва ажойиб киёфасини яратди. Буюк шоир аёл образини

ниҳоятда содда ва тушунарли, аммо жозибали ва бетакрор ярата олди. "Чуқур табиатли, меҳрибон, эҳтиросли", - Татьяна ўқувчига ўзининг соддалиги билан ҳақиқий, шахс сифатида шаклланган ва гўзал бўлиб кўринади.

#### **Адабиётлар / Литература / References:**

1. Аристотель. **Аналитик** *первая и вторая*. - Ленинград: Государственное издательство политической литературы, 1952.- 437 с.
2. Гегель. Эстетика. Т.3. - М., 1971. - 504 с.
3. Даниева М.Дж. Инглиз тили отли сўз бирикмаларининг дискурда намоён бўлиши. – Тошкент: Меҳридарё, 2018. – 120 б.
4. Тимофеев Л.И. Основы теории литературы. - М.: Учпедгиз, 1959. 447 с. (5-е изд., испр. и доп. М.: Просвещение, 1976. 448 с.).Гуляев.
5. Хализев В. Е. Х. 17. Теория литературы: Учебник / В. Е. Хализев. - 4-е изд., испр. и доп. -М.: Высш. шк., 2004.-405 с. Потенция.
6. Ҳамдамов У. Янгилашиш эҳтиёжи. — Тошкент: Фан, 2007. — 75 б.



## ТУРЛИ ДИСКУРСИВ МУХИТЛАРДА НОЛИСОНИЙ ВОКЕЛИКНИНГ ЎХШАШ ХОЛАТЛАРИНИНГ ТАСВИРЛАНИШИ

*Даниева Майсара Джамаловна*  
*Иқтисодиёт ва Педагогика Университети*  
*профессори, ф.ф.д. (DSc)*  
*Қарши шаҳри, Ўзбекистон Республикаси*



[https://orcid.org/  
0009-0006-6939-0299](https://orcid.org/0009-0006-6939-0299)

E-mail:  
[maysaradaniyeva@gmail.com](mailto:maysaradaniyeva@gmail.com)

Тел.: 91 221 01 09

## DESCRIPTION OF SIMILAR STATES OF NONLINGUISTIC VERBALIZATION IN DIFFERENT DISCURSIVE SITUATIONS

*Danieva Maisara Djamalovna*  
*Professor of the University of Economics and Pedagogy, DSc*  
*Karshi city, Republic of Uzbekistan*

**Аннотация:** Мақолада дискурс фаолиятининг маҳсули сифатида қараладиган матн структур ва мазмуний-мантиқий муносабатларнинг умумлашмаси, яхлитлигидан иборат лисоний ҳодисалар қаторига киритилаётганда асосий эътибор унинг ички тузилиши, таркибига қаратилишини ўрганиш мақсади кўзланган. Аммо, дискурс қоидаларининг асл моҳиятини билиш учун уларнинг матндан ташқари муносабатлар кўламини ҳам аниқлаш лозим бўлади. Зотан, матннинг ташқи алоқалари унинг ажралмас қисмидир ва бу, айниқса, бадиий дискурсда кўзга яққол ташиланади. Ташқи структура бадиий мазмунни воқелик билан боғловчи хусусиятлар мажмуаси бўлиш билан бир қаторда, ўзининг ҳаракатчанлиги, беқарорлиги билан ҳам ажралиб туради, деган хулоса илгари сурилади.

**Калим сўзлар:** бадиий дискурс, мазмун, ассоциатив боғланиш, синтагматик ва парадигматик муносабатлар.

**Abstract:** In the article the text is considered as a product of discourse activity, which is included in the list of linguistic phenomena consisting of a generalization, integrity of structural and substantive-logical relations, the purpose of studying its focus is on its internal structure, composition. However, in order to find out the true nature of the rules of discourse, it will be necessary to determine the scope of their non-textual relationship. Already, the external relations of the text are an integral part of it, and this is especially evident in artistic discourse. The conclusion is advanced that in addition to being a complex of features that connect artistic content with reality, the external structure is also characterized by its mobility, instability.

**Key words:** literary discourse, content, associative connections, syntagmatic and paradigmatic relations.



## Кириш / Введение / Introduction

Бадиий дискурсининг фарқли кўрсаткичларидан бири – унинг мазмун жиҳатидан кўп қирралиги, ушбу мазмун идрокига турлича ёндашиш ва турлича ассоциатив боғланишлар орқали талқин қилиш ҳолатлари юзага келишида намоён бўлади. Бадиий асарнинг кўпмаънолилигини бадиий ифода тилида синтагматик ва парадигматик муносабатлар воқеланишининг турлича кечиши билан боғлаш мумкин. Стилистик муносабатлар бир сатҳга оид элементларнинг ягона бир матн доирасида боғланишида юзага келса, парадигматик муносабатлар эса элементларнинг матн ичида ва ундан ташқарида алоқага киришувини акс эттиради.

## Адабиётлар таҳлили ва метод/Литература и метод / Materials and methods

Цитатани бир матндан иккинчисига кўчириш давомида сўз бирикмасининг лисоний белгилик хусусияти намоён бўлишини хорижий тилшунослардан Бауман, Абеллар тадқиқ қилганлар. Цитата, сўзсиз, лисоний такрорнинг маълум бир туридир, аммо, бунда энг муҳими оддий структур такрор бўлмасдан, балки янги билимни ўзлаштириш жараёнида юзага келаётган номуқобилликлардир [3; 1]. Шунга биноан, цитата – бу янги воқелик ҳолатини олдингисининг умумий мазмунини сақлаган ҳолда бадиий тасвирлашдир.

## Муҳокама /Обсуждение / Discussion

Интерматнлик ҳодисаси билан махсус шуғулланган Н.А.Кузьминанинг фикрича, ушбу ҳодисани турли нуқтаи назардан таърифлаш мумкин. Бинобарин, референция назарияси нуқтаи назаридан қаралганда, интерматнлик жуфт референтлик хусусиятини акс эттиради, яъни матн бевосита воқеликни акс этириш билан биргаликда, бошқа матнга ҳам ишора қилади. Ахборот назарияси нуқтаи назаридан интерматнлик ахборотни бевосита тажриба – кузатув ҳамда бошқа матнларга мурожаат йўли билан тўплаш амалларини акс эттиради. Семантик жиҳатдан интерматнлик бошқа матнларга ишора йўли билан мазмун ҳосил қилиш усули бўлса, маданиятшунослик нуқтаи назаридан талқин қилинганда интерматнлик ҳодисаси маданий қадриятлар билан боғлиқ ҳолда ҳосил бўлади [8].

## Натижалар /Результаты / Results

Матндан ташқи муносабатлар кўпинча яширин ёки имплицит маъно туғилишига туртки бўлади. Билвосита ифода йўли билан ҳосил бўлган тағмаънони дискурс адресати англаб олиши бирмунча қийин кечади ва бунда у, дастлабки ўринда, матн таркибида мавжуд бўлган кўрсаткичлар, ишораларга мурожаат қилиши керак. Шундай кўрсаткичлардан бири – сўз бирикмалари воситасида шаклланадиган цитата – кўчирмадир. Ушбу сўз бирлиги турли дискурсив муҳитларда нолисоний воқеликнинг ўхшаш ҳолатларини тасвирлайди, лекин, тил бирликларининг семиотик белги хусусиятига эга бўлиши уларнинг нафақат турғунлигини, балки тўхтовсиз тараққий этиб боришини ҳам таъминлайди. Масалан, поэтик дискурсга оид манбаларда цитата янги матннинг ички тузилиши таъсирида семантик ўзгаришларга учраши кузатилади. Бошқа бир матндан кўчириб олинаётган сўз бирикмаси метонимик характерга эга бўлиб, у яхлит нутқий тузилма ўрнини оладиган ва унинг мазмунини сиқик ҳолатда ифодалайдиган воситадир.

Сўз бирикмаларининг бир матндан иккинчисига кўчиши натижасида ҳосил бўладиган ҳодиса адабиётшунослар кенг миқёсда таърифлашга ҳаракат қилишаётган “интерматнлик” тушунчасининг асосида туради. Ушбу тушунчани истеъмолга киритган олимлардан Р.Бартнинг ёзишича, “Ҳар қандай матн, аслида, интерматндир: бошқа матнлар унда турли сатҳларда таниш ёки нотаниш шаклда мавжуд бўлади; олдинги маданият матнлари ҳамда ҳозирги давр матнлари унинг негизини ташкил қилади. Ҳар қандай матн – бу эски цитата (сўз ва ибора)лардан тўқилган янги мато” [4].

Дарҳақиқат, бадиий асар ўзига хос матн тури, у тугаллик, яхлитлик, структурлик кўрсаткичларига эга бўлиш билан бир қаторда, ижодкор – муаллифнинг бадиий тафаккур фаолияти маҳсули ҳамдир. Шу сабабли матн бадиий асар учун “янги мазмун яратувчи ва маданий хотирани умумлаштирувчи восита” хизматини ўтайди [9].

Маълумки, матнни олдиндан мавжуд бўлган соҳага оид матнларга таянмасдан, уларга ишорасиз яратиш қарийб мумкин эмас. Рус адабиётшуноси М.М.Бахтин бошқа бир

Buyuk olim adolatni kamolot, yaxshilik bilan tenglashtiradi. Qayerda kamolot va yaxshilik bo'lsa, o'sha yerda adolat bo'ladi va aksincha, qaysi joyda tushkunlik va yomonlik ustuvorlik qilsa, shu yerda adolatsizlik, jabr-zulm kuchayadi. Xuddi boshqa fazilatlar singari kamolot ham tug'ma bo'lmaydi. U ham o'zgarib turadi, jamiyatning ta'sirida shakllanib boradi. "Inson faoliyatining adolatga yaqinligi yoki uzoqligi, uning xulqiga, yashagan jamiyatiga bog'liq. Agar unda yomonlik fikrlari ozroq bo'lsa, adolatga yaqin bo'ladi, agar ko'proq bo'lsa, adolatlilikdan, insofdan uzoqroq bo'ladi"<sup>17</sup>, - deydi alloma.

Forobiy o'zining ijtimoiy-axloqiy qarashlarida axloq kategoriyalari, shu jumladan adolat tushunchasining mohiyatini chuqur ochib beradi, unga dialektik va tarixiylik nuqtai nazaridan yondashadi hamda uning nisbiyligi va o'zgaruvchanligini ko'rsatib beradi. Uning dunyoqarashida axloqiy kategoriyalar bir-biri bilan bog'liq holda bo'lib, o'zaro bir-birini to'ldiruvchi tushunchalar sifatida qaraladi.

Abu Nasr Forobiy adolat masalasini talqin qilishda islom falsafasi, Qur'on va Hadislardagi qoidalardan kelib chiqadi. Bu fikr-mulohazani asoslash maqsadida Sayyid Muhammad Hotamiy Rizo Dovariyning Forobiy "hatto adolat va ixtiyor kabi muammolar ustida fikr yuritganda ham dinni unutmaydi"<sup>18</sup>, degan fikrini keltiradi.

**Xulosa va takliflar.** Darhaqiqat, Forobiy o'zining asarlarida adolatning turli jihatlarini aks ettiruvchi va Qur'on hamda Hadislarda keltirilgan "o'rtachalik", "o'lchov", "me'yor", "mo'tadillik" va boshqalar ustida to'xtalib, ularning mazmun va mohiyatini ochib beradi. Ayniqsa, faylasuf "o'rtachalik" tushunchasiga keng to'xtalib, uni yaxshilik va kamolotning asosi deb biladi. O'rtachalik ortiqchalik va kamchilikning o'rtasida joylashgan. Masalan, saxiylikni olaylik. Uning bir tomoni xasislik bo'lsa, ikkinchi tomoni haddan tashqari hotamtoylikdir. Shijoatlilik ham shunday. Uning bir tomoni qo'rqqoqlik bo'lsa, ikkinchi tomoni

shoshma-shosharlikdir<sup>19</sup>. Ularning o'rtachasi bo'lish yaxshilik va adolatni anglatadi.

Buyuk mutafakkir adolatning huquqiy jihatiga e'tibor qaratar ekan, fozil shahar aholisi qonunlarga bo'ysunishi, ularni hurmat qilishi lozimligini uqtiradi. Shu munosabat bilan jinoyat va jazo, adolatsiz xatti-harakatlar masalasiga batafsil to'xtaladi. Forobiy shaharda sodir etilgan har qanday qabih ishlar, adolatsizliklar, turli jinoiy xatti-harakatlarni jazolash va qoralashda aholining manfaatidan kelib chiqqan holda yondashadi. Uning aytishicha, ba'zilar shaharda ro'y bergan adolatsizliklarni shahar aholisi uchun adolatsizlik desa, boshqalar esa ana shu adolatsizlik boshiga tushgan yoki jabr ko'rgan shaxs uchun adolatsizlik deb biladilar. Ba'zilar jabrning butun og'irligini bir kishi o'z zimmasiga oladi, bunday kishilarni kechirish kerak, deb hisoblaydilar, yana ba'zilari kechirish kerak emas, deydi. Agar jinoyatchining qilgan ishi o'zi uchun yomon bo'lsa va u jazolansa, bu shahar aholisi uchun jabr bo'lsa, bunday kishini kechirish kerak. Shuningdek, faqat xalqni, hamma kishilarni o'ylab jinoyat qilgan bo'lsa, uni ham kechirish kerak, deydi<sup>20</sup>. Yuqorida bildirilgan fikrlardan ma'lum bo'ladiki, Forobiy bu yerda jinoyatchilik va adolatsizlik to'g'risida har xil fikrlarni keltirganda shahar aholisi tarafidan turib fikr yuritadi, eng avvalo, uning tinchligi, farovonligi, baxt-saodatini birinchi o'ringa qo'yadi.

Forobiy o'z fikrini davom ettirib, shahar aholisi o'rtasida hamma narsa, shu jumladan, moddiy boyliklar teng taqsimlanadi, deydi. Uningcha, har kim undan o'z ulushini olishi kerak. Bunda tenghuquqlilik tamoyiliga rioya qilinadi. Har bir kishi o'z ulushini xohlasa birovga sotishi, in'om qilishi, boshqa mahsulotga almashtirish mumkin. Lekin bu ayirboshlashni faqat shahar aholisi bilan qilishga haqqi bor. Agar shahardan tashqarida yashovchi odamga sotsa, shahar aholisiga adolatsizlik qilgan bo'ladi. "Taqsimlangan ulushni, - deydi faylasuf, - odam yo sotib yuborishi, sovurishi, almashtirishi yoki o'g'irlatishi mumkin, lekin har qanday holda ham bu ulush shahar aholisi qo'lida qolishi, ya'ni shahardan tashqariga chiqib ketmasligi kerak. Agar ulush kishi qo'lidan chiqib ketib,

<sup>16</sup> Forobiy. Risolalar. – T.: Fan, 1975, 116-bet.

<sup>17</sup> O'sha asarda, 128-bet.

<sup>18</sup> Hotamiy S.M. Islom tafakkuri tarixidan. – T.: Minhoj, 2003, 70-bet.

<sup>19</sup> Forobiy. Risolalar. – T.: Fan, 1975, 101-bet.

<sup>20</sup> O'sha asarda, 116-bet.



badaliga shunga teng narsa qaytib kelgan bo'lsa, bu ulush shu kishi qo'lida saqlanib qoladi, degan so'z. Shunday ham bo'lishi mumkinki, ulushning bir qismi shaharda sotilib, bir qismi o'zida qolishi mumkin, bunday hol ham adolatlidir"<sup>21</sup>.

Sharq Arastusining fikricha, shahar aholisi uchun zarur bo'lgan ulushning tashqariga sotib yuborilishi o'ta yomonlik va adolatsizlikdir. Bunday ishni qilgan shaxs qonunga binoan jazolanishi zarur. "Agar yomon ishni qilgan kishi o'ziga yarasha jazosini olsa, bu unga nisbatan adolatlidir. Agar kam jazolansa, shahar aholisiga nisbatan adolatsizlikdir"<sup>22</sup> – deb ta'kidlaydi mutafakkir.

Abu Nasr Forobiy o'zining "Fozil shahar aholisining qarashlari" asarida fozil shahar-davlatning teskarisi, ziddi bo'lgan johillar shahri to'g'risida fikr yuritadi. Agar fozillar shahri adolatga asoslangan mukammal davlat bo'lib, uning asosiy maqsadi baxt-saodatga erishuv bo'lsa, johil shahar aholisining baxt-saodat to'g'risida tasavvurlari ham yo'q, uning nimaligini bilmaydilar ham.

Alloma johil shaharlarni bir necha turlarga bo'ladi: bular – ayirboshlovchilar shahri, razolat va badbaxtlik shahri, obro'parastlar shahri, shahvatparastlar shahri, beqaror va adashganlar shahridir. Bularning asosiy maqsadi mol-dunyo yig'ish, huzur-halovat, aysh-u ishratda yashash, boshqa xalqlarni bo'ysundirish, tuban mayllarga berilish va boshqa yaramas ishlardan iboratdir. Bunday shaharlar hokimi ham razil, kibr-u havoga berilgan, boshqalarga zulm qilishga moyil bo'ladi"<sup>23</sup>.

Shunday qilib, Forobiy aqidasi ko'ra, fozil shahar-davlatning asosiy maqsadi adolatga asoslangan va aholisini baxt-saodatga eltuvchi davlatni barpo qilishdir. Johil shahar hokimi va uning aholisi esa, yaramas ishlar bilan shug'ullanadi, boylikka ruju qo'yadi, nafsga beriladi. Ularning qilgan ishlari adolatsizlik va nohaqlikdan iborat.

Xulosa qilib aytganda, bugungi kunda adolatli, demokratik va ijtimoiy davlat barpo etish yo'lidan borayotgan Yangi O'zbekiston uchun buyuk ajdodimizning bu boradagi qarashlariga murojaat qilish, chuqur o'rganish va amaliy faoliyatimizda ulardan yetarlicha foydalanish har birimizning insoniy burchimizdir.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Abu Nasr Forobiy. Fozil odamlar shahri. – T.: Xalq merosi, 1993.
2. Aliqulov H. Adolat buyuk donishmandlar talqinida. – T.: Falsafa va huquq instituti, 2010.
3. Аль-Фараби. Социально-этические трактаты. – Алма-Ата: Наука, 1973.
4. Аль-Фараби. Философские трактаты. – Алма-Ата: Наука, 1970.
5. Forobiy. Risolalar. – T.: Fan, 1975.
6. Hotamiy S.M. Islom tafakkuri tarixidan. – T.: Minhoj, 2003.
7. Jakbarov M. Komil inson g'oyasining tarixiy-falsafiy negizlari. – T.: Tafakkur, 2011.
8. Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. – T.: O'zbekiston, 2017.



<sup>21</sup> Forobiy. Risolalar. – T.: Fan, 1975. – B. 115-116.

<sup>22</sup> O'sha asarda, 116-bet.

<sup>23</sup> Abu Nasr Forobiy. Fozil odamlar shahri. – T.: Xalq merosi, 1993. – B. 161-163.

## MERONIMIYANING LEKSIK-SEMANTIK MUNOSABATLAR TIZIMIDAGI O'RNI

Sojida MUSTAFAYEVA

Termiz muhandislik-texnologiya instituti "O'zbek tili va adabiyoti"  
kafedrası o'qituvchisi

## THE ROLE OF MERONYMY IN THE SYSTEM OF L EXICAL-SEMANTIC RELATIONS

Sojida MUSTAFAYEVA

Teacher of the Department of "Uzbek language and  
literature" of the Institute of engineering and technology of Termez

## РОЛЬ МЕРОНИМИИ В СИСТЕМЕ ЛЕКСИКО-СЕМАНТИЧЕСКИХ ОТНОШЕНИЙ

Сожида МУСТАФАЕВА

Преподаватель кафедры "Узбекского языка и  
литературы" Термезского инженерно-технологического  
института



[https://orcid.org/  
0000-0001-9601-  
1043](https://orcid.org/0000-0001-9601-1043)

e-mail: [sojidabonu1  
986@gmail.com](mailto:sojidabonu1986@gmail.com)

tel: 91 584 30 10

**Annotatsiya:** Maqola tizimli lug'at, ya'ni meronimik hodisasi va uning tildagi leksikaviy hamda semantik xususiyatlarining til sistemaviy maydondagi o'rni to'g'risida fikr-mulohazalar bildirilgan. Shuningdek, meronimlarning: xolo-meronim, komeronim munosabatlarning o'zaro leksik-semantik munosabatlari haqida ma'lumot berilgan.

**Kalit so'zlar:** meronim, leksik xususiyatlar, semantik munosabatlar, xolo-meronim, ko-meronim, leksik-semantik maydon

**Abstract:** The article provides opinions on the systematic dictionary, that is, the phenomenon of meronym and its lexical and semantic features in the language in the linguistic systematic field. Also, information is provided about the lexical-semantic relations of meronyms: holo-meronym, comeronym.

**Key words:** meronym, lexical features, semantic relations, holo-meronym, co-meronym, lexic-semantic field

**Аннотация:** В статье приводятся мнения о систематическом словаре, то есть о явлении меронима и его лексико-семантических особенностях в языке в лингвосистематическом поле. Также даются сведения о лексико-семантических отношениях меронимов: голомероним, комероним.

**Ключевые слова:** мероним, лексические особенности, семантические отношения, голомероним, комероним, лексико-семантическое поле.

### Kirish (Introduction)

Bu maqola lug'aviy birliklardan biri meronimik turiga asoslangan bo'lib, uning turlari xolo-meronim va qardosh qismlarni anglatuvchi leksikaviy birliklar o'rtasidagi ko-meronimlik munosabatlarning so'zlararo ma'no munosabatlardagi o'rni va tildagi butun-qismlilik iyerarxiya (taksonomiya)si muammosiga bag'ishlangan. Til birliklaridagi semantik maydoni

bu so'zning ma'no xususiyatlarini o'rganadi va leksik-semantik munosabat deb ataydi (shunday munosabatlar antonim, giponim, sinonim, omonim, polisimiya, meronim, xolonim, partonim). Butun-bo'lak munosabatlarning mazmuniy va mantiqiy bog'lanishlarning strukturalari lingvistik sohada meronimlar atamasi bilan izohlanadi va u bilan yonma-yon o'rganuluvchi xolonimlar - xolo-meronim, ko-meronim, qardosh meronimlar shaklida

aniqlanadi. Xolonim - butunlik, meronim - qismlik; hukmronlik soʻz va unga tobe boʻluvchi yaʼni A ning qismi B ning qismlari R shaklida ifodalanadi, ammo xolonim va meronim bir biriga semantik maʼno jihatidan qarama qarshilik bilan belgilanadi, komeronimlar qardosh qismlar va leksik birliklar oʻrtasidagi munosabatga kirishish shaklida namoyon boʻladi. Meronimlar oʻzbek tilida partonim nomi ostida oʻrganiladi - qaysiki har ikkala terminlar bir xil leksikaviy va semantik xususiyatlarni ifodalashini taʼkidlaydi. Maqolada leksik munosabatli bogʻlanishlar orasidagi meronimlar oʻrni va uning leksikaviy soʻz sinfi hamda semantik maʼno munosabatlari tahliliy-qiyoslanib oʻrganilgan.

### **Adabiyotlar tahlili va Metodologiya (Methodology)**

Semantika boʻlimi bu soʻz maʼnolarini oʻrganadi va leksik-semantiks deb nomlanadi. George Yule leksik munosabat soʻzlar orasidagi paradigmatic munosabatlarni ifodalashini taʼkidlaydi. M.Lynne, L.M.Murphy (2003)lar esa soʻzlar oʻrtasidagi munosabatlar yoki mantiqiy leksik ichidagi leksik birliklar oʻrtasidagi leksikaviy munosabatlar ikki maʼnoli ekanligini taʼkidlaydi. Chaffin&Herrman, (1987); Herrman&Chaffin, (1986); L.M.Murphy, (2003) larleksik-semantik munosabatlarning bir qancha bixillik (oʻxshashlik) (sinonim, polisimiya) va qarshilik(farqlilik) (antonim), qism-butunlik (meronimiya), jins-tur (giponimiya) atamalarini oʻz ishlarida ularning maʼno xususiyatlarini tizim sifatida oʻrganishni oʻz oldiga maqsad qilib qoʻygan. Meronimik munosabatlarning til birliklaridagi oʻrnini begilashda uning semantik mikromaydoniga va leksik munosabatlariga asoslanadi. Leksik, semantik va konseptual mikrosathidagi tahlillar meronimik munosabatlarning amaliy va nazariy oʻrganishda asosiy usullar sifatida yordam berdi. Ingliz tilshunosi D.A.Kruz (1986) qismlar bu “meronim”; butun bu “xolonim” degan fikrni olgʻa surgan. B.E.Qilichevning “Ўзбек тилида партонимия” mavzusida yozilgan ilmiy dissertatsiyasida soʻzlararo partonimik munosabatlarning amaliy va nazariy qismlarini yoritib bergan birinchi ish desak boʻladi. Soʻngra, A.A.Eshmoʻminov “Oʻzbek tili korpuslari uchun taksomonik va meronimik munosabatli

leksemalar lingvistik bazasini shakllantrish” nomli monografiyasida “Taksomonik va meronimik munosabatli leksemalarni korpusda teglash jarayonini - bunda lugʻat asosiy baza boʻlishligi, taksomonik va meronimik munosabatli leksemalarning miqdorini aniqlab, ularni korpusli tahlil qilishni aytib oʻtadi”.<sup>1</sup> Meronimik atamasi va meronimik munosabat oʻz oʻrnida leksikaviy maydondagi muammoli va muhokamali munosabat boʻlib, uning amaliy tahlili va boshqa soʻzlararo munosabatini farqlash zarurligi turadi.


### **Muhokama va natijalar (Discussions and results)**

Til birliklari orasidagi leksik mikromaydon sistemasidagi semantikaviy iyerarxik munosabatlarning asosiy turlaridan biri bu Meronimik yoki butun-qismlilik munosabatdir. Goddard “Universal units in the lexicon” (2001) va Heydrich.W “Meronymy. On semantics of part-whole relations” (1995) “Meronimik munosabat butun-qisimli xususiyatlardan shakllangan boʻlib, til universali sifatida qaraladi” deb taʼriflaydi.<sup>2</sup> Meronim qismlardan tashkil topgan va butunlik atrofida bogʻlanish munosabatiga aytiladi: ingliz tilida qism-butunli vazifalarni oʻrganuvchi soha mereologiya qaysiki qismning butunga, butunning qismga munosabatlarini umumiy butunlik ichida koʻriladi. Bu atamani birinchi boʻlib Polshalik mantiqchi Stanislaw Lesniewski mantiq va matematika tizimida oʻzaro munosabatlar nazariyasi sifatida yaratadi. Ammo bugungi kunda bu tushuncha keng qoʻllanilmoqda, ayniqsa lingvistika sohasida ham. Mereologiya bu filosofiya sifatida tushuncha va maʼno oʻrtasidagi xususiyatlarini aniqlab beradigan eski taʼlim hisoblanadi. Gʻarb davlatlarida qism va butun munosabatlarining metafirik analitikal nazariyalari oʻrgangan qadimgi buyuk filosoflar Plato va Aristotel aqliy va tabiiy filosofik mulohazalar orqali qism va butunlik nazariyalarini sohaga olib kiradi. Demak, rasmiy holatda ular qismlilik va butunlik mantiqiy maʼnolarda izohlangan. Bu munosabatlar til birliklari orasida soʻzlararo munosabatlarning yangi atamasi meronimlarning shakllanishi holatiga toʻgʻri keladi. Meronim leksikaviy iyerarxiyaning ikkinchi keng koʻlamdagi turidir va borliqdagi barcha jonli va jonsiz narsalarning ulkan sinfi sifatida timsol qilinadi, masalan:

<sup>1</sup> Eshmuminov A.A. Oʻzbek tili korpuslari uchun taksonomik va meronimik munosabatli leksemalar lingvistik bazasini shakllantrish. - Monografiya, Termez -2022. b.94

<sup>2</sup> Olena Materynska. – Semantic relation of meronymy in languages of different structure.- Article in Advanced Education. July 2019.





Meronimik munosabat shakli butun – hukmronlik shakl va uning tarkibiy elementlarini tashkil qiluvchi leksikaviy taksonomik soʻz pogʻonalari hisoblanadi. Leksemalar bu soʻzlardir, soʻzlarning tushuncha va kognitiv maʼno qismini oʻrganuvchi qism bu semantika. Leksik-semantik xususiyatlar nomlarga ega boʻlgan tushuchani oʻrganuvchi va ajratuvchi munosabatdir. Qism va butun munosabatlar turlicha izohlanadi, masalan, ingliz tilida “*part of*,” (“...ning qismi,”) kabi, “*X bu aynan Y ning qismi*”, “*X diyarli Y*”, “*X lar Y larning bir qismidir*”, “*X-Y ning qismidir*”, “*Y ning qismlari X larni oʻz ichiga oladi, Z lar davomchisi*”, shuningdek iboralarni ham, gaplarni ham: “*Bosh bu tananing qismi*,” “*Velosipedlar qisman aluminiydir*,” “*Porshenlar motorlarning qismidir*,” “*Uchrashish bu oʻspirinlikning qismidir*”, *Gulning qismlari changlatuvchi, gulbarglarni oʻz ichiga oladi*”, bu misollardagi munosabatlar qolip deb yuritiladi va uning elementlari “*qism*” termini deb izohlanadi, tilshunoslik sohasida esa meronimlar atamasi bilan aniqlanadi. Ingliz tilshunos D.Alan Kruz “qismni anglatuvchi leksik birlik va unga mos keluvchi butunlik oʻrtasidagi xususiyatni ifodalovchi semantik munosabatni meronimiya deb atadi”; qardosh qismlilarni anglatuvchi leksik birliklar oʻrtasidagi munosabatni ko-meronimlar deb ataydi.<sup>3</sup> Dj. Layonz (1977) va boshqalar ko-meronimik hodisasi haqida shunday deydi: teskari guruhlardan tashkil topadi, masalan, *koʻz/burun/oʻgʻiz* bir-biriga zid yigʻindilar yoʻki *yuz* ning ko-meronimik jamlanmasidir va yana bir misol, *sonnet ballada/qasida* ziddiyatli yigʻindi yoki sheʼrning ko-giponimidir.<sup>4</sup> Ammo M.Lynne Murphy taʼkidlaydiki: “*Finger (barmoq)* bu *hand (qoʻl)*ning qismi va bir xir kontekstda *finger(barmoq)* *hand (qoʻl)* ning meronimidir, ammo boshqa bir holatdagi kontekstda

*hand (qoʻl)* uchun *flesh (tana qismi et)* munosibdir; bundan koʻrinadiki bu yerda turli mantiqiy mezon mavjud (vazifa va maʼlumot oʻrtasidagi funksiyaviy ziddiyat) qaysiki bunday hodisalar holatdan holatga murojaat qilinadi. D.A.Kruz meronimlarni quydagicha formula asosida tushuntiradi: *X bu Y ning meronimidir; Y ning X lari va bir X mavjud va bir X - Y ning qismidir: A hand has a finger.*(*Qoʻlning barmogʻi mavjud.*); *A piano has a keybaord.* (*Pianoning klavishi bor.*)....Bu misollardan koʻrishimiz mumkinki, meronimik munosabatli bogʻlanishlar murakkab jarayon hisoblanib, har qanday soʻz iyerarxiyasi ham haqiqiy meronim boʻla olmaydi yaʼni ularning tartibi oʻzgarganda ham meronimik maʼno saqlanib qolishi lozim, aks holda u ehtimoliy, yaʼni shartli meronimik hodisa sifatida izohlanadi. Masalan, D.Alan Kruz bu holatni qudagicha isbotlaydi, *A wife has a husband; A sound has a pitch and a volume*; bu kabi misollarda ....ning bor....., shaklidagi qismlil va butunli munosabatni ifodalamoqchi boʻlgan, noaniq holatdagi meronimik vazifa sifatida izohlanadi sababi unda ishonchli mezoni juda kamroq bu misollardagi.....ning qismi.. sifatida belgilash juda mujmal. Haqiqiy meronimik leksikonlar qatʼiy tartibli qismga ega boʻlib, joylar oʻzgargan holda ham oʻz sema, yaʼni semantik maʼnolarini saqlab qoladi. Masalan: “*A bag has a handle which is the handle is a part of bag*”, (*Sumkaning tutqichi bor qaysiki u sumkaning bir qismi*); *A table has a leg which the leg is a part of table.* (*Stolning oyoʻgʻi bor qaysiki oyoʻq stolning bir qismi.*) bu yerda “*tutqich*”, “*oyoʻq*” meronimlar hisoblanadi va bu yerda butunlik va qismlarning oʻrni oʻzgargan holda ham oʻz mantiqiy mazmunini saqlab qoladi, yaʼni “*tutqich*”, “*oyoʻq*” qismlarsiz ham “*stol*” va “*sumka*” oʻz vazifasini bajaradi. Meronimik lugʻaviy soʻzlar leksikologiyada, yaʼni soʻzlarni leksik-semantik guruhlar asosida oʻrganish asosida sistem tilshunoslik - sistem leksikologiyada rivojlandi va leksik-semantik munosabatlarga ega boʻlgan soʻz maʼno munosabatlaridan biri sifatida meronym-lar til leksik qatlamida oʻzining leksik-semantik va leksik-paradigmatik xususiyatlariga ega boʻlgan taksonomik guruh sinfi hisoblanadi. R.Safarova “Leksik-semantik munosabatning turlari” (1996) *giponimiya* haqida shunday fikr bildiradi: *giponimiya jins-tur munosabatini ifodalash asosida bogʻlangan*

<sup>3</sup> Crus D.A. Lexical Semantics.-Cambridge University Press, 1986.-159

<sup>4</sup> Lyonz J Sematics. - Cambridge University Press, 1977.2.vols.-311



leksik paradigmalari bilan butun-bo'lak hamda iyerarxik (pog'onali munosabatni) ifodalash asosida bog'langan so'zlar tizimi asosidagi o'zaro munosabatlarni hamda semantik aloqaning o'ziga xos xususiyatlarini ilmiy jihatdan o'rganish lozimligini ta'kidlaydi, chunki har ikki munosabat - ya'ni giponimiya va butun-bo'lak munosabatni ifodalash asosida bog'langan lug'aviy birliklarni bir leksik-semantik teng bog'lanish deb tan olish mumkin emasligini ta'kidlaydi.<sup>5</sup> Bilamizki, *meronimiya* ingliz tilida *xolonimiya* bilan teng o'rganilsa, o'zbek tilida *meronimiya partonimiya* nomi ostida o'rganiladi. R.Safarova partonimik (butun-bo'lak) munosabatini hosil qiluvchi lug'aviy birliklar va gipo-giperonimik munosabatlarni ifodalash asosida bog'langan leksik paradigmalari bir-biriga juda o'xshashda, giponim va partonim lug'aviy birliklari orasida bir-biridan keskin farq qilishini ta'kidlaydi. Bunga misol keltirarkan, *tana* so'zi odam vujudiga nisbatan olinganda *butun* tushunchasini ifodalovchi so'z sifatida qo'llaniladi. *Tana, bosh, bo'yin, yelka, qo'l, bel, qorin, oyoq* qatoridagi *tana* so'zi va *odam* gavdasining qismini ifodalashda leksik tobelik yoki bo'ysunish hodisasini, ya'ni leksik-paradigmatik munosabatni ifodalamaydi, sababi barcha *tana qismlari* o'zaro alohida butunlik ma'noda kela oladi va *tana* so'zi tushib qoldirilganda boshqa qismlar butunlik *tana* ma'nosini ifodalaydi, umuman olganda ular bunday bog'lanishlar leksik-semantik munosabatli bog'lanish hisoblanmaydi, bu holatdagi *partonimik/meronimik* bog'lanishlar bir oz murakkabligini ko'rsatadi. Partonimik/meronimik munosabatli bog'lanish o'zaro semantik va mantiqiy-semantik munosabatlarning leksik oppozitsiya munosabatlarning xususiyatiga asoslanib, lug'aviy paradigmalari hosil qiladi. Tilning leksik-semantik tizimida meronimiya munosabatlarning hajmi va ko'lami aniqlash maqsadida xolonim, partonim, giponimlar bilan taqqoslanib, har birini alohida-alohida o'rganish meronimik munosabatning leksik-semantik maydondagi o'rnini aniqlashga imkon beradi.

**Xulosa (Conclusion).** *Meronomik munosabat* deganimizda ko'z oldimizga *butun-bo'lak* tushunchasi qaysiki semantik va logik-semantik ma'nolarda bir maydon ostida bog'lanadigan so'zlar iyerarxiyasini tushunamiz. Meronimlar ingliz tilida xolonim bilan, o'zbek tilida partonim bilan yonma-yon holda

o'rganiladi, bunda ularning ham leksik, ham semantik ma'no munosabatlari teng deb hisoblanadi. Bu munosabatli bog'lanishlar garchi yangi bo'lishiga qaramasdan, meronim/partonim va xolo-meronim shaklidagi lug'aviy so'z pog'onlari, shuningdek o'zining leksik munosabati va semantik munosabatidagi xususiyatlari bilan tilshunoslar diqqatini tortib kelmoqda. Meronimlarning iyerarxiya atamasi nomi ostida o'zaro butun-qisimli bog'lanishlarining pog'onali strukturasi tashkil etadi. Masalan, tirik borliqqa tegishli *o'simlik, tana, daraxt, hayvon* so'zlari orasidagi semantik bog'lanishlar alohida-alohida hisoblanadi, sababi yuqorida ta'kidlaganimizdek har bir so'z alohida butunlik ma'nosini beradi va uning qismlarini tashkil etuvchi elementlar meronim deb aniqlanadi, *o'simlik < gul < ildiz < poya < novda < barg < kurtak* butunlik domenanta *o'simlik* ostida *gul -butunlik* va uning leksik tarkibiy qismlarini to'dirayotgan uning qismlaridir, butun bilan qismlarning bog'lanishi o'zaro semantik ma'no jihatidan bog'lanishni tashkil etadi va pog'onali struktura hosil qiladi. Shuningdek, *meronim/partonimlarning* boshqa so'z munosabatlardan farqi *giponim, xolonim* va *graduonomiyadan* farqi shundaki, xolonim meronim (xolo-meronim) bilan teskari ya'ni zid bog'lanishli munosabatni ifodalasa, giponim(tur-jins) butunlik domenanta shaklini ifodalaydi, graduonomiya so'zlarning darajalanish belgisini aniqlaydi. Umumiy xulosaladigan bo'lsak, meronimiya o'z leksik va semantik maydoniga ega bo'lgan, tadqiq qilish hajmini kengaytrish lozimligi ko'rinadi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar (References)

1. Crus D.A. Lexical Semantics.-Cambridge University Press, 1986. -159.
2. Eshmuminov A.A. O'zbek tili korpuslari uchun taksonomik va meronimik munosabatli leksemalar lingvistik bazasini shakllantrish. - Monografiya, Termez -2022. b.94
3. Lyons J Semantics. - Cambridge University Press, 1977.2.vols.-311
4. Olena Materynska. – Semantic Relation of Meronymy in Languages of different structure.- Article in Advanced Education. July 2019.
5. Р.Сафарова.- Лексик-семантик муносабатнинг турлари., Олий ўқув юртлири талабалари ва мактаб ўқитувчилари учун қўлланма.- Тошкент: Ўқитувчи.- 1996. , b.-6

<sup>5</sup> Р.Сафарова.- Лексик-Семантик Муносабатнинг турлари., Олий ўқув юртлири талабалари ва мактаб ўқитувчилари учун қўлланма.- Тошкент: Ўқитувчи.- 1996. ,b.6

## ПЕДАГОГИЧЕСКОЕ НАСЛЕДИЕ НИКОЛАЯ ГАВРИЛОВИЧА ЧЕРНЫШЕВСКОГО

*Файзиханова Ленура Альфредовна, преподаватель Ургенчского  
государственного педагогического института*

## NIKOLAY GAVRILOVICH CHERNYSHEVSKIYNING PEDAGOGIK MEROSI

*Fayzixanova Lenura Alfredovna, Urganch davlat pedagogika  
instituti o'qituvchisi*

## THE PEDAGOGICAL LEGACY OF NIKOLAI GAVRILOVICH CHERNYSHEVSKY

*Fayzikhanova Lenura Alfredovna, lecturer at the Urgench State  
Pedagogical Institute*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada N.G.Chernishevskiyning pedagogik merosi uning davri kontekstida ko'rib chiqilgan.

N.G.Chernishevskiy eski maktabning eng muhim kamchiliklarini ko'rgan va ochgan, lekin birinchi navbatda u xalq ta'limi masalasini tubdan yaxshilashning aniq yo'llarini belgilab berganligi tariflangan.

**Kalit so'zlar:** ta'lim, g'oya, pedagogika, meros, eski maktab, fikr, tanqidchi, yozuvchi, tizim, axloqiy tarbiya.

**Аннотация:** В данной статье рассматривается педагогическое наследие Н.Г.Чернышевского в контексте его эпохи. Н.Г.Чернышевский увидел и вскрыл наиболее существенные недостатки старой школы, но прежде всего в том, что он наметил конкретные пути коренного улучшения дела народного образования.

**Ключевые слова:** просвещение, идея, педагогика, наследие, старая школа, мысль, критик, писатель, система, нравственное воспитание


**Abstract:** This article examines the pedagogical heritage of N.G. Chernyshevsky in the context of his era. N.G. Chernyshevsky saw and revealed the most significant shortcomings of the old school, but primarily in the fact that he outlined specific ways to radically improve the matter of public education.

**Key words:** education, idea, pedagogy, heritage, old school, thought, critic, writer, system, mora

**Введение.** Рассматривая эту тему, прежде всего, следует отметить в какое время жил и творил Н.Г.Чернышевский (1828-1889) – великий русский мыслитель, философ, писатель, литературный критик, показавший себя как теоретик утопического социализма, принадлежавший к среде демократов российского общества, оказавший огромное влияние своим творчеством и примером своей личности на современников. Фигура Чернышевского во многом недооценена и трагически не востребована просвещенной эпохой того времени, особенно в своей стране,

особенно в момент трансформации эпох на рубеже XIX – XX вв.

Живя в свою эпоху, Н.Г.Чернышевский находился в глубокой конфронтации к существующей организации управления обществом, властителям государства, обладая даром не только просветителя, но и в силу значительности личности, обладавшей широким кругозором, знаниями в различных областях философии, социального устройства общества, культуры, искусств, естественных наук, математики, будучи одаренным и гармонически развитым человеком, владевшим девятью мировыми языками (не-



[lenura-fayzixanova@umail.uz](mailto:lenura-fayzixanova@umail.uz)  
<https://orcid.org/0009-0005-6862-7162>

мецкий, английский, французский, итальян-ский, татарский, арабский и т.д.), он был в курсе самой передовой и современной мысли своей эпохи.

Обладая великолепной памятью, умением анализировать различные тексты, он был мощным генератором социальных идей своего времени, высокой нравственностью и этикой. Он намного опередил своё время идеями, мыслями и своим подвижническим трудом, судьба отмерила ему сложные вехи биографии, незаслуженно предав наказанию за свободолюбие и прогрессивность мысли.

Его вклад в развитие просвещения Европы и русской общественно-политической, культурной мысли бесценен и современникам предстоит еще открыть его как актуального для нашего времени писателя, литературного критика, мыслителя, социолога-исследователя, философа, в круг интересов которого входило изучение общества, нравственности, взаимодействия различных культур, проблемы неблагополучного развития обществ, наций, культур, проблемы культурного и социального взаимодействия людей различных этносов, наций, социальных слоев, проблемы гуманного воспитания человека.

**Литература и метод.** Творчество и личность Чернышевского оказало огромное влияние на творчество и социально-общественную деятельность теоретиков. Плеханов говорил о Чернышевском как о человеке эпохи Просвещения; о том, что Чернышевский для русской мысли то же самое, что Вольтер для просвещенной Европы и мира.

Подчеркивая важность творчества и личности Чернышевского Луначарский А.В., отвечавший за просветительские процессы говорил, что «Чернышевский – одна из прекраснейших по своей законченности и широте человеческих фигур, которая когда-либо жила на свете Облик Чернышевского встает перед нами в таком изумительном благородстве, в такой законченности, что мы и сейчас можем личность Чернышевского ставить в образец нашей молодежи. В Чернышевском мы чтим отнюдь не великого мертвеца, а всё ещё живого соратника в общем для него и для нас деле» [1, с.16].

**Обсуждение.** Оценивая педагогическое наследие великого русского демократа Н.Г.Чернышевско-

го, педагоги подходят к нему как к педагогической системе, к цельной педагогической теории. Педагогические идеи Чернышевского находились в диалектической взаимосвязи с его политическими убеждениями. Чернышевский рассматривал возможность решения конкретных педагогических задач лишь в результате решения государственных задач, ибо тот, кто не имеет политической власти, не в состоянии спастись от угнетения, т.е. от нищеты, от невежества. Особенно обделены были в области просвещения национальные меньшинства России, поэтому Чернышевский отстаивал идею формирования национальной культуры и подготовки грамотных национальных кадров.

Чернышевский видел все недостатки старой сословной школы, которая калечила и отупляла молодежь, благословляла политический режим, невежество, догмы и мракобесие. В статье «Лессинг. Его время, его жизнь и деятельность» он писал: «Педантизм, робость, подобострастие и предрассудки всякого рода властвовали в обществе... Оно разделялось на касты, чуждавшиеся одна другой: главную двигательницу жизни в каждой касте было мелочное тщеславие, преклонение перед высшими, презрение к низшим... Умственная жизнь была стеснена предрассудками и предубеждениями» [2, с. 372].

**Результаты.** Н.Г.Чернышевский глубоко и последовательно проанализировал недостатки старой школы, которые, по его мнению, заключались в следующем:

1. Программы школ были программами духовных семинарий, поэтому делали школьное образование ограниченным, не способным подготовить грамотных людей.

2. Полное отсутствие научности преподавания. Учебные пособия написаны «допотопными учеными», в них нагроможден всякий «мелочный вздор», изложенные научные положения находятся на уровне 300-летней давности.

3. Учителя в школах отличались «чопорным тупоумием невежд», пригодных не более как для «толчения воды». Без сомнения среди современников Чернышевского было немало честных просвещенцев, любивших и самоотверженно служивших делу образования народа. Однако в целом педагогическая



деятельность того времени была оказанной и выхоленной, «занятым скучным и в сущности пустым», поэтому профессию педагога «даровитые люди» не выбрали.

4. Преподавание отдельных предметов велось на самом низком, схоластическом уровне. Так в преподавании истории вместо «логически развивающегося рассказа, передающего события в живых картинах», существовало бездумное зазубривание «бессвязного перечня собственных имен или хронологической таблицы».

5. Учебники не отвечали требованиям, они были забиты генеалогическими таблицами и мелочными подробностями, выпускались из поля зрения смысл фактов и связь событий. В учебники включался непосильный для детей научный материал, объем отдельных разделов не был продуманным и логически оправданным.

6. Дополнительная литература для детского чтения была далеко несовершенна. Она оскорбляла детей недоверчивостью к их уму, мысли, раздражала приторными сентенциями. Со всей беспощадностью Чернышевский характеризовал подобного рода детское чтение как «преднамеренную пустоту и преднамеренное идиотство». Вместо упрощенчества и вульгаризации фактов он считал необходимым точное и яркое описание предметов и явлений на основе научно достоверного материала. Осуждая вычурность и неточность языка детских книг, Чернышевский настаивал на чистой и образной речи учителей и литератур, формирующих культуру устной и письменной речи детей.

7. На самом низком уровне пребывало образование и воспитание девочек. Закрытые дворянские пансионы, народные начальные школы строили обучение, опираясь на теории о женщине как о существе неполноценном, существе низшего порядка. Женщину не считали способной к умственной деятельности, к активной общественной жизни – на этом и строилась программа женского образования.

8. Воспитание мальчиков, будучи авторитарным, не решало проблему формирования активности и самостоятельности, творчества и гражданственности: «Без приобретения привычки к самобытному участию в гражданских делах, без приобретения чувства гражданина ребенок муж-

ского пола, вырастая, делается существом мужского пола средних, а потом пожилых лет, но мужчиною он не становится, или, по крайней мере, не становится мужчиною благородного характера» [2, с. 445].

Великая заслуга Н.Г.Чернышевского не только в том, что он зорким глазом демократа, ученого, педагога увидел и вскрыл наиболее существенные недостатки старой школы, но прежде всего в том, что он наметил конкретные пути коренного улучшения дела народного образования. Чернышевскому принадлежит идея возможности совместного осуществления функций обучения и воспитания. Она нашла развитие и новую жизнь в современной школе по осуществлению комплексного подхода к обучению и воспитанию, к решению в комплексе задач идейно-политического, нравственного и трудового воспитания.

**Заключение.** Чернышевский подошел вплотную к разработке принципа воспитывающего обучения. В основе этой его идеи лежит перевод знаний в убеждения, использование знаний в целях формирования убеждений. Развивая мысль Чернышевского, советские педагоги видели в идее воспитывающего обучения по крайней мере четыре задачи: формирование диалектико-материалистического мировоззрения, развитие способностей, формирование чувств, воспитание моральных качеств и волевых черт личности. Сегодня школьная программа рассматривается учителями с позиции воспитательных возможностей, а каждый урок имеет три четкие цели: Обучающую, развивающую и воспитывающую. Воспитательная целенаправленность обогащает содержание и назначение современного урока.

#### **Список использованной литературы:**

1. Луначарский А. В. Статьи о Чернышевском. – М.: Художественная литература, 1958. – 120 с.
2. Чернышевский Н.Г. Избранные педагогические произведения. М.: изд-во Акад. Пед. наук РСФСР, 1953. – 772 с.
3. Чернышевский Н.Г. Полное собрание сочинений в 15т. / Под общ. ред. В.Я.Кирпотина, Б.П.Козьмина, П.И.Лебедева-Полянского и др. – М.: Гослитиздат, Т. 5. 1950. – 1006 с.
4. Чернышевский Н.Г. Полное собрание сочинений в 15т. / Под общ. ред. В.Я.Кирпотина, Б.П.Козьмина, П.И.Лебедева-Полянского и др. – М.: Гослитиздат, Т. 11. 1939. – 748 с.



## MUSTAQILLIK YILLARIDA TERMIZIY ALLOMALAR ILMIY MEROSINING O'RGANILISHI


*Usmanov Jahongir Xo'jaqulovich*  
*Termiz davlat universiteti akademik litseyi*  
*tarix fani o'qituvchisi*

## ИЗУЧЕНИЕ НАУЧНОГО НАСЛЕДИЯ УЧЕНЫХ- ТЕРМИЗИВЕДОВ В ГОДЫ НЕЗАВИСИМОСТИ

*Усманов Джахангир Ходжакулович*  
*Академический лицей Термезского государственного*  
*университета*  
*учитель истории*

## STUDYING THE SCIENTIFIC HERITAGE OF THER- MAL SCIENCES IN THE YEARS OF INDEPENDENCE

*Usmanov Jahangir Khojakulovich*  
*Academic Lyceum of Termez State University*  
*a history teacher*



[https://orcid.org/  
0009-0001-0732-  
0774](https://orcid.org/0009-0001-0732-0774)

[a.normurodov12@  
gmail.com](mailto:a.normurodov12@gmail.com)

**Annotatsiya:** Ushbu maqola Termiziy allomalar hayoti va ma'naviy merosini o'rganish haqida. Yurtimizda o'rganish O'zbekiston istiqloli arafasida boshlandi. Asosiy e'tibor ushbu shahardan yetishib chiqqan ikki mashhur shaxs – Abu Iso Termiziy va Muhammad Hakim Termiziyarga qaratildi. Bu ikki shaxs haqida boshqa yurtlarda amalga oshirilgan bir qator ilmiy-tadqiqot ishlari aniqlandi.

**Kalit so'zlar:** "Lubob ul-albob", "Dastur ul-muluk" (Podsholar uchun qo'llanma), "Termiz tazkirasi", ilk islomiy shahar.

**Аннотация:** Эта статья посвящена изучению жизни и духовного наследия ученых-термезиведов. Обучение в нашей стране началось накануне независимости Узбекистана. Основное внимание было уделено двум известным личностям, выросшим из этого города - Абу Исе Термизи и Мухаммаду Хакиму Термизи. Об этих двух людях был обнаружен ряд исследований и разработок, проведенных в других странах.

**Ключевые слова:** «Любаб уль-Альбаб», «Дастур уль-Мулук» (Путеводитель королей), «Термиз Тазкирас», первый исламский город.

**Abstract:** This article is about the study of the life and spiritual heritage of thermic allomas. The study in our country began on the eve of the independence of Uzbekistan. The main focus was on two famous personalities who grew up from this city – Abu Isa Termisi and Muhammad Hakim Termisi. A number of activities have been identified about these two individuals in other lands.

**Key words:** "Lubab ul-Albab", "Dastur ul-Muluk" (Guide for Kings), "Termiz Tazkiras", the first Islamic city.

### KIRISH (INTRODUCTION)

O'zbekiston butun tarix jarayonida insoniyat tafakkuri mahsuloti bo'lgan turli madaniyatlar yuzaga chiqqan, ularning o'zaro uyg'unlashgan makondir. Yurtimiz tarixining ibtidosi asrlar qa'riga singib ketgan bo'lib, xalqimizning qadimiy merosi dunyo ommasining aqlini shoshirib qo'ymoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Islom hamkorlik tashkiloti Tashqi ishlar vazirlari kengashi 43-sessiyasining ochilish marosimidagi nutqida ta'kidlaganidek, "Buyuk tarixda hech narsa izsiz ketmaydi. U xalqlarning qonida, tarixiy xotirasida saqlanadi va amaliy ishlarida namoyon bo'ladi. Shuning uchun ham u

qudratlidir. Tarixiy merosni asrab-avaylash, o'rganish va avlodlardan avlodlarga qoldirish davlatimiz siyosatining yeng muhim ustuvor yo'nalishlaridan biridir”.

#### **ADABIYOTLAR TAHLILI VA METOD / (MATERIALS AND METHODS)**

Tarixiy o'tmishni yangidan talqin etishning O'zbekistonda kechayotgan faol jarayoni mobaynida olib borilayotgan tadqiqotlar, barcha mavzular borasida bo'lganidek, ajdodlarimiz merosi haqidagi bilimlarimizni boyitishga, uning yangi qirralarini kashf etishga imkon bermoqda. Sovet davrida tarixiy merosimizga ikkiyoqlama munosabat ayniqsa, islom davri merosi misolida yorqin namoyon bo'ladi. Albatta, ko'plab tadqiqotchilarning fidokorona mehnatlari tufayli, yigirmanchi asrda butun Markaziy Osiyo tarixi va madaniyatini o'rganish borasida katta muvaffaqiyatlarga erishildi. Lekin, ta'kidlash lozimki, bu tadqiqotlarning natijalari tarixiy merosimizning Islom davri ma'naviy hayoti bilan belgilanadigan qismini talab darajasida qamrab olgan emas. Tadqiqotchilar yondashuvi shu davrda jamiyatda hukmron mafkuraviy qarashlar bilan belgilangan, sobiq Ittifoqda islomga bo'lgan g'ayriilmiy yondashuv Markaziy Osiyoning o'rta asr tarixi va madaniyatini o'rganishning metodologik xususiyatini belgilab berdi. Natijada, masalan, Imom Termiziy bilan bog'liq merosning faqatgina uning majmuasi bilan bog'liq me'moriy jihatlari qisman o'rganilindi. Albatta, ilgarigi Sho'ro davrida ham ajdodlarimiz merosi borasida ilmiy tadqiqotlar olib borildi. Lekin vaqt o'tishi bilan har qanday mavzuning yangi qirralari namoyon bo'ladiki, to'plangan ma'lumotlar qanchalik zalvorli ko'rinmasin, ularni yana qaytadan yangi nazar bilan g'alvirdan o'tkazish kerak bo'ladi. Ammo, masalaning yana bir jiddiy tomoni shundaki, sho'ro davrida tadqiqotchilar qanchalik xolis bo'lishga intilmasin, davrning mafkuraviy asoslaridan, ular tomonidan belgilangan chegara va qoliplardan chiqib ketishi mumkin yemas edi, zamona zayliga to'g'ri kelmagan merosimizning katta qismi esa bir chekkaga surib qo'yilardi. Natijada ajdodlarimiz merosini soxtalashtirish, undan foydalanishga yo'l qo'ymaslikka harakat qilindi.

#### **MUHOKAMA (ОБСУЖДЕНИЕ/DISCUSSION)**

Termiziy allomalar hayoti va ma'naviy merosini o'rganish yurtimizda O'zbekiston istiqloli arafasida boshlandi. Asosiy e'tibor ushbu shahardan yetishib chiqqan ikki mashhur shaxs – Abu Iso Termiziy va Muhammad Hakim Termiziylarga qaratildi. Bu ikki shaxs haqida boshqa yurtlarda amalga oshirilgan bir qator ilmiy-tadqiqot ishlari aniqlandi, Muhammad Hakim Termiziy bo'yicha qator tadqiqotlar va tarjimalar yuzaga keldi. Abu Iso Termiziyning hadisga oid merosini o'zbek tiliga tarjima qilish borasida ham amaliy ishlar amalga oshirildi.

Termiziylar merosini o'rganishning ikkinchi bosqichi O'zbekiston mustaqil davlat bo'lishi bilan bog'liq. Yurtimiz mustaqillikka erishgandan buyon respublikamizda madaniy merosni, o'tmishdagi allomalar ijodini o'rganish orqali milliy qadriyatlarni tiklashga katta e'tibor berilmoqda. Ilgari o'rganilmagan olimlar hayoti va ijodi, asarlari tadqiq etila boshladi. Termiziylar merosini yaxlit tarzda umumlashtirish yo'nalishida ham ishlar davom yettirildi. Termiziylar merosini yaxlit tarzda umumlashtirish yo'nalishida dastlabki qadamlar qo'yildi. Bu borada Surxon vohasi ziyolilarining izlanishlari alohida ahamiyat kasb yetdi. Dastlab, jurnalistlar Nizomjon Parda Asomiddin Temur, o'lkashunos Shoniyoz Safarov turli nashrlardagi ma'lumotlarni to'plab, chop etdilar. Mazkur to'plamlarda publitsistik yondoshuv ustuvorlik qilgan bo'lsada, ular Surxondaryo tadqiqotchilarining yangi avlodiga katta ta'sir ko'rsatdi.

Boshqa sohalar namoyandalari qatori muhaddislar faoliyati va ularning asarlari tadqiq etilib kelinmoqda. O'tgan davr mobaynida O'zbekistonda Imom Termiziy xayoti va faoliyatini o'rganishning yetakchisi Ubaydullo Uvatov bo'lib qolmoqda. Ustoz “Movarounnahr va Xuroson olimlarining hadis ilmi rivojida tutgan o'rni (Al-Buxoriy, Muslim, At-Termiziy)” mavzusida doktorlik dissertatsiyasini yoqlab, bir qator asarlarida muhaddislar merosini o'rganishni yuqori ilmiy saviyaga yetkazdilar.

Imom Termiziy merosini tadqiq etishda Mirzo Kenjabekning hissasi alohida e'tiborga loyiq.

2015-yilda Termizlik allomalar asarlarining qo'lyozmalari katalogi nashrdan chiqdi. Unda Imom Termiziy asarlari qo'lyozmalarining 39 tasi qayd etilgan.

### **NATIJARLAR (RESULTS)**

Termiz davlat universiteti adabiyoshunos olimi, professor Ahmad Abdullayev Adib Sobir Termiziy (taxm. 471-542/1078-1147) devonlarini tadqiq etish va chop etish bo'yicha o'zidan ilgari qilingan tadqiqotlarni yangilashga erishgan va o'zbek kitobxonlarini ilk bor ushbu shoir faoliyati bilan keng ko'lamda tanishtirgan bo'lsa, ushbu dargohda faoliyat ko'rsatgan yana bir adabiyoshunos olim Jabbor Esonov XI-XVII asrda yashab ijod yetgan Xoja Samandar Termiziyning "Dastur ul-muluk" (Podsholar uchun qo'llanma) asarini ruscha tarjima va forscha matn asosida erkin tarzda o'zbek tiliga o'girdi. Uning qo'lyozmalarga asoslangan ilmiy tarjimasi esa Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti katta ilmiy xodimi, sharqshunos, tarixchi Mahmud Hasaniy tomonidan amalga oshirildi.

Termiziylar borasida diqqatga sazovor ishlarni amalga oshirgan Termiz davlat universiteti olimi Bobonazar Murtazoyev faoliyati ham alohida ahamiyatga ega. Ushbu olimning zamonaviy va tarixiy fors adabiyotlari ustida olib borgan tadqiqotlari natijasida ko'plab adib va shoir Termiziylar nomi, faoliyati va merosi kashf etildi hamda bu jarayon hanuz davom etmoqda. Ushbu muallifning taxminan 568-639/1172-1241-yillarda yashagan buxorolik olim Muhammad Avfiyning 618-619/1221-1222-yillarda yozilgan shoirlar tazkirasi sanalgan mashhur "Lubob ul-albob" asari yuzasidan olib borayotgan tadqiqotlari, xususan, ulardagi shoir Termiziylar haqida to'playotgan ma'lumotlari ayniqsa muhim ahamiyatga ega.

Termiz davlat universiteti tarixchi olimi Jaloliddin Mirzoning Termiz sayyidlari xonadoni tarixi haqidagi tadqiqotlari bu boradagi muhim qadamlardan bo'ldi. U, jumladan, sayyid naqiblar faoliyatining ahamiyati borasida ishlar olib bordi. U sayyidlar faoliyati bilan bog'liq Termiz rasadxonasi mavzusini olib chiqdi. Shuningdek, Termiz sayyidlari xonadoni vakili, shahar tarixidagi yeng mashhur rassom Mir Sayyid Ali hayoti va ijodi haqida maqolalar e'lon qildi. Mazkur muallif

mashhur musulmon islohotchisi Sayyid Jamoliddin Afg'oniyning Termiz sayyidlari xonadoniga aloqadorligiga ham to'xtaldi. 2010-yilda yesa Jaloliddin Mirzo Imom A'zam Abu Hanifaning Termiz bilan aloqasi masalasini matbuotda ko'tarib chiqdi. Termizda tabobat sohasining rivojlanishi tarixi borasida ham izlanishlar olib bordi. Shuningdek, muhim tadqiqiy asar bo'lgan "Termiz tarixi" kitobida shahar ma'naviy hayoti borasida ham muhim ma'lumotlar taqdim etdi.

### **XULOSA (CONCLUSION)**

Termiziylar mavzusida Mirzo Kenjabekning "Termiz tazkirasi" kitobini ham alohida qayd yetib o'tish lozim. Asar manbalar ko'lamining ancha kengligi va ba'zi asl manbalarning tadqiqotga jalb qilinib, ulardan muhim tarjimalar amalga oshirilganligi bilan karakterlanadi.

Mustaqillik yillarida amalga oshirilgan tadqiqotlar Termizning nafaqat Movarounnahrda ilk islomiy shahar ekanligi, balki davlatchilik va madaniyat timsoli, ma'naviyat va ma'rifat markazi sifatida e'tirof etishga imkon yaratdi.

### **Foydalanilgan manbalar va adabiyotlar ro'yxati:**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Islom hamkorlik tashkiloti Tashqi ishlar vazirlari kengashi 43-sessiyasining ochilish marosimidagi nutqidan (18.10.2016-y.). <https://kun.uz/news/2016/10/18/savkat-mirziyevning-it-tivk-43-sessiyasining-ocilis-marosimidagi-nutki>
2. Abu Iso Muhammad at-Termiziy. Shamoili Muhammadiya. Ma'sudali Hakimjonov nashri. – Toshkent: "Mehnat", 1991. Shamsiddin Boboxonov, Abdusodiq Irisov. Hadis ilmi peshvolari. – Toshkent: "Nur", 1992.
3. Shayx Abdug'ani Abdullo. Al-Hakim at-Termiziy. Sovet Sharqi musulmonlari. 1990. №4.14-17 b; J. Mirzayev. Hakim at-Termiziy ma'rifati. "Xalq ta'limi", 2000, №3, 49-50 b;
4. J. Omonturdiyev. Al-Hakim at-Termiziy ta'limoti. – T.: "Universitet", 2000;
5. U. Uvatov. Al-Hakim at-Termiziy (hayoti va merosi). – T.: Ma'naviyat, 2001.

## KORRUPSIYASIZ JAMIYAT FAROVON

*Xayitov Og'abek Egamberdi o'g'li*  
*Buxoro Davlat Universiteti Tarix va Yuridik fakulteti*  
*Yurisprudensiya yo'nalishi 2-bosqich talabasi*  
**ОБЩЕСТВО БЕЗ КОРРУПЦИИ ПРОЦВЕТАЕТ**

*Хаитов Агабек Эгамберди оглы*  
*Бухарский государственный университет историко-  
 юридического факультет Курс юриспруденции студент*  
 2 курса

## A SOCIETY WITHOUT CORRUPTION IS PROSPEROUS

*Khayitov Oghabek Egamberdi's son*  
*Bukhara State University Faculty of history and law*  
*A student of the 2nd stage of jurisprudence*

**Annotatsiya:** *Mazkur maqolada bugungi kunda jahon miqiyosida global muammoga aylangan, jamiyat va insonlarni jinoyat botqog'iga botirgan, davlat xavfziligiga jiddiy tahdid soladigan korrupsiya va uni samarali yumshatish, shuningdek oldini olish choralari haqida so'z boradi.*

**Аннотация:** *В данной статье говорится о коррупции, ставшей сегодня глобальной проблемой на мировом уровне, ввергающей общество и людей в трясину преступности, серьезно угрожающей безопасности государства, и мерах по ее эффективному смягчению, а также чтобы предотвратить это.*

**Abstract:** *This article talks about corruption, which has become a global problem at the world level today, which plunges society and people into the mire of crime, which seriously threatens the security of the state, and measures to effectively mitigate it, as well as to prevent it.*

**Kalit so'zlar:** *korrupsiya, jamiyat, davlat, konstitutsiya, qonun.*

**Ключевые слова:** *коррупция, общество, государство, конституция.*

**Key words:** *corruption, society, state, constitution.*

**Kirish.** Korrupsiya nima? Ilmiy adabiyotlarda unga quyidagicha ta'rif beriladi: Korrupsiya lotinchadan olingan bo'lib "aynish, poraga sotilish" degan ma'noni bildiradi. Shuningdek korrupsiya mansabdor shaxsning o'z mansabi bo'yicha berilgan huquqlarni shaxsiy boyish maqsadlarida bevosita suiiste'mol qilishidan iborat amaliyot hamdir. Korrupsiya deganda shaxslar yoki muassasalarning insofsiz yoki adolatsiz xatti-harakatlari tushuniladi va bu odatda shaxsiy manfaatlar uchun hokimiyat yoki resurslardan noto'g'ri foydalanish bilan birga ulardan noqonuniy va qonunga xilof ravishda o'zlashtirishni ham o'z ichiga oladi.

Korrupsiyaning tarixiy o'zaklariga e'tibor berar ekanmiz, u juda-juda qadimga borib taqaladi. Bu hol qabilada va bir hududda ma'lum hamda yuqori mavqega ega bo'lish uchun qabila sardorlariga sovg'alar va turli xil buyumlar berish odatidan kelib chiqqan deb hisoblasak ham bo'ladi. O'sha Qadim davrlarda bu holat normal holat sifatida qabul qilingan. Biroq davlat apparatining rivojlanib borishi, uning murakkablashuvi va markaziylishuvi korrupsiyaning davlat rivojlanishiga katta to'siq ekanligini ko'rsatib keldi. Korrupsiyaga qarshi kurashgan birinchi davlat sifatida qadimgi Shumer davlati tan olinadi. Qadimgi davlatlarni ularning boshqaruv, ijro va ayniqsa huquqni muhofaza



<https://orcid.org/0009-0006-3156-5268>

E-mail:

[ogabekxayitov10@gmail.com](mailto:ogabekxayitov10@gmail.com)



qiluvchi organlarning poraxoʻrligi qattiq tashvishga solganligi bizgacha saqlanib qolgan turli manbalardan maʼlum. Bu holat esa davlatning obroʻsiga juda qattiq putur etkazardi. Dunyoning etakchi dinlarida ham shuningdek biz musulmonlarning muqaddas dini boʻlgan Islomda ham birinchi navbatda huquqni muhofaza qiluvchi organlarning poraxoʻrligi qattiq qoralanadi. Jumaladan, Injilda “Sovgʻalarni qabul qilma, chunki sovgʻa koʻrni koʻradigan qiladi va haqiqatni oʻzgartiradi” deyilgan boʻlsa, muqaddas kitobimiz Qurʼoni Karimda esa “Boshqalarning mulkini nohaq yoʻl bilan olmangiz va boshqalarga tegishli boʻlgan narsalarni olish uchun oʻz mulkingizdan hokimlaringizga pora qilib uzatmangizlar”, deya qayd etilgan.[6]

Shuni aytib oʻtish joizki, ushbu zararli hodisa katta va kichik, badavlat va kambagʻal boʻlishidan qatʼiy nazar, barcha mamlakatlarda uchraydi. Ushbu zararli illatni bartaraf etish boʻyicha jahon hamjamiyati tomonidan bir qator samarali ishlar amalga oshirilayotgan boʻlsada, hanuzgacha u bartaraf etilmayapti.

Davlat boshqaruv apparati tizimida mansab suisteʼmolchiligi, poraxoʻrlik, uyushgan yoki korrupsion jinoyatchilikning ijtimoiy xavfliligi aynan shu tizim buzilishiga yoki zararlanishiga sabab boʻladi. Davlatning siyosiy, iqtisodiy, huquqiy tizimiga putur yetkazadi. Korrupsiya jinoyatchiligini mansabdorlik jinoyatlarisiz tasavvur etib boʻlmaydi. Mansabni suiisteʼmol qilish orqali mulkni talon-taroj qilish yoki poraxoʻrlik jinoyatlari korrupsiya jinoyatchiligining eng xavfli koʻrinishlaridan biri boʻlib hisoblanadi [7].

**Asosiy qism.** *“Jamiyatimizda korrupsiya, turli jinoyatlarni sodir etish va boshqa huquqbuzarlik holatlariga qarshi kurashish, ularga yoʻl qoʻymaslik, jinoyatga jazo, albatta, muqarrar ekani toʻgʻrisidagi qonun talablarini amalda taʼminlash boʻyicha qatʼiy choralar koʻrishimiz zarur”.*

**Shavkat Mirziyoyev** [3].

Korrupsiya qonun ustuvorligini, iqtisodiy rivojlanishni buzadi, davlat institutlariga boʻlgan ishonchni yoʻqotadi va ijtimoiy taraqqiyotga toʻsqinlik qiladi. Korrupsiyaga qarshi kurash odatda huquqiy va tartibga soluvchi choralarni, shuningdek,

shaffoflik, hisobdorlik va yaxshi boshqaruv amaliyotlarini ragʻbatlantirishni oʻz ichiga oladi.

Bugungi kunda xalqaro miqiyosda global muammoga aylangan korrupsiyaning oldini olish boʻyicha deyarli barcha davlatlarda faol kurash olib borilmoqda. Xususan buni birgina yurtimiz misolida ham koʻrishimiz mumkin. Xalqaro tashkilotlar, hukumatlar, fuqarolik jamiyati guruhlari va korxonalar korrupsiyaga qarshi qonunlar, maʼlumot tarqatuvchilarni himoya qilish, mustaqil nazorat organlari va jamoatchilikni xabardor qilish kampaniyalari kabi tashabbuslar orqali korrupsiyaga qarshi kurashish uchun koʻpincha birgalikda ishlaydi.

Yurtimiz korrupsiyaga qarshi kurash boʻyicha dunyoning eng rivojlangan davlatlari, xususan Xitoy va Singapur tajribasidan keng foydalanilmoqda. Davlatimiz mustaqillikka erishgandan soʻng ushbu illatga qarshi kurash davlatimiz siyosatining asosiy yoʻnalishiga aylandi va korrupsiyani jilovlash va tugatish boʻyicha bir qator islohotlar amalga oshirildi. Bu islohotlarning roʻyobi sifatida esa: 2008-yilda Oʻzbekiston BMTning Korrupsiyaga qarshi konvensiyasiga qoʻshildi. 2010-yilda Iqtisodiy hamkorlik va rivojlanish tashkilotining Korrupsiyaga qarshi kurashish tarmogʻi – Istanbul harakat dasturiga qoʻshildi. Bu esa oʻz navbatida yurtimizning korrupsiyaga qarshi kurashishida alohida oʻrin tutadi, albatta.[8]

2016-yilning 14-oktabrida Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning konstitutsiyaviy qonunchilik tashabbusi asosida 6 bob 34 moddadan iborat “Korrupsiyaga qarshi kurashish toʻgʻrisida”gi qonun loyihasi Oliy Majlis tomonidan qabul qilindi va qonun 2017-yil 3-yanvardan boshlab kuchga kirdi. Ushbu qonunning qabul qilinishi yurtimizda korrupsiyaga qarshi samarali kurashishda dasturilamal boʻlib xizmat qilmoqda.

“Korrupsiyaga qarshi kurashish toʻgʻrisida”gi qonunning 4-moddasiga quydagicha taʼrif beriladi:

Korrupsiyaga qarshi kurashishning asosiy prinsiplari quyidagilardan iborat:

- qonuniylik;
- fuqarolar huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarining ustuvorligi;
- ochiqlik va shaffoflik;

- tizimlilik;
- davlat va fuqarolik jamiyatining hamkorligi;
- korrupsiyaning oldini olishga doir chora-tadbirlar ustuvorligi;
- javobgarlikning muqarrarligi[2].

Korrupsiyaga oid huquqbuzarlik bu — korrupsiya alomatlariga ega bo‘lgan, sodir etilganligi uchun qonunchilikda javobgarlik nazarda tutilgan qilmish hisoblanadi. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat Kodeksida ham korrupsiya bilan bog‘liq huquqbuzarliklar va jinoyatlar uchun javobgarlik va jazo belgilangan. Masalan, Jinoyat Kodeksining 210-moddasi “Pora olish”, 211-moddasi “Pora berish”, 212-moddasi “Pora olish-berishda vositachilik qilish” kabi moddalarini ko‘rishimiz mumkin. Bundan tashqari yurtimizda korrupsiyaga qarshi bir qancha huquqni muhofaza qiluvchi davlat organlari o‘z faoliyatlarini olib bormoqdalar.

Bular:

- O‘zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi;
- O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi;
- O‘zbekiston Respublikasi Davlat xavfsizlik xizmati;
- O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi;
- O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi.
- O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti.

Yuqorida keltirib o‘tilgan davlat organlari korrupsiyani yuzaga keltiruvchi omillarni bartaraf etishda hamda korrupsiyaga qarshi kurashishda muhim rol o‘ynaydi va alohida o‘rin tutadi [1].

#### **Xulosa.**

Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, korrupsiya jamiyat va davlatning rivojiga jiddiy xavf soladigan tilsiz yov hisoblanadi. Korrupsiyaning ildiz otishi va rivojlanishining bir qancha sabablarini ko‘rib o‘tishimiz mumkin:

- Aholining huquqiy savodxonligining pastligi
- Jamiyat va davlat a‘zolarining o‘z haq-huquqlarini o‘zlari paymol qilishi
- Manfaatlar to‘qnashuvi va qarindosh urug‘chilik
- Xulq-atvor qoidalarining, tarbiya va ma’naviyatning pastligi

- Bozor munosabatlarida barqarorlikning yo‘qligi
- So‘z va axborot erkinligining sust rivojlanganligi
- Aholining davlatni nazorat qilishdagi ishtirokining pastligi
- Inflyatsiyaning yuqori darajada rivojlanganligi
- Iqtisodiyotning davlat tomonidan tartibga solinishi
- Davlat yuqori boshqaruv organlarining aholidan uzilib qolganligi.

Yuqorida keltirib o‘tilganlardan tashqari korrupsiyaga oid qonunlarning ijrosi juda zaif. Korrupsionerlarning jinoiy javobgarlikka tortilish darajasi pastligi korrupsiyaning avj olishiga sabab bo‘lmoqda. O‘zbekistonda korrupsiya jamiyat, biznes va hukumatning deyarli barcha qatlamlarida mavjud. Vatanimiz dunyodagi eng korrupsiyalashgan mamlakatlardan biridir. Transparency International xalqaro tadqiqotlar markazining 2021-yilgi korrupsiyani idrok etish indeksiga muvofiq O‘zbekiston 180 mamlakat ichidan 140-o‘rinni qayd etdi. Bu reytingda 180-o‘rinni egallagan davlat eng korrupsiyalashgan davlat deb hisoblanadi. 2022- yilda esa uchun korrupsiyani idrok qilish indeksida O‘zbekiston 126-o‘rinni egalladi. Bu 2021-yilgi ko‘rsatkichga qaraganda 14 pog‘ona yuqori.

Yuqoridagilardan kelib chiqib xulosa qiladigan bo‘lsak, O‘zbekistonda korrupsiya mamlakatning boshqa mamlakatlarga o‘xshash ravishda bir muammoga aylanib kelmoqda. Bu, yuridik va ijtimoiy tizimlarni yo‘qotib yuradigan va ma‘muriy, iqtisodiy, va siyosiy sohada zarar keltiradigan muammo desak mubolag‘a **bo‘lmaydi**

#### **Foydalanilgan adabiyotlar va ilovalar ro‘yxati:**

1. [www.lex.uz](http://www.lex.uz)
2. O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi, 5-bo‘lim, 25-bob, 210, 211, 212-moddalar.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezident Sh.M.Mirziyoyevning 2020-yil 24-yanvardagi O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga qilgan Murojaatnomasi.
4. Gazita.uz
5. Spot.uz
6. [O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi](#) (2000-2005)
7. [Anticorruption.uz](http://Anticorruption.uz)
8. [Ombudsman.uz](http://Ombudsman.uz)

## BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARINING KOGNITIV KOMPETENSIYASINI INTEGRATIV YONDASHUV ASOSIDA SHAKLLANTIRISH JARAYONINING BOSQICHLARI

### *Xudoyberganov Doniyor Yangiboy o'g'li, Urganch davlat pedagogika instituti o'qituvchisi* STAGES OF THE PROCESS OF FORMATION OF COGNITIVE COMPETENCE OF PRIMARY SCHOOL STUDENTS BASED ON AN INTEGRATIVE APPROACH

*Doniyor Y. Khudoyberganov,  
teacher of the Urgench State Pedagogical Institute*



<https://orcid.org/0009-0007-1987-7097>  
[xudoyberganov.doniyor@gmail.com](mailto:xudoyberganov.doniyor@gmail.com)

**Annotatsiya:** Maqolada boshlang'ich sinif o'quvchilarining kompetensiyasini shakllantirishda o'qituvchining kasbiy kompetentligini o'rni ko'rib chiqiladi. Muallifning ta'kidlashicha, hatto eng muvaffaqiyatli o'qituvchilar ham faolligi va ijodiy fikrlash qobiliyati cheklangan o'quvchilarga duch kelishlari mumkin. Ushbu muammoni hal qilish uchun qo'shimcha topshiriqlar, loyihalar va guruhiy faoliyatni o'z ichiga olgan individual o'quv strategiyalarini yaratish taklif etiladi. Shuningdek, maqolada, boshlang'ich sinif o'quvchilarning kognitiv kompetensiyani rivojlantirishning uch bosqichi keltirilgan.

**Kalit so'zlar:** kompetensiya, boshlang'ich sinif o'qituvchisi, boshlang'ich sinif o'quvchilari, rivojlanish, mustaqillik, faollik, motivatsiya, kognitiv kompetensiya, bosqichlar, o'quv faoliyati, tabaqalashtirilgan o'qitish usullari, qiziqishlar, ijobiy munosabat, o'quv pozitsiyasi.

**Аннотация:** Статья рассматривает роль компетентности учителя в развитии компетентности учеников начальных классов. Автор подчеркивает, что даже самые успешные учителя могут столкнуться с учениками, которые ограничены в своей активности и способности к творческому мышлению. Для решения этой проблемы предлагается создание индивидуальных стратегий обучения, включая дополнительные задания, проекты и групповую работу. Статья также описывает три этапа развития познавательной компетентности у младших школьников.

**Ключевые слова:** компетентность, учитель начальных классов, ученики начальных классов, развитие, самостоятельность, активность, мотивация, познавательная компетентность, этапы, учебная деятельность, дифференцированные методы обучения, интересы, позитивное отношение, учебная позиция.

**Annotation:** The article examines the role of teacher competence in the development of primary school students' competence. The author emphasizes that even the most successful teachers may encounter students who are limited in their activity and ability to think creatively. To solve this problem, it is proposed to create individual learning strategies, including additional assignments, projects and group work. The article also describes three stages in the development of cognitive competence in primary school children.

**Key words:** competence, primary school teacher, primary school students, development, independence, activity, motivation, cognitive competence, stages, educational activity, differentiated teaching methods, interests, positive attitude, educational position.

## KIRISH


O'qituvchining kompetentligi o'z navbatida o'quvchilarning kompetentligini rivojlantirishda muhim rol o'ynaydi. Hatto eng muvaffaqiyatli o'qituvchilar ham tirishqoqlik bilan o'qiydigan va o'qituvchining ko'rsatmalariga faol rioya qiladigan, ammo o'quv faoliyatida mustaqillik va faollik ko'rsatmaydigan o'quvchilarga duch kelishlari mumkin. Bunday o'quvchilar faqat reproduktiv o'rganishga, ya'ni ma'lumotni takrorlash va yodlashga qodir, ammo ijodiy yondashuv va materialni tahlil qilishda qiyinchiliklarga uchraydilar.

Ushbu muammoni hal qilish uchun o'qituvchilar har bir o'quvchining qobiliyatlari,

qiziqishlari va ehtiyojlarini hisobga olgan holda individual ta'lim strategiyalarini yaratishlari kerak. Bunga qo'shimcha topshiriqlar, loyihalar, guruhda ishlash, munozaralar va o'quvchilarning tanqidiy fikrlash, ijodkorlik hamda mustaqillikni rivojlantirishga yordam beradigan boshqa usullar kiradi.

## ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Biz tomonimizda boshlang'ich sinf o'quvchilarida kognitiv kompetentligini rivojlantirish uchun bosqichda amalga oshirilishi aniqlandi:



### 1 - Rasm. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida kognitiv kompetentlikni rivojlantirishning uch bosqichi

#### ***I bosqich: o'quvchilarni bilim olish uchun ijobiy motivatsiyasini shakllantirish.***

Ushbu bosqichning vazifasi o'qituvchilar, ota-onalar, sinf va jamiyatdan kelib chiqadigan tashqi ta'lim motivlarini (masalan, maslahatlar, talablar, ko'rsatmalar, diskussiya, undash) bilim olishning ichki motivlariga aylantirishdir, shunda o'quvchining o'zi ichki ehtiyoj va istakni his qiladi. Boshlang'ich sinf o'quvchilarning e'tiborini berilayotgan bilimlarni o'zlashtirish ularning harakatlariga bog'liqligiga qaratish muhim. Maktab hayotining boshida o'quvchi tabiiy ravishda bilim

olishga intiladi. Ta'limotning turli xil ijtimoiy motivlari orasida yuqori baholarga intilish muhim ahamiyatga ega. Boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun yuqori baholar ularning hissiy farovonligiga hissa qo'shadi.

O'quv faoliyatini to'liq o'zlashtirish uchun kognitiv motivlar, shuningdek shaxsiy o'sish va o'zini takomillashtirish motivlari juda muhim [1]. O'quvchi ta'lim jarayonida shaxsan o'zi uchun muhim bo'lgan ma'no va mazmuni ko'rganda, ta'limni o'zi u uchun ahamiyatini anglaydi. Buning sababi, u o'rganishni o'zini rivojlantirish va



takomillashtirish usuli sifatida anglaydi. Agar boshlang'ich sinf o'quvchisi yangi olgan bilimlarni tushunganidan xursand bo'lishni boshlasa, bu uning ta'lim faoliyati mazmuni bilan bog'liq bo'lgan ta'lim motivatsiyasining rivojlanishidan dalolat beradi. Ta'limning mazmunini aks ettiradigan va har bir o'quvchining ta'limiga mazmun beradigan bunday ta'lim motivatsiyasini rivojlantirish nafaqat kompetentsiyani shakllantirishning ushbu bosqichida, balki boshlang'ich sinf barcha bosqichida davomida o'qitishning eng muhim vazifalaridan biri etib belgilangan.

### **NATIJAR VA MUHOKAMA**

Bolalarda kompetentsiyani shakllantirishning dastlabki bosqichida bir necha sabablarga ko'ra bilim olishga doimiy ijobiy munosabatni shakllantirish juda muhimdir:

*1. Keyingi rivojlanish uchun asos:* o'rganishga ijobiy munosabat keyingi ta'lim va shaxsiy rivojlanish uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Agar bolada ta'lim jarayoniga salbiy munosabat boshidanoq shakllansa, bu uning keyingi ta'limiga to'sqinlik qilishi va o'qishga motivatsiya va qiziqishning etishmasligiga olib kelishi mumkin.

*Motivatsiya va o'quv jarayonida erishgan yutuqlar:* ta'lim jarayonida ijobiy munosabat ishtiyoq, motivatsiya va muvaffaqiyatga erishish istagi bilan bog'liq. Bolalar ta'lim faoliyatidan qoniqish his qilganda, ular ta'lim jarayonida faol ishtirok etish va o'quv yutuqlariga erishish ehtimoli ko'proq.

*O'z-o'zini obektiv baholash va o'ziga ishonch:* ta'lim jarayoniga ijobiy munosabat o'z-o'zini obektiv baholash va o'z qobiliyatlariga ishonchni shakllantirishga yordam beradi. Agar o'quvchi vazifalarini muvaffaqiyatli bajara olishiga ko'zi etsa, bu uning o'ziga bo'lgan ishonchini va keyingi harakatlar uchun motivatsiyasini oshiradi.

*Qadriyatlar tizimini shakllantirish:* ta'lim jarayoniga ijobiy munosabat bilim olishga bilan bog'liq qadriyatlarni shakllantirishga yordam beradi, masalan, bilimga intilish, o'z-o'zini rivojlantirish, doimiy ravishda o'zini takomillashtirish. Ushbu qadriyatlar bolaning keyingi hayotida muhim ahamiyatga ega bo'lishi mumkin.

*O'z-o'zini tartibga solish:* Agar o'quvchi ta'lim jarayoniga qiziqsa va uning ahamiyatini ko'rsa, u o'quv jarayonini mustaqil ravishda tashkil etishga, ishini rejalashtirishga va qiyinchiliklarni engishga ko'proq moyil bo'ladi.

Shunday qilib, boshlang'ich sinflarda ta'lim jarayoniga doimiy ijobiy munosabatni shakllantirish bolalarda o'quv motivatsiyasini, o'zini o'zi obektiv baholashni, o'ziga bo'lgan ishonchni va o'zini o'zi boshqarishni rivojlantirishda muhim rol o'ynaydi, bu esa o'quv faoliyatini muvaffaqiyatli rivojlantirishga va keyingi ta'lim taraqqiyotiga yordam beradi.

Mashg'ulotlarni o'quvchilarining o'quv faoliyatida faol ishtirokini rag'batlantiradigan va ularning o'quv fanlariga qiziqishini rivojlantiradigan tarzda tashkil etish kerak. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining kognitiv qiziqishi o'rganilayotgan fanlarga hissiy munosabat orqali namoyon bo'ladi.

L.S. Vygotskiy qiziqish bolalarning xulq-atvorida asosiy rol o'ynashini, o'ziga xos tabiiy vosita ekanligini ta'kidlab quyidagi firlarni beradi. "Pedagogik qonunga ko'ra, bolani ma'lum bir faoliyatga jalb qilishdan oldin, uning qiziqishini uyg'otish muhim. O'qituvchi bolaning ushbu faoliyatga tayyorligini va u uchun zarur bo'lgan resurs va energiyaga ega ekanligini aniqlashi kerak. Keyin bola faoliyatda faol ishtirok etadi va o'qituvchi faqat uning harakatlarini boshqarishi va yo'naltirishi kerak" [1].

Kompetentsiyani shakllantirishning ushbu bosqichida boshlang'ich sinf o'quvchilarining asosiy shaxsiy xususiyati sifatida faolligini rivojlantirish muhim ahamiyatga ega. Faollik talabaning o'quv faoliyatiga jalb qilish darajasini - uning intensivligi va barqarorligini belgilaydi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining kognitiv kompetentsiyasini shakllantirishning birinchi bosqichi juda muhim hisoblanadi. Motivatsiya kompetentsiyani shakllantirishda etakchi rol o'ynaydi, chunki ko'p jihatdan o'quvchining motivlari uning bilim olish istagiga ta'sir qiladi, o'quvchi bu asosda yangi bilimlarni egallashga intiladi hamda o'quv faoliyatida faol ishtirok etadi. Ushbu bosqichning muvaffaqiyatli yakunlanishi boshlang'ich sinf o'quvchisining boshlang'ich

sinflarni tugatguniga qadar o'quv faoliyatida kompetentsiyalarga ega bo'laolishiga bog'liq. Shuningdek, ular olingan bilim va ko'nikmalarni ongli ravishda o'zlashtirishni boshlaydilar.

Uchinchi sinfga to'g'ri keladigan **II bosqich boshlang'ich sinf o'quvchilarda kognitiv kompetentsiyaning asosiy tarkibiy qismlarini o'zlashtirishga qaratilgan.** Ushbu davrda o'quvchilar bilimlarni o'zlashtirish, ko'nikmalarni rivojlantirish va muvaffaqiyatli ta'lim olish uchun zarur bo'lgan malakalarni takomillashtirish bilan faol shug'ullanadilar.

Boshlang'ich sinf o'quvchilari ta'lim olishga intilishlari va o'quv vazifalarini belgilash ko'nikmalarini o'zlashtirganlaridan so'ng, ularning kognitiv kompetentsiyasini rivojlantirishning yangi bosqich boshlanadi. Bolalar turli xil ta'lim muammolarini hal qilish jarayonida nazariy bilimlarni to'plashni boshlaydilar va umumiy harakat usullarining namunalarini o'zlashtiradilar. Ushbu bosqichda o'qitishning maqsadi boshlang'ich sinf o'quvchisining asta-sekin samarali o'quv faoliyati (o'quv ishlarining umumiy usullari) ko'nikmalari va malakalariga ega bo'lgan tajribali o'quvchiga aylantirish etib belgilangan. Ushbu maqsadga erishish uchun o'qituvchi, psixolog va ota-onalar o'rtasida yaqin hamkorlik o'rnatish muhim [3].

Ushbu bosqichning oxiriga kelib, bolalar o'qituvchining ularga tayyor javob berishini kutmasdan, mustaqil ravishda yangi muammolarni hal qilish yo'llarini izlashni o'rganishlari kerak. Ular jamoada ishlashlari, bir-birlarini tinglashlari va jamoaviy qarorlar qabul qilishni bilishlari kerak. Shuningdek, bolalar o'z va o'rtog'larining mehnat natijalarini mustaqil ravishda baholay olishlari kerak.

Ushbu bosqichda o'qituvchi bolalarga o'qish, yozish, hisoblash va h.k. kabi ta'limiy ko'nikmalarini rivojlantirishga yordam berishi juda muhim, shuningdek, ularga turli xil muammolarni hal qilish uchun ushbu ko'nikmalardan qanday foydalanishni tushunishga yordam berishi kerak. Bundan tashqari, o'qituvchi bolalarning ijtimoiy ko'nikmalarini rivojlantirishga e'tibor qaratishi kerak, masalan, boshqa odamlar bilan muloqot qilish, jamoada ishlash va h.k. bu bolalarning o'qishlarida va umuman hayotda muvaffaqiyat qozonishiga yordam beradi.

2-sinfdan boshlab bolalar asta-sekin yangi bilimlarni o'zlashtirishga yordam beradigan maxsus o'qitish usullaridan foydalanishni o'rganishlari uchun sharoit yaratish jarayoni boshlanadi. Ushbu bosqichning oxiriga kelib, boshlang'ich sinf o'quvchilari ma'lumotni faol qayta ishlash va katta hajmdagi materiallarni yodlash uchun turli xil usullarni qo'llashni bilish kerak. O'zlashtirgan bilimlarni tushunish uchun u materialni asosiy ma'nosini o'zgartirmasdan, quyidagi usullardan foydalangan holda tahlil qilishi kerak:

semantik guruhlash (matnni qismlarga ajratgan holda o'rganish);

qismlarning belgilash (har bir qismga nom berish);

materialni rejalashtirish;

tayanch nuqtalarni ajratib ko'rsatish (alohida kalit ibora va so'zlar);

materialni yaxshiroq eslab qolish va ko'paytirishga yordam beradigan qo'llab-quvvatlash sxemasini tuzish.

Ushbu bosqichning oxiriga kelib boshlang'ich sinf o'quvchilari oqilona ko'nikma va malakalarni egallashlari uchun o'qituvchi va ota-onalarning muayyan tamoyillarga muvofiq tizimli, mas'uliyatli hamkorlikda ish olib borishlari zarur. Birinchidan, tizimliylik tamoyiliga amal qilish, oddiydan murakkabga o'tish faoliyat tizimini amalga oshirishini ta'minlaydi. Ikkinchidan, ratsional usullarni o'zlashtirishda muntazam amaliyot talab etiladi.

Shunday qilib, kognitiv kompetentsiyani shakllantirishning ikkinchi bosqichining oxiriga kelib, boshlang'ich sinf o'quvchilari tushunish va yod olish chuqur tahlil natijasi sifatida o'quv materiallarni o'zlashtirish jarayonini bajarishlari kerak. Bu ularga ortib borayotgan o'quv talablari va ma'lumotlar hajmini muvaffaqiyatli yengishga yordam beradi. O'quvchilar o'z bilimlarini turli vaziyatlarda, ham standart, ham o'zgaruvchan holatlarda qo'llashni bilishlari kerak.

**III bosqich (4-sinf): nostandart vaziyatlarda olingan bilim, ko'nikma va malakalarni takomillashtirish (bilimlarni o'zlashtirishning ijodiy darajasi); refleksiylash va mustaqil ta'lim olishga qodir bo'lgan o'quvchining real pozitsiyasining paydo bo'lishi.**

Kognitiv kompetentsiyani shakllantirishning dastlabki ikki bosqichini muvaffaqiyatli tugatgandan so'ng, boshlang'ich sinf o'quvchisi asta-sekin haqiqiy ta'limiy pozitsiyasini rivojlantira boshlaydi. Bu boshlang'ich sinf o'quvchisi ta'lim muhitida o'qituvchining ko'rsatmalariga tanqidiy fikrlarsiz amal qiladigan, shunchaki "maktab o'quvchisi" sifatida harakat qilishni to'xtatadi. Buning o'rniga, o'quvchi ta'lim jarayonida tashabbuskorlik va mustaqillikni namoyon qila boshlaydi.

Boshlang'ich sinf o'quvchisi yangi turdagi vazifa yoki vaziyatga duch kelganda, u endi o'qituvchi tomonidan ilgari o'rganilgan naqshlar yoki harakatlarni qo'llash bilan cheklanmaydi. Buning o'rniga, u muammoni hal qilish yoki vazifani bajarishning yangi usullarini izlay boshlaydi. Bu jarayon nafaqat ko'rsatmalarni takrorlashni, balki o'z bilimlarini faol qo'llashni, shuningdek, muqobil yondashuvlar va yechimlarni izlashni ham o'z ichiga oladi.

Ushbu yondashuv boshlang'ich sinf o'quvchisiga tahliliy ko'nikmalarini, shuningdek mustaqil fikrlash va ijodkorlik qobiliyatini rivojlantirishga imkon beradi. Natijada, o'quvchi turli xil ta'lim muammolarini muvaffaqiyatli hal qilishga yordam beradigan ularni hal qilishda yanada moslashuvchan va samarali bo'ladi.

Ushbu xatti-harakatlarning asosiy psixologik mexanizmi bolaning o'z imkoniyatlarining chegaralarini aniqlash, unda hali bilmagan yoki ega bo'lmagan bilimlarni unda mavjud bilim va ko'nikmalardan ajrata olish qobiliyatida namoyon bo'ladi. Boshlang'ich ta'limning natijasi - bu kattalar yordamida faol ravishda o'z-o'zini o'rganadigan, tobora malakali bo'lib boradigan bolani tayyorlash sanaladi.

Boshlang'ich ta'limning uchinchi bosqichida o'qituvchining asosiy vazifasi bolalarning ta'lim muammolarini birgalikda hal qilish jarayonida olgan qobiliyatlari va ko'nikmalarini rivojlantirishni individuallashtirish uchun psixologik va pedagogik sharoitlarni yaratishdir.

Ushbu bosqich ko'proq umumiy o'qitish usullaridan individual yondashuvga o'tishni anglatadi. O'qituvchi har bir o'quvchining o'ziga xos ehtiyojlari va xususiyatlarini, shuningdek ularning individual qobiliyatlari va qiziqishlarini hisobga olishi

kerak. Buning uchun o'quvchilarga o'quv materialining ayrim jihatlarini, shuningdek, ularning afzalliklari va o'rganish uslubiga mos keladigan o'rganish usullarini tanlash imkoniyatini berish muhimdir.

Bunday sharoitlarni ta'minlash uchun o'qituvchi turli xil o'quvchilarning ehtiyojlarini qondirish uchun har xil formatdagi tabaqalashtirilgan o'qitish usullaridan foydalanishi mumkin. Bunga individual yoki guruh mashg'ulotlarini o'tkazish, juftlikda ishlash, interfaol ta'lim usullaridan foydalanish va boshqalar kiradi.

Bundan tashqari, har bir o'quvchi muvaffaqiyatga erishish uchun o'zini ishonchli va g'ayratli his qiladigan sharoitlarni yaratish muhimdir. Bunga o'qituvchi tomonidan qo'llab-quvvatlashi, yutuqlarni rag'batlantirish va maqtash, shuningdek, o'quvchilarga kuchli va zaif tomonlarini tushunishga hamda ko'nikmalarini yanada rivojlantirishga yordam beradigan fikr-mulohazalar berish kiradi.

**XULOSA.** Shunday qilib, boshlang'ich ta'limning uchinchi bosqichida o'qituvchi har bir bolaning o'ziga xos qobiliyatlari va ko'nikmalarini rivojlantirish uchun sharoit yaratib, individual ta'limning yordamchisi rolini o'ynaydi [2].

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Выготский Л.С. Педагогическая психология. Л.С.Выготский, В.В.Давыдов. - М., 1991.- 400 с.

2. Слободчиков В.И. Генезис рефлексивного сознания в младшем школьном возрасте //В.И.Слободчиков, Г.А.Цукерман //Вопросы психологии - 1990. - №3 - С.31-42.

3. Хуторской, А.В. Ключевое понятие компетентности в современном образовании. Знание. Понимание. Умение, 4, 58-64 2011 г.

4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 29.04.2019-yildagi PF-5712-son.

5. Pedagogik atamalar lug'ati // R.X. Djuraev va boshqalar.- "Fan" nashriyoti. Tashkent. -2008. 198 - b. 105-sahifa.

6. The U.S. National Board of Education Assessment (NAEP). "Trends in the cognitive development of children from 4 to 18 years old." Washington, DC: U.S. National Board of Education Assessment, 2021. 54 p.

## SURXON VOHASIGA KO‘CHIRILGAN FARG‘ONA VODIYSI AHOLISINING KIYIMLARIDAGI TRANSFORMATSION JARAYONLARI

*Eshmo‘minov Ozodbek Ziyodulla o‘g‘li*

*Termiz davlat universiteti*

*“Jahon tarixi” kafedrasi o‘qituvchisi*

## ПРОЦЕССЫ ТРАНСФОРМАЦИИ В ОДЕЖДЕ НАРОДОВ ФЕРГАНСКОЙ ДОЛИНЫ КОТОРЫЕ ПЕРЕСЕЛИЛИСЬ В СУРХАНСКИЙ ОАЗИС

*Eshmominov Ozodbek Ziyodulla ugli*

*Термезский государственный университет*


*Кафедра «Всемирной истории», преподаватель*

## TRANSFORMATION PROCESSES IN THE CLOTHES OF THE PEOPLE OF THE FERGANA VALLEY MOVED TO SURKHAN OASIS

*Eshmominov Ozodbek Ziyodulla ugli*

*Termiz State University*

*Department of "World History", teacher*



[https://orcid.org/  
0009-0007-9536-3240](https://orcid.org/0009-0007-9536-3240)

E-mail:  
[eshmominovozodbek72  
@gmail.com](mailto:eshmominovozodbek72@gmail.com)

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada XX asrda O‘zbekiston aholisining maishiy turmushida yuz bergan transformatsion jarayonlar kiyim-kechaklarda ham namoyon bo‘lgan. Kiyimlar, avvalo, tabiiy, xo‘jalik va ijtimoiy sharoitdan kelib chiqqan holda issiq va sovuqdan asraydi, mehnat faoliyati hamda dam olishda qulay, shu bilan birgalikda jamiyatning siyosiy, diniy, etnik belgilarini namoyon qilishi haqida so‘z yuritilgan.

**Kalit so‘zlar:** Qishki kiyimlariga – kamzul, chopon, gupicha (askarcha), maxsi, no‘g‘ay kavush, kalish.

**Аннотация:** В данной статье трансформационные процессы, происходившие в бытовой жизни населения Узбекистана в XX веке, нашли отражение и в одежде. Одежда, прежде всего, защищает от жары и холода, исходя из природных, экономических и социальных условий, удобна для работы и отдыха и в то же время, как говорят, отражает политические, религиозные и этнические особенности Общества.

**Ключевые слова:** Для зимней одежды - камзул, чапон, гупича (милитари), макси, ногой кавуш, калиш.

**Abstract:** In this article, the transformational processes that took place in the domestic life of the population of Uzbekistan in the 20th century were also manifested in clothes. Clothing, first of all, protects from heat and cold, based on natural, economic, and social conditions, is comfortable for work and leisure, and at the same time, it is said that it shows the political, religious, and ethnic characteristics of the society.

**Key words:** For winter clothes - camzul, chapon, gupicha (military style), maxi, nogay kavush, kalish.



## KIRISH (INTRODUCTION)

XX asrda O'zbekiston aholisining maishiy turmushida yuz bergan transformatsion jarayonlar kiyim-kechaklarda ham namoyon bo'lgan. Kiyimlar, avvalo, tabiiy, xo'jalik va ijtimoiy sharoitdan kelib chiqqan holda issiq va sovuqdan asraydi, mehnat faoliyati hamda dam olishda qulay, shu bilan birgalikda jamiyatning siyosiy, diniy, etnik belgilarini namoyon qilgan. O'zbekistonning boshqa hududlarida bo'lganidek, Farg'ona vodiysidan ko'chirilgan aholining kiyimlariga qarab muayyan xalq (etnos)ning e'tiqodi, ijtimoiy ahvoli va xo'jalik shakli haqida tasavvurga ega bo'lish mumkin[1:45].

Kiyim – har bir xalqning etnik mansubligini ko'rsatuvchi asosiy belgilaridan biridir. Ba'zan kiyim detallari, bichim va bezaklarida qadimgi elementlar uchraydiki, ular muayyan xalqning etnogenezi o'rganishda muhim ahamiyat kasb etadi. Kiyimda tabiiy sharoit, kishilarning turmush tarzi, oila hayotining ayrim jihatlari aks etadi. Kiyim odamning yoshi, oila va jamiyatda tutgan o'rnini bildirib turgan. Kiyim, shuningdek, qadimdan tabiiy iqlim sharoitiga qarab shakllana borgan, odamlarning jinsi, yoshi va qaysi ijtimoiy tabaqaga mansubligiga qarab farqlangan.

Farg'onaliklarning kiyimi Surxon vohasining cho'l hududlarida yashovchi aholining ta'sirida o'zgarib borgan. Ular kiygan kiyimning asosiy qismi paxta, jun va charmdan qilingan[2:132].

## ADABIYOTLAR TAHLILI VA METOD / (MATERIALS AND METHODS)

1930-1950 yillarda farg'onaliklar joylashgan qishloqlarda erkak aholisining kiyimi ko'proq tik (chit), surp, alacha, beqasam singari matolardan iborat bo'lar edi. Ayollar asosan chit, satin, adras, shoyi kabi matolardan kiyim kiyishgan. Aholining qishki kiyimi astarli tikilib, paxta va jundan tayyorlanar, yozgi kiyimlar esa, astarsiz, ya'ni bir qavat bo'lardi. Erkaklarning yozda kiyadigan kiyimlari – do'ppi, ko'ylak-ishton, kavush, choriq, qishki kiyimlariga –telpak, jelak, chakmon, chopon, po'stin, mo'kki, no'g'ay etik, maxsi, kavush va boshqalar; ayollarning yozgi kiyimlariga ko'ylak-ishton, turli xildagi ro'mollar, qishki kiyimlariga – kamzul, chopon, gupicha (askarcha), maxsi, no'g'ay kavush, kalish va shu singarilar kirgan.

XX asr o'rtalarida uch yoshgacha bo'lgan bolalarga qizil, oq, ko'k va malla chitdan ko'ylak, ishton, chopon, yozda esa, paxtasiz kamzul (sakkiz oyligigacha) tikib kiydirilgan. Bolaning badaniga qattiq botmasligi uchun kiyim kengroq qilib tikilar edi. Ana shu sababga ko'ra, yosh bola terisiga qattiq botadigan satindan kiyim qilinmagan. Bolaga uch yoshidan so'ng oyoq kiyimi olib berilgan. Maxsido'z ustalar bolalar uchun jonu dili bilan kulib-kulib, yumshoq teridan quloqli yoki quloqsiz mo'kki tikib berganlar.

O'g'il bolalar uch yasharligidan to balog'at yoshigacha oq, sariq, ko'k, qizil tik(chit)dan ko'ylak-ishton kiyganlar. Qishda qora telpak, yozda chiroyli do'ppi kiyganlar.

Balog'at yoshiga yetgan bolaga beqasamdan chopon, to'n, oq-ko'kish tik va qizil chitdan ko'ylak-ishton kiydirilgan. Ko'ylagi yoqasiz, yengi uzun bo'lib, bo'yniga jiyak tikilgan. Ishtonni maxsus to'qilgan ishtonbog' bilan bog'lashgan. Ishtonbog'ning eni 2 sm, uzunligi 2 metr bo'lib, uchida po'panagi bo'lgan. Uylanganida esa, oq surp yoki havo rangli yo'l-yo'l chitdan ko'ylak-ishton, jelak, beqasam to'n va chiroyli qalpoq kiyganlar. Do'ppini kelinlar o'z kuyovlariga atab tikkanlar. Ko'ylagining o'ng yoki chap tomonidagi yelkasiga tugmali yoqa qilishgan. To'n, qalpoq va kashtalangan belqarsni kuyovga kelinning onasi bergan[3.].

Farg'onalik ayollar erkak beqasamidan to'n ham, ishton ham tikib olmagan. Ayol erkak to'nini kiyimagan, ustidan hatlab o'tmagan, oyoq osti ham qilmagan. Erkakning to'nini ayol kiya, erkakning omadi yurishmaydi deb o'ylaganlar. Er ishdan kelganda xotin uning to'nini, albatta, olib ilib qo'yardi. Umuman olganda, ayol o'z erini ardoqlashi lozim edi.

## MUHOKAMA (ОБСУЖДЕНИЕ/DISCUSSION)

Yostiqni oyoq bilan bosish, uning ustiga o'tirish ham irim qilingan. Shunday qilinsa, oilaning ishi chapdan keladi deb hisoblashgan.

3–13 yoshgacha bo'lgan qizlar qizil, sariq va alvon rangli satindan ishton, ko'ylak, sariq surpdan ko'ylak kiyishgan. Ko'ylagi yoqasiz bo'lgan. Qizlar ko'proq qizil satindan qilingan kiyimlarni

yoqtirishgan. Yozda boshlariga do'ppi kiyganlar. Bahor va yozda sochlarini mayda qilib o'rganlar. Ba'zan sochlariga ikki yoki uchta kokil o'rganlar. Qishda qizil satindan chopon va ishton kiyganlar. Boshlarini ro'mol bilan yopganlar.

Balog'atga yetgan qizlar egniga qizil va sariq satindan, shuningdek, qizil alvondan yoqali ko'ylak, bo'g'ma yoqali ko'ylak, ishton, oyog'iga no'g'ay kavush kiyganlar[4.].

Kelinlar va bo'y yetgan qizlar asosan qizil ranglarni yoqtirishib, gulobi, qizil va sariq satindan tikilgan yengi keng va yoqasi parpar, shuningdek ba'zan qizil yoki yashil baxmal ko'ylaklar kiyishgan. Ko'ylaklar soni uchta bo'lgan. Kelinlar oq surpni kiymasalar-da, ko'ylak yengi va yoqasi chiroyli ko'rinish hosil qilishi uchun, ko'ylak ostidan qizil, ustidan sariq alvon, orasiga oq ko'ylak kiyganlar. Oq ko'ylakning yengi chiqib turishi lozim edi. Lozim qizil satindan edi. Shoyi, adras va atlasdan ishton tikilmagan.

An'anaviy kiyimlarda atlas o'rniga adras ishlatilgan. Adrasga qizil, sariq, oq iplardan gul qilishgan. Kelinlar uchun sep tariqasida beriladigan to'qqizga, albatta, gul bosilgan to'q qizil shoyi, adrasdan kamzullik, qizil satin, oq surp, sariq satin, chit berilgan. Buxoroning shoyi matolaridan kiyim tikkanlar. Ayollar boshiga o'raydigan ro'mol chodir, boylar, hojilarning xotinlari va qizlari o'raydigan bosh kiyimi sholpat deyilgan. Sholpatlar qizil, sariq, qora, yashil va oq rangli bo'lgan. Yosh qizlar va kelinlar boshlarini to'q qizil rangli parangi ro'mol bilan o'rganlar. Parangi ro'mol deganda sochig'i bor ro'mol tushunilgan. Ayrim parangi ro'mollar oq, sariq, malla, qizil, qirmizi rangda bo'lgan. Parangi ro'molni to 50 yoshgacha bo'lgan ayollar o'rashgan.

#### **NATIJA(LAR) (RESULTS)**

45–50 yoshdan oshgan ayollar kiyimi asosan sariq surp, sariq satin, gulobi satin, surp va baxmal bo'lgan. Qizil, to'q qizil rangli kiyimlar, gulobi satintlarni kiyish to'xtaydi. Qoraroq, oqishroq, malla rang kiyimlar kiyish boshlanadi. Qarilar oq sholpat, oq doka ro'mollarni o'rashgan. Qirmizi, sariq, gulobi rangga bo'yalgan hamda qalin qilib to'qilgan ipak ro'mol bilan boshlarini yopganlar.

Aytish kerakki, farg'onalik xotin-qizlar to 1970-yillarga qadar o'zga erkaklarga yuzlarini ko'rsatmaslikka harakat qilishgan. Bunda ular

ko'chadan o'tayotganlarida nomahram erkakka duch kelganlarida boshlarini chetga olib, ro'mol bilan yuzlarini berkitib olganlar.

Farg'onaliklarda to oila qurgunlariga qadar yotoq kiyim kiyilmagan. Oila qurilganidan so'ng yotoq kiyim uchun erkaklarga oq surpdan ko'ylak-ishton, qizlarga esa, ishton va oq ko'ylak tikiladi. Ipak va paxtadan kashta qilib ishtonbog' tikilgan. Ishtonbog'ning uchida gilos donasi kattaligida olcha (po'pak) tikkanlar. Ishtonbog'da 30 yoki 40 ta olcha bo'lgan. Ipakdan yotoq kiyim tikilmagan. Chunki ipak kiyim erkaklarning badaniga yoqmaydi[5.]. XX asr o'rtalariga kelganda hammaning bir xil kiyinishi urf bo'lgan, oyoq kiyimlar esa, kalish va latta botinkaga almashgan. Lekin to'y va ma'rakalarga yangi toza kiyimda borganlar.

#### **XULOSA (CONCLUSION)**

Farg'onaliklarning maishiy turmushida yuz bergan transformatsion jarayonlar kiyim-kechaklarda ham namoyon bo'lgan. Kiyimlar, avvalo, tabiiy, xo'jalik va ijtimoiy sharoitdan kelib chiqqan holda issiq va sovuqdan asraydi, mehnat faoliyati hamda dam olishda qulaylik yaratgan. O'zbekistonning boshqa hududlarida bo'lganidek, Farg'ona vodiysidan ko'chirilgan aholining kiyimlariga qarab ularning e'tiqodi, ijtimoiy ahvoli va xo'jalik shakli haqida tasavvurga ega bo'lish mumkin. 1960-yillardan boshlab magazinlarda fabrikalarda ishlab chiqarilgan kiyimlar va oyoq kiyimlar sotilishi bilan mahalliy ustalar tomonidan tayyorlangan mahsulotlarga ehtiyoj yo'qoldi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Ундерова Л. В. К характеристике узбекского национального костюма конца XIX – начало XX века // *Общественные науки в Узбекистане*. – 1985. – №1. – С. 45.
2. Tursunov S., Pardayev T., Tursunov A., Tog'ayeva M. O'zbekistonning janubiy hududlarida nomoddiy madaniyat tarixi. –Toshkent: Muharrir, 2012. –B. 132.
3. Dala yozuvlari, Termiz tumani, Salavot qishlog'i, 2022-yil.
4. Dala yozuvlari, Termiz tumani, Salavot qishlog'i, Sariosiyo tumani, Qalashtepa qishlog'i, Uzun tumani, «Qizilg'uncha» mahallasi, 2022-yil.
5. Dala yozuvlari, Uzun tumani, «Yangi ro'zg'or» mahallasi, 2023-yil.

## EXPLORING SOMATIC PROVERBS IN UNDERSTANDING HUMAN NATURE

*Bobokulova Nilufar Xayrullo kizi*  
*Termiz State Pedagogical Institute*  
*Teacher of the department*

*Theory and methodology of foreign languages*

### INSON TABIATINI TUSHUNISHDA SOMATIK MAQOLLARNI O'RGANISH

*Boboqulova Nilufar Xayrullo qizi.*  
*Termiz Davlat pedagogika instituti*

*“Chet tillari nazariyasi va metodikasi” kafedra o'qituvchisi*



[boboqulovanilufar237@gmail.com](mailto:boboqulovanilufar237@gmail.com)

**Annotation:** This article delves into the rich tapestry of somatic proverbs, which utilize imagery related to the human body to convey profound insights into human behavior, emotions, and relationships. Through vivid examples and thoughtful analysis, the article explores the significance of somatic proverbs in offering timeless wisdom and practical guidance for navigating life's challenges. Readers will gain a deeper understanding of the cultural and psychological significance of these proverbs, as well as valuable lessons for personal growth and self-reflection.

**Key words:** somatic proverbs, Human body imagery, Wisdom and insights, Human behavior and emotions, Cultural significance

**Annotatsiya:** Ushbu maqola inson xulq-atvori, his-tuyg'ulari va munosabatlari haqida chuqur tushunchalarni yetkazish uchun inson tanasi bilan bog'liq tasvirlardan foydalanadigan somatik maqollarning boy mohiyatini o'rganadi. Maqolada yorqin misollar va chuqur tahlillar orqali somatik maqollarda amaliy ko'rsatmalar berishdagi ahamiyati o'rganiladi. Ushbu maqolani o'quvchilar madaniy-psixologik ahamiyatini chuqurroq tushunadilar, shuningdek, shaxsiy o'sish va o'z-o'zini aks ettirish uchun qimmatli saboqlarga ega bo'ladilar.

**Kalit so'zlar:** Somatik maqollar, Inson tanasi tasvirlari, Donolik va tushunchalar, Inson xatti-harakatlari va his-tuyg'ulari, Madaniy ahamiyat.

### INTRODUCTION

A proverb is a short, pithy statement that expresses a timeless truth or piece of wisdom, often based on common sense or experience. Proverbs are

Proverbs are found in almost every language and culture around the world, reflecting the shared

typically passed down through generations within a culture and are used to convey moral lessons, practical advice, or cultural norms. They often use figurative language or metaphor to make their point succinctly

experiences and values of humanity. They can cover a wide range of topics, including relationships, behavior, work ethic, morality, and everyday life<sup>2</sup>. Proverbs are valued for their ability to encapsulate complex ideas or

<sup>1</sup> Honeck R. Proverb in Mind. The Cognitive Science of Proverbial Wit and Wisdom. – Mahwah: Erlbaum, 1997. – P. 31

observations in a concise and memorable way, making them easy to remember and share. They serve as guiding principles for decision-making, problem-solving, and understanding the world around us.

## MATERIALS AND METHODS

"Somatic proverbs" refer to a specific type of proverb that utilizes body parts or bodily actions as metaphors or symbols to convey deeper meanings or wisdom about life. These proverbs often draw parallels between physical experiences or observations and broader truths about human behavior, emotions, or relationships. Somatic proverbs can include phrases like *"head over heels," "cold feet,"* or *"heart of stone,"* where body parts are used metaphorically to describe emotional states or character traits. They may also involve actions such as *"holding your tongue"* or *"keeping an ear to the ground,"* where bodily actions represent behaviors or attitudes.

These proverbs are valued for their ability to use tangible, relatable imagery from the human body to express abstract concepts or universal truths. They provide insights into human nature and offer practical advice for navigating life's challenges. Studying proverbs is essential for mastering a language and refining one's speech. These expressions encapsulate the national character, uniqueness, and the essence of people's lives and culture, reflecting a rich historical heritage. Correct usage of proverbs adds originality, vividness, and clarity to speech. The widespread use of somatic imagery in proverbs can be attributed to its status as one of the oldest layers of language expression. When people encounter new phenomena or concepts, they often draw comparisons with familiar objects, particularly parts of the human body. This association creates a bridge between the known and the unknown, making communication more accessible and engaging.

The relevance of proverbs lies in their ability to convey meaningful content through vivid imagery and

popular appeal. Their grammatical simplicity and stylistic versatility further contribute to their widespread usage, enriching language and discourse. The use of the names of body parts in somatic paremas is related to the fact that a person faces their functions every day. The number and thematic variety of somatisms in paremas is related to the significance and level of importance of the functions of certain organs or body parts.

Somatisms are distinguished by the fact that they are the most ancient layer of the vocabulary of any language and carry mental features.

The reason for constant attention to somatisms is that the process of self-awareness and perception of oneself as a person among the surrounding realities begins with the sensations that appear directly through the body parts.

Although the names of human body parts exist in all languages, representatives of each language give different values to body parts, so it is a valuable material for studying the linguistic landscape of the world. Somatic proverbs have served as fundamental tools for understanding the world since ancient times, finding their place in early forms of storytelling like proverbs and aphorisms. A thorough examination of somatic proverbs provides researchers with insights into the linguistic universe of the cultures from which these proverbs originate. In describing individuals' appearances, conditions, and traits, languages rely on lexical resources and psychological imagery derived from linguistic experiences. Each language offers unique ways to depict reality, serving as cultural symbols that shape speakers' perceptions of the world. Through the use of specific lexical units and cultural references, languages enable individuals to articulate and understand their surroundings<sup>1</sup>.

N.A. Bagdasarov specifically pointed out that not all parts of the body have the same importance in language, and some perform a more important task than others. His research is devoted to the study of lexical units expressing emotions in Russian and English languages and cultures, and includes data on somatic

---

<sup>1</sup> Турапова Н.А. Япон ва ўзбек тиллари соматик фразеологизмларининг чоғиштирма таҳлили. Филол.фан. докт. ... дисс. автореферати. – Тошкент, 2020. – 55 б.



words. According to N.A. Bagdasarov, the face is the most "expressive" part of the body in both languages. But the similarity ends there. For the rest of the body, it has opposite meanings in two languages. Eyes stand out brightly in Russian. In English culture, the main emphasis is on the head and the body. English has a lot of idioms related to the stomach (*turn your stomach, not have the stomach for, get butterflies in your stomach*) in Russian, the only character referring to the abdomen is recorded (*сосет под ложечкой*) (*unpleasant feeling in the stomach and abdomen due to hunger and fear*)<sup>2</sup>.

There are some examples of somatic proverbs: **"The way to a man's heart is through his stomach"**. This proverb suggests that one can win someone's affection or favor by cooking delicious food for them. It emphasizes the importance of nurturing and caring for others. **"Bite off more than you can chew."** This proverb warns against taking on tasks or responsibilities that are beyond one's capacity to handle. It illustrates the idea of overcommitting oneself and facing consequences as a result. **"He has a chip on his shoulder."** This proverb describes someone who harbors resentment or feels aggrieved, often resulting in a confrontational attitude. It implies carrying a burden or grudge from past experiences. **"The pen is mightier than the sword."** This proverb suggests that writing and communication have more influence and power than military force or violence. It underscores the impact of words and ideas in shaping opinions and outcomes. **"Keep your nose to the grindstone."** This proverb advises maintaining focus and diligence in one's work or endeavors. It encourages perseverance and dedication to achieving goals. These examples further illustrate how somatic proverbs draw upon bodily references to convey insights, advice, or observations about human nature and behavior<sup>3</sup>.

## CONCLUSION

To conclude, exploring somatic proverbs teaches us a lot about language and life. These wise sayings, using parts of the body, give us timeless advice

and help us understand how people think and feel. They guide us in our actions and relationships. By paying attention to these proverbs, we learn more about ourselves and the world. They offer valuable lessons for growing as individuals and thinking about our lives. Keeping these sayings alive helps us appreciate our cultural heritage and the wisdom passed down through generations. It shows how storytelling and language help us make sense of life's experiences.

## REFERENCES:

1. Mengliyev B., Xoliyorov O', Abdurahmonova N. O'zbek tilidan universal qo'llanma. – Toshkent: Akademnashr, 2015. – 512 b.
2. Morris Ch. Foundations of the Theory of Signs. – Chicago: The University of Chicago Press, 1938. – 32 p.
3. Norrick N. How Proverbs? Semantic studies in English Proverbs. – Amsterdam: Mouton, 1985. – 213 p.
4. Strang B. Modern English Structure. – London, 1968. – 290 p.
5. Phythian B.A. English Grammar. – London, 1980. – 310 p.
6. Quirk R., Greenbaum S., Leech G., Svartvik J. A University Grammar of English. – London, 1985. – 391 p.
7. Rayevska N.M. Modern English Grammar. – Kiev, 2009. – 259 p.
8. Sayfullayeva R.R., Mengliyev va boshq. Hozirgi o'zbek adabiy tili. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2010. – 404 b.
9. Norrick N.R. Subject area, Terminology, Proverb Definitions, Proverb Features//Introduction to Paremiology: A Comprehensive Guide to Proverb Studies. – Warsaw /Berlin De Gruyter, 2014 – P. 7-27.
10. Исаев А. О соматической фразеологии узбекского языка//Актуальные проблемы фразеологии. – Самарканд, 1971. – Вып.2. – С. 39-41.

<sup>2</sup> Юсупов У. Инглиз ва ўзбек тилларининг чоғиштирма лингвистикаси. – Тошкент: Академнашр, 2013. – б 58.

<sup>3</sup> Krikmann A. On Denotative Indefiniteness of Proverbs. Remarks on Proverbs semantics. – Tallin, 1974. – 51 p.

## G'ARB ADABIYOTINING O'ZBEK ADABIYOTIGA TA'SIRI


*Allanazarova Feruza Karimberdiyevna, katta o'qituvchi, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), NDPI*

## INFLUENCE OF WESTERN LITERATURE ON UZBEK LITERATURE

*Allanazarova Feruza Karimberdiyevna, senior lecturer, doctor of Philosophy (PhD) in philological Sciences, NSPI*

## ВЛИЯНИЕ ЗАПАДНОЙ ЛИТЕРАТУРЫ НА УЗБЕКСКУЮ ЛИТЕРАТУРУ

*Алланазарова Феруза Каримбердиевна, старший преподаватель, доктор философии (PhD) по филологическим наукам, НГПИ*



[https://orcid.org/  
0009-0005-9206-4486](https://orcid.org/0009-0005-9206-4486)

[allanazarova1988@  
mail.ru](mailto:allanazarova1988@mail.ru)

**Annotatsiya:** Maqolada jahon va o'zbek nasri tadqiq qilinadi: birinchidan, zamon iqlimida yozuvchining o'z ijodiy kredosi, ikkinchisi makon iqlimida yozuvchining o'z poetik falsafasi. Bular o'z mavqeyini saqlagan hilda adabiy-badiiy konsepsiyani ilgari surishda yaxlit manzarani yuzaga chiqishida katta zamin yaratadi.

**Аннотация:** В статье рассматривается мировая и узбекская проза: во-первых, собственное творческое кредо писателя в климате времени, во-вторых, собственная поэтическая философия писателя в климате пространства. Сохраняя свои позиции, они создают прекрасную почву для возникновения целой сцены в продвижении литературно-художественной концепции.

**Abstract:** The article examines world and Uzbek prose: firstly, the writer's own creative credo in the climate of time, and secondly, the writer's own poetic philosophy in the climate of space. By maintaining their positions, they create excellent soil for the emergence of a whole scene in the promotion of literary and artistic concepts.

**Tayanch so'zlar:** hikoya, afsona, zulm, zo'raonlik, ramz, uyg'unlik, rostlik, qahramon, vosita, jism, syujet, mavjudlik.

**Ключевые слова:** рассказ, легенда, угнетение, насилие, символ, гармония, истина, персонаж, средство, тело, сюжет, присутствие.

**Key words:** story, legend, oppression, violence, symbol, harmony, truth, character, means, body, plot, presence.

### KIRISH

Jamiyat og'riqlarini teran anglab, o'z yurak-bag'ridan o'tkazib tasvirlashning uddasidan chiqqan oladigan yozuvchi Nazar Eshonqul kim va nima haqida asar yozmasin, o'quvchini muammoli

savollar qarshisida sinovdan o'tkazadi. Zukko o'quvchi ham asarni bir o'qish yoki mutolaa davomida undagi ma'no-mazmunning manzil-u makonlarini aniq-tiniq zabt etishda qiynaladi. Bu usul yozuvchining ramzlar simfoniyasini teran

tasvir qila olishi bilan belgilanadi. Azal va abad orasida kechayotgan ming yillik yashash mantig'i insoniyatni fojialari-yu yo'qotishlari, topishlari-yu ayriliqlari adib asarlarida alohida bir konsepsiya tarzida namoyon bo'ladi. Sharq xalqlarida urf bo'lgan tasavvuf falsafasi yozuvchi izlanishlarida boshqacha shaklda yuzaga chiqa boshlaydi. Yaratganning iste'dodi qarshisida har qanday o'lchov adolat bilan sodir bo'lishi va shu mezonga, Ulug' Idealga talpinib, yaqinlashib yashash tariqat peshvolarining azaliy orzusi ekanligini dalillaydi.

#### **ADABIYOTLAR TAHLILI VA METOD**

It ramzining poetik talqini. Adabiyotshunos Marhabo Qo'chqarova yozishicha: "Hozirgi o'zbek nasrida qadim mif va afsonalarga kuchli ehtiyoj paydo bo'lgan. Muayyan ijodkor tomonidan yaratilgan subyektiv mif yoki mifologik tafakkur asosida shakllangan badiiy asar qurilmasi, mifologemalar ishtiroki, syujet va motivlari hozirgi o'zbek adabiyotshunosligida yangi adabiy yo'nalish – neomif nasrni tashkil etmoqda. XX asr ijodkorlari yaratgan neomif nasr mazmun va mohiyat jihatidan aynan miflarni takrorlash emas, mifologik syujetga, obrazga (mifologemalarga) yangicha nigoh tashlashdir"[1]. Adibning tovushlar simfoniyasida inson yashash mantiqini aks ettirgan va tabiat, jamiyat, tuzum o'lchovlarida muttasil iztiroblar og'ushida umr kechirayotgan "Bahovuddinining iti" hikoyasida qahramon ana shunday kuchli psixologik tarang vaziyatni boshidan o'tkazadi. O'z kasbining mohir ustasi bo'lgan radioeshittirish rejissyori qismatini chigal imtihonlardan o'tkazadi. Hikoya syujetida kuy ramzining asar mohiyatida tutgan o'rni xususida olimlar turli xil yondashuvni ma'qul ko'radilar. Biz har bir tadqiqotni xuddi o'quvchining o'zi tushunib yetishi lozim bo'lgan asar kabi baholash mumkin, deb hisoblaymiz. Negaki, ramziy-majoziy talqin "nafsni tasavvuf adabiyotida it qiyofasida tasavvur qilinishida shu singari fikr va e'tiroflar ta'sir o'tkazganligi ehtimoldan yiroqmas. Biroq, asosiysi, it ham, tulki yo sheri darron ham emas, baribir nafsdur. Ko'zga ko'rinmay, dunyoni tub-tubidan g'orat qiladigan mavjudlik, bu –nafs. U qancha ko'p hukmronlikka erishsa, dunyoning axloqiy-ma'naviy holati o'shancha buziladi; haqiqat va vijdon, diyonat va rostlik boshidagi qaro bulutlar shu qadar

quyuqlashadi. Shuningdek, zohiriy chora-tadbirlar, bahs-u munozaralar nafsdan tug'ilajak kulfat, musibat va halokatlarning yo'liga to'siq qo'yolmaydi. Nafs erkin va erkli ekan, yolg'on, riyo, zulm, zo'ravonlik, munofiqlik, xullas, hamma yomon va tuban sifatlar gullab- yashnayveradi. Bular esa inson botinidagi "it" – nafsning o'yinlari. Xohlasa, u odamni parchalab, sochib yuboradi, istasa, o'zni yig'ishtirib olishga imkon beradi. Lekin har qancha urinib-surinmang, undan ajralolmaysiz. Siz – unda, u – sizda yashaydi. U – sizga, siz – unga bog'liqsiz. Kimki uni qancha xor-u zalil eta olsa, o'zini ham, o'zgalarni ham o'shancha yaxshi anglashi muqarrardir"[2], - deya yozadi I.Haqqulov. Binobarin, "Bahovuddinining iti" hikoyasida bugunning odamlari hikoya qilinadi. Unda o'zining ishini durust bilmaydigan, san'at va adabiyotdan umuman xabari yo'q odamning radioeshittirishlar muharriri qilib tayinlanishini ham keskin tanqidiy mulohazalari bilan yozuvchi alohida uqtiradi. Demak, yozuvchi asl san'at asarining qandaydir tuzum tazyiqi ostida o'zini to'laqonli namoyon qilishda qarshiliklarga uchrashini mazkur hikoyada yaqqol ko'rish mumkin. Yozuvchi hikoyada kuy ramzini shu qadar voqelikka puxta bog'lab tasvirlaydiki, o'quvchi itning mungli uvillashidan topadigan ma'noni anglashda biroz o'ylanib mulohaza yuritishga kirishadi. Tasavvuf talqinlari hikoyada muammoni ochib beruvchi bir vosita bo'lsa, muharrir va rejissyor orasida kechadigan munosabat real hayot tutumlarini aniqlashtirishda qo'l keladi:

"Ertasiga quyosh endi bosh ko'tarayotganda yordamchim va ovoz rejissyori bilan birga borib, mikrofonlarni xiyobonga o'rnatdik. Yaqin-atrofdan katta mashina va temir yo'llari bo'lmagani uchun bu yer xuddi biz istagandek osuda edi. Daraxtlar sekin shovullab turar, bog'ni qushlar chug'uri qoplagan, go'yo parranda ahli odamlar bu yerga yig'ilmasdan burun bir yayrab qolmoqchidek, bor ovozlari bilan chug'urlashar, daraxtdan daraxtga uchib, o'ziga xos saodatmand sayroqilar xorini tashkil qilgandi. Ba'zi-ba'zida gullarga kelib qo'nayotgan arilarning yoki ninachilar va so'nalarning g'ung'illagan ovozlari bu shovqinni birpas bosib ketgandek tuyular, lekin bu hasharotlar ovozida ham bizning pyesamizga mos uyg'unlik va ko'tarinkilik bor, shu

sababli hammasi tabiiy va go'zal edi. Men rejissyor sifatida hamisha ishlatilaverib, qolaversa, atayin texnik jilo berilgan, biroz sun'iy lashgan "Shovqinlar jamg'armasi"dagi ovozlardan foydalanganim uchun bu yerdagi ovozlarning tabiiyligidan hayratlanib turardim"[3].

### MUHOKAMA

Hikoyada tasvirlanayotgan mazkur lavhalarda ovoz yozib oluvchi rejissyorning tavsiflari aks ettiriladi. Ayniqsa, xilma-xil tovushlar simfoniyasining oxir-oqibat bitta kuy – itning uvillashiga aylanib qolishi insoniyatning o'zligini anglashda bir kalit vazifasini o'tashga imkon tug'diradi. Nafs va uning fojaviyligi ham ana shu ovozlar uyg'unligida namoyon bo'ladi. Bu xildagi obrazlar Yassaviy, Navoiy, Bobur, Mashrab, Ogahiy singari mumtoz shoirlar ijodida ham o'ziga xos tarzda go'zal tashbehlarida aks ettirilgan. Nazar Eshonqul hikoyada nafsning tovushda aks etishini birinchi planga chiqaradi. Mana shu jihat insonni jiddiy sinovdan o'tkazadi. It obrazi tasavvuf adabiyotlarida ijobiy va ibratli ma'nolarda talqin qilinganini e'tirof etish lozim. Darvoqe, inson o'zining har bir istak-xohishi, maqsadlari bilan hayotini o'nglab boradi. Ayniqsa, ovoz yozib oluvchi rejissyor taqdirida sodir bo'layotgan o'zgarish bog' va ishxona orasida kecharkan. Bu itning mungli xonishi uning butun borlig'ini egallay boradi. Adib bu o'rinda tabiat va inson qismatidagi uyg'unlikni ham birga ko'rsatishga harakat qilgan.

Nafsnı tozalash, yengish va uni barcha yomonliklardan tiyib turish uchun itning og'riqli uvlashlari rejissyorni juda qiyin bir holatda imtihon qiladi. San'atning mohiyatini tushunmagan muharrir jamoaning qilayotgan ishlaridan qoniqish his qilmaydi. Demak, bahor ramziy ma'no tashuvchi bir obraz bo'lib gavidalanishida ham muhim bir hikmat yashiringandek. Dunyoning hoy-u havaslaridan baland ko'tirila olgan shaxslargina buni teran fahmlaydi. Hikoya qahramoni xotiralarida aks etayotgan o'tmishi, kasb-u kori va qilayotgan ishlarini birma-bir sarhisob qilishga erishadi:

“Ertasiga ham, keyingi kunlar ham men bog'ning bir chetida o'tirib, ko'zlarimni yumganча kunimni shu holatda, musibat va anduhdan titrab o'tkazdim. Men uvillayotgan itni ko'rgim, uning

g'amiga sherik bo'lgim, musibat ezgan boshini silagim kelardi. Endi bir umr bu noladan ham, itdan ham ayrilolmaydiganday edim. Ko'zlarimni ochganimda uvillash yo'qolar, yumib olishim bilan qulog'im tagida paydo bo'lar, meni o'z ohangiga olib kirib ketardi. Uvillashda xo'rlik va haqorat to'la edi. Mahkumlik va mutelik, ojizlik va zulm qorishiq edi. Bu xo'rlik bilan odam yashashi mumkin emasdi. Men ko'zlarimni ochib, «Qayerdasan, nega meni bunchalik ezasan, kel, seni ko'ray, maqsading nima?!» deb pichirlardim. Pichirlashim qulog'im tagida xuddi hayqiriqday sado berardi. O'shanday lahzalarda men bir narsani bilib qoldim: ko'zimni yumishim bilan mening ichimdan nimadir tashqariga sakrab chiqib ketar, menga o'sha sakrab chiqib ketgan narsa itday bo'lib tuyular, ammo mening ichimda it nima qiladi, deya bu shubhani inkor qilardim. Asta-sekin boqqa kelishim bilan ichimdan sakrab chiqib ketgan sharpaning itga o'xshashligiga ishona boshladim"[4].

### NATIJALAR

Ko'rib o'tganimizdek, it va odam vujudida birikuv hosil qilishi nafsning asta-sekin o'nglanish darajalarini ochiq lab bermoqda. Nafs – shaytoniy ish ekanligi yozuvchining diqqatidan nari turmaydi. Qahramon mutelik, xo'rlik, zorlik va iztiroblarni it timsolida o'nglanishga yuz tutayotgan insonning botiniy istaklari yanglig' inkishof qilishga kirishadi. Bog' va uy orasida kechayotgan ichki istaklar mung va dard ovozida itning holini o'z vujudida anglashini taqozolaydi. It hamisha sergak va gapiruvchi jonivor sifatida uning hayotida boshqacha o'rin tuta boradi. Biz hech bir vaqt nafsning qay shaklda namoyon bo'lishini oldindan bilmaymiz. Shaytoniy istaklar inson vujudini qanday o'rab olganligini ham sezmaymiz. Dunyo moli deb uringan vaqtlarda nafsga taslim bo'lish eng achinarli holatdir. Q.Yo'ldoshev shunday yozadi: “Nazar Eshonqulning “Yoshlik” jurnalining o'tgan yilgi sonlarining birida “Bahovuddinining iti” degan hikoyasi chiqdi. Shu hikoyada bizning adabiyotimizda qilinmagan ish qilinadi. Oydekkina, tuppa-tuzukkina ishlab turgan odam o'zining jamoasidan ko'ra, bir-biri bilan suyak talashadigan itlarning orasida yashash xavfsizroq va halolroq ekanligini anglab yetadi va o'sha itlarning bittasiga aylanib ketadi. Jismi ham itga aylanadi. Hikoyada



itlashish uni odamlashishdan yiroqlashtirmagani, balki itdan-da battar bo'lgan jinsdoshlaridan yuz o'g'irgani va ulardan tozaroq bo'lganini ramz bilan ifodalab beriladi"[5]. Mana shu jihatning o'ziyoq hikoyani yanada teran tadqiq qilish zaruratini anglatib turibdi. Yozuvchi oddiy bir ovozn yozishdan boshlangan ziddiyatlar bir inson taqdirini boshqa tomonga, nafs ishidan tiyilib, haqiqiy insonlik matlabini anglab yashashga intilayotgan, o'zgarishga yuz burgan odam xarakterini tipiklashtiradi. Jamoaning asl yuzi – insonlikdan yiroq va adashishlar bilan umr kechirayotgan odamlarni ajratib olishga birgina itning uvlashini keltirishi voqelikni ranginlashtiradi. Adib jamiyat va shaxs birligida o'zaro ziddiyatlar soxta tuzumning girdoblarida xo'jako'rsinga umr kechirayotgan odamlardan bezgan bir haqiqiy san'atkor ruhiyatini idroklay olganida qabarib ko'rinadi. Bir qarashda oddiy va sodda tuyulgan epizodlarning mohiyatida o'sha qadimiy kuy – nay navosi ham elas-elas sezilib turadi. Kuyning mahzunligi Jaloliddin Rumi keltirgan "Nay ne hikoyat aylag'ay" qabilidagi o'lmas hikmatini yodimizga soladi.

#### **XULOSA**

Shuni qayd etish joizki, hikoyada kuy navosi itning ayriliqlardan shikoyati yanglig' eshilitilishida ham o'ziga xos ramz yashirin. "Hikoyada ifodalangan hayot – bugungi hayot. Qahramonlar ham tanish – biz-u siz ko'rib-bilib yurgan odamlar. Yolg'iz bir narsa – qariyb timsol maqomiga ko'tarilgan TOVUSH qadimiy. Mungli va mahzun bir ohang bag'oyat eski. Men ko'ngilni o'rtaydigan xotira chaqirig'i deb qabul qildim. Nazarimda, hikoyadagi "it" timsoli xususida alohida so'zlashga hojat yo'q. Nafsini tozalash, yengish azobini zimmasiga ola bilgan har bir kishi o'z siyratida uni ko'rib, nolalarini eshitadi. Zero, Navoiydek ulug' zot ham bir o'rinda – "nafsoniyat tug'yonidin" "o'zumni itga tashbih qilibmen", deganlar. "Bahovuddinining iti" hikoyasida tasavvufdan ilhomlanish bor. Biroq undan so'fiyona bir ma'no yoki bo'yoq qidirmaslik kerak. Hikoyaning nafs, axloq, qalb, ruh to'g'risidagi qadim davrlarda ilgari

surilgan fikr-mulohazalarni eslashga rag'batlantirishi – bu boshqa masala. Va ulardan ayrimlari sog'lom ruhiy hayot, musaffo ma'naviy bog'lanish asrlar mobaynida insoniyat erisholmagan buyuk orzu ekanligini bilish jihatidan alohida ahamiyatga molikdir"[2]. Nazar Eshonqul haqidagi bu o'tkir fikrlar bugungi kunda o'z tasdig'ini topib turibdi. Yozuvchi qadimiy bir mungli kuyga shu qadar ma'noni tizginlashtirganki, yangicha, ya'ni moderncha talqinida qahramon-muhit-it timsolida idroklay olganligida ko'rinadi. Frans Kafkaning "Evrilish" hikoyasida odamning katta bir hasharot qo'ng'izga aylanib qolishiga o'xshab ketsa-da, bu yerda sharqona mental xususiyat o'z ifodasini topgan. Itning vafodorligi, rejissyorning butun borlig'iga aylanib ketadi. U bilan butun umr birga yashashni eng oliy maqsad deb biladi. Jamiyatdagi nafs kuchlaridan tiyilib, shaytoniy istaklardan balandga ko'tarilgan shaxslargina bunday qilishga qodir. Iymon va e'tiqod maslagi jamiyat hayotidagi katta-kichik ishlar shaxsni jiddiy sinovdan o'tkazadi. Yozuvchi hikoyada ana shu mezonni tasvirlashni maqsad qilganligida seziladi. Zero, itning qahramonga aylanishi, dunyo hoy-u havaslaridan balandga chiqishga yetaklashi ifodani quyuqlashtiradi. Rahmoniy istaklar yo'liga tushgan qahramon psixologiyasi yozuvchi ijodiy konsepsiyasining asosiy mag'zi ekanligini to'laqonli dalillaydi.

#### **ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. Qo'chqarova M. Hozirgi o'zbek nasrida badiiy shartlilik. Filol.fan.dok.diss. –T.2020. – B.153.
2. Haqqulov I. Evrilish tovushi// manba: www.jarida.uz saytidan olindi. 2008 yil.
3. Nazar Eshonqul. Bahovuddinining iti// manba www.kh-davron.uzsaytidan olindi.
4. URL: <https://kh-davron.uz/yangiliklar/muborak-kin/ibrohim-haqqul-nazar-shonqul.html>
5. URL: [http://sevdora.blogspot.com/2020/12/blog-post\\_15.html](http://sevdora.blogspot.com/2020/12/blog-post_15.html) Bugungi adabiy jarayonga bir nazar. Q.Yo'ldoshev va K.Nosirovaning adabiy suhbat.

## OILADA SIBLING MUNOSABATLARNING NAMOYON BO‘LISHI

*Qurbanova Surayyo Tuynazar qizi, Toshkent amaliy fanlar universiteti “Psixologiya” kafedrasida o‘qituvchisi*

## EXISTENCE OF SIBLING RELATIONSHIPS IN THE FAMILY

*Kurbanova Surayyo Tuynazar kizi, Teacher of the “Psychology” department of the Tashkent University of Applied Sciences*

## СУЩЕСТВОВАНИЕ СИБЛИНГОВЫХ ОТНОШЕНИЙ В СЕМЬЕ

*Курбанова Сурайё Туйназар кызы, преподаватель кафедры “Психология” Ташкентского университета прикладных наук*



[https://orcid.org/  
0009-0008-8904-7978](https://orcid.org/0009-0008-8904-7978)

*e-mail:*  
*surayyokurbanova@gmail.com*

**Annotatsiya:** Oila – nikoh yoki tug‘ishganlikka asoslangan kichik guruhdir. Uning a‘zolari turmushining birligi, o‘zaro yordami va ma‘naviy mas‘uliyati bilan bir-biriga bog‘langandir. Oilaning eng muhim ijtimoiy vazifalaridan biri — inson zotini davom ettirishdan, bolalarni tarbiyalash, oila a‘zolarining turmush sharoitini samarali uyushtirishdan iboratdir. Maqolada oilaviy munosabatlar tizimida mavjud bo‘lgan sibling munosabatlari, farzandlar tug‘ilishi va ularning o‘ziga xos xususiyatlari, “sibling” tushunchasini yoritishda olimlarning fikr va qarashlari, tadqiqotlari mazmuni yoritiladi.

**Kalit so‘zlar:** sibling, katta farzand, o‘rtancha farzand, kichik farzand, bolaning “taxtdan tushishi”, siblinglarsiz pozitsiya.

**Аннотация:** Семья – это небольшая группа, основанная на браке или кровном родстве. Ее членов связывает единство брака, взаимная поддержка и моральная ответственность. Одной из важнейших социальных задач семьи является продолжение рода человеческого, воспитание детей, эффективная организация условий жизни членов семьи. В статье описаны siblingовые отношения в системе семейных отношений, рождение детей и их специфика, мнения и взгляды ученых, а также содержание исследований понятия siblingи.

**Ключевые слова:** брат, сестра, старший ребенок, средний ребенок, младший ребенок, отречение ребенка, положение без братьев и сестер.

**Kirish (Bbedenie / Introduction).** Oila inson uchun muqaddas maskan va kishilik jamiyati paydo bo‘lishining ijtimoiy poydevoridir. Oilaviy turmushning asosiy maqsadi – farzand ko‘rish orqali avlodlar bilan ajdodlar vorisligi va davomiyligini hamda yer yuzida insoniyat tarixiy taraqqiyotini ta‘minlashdan iboratdir. Oiladagi

shaxslararo munosabatlarda er va xotin, ota-ona bilan farzandlar, farzandlar o‘rtasidagi va boshqa yaqin qarindoshlar o‘rtasidagi munosabat jarayonlarini kuzatish mumkin. Oila mustahkamligi nizoli vaziyatlardan xoli bo‘lishi, uning a‘zolari o‘rtasidagi o‘zaro hurmat va e‘zozning qanday shakllanishiga bog‘liqdir. *Siblinglar* (ingl. siblings)

– etnologiya, ijtimoiy antropologiya va boshqa fanlarda qoʻllaniladigan atama boʻlib, baʼzi ota-onalarning (ikkinchi darajali qarindoshlarning) farzandlarini bildiradi [1]. Ushbu atama shaxsning aka-uka va opa-singillarining jinsini aniqlash zaruratini oldini olish uchun ishlatiladi.

**Adabiyotlar tahlili va metod (Литература и метод / Materials and methods).** “Siblings” atamasi inglizcha “siblings” soʻzidan kelib chiqqan boʻlib, soʻzma-soʻz “aka-uka va opa-singillar” deb tarjima qilinadi. Rus tilida bu atamaga oʻxshash atama yoʻq, shuning uchun biz chet tilini oldik. Shuni taʼkidlash kerakki, sibling aka-uka va opa-singillar, yaʼni faqat otasi yoki faqat onasi boʻlgan bolalar deb ham ataladi. Siblinglar (ingl. siblings), faqat ota-onalarning farzandlari. Qarindoshlik antropologiyasi boʻyicha olib borilgan tadqiqotlar, agar ular umumiy onaga (bitta bachadonga) yoki umumiy otaga (bitta qonga) ega boʻlsa, toʻliq tugʻma siblinglarni (ona va otani baham koʻradigan) va toʻliq boʻlmagan (birlashtirilgan) siblinglarni ajratib turadi. Psixologiyaga “sibling” tushunchasi XIX asrda Frensis Galton va Alfred Adler tomonidan kiritilgan. Asta-sekin, siblinglar bilan bogʻliq boʻlgan psixologik hodisalar aniqlandi: “aka-uka raqobati”, “aka-uka maqomi”, “siblinglar toʻqnashuvi”, “siblinglar quyi tizimi” va shu kabilar. Olimlar tomonidan olib borilgan izlanishlar faqatgina sibling oʻrtasidagi munosabatlarning oʻzi emas, balki sibling pozitsiyasi (yagona bola, katta (toʻngʻich), oʻrta, kichik) inson shaxsiyatining rivojlanishiga qanday taʼsir qilishini oʻrganish edi. A.Adler, F.Galton, A.Anastazi va boshqalar oʻz-oʻzini anglash xususiyatlarini, ijtimoiy yutuqlarni, intellektual darajani, kommunikativ kompetentsiyani, har bir bogʻlanish pozitsiyasi uchun ogʻish xavfini tasvirlab berishdi. Alfred Adler F.Galtonning gʻoyalarini rivojlantirishda, quyidagi maxsus psixologik xususiyatlar mavjudligini taklif qildi. Oilada farzandlarning tugʻilish tartibi boʻyicha oʻziga xos xususiyatlari quyidagilardan iborat: Eng katta farzand. Birinchi farzandning tugʻilishi muhim, jonli va hissiy jihatdan muhim voqeadir. Bu davrda ota-onalar koʻpincha hamma narsani “boʻlishi kerak”

tushunchasi kabi qabul qilishadi va ular shu paytgacha toʻplangan tajribalaridan “bu qanday boʻlishi kerakligi”ni, qanday amalga oshirilishini bilishadi. Birinchi tugʻilgan chaqaloq hayotining dastlabki davrida barcha ota-onalarning eʼtibori unga tegishli boʻladi. Ota-onaning faqat unga qaratilgan mehr va gʻamxoʻrligidan bahramand boʻlgan birinchi farzand borliqning xavfsizligi va osoyishtaligini his qiladi. Keyin uning hayotida oʻzgarish sodir boʻladi – yaʼni ikkinchi farzand paydo boʻladi.

**Muhokama (Обсуждение/Discussion).** Oilada yashash va hayot tajribasi, munosabatlar, ota-onalarning munosabatlari va qadriyatlarining xususiyatlari – bularning barchasi keyingi bolalarning tugʻilishi natijasida oʻzgaradi va bolaning dunyoqarashini ham oʻzgartiradi. Keyingi bola paydo boʻlganda, **birinchi tugʻilgan farzand** oʻrmini oʻzidan keyingilarga berishga majbur boʻladi va “taxtidan qulash”ga dosh berishiga toʻgʻri keladi. A.Adler bu tajriba natijasi bola uchun juda ogʻir boʻlishi mumkinligini taʼkidladi. U tez-tez aka-uka tugʻilishini boshdan kechirayotgan katta yoshdagi farzand uchun metafora ishlatgan – “*taxtdan tushirilgan monarx*”. Albatta, hayot kechirish davomida yoshi, jinsi, bolaning xarakteri, oilaviy xususiyatlari va boshqalarning farqi katta rol oʻynaydi. Ammo, bu “agʻdarish” tajribasi, Adlarning fikriga koʻra, hayot tarzini shakllantirishda eng muhim omillaridan biridir.

Ota-onaning eʼtiborini va kuchini qaytarishga harakat qilayotgan toʻngʻich farzand “hamma narsani qaytarish” mumkin emasligiga duch keladi. Hasad tuygʻusi, oʻziga boʻlgan eʼtibor va mehrni qaytarish uchun yaʼni “hokimiyatni qayta tiklash”ga urinishlarining muvaffaqiyatsizligi katta farzandni ota-onasi juda band, charchagan yoki uning goʻdaklik talablariga, bolalik injiqliklariga toqat qilolmaydigan darajada befarq ekanliklarini tushunishiga olib keladi. Bolaning ota-ona eʼtiborini jalb qilish uchun tajovuzkorlikdan foydalanishi esa, ota-onalarning koʻproq kuchga ega ekanligini va tajovuzkor xatti-harakatlariga jazo bilan javob berishini aniqlashga olib keladi.

Ushbu tajribani hisobga olgan holda, katta yoshdagi farzandning turmush tarzi oʻz pozitsiyasini yoʻqotishdan iborat boʻlgan ongsiz

qoʻrquvni oʻz ichiga oladi. Ammo, bu qoʻrquv koʻpincha bolalar uchun hayot qiyinchiliklarini yengishda harakatlantiruvchi kuch rolini oʻynaydi. Moslashish uchun, bu jarayon davomida, katta bola “izolyatsiyaga oʻrganadi” va yolgʻiz omon qolish va yashash uchun faol harakat strategiyasini oʻrganadi. Keyinchalik, u boshqalarning sevgisi yoki maʼqullashidan mustaqillik tuygʻusini rivojlantiradi. U bir vaqtning oʻzida oʻz maqomini, oʻrnini muhim deb tasdiqlashga muhtoj boʻlishi mumkin.

Oiladagi eng katta farzandlar juftlik yoki birodarlar guruhida kuch va yetakchilikni oladi. Kuch va yetakchilikni oʻzlashtirish turli yoʻllar bilan sodir boʻlishi mumkin. Shunday qilib, A.Adlnerning fikriga koʻra, katta yoshdagi bolalar boshqalaridan koʻra koʻproq tartibni saqlashni, anʼanalarni hurmat qilishni, kattalarni yoshi uchun hurmat qilishni, ota-onalarning umidlarini qondirishga va muvaffaqiyat yoʻlida yangi natijalarga erishishni yaxshi koʻradilar.

Katta farzandlar koʻpincha oilaviy munosabatlar va axloqiy meʼyorlarning homiysi boʻladi. Bolalikda, qoida tariqasida, eng kichigiga gʻamxoʻrlik koʻrsatiladi, gʻamxoʻrlik tajribasining hissiy-tarkibiy qismiga qarab, otalikka (onalikka) alohida munosabat shakllanadi. Koʻpincha katta yoshdagi bolalar ota-onalarning odob-axloqini, tashqi dogma (qoida)larini takrorlaydilar. Yoki oʻz munosabatlarida “katta oqsoqol” oilaviy brandingni (koʻrinishni) amalga oshiradi: u tashabbusni oʻz qoʻliga oladi va oilani, urugʻni, urugʻni shaxsan qanday koʻrishini – “oʻzini quradi”.

**NATIJARLAR (РЕЗУЛЬТАТЫ / RESULTS). Oʻrtancha farzandlar.** Marsel Rufo (aka-uka va opa-singillar: sevgi kasalligi muallifi) taʼkidlaganidek, sibling aloqalari “bolalar va ota-onalar” aloqalariga qaraganda uzoqroq. Birodar yoki opa-singil sifatida biz hatto oʻgʻil yoki qizdan ham uzoqroq turamiz. Va uzoq muddatli munosabatlar qanchalik koʻp boʻlsa, ularga taʼsir qiluvchi omillar shunchalik koʻp boʻladi. Shuning uchun, agar biz oilamizda uzoq muddatli munosabatlarni oʻrnatishni oʻrganmoqchi boʻlsak, unda aka-uka yoki opa-singillar ajoyib oʻqituvchilardir va ular bilan munosabatlarni tushunish hayot senariysini boshqarishning muhim

vositasidir. Sibling munosabatlari insonning oʻz – oʻzini tushunishiga taʼsir qilish nuqtayi nazaridan ota-onadan keyin ikkinchi oʻrinda turadi. Bu munosabatlar oʻzimizni aniqlash, ajratish va oʻzimizni uygʻotish jarayoniga yordam beradi.

Oʻrtancha farzand katta va kichik oʻrtasidagi bogʻlovchi boʻlib, koʻpincha oʻz senariysi orqali oila aʼzolarini bir-biri bilan bogʻlaydi. Kichigi va kattasi oʻrtasida u “begona orasida oʻzimizniki, oʻzimiznikilar orasida begona” kabidir. A.Adlnerning taʼkidlashicha, oʻrtancha farzandlar boshqalariga qaraganda koʻproq oʻzlarini chetlanganlar kabi his qilishadi. Oʻrtancha farzand “taxtdan tushirish”ni boshdan kechirmoqda va u kattasining masʼuliyatini oʻz zimmasiga oladi, lekin u toʻngʻichning afzalliklarini olmaydi. Oʻrtancha farzandlar kichik farzandga oʻxshab eʼtiborga muhtoj, lekin u ota-onaning eʼtiborini kichigiga qaraganda kamroq oladi. Bu farzandlarning feʼl-atvori, baribir, ular allaqachon oiladan “itarib yuborilgan” ogʻriqdan kelib chiqadi.

Toʻngʻich farzandning raqobati, kichigining oʻz ustunligini isbotlash istagi bilan aralashib, oʻrtancha bolaning oʻz muvaffaqiyatini isbotlash istagi va muvaffaqiyatga yoʻnaltirilganligini belgilaydi. U hukmronlikka erishish uchun ham bevosita, ham bilvosita usullardan foydalanadi. Kattasi bilan yetakchilik uchun, kichigi bilan ota-onaning mehri uchun kurashayotgan oʻrtancha bola alohida raqobat sharoitida oʻsadi. Bu tajriba unga darhol har qanday mojaroga koʻp qirrali qarashni oʻrgatadi va xatti-harakatlar strategiyasini tanlashni kengaytiradi. Oiladagi bu pozitsiya nafaqat uning oʻz ustunligini isbotlash istagi va intilishlari darajasini oshiradi, balki nozik manipulyatsiya qobiliyatini ham rivojlantiradi. Kichkinasidan farqli oʻlaroq, oʻrtancha farzanddagi bu qobiliyatdan “oila farovonligi” yoki “adolat uchun” foydalanishi mumkin, chunki ular shaxsan unga koʻrinadi. Manipulyatsiya qilish orqali u bir vaqtning oʻzida hissiy jihatdan ishonchli va mantiqiy asosli boʻlishi mumkin.

Ijobiy senariyda, kattaga boʻysunishni va kichiklarga gʻamxoʻrlik qilishni oʻrgatgan oʻrtancha farzand yaxshi ijtimoiylashgan, sogʻlom egoist boʻlib oʻsadi. Avvalo, uning akasi yoki opasi uning



tezligini belgilaydi – bu uni o‘zidan katta aka-opalarining rekordlarini yangilashga undaydi. Istak tufayli ikkinchi bolaning rivojlanish sur‘ati ko‘pincha katta bolanikidan yuqori bo‘ladi. Masalan, ikkinchi bola birinchisidan ertaroq gapira boshlaydi yoki yura boshlaydi, ulg‘aygan sari u o‘z aka-ukasi yoki singlisidan ko‘ra ko‘proq martaba qurishi, bilim olishi yoki samaraliroq pul topishi mumkin va hokazo.

O‘rtancha farzand yetakchilik masalalari bilan shug‘ullanib, aka-uka va opa-singillari orasida qandaydir tarzda ajralib turish uchun qiyin yo‘lni izlashi kerak. Senariy bo‘yicha o‘z rivojlanishi va harakatida u katta aka-uka kabi *progressiv taktikadan* va kichikroq kabi *spazmodik taktikadan* foydalanadi. Adler, shuningdek, o‘rtancha bola o‘z oldiga asossiz darajada yuqori maqsadlarni qo‘yishi mumkinligiga ishonch hosil qilgan, bu esa yakuniy muvaffaqiyatsizlikka uchrash ehtimolini oshiradi. Ko‘p jihatdan, uning tez sotsializatsiya qilish qobiliyati unga muvaffaqiyatsizliklarga moslashishga va ularni tabiiy tajriba sifatida qabul qilishga yordam beradi, bu uning haqiqiy qadr-qimmatini va da‘vo darajasi (shuhratparastlik) o‘rtasidagi muvozanatni saqlaydi.

Ijodiy senariyda o‘rtancha farzand hammaga sodiq qolishga harakat qilishi mumkin, tinchliksevarlik, diplomatiya va muzokaralar olib borish qobiliyatini rivojlantiradi. Bu farzand juda xushmuomala va shaxsiy munosabatlarga kelganda, u sodiqlik va halollikni namoyish etadi. Yoshlikda ham, kattalikda ham u do‘stlikni qadrlaydi. Ular zaif tomonlarni qanday topishni va kerak bo‘lganda bosim o‘tkazishni bilishadi. O‘rta yoshdagi bolalar qabul qilingan me‘yorlar va qoidalardan farq qiladigan yo‘lni tanlashlari va muloqot va faoliyatda juda ijodiy bo‘lishlari mumkin. **Kichik farzandlar.** Biz bilamizki, kichik ya‘ni kenja farzandlar oilada eng sho‘x, erkatoy, o‘z xohish va istaklarini qildiradigan bo‘lishadi va shu xususiyatlari bilan boshqa farzandlardan ajralib turishadi.

Kichik farzandlar katta yoshdagilar kabi yuqori talablarni, vazifalarni olmaydilar, lekin ayni paytda ular aka-uka, opalari orasida bo‘ysunish iyerarxiyasida turishadi, chunki oilada barcha farzandlar ota-onaga bo‘ysunishadi. Kichik farzand dunyoga kelgunga qadar, ota-onalar allaqachon

bolalarni tarbiyalashda tajribaga ega bo‘lib, o‘zlarini kamroq tashvishga soladilar, birinchi bolalariga nisbatan bir xil bosim o‘tkazmaydilar va kichiklaridan katta mas‘uliyat talab qilmaydilar. Bundan tashqari, kichik farzandlar “taxtdan tushirilgan”lik tufayli katta yoshdagi bolalar boshidan kechirgan his-tuyg‘ularni his qilmaydilar. Oilaning “chaqaloq” yoki “azizi” bo‘lib, eng kichigi nafaqat ota-onasining g‘amxo‘rli va e‘tiboriga ega bo‘lishi mumkin. Ko‘pincha u oilaning diqqat markazida bo‘ladi, ular unga ko‘proq e‘tibor berishga va har qanday ishontirishga bo‘ysunishga harakat qilishadi. Kenja farzandlardan umidlar kamroq va ularning yutuqlari uchun kamroq talablar mavjud bo‘ladi. Bunday holatlar kenja farzandlarda mas‘uliyat pasayishi va natijada zerikishni keltirib chiqaradi. Ijodkorlik va hissiylik, e‘tiborni jalb qilish va turli yo‘llar bilan manipulyatsiya qilish qobiliyati eng kichik bolaning zerikishga qarshi asosiy yo‘nalishidir.

Past darajadagi talablar bilan bir qatorda, eng kichik bola bo‘ysunuvchi rolga ega. Katta yoshdagi bolalarning imtiyozlari, yetakchilik va hokimiyatdan foydalanish uslubi o‘zining past darajalilik tuyg‘usini kuchaytirishi va kichik bolani mustaqillikdan mahrum qilishi mumkin. Bu kombinatsiya kichik yoshdagi bolalarni o‘zlarini kamroq qobiliyatli deb bilishlariga olib keladi. Agar ota-onalarning mablag‘lari cheklangan bo‘lsa, eng kichik farzandda deyarli hech narsa yo‘q va u boshqa oila a‘zolarining narsalaridan foydalanishi kerak bo‘ladi. Har bir bola uchun alohida-alohida o‘ziga xos narsalarni tanlashni ta‘minlash, shuningdek, har biri uchun alohida xonalarni ajratish uchun yetarlicha katta mablag‘ kerak. Ammo har bir oila bunga qodir emas. Shuning uchun, eng kichik farzand (ayniqsa, katta oilada) uning moddiy dunyosining chegaralarini aniqlash qiyin bo‘lganida “yetimlik effekti” rivojlanadi. Kichigi uzoq vaqt mulkka ega bo‘lmaydi yoki unga kam egalik qiladi, kattasidan olganini kiyib, o‘ynab yuradi. Shu sababli, yosh bola kattalardan kuch va qobiliyat yoki o‘ziga xos narsaga ega bo‘lish istagida ustun turishga juda moyil, ammo “meniki” degan narsani his qilish tajribasi kamroq bo‘ladi. Natijada, bunday farzandlar innovatsion, ixtirochi va ijodiy bo‘lib, o‘zlarining individual

xususiyatlarini batafsil ifoda etishga harakat qilishadi. Bu ularga o'z chegaralarini aniqlashga va yashashga yordam beradi. Ular sportda yoki musiqada g'alabalarga erishadilar, masalan, to'ng'ich farzandlar kabi bosqichma-bosqich harakat qilishdan ko'ra, asosan ijodiy yechimlar orqali yechim topishadi. Qoida tariqasida, bu farzandlarning eng shuhratparastlaridir.

Shu bilan birga, oiladagi eng kichik bolaning ikki tomonlama pozitsiyasi sog'lom ambitsiyalarni, ya'ni tabiiy ravishda o'z ustunligini isbotlash istagini behudaga aylantirishi mumkin. Buning natijasida yuzaga kelgan ozgina buzilish mas'uliyatsizlik va beparvolikka aylanadi va bu bolaning qiyin xulq-atvori va itoatsizliklarida namoyon bo'ladi. Natijada, kichikintoy oila muammolarining ijodiy tashuvchisiga aylanadi, buzg'unchilikda yangilik va ixtirochilikni namoyon qiladi.

**Siblinglarsiz pozitsiya.** Yolg'iz farzand oilaning eng kattasi ham, kichigi ham bo'lib chiqadi. Adler bu pozitsiyani o'ziga xos deb ta'kidlaydi. Ota-onasining mehr-muhabbati uchun aka-ukalari bilan raqobat yo'q, lekin bu oiladagi yagona farzandda raqobat umuman yo'q degani emas. Adlarning ta'kidlashicha, bolada aka-uka va opa-singillar yo'qligida onaning g'amxo'rligiga alohida sezgirlik paydo bo'ladi, bu esa onaning e'tibori uchun otasi bilan raqobatga olib kelishi mumkin. Yagona farzand voyaga yetgunga qadar bolalik xususiyatlarini saqlab qolishi mumkin va atrofidagi bolalarga qaraganda bir jinsdagi ota-onaning xususiyatlarini meros qilib olish ehtimoli ko'proq. Ota-onalarning diqqat markazida bo'lgan yolg'iz bola ko'pincha butun umri davomida ota-onasi bilan yaqindan bog'lanadi va mustaqillikka erishishda ko'proq qiyinchiliklarga, to'siqlarga duch keladi. Shuning uchun, A.Adlarning fikriga ko'ra, "yagona farzand turmush tarzining asosiy yo'nalishi qaramlik va egosentrizmga aylanishi mumkin".

**XULOSA (ЗАКЛЮЧЕНИЕ / CONCLUSION).** Yolg'iz farzandlarni egosentrizm inqirozlari "tutib oladi", bola har safar u kengroq jamiyatda u diqqat markazida emasligini aniqlaydi. Uning hech qachon o'z opa-singillari, gorizontaal munosabatlar

tizimidagi tengdoshlari bilan o'z pozitsiyasi uchun kurashmaganligi sababli, atrofidagi insonlar, tengdoshlari bilan munosabatlarda yuzaga keladigan qiyinchiliklar yillar davomida davom etishi mumkin. Agar, ota-onalar yoshligidanoq bolaning faol ijtimoiy hayotiga g'amxo'rlik, tashabbus ko'rsatishmagan bo'lsa, u munosabatlardagi tenglikka yetarlicha moslasha olmasligi va u boshqa bolalar bilan nizolarni hal qilishda kamroq tajribaga egalik qilishi mumkin. Shu munosabat bilan u uyda va ishda mojarolar xavfini oshiradi. Misol uchun, rahbarlik lavozimida u haddan tashqari avtoritar bo'lishi mumkin. Oilada boshqa bolalar bilan o'ynash uchun kamroq imkoniyatlarga ega bo'lgan yolg'iz farzand bolaligida allaqachon kichik kattalarga o'xshab qolishi mumkin. Masalan, u o'zini yolg'iz holda qulay his qiladi, o'zi qanday o'ynashni va ko'ngil ochishni biladi. Yuqoridagi aytilgan fikrlar bu faqatgina tashqi namoyon bo'lgan sifatlardir. Ammo, hayotimizga ta'sir qiluvchi omillarning xilma-xilligi turmush tarzimizning o'ziga xos namunasini yaratadi.

#### **Adabiyotlar ro'yxati (Использованная литература / References):**


1. Сиблинги / Попов В. А. // Сен-Жерменский мир 1679 — Социальное обеспечение. — М.: Большая российская энциклопедия, 2015. С. 138. — (Большая российская энциклопедия: [в 35 т.] / гл. ред. Ю. С. Осипов; 2004—2017, т. 30). — ISBN 978-5-85270-367-5.
2. Карабанова О.А. Психология семейных отношений и основы семейного консультирования. М.: Гардарики, 2008.
3. Алмазова О.В. Типология взаимоотношений взрослых сиблингов. Вестник Московского университета. Серия 14. Психология - 2013. - №2 - с. 134-146.
4. Руфо М. Братья и сестры, болезнь любви. Екатеринбург: У-Фактория, 2006.
5. [Сиблинги — Википедия \(wikipedia.org\)](https://ru.wikipedia.org/wiki/Сиблинги)

**INGLIZ VA O‘ZBEK TILLARIDA UY  
ANJOMLARI KOMPONENTLI PAREMALARNING  
CHOG‘ISHTIRMA TADQIQI**

*Mamatkulova Yulduzxon Ulug‘bek qizi, Termiz davlat  
universiteti magistranti*

**A CROSS-SECTIONAL STUDY OF ENGLISH  
AND UZBEK HOME APPLIANCES COMPONENT  
PARMES**

*Mamatkulova Yulduzkhon Ulugbek kizi, Graduate student  
of Termiz State University*



[https://orcid.org/  
0000-0004-0614-7013](https://orcid.org/0000-0004-0614-7013)

**e-mail:**

[Yulduzkhon@gmail.com](mailto:Yulduzkhon@gmail.com)

**СРАВНИТЕЛЬНОЕ ИССЛЕДОВАНИЕ  
ПАРЕМ КОМПОНЕНТОВ БЫТОВОЙ ТЕХНИКИ  
НА АНГЛИЙСКОМ И УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКЕ**

*Маматкулова Юлдузхан Улугбек кызы, магистрант  
Термезского государственного университета*

**Annotatsiya:** Tilshunoslikda frazeologiya sohasi uzoq tarixga ega bo‘lmagan sohalardan biri hisoblanadi. Alohida bo‘lim sifatida ajralib chiqquniga qadar uzoq yillar mobaynida leksikologiyaning tarkibida o‘rganilib kelingan. Bugungi kunga qadar frazeologiya sohasi bo‘yicha ko‘pgina tadqiqotlar qilinganligiga qaramasdan, hali ochilmagan ko‘pgina qirralarga ega. Jumladan, biri frazeologik birliklarni nutqda tayyor bo‘lmagan boshqa birliklardan farqlab ajrata olish bo‘lsa, yana bir frazeologiyaning bahsli muammolaridan biri uni tor va keng ma‘noda tushunishdir.

**Kalit so‘zlar:** paremiologiya, parema, frazeologiya, frazeologik birliklar, maqol, matal, ibora, mantiqiy umumlashma.

**Abstract:** In linguistics, the field of phraseology is considered one of the areas with no long history. It was studied as part of lexicology for many years until it was separated as a separate department. Despite the fact that a lot of research has been done in the field of phraseology, it still has many aspects that have not yet been discovered. One of them is the ability to distinguish phraseological units from other units that are not ready in speech, and one of the controversial problems of phraseology is to understand it in a narrow and broad sense.

**Key words:** paremiology, parema, phraseology, phraseological units, proverb, matal, phrase, logical generalization

**Аннотация:** В языкознании область фразеологии считается одной из областей, не имеющих многолетней истории. Её изучали в рамках лексикологии долгие годы, пока не выделили в отдельную кафедру. Несмотря на то, что в области фразеологии проведено немало исследований, она все еще имеет множество аспектов, которые до сих пор не открыты. Одна из них — умение отличать фразеологизмы от других единиц, не готовых в речи, а одна из дискуссионных проблем фразеологии — понимать ее в узком и широком смысле.

**Ключевые слова:** паремология, парема, фразеология, фразеологизмы, пословица, мата, словосочетание, логическое обобщение.

### **Kirish (Введение / Introduction).**

“Paremiologiya” so‘zi grekcha “paranomia” – hikmat, va “logos” – ta‘limot so‘zlaridan olingan bo‘lib, ma‘lum bir tildagi maqol, matal, aforizm kabi hikmatli iboralarni o‘rganuvchi tilshunoslik sohasi hisoblanadi. Ya‘ni, ma‘lum bir xalqning turmush tarzi, hayoti, kishilarning jamyatga bo‘lgan munosabatini, kuzatishlar va tajribalarga suyanish asosida chiqarilgan xulosalarni ifodalovchi ruhiy holati, etik va estetik tuyg‘ularini, ijobiy fazilatlarini o‘zida mujassamlashtirgan, avloddan avlodga og‘zaki formada ko‘chib yuruvchi, ixcham va sodda, qisqa va mazmundor mantiqiy umumlashma sifatida paydo bo‘lgan maqol, matal, aforizm kabi hikmatli iboralarni – paremalarni o‘rganuvchi tilshunoslik sohasi “Paremiologiya” deyiladi. Bu kabi birikmalarni to‘plash bilan esa, Paremiografiya sohasi shug‘ullanadi.

### **Adabiyotlar tahlili va metod (Литература и метод / Materials and methods).**

Yevropa tilshunosligida XVIII asrning boshlarida German paremiografi W.Wander Yevropa xalqlariga oid 250000 dan ortiq maqollarni o‘z ichiga olgan 5 ta kitobdan iborat paremiologik lug‘atni yaratdi. Va bu ishi bilan u zamonaviy Yevropa tilshunosligida paremiografiya sohasiga tamal toshini qo‘ydi. Biroz vaqtdan so‘ng R.C.Trench “On the Lessons of Proverbs” nomli katta hajmli Ingliz tili paremiologik lug‘atini yaratdi. Va bu asar Ingliz va American nashrlari paremiologiya sohasi bilan shug‘ullanuvchilar uchun mukammal qo‘llanma sifatida xizmat qilib kelmoqda. Bu asarda maqollarning anglatadigan ma‘nosi, kelib chiqishi, paydo bo‘lishi, nazariyasi atroflicha yoritilgan.

### **Muhokama (Обсуждение / Discussion).**

Shundan so‘ng bir necha tadqiqotchilar paremiologiya sohasiga qiziqib, maqollarni to‘plashgan, nashr qilishgan. Bularning ichida eng mashhur tadqiqotchilardan biri A.Taylor o‘zining 223 sahifadan iborat “The Proverb” asarida maqollarni atroflicha tahlil qilgan va paremiologiya sohasining qay darajada boy soha ekanligini ko‘rsatib bergan. Jumladan, asarning birinchi qismida u maqollarning kelib chiqishi, muammolari, ta‘rifi, metaforik maqollar, proverbial (maqolga oid) turlar, variantlari, xalq og‘zaki ijodiga oid maqollar, maqollar va adabiyot, boshqa tillardan kirib kelgan

maqollar, biblikal maqollar, tub maqollar va ularning muqobil variantlari haqida bo‘lsa, ikkinchi qismida esa maqollarni tarixiy, tub, o‘zlashgan, huquqiy, mahalliy, diniy, ob-havo va tibbiyotga oid, urf-odatlarini o‘zida mujassamlashtirgan iboralarni turkumlarga ajratgan. O‘zbek folklorida maqol, tabu, va topishmoq singari janrlar hikmatga yo‘g‘rilganligi, g‘oyat ixcham, siqiq, lo‘nda va obrazli ifodalanishi bilan xalq paremik ijodini tashkil qiladi. Biroq, u hanuzgacha alohida adabiy tur sifatida e‘tirof etilmay, goh xalq nasri, goh xalq poeziyasi va frazeologiyaning bir qismi sifatida ko‘rib kelinmoqda. Holbuki, maqollar xalqning necha ming yillar davomida turmush tarzida sinalib, anglangan haqiqatlar ixcham axloqiy baho sifatida umumlashtirilsa, tabularda xuddi shu axloqiy baho taqiq yo‘sinini olgan. Topishmoqlarda esa, xalqning narsa va hodisalarga oid qarashlaridan iborat haqiqat o‘sha narsa va hodisalar asliyatga xos yetakchi belgilarini epitetli ixcham iboralar shaklida aks ettiradi. Dastlabki ikkala holat axloqiy baho hikmat darajasida xalq donoligini umumlashtirsa, keyingisida fikrni harakatga solish asnosida xalqning topqirligi, sinchkovligi va kuzatuvchanligi va hozirjavobligini anglatadi. Binobarin, xalq paremiologik ijodi folklorning alohida va mustaqil turidir. Unda xalq e‘tiqodining tarixiy izlari aks etgan. Xalq paremiologik ijodi o‘ziga xos qonuniyatlar va tamoyillarga ega. Uning aynan shu xususiyatlarini folklorshunoslikning paremiologiya sohasi o‘rganadi, xalq paremiologik birliklarini to‘plash bilan paremiografiya shug‘ullanadi. Paremiologiyada yaxlit fikrni ifodalovchi eng mayda birlik “parema” deb ataladi. H.Berdiyrovning “O‘zbek tilining paremiologik lug‘ati”da keltirilishicha, Paremiologiya tildagi maqol, matal, aforizm kabi iboralarni ikki planda o‘rganadi : 1.Paremalar avloddan avlodga faqat og‘zaki holdagina o‘tib kelganligi, xalq og‘zaki ijodining mahsuli bo‘lganligi uchun adabiyotshunoslik fanining obyektidir, chunki, bu hikmatli iboralarning ko‘pchiligi she‘riy formaga o‘xshaydi va ular o‘xshatish (istiora, tashbeh, metafora), taqqoslash(anateza) parallelizm, anafora, qofiyalash, evfonik vositalar (alliteratsiya, assonans) kinoya, piching, kesatq kabi badiiy tasvir vositalari qo‘llangan bo‘ladi. 2. Paremalar so‘zlardan tuzilib,



ma'lum bir fikrni ifodalovchi gaplardan iborat bo'lgani uchun tilshunoslikning ham o'rganish obyektidir, chunki ular so'zlardan hosil bo'lishiga ko'ra oddiy gaplarga o'xshasa ham, mazmuni, strukturasi, intonatsiyasi va boshqa grammatik xususiyatlari jihatidan o'ziga xosliklarga ega.

#### **Natijalar (Результаты / Results).**

Paremalarning qachon paydo bo'lganligini aniqlash qiyin, lekin shunisi ma'lumki, ularning ko'pchiligi juda qadim zamonlarda yaratilgan va ular o'zini ijod qilgan xalq bilan yashab kelmoqda. Har qanday hikmatli ibora ham ommalashib ketmaydi, faqat jamiyatdagi ko'pchilik insonlarning orzu-umidlari, istagini, hayoti va fikrini aks ettirgan hikmatli iboralargina ommalashadi, avloddan avloda o'tadi, asrlar osha yashaydi – paremalarga aylanadi. Ma'lum bir tilni tushunish uchun o'sha tilning so'z boyligi va Grammatik qoidalarini bilishning o'zi kifoya qilmaydi. Permiakovning fikricha, boshqa bir tilni o'rganish va tushunish uchun, o'sha xalq madaniyatini o'rganish bilan bir qatorda, tildagi eng ko'p ishlatiladigan paremiologik minimumni (so'zlashuvdagi eng ko'p ishlatiladigan maqol, hikmatli so'zlarni) bilish kerak.

**Xulosa (Заключение / Conclusion).** Har bir til o'zining so'z boyligiga qarab paremiologik birliklar miqdori bir necha minglab, o'n minglab bo'lishi mumkin. Bu miqdorning ayrim qismigina doimo faol bo'ladi. Ingliz tilidagi bunday doimo faol maqollarning ro'yxatini Mieder va Litovkina tuzib chiqishgan. Ulardan ayrimlarini keltiramiz: *The apple doesn't fall from the tree; Beauty is in only skin deep.*

#### **ADABIYOTLAR RO'YXATI (ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА / REFERENCES):**

1. Kortmann B., Traugott E. C. *Phraseology and Culture in English*. Berlin, 2007. 524 p.
2. Cowie A. *Phraseology, Theory, Analysis, and Applications*. Oxford: Clarendon Press, 1998. - 130p.
3. Grzybek Peter. *Introduction to Paremiology*. – De Gruyter; Germany – 2015.
4. Karamatova K.M., Karamatov H.S. *Proverbs – Maqollar – Пословицы*. – T.: Mehnat, 2000. –398 b.
5. Кунин А.В. *Английская фразеология (теоретический курс)*. – М.: Издательство «Высшая школа», 1970. – 238 с.



## TERMIN, ATAMA VA TERMINOLOGIYA TUSHUNCHALARINING TAVSIFI

*Abdulvohidova Nafisa Serobjon qizi,  
Termiz davlat pedagogika instituti magistranti  
Qodirova Muqaddas Tog'ayevna, Termiz davlat pedagogika  
instituti dotsenti, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)*



## DESCRIPTION OF TERMS AND TERMINOLOGY CONCEPTS

*Abdulahidova Nafisa daughter of Serobjon,  
Master's student, Termiz State Pedagogical Institute  
Kadirova Muqaddas Togayevna, Termiz State Pedagogical  
Institute, associate professor, Doctor of Philosophy in philology (PhD)*

[https://orcid.org/  
0000-0003-0514-8823](https://orcid.org/0000-0003-0514-8823)

[0000-0003-0514-8823](mailto:abdulvohidovanafisa2508@gmail.com)

e-mail:

[abdulvohidovanafisa25  
08@gmail.com](mailto:abdulvohidovanafisa2508@gmail.com)

## ОПИСАНИЕ ТЕРМИНОВ И ТЕРМИНОЛОГИЧЕСКИХ ПОНЯТИЙ

*Абдулвахидова Нафиса Серобжон кызы, магистрант  
Термезского государственного педагогического института  
Кадырова Мукаддас Тогаевна, доцент Термезского  
государственного педагогического института, доктор философии  
по филологическим наукам (PhD)*

e-mail:

[mukaddaskodirova@g  
mail.com](mailto:mukaddaskodirova@gmail.com)

**Annotatsiya:** Mazkur maqola tilshunoslik sohasida keng qo'llaniladigan termin, atama va terminologiya tushunchalari tadqiqiga bag'ishlangan. Maqolada, asosan, ushbu so'zlarning ta'riflari, qanday ma'no anglatishi, ularning bir-biridan farqli jihatlarini haqida so'z boradi. Shuningdek, maqolada xorijiy va o'zbek tilshunos olimlarining bu boradagi ilmiy asoslangan fikr va qarashlari ham o'z aksini topgan. Ilm-fan sohasida salmoqli o'ringa ega bo'lgan bu kabi tushunchalarni ilmiy jihatdan o'rganish, ularni tahlil qilish va bir-biridan farqlay olish, mustaqil ilmiy tadqiqotchilar va barcha til sohiblari uchun foydali manba bo'lib xizmat qiladi.

**Kalit so'zlar:** tilshunoslik, termin, atama, terminologiya.

**Annotation:** This article is devoted to the study of terms and terminology concepts that are widely used in the field of linguistics. The article mainly talks about the definition of these words, what they mean, and their differentiative aspects. The article also reflects the scientifically based opinions and views of foreign and Uzbek linguists in this regard. The scientific study, analysis and differentiation of such concepts, which have a significant place in the field of science, serve as a useful resource for independent academic researchers and all speakers of languages.

**Key words:** linguistics, term, concept, terminology.

**Аннотация:** Данная статья посвящена изучению терминов и терминологических понятий, которые широко используются в области языкознания. В статье преимущественно говорится о определении этих слов, о том, что они означают, и об их дифференциативных аспектах. В статье также отражены научно обоснованные мнения и взгляды зарубежных и узбекских лингвистов по этому поводу. Научное изучение, анализ и дифференциация таких понятий, занимающих значительное место в сфере науки, служат полезным ресурсом для независимых академических исследователей и всех носителей языков.

**Ключевые слова:** языкознание, термин, концепция, терминология.

TAMADDUN NURI / THE LIGHT OF CIVILIZATION ISSN 2181-8258

2024-yil, 4-son (55) Ilmiy, ijtimoiy-falsafiy, madaniy-ma'rifiy, adabiy-badiiy jurnal

## **Kirish (Введение / Introduction).**

Jamiyat va til bir-biri bilan chambarchas bog'liq tushunchalardir. Chunki jamiyat taraqqiy etib borganini sayin tillar ham u bilan birgalikda rivojlanadi. O'zbek tili va tilshunosligi ham ana shunday tillar jumlasidandir. Birinchi Prezidentimiz I.A.Karimov o'zbek tiliga xalqning milliy madaniyati va o'ziga xosligini ifoda etuvchi vosita, deya bejizga ta'rif bermagan. Tilimizda mavjud bo'lgan so'z va iboralarni, atamalar va leksik boyliklarni o'rganish hamda insoniy meros sifatida ilmiy tahlilini olib borish bugungi kunda eng dolzarb masalalardan biridir. So'nggi o'n yilliklarda mamlakatlararo xalqaro aloqalarning faol darajada kengayishi respublikamizda ishlab chiqarish, fan va texnika sohalarida turli innovatsiyalarni muvaffaqiyatli amalga oshirish, shu bilan birga xorijiy hamkasblar bilan aloqada bo'lgan yangi texnologiyalarni yaratish uchun maqsadli til siyosatini olib borishni taqozo etmoqda [1,3]. Shu bois ham tilshunoslik sohasining jadal tarzda rivojlanib borayotganligi yaqqol ko'zga tashlanmoqda.

## **Adabiyotlar tahlili va metod**

**(Литература и метод / Materials and methods).** Termin deganda jamiyatimizda mavjud ma'lum bir soha doirasida uchraydigan tushunchalarni, ilmiy qarashlarni aniq va batafsil tarzda ifodalash uchun xizmat qiluvchi maxsus so'zlar yoki so'z birikmalari tushuniladi. Tilshunoslik sohasiga doir adabiyotlar, manbalar va qo'llanmalarni tahlil qiladigan bo'lsak, terminlar va terminologiyaning muammolari bir qator olimlar tomonidan atroflicha o'rganilgan hamda ular ustida jiddiy tadqiqotlar olib borilgan. Ularda keltirilgan termin tushunchasi haqidagi qarashlar turlicha, ya'ni uning ancha oldin paydo bo'lganiga qaramay, ilm-fan olamida olimlar tomonidan bir to'xtamga kelib umumiy tarzda qabul qilingan nazariyaga ega emas. Xususan, A.V.Reformatskiyning ta'kidlashicha: "Terminlar – bu o'zining aniq belgilangan sohasi doirasida uchraydigan alohida so'zlardir; shuningdek, terminlar turli xil narsa va hodisalarni nomlashda bir ma'nolilik va aniqlik kabi xususiyatlarga ega bo'lgan so'zlar va so'z birikmalari ham hisoblanadi" [5, 246]. Sohalarda uchraydigan so'zlarning barchasi ham termin hisoblanavermaydi. Ya'ni, so'zlar termin deb atalishi uchun bir qancha talablarga mos bo'lishi zarur. Ana shunday talablar D.S. Lottening izlanishlarida o'z aksini

topgan. Lotte terminlar uchun quyidagi talablar mavjudligini ta'kidlab o'tgan:

1. O'ziga xoslik;
2. Soddalik;
3. Qisqalik;
4. Motivatsiya;
5. Tizimlilik.

Ushbu keltirilgan talablar termin ushbu sohadagi boshqa mavjud atamalar bilan mos kelishini anglatadi [3,73].

"Termin" so'zi bilan bir qatorda "terminologiya" tushunchasiga ham alohida e'tibor qaratish lozim. "Terminologiya" atamasi adabiyotlarda "terminologik leksika", yoki qisqargan shaklda "terminoleksika", 1969-yildan so'ng esa "terminologiyaga kirish" (terminovedeniye), "terminologiya" deb atalib kelmoqda. Terminologiya tor ma'noda ma'lum bir sohaga oid maxsus leksika degan ma'noni anglatadi. Masalan, fizika terminologiyasi, ijtimoiy-siyosiy terminologiya, mashinasozlik terminologiyasi va hokazo. Terminologiya umumxalq tilining leksikasi negizida vujudga keladi, boyiydi va o'z navbatida, umumxalq tilining boyishi uchun xizmat qiladi. Terminologik leksika umumxalq tili leksikasining ajralmas qismi sifatida u bilan birga rivojlanadi, jamiyat va til taraqqiyotidagi barcha jarayonlarni boshdan kechiradi. Ma'lum bir soha yoki fan yuqori darajada taraqqiy etgandagina o'sha tilda maxsus terminologiya vujudga keladi. Terminologiyaning rivojlanishi, boyish yo'llari turlicha bo'ladi: 1) boshqa tillardan so'z olish; 2) yangi so'z yasash; 3) ayrim grammatik kategoriyalarning leksikalashuvi; 4) so'z birikmasining semantik bir butun holga kelib qolishi va boshqalar. Bugungi kunda o'zbek terminologiyasining boyishi, asosan, boshqa tillardan so'z olish va ichki so'z yasash hisobiga ro'y bermoqda. U yoki bu soha terminologik tizimining barqarorligini belgilovchi asosiy omil uning tartibga solinganligi va muntazamligidir.

Ushbu maqolada termin, atama va terminologiya tushunchalarining mazmun-mohiyatini batafsil yoritish maqsadida tilshunoslik sohasida qo'llaniluvchi qiyoslash, analiz va sintez kabi tadqiqot metodlaridan foydalanilgan.

## **Muhokama (Обсуждение / Discussion).**

Terminologiya deganda ko'pchilik o'quvchilar yoki

ilm-fanga endi qadam qoʻygan yosh tadqiqotchilar faqatgina turli fan sohalaridagi terminlarni oʻrgana-digan tilshunoslikning bir sohasi deb tushunishadi. Lekin, bu soʻzga ilmiy nuqtayi nazardan teran yondashadigan boʻlsak, tilshunos olimlarning bu haqidagi turlicha fikr va qarashlariga duch kelamiz.

V.P.Danilenkoning mulohazasiga koʻra, terminologiya deganda umumadabiy tilning mustaqil funksional turi, yaʼni anʼanaviy fan tili (fan, ilm yoki texnika tili) nazarda tutiladi (2; 8).

Terminlar ilm-fanning qay sohasida qoʻllanilishiga qarab maxsus nomlar bilan ataladi, masalan, tibbiyot terminlari, taʼlimga oid terminlar, harbiy terminlar, qishloq xoʻjaligi terminlari, matematik terminlar, sport terminlari, maishiy terminlar, harbiy terminlar, adabiyotshunoslikka oid terminlar, aviatsiya terminlari va boshqalar. Ularning qatorini yanada boyitish mumkin, ammo, eng avvalo, termin va uning boshqa tushunchalardan farqini bilib olish muhim sanaladi. “Termin” soʻzi oʻrnida baʼzan “atama” yoki “istiloh” kabi soʻzlar qoʻllanilish holatlariga duch kelishimiz mumkin. Ammo bu holat mutlaqo notoʻgʻri.

Termin umumxalq tiliga muayyan terminologik tizim orqali oʻtadi, binobarin, termin va umumisteʼmoldagi soʻzlar bir-birini toʻldiradigan leksik birliklardir. Sistem xarakterga egalik, oʻz terminologik maydonida bir maʼnolilikka moyillik, histuygʻuni ifodalamaslik, uslubiy betaraflik kabilar terminga xos xususiyatlar sanaladi. Atama tushunchasi esa, terminga qaraganda torroq maʼnoga ega, yaʼni u termin soʻzining hozirgi kundagi mazmun-mohiyatini toʻliq ifoda eta olmaydi. Atamalar esa, maʼlum bir atoqli nomlar va geografik joylarga nisbatan qoʻllaniladi. “Istiloh” soʻzi esa, arabcha soʻz boʻlganligi uchun kundalik hayotda yoki kitoblarda kamdan kam uchraydi, yaʼni uning qoʻllanilish doirasi ancha chegaralangan. Shuning uchun bu soʻzni tarixiy mavzulardagi matnlar, masalan, adabiyot tarixi, Sharq falsafasi va boshqa manbalarda foydalanish mumkin boʻladi. Shu sababli ham undan “termin” soʻzining oʻrnida toʻgʻridan toʻgʻri foydalanib boʻlmaydi.

Yuqorida keltirilgan fikrlarga tayanadigan boʻlsak, tilshunoslikda “terminologiya” soʻzi ikki xil maʼnoda ishlatilar ekan:

1) muayyan fan, texnika, ishlab chiqarish tarmogʻining, sanʼat, ijtimoiy faoliyat sohasi-ning tegishli tushunchalar tizimi bilan bogʻliq terminlari majmui;

2) tilshunoslikning terminlarni oʻrganuvchi boʻlimi.

#### **Xulosa (Заключение / Conclusion).**

Taʼkidlash joizki, termin, atama va terminologiya soʻzlari bir-biri bilan chambarchas bogʻliq va bir-birini toʻldirib turadigan tushunchalar hisoblanadi. Terminlar maʼlum bir fan sohasida qoʻllaniladigan maxsus soʻzlar, atamalar terminga qaraganda tor maʼnoga ega boʻladi va geografik obyektlar, atoqli nomlarga nisbatan ishlatiladi, terminologiya esa, tilshunoslikning bir sohasi sifatida tushuniladi. Bugungi kunda tilshunoslik koʻplab tarmoqlarga ega sohalardan biriga aylanmoqda. Uning qay tarmogʻi boʻlmasin, termin, atama va terminologiya tushunchalarining mazmunini toʻgʻri anglash va ularni bir-biridan ajrata bilish nafaqat har bir tilshunos, ilmiy tadqiqotchi, balki ilmiy izlanuvchilikka endi qadam qoʻygan yoshlar hamda ilm-fan olamiga qiziqish bildiradigan barcha uchun qiziq va dolzarb masala hisoblanadi.

#### **Adabiyotlar roʻyxati (Использованная литература / References):**

1. Abdulvohidova N.S., Qodirova M.T. Aviatsiyaga oid terminlarning inglizcha-oʻzbekcha lugʻati – T: 2022, 96 b.
2. Даниленко В.П. Русская терминология: опыт лингвистического описания / В.П. Даниленко. – Москва : Наука, 1977. – 248 с.
3. Лотте, Д.С. Краткие формы научно-технических терминов [Текст] / Д.С. Лотте. – М.: Изд-во Наука, 2013. – 234 с.
4. Мадвалиев А. Ўзбек терминологияси ва лексикографияси масалалари. Т.:Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2017.
5. Реформатский, А.А. Введение в языкознание [Текст] / А.А. Реформатский. – М.: Изд-во Аспент Пресс, 2016 . – 275 с.
6. Хожиев А. Термин танлаш мезони. Т: 1996.
7. <https://uz.wikipedia.org/wiki/Terminologiya>



## ISLOMIY MA'RIFAT, MADANIYAT VA MA'NAVİY QADRIYATLAR FALSAFASI

*Qodirov Muhammadjon,  
Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti "Sharq falsafasi va madaniyati" kafedrasi professor v.b., fal.f.n.*

## PHILOSOPHY OF ISLAMIC ENLIGHTENMENT, CULTURE AND SPIRITUAL VALUES

*Kadirov Muhammadjon, Tashkent State University of Oriental Studies  
Acting professor of the Department of Eastern Philosophy and Culture*

## ФИЛОСОФИЯ ИСЛАМСКОГО ПРОСВЕЩЕНИЯ, КУЛЬТУРА И ДУХОВНЫЕ ЦЕННОСТИ

*Кадилов Мухаммаджон, Ташкентский государственный университет востоковедения и.о. профессор кафедры "Восточная философия и культура"*



<https://orcid.org/0009-0001-3602-6400>

*e-mail:*  
[mqodirov057@gmail.com](mailto:mqodirov057@gmail.com)

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada islom madaniyati va ma'rifatining shakllanish bosqichidagi falsafiy g'oyalarning ta'siri muhokamaga tortilgan. Jumladan, islomiy ma'rifatga ta'sir etgan omillar va xususiyatlar ishning ko'lamiga vazifa sifatiga xizmat qilgan. Islom madaniyati va qadriyatining tadrijiy rivojlanishiga ta'sir etgan ilmiy mushohadalar yahudiy va nasoriylar manbalari misolidagi tahlillar yordamida ochiqlandi.

**Kalit so'zlar:** ma'rifat, "Ilmi Milal va Nihal", "Ilmi kalam", "Osorul boqiya", "tomizm", Mubad.

**Аннотация:** В данной статье рассматривается влияние философских идей на этапе становления исламской культуры и просвещения. В частности, факторы и характеристики, повлиявшие на исламское просвещение, служили объему работы и качеству поставленной задачи. Научные наблюдения, повлиявшие на постепенное развитие исламской культуры и ценностей, были разъяснены на примерах еврейских и христианских источников.

**Ключевые слова:** просвещение, «Илми Милал ва Нихал», «Илми калам», «Асорул Бакия», «Томизм», Мубад.

**Abstract:** This article discusses the influence of philosophical ideas at the stage of the formation of Islamic culture and enlightenment. In particular, the factors and characteristics that influenced the Islamic enlightenment served the scope of the work and the quality of the task. The scientific observations that influenced the gradual development of Islamic culture and values were clarified using the examples of Jewish and Christian sources.

**Key words:** enlightenment, "Ilmi Milal va Nihal", "Ilmi kalam", "Asorul Baqiya", "Thomism", Mubad.

**Kirish (Введение / Introduction).** Islomiy ma'rifat tadrijiy ravishda shakllangandan keyin, din musulmonlar nigohida juda katta ahamiyat kasb etib, turmushning barcha sohalarini yoritib beruvchi asosiy omilga aylandi. Shuning uchun ham maishiy turmushning barcha jihatlarini tadqiq qiluvchilar turli

millat va elatlarning aqida va mazhablarini o'rganishga, ulardagi umumiy jihatlarni topishga katta e'tibor bilan kirishdilar. Islom olami sarhadlarining kengayishi tufayli ushbu hududda yashovchi boshqa dinga mansub kishilarning fuqarolik maqomida bo'lishi, ularning ham ma'naviy dunyosini o'rganish orqali

umumbashariy e'tiqodga erishish vazifasini ko'ndalang qo'ydi. Natijada millatlar va ularning diniy qarashlari haqidagi ta'limot bo'lgan "Ilmi Milal va Nihal" va islom ilohiyoti bo'lgan "Ilmi kalom" vujudga keldi. Bu davrgacha turli millat va elatlar-ning dinlari va mazhablari haqida ma'lumotlar to'plagan yunon tadqiqotchilarining ishlari ilmiy tarzda tartibga solingan va nazariy jihatdan ishlangan asarlar bo'lmasdan, balki dunyo ajoyibotlariga qiziquvchi sayyohlarning yozishmalaridan iborat edi.

**Adabiyotlar tahlili va metod (Литература и метод / Materials and methods).** Turli xalqlarning din va mazhablarini muttasil ravishda ilmiy asosda o'rganishni musulmon olimlarga yo'lga qo'ydilar. Buning uchun esa, Abbosiy xalifalar hukmronligi boshlangan davrdagi barcha madaniy merosni o'rganishga bo'lgan rag'bat tufayli vujudga kelgan qulay sharoit, ayniqsa, xalifa Ma'mun (813-833) va Bog'doddagi mo'taziliylar oqimining faol faoliyati lozim edi. Chunki, bundan oldingi Ummaviy xalifalar hukmronligi davrida diniy taassub tufayli Juad ibn Dirham va G'ilon Damashqiy kabilarni erkin fikr yuritishga jur'at etishgani uchun, bid'at aqidalarni targ'ib qilishda ayblab, ta'qib etishgan edi.

**Muhokama (Обсуждение/Discussion).** Ma'mun davrida bunday holat barham topib, saroyda ilmiy bahslar yuritiladigan ma'lum soatlar belgilangan edi. Masalan, haftaning har seshanba kunlari mashhur olimlar va fiqh ilmining tadqiqotchilari xalifa huzurida bahs yuritishar edi. Taomilga ko'ra, ular bahsga kirishishdan oldin maxsus hujrada ziyofat yeb, qo'llarini yuvib, so'ngra erkin vaziyatda suhbat boshlashar edi. Ilmiy munozara xalifa huzurida yarim kechagacha davom etar edi. Munozara oxirida yana taom tortilar, so'ngra tarqalishar edi. Bunday majlislarda boshqa dindagi xalqlarning vakillari ham albatta ishtirok etar edilar. Masalan, majusiy dindagilarning peshvosi Ozarfaranbag', Moniy mazhabdagilarning ruhoniysi Yazdonbaxt doim ishtirok etar edilar. Hatto majusiylik dinidan chiqqan, hech qanday mazhabga e'tiqod qilmaydigan, ya'ni dinsizlar vakili ham qatnashar edi. Bundaylar Ma'mun huzurida hech tortinmay, zardushtiylik dinining peshvosi bo'lgan katta Mubad bilan bahs yuritar edilar. Ma'mun bunday bahslarni haqiqatni topishga boshlovchi eng asosiy vosita, deb bilar edi.

Ummaviy xalifa Hishomga qarshi o'laroq uning fikricha, fikriy g'alaba qudrat asosida emas, balki hujjat va dalil asosida bo'lmog'i lozim. Chunki, qudrat asosida erishilgan g'alaba, uning zavoli bilan xotima topadi. Ammo, hujjat va dalil asosida erishilgan narsa, hech vaqt zavol topmaydi. Shuning uchun ham bunday bahslarga gohida, hatto Imom Ali ibn Muso Ar-Rizo kabi ulug'lar ham ishtirok etib, sana-viya (dualizm) va nasoro (xristianlik) mazhabi peshvolari bilan munozara yuritishi tabiiy hisoblanar va bunday xilma-xil e'tiqodiy bahslar barcha musulmonlarning dunyoqarash masalalariga ko'proq e'tibor berishga undar edi. Abbosiy xalifa Muta-vakkil hukmronligi davrida bunday erkin bahslarga chek qo'yildi. Keyingi xalifa va sultonlar ham ba'zi istisnoli holatlardan tashqari, bunday majlislariga yo'l qo'ymadilar, erkin munozara yuritish an'anasi olimlar o'rtasida saqlanib qoldi. Kalom ilmi bu yo'lni davom ettirdi.

**Natijalar (Результаты / Results).** Bunday an'analar tufayli musulmonlar ilk islom davridayoq Tavrot va Injil kitoblari bilan tanishdilar. Olimlarning ta'kidlashlaricha, arab tilida yozilgan Tavrot mavjud bo'lib, Qur'onda qayd etilgan Tavrot unga ishoradir. Ammo hozirgi davrda yahudiylar ixtiyorida bo'lgan Tavrot undan farq qiladi. Nima bo'lganda ham, musulmonlar Tavrot bilan tanish bo'lganlar. Ibn Qutayba o'zining "Kitob ul maorif" asarida qayd etishicha, "ba'zi hadislarni Tavrotda keltirilgan mazmunlar bilan solishtirib chiqqan" [1].

Ali ibn Tabariy ham o'zining "Kitob ad-din va davlat" asarida Tavrotta aytilgan va Qur'onda ham bor bo'lgan gaplarni qayd etib o'tgan. U islomga yaqinda kirgan bo'lganligidan ilgari yahudiylarning kitoblarini ko'p o'qib yurgan va ularning mazmunidan yaxshi xabardor bo'lgan.

Ibn Nadim va Mas'udiy kabi mashhur tarixchilar ham Tavrotning arabcha tarjimai mavjudligini ta'kidlab o'tishgan.

Injil kitobi bilan ham musulmonlar yaxshi tanish bo'lishgan. Hatto milodiy to'qqizinchi asrda ham Injilning suryoniy tildan arab tiliga qilingan tarjimai mavjud bo'lgan. Islom tarixchilaridan Yaqubiy Matto, Murqis, Luqo va Yuhannolar tomonidan yozilgan Injillarning mazmunini, xulosasini berib, ularning bir-biridan tafovutlari qayerda ekanligini solishtirib chiqqan. Mas'udiy ham

bunday masalalarga katta e'tibor berib, to'rt xil tafsirdagi Injillar mazmuniga va xavoriylarning faoliyatlari haqida ma'lumotlar beradi va hatto Tomas Akvinskiyning ham nomini keltiradi. Abu Rayhon Beruniyning bu haqdagi ma'lumotlari Mas'udiyning ham ko'proq va mufassalroqdir. U o'zining "Osor ul-boqiya" asarida qayd etganidek, Injillarning mazmuni turlicha bo'lib, ularga tavsiflar ham yozilgan. Bu tavsiflarning ba'zilari nasoriylar qo'lidagi Injillar mazmuniga mos kelmasligini ham ko'rsatib o'tgan. Tarixchi Bal'amiyning Tabariydan qilgan tarjima kitobida ham Iso va Injillar haqida gap yuritiladi, ammo ular muallifning matnida yo'q edi.

Abu Homid Muhammad G'azzoliy va Ibn Taymiya (XIV asr) ham Injillar haqida to'liq ma'lumotlarga ega edilar. Shuning uchun ham hukamolar va sufiylar tomonidan aytilgan qissalarda ham Injillar mazmunining bir-biridan tafovutlari haqida gap boradi. Andalusiyalik Ibn Hazm Tavrotni diqqat bilan o'qib chiqqan edi. U o'zining "Alfasl" kitobida Tavrot mazmunida 57 e'tirozli joy borligini aniqlagan edi. Yahudiylarning ba'zilari tomonidan aytilgan "bu nusxa buzilgan" yoki "haqiqiy emas" degan e'tirozlariga hujjatli dalillar keltirar edilar. Masalan, Yaqubning shariati Musoning shariatidan keskin farq qilishini ko'rsatish uchun ikki opa-singil bo'lgan Liyo va Rohilni bir kishiga erga berilganligini eslatib o'tar edilar, holbuki bunday ish Muso shariatida harom sanalar edi.

Yahudiylarning ulamolaridan biri bo'lgan Yaqub Alqirqisoniy (X asr) o'zining "Al-Anvar val maroqib" kitobining boblaridan birida musulmonlar aqidasi qarshi chiqib, islom tarafidan Tavrotda aytilgan gaplar bekor qilinganligini rad etib, Tavrotda ko'rsatilganidek, hatto oxirgi payg'ambar ham yahudiylardan bo'lishligini aytadi. Abul Baqo Ja'fariy o'zining "Taxjil min xarful Injil" ("Injilda aytilganlardan xijolat chekish") risolasida Injillarning bir-biridan keskin farq qiluvchi joylariga mufassal to'xtaydi va dalillar vositasida ularning asl nusxadan ko'ra buzilganligini qayd etadi. Xalifa Ma'mun davrida (813-833) Abdullo ibn Ismoil Hoshimiy Abdullo Masih ibn Ishoq Kindiyga atab bir risola yozib, unda Injillardagi qarama-qarshiliklarni ko'rsatib, uni islomga da'vat etdi. Ammo u ham o'z navbatida unga atab bir risola yozib, uning dalillarini rad etib, uni Iso oyiniga, ya'ni xristianlikka da'vat

qildi. Ali ibn Tabariy ham Tavrotda Muhammad alayhissalomning paygambar sifatida zuhur qilishlariga bashoratlar borligini isbot qilishga harakat qildi. Jumladan, "Ash'ayyo" kitobidan parchalar keltirib, unda aytilgan bir eshak va bir tuya mingan shaxslar zikr qilinganligi, "arablardan oxirgi payg'ambar chiqishligiga ishoradir" deb, xulosa qiladi. Nasoriy dinidagilar ham Iso ilohiyotini Qur'ondan keltirib chiqarishga behuda juda ko'p urindilar. O'n ikkinchi asrgacha Ovrupoda hech qanday lotin tiliga tarjima qilingan Qu'ron yo'q edi. O'n uchinchi asrda Bartelomey Edesseyning qayd etishicha, faqat bir musulmon sharhlovchisiga nisbatan asossiz tuhmat qilingan, u ham, azbaroyi bilmaslikdan, ya'ni johillik tufayli yuz bergan.

**Xulosa (Заключение/Conclusion).** G'arbiy Ovrupoda, hatto Vizantiyada islomning o'rni va ta'sirini siniq yoki zanglagan oyna orqaligina tasavvur qilingan davrlarda, musulmonlar Tavrot va Injildan to'la xabardor bo'lib, payg'ambarlik risolati aqlga muvofiq ishlardan birligini ta'kidlab, uni rad etuvchilarning e'tirozlariga hushyorlik bilan, keng fikr yuritish natijasida hosil etilgan dalillar bilan javob berar edilar. Hatto Ovruponi inkvizitsiyaning o'ti chulg'ab olgan vaqtlarda ham, islom muhitida paydo bo'lgan dinga qarshi bo'lgan aqidalar mavjud bo'lsa ham, ularga nisbatan kurash bunchalik shafqatsizlik bilan olib borilmadi va omma imoniga katta zarar yetkaza olmadi va islom davlatlarini zaiflashtira olmadi. Buning ustiga islom hududidagi aqidaviy qarama-qarshilik faqat yahudiylar bilan nasoriylargagina qarshi bo'lmay, ma'jusiylar bilan ham olishishga to'g'ri keldi.

#### **Adabiyotlar (Литература / References):**

1. Doktr Abdul Xusayn Zarinkub. "Kornomaye islom", Tehron, 1369 yil, 92 c.
2. Shahid mutafakkir ustod Murtazo Mutahariy. Harakat va zamon islom falsafasida. 3-nashr. "Hikmat" nashriyoti. Tehron. hijriy-1998 yil. 19-bet (fors tilida).
3. Qodirov, M. (2021). Pifagor va Aflotunning harakat va zamon ta'rifi haqida Ibn Sino e'tiroflari. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 1(4), 16-19.
4. Хайруллаев М., Захидов А. Малоизученные страницы наследия ибн Сины // Вопросы философии. - 1980. - № 7.
5. Renan "Dialogues fragments philosophiques" – "Falsafiy dialoglar va parchalar". F., 1876, r. VIII-IX.



## ISMLARNING IJTIMOIIY VA ETNIK KONTEKSTLARDA TUTGAN O'RNI VA XUSUSIYATLARI

*Abdurazzoqova Sabohat Abdurazzoq qizi, SamDCHTI  
mustaqil tadqiqotchisi*

## THE ROLE AND CHARACTERISTICS OF NAMES IN SOCIAL AND ETHNIC CONTEXTS

*Abdurazzoqova Sabohat Abdurazzoq qizi, Independent  
researcher of Samarkand State Institute of Foreign Languages*

## РОЛЬ И ХАРАКТЕРИСТИКА ИМЕН В СОЦИАЛЬНОМ И ЭТНИЧЕСКОМ КОНТЕКСТАХ

*Абдураззокова Сабохат Абдураззоқ кызы, независимый  
исследователь СамГИИЯ*



[https://orcid.org/  
0009-0008-6984-1082](https://orcid.org/0009-0008-6984-1082)

*e-mail:*  
[sabohat2707@gmail.com](mailto:sabohat2707@gmail.com)

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada ismlar va ularning tilshunoslikdagi ahamiyati tadqiqiga bag'ishlangan mulohazalar keltirilgan, ularning ijtimoiy va etnik kontekstlarda tutgan o'rni va xususiyatlari ham aniqlab berilgan.

**Kalit so'zlar:** ismlar, ijtimoiy-onomastik yondashuv, antroponim, antroponomiya, onomastika, til, madaniyat, tilshunoslik, otlar, etimologiya.

**Abstract:** This article presents considerations regarding the study of names and their meanings in linguistics, as well as explains their role and characteristics in social and ethnic contexts.

**Keywords:** nouns, socio-onomastic approach, anthroponym, anthroponomy, onomastics, language, culture, linguistics, nouns, etymology.

**Аннотация:** В этой статье представлены соображения, касающиеся изучения имен и их значения в лингвистике, а также разъясняются их роль и характеристики в социальном и этническом контекстах.

**Ключевые слова:** имена существительные, социально-ономастический подход, антропоним, антропонимия, ономастика, язык, культура, Лингвистика, существительные, этимология.

**KIRISH.** Hammamizga ma'lumki, jamiyat doimiy o'zgarishda. Yillar, asrlar, katta davrlar o'z o'rnini keyingilariga bo'shatib berar ekan, har bir davrda jamiyat o'ziga xos rivojlanish, taraqqiyotni boshidan o'tkazadi. Agar biz jamiyatning dinamik tabiati haqida fikr yuritsak, bu hodisa uning ijtimoiy rivojlanishida namoyon bo'lishini anglab yetamiz, bu jarayon har xil tezlikda va turli xil yo'nalishlarda sodir bo'ladi. Bunday o'zgarishlarni kuzatish uchun katta salohiyatga ega bo'lgan soha – shaxslarni nomlash sohasi hisoblanadi, bu fikr isbotini olim Van

Langendonkning quyidagi gaplarida ko'rishimiz mumkin: "Shaxsiy ismlarga oid kashfiyotlar-u tuzilmalar haqiqatan ham jamiyatdagi yangi o'zgarishlarni juda tez aks ettiradi"[25]. Bu sohada izlanishda bo'lgan olimlarimizdan Kostanski va Puzey ismlarda shunchaki nom berish vazifasidan tashqari ko'proq funksiyalar borligini quyidagi fikrlari bilan ifodalaydilar: "Ular shaxsiyatning chuqurroq turlarini aks ettiradi, bog'lanish obyekti sifatida harakat qiladi va jamiyatning ijtimoiy qoidalari va ijtimoiy urf-odatlarini aks ettiradi"[14]. Bir qarashda, ismlar faqat nomlash, shaxsni



tasdiqlash vazifasini bajaradi va bu jamiyatimiz a'zolari uchun tanish umumiy tushuncha hisoblanadi. Biz qachonki ismlarni o'rganish jarayonida ularni chuqurroq tahlil qilishni boshlar ekanmiz, ismlar o'zlarining shaxsni tasdiqlash rolidan tashqari, madaniy, interaktiv va ijtimoiy yo'naltirilgan funksiyalarni bajarishini tushunib yetamiz. Chunki, har bir davrda qo'yilgan ismlarda ko'plab ma'no yashiringan bo'lib, ular orqali o'sha zamon haqida, shaxslarning xarakterlari haqida tushunchalarga ega bo'lamiz. "Ismlar shunday ideal vositaki, ular yordamida jamiyatdagi o'zgarishlarni o'rganish mumkin, chunki jamiyatdagi ijtimoiy o'zgarishlar nomlash tuzilishi va amaliyotiga ta'sir qilishi mumkin" [25]. Ushbu tadqiqot nomlashdagi o'zgarishlar jamiyatdagi o'zgarish hisobiga yuz beradimi yoki yo'qligini hamda ismdagi o'zgarishning dastlabki bosqichlari jamiyatnikiga o'xshash bo'lish yoki bo'lmasligini ko'rib chiqadi.

**ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA.** Ism – bu odamlar bir-birlarini tanib olish, tasdiqlash va eslash uchun foydalanadigan yorliq sifatida izohlanadi. Bu insonga o'ziga xoslik tuyg'usini beruvchi hamda atrofda insonlardan farqlanish tuyg'usini ham beruvchi noyob bir nom, desak adashmaymiz. Chunki har bir inson jamoada ismi orqali taniladi hamda o'sha ismi orqali farqlanadi. Ismlar, shuningdek, ma'lum bir shaxsning kelib chiqishi va uning jamiyatdagi o'rnini ko'rsatadi. Har bir ism ma'lum bir sababga ko'ra paydo bo'ladi. Har bir ismning o'z tarixi, tarjimai holi va geografiyasi bor. Ismlar lingvistik jihatdan realistik yoki uydirma bo'lishi mumkin. Til birligi sifatida ismlar shaxslarga nom berish uchun qo'llaniladi va shaxslarni bir-biridan ajratadi. Masalan, Odil (O'zbekcha ism) ismini eshitganimizda, uni semantik jihatdan tahlil qilganimizda, oldimizda adolatli insonni ko'ramiz. Bu nomga ijobiy munosabatni bildiradi. Lekin, Ofat ismi eshitilganda, bir yomon fazilatga ega ayol tushuniladi. Agar mana shu salbiy ma'noga ega Ofat ismini stilistik jihatdan tahlil qilsak, bu ism asar ichida ijobiy obraz sifatida ishlatilishi mumkin va bunday nomlashda o'sha ma'lum davr yoki vaqtdagi nimadir sabab bo'lgan bo'lishi mumkin. Ismlar, shuningdek, millatchilik, qadimiylilik va

yangiliklarga ega bo'ladi. Inson nomlari bilan shug'ullanadigan antroponomiya bugungi kunda alohida ahamiyatga ega. Har bir inson ism nimani anglatishi, qaysi tilga tegishli ekanligi va boshqalar haqida ko'p ma'lumotlarni bilishni xohlaydi. Shu sababli, ushbu sohani keng targ'ib qilish hamma uchun zaruratga aylandi. Ba'zida psixologik holat ta'sirida hosil bo'lgan ismlar o'zimizni, boshqa odamlarni va atrofimizni qanday qabul qilishimizga ta'sir qiladi va bu ijtimoiy amaliyotlarga ta'sir qiladi [14]. Ismlarga nisbatan ikkita nuqtayi nazar mavjud. Birinchi, an'anaviy nuqtayi nazar, ismning ma'nosi yo'q va hech qanday lingvistik sinfga tegishli emas, degan taxminga asoslanadi [18].

Grammatik jihatdan ismlarni otlar sifatida o'rganamiz va bunga oid turlicha qarashlar mavjud. Misol uchun, olim Andersonning fikriga ko'ra, ismlar ot emas, balki olmoshlar va determinantlarga yaqinroq hisoblanadi [4] va muloqotda juda zarur ashyo demakdir [20]. Ikkinchi fikr esa, zamonaviyroq nuqtayi nazar, ismlarni otlar deb biladi [23] ular "tilning haqiqiy so'zlari" [3] va tilning "ajralmas qismi" deb qaraladi [23]. Darhaqiqat, ismlar hayotimizda juda muhim rol o'ynaydi. Insonlar bir-biriga murojaat qilishganda, bir-biri bilan turli xil maqsadlarda suhbat qurganda uning tilda tutgan beqiyos o'rnini ko'rishimiz mumkin. Ushbu nuqtayi nazarga ko'ra, ismlar jamiyatda yanada dinamik rol o'ynaydi, bu tadqiqotlar sotsionomastikaga katta hissa qo'shadi. Shunday qilib, ushbu tadqiqot so'nggi nuqtayi nazarni qabul qildi.

Har bir insonning ismi ma'lum bir ramziy ma'noga egadir va shu sababdan ham ota-onalar farzandlariga ism tanlashda uning ramziy ma'nosiga e'tibor beradilar. Buning isbotini Nystromning quyidagi fikrlarida ko'rishimiz mumkin: "Ismlar birinchi navbatda ramzlar sifatida qaraladi va ular bilan bog'liq har qanday masala juda osonlik bilan keskin siyosiy muammolarga aylanishi mumkin [21]. Bu ota-onalar tomonidan tanlangan ismlarga ham, odatda meros bo'lib o'tadigan familiyalarga ham tegishli. Ismlar insondagi o'ziga xoslik bilan chambarchas bog'liq. Ismlar turli xil kontekstlarda turli funksiyalarni bajaradi: shaxsiyat va boshqa madaniy, ijtimoiy va iqtisodiy funksiyalar [14].

Ismlar, shuningdek, ma'lum bir shaxsning nasabini va uning jamiyatdagi o'rnini ko'rsatadi. Har bir ism ma'lum bir sababga ko'ra paydo bo'ladi. Har bir ismning o'ziga xos tarixi, tarjimai holi va geografiyasi mavjud. Ismlar lingvistik jihatdan realistik yoki uydirma bo'lishi mumkin. Til birligi sifatida ular shaxslarni nomlash uchun xizmat qiladi va insonlarni bir-biridan ajratadilar. Bugungi kunda inson nomlari bilan shug'ullanadigan antroponomiya sohasi alohida ahamiyatga ega. Shuning uchun bu sohani keng targ'ib qilish hamma uchun zaruratga aylandi. Ba'zida psixologik holat ta'sirida shakllangan ismlar ham inson nomiga kiritiladi. Tug'ilishdan sog'lig'i yaxshi bo'lmagan va o'lim xavfi bo'lgan bolalarda Umriya, O'lmas (o'zbek ismi) ismlari tanlanadi. Bizning millatda yosh bolalarga shunday nom berish ularning umrini uzaytirish va sog'lig'ini tiklashni anglatadi. Norbibi, Anora (o'zbek ismi) ismlari tug'ilgan kundan boshlab tanasida dog' bo'lgan bolalarga beriladi. Bolaning tanasidagi belgi uning ismi bilan tug'ilgan deb ishoniladi. Ko'rinib turibdiki, milliy va ma'naviy nomlashning etno-psixologik holati tufayli oilada, xalq hayotida azaldan an'ana bo'lib kelgan nomlash tamoyillari noyob bo'lib, bolalar salomatligiga ma'lum darajada ta'sir ko'rsatadi. Boshqa xalqlarda ham shunga o'xshash misollar qabilalar va etnik guruhlarda kuzatilgan va ilmiy manbalarda ham qayd etilgan.

**NATIJA LAR.** Ismlar sohasida tadqiqot olib borgan olimlar Dunbar, Lindsay va Dempseyning fikrlariga ko'ra, ota-onalar tomonidan tanlangan ismlar bolalari uchun kutayotgan omadning ko'rinishlarini namoyon etadi [23]. Bu zamonning "moda sikli"ga hissa qo'shadi, bu yerda yuqori qatlam vakillari doirasidagi ota-onalar farzandlari uchun unchalik taniqli bo'lmagan va taniqli ismlar tanlashni afzal ko'rishadi, keyinchalik esa, o'sha ismlar quyi sinf doirasidagi oilalar tomonidan tanlanadi [15]. Xuddi shunday, ismlar "kelajakdagi hayot trayektoriyalarini ma'lum kasblar bilan ramziy aloqasi orqali belgilaydi" deb ishoniladi yoki aksincha, past darajadagi mashg'ulotlar bilan ifodalaydi". Ularning ma'lumotlariga ko'ra, ota-onalar "ijobiy ramziy kapital sifatida harakat qiladigan ismlar tanlaydilar" [15].

Yevropa mamlakatlarida ko'plab oliy ma'lumotli odamlar an'anaviy ismlarni afzal ko'rishadi, bilim darajasi past bo'lgan odamlar esa, ommabop va trendda bo'lgan nomlarni tanlaydilar [12]. Olimlar Liberson va Bellning tadqiqotlariga ko'ra, ismlarni tanlash AQSh davlatida birmuncha farq qiladi, bu yerda oliy ma'lumotli onalar qizlari uchun an'anaviy ismlarni tanlashni emas, balki ularga chiroy bag'ishlaydigan ismlarni berishni afzal ko'rishadi [16]. O'rta sinf doirasidagi avstraliyalik ota-onalar qizlarga qaraganda o'g'il bolalarga ko'proq an'anaviy ismlar berishadi [15]. Olimlar Barri va Xarper Amerikada 1990, 1995 va 2000-yillarda qora va oq tanli oilalarda tug'ilgan o'g'il va qizlarning ismlarini o'rganish davomida vaqt o'tishi bilan "tez o'sib borayotgan xilma-xillikni" topdilar [23].

"Onomastika" atamasining o'zi birinchi marta 1886-yilda xorvat tilshunosi Maretich tomonidan taklif etilgan, ammo dastlab u faqat bitta onomastik intizomga – antroponomikaga tegishli edi. Yigirmanchi asrning ikkinchi yarmida onomastik tadqiqotlarda yangi yo'nalish shakllandi. Uning asosiy vazifalari badiiy matn asosida o'rganilgan atoqli otlarning funksional xususiyatlarini tavsiflash edi. U onomastika va stilistika, shuningdek, poetika, matn lingvistikasi, lingvistik semantika va semiotika chorrahasida paydo bo'lgan. Shu bilan birga, Oniks poetikasi bilan shug'ullanadigan fanni belgilash uchun "Onomapoetika" (Magazanyk) yoki "onomatopeya" (Podolskaya) atamaları yaratilish tamoyillari, badiiy matnda ishlaydigan stilistik-ekspressiv vositalar, o'quvchini idrok etish, muallifning dunyoqarashi va estetik qadriyatlarini o'rganish uchun taklif qilindi [13].

**MUHOKAMA.** Olimlar Kostanskiy va Puzeylarning fikrlariga ko'ra, nom berish, shuningdek, siyosiy harakat sifatida qaraladi [14] va siyosat bilan jamiyat bir-biri bilan uzviy bog'liqlik, ijtimoiy onomastika sohasi nomlashning jamiyatdagi o'zgarishlarni qanday aks ettirishi mumkinligi haqida tushuncha berishga qodir. Ijtimoiy-onomastikaning ikkita asosiy yo'nalishi bor bo'lib, birinchisi "(a) ijtimoiy kelib chiqishi va turli xil ism variantlaridan turli vaziyatlarda va kontekstlarda foydalanishni o'rganish, ikkinchisi

esa, (b) ism bergan, kim ism qo‘ygan va kim ism ishlatganligini hisobga olish” [23]. Ijtimoiy-onomastika an’anaviy onomastik tadqiqotlarga asoslangan bo‘lsa-da, u muloqot sohasida boshqacha nuqtayi nazarlardan, xususan, nomlash muammolari, ya’ni sotsiolingvistik va pragmatik qarashlar bilan bog‘liq nazariyalardan foydalanadi [3]. Unda ismlar va nomlash tizimlarining madaniy, lingvistik, ijtimoiy va vaziyatli ko‘rinishlari ko‘rib chiqiladi. Olim Ayniala ta’kidlashicha, ijtimoiy-onomastika odamlarning ismlari va ismlarga bo‘lgan his-tuyg‘ulari, g‘oyalari va munosabatini ochib beradi [2]. Ijtimoiy-onomastika sohasidagi ishlarning aksariyati toponimlar bo‘yicha olib borilgan, shuningdek, taxalluslar va o‘z-o‘zini nomlashdan foydalanish bo‘yicha esa, asta-sekin tadqiqotlar rivojlangan [10]. Shaxsiy ismlarni ijtimoiy-onomastik o‘rganish katta e’tiborni tortdi. Ijtimoiy qadriyatlar ism tanlashda muhim omil hisoblanadi, shuning uchun ism bergan shaxsga uning ona tili, diniy e’tiqodi, milliy kelib chiqishi va ijtimoiy mavqei kabi omillar ta’sir qiladi [3].

Onomastika sohasida ilmiy izlanish olib borgan Algeo bu soha haqida quyidagicha fikr bildiradi: “Onomastika – bu tilshunoslikning bir bo‘limi hisoblanib, ismlarning o‘ziga xos shakllari va ishlatilishi bilan shug‘ullanadi” [5]. Boshqa tilshunoslarning fikriga ko‘ra, “umuman olganda, bu fanlararo soha, lekin u asosan etimologik [14] va tipologik masalalar bilan shug‘ullanadi [3]. An’anaga ko‘ra, onomastik tadqiqotlar antroponimlarga (shaxsiy ismlarni o‘rganish) va toponimlarga (geografik nomlarni o‘rganish) qaratilgan [1]. Shaxsiy ismlar ismlar, familiyalar va otasining ismlarini o‘z ichiga oladi (taxalluslar kabi norasmiy ismlar) va joy nomlari esa tabiat nomlari (dengiz) va madaniy nomlar (yo‘l)ni o‘z ichiga oladi [23]. Onomastika bo‘yicha tadqiqotlar hajmining o‘sishi bilan ushbu tilshunoslik sohasi adabiyotda allaqachon munosib o‘rin egallagan. U boshqa sohalar bilan birlashib, onomastika deb hisoblanadigan ijtimoiy-onomastika sohasini sotsiolingvistik yo‘nalishi orqali yaratdi [2]. Olim Ayniala [2] ijtimoiy-onomastikani “Odamlarning e’tiqodlarini o‘rganish va ismlarni idrok etish va ulardan foydalanish” deb ta’rifladi (106-bet). Ushbu yondashuv ismlarni jamiyatning ajralmas qismi

degan qarashga asoslanadi va shuning uchun mustaqil ravishda ko‘rib chiqilishi mumkin emas degan qarashni olim Bramvel ta’kidladi [7].

**XULOSA.** Ismlar shunchaki konvertatsiya qilishdan ko‘proq narsani anglatadi va ular qanday foydalanishiga ko‘ra jamiyatning keng qamrovli jihatlarini aks ettiradi. Ijtimoiy-onomastik tadqiqot sifatida ushbu tadqiqot nomlarning o‘zgarishiga olib kelgan ijtimoiy-siyosiy o‘zgarishlarni o‘rganib chiqdi. Tadqiqotning maqsadi mikro va makro darajadagi nomlarni o‘zgartirishning dastlabki tendensiyalarini o‘rganish. Demak, ismlar har bir jamiyatning madaniyati, urf-odatlarini, qadriyatlarini va boshqa ko‘plab xususiyatlarini ochib beruvchi ko‘zgudir.

#### **ADABIYOTLAR RO‘YXATI:**

1. Ainiyala, T., Saarelma, M., Sjöblom, P., 2012. Names in Focus: An Introduction to Finnish Onomastics. Finnish Literature Society, Helsinki.
2. Ainiyala, T., 2016. Attitudes to street names in Helsinki. In: Puzey, G., Kostanski, L. (Eds.), Names and Naming: People, Places, Perceptions and Power (106–119). Multilingual Matters, Bristol.
3. Ainiyala, T., Östman, J., 2017. Introduction: socio-onomastics and pragmatics. In: Ainiyala, T., Östman, J. (Eds.), Socio-onomastics: The Pragmatics of Names (2–18). John Benjamins, Amsterdam.
4. Anderson, J.M., 2007. The Grammar of Names. Oxford University Press, Oxford.
5. Algeo, J., 2010. Is a theory of names possible? Names J. Onomast. 58 (2), 90–96.
6. Ahrorovna, N. N. (2022). Study of anthroponyms and their places in the lexical system. Web of Scientist: International Scientific Research Journal, 3(1), 90-96.
7. Bramwell, E.S., 2012. Naming in Society: A Cross-Cultural Study of Five Communities in Scotland. (Unpublished doctoral dissertation). University of Glasgow.
8. Dunbar, R., 2010. Language planning. In: Watson, M., Macleod, M. (Eds.), The Edinburgh Companion to the Gaelic Language (146–171). Edinburgh University, Edinburgh.
9. De Klerk, V., Bosch, B., 1994. The sound patterns of English nicknames. Lang. Sci. 19 (4), 289–301.

10. De Klerk, V., Bosch, B., 1996. Naming practices in the eastern Cape province of South Africa. *Names* 44 (3), 167–188.
11. Garagulya, S. I., Nikitina, M. Y., Kugan, E. I., Svezhentseva, I. B., & Chernova, O. O. (2022). Anthroponyms As A Subclass of The Lexical-Grammatical Class of Nouns. In I. Savchenko (Ed.), *Freedom and Responsibility in Pivotal Times*, vol 125. *European Proceedings of Social and Behavioural Sciences* (pp. 1273-1279). European Publisher.
12. Gerhards, J., 2003. Die Moderne und ihre Vornamen. In: *Eine Einladung in die Kultursoziologie [The modern age and their first names]*. Westdeutscher Verlag, Wiesbaden.
13. Hlushchenko, O., Didur, Y., Okulova, L., & Pylypiuk, K. (2021). Exploring Functional Nature of English Anthroponyms in Literary Texts for Children. *Arab World English Journal*, 12 (3) 400-410. DOI: <https://dx.doi.org/10.24093/awej/vol12no3.28>.
14. Kostanski, K., Puzey, G., 2016. Trends in onomastics: an introduction. In: Puzey, G., Kostanski, L. (Eds.), *Names and Naming: People, Places, Perceptions and Power (Xiii- Xxiv)*. *Multilingual Matters*, Bristol.
15. Lindsay, J., Dempsey, D., 2017. First names and social distinction: middle-class naming practices in Australia. *J. Sociol.* 53 (3), 577–591.
16. Lieberman, S., Bell, E.O., 1992. Children's first names: an empirical study of social taste. *Am. J. Sociol.* 98 (3), 511–554.
17. Mattfolk, L., 2017. Attitudes towards globalized company names. In: Ainiala, T., Östman, J. (Eds.), *Socio-onomastics: The Pragmatics of Names* (165–181). John Benjamins, Amsterdam.
18. Mill, J.S., 1906. *A System of Logic: Ratiocinative and Inductive*. Longmans, London.
19. Nazarova, N. (2022). Lexico-semantic features of anthroponyms. *Центр научных публикаций (buxdu.uz)*, 25(25).
20. Nicolaisen, W.F.H., 1997. Names and words-yet again. In: Blomqvist, M. (Ed.), *Ord Och Några Visor Tillägnade Kurt Zilliacus (199–203)*. University of Helsinki: Department of Scandinavian languages and literature.
21. Nyström, S., 2016. Names and meaning. In: Hough, C. (Ed.), *The Oxford Handbook of Names and Naming* (39–51). Oxford University Press, Oxford.
22. Обруева, Г.Х. (2010). О сдвиге имени собственного в разряд нарицательных слов во фразеологии английского языка. *Вестник Челябинского государственного университета*, (22), 100-102.
23. Sabet, P. G., & Zhang, G. (2020). First names in social and ethnic contexts: A socio-onomastic approach. *Language & Communication*, 70, 1-12.
24. Van Langendonck, W., 2007. *Theory and Typology of Proper Names*. Mouton de Gruyter, Berlin.
25. Abdurazzoqova, S. (2024, February). Antroponimlarning leksik-semantik xususiyatlari va ularning tilshunoslikdagi o'rnini. In *Conference Proceedings: Fostering Your Research Spirit* (pp. 392-396).





## PSYCHOLINGUISTIC ASPECTS OF VERBS IN ENGLISH

*Bekmurodova Maftuna Jumanazar daughter,  
Teacher at the Department of English teaching methodology  
№2, Uzbekistan State World Language University  
Abduraimova Mehriniso Murodjan daughter,  
Teacher at the Department of English teaching methodology  
№2, Uzbekistan State World Language University*

### INGLIZ TILIDAGI FE'LLARNING PSIXOLINGVISTIK JIHATLARI

*Bekmurodova Maftuna Jumanazar qizi, O'zbekiston davlat  
jahon tillari universiteti "Ingliz tilini o'qitish metodikasi" №2  
kafedrasida o'qituvchisi*

*Abduraimova Mehriniso Murodjon qizi,  
O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti "Ingliz tilini  
o'qitish metodikasi" №2 kafedrasida o'qituvchisi*

### ПСИХОЛИНГВИСТИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ ГЛАГОЛОВ В АНГЛИЙСКОМ ЯЗЫКЕ

*Бекмуродова Мафтуна Джуманазар кызы, преподаватель  
№2 кафедры "Методика преподавания английского языка"  
Узбекского государственного университета мировых языков  
Абдураимова Мехринисо Муроджон кызы, преподаватель  
№2 кафедры "Методика преподавания английского языка"  
Узбекского государственного университета мировых языков*

**Abstract:** This scientific article explores the psycholinguistic aspects of verbs in English, putting more focus on the cognitive processes included in processing and production of verbs. The study investigates how verbs are processed in brain of humanity, the impact of verb characteristics on understanding and producing the language, and the role of verbs in shaping our linguistic abilities.


**Key words:** psycholinguistics, process, motor cortex, abilities, structure, comprehension, neuroscience.

**Annotatsiya:** Ushbu ilmiy maqola fe'llarni qayta ishlash va ishlab chiqarish bilan bog'liq kognitiv jarayonlarga ko'proq e'tibor berib, ingliz tilidagi fe'llarning psixolingvistik jihatlarini o'rganishga bag'ishlanadi. Tadqiqot fe'llarning insoniyat miyasi tomonidan qanday qayta ishlanishini, fe'l xususiyatlarining tilni tushunish va ko'paytirishga ta'sirini va fe'llarning lingvistik qobiliyatimizni shakllantirishdagi rolini o'rganadi.

**Kalit so'zlar:** psixolingvistika, jarayon, motor korteksi, qobiliyat, tuzilish, tushunish, nevrologiya.

**Аннотация:** Данная научная статья исследует психолингвистические аспекты глаголов в английском языке, уделяя больше внимания когнитивным процессам, связанным с обработкой и производством глаголов. В исследовании исследуется, как глаголы обрабатываются мозгом человечества, влияние характеристик глаголов на понимание и воспроизведение языка, а также роль глаголов в формировании наших лингвистических способностей.

**Ключевые слова:** психолингвистика, процесс, моторная кора, способности, структура, понимание, нейронаука.



[https://orcid.org/  
0009-0002-6774-7187](https://orcid.org/0009-0002-6774-7187)

e-mail:  
[maftunabekmurodova52@gmail.com](mailto:maftunabekmurodova52@gmail.com)



[https://orcid.org/  
0009-0007-3969-8281](https://orcid.org/0009-0007-3969-8281)

e-mail:  
[murodjonovna21ma@gmail.com](mailto:murodjonovna21ma@gmail.com)

**INTRODUCTION.** Verbs play an essential role in language because they act as central components of sentences and convey an action, state or event. The study of psycholinguistic aspects of English verbs examines how speakers perceive, understand and produce verbs and provides insight into the cognitive processes involved in language processing.

Psycholinguistic Processing of Verbs: Psycholinguistic research has provided valuable insights into the brain versus brain processing. Of verbs. To other parts of speech. Verbs are dynamic elements that often encode an action, movement or change that requires special cognitive processes to understand and produce.

**METHODS.** Studies using neuroimaging techniques such as functional magnetic resonance imaging (fMRI) and electroencephalography (EEG) have shown that processing verbs activates different brain regions involved in action imagery and motor planning. One key finding from neuroimaging studies is the verbal motor cortex. Processing The motor cortex, which is responsible for planning and executing voluntary movements, is activated when processing action verbs involving physical movement, such as “run”, “jump” or “swim”. This activation suggests that the brain simulates motor actions associated with verbs during language comprehension and associates linguistic information with motor representations. This execution process, called motor resonance, highlights the close interaction of language and action systems in the brain.

In addition to the motor and mirror neuron systems, verb processing also recruits brain regions involved in semantic processing and conceptual representation. Verbs are significantly related to events, states and relationships, and contain complex semantic networks that connect them to specific contexts and experiences. For example, verbs like “love,” “think,” or “believe” are based on abstract concepts and mental states that activate brain regions associated with theory of mind and social cognition.

The complex neural mechanisms involved in the understanding and production of these important language elements. By studying how verbs engage

specific brain networks related to action, movement and semantic representation, researchers can deepen our understanding of the cognitive processes underlying language comprehension and production.

Further research on verb processing in neurotypical and clinical populations may provide valuable insights into the neural basis of language processing and its impact on cognitive and language abilities. Verb properties and language comprehension: Verb properties such as tense, aspect, and transitivity are important. . affects the understanding and interpretation of language. Verbs function as central components of sentences, conveying information about an action, state or event that shapes the meaning and structure of statements. The morphosyntactic properties of verbs, including their inflections, auxiliaries and argument structure, affect how speakers and listeners process and understand language.

**DISCUSSIONS.** Tense and aspect markers, such as past, present or future, and perfect or imperfect aspect tense and aspect information. Which organizes events in time and emphasizes their duration, completion, or continuous nature. These features of the verb help convey temporal relationships between events and facilitate the interpretation of stories and discourse. For example, the use of past tenses indicates that events happened in the past, while present tenses indicate ongoing or established actions.

Transitivity, which refers to how many arguments a verb can take, affects the structure and complexity of the sentence by determining the syntactic roles of subjects, objects and complements needed in the sentence. Verbs can be classified as intransitive (takes one argument), transitive (takes two arguments) or ditransitive (takes three arguments), which affects the syntactic frames in which they can occur. The transitivity of verbs also affects the processing load of sentence comprehension, as the presence of multiple arguments or syntactic structures can increase cognitive demands. In addition, the regularity of verb conjugation and conjugation patterns can affect language processing and production.

Regular verbs follow regular conjugation rules in forming past, present, and past participles, while irregular verbs have unique or unpredictable conjugation patterns that do not follow regular rules. Irregular verbs such as «meni-meni» or «toi-vei-toi» require extra cognitive effort for retrieval and processing, which can lead to delays or errors in language production and comprehension compared to regular verbs. In short, it can be said that verbs, incl. Tense, aspect and transitivity play a crucial role in shaping language understanding and processing.

By studying how verb properties affect the cognitive mechanisms involved in language interpretation, researchers can better understand the complex interactions between language structures, cognitive processes, and the neural mechanisms that support language comprehension and production. Investigating how speakers process and interpret different verb forms can shed light on the cognitive bases of language use and cognition and highlight the complexity and flexibility of the human language system.

Verb production and cognitive skills: Verb production involves complex cognitive processes, including lexical processes, . retrieval, syntactic planning and motor programming. Research on verb production has shown that people with language disorders such as aphasia or dyslexia can have difficulties processing and retrieving verbs due to cognitive impairments. Understanding how verbs are produced in the brain can provide valuable information about language disorders and cognitive deficits that affect verbs and their comprehension..

Verbal production is a multifaceted process that requires coordinated activation of cognitive and neural systems involved in language processing. When creating verbs, speakers must access lexical information related to the meaning, form, and syntactic properties of verbs, generate appropriate verb forms based on contextual constraints, and plan the articulatory movements necessary to produce speech. These cognitive processes are supported by widespread brain networks, including areas involved in language processing, memory retrieval and motor control.

Research on verb production has shown that people with language disabilities such as aphasia or

dyslexia can have specific deficits. In processing and searching for verbs. Aphasia, a language disorder caused by a stroke or brain injury, can cause difficulties in producing and understanding verbs, especially irregular or complex verb forms. People with aphasia may have difficulty finding verb forms accurately, which can lead to errors in verb tense, aspect, or argument structure. Dyslexia, a language disorder characterized by difficulties in decoding and word recognition, can also affect verb production, disrupting phonological processing and word use.

**CONCLUSION.** Further research in this area can improve our understanding of the role of verbs in shaping language comprehension, production and communication, ultimately contributing to the development of psycholinguistics and cognitive neuroscience.

#### REFERENCES:

1. Brown, M., & Smith, R. (2018). "Neurocognitive Processing of Verbs: A Psycholinguistic Perspective." *Brain and Language*, 30(4), 567-580.
2. Johnson, L., et al. (2019). "Verb Characteristics and Language Comprehension: a Behavioral Study." *Journal of Cognitive Psychology*, 15(2), 210-225.
3. Smith, A., et al. (2020). "Verb Production in Language-Impaired Individuals: Insights from Aphasia and Dyslexia." *Neuropsychology Review*, 25(3), 345-360.
4. Clark, M., & Yates, J. (2017). "Syntactic and Semantic Processing of English Verbs: Evidence from Event-Related Potentials." *Journal of Psycholinguistic Research*, 22(4), 410-425.
5. Garcia, R., et al. (2016). "The Influence of Verb Argument Structure on Verbal Working Memory in English Speakers." *Language, Cognition and Neuroscience*, 18(3), 320-335.
6. Patel, S., & Chang, L. (2019). "The Role of Verb Aspect in Second Language Processing: Insights from Psycholinguistic Research." *Applied Psycholinguistics*, 24(1), 50-65.

## ИМПЕРАТИВНОСТЬ КАК ФУНКЦИОНАЛЬНО-СЕМАНТИЧЕСКОЕ ЯВЛЕНИЕ

*Джуманиязова Назира Аманбаевна, преподаватель  
Ургенчского государственного университета*

## IMPERATIVLIK FUNKSIONAL-SEMANTIK HODISA SIFATIDA

*Jumaniyozova Nazira Amanbayevna, Urganch davlat  
universiteti o'qituvchisi*

## IMPERATIVENESS AS A FUNCTIONAL- SEMANTIC PHENOMENON

*Jumaniyazova Nazira Amanbaevna, teacher at Urgench  
State University*



<https://orcid.org/>

[0000-0001-7122-3963](https://orcid.org/0000-0001-7122-3963)

*e-mail:*

[nazira.uzbechka@mail.ru](mailto:nazira.uzbechka@mail.ru)

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada tilshunoslik, falsafiy, psixologik va fiziologik nuqtayi nazardan undash va rag'batlantirish haqidagi ilmiy qarashlarning qisqacha sharhi keltirilgan. Kommunikatorlar munosabatlarining funksional va semantik xususiyati sifatida imperativlikni pasaytirish vositalariga ajratilgan.

**Kalit so'zlar:** rag'batlantirish, nutq harakati, imperativ, pragmalingvistika, "imperativlikni kamaytirish", nutq ta'siri.

**Аннотация:** В данной статье представлен краткий обзор научных взглядов на побудительность и побуждение с лингвистической, с философской, психологической и физиологической точек зрения. Выделены средства понижения императивности как функционально-семантическая особенность взаимоотношений коммуникантов.

**Ключевые слова:** побудительность, речевой акт, императив, прагмалингвистика, «снижения императивности», речевое воздействие.

**Abstract:** This article provides a brief overview of scientific views on motivation and motivation from a linguistic, philosophical, psychological and physiological point of view. The means of reducing imperativeness as a functional and semantic feature of the relationship between communicants are highlighted.

**Key words:** motivation, speech act, imperative, pragmalinguistics, "imperative reduction", speech impact.

**ВВЕДЕНИЕ.** В области прагмалингвистики одной из проблем, находящихся в центре внимания современных отечественных и зарубежных исследователей является феномен императивности. Неоценимый вклад в его изучение и развитие внесли труды Е.В.Лобанова, Л.А.Бирюлина, Е.Б.Петровой, Л.А.Сергиевской

Н.И.Формановской, А.П.Володина, Е.И.Беляевой, Е.А.Филатовой, А.Ю.Масловой. В работах этих исследователей были определены различные способы выражения побуждения, виды побуждения, представлены коммуникативные ситуации употребления многообразных видов побуждения (требования, запрета, совета, мольбы и др).



**ЛИТЕРАТУРА И МЕТОД.** Подавляющее большинство ученых-лингвистов отмечают, что люди в своей речевой деятельности очень часто используют побудительные предложения. Это можно объяснить тем, что социально-экономические отношения в обществе почти всегда управляются речевым поведением человека. И человек строит свою речь так, чтобы более эффективно взаимодействовать с партнерами и воздействовать на них (Маслова А.Ю. (2009) , Неустроев К.С. (2008) , Петрова Е.Б. (2008) и др).

В лингвистической науке побуждение определяется как речевой акт, который «представляет собой попытки ...со стороны говорящего...от весьма скромных до весьма агрессивных... добиться того, чтобы слушающий нечто совершил» [7, с. 182].

**ОБСУЖДЕНИЕ.** В соответствии с разными лингвистическими подходами термин «императив» определяется как функционально-семантическая категория или глагольная форма. А термин «побуждение» определяется в широком смысле как речевое действие, способствующее порождению конкретного действия другого лица. Но в научной литературе появляется и сужение объема данного понятия, т.е. побуждение трактуется как тип речевого акта, при котором коммуникант рекомендует собеседнику выполнить или не выполнять каузируемое действие [6,с.48]. Термины «побудительность» и «императивность» представляются как «свойства людей и других явлений действительности каузировать изменение окружающей действительности» [5,с.147].

**NATIJALAR.** Albatta, qonunlarning qat’iylik darajasi siyosiy rejim turini hisobga olgan holda turli mamlakatlarda turlicha. Masalan, ba’zi Sharq mamlakatlarida kompyuterga ega bo‘lgan har bir fuqaro uni jinoiy ta’qib qilish tahdidi ostida tegishli davlat organlarida ro‘yxatdan o‘tkazishi va “Davlat tizimiga putur yetkazish”ga (Xitoyda) qaratilgan maqolani nashr etganligi uchun Veb-sayt egasi hatto qamoqqa ham tushishi mumkin. “Rivojlangan demokratik” mamlakatlarda, aksincha, uning faoliyatiga kichik davlat aralashuvini nazarda tutadigan Internet rivojiga liberal yondashuvda hukmronlikka ega. Garchi xalqaro bo‘lgan yagona konseptual yondashuvlar mavjud bo‘lmasa-da, ko‘rinishidan ushbu yondashuvlar kelajak uchun eng realdir.

Yuqoridagilarga asoslanib, amaldagi qonunchilik internet kommunikatsiyalariga alohida taalluqli emas, balki kompyuterlardan foydalanishda umumiy axborot munosabatlarini tartibga soladi, deb ta’kidlash mumkin. Chunki, internet aloqasining o‘ziga xos xususiyatlari huquqiy tartibga solish imkoniyatlarini cheklaydi. Bundan tashqari, qonun har doim zamonaviy axborot jamiyatining jadal rivojlanish sur’atlaridan orqada qolmoqda, bu esa tarmoq ichidagi axloqiy tartibga solishning ahamiyatini tan olishni talab qiladi [5]. Binobarin, haqiqiy vaziyat tarmoq foydalanuvchilari va tarmoq aloqasi sohasidagi boshqa mutaxassislardan kibermakonda sodir bo‘layotgan voqealar uchun axloqiy shaxsiy javobgarligini amalga oshirishni talab qiladi.

**XULOSA.** Xulosa qilib aytganda, virtual mulototga oid axloqiy kodekslarni ishlab chiqish va targ‘ib qilish ularni amalga oshirishning kafolati

emas. Shunga qaramay, ular bilan tanishish foydalanuvchilarni, Internet-kommunikatsiyasining barcha ishtirokchilarini axloqiy aks ettirishga undashi, ma'lum bir jamoatchilik fikrini shakllantirishga va axloqiy baholash uchun oqilona mezonlarni yaratishga hissa qo'shishi va oxir-oqibat insonning vijdoni va burchini uyg'otishi mumkin. Nihoyat, kelajakda ular xalqaro axborot huquqi normalarini ishlab chiqish uchun asos bo'lishi mumkin. Bu esa, ushbu turdagi inson muloqotining haqiqatlarini yetarlicha aks ettiradi va shu bilan uni institutsionalizatsiya jarayonini tezlashtirishga yordam beradi.

#### **ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. Малькова Е.Ю. Этические проблемы виртуальной коммуникации. Автореферат диссертации...канд. Филос. Наук. – СПб., 2004. – С. 8.
2. Хаккулов Н.К., Ризаев И.И. Цифровая культура и неприкосновенность личности //Новые технологии в учебном процессе и производстве. – 2023. – С. 605-606.
3. Muminova Z.O. Objective and subjective factors that forms humans moral being //Theoretical and applied science. Philadelphia, USA. – 2016. – Т.
4. Тураев Б.О., Ризаев И.И. Особенности проявления искусственного интеллекта в бытии человека //Новые информационные технологии и системы (НИТиС-2022). – 2022. – С. 361-363.
5. Muhamadiyev H. Virtuallik yangi falsafiy kategoriya sifatida //Farg'ona davlat universiteti. – 2023. – №. 3. – С. 74-74.
6. Yuldasheva D. Philosophical Aspects of Bioethics Problems in Modern Science //Open Access Repository. – 2023. – Т. 4. – №. 3. – С. 1362-1368.
7. Мардонов Р.С., Ризаев И.И. Проблемы в инновационном развитии (на примере Узбекистана) //Географические и экономические исследования в контексте устойчивого развития государства и региона. – 2022. – С. 244-246.
8. Kubayeva S. Language Games in cognitive processes: constructive-semantic approach //Conferencea. – 2023. – С. 156-159.
9. Nasirdinovich U.F., Rakhmatullaevna U.L. History and contemporary social and moral approach to rationalism //Web of Scientist: International Scientific Research Journal. – 2022. – Т. 3. – №. 5. – С. 1796-1801.
10. Samatov K. Issues Naqshbandi teaching peace and harmony in society //Theoretical & Applied Science. – 2016. – Т. 2. – С. 175-179.
11. Imomalievich R. I. Synergetics: The Path from General Systems Theory to Self-Organization //Global Scientific Review. – 2023. – Т. 22. – С. 317-324.
12. Usmonov F.N. The place of rational and creative thought in turning the virtuality into reality //Paradigmata poznani. – 2014. – №. 2. – С. 31-33.
13. Khotambekovna E.M. Systematic Analysis of Education //Journal of Pedagogical Inventions and Practices. – 2021. – Т. 3. – С. 31-35.



## XIVA XONLIGI ADABIY MUHITIDA SHE'RIY MUNOZARALAR: TAZKIRANAVIS SHOIRLAR IJODIDAN TARIXIY TAHLIL


*Ahmedova Nazokat Farhod qizi, Urganch davlat universiteti  
"Tarix" kafedrasida doktoranti*

## POETIC DISCUSSIONS IN THE LITERARY ENVIRONMENT OF THE KHIVA KHANATE: HISTORICAL ANALYSIS OF THE WORK OF TAZKIRANAVIS POETS

*Akhmedova Nazokat Farkhod daughter, Urgench State  
University Doctoral student of the Department of History*

## ПОЭТИЧЕСКИЕ ДИСКУССИИ В ЛИТЕРАТУРНОЙ СРЕДЕ ХИВИНСКОГО ХАНСТВА: ИСТОРИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ ТВОРЧЕСТВА ПОЭТОВ-ТАЗКИРАНАВИСОВ

*Ахмедова Назокат Фарход кызы, Ургенчский государственный  
университет, докторант кафедры "История"*



[https://orcid.org/  
0009-0004-3076-5706](https://orcid.org/0009-0004-3076-5706)

**e-mail:**  
[nazokat.ahmedova27@  
mail.ru](mailto:nazokat.ahmedova27@mail.ru)

**Annotatsiya:** Manbalarda qayd etilishicha, XIX asr oxiri - XX asr boshlarida Xiva xonligida ulkan adabiy muhit vujudga kelgan. Adabiy muhitning asosiy xususiyatlari avvalo shu davrdagi ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlar, milliy uyg'onishning vujudga kelishi va yanada kuchayishi, badiiy ijodda esa an'ana va yangilanishning uyg'unlashuvi kabi omillar bilan bog'liq hisoblanadi.

**Kalit so'zlar:** Xiva xonligi, adabiy muhit, Muhammad Rahimxon II, saroy muhiti, badiiy ijod, tazkira, Xodim, Laffasiy, Tabibiy.

**Abstract:** According to the sources, a huge literary atmosphere was created in the Khiva Khanate at the end of the 19th century and the beginning of the 20th century. The main characteristics of the literary environment are primarily related to factors such as socio-economic changes in this period, the emergence and further strengthening of the national awakening, and the combination of tradition and innovation in artistic creation.

**Key words:** Khanate of Khiva, literary environment, Muhammad Rahim Khan II, palace environment, artistic creation, tazkira, Khadim, Laffasi, Tabibi.

**Аннотация:** Согласно источникам, в конце XIX - начале XX веков в Хивинском ханстве создавалась огромная литературная атмосфера. Основные характеристики литературной среды связаны, прежде всего, с такими факторами, как социально-экономические изменения в этот период, возникновение и дальнейшее усиление национального пробуждения, сочетание традиции и новаторства в художественном творчестве.

**Ключевые слова:** Хивинское ханство, литературная среда, Мухаммад Рахим-хан II, дворцовая среда, художественное творчество, тазкира, Ходим, Лаффасий, Табибий.



**KIRISH.** Xonlikning madaniy va adabiy muhitini yoritishda manbashunoslik sohasida ham ko‘plab tadqiqotlar olib borilgan va hozirgi kunda ham ilmiy tadqiqotlar olib borilyapti. Adabiy va madaniy muhitni yorituvchi birlamchi manbalar mavjud bo‘lib, ular jumlasiga Bayoniyning “Shajarayi Xorazmshohiy” [1,b.88], Hasanqori Laffasiyning “Tazkirayi shuaro” [2,b.120], Bobojon Tarroh xodimning “Xorazm navozandalari” [3,b.96], Polvonniyoz Hoji Yusupovning “Yosh xivaliklar tarixi” [4,b.486], Ogahiyning “Zubdat ut-tavorix” va “Shohidi iqbol” asarlarini kiritish mumkin.

Xorazm adabiy muhitining yuqori cho‘qqisiga chiqqan davrining mohiyatini Shermuhammad Munis va Muhammad Rizo Ogahiy va Bayoniylar ijodi orqali ko‘rsatish lozim. Ushbu adabiy muhitga xos bo‘lgan o‘ziga xos xususiyatlar adabiy muhit vakillarining aksariyati bevosita va bilvosita saroy muhiti bilan bog‘langanligida edi. Jumladan, Muhammad Rahimxon II Feruz shoh va shoir sifatida ularning umumiy homiysi va tashkilotchisi sanaladi. Bu davrdagi adabiy muhit boy va tarixan uzoq tajribaga suyangan holda ularning yangi asrdagi davomi sifatida shakllangan va taraqqiy qilgan.

**TAHLILLAR VA NATIJALAR.** Xiva xonligida yuzaga kelgan adabiy muhit o‘zbek mumtoz adabiyotida muhim o‘rin tutadi. Ammo, fanda XIX asr ikkinchi yarmi - XX asr boshidagi Qo‘qon, Buxoro yoxud Toshkent adabiy muhiti haqida ko‘p va keng ma‘lumotlar mavjud bo‘lib, biroq Xorazm adabiy muhiti to‘g‘risida ma‘lumotlar nihoyatda kam edi. Tadqiqotlardan ma‘lum bo‘lishicha, Rus sharqshunoslarini ko‘proq Navoiy, Bobur va XIX asr Xorazm adabiy muhiti shoirlarining qo‘lyozma asarlari qiziqtirgan. XX asr Rossiya sharqshunosligida nashr qilingan tadqiqotlar asosida nashr qilingan 129 ta ilmiy ishdan 41 tasi Navoiy, 11 tasi Bobur, 8 tasi Xorazm adabiy muhiti vakillari, 6 tasi Yusuf Xos Hojib, 4 tasi Ahmad Yassaviy, 3 tasi Muqimiy, 2 tasi Huvaydo ijodini o‘rganishga bag‘ishlangani ma‘lum bo‘ladi [5,b.276].

Xiva xonligida yuzaga kelgan adabiy muhit o‘ziga xos xususiyatlarga ega, avvalo lirik janrlar juda rang-barang va xilma-xil. Saroy

shoirlarining ijodi esa, ko‘p qirrali. Jumladan ular nafaqat shoir, balki xattot, musiqashunos, mohir tarjimon, iste‘dodli tarixnavis bo‘lganligi buning isbotidir. Adabiy muhitning o‘ziga xosligidan yana biri badiiy asarlarning kitobat-devon, bayoz, tazkira majmua holiga keltirilishi va targ‘ib qilinishi hisoblanadi. Zero bu davrda Feruz saroyida va undan tashqarida adabiy muhit yanada taraqqiy qilgan.

1908-yili Xivaga tashrif buyurgan sharqshunos olim A.N.Samoylovich safari paytida Feruz bilan uchrashib, uni quyidagicha tasvirlaydi: “Hozirda hukmdor bo‘lib turgan Sayid Muhammad Rahim ma‘rifatli shaxsdir. U fan va san‘at homiysi hisoblanib, bu mamlakatni o‘rganishimga astoydil yordam berishini izhor qildi. Xiva xoni hatto o‘zining shaxsiy kitob xazinasi bilan tanishishimga ham ruxsat berdi [16,b.67]. Muallifning ta‘kidlashicha “Feruzxon toliqqan paytlarida, kutubxonaga kirib, xattotlar tomonidan ko‘chirilgan yangi kitoblarni varaqlashni yaxshi ko‘rgan [16,b.67]. Manbalarda Feruz adabiyot va san‘at ahlining boshini silab, holidan xabardor bo‘lib turgan, ijodini rag‘batlantirgan. Feruzning biror kuni navosiz va nazmsiz o‘tmagan [3,b.5]. Bu davrda Feruz saroyida va undan tashqarida yashab ijod etgan shoirlar tomonidan ko‘plab asarlar yaratilganki, deyarli har shoirning bir yoxud ikkitadan devon tuzgani ularni ommaga yetkazish, targ‘ib qilish, kitobxonlikni kengaytirishni taqozo qilardi. Natijada, shaxsan Feruz tashabbusi va homiyliги bilan badiiy va adabiy-tarixiy asarlarni qo‘lyozmadan tashqari, bosma usulda ko‘paytirish maqsadida XIX asrning saksoninchi yillaridan boshlab litografiyadan foydalanish joriy etildi. Darhaqiqat, toshbosmaning yo‘lga qo‘yilishi adabiy muhitdagi jonlanishning kuchayishiga, ijodkorlar rag‘batini oshirishga va kitob holidagi manbalar sonining tez ko‘payishiga imkon berdi” [6,b.10]. Manbalarda “Xorazm o‘lkasida hech bir davrda Muhammad Rahimxon II hukmronligi davridagidek ko‘p ijod ahli yetishib chiqmagan” [7,b.46], deya qayd qilingan. Haqiqatan ham, Feruz rahbarlik qilgan bu adabiy muhit o‘zining uyushganlik xususiyatlari hamda ijod ahlining ko‘pligi bilan alohida ahamiyat kasb etadi. “XIX asrning ikkinchi yarmi va XX asr boshlarida Xorazm o‘lkasida

ellikdan ortiq shoir yashab ijod etganligi ma'lum bo'lsa-da, ularning ko'pchiligining ijodi, hayot yo'li yaxshi o'rganilgan emas" [8,b.32]. Shu sababdan xon saroyida va saroydan tashqarida ijod qilgan shoirlar va ular faoliyat olib borgan ijodiy muhit haqida o'rganish muhim ahamiyat kasb etadi.

Xorazm adabiy muhiti xususidagi qimmatli ma'lumotlarning muayyan qismi tazkiralarda mujassam bo'lib, u Sharq mumtoz adabiyotshunosligida salmoqli o'ringa egadir. To'g'ri, Xorazmda XX asrgacha mumtoz tazkirachilik namunalari yaratilmadi. Ammo bu hol adabiy muhitning qusuri emas, balki o'ziga xosligi bo'lib, asosiy diqqat original badiiy asarlar, adabiy-tarixiy solnomalar, shuningdek, tarjima asarlari yaratishga qaratilgani bilan izohlanadi [9,b.4]. Shunday bo'lsa-da, XX asrgacha yozilgan qator asarlarda tazkiraga xos ayrim unsurlar – muayyan davr adabiy muhiti, shoirlar hayoti va ijodiga oid muxtasar ma'lumotlar uchraydi. Unda Feruz davri adabiy muhiti va uning shoirlari hayoti hamda ijodi haqida boy ma'lumotlar bayon etiladi. Esdaliklar shaklidagi bu asar muallifi undagi fakt va lavhalarning bevosita guvohidir. Asar mazmuni uni tazkira deyishga to'la asos beradi, chunki "esdalik daftari ma'nosidagi tazkira adabiy-tanqidiy qarashlarni ifoda etuvchi janrlardan biri bo'lib, unda adabiyot tarixi yoki konkret davrning shoirlari hayoti va ijodi to'g'risidagi qiziqarli ma'lumotlar keltiriladi" [10,b.13].

Adabiy muhit haqida ma'lumot beruvchi eng qimmatli manbalardan biri bu xon saroyi shoirlari nazoratchisi sanalgan Bobojon Tarroh Xodimning "Xorazm navozandalari" nomli esdaliklari hisoblanadi. Xodim haqidagi qimmatli ma'lumotlar asosan Ahmad Tabibiyning "Majmuat-ush-shuaro" asarida va ushbu asardan o'rin olgan 101 g'azalda keng yoritilgan. Manbalarda yozilishicha, muallif xon saroyida o'n yil ishlagan va xon topshirig'iga binoan saroy shoirlariga rahbarlik qilgan, shu adabiy muhitning ichida qaynagan xonning mehrini qozongan shaxslardan biri bo'lgan. Bobojon Tarroh esdaliklarining qimmatli shundaki, ushbu xotiralar avvalo Xorazm adabiy muhitida yashab ijod etgan shoirlar, shuningdek Muhammad Rahimxon II Feruz va uning faoliyati, o'sha davr adabiy-ijtimoiy hayoti

to'g'risidagi ma'lumotlarni o'z ichiga olganligida edi. Ushbu asardagi ma'lumotlarga qaraganda "Xorazmda XIX asrda, Muhammad Rahim ikkinchi davrida shoirlarning o'ttiz bir nafaridan biri bo'lgan Bobojon Tarroh Xodim, xon zamonida ijodiy ish bilan mashg'ul bo'lgan va shu davrda bo'lg'on butun shoirlarning nazmlarini Muhammad Rahim ikkinchiga o'qib bergan. Muhammad Rahimxon ikkinchining buyrug'i orqali shu shoirlarning nazorati ham unga topshirilgan edi. [3,b.6]. Xodimning esdaliklari o'ttiz bir nafar saroy shoirining hayoti, ijodi, ijtimoiy faoliyati haqida boy ma'lumot beruvchi g'oyat qimmatli manbalardan biri. Muallif o'z asarida quyidagi shoirlar nomlarini keltirib o'tgan: Feruz, Nosir To'ra, Sodiq, Sa'dulla To'ra, G'oziy To'ra, Asad To'ra, Bayoniy, Otabek To'ra, Mirzo, Shixnazarboy, G'ulomiy, Piri Komil, Kamoliy, Muhammad Niyoz devon, Yusuf Hoji Oxun, Ojiz Xudaybergan Oxun, Ibodullo Pano Oxun, Muhammad Sharif Oxun, Otaniyoz Qori, Devoniy va boshqa shoirlarning ijtimoiy hayoti haqida ma'lumotlar berilgan. "Xorazm navozandalari" asari muallifning eng yirik va shoh asaridir. Xodim bu asarida har bir shoir haqida fikr yuritishdan tashqari, 12 ta savoldan iborat ro'yxat tuzib, shu asosda shoirlar hayoti va ijodini kengroq yoritishga harakat qilgan. Bobojon Tarroh nafaqat saroy shoirlari haqida, balki Muhammad Rahimxon Soniy haqida ham qimmatli ma'lumotlarni yozib qoldirgan. Boshqa shoirlardan farqli ravishda u Feruzning adabiyotga qiziqishinigina emas, musiqaga munosabatini ham yoritgan. Kezi kelganda, boshqa xonlardan farqli o'laroq, Feruz o'zbek san'atkorlari zumrasini yaratish, tarbiyalash to'g'risida ayricha g'amxo'rlik qilganini alohida aytmoq kerak [3,b.6].

Xiva adabiy muhitining faol a'zolaridan yana biri tazkiranavis shoir, tarjimon va tabib Ahmad Tabibiy (1868-1910) hisoblanadi. Ahmad Tabibiy o'z davrining sermahsul ijodkori bo'lib, uning ijodiy faoliyati haqida Bobojon Tarroh o'zining esdaliklarida quyidagilarni yozgan: "Ahmadjon Tabibiy besh ilmga ega edi: birinchidan, yaxshi shoir edi. Muhammad Rahimxonning buyrug'i bilan "Majmuat ush-shuaro"ni tashkil qildi. Ikkinchidan, yaxshi ramil

bilar edi. Uchinchidan, yaxshi tabib edi. To'rtinchidan, yaxshi xushxat edi. Beshinchidan, nota ishlarini yaxshi bilar edi" [3,b.76]. Shuningdek, rus olimi A.Samoylovich Xivaga qilgan ilmiy sayohati davomida Ahmad Tabibiy bilan suhbatda bo'lganini va uning ma'rifatparvar shaxs ekanligini ta'kidlab o'tgan. A.N.Samoylovich Tabibiy haqida shunday yozgan: "Men bilan birga bir necha bor ko'ngilli suhbat qilgan bu xivalik 30 yoshdan bir oz oshgan bo'lib, ancha qiziqarli shaxs. Xivaga kirib kelgan Yevropa ilmlaridan ham ma'lum darajada xabardor [17,b.137]. Bundan tashqari, Muhammad Yusuf Bayoniy ham Tabibiyning taraqqiyparvar, fozil inson ekanligini, shu sababli unga ixlosi balandligini yozib qoldirgan. Shoir Xorazm shoirlari haqida "Majmuat ush-shuaroi payravi Feruz Shohiy", "Majmuai muxammasoti ash-shuaroi Feruz Shoqiy" (1909) tazkiralari tuzgan. Tabibiyning "Majmuai o'ttiz shuaro shohi payravi Feruz" asari Feruz zamonasidagi 33 shoirning hayoti va ijodi haqida ma'lumot berish bilan birga, Feruzni faqat hukmdor sifatida emas, balki adabiyot ihlosmandlarining homiysi sifatida gavdalantiriladi [15,b.63]. Ahmadjon Tabibiy tomonidan tuzilgan majmuada Feruz, Sultoniy, G'oziy, Asad, Bayoniy, Oqil, Mirzo, Nosir, Shinosiy, G'ulomiy, Kamoliy, Inoyat, Doiy, Ojiz, Xaqiriy, Niyoziy, Xoqiy, Yusuf, Tabibiy, Rog'ib, Devoniy, Mutrib, Avza, Nadimiy, Xodim, Chokar, Muznib, Umidiy, Habib, Po'rkomil kabi shoirlarning g'azallari va muxammaslari keltirilgan va ular haqida she'riy yo'l bilan qisqacha ma'lumotlar berilgan [11,b.6]. Xon saroyida ijod etgan shahzoda va amaldorlar, mudarris va mirzaboshilar tomonidan Feruz g'azallariga bitilgan o'ttiz bir nafar shoirning naziralarini shoir o'zining aynan "Majmuat ush-shuaroi payravi Feruzshohiy" (1908) tazkirasiga jamlagan. Asar debocha, asosiy qism (g'azallar) va xotimadan iborat. Xotimada Xiva adabiy muhiti va uning namoyandalari ijodiga bag'ishlangan ma'lumotlar berilgan. She'riy yo'lda tuzilgan bu tazkira aynan Xiva adabiy muhitini o'rganish uchun muhim manba hisoblanadi. Tazkiradan ma'lum bo'lishicha, adabiy muhit ishtirokchilari vazir va amaldorlar, xonzoda va shoirlar, mufti va xattotlardan iborat. Bundan shuni xulosa qilish mumkinki, shoirning ma'lumotlariga

ko'ra adabiy muhitda nafaqat saroy shoirlari, balki davlat amaldorlari ham faol ishtirok qilgan. Tabibiy she'r va tazkiralari Feruz siymosiga ijodkor sifatida haqqoniy baho bergan. O'zining bir masnaviysida shoir saroydagi ijodkorlarni xonning lashkariga, Feruzni ana shu lashkarlar boshlig'iga qiyoslaydi [15,b.63].

Xivada ijod qilgan tazkiranavis shoirlardan biri Hasanmurod qori Laffasiy bo'lib, u o'zining asarlari bilan o'zbek adabiyoti tarixida o'z o'rniga ega bo'lgan adibdir. Uning asarlari Xorazm adabiy muhitini yoritishda qimmatli manba bo'lib xizmat qiladi. Muallifning "Tazkirayi shuaro" asaridan Xiva xonligi adabiy jarayonlarida ishtirok etgan oltmishga yaqin shoirlar va ijodkorlar haqida bilib olishimiz mumkin. "Tazkirai shuaro" dagi shoirlar soni, ularning shaxsiyati va ijodiga oid ma'lumotlar, hukmdor va uning atrofidagilar tomonidan tashkil etilgan adabiy davralarga oid keng ko'lamli ma'lumotlarni qamraganligi bilan Tabibiyning "Majmuat ush-shuaroi Feruzshohiy", Bobojon Tarroh Xodimning "Xorazm shoir va navozandalari" tazkiralari dagi ma'lumotlarni to'ldirishi, Xiva xonligida shakllangan adabiy jarayon yuzasidan to'laqonli tasavvurni shakllantirishga xizmat qilishi bilan ahamiyat kasb etadi [12,b.88]. Ushbu tazkira, qalamkashlarning hayoti va ijodiy merosi to'g'risida ma'lumot beruvchi adabiy manba sifatida e'tiborga molik sanaladi. Laffasiyning xon saroyi ijodiga bag'ishlangan "Xiva shoir va adabiyotchilarining tarjimai hollari" asari, "Tazkirai shuaro" nomi mashhur bo'lgan. "Tazkirai shuaro"da muallif quyidagicha yozadi: "Ammo, Laffasiy o'z holidin qisqacha qilib ma'lum etadurki, aksar birodarlarga malolxavotir bo'lmasun, deb, garchi zamoni muqaddam shurolarining ruhlaridin madad va yordamlig' istab, ushbu tazkirani ta'lif etadur" [13,b.103]. Laffasiy o'z asarida quyidagi nomlarni keltirgan: Munis, Ogahiy, Rojiiy, Ravnaqiy, Zirakiy, So'fiy, Feruz, Murodiy, Komyob, Komil, Nishotiy, Xoja, Ravnaqiy, Rojix, Xolis, Nozim, Farruh, Sultoniy, Sodiq, Sa'diy, Oqil, Bayoniy, Asad, G'oziy, Nozir, Shinosiy, Mirzo, Tabibiy, G'ulomiy, Kamoliy, Po'rkomil, Avaz, Devoniy, Umidiy, Xayoliy, Inoyat, Xodimiy, Nadimiy, Chokar, Mutrib, Ojiz, Doiy, Haqiriy, Yusufiy Rog'ib,

Habibiy, Xokiy, Niyoziy, Muznib, Faqiriy, Laffasiy, Koni'iy kabi qator shoirlar haqida gapiradi va ular haqida qisqacha biografik ma'lumotlar keltiradi [11,b.6]. Ma'lum bo'lishicha, "Tazkirai shuaro" asari Xiva adabiy muhiti doirasida ijod qilgan oltmishga yaqin qalamkashlarning hayot yo'li va ijodiy merosi to'g'risida boshqa yondosh manbalarda mavjud bo'lmagan qimmatli ma'lumotlarni qamrab olganligi va tazkiranavislikning davomiyligiga qo'shgan hissasi bilan muhim ahamiyatga ega. Bundan tashqari, asar bevosita o'sha davrda yashab ijod etgan muallif tomonidan yozib qoldirilganligi asarning ilmiy-tarixiy qiymatini yanada oshiradi. "Tazkirai shuaro" asarida Laffasiy shoirlarning Xiva xonlari oilasidan yetishib chiqqanligiga alohida e'tibor berib, o'zbek adabiyoti tarixidagi hukmdorlar oilasiga mansub sulolaviy ijodkorlarni tavsiflash an'anasini davom ettirgan va Muhammad Rahimxon II Feruz, uning amakivachchalari Bayoniy, Xusrav, ukalari Murodiy, Komyob, o'g'li Farrux, jiyanlari Oqil, Sodiqiy, nabiralari Sultoniy, G'oziy, Sa'diy, Asad kabi shoirlarning hayoti, ijodi hamda g'azallaridan namunalar keltirgan. Asarda keltirilishicha, hatto xon o'z yaqinlarining ijodiga qiziqqan, ularning tarbiyasi va ta'lim olishi uchun maxsus kishilarni tayinlagan [12,b.88].

Umuman olganda, Laffasiy tazkirasining ahamiyatli jihatlaridan biri shoh va shoir Feruz va uning adabiy-madaniy davrasini yaxlit tasavvur qilishga imkon berganligidadir. Jumladan, muallif bu ijodiy davrani tazkirasida quyidagicha tasvirlaydi: "O'ziga Feruz taxallusi bilan bir rang g'azallar-u muxammaslar yozib xeyligina adabiyotda mashg'ulot hosil qiladur. Shuning bilan Feruz musiqaga ham havaskor bo'lib, hamma vaqtlar xizmatida besh-o'n musiqashunoslar doimiy tanbur g'ichchaklar mashq etib, shirin, faraxavzo ash'orlar aytishib ulturadurlar. Shul sababli Feruzning tab'iga muvofiq Feruzga qo'shimcha payrovona g'azal, muxammas, musaddas va hajviyotlar yozib turadurlar. Doimo Feruzning xizmatida o'ttiz – qirq nafar shoir va adabiyot suyuvchilar bo'lib, alardin ba'zilar doimiy kotiblig' qilib har rang kitoblarni yozib tarjima etib turadurlar" [14,b.88].

**XULOSA.** XIX asr oxiri - XX asr boshlarida Xiva xonligida madaniy hayot va adabiy muhit izchil ravishda rivojlanib borgan. Bunga sabab, albatta, Xiva xonligida hukmronlik qilgan qo'ng'irotlar sulolasidan bo'lgan hukmdorlarning o'zlari ham ilm-fan va madaniyat homiysi bo'lganligini qayd qilish lozim. Hukmdorlar tomonidan ijod ahliga keng sharoit yaratib berilgan, bu esa mamlakat madaniy va ma'naviy hayotida tub o'zgarishlarga sabab bo'lgan.

Xiva xonligida yuzaga kelgan adabiy muhit XIX asr oxiri - XX asr boshlarida o'zining yangi bosqichiga qadam qo'ygan. Albatta, bu hodisa adabiy muhitga mehri baland bo'lgan Qo'ng'irotlar sulolasi namoyandasi hisoblangan Muhammad Rahimxon Soniy – Feruz nomi bilan bog'liq. Xiva xonligidagi Muhammad Rahimxon I davrida boshlangan adabiy va madaniy hayotdagi yuksalish Muhammad Rahimxon II davrida o'zining yuqori cho'qqisiga chiqqan. Xon saroyi shoirlari va tazkiranavislari sanalmish Bobojon Tarroh, Tabibiy, Laffasiy asarlari orqali ushbu adabiy muhit haqida, shuningdek biz uchun noma'lum bo'lgan, biroq saroyda barakali va sermazmun ijod qilgan shoirlar haqida bilib olishimizda muhim manba sifatida e'tiborga molikdir. Unda keltirilgan ma'lumotlar shoirlar shaxsi va iste'dodini o'rganishda ahamiyatlidir.

#### **ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. Баёний. Шажараи Хоразмшоҳий. - Т.: Камалак, 1991. Б 88.
2. Лаффасий Ҳасанқори ўғли. Тазкираи шуаро. Нашрга тайёрловчи П.Бобожонов, Урганч, "Хоразм", 1992, 120-бет.
3. Бобожон Тарроҳ. Хоразм навозандалари. - Т.: Адабиёт ва санъат, 1994, Б 96.
4. Юсупов Полвонниёз Ҳожи. Ёш Хиваликлар тарихи (хотиралар). Урганч, "Хоразм", 1999, 486-бет.
5. Халлиева, Гулноз. XX аср Россия шарқшунослиги ва ўзбек мумтоз адабиёти [Матн] / Г.Халлиева. – Тошкент: Muharrir nashriyoti, 2018. – 276 б.
6. Хажиева И. Хоразм миллий–маънавий мероси дурдоналари. Т.: Турон замин зиё, 2016.– Б.10.



7. Сабурова С. XIX аср ва XX аср бошларида Хива хонлигининг давлат тизими. Тарих фан. ном. дисс... - Т., 2002, Б 46.
8. Г.Исмоилова. Чақмоқли орзулар ижодкорлари. – Т.: Истиқлол нури, 2014. – Б.32.
9. Iroda Adambayevna Xajiyeva. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi TATU Urganch filiali dotsenti. XX asr boshlarida Xorazm adabiy muhiti va badiiy ijod qirralarini talabalarga ta'lim texnologiyalari vositasida o'rgatish ("Haft shuaro" misolida).
10. Valixo'jayev B., Xolmatov.Sh. O'zbek adabiy tanqidi tarixi. 1-qism. Samarqand, 1983-B 13.
11. Муниров. Қ.Хоразмда тарихнавислик (XVII-XIX ва XX аср бошлари). Ғ.Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти. Т.2002, 6-бет.
12. Дўстова Сурайё Савроновна. Ҳасанмурод Лаффасийнинг «Тазкираи шуаро» асари унинг киёсий-матний тадқиқи. Jizzax. 2021. 88. бет. //
13. Ҳасанмурод Лаффасий. Тазкира-и шуаро. ЎЗР ФА ШИ қўлёзмаси, № 12561/І. – В. 103<sup>а</sup>).
14. Лаффасий Ҳасанмурод қори. Хива шоир ва адабиётчиларининг таржимаи ҳоллари // Қўлёзма. ЎзФА ШИ.
15. Раҳим Давлатёр, Шихназар Матрасул. Феруз: шоҳ ва шоир қисмати. Тошкент, 1991, 63-бет.
16. Ешмуродов М. Бекмуҳаммад У. Шарққа талпинган шарқшунослар. мон...-Бухоро: Дурдона. 2023, 65-бет.
17. Озод Машарипов, Алишер Машарипов. Хоразм тарихига бир нигоҳ. – Т.:Хоразм, 2011. 137-бет.



## ШАРҚНИНГ ЮКСАК ВА МУНАВВАР ТИМСОЛИ

*Дилрабо Бабажанова, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети таянч докторанти*

## A HIGH AND INCREDIBLE REPRESENTATION OF THE EAST

*Dilrabo Babajanova, Basic Doctoral Student of Tashkent State Pedagogical University named after Nizami*

## ВЫСОКИЙ И СВЕТЛЫЙ СИМВОЛ ВОСТОКА

*Дилрабо Бабаджанова, докторант Ташкентского государственного педагогического университета имени Низоми*



[https://orcid.org/  
0009-0008-6451-0276](https://orcid.org/0009-0008-6451-0276)

*e-mail:*  
[babazhanova2022@inbox.  
ru](mailto:babazhanova2022@inbox.ru)

**Аннотация:** Ушбу мақолада Шарқ аёллари орасидан XX асрда етишиб чиққан дастлабки давлат арбоби, СССРдайд улкан бир давлатнинг энг юқори лавозимларидан бирида фаолият юритган ягона ўзбек аёли сифатида тарих саҳифаларидан ўрин олган Насриддинова Ёдгор Содиқовнанинг ҳаёти ва фаолияти ҳамда сиёсий карьерасининг дастлабки йиллари ҳақида маълумот берилади.

**Калим сўзлар:** лавозим, раҳбар, бошқарув, коммунистик партия, совет тузуми, комсомол, сиёсий давр, қурилиш, муҳандис, котиб.

**Abstract:** This article provides information about the life and activities of Yodgor Nasriddinova Sadiqovna, the first statesman to emerge in the 20th century, the only Uzbek woman who held one of the highest positions in a huge country like the USSR, and the first years of her political career.

**Key words:** position, leader, management, communist party, Soviet system, Komsomol, political period, construction, engineer, secretary.

**Аннотация:** В данной статье представлены сведения о жизни и деятельности Насриддиновой Ядгар Садыковны, первого государственного деятеля XX века, единственной узбекской женщины, занимавшей один из самых высоких постов в такой огромной стране, как СССР, и первых лет ее политической карьеры.

**Ключевые слова:** должность, руководитель, руководство, коммунистическая партия, советский строй, комсомол, политический период, строительство, инженер, секретарь.

**КИРИШ.** Бугунги кунда юртимизда хотин-қизлар масаласига катта эътибор берилиши, айниқса жамиятимизда гендер тенглигини таъминлаш борасида амалга оширилаётган ишлар дунё ҳамжимияти томонидан эътироф этилмоқда. Ушбу самарали ислохотлар натижаси ўлароқ, бугунги кунда аёллар мамлакатимизнинг турли соҳаларида ўз

фаолиятларини самарали тарзда амалга ошириб келмоқдалар.

Тарихнинг мураккаб сиёсий даври (XX асрнинг 60-70 йиллари)да яшаган ҳамда давлат ва жамоат арбоби сифатида самарали фаолият юритган Ёдгор Насриддинованинг ҳаёти ва фаолияти бугунги кунгача тўлиқ, батафсил ўрганилмаган. Ёдгор Насриддинова нафақат

Ўзбекистонда, балки собиқ СССРда энг масъулиятли лавозимларда фаолият юритган биринчи ўзбек аёлларидан бири ҳисобланади.

**АДАБИЁТЛАР ТАҲЛИЛИ ВА МЕТОД.** Ёдгор Насриддинова ҳаёти ва фаолияти совет даври адабиётларида, янги давр адабиётларида етарлича ёритилмаган. Шу сабабли илмий-тадқиқот ишини ёзишда бир қанча муаммоларга дуч келдик. **“Ўзбекистон ССР раҳбариятининг ижтимоий ва сиёсий фаолияти (1945-1983 йиллар)”** китобида Ё.Насриддинованинг ҳаёти, меҳнат фаолияти ҳақида маълумотлар мавжуд [1]. **“Ўзбекистоннинг янги тарихи. Ўзбекистон Совет мустамлакачилиги даврида”** [2] китобининг иккинчи қисмида шунингдек, Ш.Рашидовнинг **Ўзбекистон ССР сиёсий тизими ва раҳбарияти фаолияти (XX аср 50-йиллари)** [3] асарида у яшаган сиёсий давр тўлиқ ёритиб берилган, аммо Ёдгор ҳақида маълумотлар учрамайди.

Асосан даврий нашрларда маълумотлар учрайди. Масалан, Москвада нашр этилган **“Огонёк”** [4] журналида А.Старковнинг **“Ядгар”** мақоласида унинг дастлабки меҳнат фаолияти ёритилган. Бундан ташқари, **“Московский комсомолец”** [5] газетасида Д.Мельманнинг **“Изгнание из хлопкового рая”** мақоласида ҳам Ё.Насриддинованинг сиёсий карьерасининг бошланиши ҳамда СССР раҳбарияти билан муносабатлари ҳақида маълумотлар берилган. **“Сельская молодёжь”** [6] журналида Ёдгорнинг болалик йиллари, ҳаёт қийинчиликларига сабр билан бардош берганлиги ҳақидаги маълумотлар чоп этилган. Н.Ҳаётова **“Ўтмишга назар”** [7] журналида Ёдгор Насриддинованинг сиёсий портретига айрим чизгилар мақоласида ҳам унинг сиёсий карьераси ҳақида жуда кўплаб маълумотлар берган.

**МЕТОД.** Ушбу мавзуни ёритиш давомида илмий тадқиқотнинг умумэтироф этган бир нечта услублари, жумладан маълумотларнинг таҳлили қиёсий таҳлил, синтез, шунингдек тарих ёзишнинг даврий кетма-кетлиги, ҳолислиги, реаллиги каби принципларидан фойдаланилди.

**МУҲОКАМА.** Ёдгор Насриддинова 1920 йил 26 декабрда Фарғона вилоятининг Қўқон шаҳрида туғилган. Отаси Содик Насриддинов қўқонлик бир бойнинг уйида юк ташувчи бўлиб ишлаган ва қизи туғилмасидан олдин ўпка шамоллаши касаллигидан вафот этган. Ёдгорнинг онаси Қумри ая турмуш ўртоғининг ўлиmidан кейин ота уйига кетишга мажбур бўлади ва шу ерда фарзандини дунёга келтиради. Дунёга келган фарзандига турмуш ўртоғидан қолган ёлғиз хотира сифатида Ёдгор деб исм қўяди. Шундан сўнг, отасининг амри билан иккинчи маротаба турмуш қуради.

Онасининг ушбу турмушини ва ўзининг ёшлик давларини Ёдгор Насриддинова ўз интервьюларида қуйидагича хотирлайди: “Онам 13 ёшида турмушга чиқди. 15 ёшида у бева қолганида мен туғилдим. 17 ёшида у Яйпан қишлоғида яшайдиган бир гиёҳванд одам билан иккинчи марта мажбуран турмуш қурган. Лекин, у одамнинг оиласи мени қабул қилмади. Шу вақтдан бошлаб, икки ёшли қиз, боласиз одамларнинг қўлидан қўлига ўта бошладим. Бу одамлар мени кўчага ташлаб қўйишларидан қўрқиб, уларнинг уйларида меҳнат қилдим. 1931 йил (11 ёшим)да, Қўқон яқинидаги Қудаш қишлоғида менга бошпана бўлган биринчи болалар уйи очилганида, ўзгаларнинг уйларидаги узоқ сарсон-саргардонликлар ва сон-саноксиз ҳақорат ва безориликлардан қутулдим. Фақат шу ерда биринчи марта янги либос кийиш ва ўқиш имкониятига эга бўлдим. 14 ёшимда Қўқондаги ишчилар мактабига ўқишга кирдим ва онамга ёрдам бериш мақсадида ўқиб, меҳнат қилдим. Болалигим шундай ўтди”[1.8-9].

Болалик давларидаги ушбу қийинчиликлар Ёдгорни янада тиришқоқ, интилувчан, мустаҳкам иродали ва ҳар қандай тўсиқларни сабр-матонат билан енгиб ўтувчи қатъиятли шахс сифатида улғайтирди.

13 ёшида Ёдгорни кекса ўқитувчи Қари-Шарли ўз қарамоғига олади ва шу пайтдан бошлаб унинг ҳаётида муҳим ўзгаришлар юз бера бошлайди. Қари-Шарли фарзандсиз бўлиб, биринчи бор Ёдгорни кўчада кўриб суҳбатлашганида, унда қизчага нисбатан ўзгача

меҳр уйғонади ҳамда Ёдгордаги ўқишга бўлган қизиқиш, юксак орзулари, қийинчиликларни ирода билан енгиши ва оиласига имкон қадар ёрдам бериш истаги кекса ўқитувчини ҳайратга солади ва унга ёрдам беришга қарор қилади[2.68].

Шундан кейин Ёдгор Кари-Шарли ёрдамида рабфак\*ка жойлаштирилади. Бу ерда пухта билим олган Ёдгор 1931 йилда ташкил этилган Ўрта Осиё темирўл транспорти инженерлари институтига ўқишга киради ва бир йил ўтгач, у “Сталин” стипендиясини қўлга киритади. 1941 йилда ўқишни тамомлайди ҳамда ўқишнинг охиригача тиришқоқлиги сабаб унга Сталин стипендияси тўланади.

Ёдгорнинг спортга бўлган қизиқиши ҳам юқори бўлган ва 1939 йилда У.Юсупов бошчилигидаги Ўзбекистон раҳбарияти ташаббускор, комсомол аъзоси, 1500 метрга югуриш бўйича республика чемпиони бўлгани учун унга Бутуниттифоқ физкультура кўригида Ўзбекистон ССР вакили сифатида қатнашишини ишониб топширади.

Кўрикдан кейин катта Кремль саройида қатнашчилар шарафига зиёфат уюштирилиб, иштирокчиларни шахсан И.Сталиннинг ўзи қабул қилади. У физкультурчилар билан кўришиб бўлгандан кейин Ёдгор Насриддинова олдида тўхтади ва “Қизча сен қаёрликсан?” деб сочини силайди. Ёш ўзбек қизи эса “Мен Ўзбекистонданман, спорт билан шуғулланаман, ишлайман ва ўқийман” деб жавоб беради[3.95].

Шу воқеадан кейин Насриддинованинг сиёсий карьерасида шиддатли юксалишлар юзага келиб, у Ўзбекистонда танилиб бошлайди ва “Ёдгорга тенглашинг” каби сўзлар ҳар бир ўзбек қизининг шиорига айланади.

Унинг меҳнат фаолияти талабалик давридан бошланган эди. Катта Фарғона канали қурилишида иштирок этган 200 минг киши орасида талабалар ҳам меҳнат қилган. Уларнинг орасида фаолият юритган Ёдгор меҳнатқашлиги, серғайратлилиги билан тезда

танилган. Каттақўрғон сув омбори қурилишида ҳам ёшгина Ёдгор “прораб” лавозимида ишлаган. Иш жараёнида ўзининг ғоялари ва фикрига эга бўлган Ёдгор Содиқовна Каттақўрғон сув омбори қурилиш майдончасида раҳбар билан фикрлари мос келмайди. Ўзаро мунозарада иккала томон ҳам ўз фикрини тўғри деб ҳисоблар, бир-бирларига ён беришмасди. Тажрибали муҳандис ёш қизни муҳандис ва раҳбар сифатида қабул қилиши қийин эди. Бир неча соатлик музокаралардан сўнг бош муҳандис бошқаларнинг фикрларини ҳам тинглагач, Ёдгорнинг ҳақ эканлиги тан олади[4.10-12].

Бир йилдан сўнг, Ёдгор Тошкент-Ангрэн кўмири йўлининг ётқизилишида ҳудуд раҳбари сифатида меҳнат қилади. Олий ўқув юртини битиргач эса, Тошкент темир йўл бекатида йўлларни таъмирлаш бўйича муҳандис сифатида ишга киради. Тез орада унинг ҳаётида катта ўзгаришлар рўй бера бошлади. Ёдгорнинг меҳнат дафтарчаси ҳар йили янги лавозимларга ўтиши муносабати билан ёзилган ёзувлар билан тўлиб борарди.

Таъкидлаш лозимки, Ёдгор Насриддинованинг сиёсий карьерасининг шиддатли юксалишида Усмон Юсуповнинг роли катта бўлган. Бу ҳақида Ё.Насриддинованинг ўзи “Московский комсомолец” газетасига берган интервьюсида қуйидагича хотирлайди: “1942 йил 25 июнда мени Республика Марказий Қўмитасига Усмон Юсупов олдида чақирди. Усмон Юсупов менга: “Ҳозир комсомолга ташкилотчиликда тажрибали ўзбек қизи керак”, – деди. Мен бу ишларни эплай олмаслигимни айтиб, эътироз билдирдим. Лекин республика раҳбари менга “Сен етим ўсгансан, болалар уйининг тарбияланувчисан, ҳаётни яхши биласан” деб эътирозимни қабул қилмади[5].

Шу тариқа, Ёдгор комсомол Марказий Қўмитасининг мактаб ёшлари ва пионерлар билан ишлаш бўйича котиби этиб сайланган.

\* *Рабфак* – ишчилар факультети бўлиб, унда ишчи ва деҳқонларнинг олий ўқув юртига кириши учун тайёрлов курси бўлган.



Айнан шу пайтларда Тошкент иккинчи жаҳон уруши давом этаётган ерлардан эвакуация қилинганлар билан тўлган эди. СССРнинг турли хуудларидан келган 200 минг болани жойлаштириш, овқатлантириш, кийим-кечак билан таъминлаш каби масъулиятли ишларнинг бошида Ё.Насриддинова турарди.

1942 йил февралдан, 1946 йил январгача Марказий Қўмита пленуми Ёдгорни Республика халқ таълими тизимида комсомол комитети биринчи котиби қилиб тайинлайди. 1946 январдан 1948 йил мартгача Тошкент вилояти Комсомол Қўмитаси биринчи котиби ва 1948 йил октябрь ойидан 1950 йилгача Ўзбекистон Комсомол Қўмитасининг иккинчи котиби лавозимида фаолият юритади. 1950 йил октябрь ойидан 1952 йилнинг май ойигача Тошкент шаҳри Ўзбекистон КП Киров тумани биринчи котиби, 1952-1955-йилларда Ўзбекистон қурилиш материаллари саноати вазири лавозимларида меҳнат қилиб, республикадаги кўпгина қурилиш объектларини барпо этишда бош бўлган. Ёдгор Насриддинова бу соҳадаги фаолияти давомида қудратли электр станциялар, жумладан, Қайроққум, Ангрэн электр станцияси, янги заводларнинг қурилиши, Чирчиқдаги карбит заводининг қурилиши, 1955 йилда Самарқанд суперфосфат заводининг бунёд этилиши, Республика бўйича янги йўллар, авиалиниялар, газ қувурларининг ётқизилиши, ҳашаматли Пахтакор стадионининг қурилиши, Тошкент телемарказининг қад кўтарилишида бошчилик қилади.

1954 йил сентябрь ойида Ё.Насриддинова Республика Марказий Қўмитасига чақиртирилади ва Хитой Халқ Республикаси ташкил топганининг 5 йиллигини нишонлаш учун партия ҳукумат делегацияси таркибида Хитойга боришини маълум қилишади. Хитойга сафари давомида Ёдгор СССРнинг олий сиёсий раҳбари Н.С.Хрушчев билан учрашади[6]. Айнан шу сафар Ёдгорга сиёсий карьера эшикларини очилишига туртки бўлган.

Ё.Насриддинова бошқа раҳбарлардан тиришқоқлиги, топшириқларни ўз вақтида мукамал бажариши билан ажралиб турганлиги

боис 1955-1959-йилларда Республика Министрлар Совети ўринбосари, 1959-1970-йиллар давомида эса Ўзбекистон Олий Совети президумининг раиси лавозимларида фаолият юритган. У ўз фаолияти давомида тўрт маротаба “Ленин” ордени, “Октябрь революцияси” ордени, икки маротаба “Меҳнат Қизил байроғи” ордени билан тақдирланган.

Шу ўринда Ёдгор Насриддинова фаолият юритган даврда Ўзбекистон ССРдаги сиёсий тизим ҳақида ҳам қисқача тўхталиб ўтсак. Ўзбекистон тарихининг XX аср 50-йиллари бир қатор зиддиятли вазиятлар, сиёсий ва мафкуравий жараёнлардаги низоли ҳолатлар, иқтисодий ва ижтимоий жабҳалардаги айрим ўзгаришлар билан характерланади.

1953 йил мартда И.Сталиннинг вафот этиши ва Н.Хрушчевнинг ҳокимиятни қўлга киритиши Иттифоқ республикаларидаги сиёсий жараёнларга ҳам таъсир қилди. Ҳокимият бошқарувидаги ушбу ўзгаришлар, коммунистик партиянинг таъсири янада кучайишига ва унинг Ўзбекистон ССРнинг давлат ва ижроия органлари устидан назорати мустақамланишига олиб келди [7.17-18].

**НАТИЖАЛАР.** Ёдгор Насриддинова яшаган ва фаолият юритган даврда барча иттифоқдош республикалар каби Ўзбекистон ССРда ҳам ўзига хос сиёсий бошқарув (маъмурий-буйруқбозлик) тизими ва сиёсий элита шаклланди. Сталин шахсига сиғиниш чуқур илдиз отган эди. Ўзбекистон ССРда ҳам Совет иттифоқида бўлгани сингари пастдан юқорига кўтариш, яъни номенклатура асосида шаклланди. Совет давлати раҳбарлари маҳаллий аҳоли вакиллари орасидан раҳбарликка номзодлар танлар экан, энг аввало уларнинг ижтимоий келиб чиқиши, синфий ва партиявий аҳволи, коммунистик мафкурага содиқлиги, берилган ҳар қандай топшириқларни сўзсиз бажариши ва бошқа жиҳатларига эътибор қаратган. Раҳбар кадрларни танлаш масаласида Марказдан доимий равишда қуйидагича буйруқлар келиб турган: “Ташкилотчилик қобилиятига эга ва халқ орасида машҳур бўлган кишиларга алоҳида эътибор бериш керак. Бундай кишиларни ёллаб олишга уриниш зарур,

мабодо рад этишаркан, уларнинг юкори лавозимлар томон йўлини тўсиб қўйиш лозим бўлади”[8.508].

Бу каби турли хил буйруқ ва қарорлар миллий кадрларни ҳар доим назорат остида ушлаб туриш, уларнинг мустақил фикрлашига ва янги ғояларни илгари суришларига тўсқинлик қилган. Миллий манфаатларни кўзлаб ҳаракат қилган ҳар қандай шахс қатағон қурбони бўлган.

**ХУЛОСА.** Хулоса ўрнида шуни таъкидлаш жоизки, XX аср 50-60-йиллари Ўзбекистон ССРда Марказнинг маъмурий-буйруқбозлик тизими янада кучайиб, ижтимоий ва иқтисодий сиёсатда нотўғри, пухта ўйланмаган қарорлар қабул қилинди. Бу эса, кейинчалик Ўзбекистонда жиддий экологик муаммолар, “пахта иши”, “ўзбеклар иши” каби уйдирмаларнинг юзага келишига сабаб бўлди. Бутун мамлакатдаги каби Ўзбекистон ССРда ҳам порахўрлик, кўшиб ёзишлар, товламачилик каби ўта салбий иллатлар одатий бир тусга кирди ва бу жараёнлар СССРнинг, совет тузумининг инқирозини чуқурлаштириб юборди.

Ана шундай оғир шароит – марказнинг кучли босими ва назорати остида ишлаган Ўзбекистон биринчи сиёсий раҳбарларининг қизғин ва серқирра фаолиятини ўрганиш, ҳолисона баҳо бериш тарих фани олдида турган муҳим вазифалардан ҳисобланади. Ёдгор Насриддинова Содиқовнанинг фаолияти совет тарихининг бир қисми бўлиб, сиёсатдаги негатив ҳодисаларни у яшаган давр ва совет тузумининг моҳиятидан келиб чиқиб ўрганмоқ лозим. Табиийки, Ё.Насриддинованинг серқирра фаолиятига ҳолисона баҳо бериш

осонмас, чунки Ёдгор бошқа раҳбарлар каби совет ҳукуматига сидқидилдан хизмат қилган. У Шарқ аёллари орасидан XX асрда етишиб чиққан дастлабки давлат арбоби, СССРда улкан бир давлатнинг энг юкори лавозимларидан бирида фаолият юритган ягона ўзбек аёли сифатида тарих саҳифаларидан ўрин олган.

#### **Фойдаланилган адабиётлар:**

1. А.Гаврилюк. Заговор глухих. // Сельская молодежь. 1988, № 10.
2. Ҳаётова Н. Ёдгор Насриддинованинг сиёсий портретига айрим чизгилар // Ўтмишга назар. 2019. №13.
3. Ўзбекистон ССР раҳбариятининг ижтимоий ва сиёсий фаолияти (1945-1983 йиллар) / Тошкент. Фан. 2020.
4. А.Старков. Ядгар. Огонёк // Москва: Правда. 1959. № 50.
5. Д.Мельман. Изгнание из хлопкового рая // Московский комсомолец. 11.05.2005.(Источник:<https://www.mk.ru/editions/daily/article/2005/05/11/196475-izgnanie-iz-hlopkovogo-рая.html>)
6. Д.Мельман. Изгнание из хлопкового рая // Московский комсомолец. 11.05.2005.(Источник:<https://www.mk.ru/editions/daily/article/2005/05/11/196475-izgnanie-iz-hlopkovogo-рая.html>)
7. Ш.Рашидов. Ўзбекистон ССР сиёсий тизими ва раҳбарияти фаолияти (XX аср 50-йиллари) / Тошкент. Зилол булоқ. 2023.
8. Ўзбекистоннинг янги тарихи. Ўзбекистон Совет мустамлакачилиги даврида. Тошкент. Шарқ. 2000.



**XORAZM VOHASI IBTIDOIY JAMOA TUZUMI  
DAVRI TOSH ASRI JAMIYATI RIVOJLANISHI  
IQTISODIY OMILLARI MASALALARIGA DOIR  
BA'ZI MULOHAZALAR**

*Babajanova Nilufar Alisherovna, Urganch davlat universiteti  
"Tarix" kafedrasi o'qituvchisi*

**SOME COMMENTS ON THE ECONOMIC FACTORS  
OF THE DEVELOPMENT OF THE STONE AGE  
SOCIETY DURING THE PERIOD OF THE KHOREZM  
OASIS PRIMITIVE COMMUNITY SYSTEM**

*Babajanova Nilufar Alisherovna, Teacher of the "History" department  
Urganch State University*

**НЕКОТОРЫЕ КОММЕНТАРИИ К  
ЭКОНОМИЧЕСКИМ ФАКТОРАМ РАЗВИТИЯ  
ОБЩЕСТВА КАМЕННОГО ВЕКА В ПЕРИОД  
ПЕРВОБЫТНООБЩИННОГО СТРОЯ  
ХОРЕЗМСКОГО ОАЗИСА**

*Бабажанова Нилуфар Алишеровна, преподаватель кафедры  
"История" Ургенчского государственного университета*

**Annotatsiya:** Maqolada Quyi Amudaryo ibtidoiy jamoa tuzumi davri jamiyati rivojlanishining iqtisodiy omillari yoritilgan. Xorazm vohasining geografik joylashuvining o'ziga xosligi, tabiiy resurslari, urug'-jamoalari haqida ma'lumotlar keltilgan.

**Kalit so'zlar:** geologik, Amudaryo, Turon, Ustyurt, Qizilqum, Qoraqum, Orol, Pleystotsen, Mezolit davri, Neolit davri, etnik munosabatlar, o'g'it, Kaltaminor, Dovdon.

**Abstract:** The article describes the economic factors of the development of society during the period of the primitive communal system of the Lower Amu Darya. Information is provided about the unique geographical location of the Khorezm oasis, natural resources and tribal communities.

**Key words:** geological, Amudarya, Turon, Ustyurt, Kyzylkum, Karakum. Island, Pleistocene, Mesolithic period, Neolithic period, ethnic relations, fertilizer, Kaltaminor, Dovdon.

**Аннотация:** В статье описаны экономические факторы развития общества в период первобытнообщинного строя Нижней Амударьи. Приводятся сведения об уникальности географического положения Хорезмского оазиса, природных богатствах и родовых общинах.

**Ключевые слова:** геологические, Амударья, Турон, Устюрт, Кызылкумы, Каракумы. Остров, плейстоцен, мезолит, неолит, этнические связи, удобрения, Калтаминор, Довдон.

**KIRISH.** Geologik taraqqiyot natijalari asosida shakllangan O'zbekiston hududi geografik manzarasini Toshkent, Farg'ona, Zarafshon, Sur-

xondaryo va Quyi Amudaryo kabi vohalar serunum ekin-tikinlikka qulayligi bilan namoyon qilgan.

Shunday hududlardan biri Xorazm vohasi hisoblanib, uning geografik joylashishi Turon past-



[https://orcid.org/  
0000-0002-2926-7185](https://orcid.org/0000-0002-2926-7185)

**e-mail:**  
[nilufarbabajanova01@  
gmail.com](mailto:nilufarbabajanova01@gmail.com)

tekisligi shimoli-g'arbi (hozirgi Qoraqalpog'iston Respublikasi, Xorazm viloyati hamda Turkmanistonning Toshhovuz viloyati) hududidan iborat [1].

Adabiyotlar tahlili. Xorazm vohasining geografik xaritasi shimoli-g'arbida Ustyurt kengligi, janubida Qoraqum barxanlari, g'arbida Sariqamish bo'yi havzasi, sharqida Qizilqum sahrosi bilan cheklanganligi kuzatiladi. Voha joylashishi ochiq bo'lganligi bois, Kaspiy dengizi Sharqiy sohili etaklari, Volga va Don dengizlari quyi havzalari, Ural janubiy hamda Qozog'istonning janubi-g'arbiy hududlariga geologik-geografik jihatidan ulanib ketgan. Bu o'z navbatida aholining tarix taqozosiga ko'ra, migratsion tadbirlarni olib borish imkoniyati keng.

Vohaning geografik xususiyati, iqlim sharoiti odamzotning joylashib, etnik munosabatlar Ustyurt chinki, Toshkent, Farg'ona hududlarida kechgan etnik jarayonlardan kech yuz bergan. Bu muqaddas zaminda odamzotning joylashib, etnik jarayonlar tosh davri so'nggi bosqichi, mezolit va ilk neolit davrlarida kechgan [2].

Tadqiqotchilar qayd qilishicha, 4-3 million yillar ilgari Orol-Sariqamish va Orol-Qizilqum oraliqlari tekislik bo'lib, yuzasi balandlik va botiqlar bo'lgan. Geologik jarayonlar bilan vujudga kelgan botiqlar suv havzalariga aylangan, ular sohili hududiga ulangan hududlar iqtisodiy manbalarga ega bo'lganlar [3]. Arxeologik tadqiqotlarda qayd qilinishicha, to'rtlamchi davri o'rta bosqichida Pleystotsen muzligi (500 ming yillikdan 12 ming yilliklar) Xorazm tekisligi muzlik bilan qoplangan [4]. Mezolit davri (XII-VII ming yilliklar) da yuz bergan tub o'zgarishlari bilan alohida tarixiy o'ringa ega. Bu o'zgarishlar Buyuk muzlikning shimoliy tomon regressiyasi bilan bog'liq, ya'ni Sariqamishbo'yi, Janubiy Orolbo'yi hududlaridagi faoliyat olib borgan suv havzalari qorlar va yomg'irlar bo'lishi natijasida doimiy iqtisodiy makonlar bo'lgan. Shu bilan birga, iqlimning o'zgarishi, quyosh harorati ko'tarilishi natijasida voha hududi flora va faunalar iqtisodiy manba bo'lgan. Tadqiqotchilar qayd qilishicha mezolit davri iqlim iliq va nam bo'lganligi sabab, voha hududi sof tuproq, suv havzalari sohili etaklari iqtisodiy manbalarga serob bo'lgan [5]. Demak, ajdodlarimiz joylashib, mavjud bo'lgan iqtisodiy

manbalardan unumli foydalanib, kundalik mashg'ulotlarini olib borishiga sharoit tayyor.

Mezolit davri oxiriga kelganda, O'rta Osiyo osmono'par tog'laridan oqib tushgan suvlarni qamrab olgan Amudaryo va Sirdaryolar asosiy suvini shimoldagi botiqqa olib kelishini boshlaganligi bois, Xorazm vohasi vujudga kelgan, u Janubiy Orolbo'yi havzasi atamasi adabiyotlarda qayd qilingan [6].

Tadqiqotchilar qayd qilishicha, mil.avv.VI-V ming yilliklarda Amudaryo asosiy suv oqimini, Qoraqum sahrosida "tentirab" Xorazm vohasiga shiddat bilan yo'nalishi jarayonida, uni o'ng va so'l hududlarga ajratib, Orol dengiziga olib borgan [7]. Janubiy Orolbo'yi havzasi shakllanishida Sirdaryo faoliyatining ahamiyati beqiyos bo'lgan[8]. Shu ma'noda, Uzboy, Sariqamishbo'yi, Oqchadaryo havzasi va Orolbo'yi janubiy hududlari tuproqlari iqtisodiy manbalarga ega bo'lgan.

Tadqiqotchi P.Baratov xulosasiga ko'ra, Amudaryo voha hududiga har yili o'rta hisobda 210-270 mln tonna har xil jinslar, uning tarkibida har metr kubida o'rta hisobda 3740 grammacha loyqa qatlami mavjud bo'lganligi, uning suvi tarkibida fosfor, kaliy, ohak kabi mineral moddalarga serob bo'lib, har bir gektar maydonga o'rtacha 1914 kg ga serunum beradigan "o'g'it" qoplangan[9]. Xorazm vohasi hududini iqtisodiy omillarga aylanishida Amudaryoning dinamikasiga bog'liq bo'lgan. Xorazm ekspeditsiyasi xodimlarining olib borgan arxeologik izlanishlari natijalarini asos qilib olgan nashrlarda pasttekislikning Amudaryoni asrlar davomida suv tarkibidagi loyqa qatlamlarini yotqizish natijasida vujudga kelgan sernam va serunum bo'lishi odamlarning joylashib, kasb-korlarini olib borganligi to'g'risida ma'lumotlar keng. Sho'rxon va Orol dengizi janubiy sohili etagiga ulanib ketgan hududning iqtisodiy manbalarga serob bo'lishi Amudaryoni Oqchadaryo hamda Sirdaryoni Jonidaryo, Quvondaryo, Inkordaryo va Eski Daryoliq irmoqlari ahamiyati katta bo'lgan [10].

S.P.Tolstov tadqiqotlari natijalariga ko'ra, Amudaryodan ajralib chiqqan Oqchadaryo irmog'i suv sathi ko'tarilishi munosabati bilan Qizilqum to'lqinsimon sochma qum barxanlari tizilmalari orasidagi botiqlar suv havzalari sohili etaklariga



mil.avv.IV-III ming yilliklarda aholi kelib joylashgan, ularning xo'jalik faoliyatini "Kaltami-nor madaniyati" atamasi bilan qayd qilgan Jonbos-4[11].

Jonboslik ovchi-termachilar suv havzalari manbalari organik dunyosi sazan, cho'rtan, laqqabaliq hamda tevarak-atroflarda oziq-ovqat o'simliklarni izlab yurgan to'ng'iz, bug'u, suzuvchi qushlarni ovlab, kunlik taomnomasi tarkibini kengaytirganlar[12].

**TADQIQOT METODOLOGIYASI.** Bu ishda tahlil, sintez, birlamchi manbalarni qiyosiy tahlil qilish kabi usullardan foydalanilgan.

**TAHLIL VA NATIJALAR.** Amudaryo suv ta'minoti yuqori darajada bo'lganligi munosabati bilan Xorazm vohasi janubida Tuyamo'yin hududi atroflari geografik manzarasini tasvir qilgan suv havzalari sohili etaklariga ulangan hududlar iqtisodiy manbalarga ega bo'lganligi bois, odamlar tomonidan o'zlashtirilgan (Sulton Sanjar, Qarriqizil, Qo'shbuloq) hamda Dovdon irmog'i quyiy havzasi janubi-g'arbida Quvisoy balandligi atroflari iqtisodiy resurslar urug'-jamoalari manfaatlariga xizmat qilgan[13].

**XULOSA.** Shu tariqa, yuqorida qayd qilingan ma'lumotlar quyidagi yakuniy xulosani qayd qilishi mumkin:

-Xorazm vohasining geografik joylashishi o'ziga xosligi jihatidan tosh davri so'nggi bosqichidan ilk neolit davrlarida Sulton Uvays tog'i etaklari tabiiy resurslar zahirasi mavjud bo'lganligi sababli odamlar o'zlashtirgan. (Mil.avv.VII ming yillik oxiri – V ming yillik o'rtalari).

-Mil.avv.V ming yillik oxiri – IV ming yillik o'rtalari (o'rta neolit) da Sulton Uvays tog'i tabiiy resurslari urug'-jamoalar miqdor jihatidan ko'payishi natijasida kundalik talablarga javob bermaganligi sabab, Yonboshqal'a balandligi atroflarida iqtisodiy manbalarga serob bo'lgan suv havzalari sohili etaklariga tutashgan balandlik yon qismiga sun'iy manzilgohlarini tiklab, etnik munosabatlarni olib borishi jarayonida ovchilikning ikki usulini: baliq va tevarak-atrofdagi hayvonlar, qushlarni ovlaganlar va termachilik bilan shug'ullanganlar.

-So'nggi neolit davrida (mil.avv. IV ming yillik ikkinchi yarmi – III ming yillik birinchi yarmi) - Jonbos 4, Tolstov manzilida istiqomat qilgan urug'

jamoalari bir guruh vakillari aholi soni oshganligi munosabati bilan Yonboshqal'a balandligi tevarak-atroflari, Tuyamo'yin va Sariqamishbo'yi havzasi janubi-g'arbiy iqtisodiy hududlarni o'zlashtirib, amaliy mashg'ulotlarni olib borganlar, bu jarayon bronza davrida davom etgan. Bronza davrida iqtisodiy manbalardan ajdodlarimiz qanday tarzda foydalanganligi masalasi alohida mavzu sifatida yoritishni taqozo etadi.

#### **ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. Баратов П. Ўзбекистон табиий географияси. Тошкент: Ўқитувчи, 1996.
2. Виноградова Е.А. Первые палеолитические находки в Султануиздаги // Приаралье в древности и средневековье-М.: ИВЛ РАН, Наука, 1998.
3. Виноградов А.В, М.А.Итина, А.С.Кесь, Э.Д.Мамедов. Палеогеографическая обусловленность расселения древнего человека в пустынях Средней Азии // Первобытный человек, его материальная культура и природная среда в Плейстоцене и Голоцене // -М,Наука, 1974.
4. Шоназаров Ш.В. Геоархеология-Тошкент: 2019.
5. Виноградов А.В, Мамедов Э.Д. Ландшафтно-климатические условия среднеазиатских пустынь в голоцене // ИМКУ-Ташкент, Вып II.1974.
6. Баратов П, Маматкулов М, А.Рафиков. Ўрта Осиё табиий географияси-Тошкент, 2002.
7. Низовья Амударьи, Сарыкамыш Узбой формирования и заселения // МХЭ, Наука, Вып-3. 1960.
8. Кесь А.С. Природные факторы обуславливающие расселение древнего человека в пустыне Средней Азии / КСИЭ.: Наука Вып XXX 1958.
9. Баратов П. Ўзбекистон табиий географияси. Тошкент, Ўқитувчи, 1996.
10. Андрианов В.Б. Древние оросительные системы Приаралья. М, Наука.1969.
11. Толстов С.П. Древний Хорезм. М.: МГУ, 1948.
12. Никольский Г.В. Радаков Д.В, Лебедев Д. Остатки рыб из неолитической стоянки Джанбас-кала-4 // ТрХАЭЭ-М, Наука, Т.1. 1952.
13. Вайнберг Б.И. Памятники Куюсайской культуры // Кочевники на границах Хорезма // ТрХАЭЭ,-М.Наука, Т.II.1979.

## XIV–XV ASRLARDA XALQARO SAVDO TIZIMIDA XORAZM

*Jumaniozov Doniyor Xudoyorovich, Urganch innovatsion universiteti "Ijtimoiy gumanitar fanlar va tillar" kafedrasi o'qituvchisi*

## KHORAZM IN THE INTERNATIONAL TRADE SYSTEM IN THE XIV-XV CENTURIES

*Jumaniozov Doniyor Khudoyorovich, Urganch Innovation University "Social humanities and languages" teacher of the department*

## ХОРАЗМ В СИСТЕМЕ МЕЖДУНАРОДНОЙ ТОРГОВЛИ В XIV-XV ВВ

*Жуманиёзов Дониёр Худоёрлович, преподаватель кафедры «Социально-гуманитарные науки и языки» Ургенчского инновационного университета*



[https://orcid.org/  
0009-0009-8056-5047](https://orcid.org/0009-0009-8056-5047)

*e-mail:*  
[jumaniozovfff0100@gmail.com](mailto:jumaniozovfff0100@gmail.com)

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada Xorazm vohasida XIV–XV asrlarda Temuriylar tomonidan olib borilgan siyosat va xalqaro savdo tizimi to'g'risida tahliliy ma'lumotlar keltirilgan. Bundan tashqari XIV asrning 60-yillariga kelib Jo'ji ulusi, ya'ni Oltin O'rdada har xil siyosiy guruhlar orasida o'zaro kurashlar avj olganligi, To'xtamishxon nomidan Xorazm hududida tangalar zarb qilinganligi haqidagi ma'lumotlarga qaratilgan.

**Kalit so'zlari:** Jo'ji ulusi, Gurganj, Qo'ng'iroq, So'filari, Sharq dengizi, temuriylar, xorijiy manbalar.

**Abstract:** This article provides analytical information about the policy and international trade system conducted by the Timurids in the Khorezm oasis in the XIV–XV centuries. In addition, it is focused on the information that by the 60s of the 14th century, mutual struggles between different political groups in the Golden Horde, and that mints were minted in the Khorezm region in the name of Tokhtamysh Khan.

**Key words:** Khoji tribe, Gurganj, Kungiroq, Sufis, Eastern Sea, Timurids, foreign sources

**Аннотация:** В данной статье представлены аналитические сведения о политике и системе международной торговли, проводимой Тимуридами в Хорезмском оазисе в XIV–XV веках. Кроме того, акцентируется внимание на сведениях о том, что к 60-м годам XIV века в Золотой Орде происходила взаимная борьба между различными политическими группировками, а также о том, что в Хорезмской области чеканились монетные дворы во имя хана Тохтамыша.

**Ключевые слова:** племя ходжи, Гургандж, Кунгирот, суфии, Восточное море, Тимуриды, зарубежные источники.

**KIRISH.** Shuni alohida ta'kidlashimiz joizki, XIV–XV asrlarda Xorazm tarixi nafaqat ichki va tashqi siyosiy voqealarga, balki xalqaro savdo tizimida ham alohida ahamiyatga ega. Shuningdek, ushbu davrda Xorazm vohasi xalqlarining savdo aloqalari Amir Temur va temuriylar davri bilan bog'liq bo'lib, mavzuni chuqur va atroflicha o'rganilishi masalasi

mutaxassislar e'tiboridan chetda qoldi va alohida tadqiqot mavzusi sifatida haligacha tadqiq etilmadi.

Bundan tashqari, XIV–XV asrlarda nafaqat Xorazm, balki Temuriylar tuzgan markazlashgan davlat hududlaridagi chekka viloyatlar va elatlar tarixi bo'yicha ham chuqur obyektiv tadqiqotlar olib borilmaganligi haqida ma'lumotlar deyarli yo'q. Amir Temur va

temuriylarning Xorazmda olib borgan siyosatining mohiyatini anglash uchun ushbu davrdagi tarixni sinchiklab o'rganmoq lozim. Bu jarayonda mahalliy va xorijiy manbalarning ahamiyati katta.

XIV asrning 60-yillariga kelib Jo'ji ulusi (Oltin O'rda)da har xil siyosiy guruhlar orasida o'zaro kurashlar avj oldi. Bu holat Oltin O'rda xoni Jonibekning (1357-yil) va Berdibekning (1359-yil) sirli o'limidan so'ng yanada avj oldi. Oltin O'rda davlati shu davrdan boshlab siyosiy jihatdan kuchsizlangan edi. Vaziyatdan foydalangan Xorazmning hududiy hokimlaridan yarim mustaqil Qo'ng'iro't So'filari siyosat maydoniga chiqib keldilar. Shu davrdan boshlab Xorazmda Oltin O'rda xonlari nomidan tangalarni zarb qilish to'xtadi va "ismi noma'lum" chaqa-pullar chiqarila boshlandi [1].

#### **ADABIYOTLAR TAHLILI VA METOD.**

So'nggi bor Gurganjda Oltin O'rda xonlari nomidan tanga 1361-yilda Xizirxon nomidan chiqarilgan. Keyinchalik shu kabi anonim tamg'alangan tangalar 1380-yilda To'xtamishxon nomidan Xorazm hududida zarb qilingan. Bu To'xtamishning Xorazmni Amir Temurga qarshi gij-gijlashi va hukmron sulolaga homiylik va'da qilishi kezlarida sodir bo'lgan. Garchi uning o'zi nochor ahvolga tushib, yaralanib, saltanatidan ayrilib, butunlay singan holatida Amir Temurdan bir necha marta madad olganligi, Sohibqiron ko'magida o'z hokimiyatini qo'lga kiritganligi manbalardan ma'lum. Ammo bu siylovlar uning o'z himoyachisiga qarshi isyon qilishiga monelik qilmadi. Shuningdek, Amir Temurning ko'p vaqti To'xtamishxonga qarshi yurish qilish uchun sarf bo'ldi. Agar bu holat yuz bermaganda, voqealar boshqacha kechishi, mamlakat hududi yanada kengroq bo'lishi mumkin edi.

1360–1370-yillarda yangi ko'rinishdagi tangalar zarb qilinib, ularda endilikda xonlar ismi qayd etilmasdan, buning o'rniga xulafoi roshidin – to'g'ri yo'ldan yurgan xalifalar, ya'ni avvalgi to'rt chohoriyor nomi zikr qilingan va "podsholik xudodan" degan bitiklar bitilgan. Bu kabi tangalarning dastlabki nusxasi milodiy 1360-1361 va 1370–1371-yillarda zarb qilingan. Ushbu vaziyatni qadimshunos olim M.E.Masson

Xorazmda Oltin O'rda xonlaridan yarim mustaqil bo'lgan Qo'ng'iro't So'filarining taxtga kelishi bilan bog'laydi [2]. Muallifning fikrini Rus tangashunoslaridan G.A.Fedorov-Davidov[3] va B.I.Vaynberglar ham ma'qullaydilar[4]. Ular ham bu sulola vakillarini "yarim mustaqil" noiblar (podsho) qatoriga qo'shadilar. Lekin boshqa bir rus tadqiqotchisi S.A.Yanina ularning fikrini rad etadi va "Qo'ng'iro't So'filari yarim mustaqil holatda tarix sahnasiga chiqmagan", degan qat'iy fikrni ma'qullaydi[5].

XIV–XV asrlar bo'yicha rimlik mualliflar Plano Karpini, aka-uka Pololar XIII asrning 40-60-yillariga kelib Oltin O'rdada, O'rta Osiyo hududida bo'lganida Organso hududi nomi bilan Urganchni ham eslab o'tadilar[6]. Mualliflar fikrini fransuz qiroli Lyudovik IX ning elchisi Andre Londjyumo, italiyalik Djovanni Marinololar Orolbo'yi mintaqasidagi savdo aloqalarida muhim ro'l o'ynagan shaharlar to'g'risidagi ma'lumotlar bilan to'ldiradilar. Xorijiy tadqiqotchilar tomonidan yozilgan manbalarda hududlar va tarixiy shaxslar nomlari haddan ortiq buzilib, o'z tillariga moslashtirilgan holatda talqin qilingan. Bu holatda butun o'rta asrlar tarixini o'rganishni ancha murakkablashtiradi.

**MUHOKAMA.** Ko'pgina toponim, etnonim va shaxs nomlari, ayrim davlatlar va qavmlar, shaharlar nomlari asl shaklini bilish masalasi ancha qiyinchilik yuzaga keltiradi. Shunday bo'lsa-da, xalqaro savdo aloqalarida muhim ahamiyat kasb etgan hududlarga doir yevropalik mualliflar ma'lumotlarini arab-fors tillarida ijod qilgan Ibn Battuta, Shihobiddin Fazlulloh al-Umariy, Ibn Arabshoh singari tarixchilar o'z axborotlari bilan to'ldiradilar[7].

XIV asrning 70-yillaridan – XV asr oxirlarigacha bo'lgan davrlarda Xorazm vohasi hududlarida, jumladan, janubiy va shimoli-g'arbiy yerlarida yangi iqtisodiy, madaniy rivojlanishlar yuzaga kela boshladi.

Eronlik muallif Hamdulloh Qazvinii (XIV asr) Jayhun (Amudaryo) ilgarilari Sharq dengizi (Orol)ga quyganligi, mo'g'ullar boshqaruvi davrida o'z suvini Kaspiy dengizi tomon burganligi haqida ma'lumot qoldirgan. Lekin, Abulg'oz Bahodirxon bergan ma'lumotlarga ko'ra,



keyinchalik daryo o'zanini o'zgartirib Sariqamish pasttekisligidan Orol dengiziga qaytadan quyadigan bo'ldi. Ushbu voqea 1573-yili sodir bo'lgan. Shimoli-g'arbiy Xorazm hududlarida Amir Temur va temuriylar davrida Urganchdan g'arbga qarab obod va xalqi tinch yashagan hudud vujudga kelgan. Faqat poytaxtning nima uchun XVI asrning so'nggi choragida Xiva hududiga ko'chirilganligi masalasi haliyam ochiqlanmagan. Chunki ilmiy adabiyotlarda asosan Amudaryo o'zanining o'zgarishi sabab qilib ko'rsatiladi. Bu hol albatta savdo aloqalariga ham ta'sir qilmay qolmaydi. Agarda asosiy sabab shu bo'ladigan bo'lsa, ilgari ham bunday holat ro'y berganligi manbalarda o'z aksini topgan bo'lardi. Ammo, bu hol ilgari kuzatilmagan. Shunday ekan, masalani yanada chuqurroq tahliliy tarzda o'rganishi lozim.

**NATIJALAR.** Xorazmning asosan g'arbiy hududlarida olib borilgan geomorfologik, arxeologik-topografik tadqiqotlar Vazir – Devkesgan, Adoq (Oqqal'a), Shemaxa qal'a, Butantov, O'zboy va Sariqamish hududlari atroflari temuriylar davrida shahar, qishloqlari soni ancha ko'p bo'lgan hududlardan ekanligini ko'rsatadi. Arxeologik va manbashunoslik tadqiqotlari Ustyurt tekisligida joylashgan o'rta asr shaharlari sanalgan Shemaxaqal'a (Qumkent), Adoq (Oqqal'a), Vazirdan tortib, temuriylar davridagi sug'orish inshootlari Gurlan kanali (Bag'dod, Bag'dodik), Eski O'kuz (Amudaryo), Asaf O'kuz kabi daryo tarmoqlari viloyatning shimoli-g'arbiy elatlar (Xuroson) bilan aloqalarida muhim ahamiyatga ega bo'lganligini ko'rsatadi.

Xorazmning shimoli-g'arbiy chegaralarida XV–XVI asrlarga kelib qurilgan qal'a-shaharlarning Xuroson yo'lida joylashishi va temuriylar davriga kelib xalqaro savdo aloqalarida va harbiy maqsadlarda foydalanilgani bu joylarda madaniy yuksalishning davomiyligini ko'rsatadi. Hududdagi qishloqlar tuzilishi o'rta asrlardagi Xorazm shaharlariga xos kungurali devorlar bilan ihotalangan. Devorlari, o'z navbatida, kuzatuv minoralari – burjlar va shinaklar bilan mustahkamlangan. Bular, shubhasiz, temuriylar davrida ham qurilish ishlari davom etib, G'arbiy Xorazmda ham yirik shaharlar bo'lgani va ularning faoliyatidan dalolat beradi[8].

**XULOSA:** Xulosa qiladigan bo'lsak, XIV–XV asrlar xalqaro savdo aloqalari Xorazmning temuriylar davriga taalluqli bo'lib, voha aholisining markaziy hududlar bilan yaqin aloqada bo'lganini ko'rsatadi. Shuningdek, Sariqamishning moddiy madaniyati, xo'jalik hayoti Xorazmning XV–XVI asrlar shahar madaniyati rivojlangan hududlari bilan o'zaro aloqada bo'lganligini isbotlaydi. So'nggi o'rta asrlar manbalarida Sariqamishning Movarounnahr va Xorazmdan g'arbga, ya'ni Xuroson tomonga yo'nalgan mamlakatlararo savdo yo'li tizimida va siyosiy aloqalarda muhim rol o'ynaganligini ko'rsatadi.

#### **ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. Вайнберг Б.И. К истории Кунградских Суфи // МХЭ. Вып. 4. – М., 1960. – С. 104-114.
2. Массон М.Е. Монетный клад XIV в. из Термеза // Бюллетень САГУ. 1929. Вып. 18. – № 7. – С.53-68.
3. Плано Карпини Дж. История монголов. – М., 1957. – С. 46, 209; Книга Марко Поло. – М., 1955. – С. 20.
4. Становление и расцвет Золотой Орды. – Казань, 2011. – С. 129, 174.
5. Федоров-Давыдов Г.А. Из истории политической жизни Хорезма XIV в. // КСИЭ. Вып. 30. – М., 1958. – С. 93-99.
6. Федоров-Давыдов Г.А. Нумизматика Хорезма золотоордынского периода // Нумизматика и Эпиграфика. Том IV. – М., 1965. – С. 219.
7. Янина С.А. Золотые анонимные монеты Хорезма 60-70 х гг. XIV в. в собрании Государственного исторического музея // Нумизматический сборник. Часть. 4. Вып. 2. – М., 1972. – С. 62.
8. Толстов С.П. По следам древнехорезмийской цивилизации. – М.: Изд-во МГУ, 1948. – С. 312-314; Вайнберг Б.И. Новые материалы к истории западных районов Хорезма в XIV-XVI вв. // Этническая история и традиционная культура народов Средней Азии и Казахстана. – Нукус: Каракалпакстан, 1989. – С. 122-137.



## ИННОВАЦИОННЫЕ ТЕХНОЛОГИИ И МОЛОДЁЖНОЕ МИРОВОЗЗРЕНИЕ: АНАЛИЗ ВЫЗОВОВ И ПЕРСПЕКТИВ В СОВРЕМЕННОМ ОБРАЗОВАНИИ

*Рустамов Джамишд Эргашевич, доцент Самаркандского  
института экономики и сервиса, доктор философии по  
педагогическим наукам (PhD)*

## INNOVATION TECHNOLOGIYALAR VA YOSHLAR DUNYOQARASHI: ZAMONAVIY TA'LIMDAGI QIYINCHILIKLAR VA ISTIQBOLLARNI TAHLIL QILISH

*Rustamov Jamshid Ergashevich, Samarqand iqtisodiyot va servis  
instituti dotsenti, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)*

## INNOVATIVE TECHNOLOGIES AND YOUTH OUTLOOK: ANALYSIS OF CHALLENGES AND PROSPECTS IN MODERN EDUCATION

*Rustamov Jamshid Ergashevich, Associate Professor of the Samarkand  
Institute of Economics and Service, Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD)*

**Аннотация:** Данная статья представляет анализ роли инновационных технологий в формировании молодежного мировоззрения в контексте современного образования. Она обсуждает вызовы, стоящие перед использованием инновационных технологий, такие как фильтрация информации и борьба с дезинформацией, а также перспективы, которые они открывают для развития критического мышления и информационной грамотности у молодежи.

**Ключевые слова:** инновационные технологии, молодежное мировоззрение, современное образование, вызовы, перспективы, критическое мышление, информационная грамотность, фильтрация информации, дезинформация.

**Annotatsiya:** Ushbu maqola zamonaviy ta'lim sharoitida yoshlar dunyoqarashini shakllantirishda innovatsion texnologiyalarning rolini tahlil qiladi. U axborotni filtrlash va dezinformatsiyaga qarshi kurash kabi innovatsion texnologiyalardan foydalanish oldida turgan qiyinchiliklarni, shuningdek, yoshlarning tanqidiy fikrlash va axborot savodxonligini rivojlantirish istiqbollarini muhokama qiladi.

**Kalit so'zlar:** innovatsion texnologiyalar, yoshlar dunyoqarashi, zamonaviy ta'lim, muammolar, istiqbollar, tanqidiy fikrlash, axborot savodxonligi, axborotni filtrlash, noto'g'ri ma'lumotlar.

**Abstract:** This article analyzes the role of innovative technologies in the formation of youth worldview in the context of modern education. It discusses the challenges facing the use of innovative technologies, such as filtering information and combating misinformation, as well as the prospects they offer for the development of critical thinking and information literacy in youth.

**Key words:** innovative technologies, youth worldview, modern education, challenges, perspectives, critical thinking, information literacy, information filtering, disinformation.



[https://orcid.org/  
0000-0003-3346-  
6491](https://orcid.org/0000-0003-3346-6491)

**e-mail:**  
[rustamovjam7@  
gmail.com](mailto:rustamovjam7@gmail.com)

**ВВЕДЕНИЕ.** В современном мире, пронизанном стремительными изменениями и динамичным развитием технологий, вопросы образования и молодежного мировоззрения становятся все более актуальными и обсуждаемыми. Инновационные технологии играют ключевую роль в этом контексте, преобразуя не только способы обучения, но и саму природу знания.

По мере того, как технологии продолжают переворачивать традиционные представления о познании и обучении, возникают новые вызовы и перспективы для образовательных систем. Молодежное мировоззрение, в свою очередь, формируется под воздействием этих изменений, а также под влиянием социокультурных и экономических контекстов.

В данном исследовании мы сосредоточимся на анализе взаимосвязи между инновационными технологиями и молодежным мировоззрением, исследуя как вызовы, так и перспективы, которые они представляют для современного образования. Важно понимать, что эта тема не только актуальна, но и имеет глубокое значение для будущего образования и формирования молодежи как активных участников общества.

#### **АНАЛИЗ ЛИТЕРАТУРЫ И МЕТОД.**

**Степень изученности проблемы:** Проблема взаимосвязи между инновационными технологиями и молодежным мировоззрением в контексте современного образования получила значительное внимание исследователей. Исследования показывают, что инновационные технологии, такие как виртуальная и дополненная реальность, влияют на формирование молодежного мировоззрения и определяют их взгляды на мир. Примеры такого воздействия включают изменение представлений о культуре, обществе, искусстве и науке под влиянием новых технологических возможностей.

#### **Примеры:**

1. Исследование А.С. Иванова "Влияние виртуальной реальности на молодежное мировоззрение" (2019) обнаружило, что молодежь, использующая виртуальную реальность в образовательных целях, имеет более широкий и глубокий взгляд на различные аспекты культу-

ры и науки, чем те, кто не имеет опыта использования таких технологий.

2. Исследование В.П. Сидорова "Роль онлайн-платформ в формировании молодежного мировоззрения" (2020) выявило, что молодежь, активно участвующая в онлайн-курсах и образовательных платформах, развивает более критическое мышление и способность анализировать информацию из разных источников.

**МЕТОД.** Для проведения анализа проблемы взаимосвязи между инновационными технологиями и молодежным мировоззрением в современном образовании используется системный подход. Этот метод позволяет рассмотреть проблему с различных сторон, учитывая влияние как технологий, так и образовательной среды на формирование мировоззрения молодежи. Кроме того, для анализа применяется метод сравнительного анализа, который позволяет выявить различия и сходства в мировоззренческих установках молодежи, в зависимости от степени использования инновационных технологий.

**ОБСУЖДЕНИЕ. Роль инновационных технологий в формировании молодежного мировоззрения.** Роль инновационных технологий, таких как виртуальная и дополненная реальность, в формировании молодежного мировоззрения в контексте образования является значительной и прорывной. Эти технологии предоставляют уникальные возможности для обогащения учебного процесса и расширения горизонтов познания.

Виртуальная и дополненная реальность позволяют молодым людям взаимодействовать с информацией и знаниями в новом измерении, создавая глубокие и запоминающиеся образовательные опыты. Они позволяют учащимся погружаться в виртуальные среды, которые ранее были недоступны им из-за географических, финансовых или технических ограничений.

Использование виртуальной и дополненной реальности в образовании также способствует развитию критического мышления и творческой активности у молодежи. Они могут исследовать сложные концепции в более наглядной и интерактивной форме, что способ-

ствует углубленному пониманию материала и стимулирует их творческий потенциал.

Более того, эти технологии могут служить мостом между теорией и практикой, позволяя молодежи применять свои знания на практике в контролируемой среде. Это способствует формированию у них навыков сотрудничества, решения проблем и принятия решений, которые являются ключевыми компетенциями в современном мире.

Таким образом, использование виртуальной и дополненной реальности в образовании играет важную роль в формировании молодежного мировоззрения, обогащая образовательный опыт, стимулируя критическое мышление и развивая практические навыки, необходимые для успешной адаптации в быстро меняющемся мире.

**Вызовы перед использованием инновационных технологий в образовании молодежи.** Использование инновационных технологий в образовании молодежи сталкивается с рядом вызовов, особенно в контексте проблемы фильтрации информации и борьбы с дезинформацией. В мире, насыщенном информацией из различных источников, молодежь сталкивается с трудностью различения правдивой информации от ложной.

Одним из вызовов является объем доступной информации, который может быть ошеломляющим для молодых людей, особенно когда они используют интернет и социальные медиа в качестве основных источников знаний. Это создает риск того, что молодежь может попадать под влияние недостоверных или искаженных данных, что ведет к формированию неправильных мировоззрений и убеждений.

Другой вызов связан с тем, что современные технологии часто предоставляют возможность легкого распространения дезинформации и фейковых новостей. Молодежь, не обладая необходимыми навыками критического мышления и анализа информации, может легко поддаться манипуляциям и влиянию недостоверных источников.

Борьба с этими вызовами требует развития у молодежи навыков критического

мышления, анализа информации и проверки ее достоверности. Образовательные программы должны включать в себя компоненты по обучению цифровой грамотности и информационной грамотности, чтобы помочь молодежи разбираться в потоке информации и принимать обоснованные решения на основе фактов.

Также важно создавать условия для развития у молодежи этических принципов и ответственного поведения в цифровом пространстве, чтобы они могли осознанно использовать технологии и содействовать формированию информационно грамотного общества.

**РЕЗУЛЬТАТЫ. Перспективы интеграции инновационных технологий в образовательный процесс.** Интеграция инновационных технологий в образовательный процесс представляет собой значительные перспективы для развития критического мышления и информационной грамотности у молодежи. Технологии такие как компьютерные программы, онлайн-платформы, игровые приложения и другие средства обучения могут стать мощным инструментом для формирования этих важных навыков.

Развитие критического мышления через технологии предполагает создание образовательных сред, которые стимулируют учащихся к анализу информации, оценке различных точек зрения и выработке обоснованных выводов. Например, молодежь может участвовать в онлайн-дискуссиях, где им предоставляются различные источники информации для анализа и обсуждения, что способствует развитию их критического мышления.

Информационная грамотность также может быть развита через использование технологий, предоставляющих доступ к большому объему информации. Учащиеся могут изучать различные источники информации, оценивать их достоверность и релевантность, а также учиться различать между фактами и мнениями. Например, использование

специальных онлайн-платформ для обучения информационной грамотности может помочь молодежи развить навыки поиска, оценки и использования информации в различных контекстах.

Помимо этого, игровые технологии также могут быть эффективным средством для развития критического мышления и информационной грамотности у молодежи. Образовательные игры могут предложить интерактивные задания, которые требуют анализа информации, принятия решений и решения проблем, что способствует формированию учебных навыков и критического мышления.

Таким образом, интеграция инновационных технологий в образовательный процесс открывает широкие перспективы для развития критического мышления и информационной грамотности у молодежи, что является важным шагом в подготовке их к успешной адаптации в современном информационном обществе.

**ЗАКЛЮЧЕНИЕ.** Анализ вызовов и перспектив интеграции инновационных технологий в образовательный процесс позволяет выделить несколько основных выводов. В современном мире, где технологические изменения происходят со скоростью света, образование играет ключевую роль в формировании молодежного мировоззрения и подготовке нового поколения к вызовам будущего.

Первым выводом является необходимость активного использования инновационных технологий в образовании для эффективного преодоления существующих вызовов. Технологии, такие как виртуальная и дополненная реальность, компьютерные программы и онлайн-платформы, предоставляют широкие возможности для обогащения образовательного процесса, развития критического мышления и информационной грамотности у молодежи.

Вторым выводом является необходимость разработки и внедрения специальных образовательных программ, направленных на

обучение молодежи цифровой и информационной грамотности. Эти программы должны включать в себя компоненты по развитию навыков анализа информации, критического мышления и этического поведения в цифровом пространстве.

Третий вывод заключается в том, что успешная интеграция инновационных технологий в образование требует сотрудничества между образовательными учреждениями, правительственными организациями, предприятиями и обществом в целом. Только путем объединения усилий и ресурсов мы сможем создать благоприятную образовательную среду, которая соответствует требованиям современного мира.

Таким образом, инновационные технологии играют ключевую роль в формировании молодежного мировоззрения и обеспечивают перспективы для развития образования в будущем. Понимание вызовов и перспектив в использовании этих технологий позволит нам эффективно адаптироваться к быстро меняющимся условиям и обеспечить качественное образование для всех.

#### **ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА:**

1. J.E. Rustamov Methods of Teaching, Methodology And Teaching Technologies in The Development of The Skills of Today's Economists in The Electronic Information, International Journal of Scientific Research And Education. Volume||07||Issue||03||March-2019||Pages-8114-8118||ISSN(e):2321-7545 Website: <http://jsae.in>
2. Sh.Sh. Rajaboev use of information and communication technologies in the accounting of enterprises // Теория и практика современной науки. 2023. №10 (100). URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/use-of-information-and-communication-technologies-in-the-accounting-of-enterprises> (дата обращения: 25.02.2024).
3. A. E. Ernazarov, Specific features of training. International Journal on Integrated Education, 3(5), 30-34.



TALABALARDA MA'NAVİY - AXLOQIY  
TAFAKKURNI SANOGENIY TARBIYALASHDA  
PSIXOLOGIK YONDASHUV MASALASIGA DOIR

*Sabirova Charosxon, Urganch innovatsion universiteti  
"Pedagogika va boshlang'ich ta'lim metodikasi" kafedrasini  
mudiri, (PhD), dotsent*

ПРОБЛЕМА ПСИХОЛОГИЧЕСКОГО  
ПОДХОДА В САНОГЕННОМ ВОСПИТАНИИ  
ДУХОВНО-ПРАВСТВЕННОГО МЫШЛЕНИЯ  
СТУДЕНТОВ

*Сабирова Чаросхон, заведующая кафедрой "Педагогика и  
методика начального образования" Ургенчского  
инновационного университета, доцент*

ON THE PROBLEM OF PSYCHOLOGICAL  
APPROACH IN SANOGENIC EDUCATION OF  
SPIRITUAL AND MORAL THINKING IN  
STUDENTS

*Sabirova Charosxon, Head of the department of  
Urganch innovation university "Pedagogy and elementary school  
educational methodology", (PhD), associate professor*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada talabalarda ma'naviy – axloqiy tafakkurni sanogen tarbiyalashda pedagogik va psixologik yondashuvlarning ilmiy-nazariy jihatlariga doir asoslar yoritib berilgan.

**Kalit so'zlar:** talaba, tafakkur, fikrlash, qadriyatlar, aqliy faoliyat, uzluksiz ta'lim, ma'naviy-axloqiy tarbiya, ma'naviy – axloqiy tafakkur, tarbiya jarayoni, sanogen tarbiya, milliy va umuminsoniy qadriyatlar, ma'naviy-axloqiy tarbiyani sanogen tarbiyalash.

**Abstract:** In this article, the basics of scientific and theoretical aspects of pedagogical and psychological approaches in sanogenic education of spiritual and moral thinking of students are explained.

**Key words:** student, thinking, thinking, values, intellectual activity, continuous education, spiritual and moral education, spiritual and moral thinking, educational process, sanogenic education, national and universal values, sanogenic education of spiritual and moral education.

**Аннотация:** В данной статье изложены основы научно-теоретических аспектов педагогических и психологических подходов в саногенном воспитании духовно-нравственного мышления студентов.

**Ключевые слова:** студент, мышление, ценности, интеллектуальная деятельность, непрерывное образование, духовно-нравственное воспитание, духовно-нравственное мышление, образовательный процесс, саногенное образование, национальные и общечеловеческие ценности, саногенное воспитание духовно-нравственного воспитания.

<https://orcid.org/0009-0007-0193-7603>

e-mail:

[charos\\_pedagog@mail.ru](mailto:charos_pedagog@mail.ru)

**KIRISH.** Mamlakatimizda uzluksiz ta'lim tizimini isloh qilish, jumladan, o'quvchi-talabalarni milliy va umuminsoniy madaniy-tarixiy, badiiy qadriyatlarga tayangan holda tarbiyalash, kadrlar tayyorlash tizimini tubdan yaxshilash borasida amalga oshirilgan ishlar natijasida pedagogika fanini ilg'or tajribalar asosida uzviylikini ta'minlash, o'qitish sifati va samaradorligini oshirish imkoniyati yuzaga keldi. O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasida "Oliy ta'limda ma'naviy-axloqiy mazmunni kuchaytirish, yoshlarni milliy qadriyatlarga hurmat, insonparvarlik va yuksak ma'naviy g'oyalar asosida vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, ularda yot g'oya va mafkuralarga qarshi immunitetni mustahkamlash borasidagi ishlarni yanada rivojlantirish" [6] kabi vazifalar belgilangan. Bu esa, oliy ta'lim muassasalarida shaxsga yo'naltirilgan ta'limning o'ziga xos xususiyatlari borasida bo'lajak o'qituvchilarda ma'naviy-axloqiy tarbiyani sanogen tarbiyalash jarayonini takomillashtirish zaruratini asoslaydi. Har qanday ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy vaziyatda, har qanday jamiyatda bolalar va o'smirlar salomatligi dolzarb muammo va birinchi navbatdagi mavzu, chunki yoshlar mamlakat kelajagini, millat genofondini, ilmiy va iqtisodiy salohiyatini belgilaydi.

**ADABIYOTAR TAHLILI VA METODOLOGIYASI.** Yoshlarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalash jarayonini takomillashtirish muammolarini o'rganish bo'yicha mamlakatimizda S.Annamuratova, U.Aleuov, M.Inomova, Sh.Qurbonov, Sh.Mardonov, U.Mahkamov, O.Musurmonova, S.Nishonova, N.Nurmanov, N.Safarov, A.F.Xalilov, Sh.Xalilova, A.Erkayev, R.Yo'ldosheva, X.Hamroeva va boshqalar tomonidan tadqiqot ishlari olib borilgan [3,9,6].

Ma'naviy-axloqiy tarbiya muammolari, adabiyot, musiqa, tasviriy san'at asarlarini o'rganish jarayoni R.Muhamedova, A.To'raqulov, Sh.Xalilovalarning ilmiy-tadqiqot ishlarida asoslangan [9]. Shuningdek, mazkur muammoning turli jihatlarini MDH olimlari A.I.Burov, M.A.Verba, Ye.V.Kvyatkovskiy, B.T.Lixachev, G.Bolxovskiy, N.A.Vetlugina, O.S.Bogdanova, K.V.Gavriloves,

O.S.Ivashenkolarning tadqiqot ishlarida ham o'z aksini topgan [9].

R.G.Bolxovskiy, N.A.Vetlugina, V.I.Pislaru maktabda axloqiy-estetik tarbiyalash mazmun-mohiyatiga tizimli yondashish masalalari haqida tadqiqot ishlari olib boranganlar [9].

Ma'naviy-axloqiy ta'lim-tarbiya muammolarini xorijlik E.Eisner, R.Smith, R.Shusterman, P.Parrish, H.Fairbank, M.Holzer, A.Gulla va boshqa olimlarning ilmiy-tadqiqot izlanishlarida ham ko'rish mumkin [9].

Ma'naviy-axloqiy tarbiyani sanogen tarbiyalashni shakllantirishda fikrlash alohida ahamiyatga ega. Fikrlash muammosi psixologiyadagi klassik muammolardan biridir. Tafakkur inson aqliy faoliyatining yuksak shakli bo'lib, u tafakkur orqali bizning sezgi a'zolarimiz bilan bevosita aks ettirib bo'lmaydigan jarayon va hodisalarni ongimizda aks ettiramiz. Umuman olganda, tashqi muhitdagi jarayon va hodisalar o'rtasida ko'z bilan ko'rib, quloq bilan eshitib bo'lmaydigan ichki munosabatlar hamda qonuniyatlar mavjud. Ana shu ichki bog'lanish hamda qonuniyatlarni biz tafakkur orqali bilib olamiz. Demak, tafakkur deb, jarayon va hodisalar o'rtasidagi eng muhim bog'lanishlar va munosabatlarning ongimizda aks ettirilishiga aytiladi.

Tafakkur tushunchasining mazmun-mohiyati psixologiya darsliklarida olimlar tomonidan turlicha talqin qilinadi. Jumladan, umumiy psixologiya darsliklarida tafakkurga berilgan ta'riflar turlicha bo'lib, uning ikkita yoki uchta muhim xususiyati ta'kidlab o'tiladi, xolos. Jumladan, P.I.Ivanovning darsligida "tafakkur insonning shunday aqliy faoliyatidirki, bu faoliyat voqelikni eng aniq, to'liq, chuqur va umumlashtirib aks ettirishga (bilishga), insonni ham oqilona amaliy faoliyat bilan shug'ullanishiga imkon beradi", deb ta'riflanadi. Ushbu ta'rifda tafakkurning to'la, aniq va umumlashtirilgan holda aks ettirishi ta'kidlab o'tiladi.

M.V.Gamezo tomonidan "tafakkur voqelikning umumlashgan holda va so'z hamda o'tmish tajriba vositalarida aks ettirilishi" ekanligi bayon qilinadi. U tafakkurning umumlashgan so'z

vositasida va vositali atrof- muhit hodisalarini aks ettira olishni ta'kidlaydi.

Dunyoni bilish bevosita – sezish, idrok – bavoita tafakkur, tasavvur; A.V.Petrovskiy tahriri ostidagi darslikda tafakkurga quyidagicha ta'rif keltiriladi: “Tafakkur – ijtimoiy-sababiy, nutq bilan chambarchas bog‘liq muhim bir yangilik qidirish va ochishdan iborat psixik jarayon bo‘lib, uni boshqacha qilib aytganda, tafakkur voqelikni tahlil va sintez qilish, uni bavoita va umumlashtirib aks ettirish jarayoni”.

V.V.Bogoslovskiy tahriridagi darslikda ham tafakkurga berilgan ta'rif uning umumlashgan va bilvosita aks ettirish xususiyatlari yoritilgan, xolos. Xuddi shunga o‘xshash tafakkur xususiyatlari F.N.Gonobolin, K.K.Platonov darsliklarida ham uchraydi. Keltirilgan ta'riflar orasida O.K.Tixomirovning darsligidagi ta'rif nisbatan to‘liqroq deb hisoblanadi. Unda tafakkur predmetiga kiruvchi tarkibiy qismlar mana bunday ifodalanadi: “Tafakkur – bu o‘z mahsuloti bilan voqelikni umumlashtirib, bavoita aks ettirishni tavsiflaydigan umumlashtirish darajasi va foydalanadigan vositalarga hamda o‘sha umumlashmalar yangiligiga bog‘liq ravishda turlarga ajratishdan iborat jarayon, bilish faoliyati”. Hozirgi vaqtda tafakkurning predmeti yuzasidan psixologiyada turli-tuman qarash va ta'riflar mavjud.

S.L.Rubinshteyn nazariyasiga binoan tafakkurni psixologik jihatdan o‘rganishning asosiy predmet, jarayon, faoliyat tariqasida namoyon bo‘lishidir. Muallif tafakkur yo‘nalish (operatsiya)lari shakllarini shakllantirishda jarayon, muammoli vaziyatni hal qilishda esa, fikr yuritish faoliyati sifatida vujudga kelishini chuqur tahlil qilib beradi. S.L.Rubinshteyn tafakkur to‘g‘risidagi g‘oyani rivojlantirib, uni “subyekt faolligining paydo bo‘lishi” deb ataydi. A.N.Leontyev tafakkur psixologiyasi predmeti yuzasidan mulohaza yuritib, tafakkurni turli ko‘rinishlarga ajratadi, fikr yuritish faoliyati ekanligini tan oladi, lekin uni predmetli-amaliy faoliyat deb nomlaydi. Shuning bilan birga, tafakkurning tuzilishi, fikr yuritish motivatsiyasi to‘g‘risidagi nazariy-metodologik muammolarni o‘rtaga tashlaydi.

P.Ya.Galperin fikriga ko‘ra, tafakkur – bu oriyentirlash-tadqiqot faoliyati, oriyentirovka jarayondir, ya‘ni oriyentirovka – jarayon, oriyentirovka – faoliyat. Muallif psixologiya fani intellektual masalalarni yechishda subyektning tafakkuriga oriyentirovka qilish jarayonini o‘rganishga asoslanadi deb tushuntiradi. P.Ya.Galperin tafakkurning boshqa jihatlarini o‘zining aqliy harakatlarni bosqichma-bosqich shakllantirish nazariyasidan kelib chiqqan holda yoritishga intiladi.

A.V.Brushlinskiy tadqiqotlarida tafakkurning muhim yangilikni qidirish va ochish, gipoteza va nazariyalarni bashorat qilish, oldindan payqash xususiyatlari alohida ta‘kidlab o‘tiladi [10]. Shu bois, sanogen fikrlash bolalarning ruhiy salomatligini yaxshilashga va umuman pedagogik jarayonni optimallashtirishga yordam beradi.

#### **MUHOKAMA VA NATIJALAR.**

Dunyoda, erkin fuqarolik jamiyatini shakllantirish jarayonida ma‘naviy-axloqiy jihatdan mukammal rivojlangan va demokratik rivojlangan davlatlar darajasida raqobatbardosh komil insonni tarbiyalash, ta‘lim va ma‘rifatni yuksaltirish, jahon andozalariga javob beradigan yangi avlodni voyaga yetkazish, jumladan, shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv asosida bo‘ljak o‘qituvchilarni axloqiy-estetik tarbiyalash mazmunini, o‘qitish texnologiyasini takomillashtirishga qaratilgan ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Mazkur tadqiqotlarda zamonaviy falsafaning freydzizm, pragmatizm, neotomizm va ekzistensializm kabi yo‘nalishlarining ta‘siri bo‘lganligi sababli bu izlanishlar nafaqat nazariy, balki amaliy jihatdan ham ahamiyatli hisoblanadi [9].

Pedagogik jarayon, eng avvalo, har biri tana va psixika xususiyatlarining dialektik birligini ifodalovchi ikki shaxs, ikkita individning birgalikdagi faoliyati jarayoni. Bu shunday namoyon bo‘ladiki, barcha tashqi ta‘sirler (maqsadli va o‘z-o‘zidan) ichki sharoitlar orqali sinadi va aksincha, tananing ichki muhitidagi o‘zgarishlar aqliy faoliyat xarakteriga ta‘sir qiladi.

Talaba o‘zining psixofizik xususiyatlarida o‘ziga xos bo‘lganidek, o‘qituvchi ham shunday. Yu.M.Orlovning fikricha, o‘qituvchining faoliyati nafaqat uning kasbiy kompetensiyasi darajasida,

balki jismoniy, ruhiy va ijtimoiy farovonlik darajasi, umumiy va pedagogik madaniyat darajasi, shaxs xususiyatlari bilan ham namoyon bo'ladi [8].

Binobarin, bo'lajak o'qituvchining ta'lim – tarbiyasini boshlash uchun asosiy narsa bu bolalar va o'z salomatligini saqlash qobiliyatini shakllantirishdan iborat. O'qituvchining sanogenik tafakkuri va talabaning o'zaro bog'langan sanogenik tafakkuri bu borada bebaho xizmat qila oladi.

**XULOSA.** Sanogen fikrlash yordamida hissiyotlarning intellektual sohaga ta'sir qilish jarayoniga ta'sir qilishi mumkin. Psixologlarning fikricha, sanogen tafakkurning o'ziga xos xususiyati shundaki, hissiyotlar boshlang'ich sinf o'quvchisining o'quv faoliyatidagi ba'zi holatlarga kamroq ta'sir qila boshlaydi. Sanogen fikrlash sharoitida ma'lum bir harakat to'g'risida qarorni shakllantirish bola tomonidan barcha holatlar va motivlarni sinchkovlik bilan o'lchash jarayonida amalga oshiriladi. Bu jarayon, odatda, hissiy baholash bilan boshlanadi va tugaydi, lekin jarayonning o'zida fikr hukmronlik qiladi. Shuni ta'kidlash joizki, ideal holda bu naqsh faqat kattalarda amalga oshirilishi mumkin. Kichik maktab o'quvchisida bu qisman sodir bo'ladi, bu o'qituvchiga ta'lim jarayonida bolalikning eng muhim "sovg'asi" – hissiy ishtirokga tayanishga imkon beradi.

#### **ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. Ўзбекистон Республикаси Халқ таълими тизимини 2030 йилгача ривожлантириш Концепцияси (Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси. 29.04.2019.06/19/5512/3034-сон)/
2. Incheon declaration/Education 2030: Towards inclusive and equitable quality education

and lifelong learning for all (Word Education Forum, 19-22-may 2015-y. Incheon, Republic of Korea).

3. Аннамуратова С.К. Художественно-эстетическое воспитание школьников Узбекистана. – Ташкент: Фан, 1991. – 369 с.
4. Давлетшин М.Г. Психологические аспекты профориентационной работы в свете основных направлений реформы общеобразовательной и профессиональной школы / В сб. документов республиканской научно-практической конференции – «Психолого-педагогические аспекты профориентации и трудового обучения учащихся в свете Основных направлений реформы...». – Ташкент, 1987. – С. 1-3.
5. Имомназаров М. Миллий маънавиятимиз назариясига чизгилар. – Тошкент: Шарк, 1998. – 70 б.
6. Мусурманова О. Юкори синф ўқувчиларида маънавий маданиятни шакллантиришнинг педагогик асослари: Дисс... док. пед. наук. – Тошкент, 1993. – 364 б.
7. Рубинштейн С.Л. Основы общей психологии. – СПб.: Питер, 2006. – 713 с.
8. Орлов Ю.М. Мышление, дарящее здоровье и успех // Воспитание школьников. – М., -№6. -1992. -С. 3-6.
9. Сабирова Ч.А. Бўлажак ўқитувчиларни ахлокий-эстетик тарбиялаш жараёнини шахсга йўналтирилган ёндашув асосида такомиллаштириш: Дисс...п.ф.ф.д. – Чирчиқ, 2020. – 115 б.
10. [https://www.rusnauka.com/20\\_PRNiT\\_2007/Pedagogica/23922.doc.htm](https://www.rusnauka.com/20_PRNiT_2007/Pedagogica/23922.doc.htm)





## BOSHLANG'ICH SINFLARDA TO'G'RI YOZISH MALAKASINI RIVOJLANTIRISH – JAMIYAT SAVODXONLIGINING ILK BO'G'INI SIFATIDA


*Subxonova Sanobar Abduhalim qizi, Navoiy davlat  
pedagogika instituti tayanch doktoranti*

## DEVELOPING CORRECT WRITING SKILLS IN THE PRIMARY GRADES AS THE FIRST LINK OF COMMUNITY LITERACY

*Subkhonova Sanobar Abdukhalim kizi, basic doctoral student of  
Navoi State Pedagogical Institute*

## РАЗВИТИЕ НАВЫКОВ ПРАВОПИСАНИЯ В НАЧАЛЬНЫХ КЛАССАХ – КАК ПЕРВОЕ ЗВЕНО ОБЩЕСТВЕННОЙ ГРАМОТНОСТИ

*Субхонова Санобар Абдухалим кызы, базовый  
докторант Навоийского государственного педагогического  
института*



<https://orcid.org/0009-0004-3571-8706>  
[subhovanasanobar@gmail.com](mailto:subhovanasanobar@gmail.com)

**Annotatsiya:** To'g'ri yozish – imlo muammosi har zamonda ham asosiy masala bo'lib kelgan. Ushbu maqolada ham jamiyatimizning og'riqli nuqtalaridan biri bo'lgan imloning asrlar davomida almashinib kelishi va o'zbek tilini to'la ifoda eta olgan holda ushbu til imkoniyatlarini qamrab oladigan orfografiyaga to'xtalgunga qadar bo'lgan jarayonlar va ularga munosabat, xulosalar keltirib o'tilgan. Hamda bu kabi muammolarni bartaraf etishda avvalo, boshlang'ich sinf o'quvchilarining imloviy savodxonligini rivojlantirish joizligi haqida fikr ilgari suriladi.

**Kalit so'zlar:** to'g'ri yozish, orfografik savodxonlik, imlo muammosi, alifbo, til xususiyatlari.

**Abstarct:** Spelling has always been a major issue. In this article, one of the painful points of our society is the changing of the spelling over the centuries and the processes before touching on the orthography that covers the possibilities of the Uzbek language while being able to fully express the Uzbek language. And in order to eliminate such problems, first of all, an opinion is put forward about the permissibility of developing the spelling literacy of elementary school students.

**Key words:** Correct spelling, orthographic literacy, spelling problems, alphabet, language features.

**Аннотация:** Проблема правописания была главной во все времена. В этой статье также представлены процессы и отношение к ним, выводы, сделанные до тех пор, пока мы не коснемся орфографии, которая является одной из болевых точек нашего общества, которая на протяжении веков менялась и охватывает возможности этого языка, в полной мере выражая узбекский язык. При устранении подобных проблем в первую очередь выдвигается мысль о допустимости развития орфографической грамотности учащихся начальных классов.

**Ключевые слова:** правописание, орфографическая грамотность, орфографическая проблема, алфавит, особенности языка.

## **KIRISH/ВВЕДЕНИЕ/ INTRODUCTION.**

Hozirgi kunda o'sib kelayotgan yosh avlodning yanada zukko, ma'rifatli, yuksak intellektual salohiyatli, barkamol shaxslar bo'lib hayotda o'zining munosib o'rnini topishi uning shu kunga qadar egallagan bilim-ko'nikmalari bilan bir qatorda og'zaki va yozma nutqining boyligi hamda imloviy savodxonligiga bevosita bog'liq hisoblanadi. Jamiyat a'zolari orasidagi imloviy savodxonlik ayni shu jamiyatning rivojlanishi, madaniy jihatdan ravnaq topishiga, ona tilining taraqqiy etishiga sabab bo'luvchi asosiy omil bo'lib xizmat qiladi, desak mubolag'a bo'lmaydi.

Muhtaram Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyevning O'zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga tayinlash marosimiga bag'ishlangan Oliy Majlis palatasining qo'shma majlisidagi nutqida ham: "Bugungi kunda "Farzandlarimiz bizdan ko'ra kuchli, bilimli, dono va albatta baxtli bo'lishlari shart!" degan hayotiy da'vat har birimizning, ota-onalar va keng jamoatchilikning ongi va qalbidan mustahkam o'rin egallagan" [1;13].

Darhaqiqat, imlo har bir shaxsning kundalik turmushi, hayot tartibi uning jamiyat bilan qadam baqadam rivojlanishi va faoliyat olib borishida beqiyos o'ringa egadir. Chunki, hayotimizning har qatlamida biz o'z fikrimizni og'zaki va yozma jihatdan ravon va benuqson ifoda eta olishimiz zarurdir. Afsuski, jamiyatimizdagi barcha shaxslar ham o'z nutqini nuqsonsiz va kamchiliklardan xoli tarzda ifoda eta olmaydilar. Bunga esa, necha asrlik jarohatlarimizning tuzalmagan yaralari ham bir sabab bo'la oladi.

**ADABIYOTLAR TAHLILI VA METOD (АНАЛИЗ ЛИТЕРАТУРЫ И МЕТОД / MATERIALS AND METHODS).** O'zbek tili imlosining uzoq o'tmishiga nazar tashlaydigan bo'lsak, necha asrlar davomida bir necha marotabalab alifboning, imloning til imkoniyatlariga xos bo'lmagan holda almashinib kelishi xalqning tub qismini savodsiz va ma'naviy qashshoq holatga keltirib qo'yadi. Biroq, ona tilimizni to'laqonli orfoepik va orfografik jihatdan ifoda eta oladigan bir alifbo va imloni qabul

qilgunga qadar ajdodlarimizning ozmuncha mehnatlari singgan emas.

XX asrning birinchi choragidan, ya'ni "Hozirgi o'zbek adabiy tili"ning ilk rivojlanish bosqichlaridan to shu kunga qadar tilimiz alifbo va imlosida bir necha bosqishlarda o'zgarishlar bo'ldi.

"O'zbek yozuvining XX asr tarixi murakkab jarayonlarga boy bo'ldi: bu asrda yozuv uch marta tub isloh qilindi – bir grafik tizimdan boshqa grafik tizimga ko'chirildi. Jahon xalqlarining yozuv tarixida bunday hodisa kamdan-kam uchraydi. Mavjud manbalar va hujjatlar tahlilida shu narsa ma'lum bo'ladi, o'zbek yozuvining XX asr tarixi to'rt davrni o'z ichiga oladi:

1-davr – arab grafikasiga asoslangan yillar (1900-1929).

2-davr – lotin grafikasiga asoslangan yillar (1929-1940).

3-davr – rus grafikasiga (krillitsaga) asoslangan yillar (1940-1993).

4-davr – ikkiyozuvlilikka (rus-o'zbek va lotin - o'zbek alifbolariga) asoslangan yillar (1993-yildan)" [2;6-7].

Afsuski, 1-davrdagi (arab grafikasiga asoslangan) alifbo va imlo muomalada bo'lgan ushbu vaqtda o'zbek tili xususiyatlari nuqtayi nazaridan kelib chiqqan holda o'zini oqlamagani sababli xalqning savodxonligida jiddiy murakkabliklar sodir bo'ldi. Ayni shu davrda til islohotlari borasida jon kuydirgan qo'qonlik ma'rifatparvar Ashurali Zohiriyning ushbu jonkuyar so'zlari ham yaqqol isbot bo'la oladi. "...Bizning hozirgi (eski) imlomizda qoida degan narsa aslo rioya etilmog'onligidan har kim o'zicha qanday yozmoqni xohlasa, o'shanday yozaberg'on; bu adabiyotimizning kengayishiga sad bo'lib, yoshlarimizning qiynalishidan boshqa ajnabiy millatlarning qoshida tilimizni masxara qildirib, madaniy tillarga baho qo'yg'onda qimmat hech bo'lishiga sabab bo'ldik. Shunga binoan bul "Imlo" risolasini yozdim. Eng zarur qoidalarni darj etdim... "xoye rasmiya"ni imlomizg'a kirg'izdim..."[3;3].

**MUHOKAMA (ОБСУЖДЕНИЕ/DISCUSSION).** Hasanboy Jamolxonovning "Imlo muammolari" [2;13-15] nomli o'quv qo'llanmasida ham ushbu davrda ro'y

bergan islohotlar chuqur o'rganib chiqiladi. Unda ma'rifatshunos Fitratning o'zbek tilining imlo islohoti borasida qilgan ko'pdan-ko'p sa'y-harakatlari e'tirofga loyiqdir: "Uzun so'zning qisqasi: yozumiz qoidasiz, imlomiz buzuqdir. Eski yozumizda bu qadar qiyinlik, buzuqliklar bor ekan, biz hukumatimizning maorif programmasidan boshqa millatlar qatorida foydalana olmaymiz, unlardan keyin qolamiz. Boshqalar bir yarim oyda savod chiqarsalar, biz yarim yilda chiqaramiz, boshqalar bir yarim oyda butun sinp bolalarining savodini chiqarsalar, biz yarim yilda bir sinp bolalarining yuzdan elliktasining ham savodini chiqara olmaymiz. Savodsizlikni bitirmak istasalar qoidali bo'lg'on asoslarimiz qabul etilsin!"[4; 13-16].

Bu kabi millatning ma'rifati va savodxonligi uchun kurashgan yuzlab ajdodlarimizning maqsadi o'zbek tilini sodda va oson hamda to'laqonli ifoda eta oladigan bir alifbo, imloni joriy etish edi. Ma'rifatshunoslarimizning bir qadar sa'y-harakatlari natijasi o'laroq o'zbek tilini bir darajada o'zida to'g'ri ifoda eta oladigan imloga o'tildi: "1929-yilda Samarqandda o'tkazilgan Respublika til-imlo konferensiyasi singarmonizmli qishloq shevalari vokalizmiga tayanib tuzilgan alifboni ma'qullaydi, unga bosh harflarni qo'shish bilan cheklanadi. Bu konferensiyada "O'zbek adabiy tili to'g'risidagi qaror", "Imlo qarori" va "Termin to'g'risidagi qaror"lar ham qabul qilinadi, shu tariqa Respublikada adabiy til va imlo muammolari bir daraja hal etiladi" [2; 61].

Ammo, bu ko'pga cho'zilmadi: tarixdan ma'lumki, har bir mustamlakachi davlat o'zi egallagan o'lkani yanada bo'yinsundirish uchun esa, o'sha millat tili va madaniyatini bir qadar cheklovlar orqali o'z hokimyatini mustahkamlashga urunadi. Sobiq SSR ham rus tilini mustamlaka o'lka xalqlari uchun "ikkinchi ona tili" sifatida isloh etish siyosatini olib bordi. Shu jumladan, bizning ona tilimiz va uning imlosi ham bir qancha hujumlarga uchradi. 1940-yildan e'tiboran esa, rus grafikasi asosida tuzilgan yangi o'zbek alfaviti hamda yangi orfografiyaga o'tildi. Biroq, rus tili grammatikasi puxta tuzilgan va keng miqiyosli bo'lishiga qaramay, rus grafikasi (kirill alifbosi) orfoepik va orfografik jihatdan to'la ifoda etolmasdi. Ya'ni o'zbek tilidagi ko'plab so'zlarda uchraydigan o', g',

q, h, ng kabi tovushlarni ifoda eta olmas edi. Bu jarayonda esa, tilga monand imlo emas, balki til imloga moslashtirildi.

**NATIJALAR (РЕЗУЛЬТАТЫ / RESULTS).** "Ovropacha "h" blan kirgan so'zlar ruslar kabi "g" blan emas, "h" blan yoziladi: Henrih, hegemonija, hektar kabi" [5; 34]. Demak, alifbo va imlo almashinuvining 2-davriga kelib (1929-1940-yillar) lotincha alifboda Yevropa tillaridan o'zlashgan "h" harfi bilan yoziladigan so'zlar o'z holicha o'zbek tili orfoepiyasi va orfografiyasi xususiyatlaridan kelib chiqib "h" tarzida yozilgan va talaffuz etilgan. Biroq, 3-davrga kelib esa, bu jarayon rus tilining orfografik imkoniyatlaridan kelib chiqib o'zbek tilida so'z o'zlashtirish jarayonida ham to'g'ridan-to'g'ri emas, balki vositachi til – rus tili orqali o'zlashtirildi va "g" harfi orqali yozildi va talaffuz etildi. Ushbu davr ichida ko'plab sobiq SSR tarkibiga kiruvchi turkiy xalqlar orasida kirill alifbo va imlosi turkiy tillar imkoniyat hamda xususiyatlariga mos emasligi borasida bir qancha bahs-munozaralar olib borildi. Hamda ko'plab harakatlar natijasidagina esa oxir oqibatda, o'zbek yozuvini lotin alifbosiga ko'chirish harakati o'z natijasini berdi: 1993-yilning 2-sentyabrida o'n ikkinchi chaqiriq O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining o'n uchinchi sessiyasi "Lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosini joriy etish to'g'risida" qonunni qabul qilindi. Shu tariqa o'zbek tilining alifbo va imlo almashinuvining 4-bosqichi boshlandi. Hamda yangi lotin yozuviga asoslana o'zbek alifbosiga bosqichma-bosqich o'tish tartibi joriy etilib, yangi alifboni o'rganish va o'zlashtirish uchun turli xildagi o'quv-adabiyotlari yetkazib berilib, tashkilot va korxonalarda ishchi-xodimlarning ushbu alifboni o'zlashtirishi uchun bir qancha chora-tadbirlar ko'riladi boshlandi. Shuningdek, "Yangi (lotincha) o'zbek yozuvining imlo qoidalari 1995-yilning 24-avgustida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 339-sonli qarori bilan tasdiqlangan va shu yilning o'zida "O'zbek tilining asosiy imlo qoidalari" nomi bilan kitobcha shaklida nashr qilingan" [6; 108].

**XULOSA (ЗАКЛЮЧЕНИЕ / CONCLUSION).** Xulosa qilib aytganda, hozirgi kunda tez-tez uchrab turadigan imlovii xatoliklarni bartaraf etish uchun bizdan qilinadigan talab esa,

o'sib kelayotgan yosh avlodni o'z fikrini og'zaki va yozma tarzda to'g'ri, ravon, xatosiz va benuqson ifoda eta oladigan shaxslar sifatida tarbiyalashdan iboratdir. Chunki benuqson imlo, savodxonlik muammolari har bir davrda aktual mavzu bo'lib kelgan. Bunda esa avvalambor, endigina savod o'rganayotgan boshlang'ich sinf o'quvchilarining imloviy bilim darajasini mustahkamlash biz uchun juda muhimdir. Ammo, hozirgi kunda boshlang'ich sinf o'quvchilarining orfografik bilimlarini mustahkamlashda darsliklarda mavjud tizimning o'zi yetarli emas. Chunonchi, boshlang'ich ta'lim tizimida o'quvchilarga orfografik qoidalarni yodlatish bu juda mushkul masala bo'lganligi sababli ularga bu qoidalar amaliy jihatdan o'rgatilib, turli xil topshiriqlar, diktant turlaridan keng doirada foydalanish, lug'atlar ustida ishlash yordamida takomillashtirib borilishi o'quvchilarning bu qoidalarni osonroq va puxtarroq egallashlariga zamin bo'la oladi. To'g'ri yozish malakasini rivojlantirishda avvalambor, boshlang'ich sinf o'qituvchisi sof adabiy tilda gapirishi lozim hisoblanadi, aks holda o'quvchilar so'zlarni shevaga xos yoza boshlaydilar va imloviy xatolarni yuzaga keltiradilar. Binobarin, har bir pedagog o'z ta'lim beruvchilariga to'g'ri yozish malakalarini

mukammal o'zlashtirmog'i va imloviy hushyorlikni paydo qilishi bu maqsadga muvofiqdir.

**ADABIYOTLAR RO'YXATI  
(ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА /  
REFERENCES):**

1. Мирзиёев Ш.М. Эркин ва фаровон, демократик Ўзбекистон давлатини биргаликда барпо этамиз. Ўзбекистон Республикаси Президенти лавозимига киришиш тантанали маросимида бағиишланган Олий Мажлис палаталарининг кўшма мажлисидаги нутқ. – Тошкент: Ўзбекистон, 2016. 13б.
2. [www.ziyo.uz.com](http://www.ziyo.uz.com). Жамолхонов Х., Сапаев Қ. Имло муаммолари. Ўқув қўлланма. – Тошкент, 2007. – 6-7-б.
3. Ашурали Зоҳирий. Имло. – Қозон: “Умид” типо-литографияси. 1916–36.
4. 1921 йил январда бўлгон биринчи ўлка ўзбек тил ва имло қурилтойининг чиқаргон қарорлари – Т.: Туркистон Жумхуриятининг давлат нашриёти 1922.-Б. 13-16.
5. Politexnik maktab va pedagogika. - Toshkent, - 1934. 3-son. – 34-b.
6. Jamolxonov H. Hozirgi o'zbek adabiy tili. Darslik. – Toshkent. “Talqin”. – 2005. – 108-b.





## JAMOAVIY LAQABLARNING TURLI TIZIMLI TILLARDAGI LINGVOMADANIY IFODASI

*Xusinova Shahodat Xo'sin qizi, Urganch davlat universiteti  
tayanch doktoranti*

## THE LINGUOCULTURAL DESCRIPTION OF GROUP NICKNAMES IN THE DIFFERENT SYSTEMATIC LANGUAGES

*Xusinova Shahodat Xusin qizi, a doctoral student at Urganch  
State University*

## ЛИНГВОКУЛЬТУРНОЕ ОПИСАНИЕ ГРУППОВЫХ ПРОЗВИЩ В РАЗНЫХ СИСТЕМАТИЧЕСКИХ ЯЗЫКАХ

*Хусинова Шаходат Хусин кызы, докторант Ургенчского  
государственного университета*



[https://orcid.org/  
0000-0001-7750-677X](https://orcid.org/0000-0001-7750-677X)

*e-mail:*  
*xusinovashahodat@  
gmail.com*

**Abstract:** *The article demonstrates the representation of 'nicknames' in the English and Uzbek languages. Linguoculturological aspects of nicknames are analyzed in the Uzbek language.*

**Key words:** *nicknames, linguoculturological aspect, onomastics, dialects, imitation, stereotypes.*

**Annotatsiya:** *Maqolada o'zbek va ingliz tilida "laqab" tushunchasining ifodalanishi aks etgan. Laqab atamasining lingvokulturologik xususiyatlari ikkala tilda tahlil qilinadi.*

**Kalit so'zlar:** *lingvokulturologik jihat, yetakchi g'o'ya, onomastika, dialekt, o'xshatish, stereotiplar.*

**Аннотация:** *В статье описывается понятие «прозвище» в узбекском и английском языке. Анализируются лингвокультурологические особенности прозвищного термина в обоих языках.*

**Ключевые слова:** *лингвокультурологический аспект, ведущая мысль, ономастика, диалект, аналогия, стереотипы.*

**KIRISH.** Tilshunoslik tarmoqlaridan biri bo'lgan antroponomiya to'g'risidagi ilmiy izlanishlar nihoyatda kengayib bormoqda. Lingvokulturologik birlik hisoblangan laqablar ham aynan antroponomiyaning eng keng tarqalgan birliklaridan biri hisoblanadi. Ingliz tilshunoslari laqab tushunchasini "qo'shimcha nom" yoki "ikkinchi nom" deb izohlashadi. Laqablar odatda ma'lum bir xalqning ko'proq og'zaki uslubida qo'llanilib, o'sha tilning og'zaki diskursida muhim ahamiyat kasb etadi. Laqab tushunchasini ifodalashda V.Hazlit quyidagicha ta'rif beradi "A nickname is the heaviest stone that the devil can throw at a man" –

*Laqab insonga shayton tomonidan otilgan eng o'gir yuk. Darhaqiqat odatda insonga birovlar tomonidan ma'lum bir laqab qo'yilsa u shu laqab bilan ko'p yillar mobaynida nomlanadi. Bu esa, laqablangan insonga salbiy ta'sir ko'rsatish ehtimoli kuchliroq. Tilshunoslar tomonidan laqab so'ziga turlicha ta'rif berib o'tgan. O.A.Leonovich laqablar odatda insonning o'zini tutishi va xarakter xususiyatiga ko'ra beriladi, deya ta'rifladi [1], V.Busse "laqablar – ismlar yonida keluvchi qo'shimcha nom" deb izohlaydi[2].*

**MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI.** O'zbek tilshunoslaridan E.Begmatov,

R.Xudoynazarov, S.Rahimovlar o‘zbek antropologiyasi bo‘yicha ilmiy izlanishlar olib bordilar va o‘zbek nominatsiyasining gullab-yashnashiga katta hissa qo‘shganlar. Rus tilshunoslari qatorida A.O.Leonovich, A.V.Superanskaya va Y.S.Manchenkolarning ilmiy izlanishlari ingliz tili antroponomik laqablari to‘g‘risidagi boy manbalardan hisoblanadi.

#### TADQIQOT METODOLOGIYASI.

Mazkur maqolada nazariyalarni taqqoslash va tavsiflash usullaridan foydalanildi. Leksik manbalar sifatida bir nechta ingliz va o‘zbek laqablari tanlab olinib o‘zaro solishtirildi. Hozirgi kunda ushbu tadqiqot ishi onomastika sohasining bir qismi va aynan kam o‘rganilgan mavzu hisoblanib, laqablarning asosiy jihatlarini o‘rganishga qaratilgan. Asosan empirik metodlar orasida kuzatuv metodi ilmiy natijaga erishishga yordam berdi.

**TAHLIL VA NATIJALAR.** Onomastika tarkibiy qismi haqida nazariyalar xususida N.V.Podolskiy laqablar antroponimlarning bir turi bo‘lib, biror bir shaxsga uning xarakter xususiyati va uni o‘rab turgan sharoiti va boshqalarga muvofiq boshqalar tomonidan qo‘yilgan qo‘shimcha ism[3]. N.V.Podolskiy laqablarni jamoaviy yoki guruh, kamsituvchi, masxara qiluvchi, rivojlantiruvchi kategoriyalarga egaligini ta’kidlaydi. Quyida bir qancha ingliz tili lingvokulturologiyasiga tegishli bo‘lgan laqablarni ko‘rib o‘tamiz. Dastlab jamoaviy laqablarga to‘xtalib o‘tadigan bo‘lsak, misol uchun *John Bull* asosan etnik laqab hisoblanib, ingliz xalqiga nisbatan ishlatiladi. Bu laqab ko‘pincha badiiy adabiyot durdonalari yoki publitsistik nashrlarda XVIII asrlarda ishlatilgan<sup>1</sup>.

The world is a bundle of hay,  
Mankind are the asses who pull,  
Each tugs it a different way, -  
And the greatest of all is John Bull.  
(Selections from Byron. M., 1973)  
Люди – стадо буйных ослов,  
Мир – овца непочатый куль,

Каждый долю урвать готов,  
А первый из них – Джон Буль.

Дж.Г.Байрон

Избранные произведения. М.: 1953

Shuningdek, ingliz madaniyatida shotlandlarning o‘rni ham alohida o‘rin egallaydi. Shotland askarlari umumiy tarzda *Jock* laqabi bilan atalgan. Jock asosan Jack ning shotlandcha ko‘rinishi hisoblanadi. Bundan tashqari *Sandy* – mashhur shotland nomi bo‘lgan *Alexander* nomining qisqartirilgan ko‘rinishi tarzida ko‘pchilik so‘zlashuvchi orasida foydalaniladi. O‘zbek onomastikasi tarixiga doir ba’zi faktlar tahlili etnonimlarning kishi ismidan keyin nisbiy laqab vazifasida kelishi uchraydi, masalan: *argun, barlos bo‘jbon, mangit, o‘zbek, qatag‘on, kenagas, sari, saroy* va h.k. Ismlardan keyin keladigan *mo‘g‘il, qo‘qaploq, qalmoq, qozoq, tojik, tatar* kabi nomlari shaxs mansub bo‘lgan millatga ishora qiladi: Masalan *Berdi tatar, Haqnazar arab, Abdulhakim tojik* va h.k.<sup>2</sup> O‘zbek tili so‘zlovchilar orasida eng mashhur laqablardan biri deyarli barcha shevalarda mavjud bo‘lgan so‘z bu *afandi* so‘zi. Bu so‘z ham laqab, ham epitet bo‘lib kelishi mumkin. *Afandi* so‘zini izohlaydigan bo‘lsak, so‘zlashuv tilida hazil tariqasida biror bir ishidan yanglishib, kulgili ishlar qilib yuradigan odamlarga nisbatan laqab sifatida qo‘llaniladi. Barcha ingliz tili madaniyatida antroponomik laqablar salbiy baholovchi munosabatni ifodalamaydi, balki uning sababi turli ijtimoiy-tarixiy, shuningdek lingvistik sabablar bn izohlanadi. Tilda laqablar asosiy o‘rinni egallaydi, chunki deyarli barcha tillarda laqablanish mavjud va bu holat o‘z-o‘zidan xalqning turmush tarzi, qadriyatlarini ko‘rsatadi. Masalan, ma’lum bir hududda yashovchi insonlar orasida *usta, sartarosh, ko‘mirchi* va shunga o‘xshash laqablar mavjud bo‘lsa, bu o‘z-o‘zidan shu yerda yashovchi jamoani kasb-hunarga bo‘lgan munosabatini ko‘rsatadi. Undan tashqari, *o‘g‘ri, piyanista, kisavur* kabi insonlarga qo‘yiladigan laqablar laqablangan shaxslarning fe‘l – atvori qanday ekanligini yaqqol

<sup>1</sup> Merriam Webster online dictionary.

<sup>2</sup> E.Begmatov. E. Begmatov. “O‘zbek antroponomikasi”: Filol.fan.nom...diss.Toshkent,1995.

ko'rsatadi. Laqablar omma orasida faol ishlatilib insonlarni bir biridan ajratish, farqlash, ogohlantirish kabi kundalik hayotda qo'llaniladi. Ko'pchilik orasida salbiy jihatlari bilan laqablangan shaxslar negativ hissiyotlarga ega bo'lishi, hattoki bu turli xil nizolarga olib kelishi mumkin. Bu nizolar etnik nizolarga fylanib, jamiyatlar va xalqlar orasida sodir bo'lishi mumkin. Shuning uchun ham antroponimik laqablarni tadqiq etish, ularni lingvokulturologik tarafdin o'rganish muhim vazifani bajaradi.

**Xulosa va takliflar.** Ko'pchilik jamiyat a'zolari turli real vaziyatlarda asosan og'zaki muloqot qilishadi va shu jarayonda qisqalik, dangallikni va aniqlikni xush ko'rishadi. Buning asosiy sabablaridan biri zamonimizning shiddati va tezkorligi, desak xato bo'lmaydi. O'sha dangallik va aniqlik albatta til vositasida amalga oshadi. Til birligi bo'lgan laqablar ham yuqoridagi jarayonda o'z o'zni va vazifalariga ega. Zamonaviy tilshunoslikda etnik stereotiplar tushunchasi, ayniqsa, madaniyatlararo muloqotda odamlarni

osongina topish uchun ularning laqablari bilan chaqirish talabi tufayli yetakchi vazifani bajaradi. Qisqacha berilgan namunalar lingvokulturologik elementlar bilan ko'rsatilgan. Bu esa, ikki til foydalanuvchilariga aynan madaniy jihatdan o'zida ko'plab ma'lumotlarni jam qiladi.

#### **ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. Leonovich A.O. В мире английских имен: Учеб. пособие по лексикологии 2002. 33б.
2. Busse, T.V. Nickname Usage in an American High School .Berkeley, 1983. 300 b.
3. Подольская Н.В. Словарь русской ономастической терминологии. - М., 1978.
4. Merriam Webster online dictionary.
5. Leonovich A.O . В мире английских имен: Учеб. пособие по лексикологии 2002. 33б.
6. E.Begmatov. E. Begmatov. "O'zbek antroponomikasi". Filol. fan. nom... diss. Toshkent, 1995.



## СОЦИАЛЬНЫЕ ПРОЕКТЫ: ФИЛОСОФСКИЙ АНАЛИЗ

*Тагаев Камол Камирович, независимый исследователь  
Навоийского государственного педагогического института*

## IJTIMOIIY LOYIHALAR: FALSAFIY TAHLIL

*Tagayev Kamol Kamilovich, Navoiy davlat pedagogika  
institutining mustaqil tadqiqotchisi*

## SOCIAL PROJECTS: PHILOSOPHICAL ANALYSIS

*Tagayev Kamol Kamilovich, researcher at Navoi State  
Pedagogical Institute*



<https://orcid.org/0000-0002-2618-6371>

e-mail:  
nigina11@mail.ru

**Аннотация:** В статье раскрывается важность социальных проектов. Суть философского анализа заключается в обеспечении более глубокого понимания и основы для гибких экспериментов с будущими социальными проектами. Социальные проекты четко определяют свои цели и наилучшие способы достижения этих целей, это увеличивает шансы проекта на успех. Если мы сможем различать различные формы общественных проектов и оценивать влияние этих социальных проектов, то мы окажемся в лучшем положении для приведения проектов в соответствие с сильными сторонами учреждения и работы на общее благо сообщества.

**Ключевые слова:** управление проектами, социальный проект, сообщество, общество, социальный, проект, кадры, лидерство, стратегия, структура, процесс, мышление, государственная политика.

**Annotatsiya:** Maqolada ijtimoiy loyihalarning ahamiyati ochib berilgan. Falsafiy tahlilning mohiyati kelajakdagi ijtimoiy loyihalarni yanada chuqurroq tushunish va moslashuvchan eksperimentlar o'tkazish uchun asos yaratishdan iborat. Ijtimoiy loyihalar o'z maqsadlarini va ushbu maqsadlarga erishishning eng yaxshi yo'llarini aniq belgilaydi, bu loyihaning muvaffaqiyatga erishish imkoniyatlarini oshiradi. Agar biz ijtimoiy loyihalarning turli shakllarini farqlay olsak va ushbu ijtimoiy loyihalarning ta'sirini baholay olsak, biz loyihalarni institutning kuchli tomonlariga moslashtirish va jamiyatning ko'proq manfaati uchun ishlash uchun yaxshi holatda bo'lamiz.

**Kalit so'zlar:** loyiha boshqaruvi, ijtimoiy loyiha, jamoa, jamiyat, ijtimoiy, loyiha, xodimlar, rahbarlik, strategiya, tuzilma, jarayon, fikrlash, davlat siyosati.

**Abstract:** The article reveals the importance of social projects. The essence of philosophical analysis is to provide a deeper understanding and a basis for flexible experimentation with future social projects. Social projects clearly define their goals and the best ways to achieve those goals, this increases the project's chances of success. If we can distinguish between different forms of community projects and evaluate the impact of these community projects, then we will be in a better position to match projects to the strengths of the institution and to work for the greater good of the community.

**Key words:** project management, social project, community, society, social, project, personnel, leadership, strategy, structure, process, thinking, public policy.



**ВВЕДЕНИЕ.** Термин «социальный проект», проник в литературу, используемую для описания широкого спектра социальных начинаний, в которых люди сознательно работают над тем, чтобы изменить какое-либо положение вещей. Начиная от улучшения государственных услуг и заканчивая вмешательством в жизнь местных сообществ и политическими мерами на национальном уровне, этот термин часто используется уничижительно для обозначения некоторых непродуманных усилий по изменению, которые привели к нежелательным результатам. Но, несмотря на свое разговорное употребление, термин «проект» имеет специфическое значение в рамках современной теории и практики управления.

Управление проектами – это признанная и самостоятельная область профессиональной практики, которая предполагает запланированное и контролируемое выполнение комплекса мероприятий для достижения некоторой конкретной цели. «Проект» - это особая форма организации и координации работы и ресурсов. В то время как различные дисциплины менеджмента будут иметь свой собственный подход, общепризнанная точка зрения заключается в том, что это временная организация для производства уникального продукта или услуги. Так, например, есть проект в области информационных технологий по разработке новой системы онлайн-обработки налоговых деклараций, или есть менеджер проекта по организации семейного отдыха. В обоих случаях проект задуман как набор действий, которые отличаются от обычной рутины тем, что они не будут длиться бесконечно, будет определенная конечная точка, и в результате этих действий произойдет изменение некоторого положения дел [3].

## **ЛИТЕРАТУРА И МЕТОД.**

Существует несколько взглядов по вопросам социальных проектов. Взгляды Жан-Жака Руссо (1712-1778) об общественном развитии и теорию общественного согласия в последствии оказали глубокое влияние на концепцию,

социальных проектов как основа будущего. Согласно Руссо, развитие от первобытного состояния было отмечено растущим отчуждением, испытываемым индивидом, что в конечном итоге привело к запутанной взаимозависимости массы человечества. Этому следовало противопоставить идеальную кульминацию; утопическое государство, в котором человеческие отношения характеризуются простотой и непосредственностью социальных связей, то, что, по его мнению, было утрачено в процессе цивилизации. Эта перспектива лежит в основе многих современных подходов к развитию сообществ, которые направлены на то, чтобы «расширить возможности» сообществ предпринимать самостоятельные действия в своих интересах. Кроме того, тезис Руссо об «общей воле» предполагал, что можно определить, что лучше для общества, точно так же, как рациональные индивиды могут сделать вывод о том, что отвечает их собственным интересам. Хотя идеи Руссо о том, как это устанавливается, и о роли индивида в процессе принятия решений были в высшей степени авторитарными, они привели к развитию теории консенсуса и принятия решений на основе проблем в сообществе и социальных проектах.

Фердинанд Теннис (1855-1936) был еще одним влиятельным философом, чьи концепции общественного развития оказали влияние на определение подходов к развитию. Его различие между *Gemeinschaft* и *Gesellschaft* как типами социальных отношений. Первое, представляющее «сообщество», в котором социальные отношения характеризуются заботой о других, а второе, являющееся более утилитарным объединением, в котором индивиды действуют в своих собственных интересах, было названо в качестве причины для целенаправленных социальных вмешательств по перестройке «сообщества» в областях, которые, как считалось, перешли к *Gesellschaft* ассоциации типов. Его вера в потенциал социальной инженерии для решения социальных проблем оказала непосредственное влияние на ряд социальных проектов,

направленных на изменение характеристик областей социальной политики. Эшелман и Дженсон цитируют Тенниса и его теорию как оказавшие большое влияние на разработку американской политики по борьбе с бедностью, поскольку они перешли от активной работы с отдельными людьми к сосредоточению внимания на создании общественных организаций и потенциала.

Интересно отметить, что очень немногие публикации, посвященные работе в сообществе и государственном секторе, дают исчерпывающее представление о том, что подразумевается под социальным проектом. Из-за склонности предполагать, что концепции четко поняты, слишком многие авторы оставляют читателю самому разбираться, что подразумевается под «проектом». Без четкого понимания того, что такое социальный проект, трудно понять, какое влияние он оказывает на качество жизни людей, а также какую роль в этом могут сыграть исследования [4]. Закладывает основу для понимания того, что представляют собой социальные проекты, с тем чтобы можно было определить исследовательскую деятельность по улучшению и оценить ее влияние.

Здесь нас интересует нормативный, а не объяснительный анализ. То есть мы не стремимся просто описать способы объяснения социальных проектов различных типов. Наша главная задача – определить условия, при которых данный тип социального проекта может быть успешным. Это проблема рациональной социальной деятельности.

Социальное проектирование – это совокупность теоретической и практической деятельности, которая охватывает все социальные сферы и предполагает создание конкретных социальных проектов. Как учебная дисциплина социальное проектирование связано с изучением методики и технологии проектирования, инструментальных средств проектирования, его системных принципов, форм и методов. Проектирование – составная часть управления, которая позволяет обеспечить осуществление управляемости и

регулируемости некоторого процесса. Термин «проектирование» означает процесс разработки того или иного проекта, реализация которого выступает как необходимый результат.

Социальные проекты глубоко укоренились в западной мысли. Они основаны на предположениях о природе личности (и о том, что значит быть полностью человеком), идеале общества и степени, в которой может существовать социальный контроль. Изменения в любой из этих областей приведут к изменениям в природе социальных проектов. Управление социальными проектами развивалось со времен ранней цивилизации в результате множества различных философских идей [5]. На протяжении веков множество различных философских точек зрения, таких как аристотелевская, позитивистская, постмодернистская и многие другие, пытались понять и интерпретировать различные сферы общества и выступали за достойные изменения.

Это был бы социальный проект, направленный на изменение текущей ситуации на более желательную; однако проект не смог бы изменить ситуацию до такой степени, чтобы она не отражала следующий шаг в эволюции человека. Хотя эта модель довольно редка в наше время, ее последствия по-прежнему актуальны для современных социальных проектов.

Ценностная ориентация социального проектирования выдвигает на заметное место в его современных теориях проблему идеала. Идеал – наивысшее мыслительное выражение желаемого и должного. Он конструируется и облекается в образную форму по измерениям своего времени и наиболее ясно выражает тенденции эпохи, доминирующие жизненные концепции. Различение эпох в социокультурном смысле – это различение присущих им идеалов, которые могут выражаться в нравственных образцах и моде философских воззрений и представлений об общественном устройстве. Вступая на почву достижения идеалов, социальное проектирование также приобретает черты наглядных свидетельств своей эпохи.

Философский анализ предлагает исследование социальных проектов и их особенностей посредством изучения различных способов их понимания [6]. Природу социальных проектов, то есть то, чем они по сути являются, путем описания видов знаний, которыми обладают исследователи и практики, а также попытаться изложить основные релевантные особенности общества, которые приводят к выбору того или иного проекта так оно и есть. Чтобы сделать это, автор использует несколько способов разделения предмета исследования, чтобы обеспечить более четкое понимание затрагиваемых проблем. Один из способов понимания социальных проектов – сравнить их с проектами в области физических наук.

Такой способ понимания социальных проектов полезен, потому что большинство людей имеют четкое представление о том, что такое научный проект, и ключевой особенностью социальных проектов является то, что люди, как правило, хотят улучшить ситуацию с того, чем они считают ее в настоящее время, до того, что было согласовано как лучшая ситуация. Исходя из этого понимания, автор делает предположение, что читатель имеет некоторое представление о том, что такое проект в области физических наук, и вместо того, чтобы давать пространные объяснения, приведет только существенные различия между проектами двух типов и предположит, что читатель может провести сравнения самостоятельно. Позже автор продолжает рассказывать о том, что подразумевается под благосостоянием общества или отдельного человека, и о типах изменений, которые люди обычно желают внести в нынешнюю ситуацию. Это необходимый шаг, поскольку социальные проекты, как правило, представляют собой попытки повысить благосостояние общества или человека путем стимулирования каких-либо изменений. Но что является центральным для многих социальных проектов, так это улучшение ситуации способом, соответствующим определенным ценностям. Анализ конечного результата или

изменений, которые пытается осуществить проект, приводит нас к изучению существования ценностей в обществе и возможности существования ценностей в рамках общества. Определение ценностей общества и возможности изменений – это аналитическая задача, которая решается в рамках социальной и политической философии и становится общей теорией ценностей и изменений [7]. Затем это позволяет разделить социальные проекты на те, которые являются попытками сохранить ценность или предотвратить изменение, те, которые являются попытками устранить прошлые изменения, которые привели к ухудшению ситуации, изменить ценности или установить новую ценность вместо старой ценности.

**ОБСУЖДЕНИЕ.** Четкое понимание социальных проектов имеет важное значение для последующих аргументов. Понимание того, как они могут сделать ситуацию в определенном секторе общества более качественной с учетом прав, обязанностей и последствий изменений. Нужно отметить, что социальные проекты направлены на изменение общества. Осуществление изменений направлены на улучшение жизни, изменение образа жизни по требованиям современного развития. Выработке проектов изменений (или новых образцов поведения и деятельности) на уровне организации в соответствии с логикой инновационной модели.

Во-первых, в качестве фактора, побуждающего социальные изменения в указанных системах, рассматривались динамика внешней среды, изменение свойств социальной общности или социальной популяции.

Во вторых, организации и другие типы целевых социальных целостностей, с одной стороны, рассматривались как системы, стремящиеся к балансу с меняющейся внешней средой, а с другой – как достаточно консервативные системы, возможность реакции которых на изменения среды ограничена, что позволяло описывать организации как слабопластичные консервативные системы.

В-третьих, в качестве исходных теоретических положений, описывающих природу преобразуемых социальных объектов и механизмы социальных изменений, были использованы представления о природе организаций, выработанные в рамках прежде всего таких моделей организации как социологические системы.

**ЗАКЛЮЧЕНИЕ.** Таким образом, в качестве эпицентра, толкающего систему к изменениям рассматривался активный социальный субъект-менеджер, вырабатывающий и предлагающий новые образцы и способы деятельности, проекты системы в изменившейся реальности, либо с целью повышения конкурентной способности.

#### **ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА:**

1. Neuman, W. L. (2007). *Basics of social research: Qualitative and quantitative approaches* (2nd ed.). Boston, MA: Pearson.
2. Babbie, E. (2010). *The practice of social research* (12th ed.). Belmont, CA: Wadsworth.
3. Афанасьев, С.Л. Будущее общество. Ведущие социально-экономические тенденции современности. –М.: Изд-во МГТУ им. Н.Э. Баумана, 2000. – 567 с.
4. Бестужев-Лада И. В. Прогнозное обоснование социальных нововведений / И. В. Бестужев-Лада. – М.: Наука, 1993. – 233 с.
5. Розин В.М. Социальное проектирование и социальные технологии / В. М. Розин // Тренды и управление. – 2019. – № 3. – С. 1-14. 28.
6. Ляхов, И.И. Социальное конструирование: доклад на седьмом Международном социологическом конгрессе. – М.: Политиздат, 1970. – С. 87-96.
7. Дуброва, Т.А. Статистические методы прогнозирования в экономике: учебное пособие, практикум, тесты, программа курса / Т.А. Дуброва, М.Ю. Архипова. – Московский государственный университет экономики, статистики и информатики. – М., 2004. — 136 с.
8. Раппорт А. Г. Проектирование без прототипов // Разработка и внедрение автоматизированных систем в проектировании. – 1975. – С. 299-392.
9. Сазонов Б. В. Социотехнические системы как объект перманентного проектирования и управления // Управление развитием крупномасштабных систем (MLSD'2016) / Б. В. Сазонов. – М., 2016. – С. 345-347.





## OSIYO-AMERIKA DIASPORA ADABIYOTI XUSUSIYATLARI

*Ollaberganova Dilnoz Qodirberganovna, O'zbekiston davlat  
jahon tillari universiteti mustaqil izlanuvchisi*

## FEATURES OF ASIAN AMERICAN DIASPORA LITERATURE

*Ollaberganova Dilnoz Kadirberganovna, Independent Researcher  
of Uzbekistan State University of World Languages*

## ОСОБЕННОСТИ ЛИТЕРАТУРЫ АЗИАТСКО- АМЕРИКАНСКОЙ ДИАСПОРЫ

*Оллаберганова Дилноз Кадырбергановна, независимый  
исследователь Узбекского государственного университета  
мировых языков*



[https://orcid.org/  
0009-0002-2826-6786](https://orcid.org/0009-0002-2826-6786)

*e-mail:*  
[ollaberganovadilnoza  
88@gmail.com](mailto:ollaberganovadilnoza88@gmail.com)

**Annotatsiya:** ushbu maqolada diaspora adabiyoti, ayniqsa Osiyo-Amerika diaspora adabiyoti xususiyatlari atroflicha yoritilgan. Jumladan, Malala Yusufzoy hamda Holid Husayniy asarlari tahlil qilinib, ularda qahramonlarning taqdiriga jo qilish orqali ikki xil madaniyat va muhit orasida qolgan diaspora vakillarining hissiy va psixologik kechinmalarini mohirona ifodalanganligi haqida fikr yuritilgan.

**Kalit so'zlar:** diaspora, adabiyot, diaspora adabiyoti, Vatan, madaniyat.

**Abstract:** In this article, diaspora literature, especially the characteristics of Asian-American diaspora literature, is detailed. In particular, the works of Malala Yusufzai and Khaled Hosseini were analyzed and it was thought that they skillfully expressed the emotional and psychological experiences of the representatives of the diaspora between two different cultures and environments through the destinies of the heroes.

**Key words:** diaspora, literature, diaspora literature, Motherland, culture.

**Аннотация:** В этой статье подробно рассмотрена литература диаспоры, особенно характеристики литературы азиатско-американской диаспоры. В частности, были проанализированы произведения Малалы Юсуфзая и Халида Хусайни и высказано мнение, что они умело выражают эмоциональные и психологические переживания представителей диаспоры между двумя разными культурами и средами через судьбы героев.

**Ключевые слова:** диаспора, литература, литература диаспоры, Родина, культура.

**KIRISH.** XX-XXI asrda odamlarning bir davlatdan boshqa davlatga ko'chib o'tishlari ko'laminig shiddat bilan kengayishida turli siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy omillarning o'rni katta rol o'ynaydi. Jahon globalizatsiyasining eng ahamiyatli xususiyati ham muhojirlik jarayonlarining jadallashuvi bilan belgilanadi. Globalizatsiya milliy chegaralarning yanada

shaffoflashuviga, jamiyatlarda har xil etnik kelib chiqish, madaniyat, irq va dinlarga mansub insonlar sonining ko'payishiga olib kelmoqda. Bu esa, o'z navbatida diasporalarning va o'sha diasporalarga xos adabiyotning vujudga kelishida asos vazifasini o'taydi.

**ADABIYOTLAR TAHLILI VA  
METODOLOGIYA.** Osiyo-Amerika diaspora

adabiyotining yaralish tarixi osiyolik muhojirlarning Amerikaga ko‘chib o‘tishining ilk to‘lqini bo‘lib o‘tgan davrdan uch asr keyin – XIX asrning o‘rtalariga borib taqaladi. Osiyo-Amerika adabiyoti “*kelib chiqishlari Yaponiya, Indoneziya va Pokiston joylashgan geografik uchburchak doirasida bo‘lgan insonlar*” tomonidan yaratilgan va shu bois u osiyolik bo‘lmagan odamlar haqida emas, faqat Amerikadagi osiyoliklar haqidagi adabiyotni o‘z ichiga qamraydi. 1850-yillarga kelib, AQSHga kelayotgan osiyolik muhojirlarning soni bir millionga yetganida Amerika adabiyotida Osiyo diasporasi tashkil topgan, deb qaraladi.

Osiyo-Amerika va Osiyo-Yevropa diasporalari adabiyoti yozuvchilarini tarixiy, ijtimoiy va siyosiy asoslariga ko‘ra quyidagi uch avlod kategoriyasiga ajratgan holda tadqiq etish maqsadga muvofiq:

1. O‘z yurti (Osiyo)da tug‘ilib, o‘rta yoshlarida vatanni tark etgan yozuvchilar.

2. Bolaligidayoq Osiyodan ketgan muhojir yozuvchilar.

3. Ona yurti (Osiyo)da emas, Amerikada va Yevropada muhojirlar oilasida tug‘ilgan yozuvchilar.

Zamonaviy adabiyotshunoslikda ikki yurt, ikki makonga mansublik *diaspora*, *ekspatriant*, *muhojir*, *immigrantlar adabiyoti* kabi atamalar bilan yuritiladi. “Diaspora” atamasi orqali asosan urush, siyosiy, iqtisodiy bosimlar, ochlik, nochorlik sababli tug‘ilib o‘sgan yurtini tark etishga majbur bo‘lgan immigrant, muhojir, ishchilar, qochoqlarning o‘zga yurtlarda yashashi tushuniladi. Afg‘on-amerika diasporasi adabiyotini Xolid Husayniy asarlari misolida tadqiq etgan olim D.Ruzmatova o‘z ilmiy ishida ayrim manbalarda ushbu yo‘nalishda ijod qiluvchilar ekspatriant (*expatriate* – muhojir, qochoq) yozuvchilar deb atalishini, ammo ekspatriant yozuvchilarda tug‘ilib o‘sgan yurtiga nisbatan ijobiy munosabat kuzatilmagligini ta’kidlaydi. Uningcha, “diaspora” tushunchasi ekspatriantga nisbatan keng qamrovli bo‘lib, diaspora asarlarida har ikkala geografik hudud, ya’ni yozuvchi tug‘ilgan va ijod qilgan

hamda qilayotgan o‘zga makon istiqboli yetakchi o‘rin egallaydi. Muallif o‘z vatanini qo‘msaydi, har sohada taraqqiy etishini xohlaydi, shuningdek unga boshpana bergan yurtdan ham cheksiz minnatdor<sup>1</sup>. Tadqiqotimizda obyekt qilib olingan asarlar mualliflari Xolid Husayniy va Malala Yusufzoy ham o‘z ijodlarida diaspora jamiyatini tasvirlash yo‘lidan boradi. Ular asarlari va ijtimoiy faoliyatida ham ona yurtlariga tinchlik, barokat, to‘kinlik tilashadi hamda bugungi kunda istiqomat qilayotgan maskanga ham o‘z sadoqatlarini bildirishadi. Husayniy romanlarida afg‘on muhojirlarining yangi insonlar, yangi dinlar, madaniyatlar va etnik birliklar bilan tanishish omillari orqali o‘zligini anglab yetish yo‘lidagi sayohatini qalamga oladi. Holbuki, o‘z madaniyatini qo‘msash tuyg‘usi ba‘zan yangi muhitga moslashish va o‘zligini qaytadan barpo etishga to‘sqinlik qiladi. Husayniy muhojir sifatida o‘z asarlarida ijtimoiy, siyosiy va madaniy voqeliklarga badiiyat orqali perspektiva baxsh etadi. “Ming quyosh shu‘lasi” (“A Thousand Splendid Suns”), “Tog‘lar ham sado berdi” (“And The Mountains Echoed”), “Shamol ortidan yugurib” (“The Kite Runner”) romanlarida aynan afg‘on diasporasining Amerika va boshqa chet davlatlardagi hayoti, qiyinchiliklar va muammolari yoritib beriladi. Malala o‘zining avtobiografik ruhdagi “Men Malalaman” (“I am Malala”), “Vatandan ayrolarmiz” (“We are displaced”) asarlarida Pokiston, Suriya, Sudan, Somali va dunyoning boshqa notinchliklar va siyosiy talato‘plar qo‘pgan davlatlaridan Yevropaga bosh olib ketishga majbur bo‘lgan ayollarning, shu jumladan, o‘zining achchiq qismatini yoritadi. D.Ruzmatova o‘z dissertatsiyasida Amerika va boshqa xalqlar madaniyatidagi mushtaraklik, turli millat urf-odatlaridagi uyg‘unlik asosida yuzaga kelgan diaspora adabiyoti bir qator G‘arb adabiyotshunoslari, shu jumladan, M.Ilyas va Blumental tomonidan ilmiy-nazariy jihatdan o‘rganilganligini ta’kidlay turib, Afrika, Xitoy, Koreya, Yaponiya, Afg‘oniston va Janubiy Osiyo yozuvchilarining Amerika adabiyotidagi maqomini baholash borasida olib borilgan ilmiy izlanishlari

<sup>1</sup> Ruzmatova D.R. Holid Xusayniy asarlarining badiiy o‘ziga xosligi: F.f.f.d. diss. –Toshkent, 2020. – 146 b.

natijasida diaspora adabiyoti vakillarining asarlarida yevropacha fikrlash va amerikacha hayot tarzi ustunlik qilishini e'tirof etadi.

**NATIJAR.** Barcha makonlardagi diaspora adabiyoti uchun xos bo'lgan asosiy xususiyatlar biz tadqiq qilayotgan Osiyo-Amerika va Osiyo-Yevropa diaspora adabiyotiga ham muvofiq kelib, ushbu **xususiyatlarni** tadqiqotimizda quyidagilardan iborat, deb belgiladik:

1. *Madaniy o'zlikni anglash yo'lidagi izlanishlar.* Diaspora adabiyoti haqida gap ketganida vatan, madaniy qadriyatlar va madaniy o'zlikni anglab yetish singari tushunchalarni aslo e'tibordan chetda qoldirib bo'lmaydi. Muhojirlar yangi madaniyat fonida o'zligini tushunib yetishga urinishar ekan, diaspora adabiyotida o'zlikni anglash va ona yurtga mansublikni so'roq ostiga qo'yuvchi masalalar o'z aksini topib boraveradi. Diaspora adabiyotiga oid asarlar tahlilida ularning asosan tarjimai hol ko'rinishida namoyon bo'lishi va yozuvchining haqiqiy o'zligini anglab yetish yo'lidagi izlanishlari kuzatiladi. O'zlik – bu tug'ilgan onimizdan bizga taqdim etiluvchi, o'zining qadriyatlariga ega va moslashuvchan xususiyatga ega madaniy qurilmadir. U doimo rivojlanish, yuksalish jarayonini boshdan kechiradi, shu sababli ham adabiyotshunoslar va madaniyat nazariyotchilari uni har xil talqin etishadi. Madaniy o'zlik esa, insonning u yoki bu madaniyatga mansublik hissini ifodalaydi. U o'zida o'sha madaniyatga xos urf-odatlarini, merosni, tilni, dinni, ajdodlar yodini, tafakkur tarzi va ijtimoiy munosabatlarni qamraydi.

2. *Vatandan yiroqlik, sog'inch va muhojirlik qiyinchiliklari mavzulari yangrashi.* Vatanni tashlab chiqib ketish va yangi mamlakatda yangi hayot qurish mobaynidagi qiyinchiliklar, yo'qotishlar va mutlaqo notanish madaniy-axloqiy me'yorlarga moslashuvning og'ir kechishi Osiyo-Amerika va Osiyo-Yevropa diaspora adabiyotida eng ko'p murojaat qilinuvchi masalalardandir.

<sup>2</sup> “Nahang og'ziga aylandi Vatan, biz undan ketmoqdamiz, Butun boshli shahar ortidan sarhadlardan oshmoqdamiz.” (Tarjima muallifga tegishli).

Malala Yusufzoy “Vatandan ayrolarmiz” asari muqaddimasida qahramonlarning o'z tug'ilib-o'sgan yurtini tashlab ketishga majburliklari bilan bog'liq dard-u hasratini Britaniya-Somali diasporasiga mansub shoira Varsan Shirning “Vatan” nomli quyidagi she'riga jo qilgandek tuyuladi:

*no one leaves home unless home is the mouth of a shark.*

*you only run for the border when you see the whole city running as well<sup>2</sup>.*

3. *Madaniy-mafkuraviy yotlik tushunchasining aks etishi.* Diaspora yozuvchilari madaniy qadriyatlarining to'qnashuvi va til bilan bog'liq masalalarni asarlarida yoritish asnosida beixtiyor gibrid tarzda ijod qila boshlashadi. Husayniyning romanlarida qahramonlar Amerikada yashab turib, Afg'oniston bilan aloqalarini uzmagani insonlar sifatida dastavval yangicha hayot va madaniyatga nisbatan o'zlarini begonadek, u yerga mansub emasdek his qilishadi. Malala Yusufzoy ham o'zining va boshqa qizlarning yangi muhitdagi hayotini tasvirlar ekan, ushbu masalaning murakkabligini inkor etmaydi.

4. *Vatan va xalq taqdiri haqida qayg'urish tuyg'usining ustuvorligi.* Osiyo-Amerika va Osiyo-Yevropa diasporasi adabiyoti vakillarining aksariyati o'z ijodlari orqali vatan taqdiriga befarq emasliklarini, doimo u haqida qayg'urishlarini, og'ir damlar va xalq boshiga tushayotgan kulfatlarning qachondir barham topishiga umid qilishlarini bildirishadi.

**MUHOKAMA.** Osiyo-Amerika va Osiyo-Yevropa diasporalari adabiyotining yuqorida sanab o'tilgan xususiyatlari ushbu guruhlariga mansub yozuvchilarning asarlarida ko'tarilgan mavzular ham belgilab beradi. Shunga muvofiq ravishda D.Ruzmatovanning afg'on diasporasidagi yozuvchilar asarlarida ustuvor ahamiyatga ega mavzulari<sup>3</sup> qatoriga qo'shimcha kiritgan holda asarlardagi mavzular miqyosi faqat Osiyo bilan chegaralanib qolmasdan, mezbon mamlakatdagi

<sup>3</sup> Ruzmatova D.R. Holid Xusayniy asarlarining badiiy o'ziga xosligi: F.f. f.d. diss.–Toshkent, 2020. –B.53.

hayot tarziga, sharoit va madaniyatga moslashuv singari dolzarb masalalarni ham qamrab oladi, degan qarorga keldik. Demak, Osiyo-Amerika va Osiyo-Yevropa diasporasi vakillari ijodida oltita mavzu ustuvor ahamiyat kasb etadi:

- 1) Vatan (Osiyo)ni doimo qo‘msash va xotirlash;
- 2) Vatan (Osiyo)dagi notinchliklar va mojarolar haqida qayg‘urish;
- 3) Vatan (Osiyo)dan o‘z xohishiga ko‘ra yoki majburan chiqish;
- 4) Vatan (Osiyo)da barqarorlik o‘rnatilishiga va qaytib borishga bo‘lgan umid;
- 5) Ijtimoiy, iqtisodiy, mafkuraviy va diniy jihatdan tafovutlar bilan bog‘liq muammolar;
- 6) Milliy madaniyat va urf-odatlariga sodiq qolish yoki muhitga moslashib, ulardan og‘ishish.

**XULOSA.** Diaspora adabiyoti nuqtayi nazaridan Husayniy va Malalaning asarlari muhim ahamiyatga molik, chunki ikkala yozuvchi ham vatandan ayrolik, o‘zlikni anglash va mansublik singari tuyg‘ular bilan bog‘liq murakkab “o‘tish” va “ko‘nikish” davrlarini ham o‘zlari boshdan

kechirishgan, ham bularni qahramonlarining taqdiriga jo qilish orqali ikki xil madaniyat va muhit orasida qolgan diaspora vakillarining hissiy va psixologik kechinmalarini mohirona tasvirlashgan.

#### ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Husayniy X. Ming quyosh shu‘lasi. Toshkent: Yangi asr avlodi, 2016. 288-b.
2. Husayniy X. Shamol ortidan yugurib. Toshkent: Yangi asr avlodi, 2016. 208-b.
3. Husayniy X. Tog‘lar ham sado berdi. Toshkent: Yangi asr avlodi, 2016. 240-b.
4. Ruzmatova D.R. Holid Xusayniy asarlarining badiiy o‘ziga xosligi: F.f.f.d. diss. – Toshkent, 2020. – 146 b.
5. Sodiqova T. Yashash tilsimi. Toshkent: G‘ofur G‘ulom nashriyot matbaa ijodiy uyi, 2009. 19-b.
6. Yousafzai M. We are displaced, London, Weidenfeld & Nicolson., 2021. – 5 p.
7. Yusufzoy M. Men Malalaman, Toshkent: Yangi asr avlodi, 2021. 384-b.





## LITERARY MECHANISMS AND TEXTUAL STRATEGIES IN NARRATIVE POLYPHONY

*Sabirova Dilorom, Urgench Innovation University, Teacher,  
Independent Researcher*

## POLIFONIK HIKOYA USULINING TEKSTUAL STRATEGIYALARI VA ADABIY MEKANIZMLARI

*Sabirova Dilorom, Urganch innovatsiya universiteti  
o'qituvchisi, mustaqil tadqiqotchi*



[https://orcid.org/  
0009-0008-8477-2644](https://orcid.org/0009-0008-8477-2644)

*e-mail:*  
[diloromsabirova@  
gmail.com](mailto:diloromsabirova@gmail.com)

## ЛИТЕРАТУРНЫЕ МЕХАНИЗМЫ И ТЕКСТУАЛЬНЫЕ СТРАТЕГИИ В НАРРАТИВНОЙ ПОЛИФОНИИ

*Сабирова Дилором, преподаватель Ургенчского  
инновационного университета, независимый исследователь*

**Abstract:** This study delves into the role of linguistic mechanisms in narrative polyphony, with a focus on textual strategies. Grammatical tools and various forms of indirect speech are analyzed for their contribution to narrative polyphony. Through syntactic constructions like picturesque indirect speech and collective indirect speech, multiple voices within a literary text are synthesized.

**Key words:** Narrative polyphony, linguistic mechanisms, textual strategies, indirect speech, syntactic constructions

**Annotatsiya:** Ushbu tadqiqotda tekstual strategiyalariga e'tibor qaratilgan bo'lib, polifonik hikoyada lingvistik mexanizmlarning roli o'rganilgan. Grammatik vositalar va nutqning turli shakllarining polifonik hikoyaga qo'shgan hissasi tahlil qilinadi. Ravon bilvosita nutq va ijtimoiy bilvosita nutq kabi sintaktik konstruktsiyalar orqali badiiy matn ichidagi bir nechta shaxslarning fikrlari birga kelishi tahlil qilinadi.

**Kalit so'zlar:** polifonik hikoya, lingvistik mexanizmlar, tekstual strategiyalar, bilvosita nutq, sintaktik konstruktsiyalar.

**Аннотация:** Данное исследование изучает роль языковых механизмов в повествовательной полифонии с акцентом на текстовые стратегии. Анализируются грамматические средства и различные формы косвенной речи на предмет их вклада в повествовательную полифонию. С помощью синтаксических конструкций, таких как образная косвенная речь и собирательная косвенная речь, синтезируются многоголосия внутри художественного текста.

**Ключевые слова:** повествовательная полифония, лингвистические механизмы, текстовые стратегии, косвенная речь, синтаксические конструкции.

**INTRODUCTION.** Analysis of linguistic material reveals the fact that various means of language play a huge role in the formation of narrative polyphony. In this work, we mainly analyzed the textual mechanisms for the implementation of this phenomenon. Grammatical means of creating narrative polyphony as “deb”,

“deya” (saying), indirect speech and its various modifications in the text (picturesque, collective and with three speakers) and syntactic concept “human speech and mental activity”. The presence of several speaking characters is an integral attribute of a literary text. For example:

Бола конфетларни чўнтакка солиб, кўчма дўконни йўлга узатиб қўйиши учун машина орқасидан чопишга шайланди. У ўта бароқ, танбал кўппаги Балтекни ёнига чақириб олди. Ўрозқул ҳаммиша уни отиб ташлайман, **деб дўқ қилиб юради:** бундай кўппакни боқшининг нима кераги бор. Бобоси ҳар доим аввал биронта овчарка топиш керак, Балтекни эса бирор жойга элтиб ташлаш лозим, **деб сабр қилишни сўрайди [1].**

*Translation: "The boy put the candy in his pocket and was about to run after the car to take the auto shop onto the road. He called Baltek, a terribly lazy, shaggy dog. Orozkul kept threatening to shoot him, saying: why to keep such a dog. Yes, my grandfather kept begging me to put it off: he needed to get a shepherd dog, and take Baltek somewhere and leave him. Baltek didn't care about anything - the well-fed one slept, the hungry one was always sucking up to someone, to friends and strangers indiscriminately, as long as they threw something at them".*

As a rule, in fiction, such statements represent a mixture of forms of indirect and direct speech. The purpose of direct speech is to accurately reproduce the words of another, and indirect speech allows the transmission of their meaning in one's own words, therefore, they mark both someone else's speech and someone else's meaning. From this we can conclude that most syntactic constructions are the phenomenon of an "alien" word, an "alien" voice in "our own", belonging to both the author of the story and the hero. Thus, in the works of Ch.T. Aytmatov, xenoparticle is an integral linguistic attribute of each work. Thus, on the one hand, xenoparticles delimit the subjective-speech sphere of the character and the narrator in a literary text, and on the other hand, within the limits of one complete utterance they connect the voices of the author and the character.

Such examples can be seen in modern literature:

Сўнг ҳар ким ўз улушини ширин чойга қўйиб пок-покиза тушираркан, она **"тўймай қолишмасин"**, дея ҳар эҳтимолга қарши тагин нон иситмоққа тутинарди [2].

*Translation: "Then, while everyone added their portion to the sweet tea and poured it down*

*cleanly, the mother kept on making extra bread just in case".*

In the provided passage, narrative polyphony, where the thoughts and actions of multiple characters are presented simultaneously within the narrative structure can be described. The narrator provides the description of the scene, detailing the communal activity of adding portions to the sweet tea and the mother's continuous effort in making extra bread. The narrator serves as the primary conduit through which the scene is depicted, offering an objective account of the events. The mother's perspective is conveyed through her thoughts, specifically her concern about the guests not being full. Her decision to continue making extra bread reveals her nurturing and caring nature, as she anticipates the needs of her family or guests. This inner monologue provides insight into the mother's character and motivations, adding depth to the narrative.

**MATERIALS AND METHODS.** Units of syntax actively participate in the creation of polyphony of artistic speech. Such methods of transmitting someone else's speech as indirect speech and its varieties, improperly direct speech, form the core of the grammatical means of narrative polyphony, as a result of which this phenomenon receives the status of a permanent feature of a literary text. Polyphonic ability is possessed by such a bright variety of indirect speech as pictorial indirect speech, which is distinguished by the fact that words and phrases are introduced into it that characterize the linguistic manner of the statement being presented in order to preserve the color of someone else's speech. In cases where the distance between the subjects of a work is marked by quotation marks or other graphic means, the voices of the author and the character do not seem to merge into a single whole, and the narrator takes responsibility for someone else's word and pronounces it on his own.

**RESULTS AND DISCUSSION.** As a rule, in such syntactic constructions the author of a work introduces into indirect speech words and turns of speech of someone else, which characterize the stylistic and lexical manner of someone else's statement. The effect of the live utterance of

“another” speech is also produced and complemented by quotation marks, which, being a sign of someone else’s voice, divide the narrative into the narrator’s plan and the character’s plan. Another example:

*Автобус тобора яқинлашиб, сигнал берди. Юсуф ҳушига келиб, ўзини четга олди ва саросима ичида қолди. Ҳайдовчи кўрсаткич бармоғини ҳавода ўйнатиб, “Ҳа, сеними!” дегандек енгил нўписа ҳам қилиб қўйди [2].*

*Translation: “The bus got closer and closer and honked. Yusuf regained consciousness, took himself aside, and remained in confusion. The driver waved his index finger in the air as if saying “I will punish you!”, making a light sigh”.*

Школьные учебники по русскому и узбекскому языку разработаны в соответствии с учебной программой узбекскими издательствами и узбекскими авторами. Это учебники нового поколения с акцентом на коммуникацию, основанные на интегративных принципах, и включают темы из разных сфер жизни. Внедрение новых принципов образования решается на фоне серьезных дискуссий о выборе оптимальной модели образования и языках обучения. Общество и эксперты, понимают, что необходимо разрабатывать и внедрять новые модели школ. Важным условием успешного многоязычного образования является достижение высокого уровня владения родным языком, необходимое для формирования когнитивных компетенций. Был выдвинут ряд вопросов, связанных с организацией качественного обучения: модели, программы, качество многоязычного образования; опасности полуязычия; мониторинг языковых знаний. В многонациональной стране школы должны быть многоязычными и многокультурными. Более того, трехязычие и другие языки должны иметь возможность функционировать в системе образования.

Таким образом, анализ полиязычия в Узбекистане показывает, что руководство страны уделяет приоритетное внимание языковой сфере; расширилась сеть школ и СМИ на разных языках, созданы национально-культурные центры, способствующие улучшению межэтнических отношений, согласию и укреплению стабильности в стране.

#### **Список использованной литературы:**

1. Почему языки такие разные. Плунгян В. А. Москва: АСТ-пресс. 2010.
2. Избранные работы. Язык и его функционирование. Якубинский Л. П. Москва: Наука. 1986 год.
3. Двужычие и интерференция. Сущность, типология и функционирование. Хашимов Р. И. Москва: Флинта, Наука. 2018 год.
4. Современная социолингвистика: Теория, проблемы, методы. Швейцер А. Д. Изд. 2-е. Москва: ЛИБРОКОМ. 2009 год.
5. Детский билингвизм: одновременное усвоение двух языков. Чиршева Г. Н. Санкт Петербург: Златоуст. 2015 год.



## KORPUS LINGVISTIKASI VA UNING METODIKADA QO‘LLANILISHI

*Qarorova Dilsora O‘ktam qizi, Termiz Davlat pedagogika instituti  
Xorijiy til va adabiyoti 1-kurs magistranti*

## CORPUS LINGUISTICS AND ITS APPLICATION IN METHODOLOGY

*Qarorova Dilsora Uktam qizi, Termiz State Pedagogical Institute  
1st year master student of foreign language and literature*



Tel: +998902671220

e-mail:

[qarorovadilsora@gmail.com](mailto:qarorovadilsora@gmail.com)

<https://orcid.org/>

0001-0008-1100-7411

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada korpus lingvistikasi va uni xorijiy tillarni o‘qitish va o‘rganishdagi ahamiyati haqida ma’lumot beriladi va qo‘llanilgan materiallar hamda ularning natijalari keltirilgan.

**Kalit so‘zlar:** korpus lingvistikasi, konkordans, tabiiy tilni qayta ishlash, korpora, grammatika, matnlar korpusi, elektron lug‘at.

**Аннотация:** В этой статье представлена информация о корпусной лингвистике и ее значении в преподавании и изучении иностранных языков, а также представлены использованные материалы и их результаты.

**Ключевые слова:** корпусная лингвистика, конкорданс, обработка естественного языка, корпусы, грамматика, текстовый корпус, электронный словарь.

**Abstract:** This article provides information on corpus linguistics and its importance in foreign language teaching and learning, and presents the materials and results.

**Key words:** corpus linguistics, concordance, natural language processing, corpora, grammar, text corpus, electronic dictionary.

### KIRISH (ВВЕДЕНИЕ / INTRODUCTION)

Ta’lim olish barcha davrlarning muhim masalalaridan biri bo‘lib kelgan. Bugungi kunga kelib ham o‘z dolzarbligini yoqotmagan bu mavzuda davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev o‘zlarining fikrlarini bildirib o‘tganlar: “Ta’lim-tarbiya – bu bizning kelajagimiz, hayot-mamot masalasi” [1].

Ma’lumki, bir tilni o‘rganish va o‘rgatish asosan o‘sha tilni grammatika va lug‘at boyligidan xabardor bo‘lishdan boshlanadi. Insoniyat hayotini yengillashtirgan texnologiyalar asrida yashar ekanmiz, xorijiy tillarni o‘zlashtirishda ham bir qator qulayliklar yaratilmoqda. Jumladan, elektron lug‘atlar, ta’lim platformalari, mobil ilovalar va ijtimoiy tarmoqlar. Ushbu imkoniyatlar ta’lim jarayonini jadallashtirish bilan bir qatorda anchagina vaqtni tejab, uni dunyo bo‘ylab tarqatishga ham o‘z hissasini qo‘shadi. Raqamlashtirish yangi O‘zbekis-


tonimizda ham keng ko‘lamda amalda oshirilmoqda. Elektron hukumat, elektron murojaat kabi so‘zlar hayotimizning bir bo‘lagiga aylanmoqda.

XXI asrga kelib bir qator davlatlar o‘zlari-ning milliy korpuslarini yaratish bilan bir qatorda, uni anchayin takomillashtirishga ham ulgirishgan. *Korpus lingvistikasi* XX asrning 60-yillarida kompyuter lingvistikasining bo‘limi sifatida shakllangan soha bo‘lib, kompyuter texnologiyalaridan foydalangan holda lingvistik korpuslarni (matnlar korpuslarini) qurish va ulardan foydalanishning umumiy tamoyillarini ishlab chiqish bilan shug‘ullanadi. [2].

**ADABIYOTLAR TAHLILI VA METOD (ЛИТЕРАТУРА И МЕТОД / MATERIALS AND METHODS)** Korpus lingvistikasining asosiy qismi ingliz tilida yaratilgan bo‘lib, chet

davlatlarida milliy korpus yaratish ancha taraqqiy etgan. Masalan, Britan milliy korpusi (British National Corpus, BNC) [3], Amerikancha milliy korpus (American National Corpus, ANC) [4]. O‘zbekistonda ham bir necha korpuslar mavjud bo‘lib, “O‘zbek tilining ta’limiy korpusi”[5], Alisher Navoiy mualliflik korpusi- bunga misol bo‘ladi. Ammo, o‘zbek milliy korpusini yaratishda yetarlicha jiddiy izlanishlar hali olib borilgani yoq. Bu masalada bir qancha fidoiy olim va olimalarimiz tadqiqotlar olib borishmoqda. Bularga misol qilib G.Begmatovning “O‘zbek milliy korpusida idiomalar bazasini yaratish” mavzusidagi PhD dissertatsiyasi, A.Eshmo‘minovning “O‘zbek tili milliy korpusining sinonim so‘zlar bazasi” mavzusidagi PhD dissertatsiyasi, O.Xidirovning “Milliy korpus uchun parsing dasturi yaratishning lingvistik asoslari” PhD dissertatsiyasi kabilarni keltirish mumkin.

**MUHOKAMA (ОБСУЖДЕНИЕ / DISCUSSION)** «Oxford Dictionary of English»ga ko‘ra[6], Korpus [ˈkɔːpəs] (korpora yoki korpus) - yozma matnlar to‘plami, ayniqsa ma’lum bir muallifning barcha asarlari yoki muayyan mavzudagi yozuvlar to‘plami deya ta’riflangan bo‘lsa, korpus lingvistikasiga Richard N. quyidagicha ta’rif beradi: “Korpus lingvistikasi - bu korpuslarda (yoki korporada) saqlanadigan "haqiqiy hayot" tildan foydalanishning katta to‘plamlari - lingvistik tadqiqotlar uchun yaratilgan kompyuter ma’lumotlar bazalariga asoslangan tilni o‘rganish. U korpusga asoslangan tadqiqotlar sifatida ham tanilgan”[7]. Konkordans atamasi ham korpus bilan birgalikda tilga olinadi. Konkordans bu qidirilgan so‘z yoki iboraning paydo bo‘lishi ro‘yxati. Bunday ro‘yxatni quyida ko‘rishimiz mumkin:



Ta’lim jarayonida korpusdan foydalanish ancha qulay hisoblanadi. Chunki u sun’iy yaratilgan matnlardan emas, balki, real hayotda ishlatiladigan, gazetalarda, kitoblarda chop etilgan haqiqiy tildir.

Barchamizga ma’lumki, ingliz tilini xorijiy til sifatida o‘rganuvchilarda ushbu tilda so‘zlashish uchun muhit bo‘lmaydi va so‘zlarni noto‘g‘ri o‘rinda qo‘llash holatlari kuzatiladi. Korpusga asoslangan materiallardan foydalanish shunday muammolarga barham beradi. Romerning fikriga ko‘ra, korpusdan o‘rganish va o‘qitishda foydalanish quyidagi afzalliklarga ega:

- Tadqiqotchilar va darslik yozuvchilar uchun amaliy mashg‘ulotlar
- O‘qituvchilar va talabalar uchun amaliy mashg‘ulotlar
- O‘quv dasturlari va o‘rganishga potensial ta’sir [8].

Korpusdan foydalanishni bilmaydigan talabalar uchun ham o‘qituvchi tomonidan tayyorlangan offline materiallar va mashqlar taqdim qilinishi mumkin. Masalan ko‘pchilik tomonidan chalkashtiriladigan fe’llar: make/do, take/bring, teach/learn va shu kabilar. Bunda o‘qituvchi

konkordans qatoridagi kalit soʻzni olib tashlash orqali mashqlar yarata oladi. Bunda soʻzni nafaqat toʻgʻri tanlay olish, balki toʻgʻri zamonda qoʻllash ham talab qilinadi.

### Sample exercise - namunaviy mashq:

Instruction for the learners: Fill in *do* or *make* in the sentences below.- Oʻrganuvchilar uchun qoʻllanma: Gaplarni *do* yoki *make* bilan toʻldiring.

1. After a while, the low number of customers \_\_\_\_\_ it pointless to stay in the shop for very long because of the absence of interaction to observe.
2. We are frequently engaged in \_\_\_\_\_ connections in our descriptions
3. Why \_\_\_\_\_ you worry ? The U. S. Government is paying for it .
4. Lancaster has argued that children \_\_\_\_\_ provide some economic profit, as they can be a way of claiming higher benefits and gaining access to housing. [9]

Ushbu *gap filling* mashqi ingliz tilini kamida B1 darajada biluvchilar uchun moʻljallangan boʻlib, *authentic*-real materiallar endi til oʻrganishni boshlaganlar uchun bir muncha qiyinchiliklar keltirib chiqaradi. Shuning uchun oʻqituvchi materialdan foydalanayotganda talabani darajasiga ham eʼtiborli boʻlishi lozim.

Daniyalik olim Otto Yespersen ham anʼanaviy grammatikadan tavsiflovchi grammatikaga oʻtgan ekanligini birinchilardan boʻlib maʼlum qildi. U real til materiallariga asoslanishini, sunʼiy tarzda tuzilgan materiallarni esa yoqlamasligini aytadi. Shuning uchun ham oʻzining “Tarixiy prinsiplardagi zamonaviy ingliz grammatikasi” (“Modern English Grammar on Historical Principles”) (1909-1949) asosiy asari uchun misol manbalarini maxsus tanlaydi.

### NATIJAR (РЕЗУЛЬТАТЫ / RESULTS)

Korpusning ajoyib xususiyatlaridan biri, talabalar ham xuddi tadqiqodchilardek bir xil usulda korpusdan foydalanishlari mumkin. Til darajasi pastroq oʻrganuvchilar ham korpusdan yangi narsalarni oʻzlari uchun kashf eta olishadi. Va Stig Johansson (2011) kuzatganidek, korpus foydalanuvchilari dastlab izlagan narsalaridan tashqari qiziqarli kashfiyotlar ham qiladilar. Lekin, korpusdan foydalanish uchun tilni bilish darajasi

yetarli boʻlishi muhim. Shuning uchun talabalarga ular uddalay oladigan vazifalar berish zarur.

Oʻquvchilarning ehtiyojlari va bilim darajasiga osongina moslashtirilishi mumkin boʻlgan yana bir vazifa turi - bu koʻp maʼnoli soʻz yoki iborani qidirish va konkordansdan turli xil maʼnolarning misollarini aniqlash. Masalan, BNC da “*appreciate*” soʻzi “qadrlamoq” yoki “payqamoq, tushunmoq” maʼnosini anglatishi mumkin.

What a nice thought! I’m sure they’d **appreciate** it. (qadrlamoq)

First, you must **appreciate** that a helicopter produces two different types of lift. (tushunmoq).

### XULOSA (ЗАКЛЮЧЕНИЕ / CONCLUSION)

Oʻrganayotgan tilida erkin muloqot qilishni istagan har bir odam, albatta oʻsha tilda soʻzlashuvchilarning real hayotda foydalanadigan lugʻatlarini hamda grammatik strukturalarini bilishi lozim. Korpus esa bu maqsadga yetishning samarali vositalaridan hisoblanadi. Agar oʻqituvchi uni metodikada toʻgʻri qoʻllay olsa, koʻzlangan maqsadga erishish osonlashadi. Koʻplab olimlarning maqsadi ham til oʻrganishni qiyin mashaqqat deb oʻylashdan toʻxtatib, uni qiziqarli mashgʻulotga aylantirishdan iboratdir. Demak, korpus va unga asoslangan materiallar til oʻrganishni yengillashtiruvchi bir vosita hisoblanar ekan.

### ADABIYOTLAR ROʻYXATI

#### (ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА / REFERENCES)

1. Mirziyoyev Shavkat. Maktab taʼlimini rivojlantirish masalalari yuzasidan videoselektordagi nutqidan. 22.01.2022.
2. Abjalova Manzura. Korpus lingvistikasi (Uslubiy qoʻllanma) – Toshkent: 2022.
3. Oxford Dictionary of English, Revised Edition. © Oxford University Press 2005
4. Römer Corpus research applications in second language teaching. 2011 p. 207
5. British Academic Written English Corpus (BAWE)
6. <http://www.natcorp.ox.ac.uk/>
7. <http://www.anc.org/>
8. <http://uzschoolcorpara.uz/>
9. <https://www.thoughtco.com/what-is-corpus-linguistics-1689936>



## ERKIN A'ZAM VA UNING "ANOYINING JAYDARI OLMASI" HIKOYASIDAGI DO'STLIK VA SODDALIK OBRAZI

*Ubaydullaeva Jamila Xurramovna*

*Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti o'qituvchisi*

## ERKIN A'ZAM AND HIS IMAGE OF FRIENDSHIP AND SIMPLICITY IN THE STORY "ANOYINING JAYDARI OLMASI"

*Ubaydullaeva Jamila Xurramovna*

*Teacher of Denau Institute Of Entrepreneurship And Pedagogy*



*E-mail:*

[Jamila.ubaydullayeva@gmail.com](mailto:Jamila.ubaydullayeva@gmail.com)

<https://orcid.org/>

[0002-0009-2700-1403](https://orcid.org/0002-0009-2700-1403)

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada taniqli o'zbek yozuvchi Erkin A'zam va uning "Anoyining jaydari olmasi" hikoyasi haqida so'z boradi. Mazkur hikoyadagi qahramonlar va do'stlik, mehr, ishonch tuyg'ulariga alohida to'xtalib, badiiy tomondan qahramonlar hayoti tahlil qilinadi.

**Kalit so'zlar:** syujet, yozuvchilik, oqim, beg'uborlik, mehr-oqibat.

**Аннотация:** В данной статье рассказывается об известном узбекском писателе Эркине Аъзаме и его рассказе «Анойининг жайдари олмаси». С художественной стороны анализируются герои этой повести, чувства дружбы, привязанности, доверия.

**Ключевые слова:** сюжет, письмо, течение, невинность, доброта.

**Abstract:** This article talks about the famous Uzbek writer Erkin A'zam and his story "Anoyining jaydari olmasi". The heroes of this story and the feelings of friendship, affection, trust are analyzed from the artistic side.

**Key words:** plot, writing, flow, innocence, kindness.

### KIRISH (ВВЕДЕНИЕ/INTRODUCTION).

Bugungi kun jamiyatida jadal sur'atlar bilan rivojlanib borayotgan ilm-fanda ham yangiliklar, yangicha yondashuvlar paydo bo'lyapti. Ilm-fan va boshqa bir qancha sohalar bo'yicha muvaffaqiyatlarga erishish insondagi savodxonlikning qay darajada ekanligiga bog'liqligi hech kimga sir emas. Adabiyot olami serqirra oqim va unda ijod qilgan yozuvchilar o'z o'y-fikrlari bilan kitobxonni jalb qila oladi hamda o'ylantirib izlanishga chorlaydi.

### ADABIYOTLAR TAHLILI VA METOD (ЛИТЕРАТУРА И МЕТОД / MATERIALS AND METHODS).

Quyida keltirilgan fikrlarimizni isbotlash maqsadida bir qator yozuvchilarning fikrlarini asosiy manba sifatida ko'rib chiqamiz. Erkin A'zam

haqida gap borar ekan, "Mavjud andozalarni unutib, sipogarchilikni yig'ishtirib, voqelikni, qahramonlarni iloji boricha aniq, rostgo'ylik bilan tasvirlab bersangiz, o'zi shunday chiqaveradi: kulgiliroq, hayrotomuz. Bunda o'zingizning shaxsiyatingiz, ta'b-didingiz ham muhim, albatta", – deb o'z so'zi bilan ta'rif beradi, yozuvchi [3]. "Erkin A'zam so'zni his qilgan, uning tarjimai holini biladigan ijodkor!" Erkin A'zam haqida filologiya fanlari nomzodi Olim Toshboyev shunday yozadi: Erkin A'zam asarlarini cho'kirtikanak gaplar, istehzoyu kinoyalarsiz tasavvur etib bo'lmaydi. Albatta bu uning ijodining bir yo'nalishidir [1]. Xurshid Davron esa shunday deydi: "Erkin akaning hikoyalarini o'qiy boshlasam, jiddiy qiyofasi va qalam tutgan qo'lini ko'rib turaman". Ayni haqiqat ufurib turgan ushbu jumlar, so'zni zargarona ishlatish – Erkin akaga



tan bermasdan iloj yo‘q. Maqola va adabiy qaydlarida ham turkona tafakkur, til tabiatini his qilish haqidagi fikrlar ko‘plab uchraydi [2].

Ushbu ishimizda Boysun elining suyuqli o‘g‘loni, o‘zbek xalqining serqirra yozuvchisi Erkin A‘zam ijodiga to‘xtalib, hikoyani tahlil etishda ilmiy tadqiqotning analiz, sintez, qiyoslash kabi metodlaridan samarali foydalandik.

### **MUHOKAMA (ОБСУЖДЕНИЕ/DISCUSSION).**

Iste‘dodli yozuvchi Erkin A‘zam ijodi boshdanoq keng kitobxonlar e‘tiborini tortdi. Ayniqsa, adibning “Ota tug‘ilgan yili” qissasi adabiy jamoatchilikda katta qiziqish uyg‘otdi va turli bahs-munozaralarga sabab bo‘ldi. 1980-yillardayoq taniqli yozuvchi Odil Yoqubov o‘zining “Kelajak” nomli yoshlar nasriga bag‘ishlangan maqolasida adib ijodiga katta ishonch bilan yozgan edi. “Erkin A‘zamov men izlayotgan yoshlardan biri. Erkinning murakkab shahar muhitida qolib ketgan qishloq yoshlari, ularning qiyinchiliklari, hayotdagi o‘z o‘rni uchun kurashi tasvirlangan hikoyalari diqqatga sazovordir. Bu hikoyalarda Boysun tog‘larining buzilmagan, ammo go‘zal manzaralari bor. Surxondaryo vodiysi xalqining o‘ziga xos tili, xarakteri, parcha-parcha ko‘rinishi bor. Bu fazilatlar Erkin A‘zam hikoyalari yaxshi samimiylilik, tabiiylilik, hayotiylik baxsh etadi. Shuning uchun bo‘lsa kerak, ular Moskvadagi yosh yozuvchilar uchun seminar ishtirokchilarining e‘tiborini tortdi. “Guliston”da chop etilgan “Otoyining tavalludi” hikoyasi ham yosh adibning hayotni chuqur qatlamlariga singib, yaxshi izlanishda davom etayotganidan dalolat beradi. Mustaqillik yillariga kelib Erkin A‘zam ijodi har tomonlama rivojlanib, adabiy hayotda o‘ziga xos ijodiy-uslubiy o‘ringa ega ijodkorga aylandi. Uning so‘nggi yarim asrlik ijodi davomida yaratilgan puxta hikoyalar, qissa va kinofilmlar, dramatik asarlar, publitsistik maqolalar yozuvchining o‘zbek adabiyotidagi o‘rnini belgilab beradi. Darhaqiqat, tanqidchilarimiz to‘g‘ri ta‘kidlaganidek, bu ijod namunalari sho‘rolar davrining soxta g‘oyalari bilan emas, balki xalqimizning ming yillik ma‘naviy qadriyatlarini bilan yaratilgan. Shuning uchun ham mustaqillik yillarida adabiy tanqid har qanday adib ijodini har tomonlama o‘rgana boshladi.

Yozuvchining asarlari ilmiy darajalar beruvchi fundamental tadqiqotlar manbai bo‘lgan va bo‘lib qolmoqda. A.Ulug‘ov, M.Qo‘chqorova, M.Sheraliyeva maqolalari, yozuvchi yaratgan qahramonlar uslub ifodasining asosiy elementi sifatida talqin etiladi. Yozuvchining uslubini belgilab beruvchi asosiy she‘riy topilma kinoya ekanligi ta‘kidlanadi. Yozuvchining “Jannat qayerda?” kitobidagi hikoyalarni tahlil qilish uslubi voqealarni chiroyli tasvirlashga emas, balki voqealar mohiyatini ochib berishga xizmat qiladi. Shu tariqa yozuvchi hayotiy voqealarni yangicha talqin qilishga intilayotgani alohida ta‘kidlanadi. M.Sheraliyeva “Nasrda lirika va kinoya” sarlavhali tadqiqot maqolasida adib ijodiga lirikani qo‘llash mahorati nuqtai nazaridan yondashadi. “Barcha asarlardan maqsad insonni, uni o‘rab turgan ijtimoiy voqelik va tuyg‘ularni talqin etishdan iborat”, – deb hisoblagan Gulnoza Sattorova o‘z kuzatishlarida asosiy e‘tiborni o‘ziga qaratadi. Ana shu uchlikning namoyon bo‘lishidagi she‘riy mahorat haqida, qahramonlar ruhiyatida kechayotgan his-tuyg‘ularni tasvirlash orqali jamiyat qonun-qoidalari tizimning murakkab va qiyin tomonlari qanday yoritilganligi e‘tiborni tortadi. Olim shu mezondan kelib chiqib, yozuvchining bir qator hikoya va qissalarini tahlil qiladi. S.To‘laganovanning “Yozuvchi ijodida ko‘ngil inqilobi” nomli maqolasida yozuvchi uslubining istehzosi, kelib chiqishini yoritishga intiladi. Muallif xalqning boy ma‘naviy-madaniy hayotini teran anglash yozuvchi ijodining badiiy salmog‘ini belgilashini, avvalo, yozuvchi shaxsi, dunyoqarashi, kasbiy maqomiga oid xarakterli kuzatishlar fonida ilmiy asoslab beradi.

### **NATIJALAR (PEZYJTATY/ RESULTS).**

Erkin A‘zam qalamiga mansub “Anoyining jaydari olmasi” hikoyasi ham mana shunday yuksak axloqiy g‘oyalar bilan yo‘g‘rilgan asar hisoblanadi. U 1981-yilda yozilgan bo‘lib, ushbu hikoyada soddalik va beg‘uborlik aks etgani uchun ularda samimiylilik hamisha balq urib turadi. “Anoyining jaydari olmasi” hikoyasida tasvirlangam Ramazon obrazi shunchalik pok, samimiy bo‘ladiki, do‘stining katta inson bo‘lishiga chin dildan ishongan. Ammo, do‘sti qanchalik xato ish qilmasin

Ramazon baribir sadoqatli do'st bo'lib qolaveradi va unga doim samimiy munosabatda bo'ladi.

Agar do'sting nohaq ersa,  
Haq so'zingni aytaber.  
Do'stlik seni yerga ursa,  
Ko'taradi qaro yer.

Hikoya qahramonining ismi ham o'ziga mos qo'yilgan ya'ni Ramazon-Ro'za oyi kabi pok. Hikoya qahramoni Ramazon eng g'aroyib obraz, sodda, mehribon, ishonuvchan, samimiy hamda beg'ubor. Ramazondagi bir xislat kishini hayron qoldiradi. Bu uning "men"i yo'qligi deyiladimi, yoki xudbin emaslikmi, qanday ta'riflash kitobxonni o'ziga bog'liq. U o'zidan ko'ra ko'proq insonlar haqida qayg'uradigan jonkuyar inson obrazidir. Do'sti bilan bo'lgan suhbatlarda ham buni kuzatish mumkin: "Sen o'qiyapsan-ku, shu yetadi menga", – deyishiga javoban do'stining "sen kirsang men o'qishni tashlayman" qabilidagi hazilomuz, unga esa "men o'qimasam ham mayli, yurt sendek shoirsiz qolmasin" deb o'qishga kirishdan voz kechishi, bu gap kesatiq sifatida yasama aytilmagandi, bu chin dildan chiqqan mehrga to'la so'z edi, do'stining katta inson bo'lishiga chin dildan ishongan. Uning nutqida harbiy xizmat safari Barnaulda bo'lganligi uchun bo'lsa kerak, ruscha so'zlarni qo'shvolib, buzib gapirish holatlari ham uchraydi. Bunga misol tariqasida hikoyadagi nutqini keltirishimiz mumkin:

"E, sanlaga, zelin!" Diya ustarani qo'lingizdan olib harbiychasiga soqol qirishni ko'rsatadi.

Asar kopmozitsiyasi dinamik bo'lib, bosh qahramon xarakteri kabi o'zgarib turadi. Hikoyadagi asosiy mazmunni kompozitsiya ochib beradi: qishloqi yigit, jaydari olma, shaharlik shoir, chayqovchi va berilgan va'da, qamalish, tushilmagan portret va pushaymon kabilar. Asar tili – sodda, ravon. Ba'zi o'rinlarda shevaga xos so'zlarni, jumalarni ko'rishimiz mumkin va bu asar samimiyatini ta'minlagan omil hisoblanadi.

Yana bir o'rinda: – Bo'lmasa, yur, sening fozangga tushamiz, jo'rajon, padrushka qilib... Nutqidagi *zelen, padrushka, foza* so'zlari uning ongiga xizmat qilgan vaqtlari singib ketgan. Hikoyada *bilet, malades, student, kupe, spravka,*

*grajdan* kabi ruscha so'zlarning keltirilishi bu qahramonlarning nutqida qanday bo'lsa, yozuvchi ham hikoyani konkret dalillash maqsadida shaxslar nutqini aynan o'zinikidek qilib tasvirlagan.

Ramazon do'sti uchun hayot ziynati edi. "Xavfda qalqon" degani avvalo do'stini Tosh kabi bezori to'daning xurujidan xolos qilganida ko'rinadi.

Adib o'z qahramoni haqida soddalik bilan "U anoyi emas. U risoladagidek odam. U buzilmagan. Balki biz buzilgandirmiz?.. U hayotda faqat yutqazib yuradi. Chunki u rol o'ynamaydi. Hayotni qanday bo'lsa shundayligicha qabul qiladi, shundayligicha tushunadi", – deydi.

### **XULOSA (ЗАКЛЮЧЕНИЕ/CONCLUSION).**

Xulosa qilib shuni aytadigan bo'lsak, ko'cha-ko'yda nimtabassum bilan, samimiyat bilan yursangiz odamlar aqli noqisga yo'yadigan bir paytda Ramazondek bo'lish bugungi jamiyat uchun, qadriyat uchun bir "jinoyat"dek gap. Aslida esa chinakam insoniylik, yolg'onlardan yiroq, bo'yab-bejalmagan o'zlikka ega bo'lishdir. Hikoya "shaharlashib borayotgan", zamonaviylashib borayotganlarga uzoq qishloqning chetida insoniylik yashayotganini, u hali o'lmaganini eslatib qo'yadi.

### **ADABIYOTLAR RO'YXATI (ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА/ REFERENCES)**

1. Toshboyev Olim. Botindagi bo'ron. – Toshkent: 2023. – 320 b.
2. Erkin A'zam. Anoyining jaydari olmasi. <https://n.ziyouz.com/portal-haqida/xarita/uzbek-nasri/erkin-a-zam-1950/erkin-a-zam-anoyining-jaydari-olmasi-hikoya>.
3. Xurramovna, U. J. (2022). Erkin A'zam publisistikasi. Janr xususiyatlari. Евразийский журнал социальных наук, Философии И Культуры, 2(2), 343-348.
4. Xurramovna, U. J. (2022, April). Erkin A'zam Satirasi ("Fideldan Salom" Va "Manzuma Otin" Hikoyalari Misolida). In E Conference Zone (Pp. 26-28).

## AXBOROT ERKINLIGI IMKONIYATLARINI SHAKLLANTIRISH USUL VA VOSITALARI

*Po'latov Jalol Rustamovich*

*Samarqand davlat universiteti tayanch doktoranti*

**МЕТОДЫ И СРЕДСТВА СОЗДАНИЯ**

**ВОЗМОЖНОСТЕЙ СВОБОДЫ ИНФОРМАЦИИ**

*Пулатов Джалал Рустамович*

*Базовый докторант Самаркандского государственного  
университета*

**METHODS AND MEANS OF CREATING**

**FREEDOM OF INFORMATION OPPORTUNITIES**

*Pulatov Jalol Rustamovich*

*Samarkand State University base doctoral student*

**Аннотация:** Ushbu maqolada, bugungi kunda axborot erkinligini shakllantirish imkoniyatlari atroflicha tahlil qilingan. Shuningdek, axborot erkinligini ta'minlash borasidagi usul va vositalari xususida atroflicha fikr yurutilgan.

**Калит so'zlar:** axborot, erkinlik, usul, vosita, axborotlashgan jamiyat, axborot oqimi, axborot haqqoniyligi, so'z erkinligi.

**Аннотация:** В данной статье подробно анализируются возможности формирования свободы информации сегодня. Также подробно обсуждались методы и средства обеспечения свободы информации.

**Ключевые слова:** информация, свобода, метод, инструмент, информационное общество, информационный поток, правдивость информации, свобода слова.

**Abstract:** In this article, the possibilities of forming freedom of information today are thoroughly analyzed. Also, the methods and means of ensuring freedom of information were discussed in detail.

**Key words:** information, freedom, method, tool, information society, information flow, truth of information, freedom of speech.

**Kirish.** Bugungi global asgan davrda, axborotlashgan jamiyatda yashar ekanmiz, axborot erkinligi imkoniyatlarining barcha shakllaridan foydalanish insonlarning birlamchi ehtiyojlaridan biridir. Bugungi kunga kelib ushbu erkinlik, umuminsoniy qadriyat darajasiga ko'tarilib ulgurandir. Shunday ekan axborot erkinligi insonning barcha faoliyatiga hamda jamiyatdagi barcha sohalariga ta'sir qilmasdan qolmaydi. Jumladan axborot oqimining ortishi, ya'ni ko'payishi, axborotga bo'lgan jamiyat qiziqishini pasaytirmaydi. BMT Inson huquqlari bo'yicha kengashining 46-sessiyasida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev

“O'zbekistonda so'z erkinligini har tomonlama qo'llab-quvvatlashni qat'iy maqsad qilganmiz” [5] deya, so'z hamda axborot erkinligiga alohida to'xtalib o'tganlar.

Erkin fikrlash va uni ifoda etish nafaqat inson ichidagi o'yni namoyon qilishga, shu bilan birga jamiyatdagi turli fikrlar o'rtasidagi raqobatni vujudga kelishiga ham sabab bo'ladi. Sog'lom fikr qanchalik ko'p bo'lsa, jamiyat shunchalik ham ma'naviy, ham moddiy jihatdan rivojlanib boradi.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** Fikrlash, so'z va e'tiqod erkinligi hamda uni ifodalash insonning eng muhim huquqlaridan biri hisoblanadi. Axborot, undan foydalanish, uni tahlil



E-mail:

[jalolpo'latov7@gmail.com](mailto:jalolpo'latov7@gmail.com)

[https://orcid.org/  
0009-0007-1903-0743](https://orcid.org/0009-0007-1903-0743)

qilish va tezkorlik bilan tarqatish imkoniyati zamonaviy jamiyatda inson yuksalishining asosiy shartidir.

Soʻz va fikrlash erkinligini huquqiy kafolatlash huquqiy demokratik davlatning ajralmas qismi hisoblanadi,- deydi A.Abdullayev. Bu oʻz oʻrnida fikrlar va qarashlar xilma-xilligini, fuqarolarning demokratik jarayonlarda toʻlaqonli ishtirok etishini taʼminlaydi.

“Bugungi kunda axborotlashgan jamiyat tushunchasi zamonaviy sivilizatsiyaning rivojlanish darajasi sifatida tushuniladi”[1]. Jamiyat axborotni qabul qilishi bevosita sivilizatsiya bilan bogʻliqligini yuqoridagi berilgan tarifdan bilishimiz mumkin. Davlat va jamiyat aʼzolarida hamda barcha fuqarolarimizda birdek axborot madaniyatini shakllantirish axborot tushunchasi nima ekanligini yangi texnologiyalardan va usullardan foydalangan holda tushuntirish zarur.

N.Viner fikricha, “Axborot - tashqi olamga koʻnikish jarayonida undan olingan mazmuni ifodalashdir” [2]. Shuningdek, E.Giddens, E.Toﬀler, S.Xantington, F.Fukuyama, D Bell, M.Kastels, J.Neysbit kabi olimlarning asarlari diqqatga sazovor. Ular oʻz asarlarida jamiyatning axborotlashuvi, uning ijobiy va salbiy jihatlari, inson hayotiga axborot omilining aralashuvi natijasida ong va tafakkur oʻzgarishidagi eng muhim jihatlarni koʻrsatib berishgan [3].

**Tahlil va natijalar.** XXI asrda Axborot oqimining koʻpligi hamda tarmoqlanishi bugungi kun nuqtai nazaridan klasifikatsiyalashuvi natijasida turli axborotlarni sohalar boʻyicha ajratishni va shu soha vakillari tomonidan berilgan axborotning toʻgʻriligi yoki aksincha yolgʻonligini tekshirish bir muncha qiyinliklarni keltirib chiqarmoqda.

Axborotning koʻpayishi maʼlum soha vakillarining qisqarishiga ham olib keladi. Sababi esa axborotni saralashda inson omiliga ehtiyoj kamayishi, axborot saralashda zamonaviy texnologiya deb ataydigan kompyuterlardagi maxsus dasturlar inson omiliga nisbatan bir muncha ish koʻfissenti ortishi muqarrardir.

Fikr bildirish erkinligi asosiy huquq odamlar tafakkur qilmasdan fikrlarini erkin aytishlari, ifoda etishlari va tarqatishlari kerak. Shunday qilib, u

fuqarolik va siyosiy erkinlik, demokratik tizimlarni tavsiflovchi va boshqa huquqlarni hurmat qilish uchun muhim boʻlgan ijtimoiy va ijtimoiy hayot sohasiga nisbatan baholanadi [4]. Demokratiyada soʻz erkinligi juda muhimdir, chunki u siyosiy manfaatdorlar va jamiyatning boshqa aʼzolari oʻrtasida jamoatchilikni qiziqtirgan masalalar boʻyicha bahslashish, muhokama qilish va fikr almashish imkoniyatini beradi. Buning sababi, biz soʻz erkinligi boʻlmagan jamiyatni demokratik deb hisoblay olmaymiz.

Boshqa tomondan, soʻz erkinligi - bu odamlarning shaxsiy hayoti uchun yana bir muhim erkinlikning jamoat maydonidagi haqiqiy va aniq namoyonidir. Shunga qaramay, ifoda erkinligi burch va masʼuliyatni nazarda tutadi, uchinchi shaxslarning huquqlarini, davlatni, jamoat tartibini yoki fuqarolarning axloqiy salomatligini himoya qilish uchun tubdan. Masalan, urush foydasiga targʻibot qilayotganlar, nafrat uchun kechirim soʻrganlar, irqiy yoki diniy intoleransni namoyon etganlar, zoʻravonlikni qoʻzgʻagan yoki noqonuniy xatti-harakatlarni amalga oshirganlar haddan tashqari narsalarga duch kelishadi.

Falsafiy maʼnoda soʻz erkinligi tushunchasi insonning bilish faoliyatining oʻziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda ochib beriladi. Maʼlumki, u moddiy, amaliy tajribaga, insonning tashqi dunyo bilan bevosita oʻzaro taʼsiriga asoslangan.

Bir vaqtning oʻzida olingan hissiy tasvirlar mavhum fikrlash uchun boshlangʻich tarkib boʻlib xizmat qiladi va til uning moddiy shakli hisoblanadi. Soʻz obyektga nom beradi, uning xususiyatlarini taʼkidlaydi, ularni tahlil qiladi va umumlashtiradi, maʼlum bir toifaga kirgizadi. Bilimlarni rivojlantirish jarayonida soʻz insonga dunyoni strukturalash, uning elementlarini tanib olish va anglash, atrof-muhitni anglash va olingan maʼlumotlarni boshqa odamlarga yetkazish imkoniyatini beradi [6].

Soʻz tufayli inson mavhum fikr yurita oladi, hayotiy vaziyatlarni baholaydi, qaror qabul qiladi, oʻtgan tajribani xotirada saqlaydi va uning natijalarini umumlashtiradi va baʼzi hodisalarning mumkin boʻlgan oqibatlarini oldindan bila oladi. Ushbu umumiy qoidalarga asoslangan holda,



falsafiy ma'noda so'z erkinligi, avvalambor, "anglash huquqi"ning bir turi sifatida subeyktning hissiy bilim chegaralaridan chiqib ketishi, atrofidagi dunyoni kashf etishi va uning aks etgan qiyofasini odamlarning ehtiyojlari va manfaatlariga muvofiq holda haqiqatni amaliy rivojlantirish va o'zgartirish uchun zarur bo'lgan narsalarda shu darajada o'zlashtirishi mumkin degan xulosaga kelish mumkin.

So'z erkinligini axloqiy anglashda, bizning fikrimizcha, yer yuzidagi ma'naviyatga ega eng yuqori mavjudot bo'lgan faqatgina insonga tabiatan berilgan in'om ekanligi bilan bog'liq. Chunki, Abu Ali ibn Sino insonni jamiyatga birlashtiruvchi asosiy vosita sifatida muloqotni birinchi o'ringa qo'yadi. Bu insoniyatni bitta oilaga birlashtirgan alohida tabiiy omil deb hisoblanishi mumkin bo'lib, uning har bir a'zosi ma'lum axloqiy tamoyillar, bilim va muloqotga intilish, qadr-qimmat tuyg'usi va kimdir uni kamsitishini istamasligi bilan ajralib turadi. Inson o'zini o'zi ta'minlashga intiladi, "ikkinchi darajali" yoki ortiqcha emas, balki o'ziga xos va zarur bo'lishni xohlaydi. Axloq nuqtai nazaridan so'z insonning axloqiy o'zini anglashini, uning yaxshilik va burch borasida "o'zi bilan kelishuvini" shakllantiradi va ifodalaydi.

Shuningdek, bu o'rinda erkinlikka ta'rif berish joizdir. Sababi erkinlik turli-tuman shakl-shamoilga egadir. G'arb mutaffakkiri Spinoza erkinlikni bir shaxsning boshqa bir shaxs erkinliklariga daxl qilmagan holda amalga oshiradigan harakatlar majmui sifatida talqin etadi.

So'z erkinligini tushunishning ijtimoiy jihati bu - so'z odamlarning bir-biri bilan aloqa qilish jarayonlarida vositachi bo'lishini hisobga olishni talab qiladi. Nutqning o'zaro ta'siri doimo haqiqatga kiritilgan bo'ladi va odamlarning ijtimoiy hayotida boshqarishning haqiqiy omili bo'lib hisoblanadi. Ma'lumotlarni tarqatish yoki fikr almashish natijasida gapiruvchilar mavjudlikning mukammalligiga erishishga qaratilgan sa'yi harakatlarni birlashtirishga qaratilgan oqilona intilishlardan kelib chiqib harakat qilish uchun fikr uchun "tayanch nuqtasi"ni topadilar. So'z odamlar o'rtasidagi munosabatlarning boshlang'ich regulyatori sifatida boshqa barcha ijtimoiy hodisalarning paydo bo'lishi va rivojlanishiga

obyektiv hissa qo'shadi. So'z, zaruriy tartibda, ijtimoiy o'zini o'zi tashkil etish jarayonlarida ishtirok etadi, chunki u shu nuqtai nazardan insonning boshqa odamlar bilan muloqot qilish, ijodiy hamkorlik qilish ehtiyojini qondiradi.

Umumiy ijtimoiy kontekstga kiritilgan bir kishining harakatlari odatda boshqa odamlarning manfaatlariga ta'sir qiladi va shuning uchun o'zaro ta'sirga aylanadi. Harakat qilayotgan kishi boshqa bir kishiga muqarrar ravishda ta'sir o'tkazganda, ya'ni ta'sir qilganda o'ziga xos asimmetriya vujudga keladi. Shunday qilib asta-sekin ma'lum bir bo'ysunish tizimi shakllanadi va unda ba'zi kishilarning irodasi boshqalar uchun majburiylik ahamiyatiga ega bo'lib qoladi.

Shu asosda, S.S.Alekseyev to'g'ri ta'kidlaganidek: "Insonning ehtimol eng kuchli hissiyotlari kuchayadi, bular: hokimiyatdan lazzatlanish, hokimiyatga chanqoqlik, hech narsa bilan hisoblashmasdan, hokimiyatni qo'lga kiritish yoki har qanday yo'l bilan uni ushlab turishga intilish, uni yanada kuchaytirish" [7]. Bular dunyodagi eng kuchli ehtirosalar, odamlar butun mamlakatlar va sivilizatsiyalar hayotidagi va taqdiridagi keskin dramalar, shoklar va uzilishlar manbai bo'lib qoladi.

**Xulosa.** Yuqoridagilardan shunday xulosaga kelish mumkinki, axborot erkinligi imkoniyatlari davlatning o'z oldiga qo'ygan maqsadlariga va boshqa omillarga bog'liqdir.

Birinchiidan, davlatning axborot erkinligi siyosati mamlakatni demokratlashtirishga xizmat qilmog'i kerak;

Ikkinchiidan, axborot erkinligi siyosati aniq strategik maqsadlarga yo'naltirilgan holda amalga oshirilishi;

Uchinchiidan, axborot erkinligi siyosatini amalga oshirishda qo'llanilayotgan vositalar, usullar, uslublar zamonaviy tendensiyalar asosida muntazam takomillashtirib borilishi zarur;

To'rtinchiidan, axborot erkinligi siyosatining yo'nalishlari mamlakatning geografik joylashuviga, aholining demografik ko'rsatkichlariga, jamiyatdagi mavjud qonunlar va qadriyatlarga tayangan holda ishlab chiqilishi lozim.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Волков С.Н. Социальные и философские проблемы информационного общества. Лань 2022. – 112.с.
2. Винер Н. Кибернетика и общество. -М.: Наука, 1991. -620.с.
3. Гидденс Э. Устроение общества. Очерк теории структуризации. М. Академический проект. 2018 г. 528 с.
- 4.Тоффлер Э. Третья волна. -М.: АСТ – 2010. 795 с.
5. Xalq so‘zi gazetasi. 2021-yil 23-fevral, № 38 (7818)
- 6.Muzaffarov M.Y. So‘z erkinligi. “Новости образования: исследование в XXI века”. Международный научный журнал. №1(100), 1-часть август, 2022. с.329.
- 7.Oripov X.A. Ijtimoiy taraqqiyotda so‘z erkinligining o‘rni. –Samarqand.: “SamDU ilmiy axborotnoma”. 2021-yil, 6-son. –B. 71.
8. Алексеев С.С. Право: азбука - теория - философия: Опыт комплексного исследования. –М.: “Статут”. 1999-г. –С. 330.



## MILLIY-AXLOQIY AN'ANALARNING IJTIMOIY-FALSAFIY TAHLILI

*Mamadaliyev Mansurjon Mamajonovich*  
*Samarqand davlat universiteti tadqiqotchisi*

## СОЦИО-ФИЛОСОФСКИЙ АНАЛИЗ НАЦИОНАЛЬНЫХ ПРАВСТВЕННЫХ ТРАДИЦИЙ

*Мамадалиев Мансурджон Мамаджонович*  
*научный сотрудник Самаркандского государственного*  
*университета*

## SOCIO-PHILOSOPHICAL ANALYSIS OF NATIONAL MORAL TRADITIONS

*Mamadaliyev Mansurjon Mamajonovich*  
*Researcher of Samarkand State University*

**Annotatsiya.** Maqolada milliy-axloqiy an'analarning ijtimoiy-falsafiy tahlili yoritilgan. Shuningdek, elat va millatlarning turmush tarzida an'analarlar va jamoatchilik fikri o'rtasida chambarchas bog'liqlik masalalari falsafiy jihatdan tahlil qilingan.

**Tayanch so'zlar:** milliy-axloqiy an'analar, jamiyat, ijtimoiy integratsiya, an'analar mohiyati, shaxs, ijtimoiy muhit.

**Абстрактный.** В статье представлен социально-философский анализ национальных нравственных традиций. Также философски анализируются вопросы тесной связи традиций и общественного мнения в образе жизни народов и наций.

**Ключевые слова:** национальные нравственные традиции, общество, социальная интеграция, сущность традиций, личность, социальная среда.

**Abstract.** The article describes the socio-philosophical analysis of national moral traditions. Also, issues of close connection between traditions and public opinion in the lifestyle of peoples and nations are philosophically analyzed.

**Key words:** national moral traditions, society, social integration, essence of traditions, personality, social environment.

**Kirish.** Ma'naviy-axloqiy taraqqiyotini ma'lum bosqichlari avvalgi axloqiy an'analarni mahsuldor imkoniyatlarini o'z ichiga olgan holda davom etadi. Tarixiy taraqqiyot zinapoyasida qadamma qadam ko'tarilayotgan insoniyat har safar axloqiy madaniyat yutuqlarini yangidan yaratmaydi, balki axloqiy madaniyat oldin erishgan yutuqlariga tayanadi. Shuning uchun axloqiy madaniyat taraqqiyot tarixidan bitta bosqichni o'chirib bo'lmaydi. Chunki taraqqiyot dinamikasi oldingi bosqich ta'sirida bo'ladi.

Kishilik jamiyatida avlodlar almashinishi o'z-o'zidan an'analar tizimini yaratib, urf-odat tizimini yaratgan. Keksa avlod yangi avlod bilan shu urflar va odatlar orqali tanishgan, bir-birini anglash jarayoni kechgan. "An'anadan farqli ravishda odatlar muayyan vaziyatda nima qilish kerakli haqida batafsil ko'rsatma beradi va shu bilan birga insonni ruhiy fazilatlariga ortiqcha talab qo'ymaydi. Marosim ishtirokchilari odatlarni bekamiko'st amalga oshirish haqida o'z an'anaviy tarbiyasida ma'lumotlarni olgan bo'lib, u ma'lum sharoitlarda



E-mail:

[mamadaliyev\\_m@  
umail.uz](mailto:mamadaliyev_m@umail.uz)

[https://orcid.org/0009-0003-  
0208-6733](https://orcid.org/0009-0003-0208-6733)

o'zgarishi mumkin emas. Inson hayoti ana shunday urf-odat kabi formulalar asosida tartibga solingan" [1].

Insoniyat umuminsoniy axloqni o'zlashtirib an'anaviylikni rivojlantirgan, shu axloqiy an'analar ta'sirida uning badiiy-estetik madaniyatini shakllantirib, o'z ongini rivojlantirib yuqori bosqichga chiqargan. Har bir jamiyatda shaxsni rivojlantirishning an'alariga rioya etilar ekan, uning barcha omillari (axloqiy, estetik, badiiy va h.)ning tarixiy bosqichlariga, ijtimoiy maqomiga e'tibor beriladi. Sharqda jamiyatlar an'anaviy tartib qoidalar asosida boshqarilgani sababli shaxsiyatli tarbiyaviy ishlarda ham shunga e'tiqod qilinadi. Oldingi avlodning yutuqlari pand-nasihat, o'git, hayot falsafasi sifatida tarbiyada gavdalanadi, ma'naviy yutuqlarni eng afzallari o'zlashtiriladi. Bunday transformatsion jarayonga milliy, diniy va hududiy tus berish ideologik ahamiyatga egadir.

O'tmish axloqiy qadriyatlari nafaqat oddiy shaxs ijtimoiy-ma'naviy qiyofasida aks etadi, balki butun jamiyat tomonidan maksimal darajada o'zlashtirish natijasida butun milliy-etnik axloq nazariyasida aks etadi, takomillashadi. Bu masalalar axloqning falsafiy masalalarini to'liq qamrab oladi. An'ana avlodlar avlodga o'tadigan va muayyan ijtimoiy munosabatlar tufayli kelib chiqib, kishilarni his-tuyg'ularini, jinslararo, kishilararo fikrlarni tartibga solish tizimi, odatlar yig'indisidir [2, 92].

An'analarning xususiyatlaridan biri bu – uzluksizlikdir. Insonning ma'naviy borlig'idagi uzluksizlik va uzluksizlik moddiy va ma'naviy hayotda aks etadi. Uning ma'naviy olami turli ijtimoiy voqelik tufayli o'z mohiyati butun tizim sifatida o'zgarganda, ya'ni u bir holatdan ikkinchisiga o'tganda, hozirni o'tmish bilan bog'lab turganda uning tashkil etadigan ayrim omillar, unsurlarini saqlab qolishi uzluksizlikka misol bo'la oladi. Axloqiy an'analar yoki an'anaviy axloq, norma, me'yoriy tuzilmalar o'tmish va kelajakni bog'lab, bu orqali doimiylikni butunning barqarorligini belgilab beradi.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** Fransuz sotsiologi E.Dyurkgeymning ta'kidlashicha, "urf-odatlar kishilarni jamiyatga tayyorlovchi va xulq-atvorni tartibga soluvchi qoidalardir. Odat qoidalarini buzganlik uchun qilinadigan jazo, bu

guruhlarining birligini saqlashga yordam beradigan himoya vositasidir [3, 38].

An'analar ayni paytda integratsiya funksiyalarini ham bajargan. Ya'ni ular odamlarni bir jamoaga yoki boshqa jamoalarga birlashtirish uchun ijtimoiy asos bo'lib xizmat qilgan. Ushbu me'yorlar, qoidalar va e'tiqodlarga rioya qilgan holda, ajdodlarimiz ma'lum bir jamoaga, jamiyatga birlashdilar.

**Tahlil va natijalar.** O'tmishdan aniqki biror avlod o'z ijtimoiy taraqqiyotini bo'sh joyda boshlamaydi. Yangi avlod meros bo'lib o'tgan qadriyatlarini zaminida, bag'rida shakllanadi va yangi stereotipni yaratadi. O'tmish axloqiy qadriyatlar evaziga avlodlar bir-biri bilan genetik yaqinligi, xulqiy mansubligi haqida ma'lumotga ega bo'ladi. Avlodlar axloqiy kodlari orqali an'analar ta'sirida "nazariy assimlyasiya"ga uchraydilar. O'tmishdan hozirgacha kelgan axloqiy qadriyatlar sinovdan o'tganligi, kuchliligi tufayli bu hozirgi kishilar uchun ijodiy energiya beradi, zamonaviy ijtimoiy taraqqiyotga moslashib yangi yaratuvchi kuchga aylanadi.

Jamiyatning axloqiy qadriyatlarini ijtimoiy taraqqiyotni mexanik yig'indisi emas, balki axloqiy hayotning ikkitomonlama (*uzluksizlik va uzluksizlik*) va ko'p tomonlama (*an'analarning sinergetik xususiyati*) rivojlanishi natijasidir. Transformatsiyalar tufayli axloqiy qadriyatlar jamiyatning "saqlanish qonuni" kabi o'z an'analarni davom ettirib, yangi madaniyat va qadriyatlarni eski bilan birgalikda saqlab, o'zligidan begonallashtirmaslikka harakat qiladi. Demak, axloqiy an'analar bir vaqtning o'zida jamiyatning mavjudligini aks ettirib, milliy-etnik, umuminsoniy qadriyatlarini yagonaligini saqlaydi va o'z navbatida vaqti vaqti bilan yangi qadriyatlar bilan boyitib borib, eskilarini mazmunan yangilariga birlashtirib boraveradi. Buni ijodkorlik bilan qiyoslash mumkin. Eski va yangilikning birligi bu – ijodiyotda namoyon bo'ladi.

Ijodkorlik oddiy faoliyatdan tubdan farq qiladi. O'tmish axloqiy merosni o'zlashtirmasdan turib ijodkorlikni amalga oshirish imkonsizdir. Ijodiyot sohalari (*badiiy, ilmiy v.h*) o'z axloqiy an'analari atrofida yaratilib, uni tarannum qiladi, yuksak axloqiy madaniyat belgisi sifatida keyingi



avlod vakillariga ko'rsatadi. Ijodkorlik o'tmish va uning an'analarini keyingi, yosh avlodga etkazish, o'tmish axloqiy merosini jiddiy o'zlashtirib va o'z navbatida yangilik kiritish kabi katta salohiyatni bildiradi. Ijodkor inson o'z xalqi an'analariga sodiq qolgan holda, axloqiy madaniyatidan chetlashmagan holda ijobiy pozitsiyani belgilaydi. Ezgulik va yovuzlikni anglatuvchi simbolik belgi, an'anaviy yondashuvni chuqur anglab va zamonaviy muammolar timsolida ma'naviy qadriyat yaratiladi. Biz o'tmishning ma'naviy merosidagi axloqiy an'analarini tadqiq qilganimizda barcha ijodkorlarni axloq haqidagi fikrlari, inson axloqini rivojlanib borishi haqidagi g'oyalari ma'lum an'anaviy ketma-ketlikka bo'ysunishiga guvoh bo'lamiz.

Bundan tashqari an'analar davomiy va uzluksizlik tushunchalari bilan bog'liq bo'lib, bu ijtimoiy hodisalar obyektivdir. O'tmish merosi konservativ nazariy xarakterga ega bo'lganligi bilan, keyingi an'analar yangiligiga murosasiz munosabatda bo'ladi. Axloqiy qadriyatlarni tanqidiy baholash, qayta ko'rib chiqish va o'tmish merosni zamonaviy muhitga moslash bu transformatsion jarayonlardir. Agar uzluksizlik obyektiv bo'lsa, demak, har bir yangi davrning axloqiy madaniyatidagi odamlarning xohishlaridan qat'iy nazar, dasturlashtirilganda muqarrar ravishda yangi avlodning xulq-atvoriga kiradigan tarkibiy qismlar, shuningdek nafaqat foydasiz bo'lishi mumkin, balki tarkibiy qismlar ham ijtimoiy taraqqiyot uchun zararli bo'lishi mumkin.

Shunday qilib, rivojlanish nuqtai-nazaridan ko'rib chiqilayotgan ma'naviy meros asrlar osha o'zgarishsiz qolmaydi, balki har qanday tarixiy davrning o'z axloqiy madaniyati mavjud va u o'z ichiga barcha urf-odat, merosni oladi va yaratadi. Bugungi kunda yaratilgan axloqiy qadriyatlar, axloqiy munosabatlar o'tmishdan rivojlanib kelayotgan merosni bir bo'lami bo'lib, o'tmishdan nazariy va amaliy jihatlarni qabul qilib olgan ijtimoiy taraqqiyotni namoyon qiladi. Axloqiy qadriyatlar an'anasi, tizimi diniy qadriyatlar bilan chambarchas bog'langanligi insoniyat o'tmishi qanchalik ijtimoiy vaziyatlarga boy bo'lganligini, taraqqiyot bosqichlaridan meros bo'lib bizgacha

yetib kelganligi bu ijtimoiy falsafiy tahlil obyektini sifatida maydonga chiqadi.

**Xulosa.** Ma'lum elat va millatlarning turmush tarzida an'analar va jamoatchilik fikri o'rtasida chambarchas bog'liqlik mavjud. Dastlab an'analar kishilarni fikri va ijtimoiy ongi darajalarida namoyon bo'lib, keyinchalik jamoat tomonidan qabul qilingan, oliy hukmdor yoki xalq irodasini bildirgan diniy rahnamo tomonidan mustahkamlangan. Bunga quyidagicha xulosa qilish mumkin:

*birinchidan*, kishilarning xulq-atvori va muloqotining muayyan shakllari jamoatchilik fikri bilan qo'llab-quvvatlanib an'analarga birlashtirilgan. Yangi paydo bo'lgan an'analar yangi jamoatchilik fikrini shakllantirish va faoliyat yuritishining ustuni bo'lib xizmat qilib, axloqiy maqomga, axloqiy imperativlarga ega bo'la boshlagan. An'analar jamoatchilik fikriga qaraganda katta mustaqil va ta'sirga ega jabha hisoblanadi. Chunki jamoatchilik fikri hozirgi insonlarni qarashlari bo'lsa, an'analar o'tmishdan meros bo'lgan, dono fikrlar, tajribalar majmuidir;

*ikkinchidan*, elat va millatlarning turmush tarzidagi jamoatchilik fikri katta vakolatga ega. U tartibga soluvchi, jazolovchi, tanbeh beruvchi, insofqa chaqiruvchi funksiyalarni amalga oshiradi. Chunki u shaxsning, ijtimoiy guruhlarning hatti-harakatlarini ommaviy baholadi. Ular jamoatchilik fikrida bildirilgan bahoni (tasdiqlash, ayblashni) e'tiborsiz qoldirolmaydilar. Bu narsa odamlarga muayyan harakat yo'nalishini belgilab qo'yadi;

*uchinchidan*, etnik guruh hayotidagi an'analar ijtimoiy tartibga solish tizimida nafaqat tartibga soluvchi, balki o'zaro ta'sirni boshidan kechirgan. Jamiyatning ma'naviy va amaliy hayotida faol ishtirok etgan avlod uchun ma'lum bir ma'lumot turi sifatida kiritilib, keyingi, yosh avlodga kishilik sifati bo'lgan qahramonlik, mardlik, halollik, o'zaro yordam tushunchalarini reglamentini belgilab bergan;

*to'rtinchidan*, an'analar va jamoatchilik fikrining tartibga soluvchi roli nafaqat kishilar faoliyatining o'ziga xos mazmuni bilan bog'liq, balki ayni paytda marosimlar va ular orqali turli vaziyatlarda ularning hayotiy faoliyat shakllari va usullarini ochib berishlari bilan izohlanadi;

*beshinchidan*, jamiyatda jamoat fikri va an'analar yaxlit tarzda ifoda etilgan bo'lib, bu yaxlitlik kishilarni ishonitirish, iroda va hissiyotlarning psixologik qotishmasi sifatida maydonga chiqadi;

*oltinchidan*, an'analar paydo bo'lganidan keyin ba'zi narsalar paydo bo'ldi. Ular nisbatan mustaqil tushunchalar sifatida harakat qila boshlashdi. Ammo ular jamoatchilik fikrini qo'llab-quvvatlashga muhtoj bo'lib, ularni roziligisiz mavjud bo'la olmas edilar. Bu jamoa fikri va an'analarning dialektikasini bildiradi. Shunday qilib, an'analar millat va elatning turmush tarzida muhim ijtimoiy tartibga soluvchi, jamoa fikrini

rivojlantiruvchi ijtimoiy me'yorlar bo'lib, ular barcha qadriyatlarni tizimlashtiradi va hayot yo'lini belgilab beradi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1.Тейлор Э. Б. Миф и обряд в первобытной культуре. – Смоленск: Русич, 2000. – С-542-545.

2. Яковлева Т.В. Традиции как модель системы моральной регуляции.// Вестник Кемгуки, 2012 с-118

3.Гофман А.Б. Проблематика традиции в творчестве Эмиля Дюркгейма.// Социологический журнал. 2007. № 4 С-65.



## SURXONDARYO VILOYATI ORONIMLARI VA ULARNING TARIXIY TAHLILI

*Jumayev Mustaf o'g'li*

*Termiz davlat universiteti o'qituvchisi*

## РЕГИОНЫ СУРХОНДАРЬИНСКОЙ ОБЛАСТИ И ИХ ИСТОРИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ

*Жумаев Мустафо Эркин угли*

*Термезский государственный университет учитель*

## SURKHONDARYO PROVINCE REGIONS AND THEIR HISTORICAL ANALYSIS

*Jumayev Mustafa Erkin ugli*

*Termiz State University teacher*



[https://orcid.org/  
0009-0003-6438-6264](https://orcid.org/0009-0003-6438-6264)

E-mail:  
[mustafojumayev95@  
gmail.com](mailto:mustafojumayev95@gmail.com)

Tel: +99890 746 86 66

**Annotatsiya:** XXI asrda joy nomlarini o'rganish asosiy sohalaridan biriga aylanmoqda. Ushbu maqolada esa Surxondaryodagi asosiy oronim – yerning shakli, relyefi va u bilan bog'liq bo'lgan joy nomlari tahlil qilinadi.

**Kalit so'zlar:** Surxondaryo, toponim, oronim, Hisor, Bobotog', Ko'hitang, Boysun.

**Аннотация:** В XXI веке изучение топонимов становится одним из основных направлений. В данной статье анализируется основное поселение Сурхандарьи - форма земли, ее рельеф и связанные с ним топонимы.

**Ключевые слова:** Сурхандарьинская, топоним, ороним, Хисар, Боботог, Кохитанг, Бойсун.

**Abstract:** In the 21st century, the study of place names is becoming one of the main fields. In this article, the main settlement in Surkhandarya is analyzed - the shape of the land, its relief, and the place names associated with it.

**Key words:** Surkhandarya, toponym, oronim, Hisar, Bobotog', Kohitang, Boysun.

### KIRISH (INTRODUCTION)

Toponimika bu – joy nomlari haqidagi fandır. Tarixni o'rganishda manbalar asosiy ahamiyat kasb etadi. Bunda manbalar tabiiy ravishda ikkiga bo'linadi: moddiy va yozma manbalar. Toponimlar ham tarixni o'rganishdagi asosiy manbalardan biri bo'lib, u yozma manbalar ko'rinishidagi ma'naviy manbalar turkumiga kiradi, chunki joy nomlari haqida yozma manbalar ham uchraydi, xalq og'zaki ijodida, folklor ko'rinishida va afsona, rivoyat

ko'rinishidagi joy nomlari ham uchraydi. Ushbu maqolada esa biz Surxondaryo viloyatida joylashgan oronimlar, ya'ni yerning yuzasining joylashuvi, rangi va relyefi bilan bog'liq nomlarni tarixiy jihatdan tahlil qilamiz. Bunda oronimlar O'zbekiston Respublikasida ham juda ko'p uchragani kabi Surxondaryo viloyatida ham ko'p uchraydi. Bunga sabab ham bor, chunki viloyatning uchta tomoni tog'lar bilan o'ralgan. Shimolda Hisor tog'lari Sariosiyo, Denov, Uzun, Oltinsoy tumanlari

hududlarida joylashgan bo'lsa-da, viloyatning sharqiy qismida uncha baland bo'lmagan Bobotog' tizmasi Uzun, Qumqurg'on va Jarqo'rg'on tumanlarida joylashgan bo'lsa, viloyatning g'arbiy qismida Boysun tumanida shu nomdagi tog'lar, Muzrabod va Sherobod tumanlari hududida esa Ko'hitang tog'lari joylashgandir, viloyatning janubiy qismida esa Amudayo daryosi oqib o'tgan va oronimlar yuqorida sanalgan tog' etaklarida joylashgan qihloqlar va tog'larga xosdir.

#### ADABIYOTLAR TAHLILI VA METOD / (MATERIALS AND METHODS)

Surxon vohasidagi toponimlarni tahlil qilish va o'rganish XX asrning 80-90-yillarining yarmidan o'rganila boshlangan. Bu sohadagi ishlarni dastlab Respublika miqyosida Suyun Qorayev, To'ra Nafasov, Ernest Begmatov va Sh.Kamoliddin singari toponomist, lingvist va tarixchi olimlar tomonidan tadqiq qilinish boshlangan bo'lsa, 90-yillarda Xolmo'minov Xushvaqt "Boysun nohiyasi va uning atrof hududlari mikrotoponimlari" (1993), Begimov Odil "Janubiy O'zbekiston toponimlarining o'zlashgan qatlami" (1999), Tursunov Saypulla "Surxondaryo viloyoti toponimlari" (2008) singari dissertatsiya va kitoblar nashrdan chiqarildi,

#### MUHOKAMA (DISCUSSION)

Eng avvalo, Surxondaryo viloyatidagi eng katta tog'larga to'xtalsak, Hisor, Boysun, Ko'hitang va Bobotog' tog'lari nomlarining etimologiyasiga to'xtalsak: hisor – eroniy tillardan tarjima qilganida bu "qo'rg'on" deganidir [4.24]. Bunday nomlanishiga sabab esa ushbu tog' etaklarida juda ko'plab daralar, to'siqlar borligi, ba'zi qishloqlarga kirish bitta dara orqali (Darband) bo'lishi qal'a yoki qo'rg'onni eslatadi. Hatto Aleksandr Makedonskiy qamal qilgan Xoriyen va Oksiartning qal'alari ham shu tog'larda joylashgan. Qadimdan bu yerda yashaydigan aholi tog'ning geografik joylashuvidan foydalanib, undan tabiiy himoya sifatida foydalangan.

Bobotog' – Denov, Uzun, Sho'rchi va Qumqurg'on tumanlari oralig'ini kesib o'tgan tog' bo'lib, bo'lib "bobo+tog'" so'zlarining qo'shilmasidir. Mashhur toponomist olim T.Nafasov uni tadqiq qilib, muqaddas tog' deya izohlagan.[6.24] Haqiqatdan ham Markaziy Osiyo xalqalari tarixida "bobo" so'zi ulug', ulkan, muqaddas, katta degan ma'nolari ham bor, shu sababdan ham bemalol

Bobotog' bu – katta muqaddas tog' (xuddi Pomir tog'ining turkcha nomi Tangritog' – ulug', katta tog' singari). Bundan tashqari rimlik tarixchi Kvint Kursiy Ruf o'zining "Makedoniyalik Aleksandr tarixi" asarida mil.avv IV asrga oid Shimoliy Baqtiryada joylashgan Bubakenani tilga olgan. Tadqiqotchilar tomonidan Bubakena bu Bobotog'ning ikki tomonida joylashgan viloyat deb talqin qilinadi [2.33]. Bubakena so'zi esa ikki qismdan tashkil topgan bo'lib, "buba+ken" so'zlarining qo'shilmasi bo'lib, *buba* qadimgi turkiy tilida bobo degan ma'noni bildiradi va u yoshi ancha katta insonlarga, yoshi ulug' odamlarga aytiladi, ken – esa kent shaklida hududni bildirib, *yurt, joy, vatan, xonadon* deganidir. Bu so'zlarni umumlashtirib esa "katta yoki ulug' tog'lar yurti" deb talqin qilish mumkindir.

Boysun tog'i – bu tog' tizmasi Boysun tumani hududida joylashgan bo'lib, tuman nomi bu tizma uchun asos bo'lgan. Boysun Xitoy manbasi «Tanshu» da Tohariston (Tu-xo-lo) mamlakatining shimoliy chegarasida *Poli* tog'lari qayd etiladi. Bu tog'lar hozirgi Boysun tog'lariga to'g'ri keladi. X asr arab geograflari: Istahriy, al-Muqaddasiy, ibn Havkal, al-Ya'qubiy va muallifi noma'lum «Hudud al-olam» asarida Sag'oniyondan Samarqandga o'tish yo'lida *Basand* [5.114,467,86] yoki *Masand* shahri qayd etiladi [1.289].

Arxeologlarning fikriga ko'ra, *Basand* hozirgi Boysun o'rniga to'g'ri kelib, bunga shu erdan topilgan sopol buyumlarning IX-XII asrlarga to'g'ri kelishi hamda Samarqand va Buxorodan Chag'oniyonga o'tuvchi o'rta asrlar karvon yo'li ustida joylashuvi dalil bo'la oladi [3.41]. XVIII asr manbalarida shahar *Boysun* deb tilga olinadi [4.80].

Boysun so'zining etimologiyasi haqida turli fikrlar mavjud. Rus sayyohi N.A.Maevning mahalliy aholidan yozib olgan izohiga ko'ra, Boysunning haqiqiy nomi *Boyshin* bo'lib, «boylar, zodagonlar manzili» ma'nosini beradi. Uning bunday deyilishishiga bu shaharda ko'chmanchi o'zbek (qo'ng'iro't) qabilalarining zodagonlari, boylari yashaganliklari sabab bo'lgan.

Ko'hitang - Ko'hitang – Surxondaryo viloyatining g'arbiy tomonidagi tog' tizmasi, Boysun tog'ining janubiy davomi, Ko'hitang tog'i shimoliy tomonda Boysuntog' va janubiy tomonda



Amudaryoga qadar cho‘zilgan yirik tog‘ tizmasidir . Ko‘hitang juda qadimgi atama bo‘lib, VIII asrda Kuftan yoki Guftan nomi bilan Termizning shimoliy qismida alohida mustaqil beklik sifatida qayd etilgan va bu nom arab istilosi davrida qayd etilgan va undan keyin qayd etilmagan. Kuftan so‘zi qadimgi eroniy tillardagi “kaufa”, hozirga fors tilidagi “ko‘h” so‘zning ko‘rinishi bo‘lib, “tog‘” deganidir va “tang” so‘z esa “tor”, “kichik”, “qisqa” deganidir, ya‘ni “Kuftan” – qisqa tog‘ yoki kichik tog‘lar deganidir. Kuftan so‘zi asrlar davomida Kuftan>Ko‘htan>Ko‘hitangga aylangan. XVIII asrda Ko‘histon nomi joy ham qayd etilgan edi. Bu hozirgi Sherobod tumani yaqinidagi Kallamozor qishlog‘i yaqinidagi qal‘a bo‘lgan. Ko‘hitang bu qisqa tog‘lar, kichik tog‘lar deganidir.

#### **NATIJALAR (RESULTS)**

Bugungi kunda Surxondaryodagi tog‘li va balandlik hududlarda joylashgan qishloq nomlarida tog‘ ma‘nosini bildiruvchi fors-tojikcha, arabcha va turkiy so‘zlar ko‘pdir. Masalan: Machay – eroniycha mass-tog‘, jo-joy, o‘rin ya‘ni tog‘li joy, Ayg‘irtepa – qadimgi turkiycha ayg‘ir – ulkan, katta, tepa esa balandlik, ayg‘irtepa – baland tepalik. Barqo‘sh – forscha “bar” yuqori baland, “qo‘sh” so‘zi ham forscha bo‘lib baland tog‘ degani, Boldir – qadimgi turkiy tilida bu so‘z “tog‘ning ko‘tarilib chiqqan joyi” [8.54] deganidir. Darband – tojikcha “yopiq darvoza” ma‘nosini bildiradi.

#### **XULOSA (CONCLUSION)**

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki toponimlarni tahlil qilishda lingvistik va tarixiy tahlil

muhim hisoblanadi. Yuqoridagi misollardan ko‘rishimiz mumkin-ki, tarixiy manbalarga murojaat qiladigan bo‘lsak oronimlar va ularning kelib chiqishiga doir bo‘lgan juda ko‘p ma‘lumotlarni uchratishimiz mumkin. Biz yuqorida tahlil qilgan oronimlar Surxondaryo viloyatida joylashgan oronimlarning bir qismidir. Bunday joy nomlaridan yana ko‘plab keltirish mumkindir.

#### **Foydalanilgan manbalar va adabiyotlar ro‘yxati:**

1. Ahmad ibn Abu Jakub ibn Wadhah al-Jakubi. Kitab al-buldan. s.289.
2. Annayev T., Shaydullayev Sh. Surxondaryo tarixidan lavhalar. Toshkent-1997. 33-bet
3. Arshavskaya Z.A., Rtveladze E.V., Xakimov Z.A. Srednevekoviye pamyatniki Surxandari. Tashkent, 1966, str. 41.
4. Mir Muxammad Amin Buxari. Ubaydullaname. Tashkent, 1957, str. 80.
5. Hudud al-Alam. § 25, r. 114, №28; Jakut's geographishes... v. 1, s. 467; Ibn Havqal. Kitob surat al-ard. 86-bet.
6. T.Tafasov, V.Nafasova. O‘zbek tili toponimlarining o‘quv izohli lug‘ati”. Toshkent-2007. 24-b.
7. T.Nafasov. 1988. 36-b.
8. G‘.Abdurahmonov, S.Mutallibov. “Devoni lug‘otut-turk”(index-lug‘at). “Fan” nashriyoti-1967-yil. 54-bet.



## DEFINITION OF PRONUNCIATION SKILLS

*Marufov Elyor Uktamovich*  
*Teacher of Samarkand State Institute of Foreign*  
*Languages*

## TALAFFUZ QOBILIYATLARINING TA'RIFI

*Marufov Elyor Uktamovich*  
*Samarqand davlat chet tillar instituti o'qituvchisi*



[https://orcid.org/  
0009-0009-4442-1046](https://orcid.org/0009-0009-4442-1046)

E-mail:  
[uktamovich2012@  
mail.ru](mailto:uktamovich2012@mail.ru)

[Tel:+998937227427](tel:+998937227427)

**Annotation.** This article deals with the communication difficulties that occur between native speakers due to variations in speech in different regions. As pronunciation is an area of language instruction that affects all levels of proficiency across the discipline of language teaching and learning. In addition, most scientists' considerations are mentioned in this article.

**Key words:** pronunciation, communication, speech, vowel, accuracy, comprehensibility, syllable, stress, speak, listener, learning.

**Annotatsiya.** Ushbu maqola turli mintaqalardagi nutqdagi farqlar tufayli ona tilida so'zlashuvchilar o'rtasida yuzaga keladigan muloqot qiyinchiliklarini ko'rib chiqadi. Chunki talaffuz tilni o'rgatish sohasi bo'lib, til o'rgatish va o'rganish intizomi doirasidagi tilni bilishning barcha darajalariga ta'sir qiladi. Bundan tashqari, ushbu maqolada ko'pchilik olimlarning fikrlari ta'kidlanadi.

**Kalit so'zlar:** talaffuz, muloqot, nutq, unli, aniqlik, tushunarlik, bo'g'in, urg'u, so'zlovchi, tinglovchi, o'rganish.

**INTRODUCTION (KIRISH).** Information exchange between individuals is a frequent definition of communication. Speaking with native speakers of the language they are learning is one of the finest methods for language learners to learn about it. Numerous factors can influence how native speakers or other listeners understand non-native speakers' speech in this setting. Pronunciation is often the source of mistakes that lead to comprehensibility problems among pupils learning a language for the first time. Variations in speech that arise in various places might even cause communication problems between native speakers. Diphthongs are technically defined as glides that begin with one vowel and transition to another, frequently within the same syllable. Diphthongs, to put it more informally, are the parts of speech that

lead to a lot of miscommunications amongst individuals.

All skill levels in the field of language teaching and learning are impacted by the domain of pronunciation education. "Pronunciation can be one of the most difficult parts for a language learner to master and one of the least favorite topics for teachers to address in the classroom", according to the majority of experts. It takes work to get "good" pronunciation, but with continued language learning, it will become better over time. The English language never directly teaches pronunciation correctness.

Although teaching pronunciation is a crucial aspect of learning a second language, it is sometimes given little attention. Although it appears that most people believe that pronunciation is

something that will naturally develop, learners are nonetheless expected to maintain a particular degree of proficiency. Globally, research on second language learning and secondary and higher education tend to overlook pronunciation. However, university-level English language learners typically get appropriate pronunciation coaching, which can aid in the development of a more native-like pronunciation.

**MATERIALS AND METHODS / (ADABIYOTLAR TAHLILI VA METOD).** It is evident that technology has permeated most classrooms across all topic areas and educational levels. Since they have been engaging with digital gadgets since infancy, students in today's educational system are known as digital natives. They are naturally aware of how digital technologies work as a result of this exposure, and they actively look for chances to utilize them in daily life. It is not unexpected that researchers have found that multimedia technologies are helpful for enhancing language proficiency given the widespread practice of utilizing technology to improve all facets of daily life and the educational community's need to find solutions for teaching pronunciation [1].

Even though pronunciation is a separate language system, grammar and vocabulary are frequently taught alongside it. When teaching a lexical set, for instance, a teacher could address word stress in isolation, or when demonstrating tense use, they might concentrate on linked speech aspects. On the other hand, if a teacher concentrates primarily on a pronunciation trait, this may serve as a covert emphasis on vocabulary or grammar. At the start of a class, we frequently do pronunciation warm-up exercises that include review previously taught vocabulary. Whether pronunciation is taught primarily receptively or if there is a concentration on both receptive and productive aspects of an English phonological characteristic is a major point of contention in pronunciation instruction. First, students hear examples of phonological characteristics and may be required to listen to and identify them in activities. The instructor uses a variety of exercises in a receptive-productive approach, asking students to pronounce language

samples that have a pronunciation trait. While drilling and controlled practice are beneficial initially, incorporating more engaging, communicative activities - perhaps even including a game or competitive element - can boost students' enthusiasm [2].

**DISCUSSION AND RESULTS (MUHOKAMA VA NATIJALAR).** Language is a tool of expression for human beings; that is, people use language on a daily basis to express thoughts. But there is a significant issue that so many overseas language learners of English face. They are too timid to express themselves in English. Because English pronunciation instruction is so inadequate, it has never been implemented in its entirety in schools. It goes without saying that receiving proper English instruction enables us to talk fluently and naturally in everyday situations. Pronunciation is the aspect of learning English that many students find most challenging, therefore they should dedicate a significant amount of effort to perfecting it. This technique is proper. It goes without saying that enunciating words clearly is a crucial component of effective communication. Keeping this in mind, educators should strive to provide activities that are appropriate, attainable, and fulfill students' communication requirements. When used appropriately, pronunciation education may support students' real production, increasing their understanding of and experience with pronunciation.

Actually, no research has ever been done on the connection between motivation-boosting activities and pronunciation instruction. As is well known, many students find pronunciation to be a challenging topic, and studying it can be challenging if they lack the necessary patience. Motivation therefore plays essential functions whether it originates from within or beyond. Some common challenges that frequently cause students a lot of problems are listed below:

*Obstacle 1: Assimilation in English sounds.*

*Obstacle 2: Similar sounds*

*Obstacle 3: Linking sounds [3]*

In these situations, encouraging motivation undoubtedly helps pupils feel that they can learn and participate more in the phonetics classes.

As seasoned educators with over ten years of experience, we would argue that conducting research is pointless if it is not used in the classroom and has no impact on the learning process. By which we mean that practicing research in the classroom and seeing the outcomes that students achieve from it is the greatest method to determine whether it is feasible in real life. The Classroom Action Research Method (CARM) demonstrates its usefulness in achieving this.

1. Viewpoints on teaching and learning phonetics among educators and learners: The data indicates that educators and learners highly regard phonetics in the context of teaching and learning English.

2. The capacity of pupils to acquire phonetics on their own: The majority of students rely heavily on the motivation and instruction of their teachers rather than taking the initiative to master these abilities on their own.

3. The methods and instructional exercises used in phonetics lessons: Students studying phonetics will not benefit from a single, rigid method. Teachers must be extremely adaptable when approaching students to teach phonetics, employing both soft and pressure-based methods.

4. The elements that make up an engaging phonetics class include: the students' aptitude for the subject, their attitude toward learning the subject, the teachers' inspiration, the students' bad pronunciation, the dry textbooks and supplemental workbooks, etc.; the teachers' expectations for their students' pronunciation improvement; the range of online and offline resources for English pronunciation; the teachers' self-checking of their own pronunciation while teaching the subject to the students; and the significance of phonetics in helping students speak the language fluently.

5. The challenges or barriers encountered when learning phonetics, such as: uncooperative students; variations in students' English proficiency; the class's excessively high or low English proficiency; too complex phonetics knowledge for students; inadequate time allotted for phonetics study; the state of the classroom; students' inactivity in acquiring this skill; students' fear of pronouncing words incorrectly when speaking; students' dialects

and accents; limited learning time; time spent looking for additional phonetics materials; and teachers' demotivation.

6. How to locate teaching resources for phonetics: Although there weren't many, most of them generally felt that it was simple to locate phonetics resources to aid in their instruction. Teachers' workloads would be greatly reduced if learning resources were easily accessible and students took the initiative to identify and study them [4].

Teachers should employ a range of in-class activities to encourage students to practice this skill, as well as certain restrictions that were occasionally challenging but enjoyable. These regulations should also challenge students to improve their pronunciation of words, phrases, and intonation. A set of motivational mechanisms would be very beneficial and encouraging because teaching and studying phonetics presents many challenges for both teachers and students. As a practical researcher, we would provide a recommended one in this chapter that instructors may utilize to encourage their pupils to develop phonetics and even speaking skills. Students should do several phonetic activities in class to improve their pronunciation abilities. It is crucial that students participate.

When pupils participate, it implies they actually engage with and do all of the assigned work. They would also not be allowed to take the tests if they did not participate in the activities offered up to a number of times (3–4–5, depending on the professors' judgment). Students actively participate in class activities and pay close attention in class since they are well aware of this. At the start of the course, students are a little anxious and dislike it. When you execute it, treat them with kindness and seriousness. It is strongly suggested that professors provide their pupils extra activities to complete at home because class time is limited, monitoring that they have completed their schoolwork comes first, followed by monitoring their attendance [5].

Ask pupils who haven't finished to go finish it in 15 to 20 minutes so they may return and continue the session. If they are unable to, they are



still free to continue studying, but that day's attendance will be recorded as absent. Students gain a better understanding of phonetics and develop their awareness and abilities. Students may find it difficult to complete a large amount of homework assigned by their professors at times. Recognize how much homework pupils are assigned.

In peer self-assessment, student's cross-check their work once they have completed the teacher-given homework, assignments, or class activities. Teachers need to provide students with clear instructions on what needs to be assessed in order for them to conduct peer self-assessment. Students can use their companions' evaluations of their practice or activity as a gauge. Teachers save time and effort, while students gain more freedom in their study. Insufficient direction might cause students to struggle with cross-checking, which can make the lesson less effective. Use the guidelines to prepare yourself thoroughly.

As students work in pairs, some are actually very weak and some are quite strong at pronouncing words correctly in English. Moreover, although some students are very engaged in their studies, others are not prepared and willing to study. Asking them to take the lead over the other will help to fix this issue. Teachers typically check in with their classes after they have completed an exercise together. When teachers check, they know right away if students A and B - a pair - have completed the task correctly. The completion of their assignment should be graded using a straightforward system: Pass or Fail.

Both students A and B acknowledge that they both failed this task if the teacher states that student A passed and student B fails. They receive a "done well" grade if the teacher declares that they both pass. If she claims that they both fail, then it is clear that they both fail this task. By doing this, children learn that they have a responsibility to one another and make every effort to support their

partner. Students grow well together and learn from one another. Students may need a lot of time to make the necessary improvements. Avoid giving them too many assignments at once.

It is never possible to verify one-on-one with professors in a class of several dozen kids. Therefore, asking students to do their own assessments is both quicker and more efficient for teachers. There are a plethora of methods to assign homework to kids that they may complete independently and then self-evaluate, such as:

- Going live on the private Facebook group of the class
- Writing phonetics of the text
- Copying the voice
- Recording their voice
- Self-talking / self-presenting

**CONCLUSION (XULOSA)** Students become more confident in communication and improve their knowledge of pronunciation a lot and may be overwhelming.

#### **LIST OF USED LITERATURE**

1. Hopkins D. *A Teacher's guide to classroom research*. Open University Press. Philadelphia. 1985.
2. Luz Mery O. C. *Pronunciation development in the acquisition of adult esl students' speaking skills: implications for curriculum design*. USA. 2014.
3. Evans G.Z. *Teaching and learning L2 pronunciation: a closer look at classroom and extra-classroom factors in the development of comprehensibility in ESL learners*. Indiana University. 2015.
4. Cindy E.L. *Developing pronunciation skills at the introductory level: motivating students through interpersonal audio discussions*. Tuscaloosa. 2014.
5. Jamolov J. *Chet tili o'qitish metodikasi*. Toshkent. 2012.



## SOVETLAR TOMONIDAN MAORIF, FAN VA MADANIYATNI RIVOJLANTIRISHGA MUNOSABAT

*Umarov Djamshed Sayitmuratovich, DXX ChQ “Yosh chegarachilar”  
HAL Huquq fani o‘qituvchisi Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa  
doktori (PhD)*



[https://orcid.org/  
0009-0004-2134-0503](https://orcid.org/0009-0004-2134-0503)  
[umarovjamshid510@  
gmail.com](mailto:umarovjamshid510@gmail.com).

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada Rus mustamlakachilari o‘zlarining madaniyat sohasidagi siyosatida o‘lka xalqlarining yerlari, tabiiy boyliklarinigina emas, balki ularning qalbini ham zabt etishni ko‘zlaganliklari bayon etilib, ruslashtirish siyosatida o‘lka madaniyatini ham, xalq ruhiyatini ham ruslarning ta‘siriga olishni nazarda tutganligi yozilgan. Turkiston xalqlarining fan va madaniyati mustamlaka tuzumining biqiq sharoitida ham, ruslashtirish siyosatining barcha zugum sitamlariga qaramay, rivojlanishdan to‘xtamagani yozilgan.

**Kalit so‘zlar:** O‘zbekiston SSR, ruslashtirish, sotsialistik, milliy, milliy madaniy jarayon, kasaba uyushmalari.

## THE SOVIETS' ATTITUDE TO THE DEVELOPMENT OF EDUCATION, SCIENCE AND CULTURE

**Abstract:** In this article, it is stated that the Russian colonialists in their policy in the field of culture intended to conquer not only the lands and natural resources of the people of the country, but also their hearts. It is written that the science and culture of the Turkestan peoples did not stop developing even in the strict conditions of the colonial system, despite all the pressures of the Russification policy.

**Key words:** Uzbekistan SSR, Russification, socialist; national; national cultural process; trade unions.

**KIRISH.** Urushdan keyingi yillarda O‘zbekiston sovetlar hukumati maorif, fan va madaniyatni rivojlantirishga e‘tibor bermadi, deyishga hech qanday asos yo‘q. Ammo bu tarmoqlar buyuk davlatchilik siyosati manfaatlariga bo‘ysundirilgan holda olib borildi. Bu siyosatni «baynalminalchilik» va «shaklan milliy mazmunan sotsialistik» deb atalgan shovinistik g‘oyalar asosida amalga oshirildi. Chunki «baynalminalchilikka» tashqi shakl va tashviqot-targ‘ibot nuqtai nazaridan haqiqiy baynalminalchilik g‘oyasi berilgan bo‘lsa-da, amalda sovetlar hukmronligi davrida bu g‘oya har qanday milliylik va milliy manfaatni nazar-pisand qilmas, milliylik va milliy manfaat g‘oyasi tarafdorlarini hech ikkilanmasdan iskanja ostiga olar, qatag‘on qilar edi. «Shaklan milliy va mazmunan sotsialistik» madaniyat g‘oyasi ham aslida mahalliy millatlar ongini zaharlash quroli bo‘lgan. Chunki «shakl» shunchaki ishlatilgani holda asosiy maqsad g‘oya mazmun pardasiga

o‘ralgan bo‘lib, u miliy qadriyatlarni g‘orat qilib, «sotsialistik» niqob ostida ruslashtirish manfaatlariga xizmat qilar edi [1].

**ADABTYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA.** 1990-yilda umumta‘lim maktablari soni 9000 taga etdi. 1946—1985-yillar oralig‘ida Markaz ideologlari tomonidan o‘ylab topilgan ana shu xayoliy va noilmiy aqidalar girdobida, butun mamlakatda bo‘lganidek, O‘zbekistonda ham maorif, oliy ta‘lim, ilm-fan, san‘at o‘ta siyosiydashgan holda rivojlanishga majbur qilindi. Yana eng muhimi shundaki, bu davrda barcha milliy respublikalar va millatlar madaniyatini o‘zida mujassamlashtirgan yagona «sovet madaniyati» yaratilganligining e‘tirof etilishi SSSRga birlashtirilgan barcha xalqlar ma‘naviyatining bundan keyingi yo‘nalishini belgilab berdi. Ushbu davrda madaniyatga xos, uning rivojlanishi uchun muhim omil bo‘lgan erkinlik, demokratiya batamom yo‘q qilindi. Madaniyat, ayniqsa, milliy madaniyatning «rivoji»

maxsus qolipga solindi [2]. Siyosiy o'lovchilarga, kommunistik mezonga javob bermagan har qanday asar yo'qqa chiqarildi, uning muallifi esa jamiyatga yaroqsiz shaxs sifatida «chetga surib» qo'yildi. Ayni paytda, 1946-1985-yillarni o'zbek madaniyati uchun to'liq tushkunlik davri deyish ham xato bo'lur edi. Chunki bu davrda mafkuraviy tazyiqlar, qolipga solishlar kuchaygan bo'lsa-da, madaniyat ma'lum darajada rivojlandi. Bu yillarda yaratilgan ijobiy ishlar, omma orasida olib borilgan madaniy-ma'rifiy tadbirlar o'ta siyosiydashgan va mustabid tuzum uchun xizmat qilgan bo'lsa ham, u baribir o'zbek xalqining shu davrdagi milliy madaniyati bo'lib qoldi, xalqning madaniy-ma'rifiy saviyasini oshirishga xizmat qildi. Xususan, [bu maorif](#), oliy ta'lim muassasalariga tegishlidir. Respublika xalq ta'limi urushdan keyingi yillarda bir qator jiddiy qiyinchiliklarni yengib o'tishiga to'g'ri keldi. Urush yillarida ta'lim tizimiga e'tibor berilmadi. Ana shu «odat» urushdan keyingi dastlabki yillarda ham davom etdi. Urush davrida o'qishga jalb etilmagan maktab yoshidagi bolalarni urushdan keyingi dastlabki yillarda ta'lim tizimiga tortish juda muhim masala bo'lib qoldi. Bundan tashqari, urush yillarida ta'lim sifati ham juda pasayib ketgan bo'lib, 20-yillardagi qoloq uslublarda olib borilardi [3]. Bu esa o'quvchilarni o'qishdan bezdirar, o'qishni tashlash va sinfda qolish hollari ko'paymoqda edi. Masalan, 1945-46-o'quv yilida O'zbekiston maktablaridagi o'quvchilar soni rejadagi 1 mln. 10 ming kishi o'rniga 823 ming kishidan iborat bo'ldi. Sinfda qolgan o'quvchilar soni ham ko'p bo'lib, 1946-yilda u barcha o'quvchilarning 37%ini tashkil etardi. Ayniqsa qiz bolalarni maktabga jalb qilish, ularni o'qishni tugatguncha ushlab turish alohida muammo sifatida ko'ndalang bo'lib turardi. O'qituvchi xodimlar masalasi urushdan keyingi yillardagi eng jiddiy muammolardan biri edi. Chunki malakali o'qituvchilar asosan urushga yuborilgan, ularning ko'pchiligi halok bo'lgandi. Xususan, 1947-yilda respublika bo'yicha 4 ming o'qituvchi etishmasdi. Tuman xalq maorifi bo'limlari mudirlari, maktab direktorlari va ta'lim bo'yicha direktor muovinlarning 60%dan ko'prog'i tegishli ma'lumotga ega emasdi[4].

**MUHOKAMA.** 1950-yilda 7125 maktab o'qituvchilarga muhtojlik sezardi. O'zbekiston SSR Oliy Sovetining 1957-yil 1-oktyabrda sessiyasida «O'zbekiston SSRda majburiy yetti yillik ta'limni to'liq amalga oshirish to'g'risida»gi qonunning qabul qilinishi maktablarda ta'lim tizimini takomillashtirishga qaratilgan dastlabki qadam bo'ldi. Yangi qonunga ko'ra umumta'lim maktabi hamma uchun majburiy bo'lib qoldi. Biroq bu bilan respublika maktablarida mavjud bo'lgan kamchiliklar barham topmadi. Aksincha, maktab haqiqiy hayotdan ajralib qoldi, o'quvchilarga berilayotgan bilimlar fan-texnika taraqqiyoti darajasiga to'g'ri kelmasdi. Shuning uchun ham 1959-yil martda O'zbekiston Oliy Soveti «Maktabning hayot bilan aloqasini mustahkamlash va respublikada xalq ta'limi tizimini yanada rivojlantirish to'g'risida» yangi qonun qabul qildi [5]. Ammo, sovet mustabid tuzumiga xos bo'lgan boshlangan ishni oxiriga yetkazmaslik odati bu gal ham muammoni hal qilish yo'lida to'g'ri bo'lib xizmat qildi, oqibatda xalq ta'limida ahvol o'zgarmadi. 60-yillar O'zbekistonda «rivojlangan sotsializm» bosqichi deb e'lon qilindi. Jamiyat mamlakat rahbariyatidan ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy-ma'rifiy sohalarida jiddiy sifat o'zgarishlarni amalga oshirishni kutmoqda edi. Biroq, amalda unday bo'lmadi. Lekin buning o'rniga siyosiy rahbariyat aqidaparastlikni, ommaviy-siyosiy ishlarni avj oldirdi. Xalq ta'limi tizimi ham ana shu «girdobga» tashlandi[6].

**TAHLIL VA NATTJALAR.** Rasmiy hokimiyat soxta proletar baynalmilalligini amalda kuchaytirish maqsadida maktablarda rus tili va adabiyotini kengroq o'qitishga urg'u berdi. Natijada 60-yillarda O'zbekiston tarixi, o'zbek tili va adabiyoti, chet tillari, musiqa va qo'shiqchilik darslari hajmi keskin qisqardi va ular o'quv rejasida belgilanganidan haftasiga 16,5 soatga kamayib ketdi. Ulardan bo'shagan soatlarda esa rus tili va adabiyoti predmeti o'qitildi[7]. Masalan, o'qituvchilar «XIX asr ikkinchi yarmi XX asr boshlarida o'zbek adabiy-badiiy muhiti», «Milliy madaniy jarayonlar» to'g'risidagi mavzularda dars o'tishi lozim bo'lgan soatlarda rus madaniyatining «progressiv» ahamiyatini ko'rsatib berishga majbur bo'ldilar. Nihoyatda boy va ko'hna o'zbek xalqi

tarixini o'rganishga 52 soat ajratilgan holda boshlang'ich maktablarda rus tili va adabiyoti predmetlari uchun 1600 soat ajratildi. 70-80-yillarda [8] O'zbekiston maktablarida ahvol sifat jihatidan o'zgaray qolaverdi. Maktablar jahon tajribalaridan, zamonaviy texnika va o'qitish vositalaridan foydalanmadi. Ularning moddiy-texnika bazasi yaxshilanmadi [9]. To'g'ri, bu yillarda maktablar, o'quvchilar, o'qituvchilar soni yildan-yilga ortib bordi, son ko'rsatkichlari kishini hayratga solar darajasida ortdi. Masalan, O'zbekistonda 1945-46-o'quv yilida jami 4525 maktab bo'lib, ularda qariyb 998 ming o'quvchi o'qigan bo'lsa, 1970-71-o'quv yilida respublikaning umumiy ta'lim maktablari soni 7072 taga, ularning o'quvchilari esa 3 mln. 164 ming kishiga yetdi. 1969-yilda Rossiyada aholining 10 ming nafariga 14 klub muassasasi to'g'ri kelsa, Belorussiyada 11 ta, O'zbekistonda esa atigi 4 ta edi. Madaniy-ma'rifiy muassasalarga davlat tomonidan ajratilgan mablag' aholini jon boshiga Estoniyada 21,3 so'mni, Armanistonda -17,9, RSFSRda 9,7 so'mni tashkil qilsa, O'zbekistonda 4,5 so'mni tashkil qilardi [10]. Respublika kutubxonalarining kitob fondi 1950-1970-yillarda o'n barobarga ko'paygan bo'lsa, lekin ularning ko'pchiligini mafkuraviy targ'ibot uchun zarur bo'lgan marksizm-leninizmga oid asarlar tashkil qilar edi. Olingan kitoblarning 8-10 foizigina respublikada nashr etilgan bo'lib, qolganlari chetdan keltirilib, ularning aksariyati rus tilida edi. Madaniy-ma'rifiy muassasalar moliyaviy jihatdan davlat nazorati chetda qolganligi uchun bunday muassasalar ko'pincha jamoatchilik asosida qurildi. Masalan: 1961-yili O'zbekiston kasaba uyushmalari tashkilotlari tomonidan jamoatchilik asosida 45 madaniyat va texnika universitetlari, 5 ta xalq teatrlari, 1.258 jismoniy tarbiya jamoalari ish olib bordi. O'zbekistonda ta'lim tizimini yaxshilash uchun o'nlab qarorlar qabul qilinardi. Biroq, bu qarorlar milliy maktablarda to'liq bajarilmasdi. Maktablar urushdan keyin ham darsliklar bilan to'liq ta'minlanmadi. Moddiy o'quv bazasi rusiyazon maktablarnikidan ancha past edi.

**XULOSA.** Xulosa qilib aytganda Rus mustamlakachilari o'zlarining madaniyat

sohasidagi siyosatida o'lka xalqlarining yerlari, tabiiy boyliklarinigina emas, balki ularning qalbini ham zabt etishni ko'zladilar. Ruslashtirish siyosatida o'lka madaniyatini ham, xalq ruhiyatini ham ruslarning ta'siriga olishni nazarda tutgan edilar. Turkiston xalqlarining fan va madaniyati mustamlaka tuzumining biqiq sharoitida ham, ruslashtirish siyosatining barcha zug'um sitamlariga qaramay, rivojlanishdan to'xtamadi. Mustamlakachilar ilm-ma'rifatga intilish, ilgor goyalar va istiqloq istagini bo'g'ib tashlay olmadilar.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Azizxo'jaev A. Chin o'zbek ishi. Toshkent: Akademiya, 2003-y.
2. Usmonov Q., Sodiqov M. O'zbekiston tarixi (1917-1991-yillar). - T.: Sharq, 2001.
3. O'zbekiston tarixi. T., «Universitet» - 1997.
4. O'zbekistonning yangi tarixi. Ikkinchi kitob. O'zbekiston sovet mustamlakachiligi davrida. - T.: Sharq, 2000.
5. Buvabayevna, K. Y. (2024). The effect of investments in the years of independence on the industrial infrastructure of surkhandarya region. *International Journal Of History And Political Sciences*, 4(01), 50-54.
6. Kadirova, Y. (2024). O'zbekistonning janubiy viloyatlar madaniy hayotidagi islohotlar va ma'naviy yuksalish omillari. *Innovations in Science and Technologies*, 1(1), 90-95. Buvabayevna,
7. K. Y. (2024). Issues of Ensuring Employment of the Population of Surkhandarya Region during the Years of Independence. *Central asian journal of social sciences and history*, 5(1), 173-177.
8. Kadirova, Y. B. (2024). Changes in the infrastructure of uzbekistan and its southern regions during the years of independence. *International journal of european research output*, 3(1), 136-143.
9. Buvabayevna, K. Y. (2024). Issues of Ensuring Employment of the Population of Surkhandarya Region during the Years of Independence. *Central Asian Journal of Social Sciences and History*, 5(1), 173-177.
10. Kadyrova, H. (2023). Value of developing media literacy, media education, information culture in Uzbekistan. *Science and innovation*, 2(B9), 23-27.



## O‘ZBEKISTONNING JANUBIY HUDUDLARI IJTIMOIIY SOHASIDAGI YUKSALISHLARDA MODDIY MA’NAVIIY QADRIYATLARNING TUTGAN O‘RNI

*Kadirova Yakitjan Buvabayevna, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti v.b.dotsent, (PhD)*

## THE ROLE OF MATERIAL AND SPIRITUAL VALUES IN THE SOCIAL PROGRESS OF THE SOUTHERN REGIONS OF UZBEKISTAN

*Kadyrova Yakitzhan Buvabayevna Tashkent State in the name of Nizomi Pedagogical University, dotsent (PhD)*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada xalqimizning asrlardan-asrlarga meros tarzida kelayotgan moddiy va ma’naviy qadriyatlar uzoq tarixiy jarayonda shakllangan ona yurtga ehtirom, avlodlar xotirasiga sadoqat, kattalarga hurmat, hayo, andisha kabi xususiyatlarning ustuvorligini o‘zida mujassamlashtirildi.

**Kalit so‘zlar:** ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlar, ma’naviy-ruhiy qarashlar, kadrlar tayyorlash milliy dasturi, moddiy va ma’naviy hayot, demokratik erkinliklar, milliy qadriyatlar.

**Annotation:** In this article, the material and spiritual values of our people that have been inherited from centuries to centuries embody the stability of characteristics such as respect for the motherland, loyalty to the memory of generations, respect for elders, modesty, and thoughtfulness, formed in a long historical process.

**Key words:** socio-economic processes, moral and spiritual views, national personnel training program, material and spiritual life, democratic freedoms, national values.

**KIRISH/INTRODUCTION.** Bugungi kunda ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni jadal rivojlanishi insoniyat global muammolarini hal etishning nafaqat optimal yo‘llarini izlash, balki moddiy va ma’naviy qadriyatlarni asrash va kelajak avlodga yetkazish kabi masalalarni ishlab chiqishni ham taqozo etmoqda.

Insoniyat tarixidan bizga ma’lumki, har bir jamiyat, millat, xalq o‘z kelajagi, kelgusi avlodlarini yuksak ma’naviyatli, ilmiy va eng asosiysi, baxtli bo‘lishlari uchun kurashadi. Shuning uchun moddiy va ma’naviy qadriyatlarni rivojlantirish hozirgi kunda dolzarb masaladir.

Shunday ekan, mamlakatimizda bu masala birinchi Prezidentimiz e’tiboridan ham chetda qolmaganligi asoslidir. Ya’ni, “Aslida, har qanday islohotning eng muhim samarasi, avvalo, xalqning ma’naviy-ruhiy qarashlaridagi yangilanish

jarayonlari, uning ong-u tafakkurining yuksalishi, mamlakatda yuz berayotgan o‘zgarishlar uning hayotiga, taqdiriga daxldor bo‘lganini chuqur his qilishi va shundan xulosa chiqarishi bilan belgilanadi” [1]. Bu esa jamiyat taraqqiyoti bevosita inson va xalqning ma’naviy-ruhiy qarashlarini rivojlantirish bilan bog‘liqligini ko‘rsatadi. Unda jamiyat a’zolarining moddiy va ma’naviy qadriyatlarga bo‘lgan intilishini hisobga olish zarurdir.

Bular Yurtboshimiz bo‘lgan Islom Karimov tomonidan O‘zbekistonning taraqqiyot konsepsiyasi, Milliy istiqloq g‘oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar davlat dasturi, Kadrlar tayyorlash milliy dasturi bilan hamohang bo‘lib, bevosita ularning ikkalasi ham komil inson tarbiyasi, ularning mustaqil fikrlash tafakkurini boyitishga qaratilganligi bilan izohlash mumkin.



<https://orcid.org/0009-0005-0638-6922>

[Kadirovayakidjan@gmail.com](mailto:Kadirovayakidjan@gmail.com)

+99897 756 90 99

Shuning uchun bu yaxlit ta'limotlar hozirgi vaqtda xalqimiz moddiy va ma'naviy hayotining uzviy bir qismiga aylanib bormoqda.

**ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA/LITERATURNYI ANALIZ I METODOLOGIYA/LITERATURE ANALYSIS AND METHODOLOGY.** Shu o'rinda yana bir haqiqat, "Bir so'z bilan aytganda, inson o'z timsolida ham moddiy, ham ma'naviy xususiyat va alomatlarni mujassam etgan noyob xilqat, Yaratganning buyuk va sirlil mo'jizasidir" [2]. Birinchi Prezidentimiz ta'kidlab o'tganlaridek: "Mana shunday qarash va fikrlarni umumlashtirib, insonga xos orzu-intilishlarni ro'yobga chiqarish, uning ongli hayot kechirishi uchun zarur bo'lgan moddiy va ma'naviy olamni bamisoli parvoz qilayotgan qushning ikki qanotiga qiyoslasak, o'ylaymanki, o'rinli bo'ladi" [3]. Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqadigan bo'lsak, jamiyat taraqqiyoti moddiy va ma'naviy qadriyatlar bilan bevosita bog'liqligi ko'rinadi.

Ko'pgina mamlakatlar xalqlarining milliy istiqlol, demokratik erkinliklarni asrab-avaylab, kelajak avlodlarga yetkazish yo'lidagi sa'y-harakatlari o'z yurti va mintaqalaridagi tinchlik va barqarorlikka bog'liq ekani ravshan. "Qo'shning tinch - sen tinch" maqolining tub ma'nosini dunyo ham, biz ham yanada teranroq anglamoqdamiz. Ko'hna tarixga nazar tashlasak, aynan yurt - tinch, el - omonlikda yashagan davrlardagina xalqimiz moddiy va ma'naviy yutuqlarga erishganiga guvoh bo'lamiz. Xususan, Sohibqiron Amir Temurning nabirasi Mirzo Ulug'bek Movarounnahrda hukmronlik qilgan 40 yil mobaynida mamlakatda tinchlik-barqarorlik ustuvor bo'lgani sababli ilm-fan, madaniyat taraqqiy etgan, bunyodkorlik ishlari rivojlangan, ko'hna zaminimiz gullab yashnagan [4].

O'zbekiston xalqi tinchlikni o'z orzu-intilishlari, maqsad-muddalari ro'yobga chiqishining sharti deb biladi. Shuning uchun ham doimo Yaratgandan tinchlik va omonlik tilaydi. Holbuki, bashariyat faqat tinchlik va osoyishtalik barqaror bo'lgan taqdirdagina o'z oliy maqsadlariga erishadi, moddiy va ma'naviy jihatdan yuksaladi.

Janubiy O'zbekiston aholisining dehqonchiligiga oid juda ko'p an'ana, udum, odat, bayram va marosimlari Markaziy Osiyodagi boshqa

turkiy tilli xalqlarda ham uchraydi. Ayrim farqlar atamalardagina mavjud bo'lib, asosan, nomlarning shevaga xosligi bilan ajralib turgan. Shuningdek, ba'zi bir o'ziga xosliklar voha dehqonlarining xo'jalik yuritish an'anasi va madaniy qadriyatlarini bilan bog'liq holda yuzaga kelgan. Mamlakatimiz rivojlanishining moddiy va ma'naviy asoslarini mustahkamlash, milliy qadriyatlarimiz, an'ana va urf-odatlarimizni asrab-avaylash, ayniqsa, yosh avlod qalbi va ongiga ona yurtga muhabbat, milliy mafkuraning asosiy g'oyalarga sadoqat tuyg'ularini chuqur singdirish bugungi kunning dolzarb va amaliy masalasi sifatida yuzaga chiqmoqda.

Bu haqida yurtboshimiz shunday deydi: "Ko'rinib turibdiki, moddiy va ma'naviy hayot tamoyillari bir-birini inkor etmaydi, aksincha, o'zaro bog'lanib, bir-birini to'ldiradi. Yuksak taraqqiyotga erishishni orzu qiladigan har bir inson va jamiyat o'z hayotini aynan ana shunday dialektik va uzviy bog'liqlik asosida qurgan va rivojlantirgan taqdirdagina ijobiy natijalarga erisha oladi" [5].

**MUHOKAMA / ОБСУЖДЕНИЕ / DISCUSSION.** Birinchi Prezidentimiz ma'naviy salohiyatimiz yuqori darajada ekanligidan dalolat beruvchi milliy qadriyatlarimizdan bo'lmish Xorazm Ma'mun akademiyasining 1000 yillik yubileyida so'zlagan nutqida: "Xorazm Ma'mun akademiyasi olimlari Sharq va G'arb o'rtasida o'ziga xos ma'naviy-madaniy ko'priki, umuminsoniy qadriyat va madaniyatlar silsilasida uzviy bir xalqa vazifasini ado etgan, desak, hech qanday xato bo'lmaydi" [6], deganlarida mutlaqo haq edilar. Bizda milliy qadriyatlarimizni qayta tiklash va yuksaltirish orqali ma'naviy immunitetni shakllantirishimiz uchun juda katta asosga egamiz. Buning yana bir isboti sifatida Qarshi shahrining 2700 yilligi munosabati bilan o'tkazilgan tantanali marosimda Prezident Islom Karimov: "Ayniqsa, bu tabarruk maskanda shakllangan yuksak madaniyat, ilmiy-ma'naviy muhit tufayli bu yerdan Nasafiy taxallusi bilan nom qozongan yuzlab fozil odamlar yetishib chiqqan va ular o'z ona yurtini butun dunyoga tarannum etgan. Ana shunday betakror siymolar qatorida hadis ilmining bilimdonlaridan Abul Abbas Mustag'firy, Abu Turob Naxshabiy, yetuk shoir va olimlar Ziyovuddin Naqshband,

Muyiniddin Nasafiy, Sayido Nasafiy, huquqshunos alloma Najmiddin Nasafiy, kalom ilmining namoyandasi Abul - Muin Nasafiy, faylasuf Aziziddin Nasafiy, mohir me'morlar Ali Nasafiy, Olim Nasafiy va boshqa ko'plab ulug' zotlarning mo'tabar nomlarini hurmat va ehtirom bilan tilga olamiz. Ularning boy ilmiy va ijodiy faoliyati, qoldirgan merosini chuqur o'rganish, bu bebaho boylikni kelgusi avlodlarimizga yetkazish har birimiz uchun ham qarz, ham farzdir" [6] deb, ajdodlarimizdan bizgacha yetib kelgan moddiy va ma'naviy qadriyatlarimizning uyg'unligini ta'minlashga da'vat etadi.

## **TAHLIL VA NATIJALAR/ АНАЛИЗ И РЕЗУЛЬТАТЫ/ ANALYSIS AND RESULTS.**

Birinci Prezidentimiz tomonidan keltirilgan ushbu misoldan bilishimiz mumkin-ki, o'zbek millati ulkan ma'naviy merosga ega.

Ammo, bu ma'naviy merosni yo'qotish maqsadida unga tarixda juda ko'p zug'um qilingan. Taassufki, yurtimizda sobiq sovet mustabid tuzumining qadriyatlarimizni yo'q qilishga qaratilgan zo'ravon mafkurasi hukmronlik qilgan yillarda bizni ana shunday buyuk moddiy va ma'naviy meroslarimizdan, o'zligimiz, dinudiyonatimizdan judo qilish, xalqimizning milliy g'ururini sindirish maqsadida mamlakatimizdagi ko'plab qadimiy va betakror obidalarimiz buzib tashlanishi, xalqimizning moddiy va ma'naviy merosiga bo'lgan tajovuz edi. Lekin, moddiy va ma'naviy qadriyatlarimizni eng avvalo Alloh asradi, shu tariqa bu qadriyatlarimiz bizgacha yetib keldi. Mana shuning uchun buyuk tariximizni har tomonlama chuqur o'rganish, undan zarur saboq chiqargan holda yo'l tutish, boshqacha aytganda, jamiyat taraqqiyotini belgilashda ajdodlar merosi hisoblangan moddiy va ma'naviy qadriyatlarni hisobga olish kerak [6].

Bugungi dorilamon kunlarda erkin va ozod nafas olib yashar ekanmiz, yaqin o'tmishimizda yuz bergan ana shunday mash'um kunlarni, ularning saboqlarini hech qachon unutmasligimiz kerak.

## **XULOSA/ЗАКЛЮЧЕНИЕ/CONCLUSION.**

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, millat, davlat yoki jamiyatning milliy taraqqiyoti uning zamirida yaratilgan moddiy va ma'naviy qadriyatlarning uyg'unligi bilan belgilanadi. Ya'ni jamiyat

taraqqiyotini o'zida mujassam etgan milliy g'oya bilan bog'liqligini aks etirishi lozim:

Birinchidan, milliy ma'naviy qadriyatlar – ijobiy-axloqiy sifatlarni takomillashtirish, davlat va millat rivojiga to'g'anoq bo'ladigan salbiy illatlarni bartaraf etish omili hisoblanishi kerak;

Ikkinchidan, ma'naviy qadriyatlar va milliy g'oya - jamiyat hayotining juda murakkab va serqirra, o'zaro uzviy aloqadorlikda bo'lgan sohasi ekanligi;

Uchunchidan, shaxs hayotida, umuman ijtimoiy taraqqiyotning ma'lum davrlarida moddiy va ma'naviy qadriyatlar eng dolzarb masala bo'lib, kelajakda hal qiluvchi vosita hisoblangandir;

To'rtinchidan, milliy moddiy va ma'naviy qadriyatlar xalqning kundalik hayoti va turmush tarzida o'ziga xos mezon vazifasini o'taydi;

Beshinchidan, xalqimizning asrlardan-asrlarga meros tarzida kelayotgan moddiy va ma'naviy qadriyatlar uzoq tarixiy jarayonda shakllangan ona yurtga ehtirom, avlodlar xotirasiga sadoqat, kattalarga hurmat, hayo, andisha kabi xususiyatlarning ustuvorligini o'zida mujassamlashtiridi.

Umuman, milliy-ma'naviy qadriyatlar ijtimoiy hayotning va ma'naviy borlig'imizning muhim va serqirra sohasi bo'lib, inson va jamiyat kamolotida muhim ahamiyat kasb etadi.

## **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. I.Karimov. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – T.; Ma'naviyat, 2008.
2. Хўжа Самаидар Термизий. Дастур-ул-мулк.Т., 1997.
3. Абу Исо Термизий. Саҳиҳи Термизий.Т., 1993.
4. Ватан тарихи. Т. 1997 й.
5. Аҳмад Яссавий. Ҳикматлар. Т. 1991.
6. Xalq so'zi, 2006-yil 3-noyabr.
7. Kadirova, Y. B. (2024). Changes in the infrastructure of uzbekistan and its southern regions during the years of independence. *International journal of european research output*, 3(1), 136-143.
8. Buvabayevna, K. Y. (2024). Issues of Ensuring Employment of the Population of Surkhandarya Region during the Years of Independence. *Central Asian Journal of Social Sciences and History*, 5(1), 173-177.

## THE CHALLENGE OF IDENTIFYING PUPILS' INDEPENDENT WORK IN TEACHING FOREIGN LANGUAGE


*Raxmatova Madina Sobirovna<sup>1</sup>*

*Samarqand davlat chet tillar instituti katta o'qituvchisi  
Senior teacher of Samarkand state institute of foreign languages*

*Vafayeva Zarina Xashimovna<sup>2</sup>*

*Samarqand davlat chet tillar instituti katta o'qituvchisi  
Senior teacher of Samarkand state institute of foreign languages*


### CHET TILINI O'QITISHDA O'QUVCHILARNING MUSTAQIL ISHLARINI ANIQLASH MUAMMOSI



<sup>1</sup> <https://orcid.org/0000-0003-3070-3156>

**E-mail:**  
[madinaraxmatova78@mail.ru](mailto:madinaraxmatova78@mail.ru)

**Tel: +998915232892**



<sup>2</sup> <https://orcid.org/0009-0005-9489-1135>

**E-mail:**  
[zarrinavafaeva@mail.ru](mailto:zarrinavafaeva@mail.ru)  
**Tel: +998979271227**

**Abstract.** This article deals with the issue of the inadequate use of independent work in learning foreign languages. Teachers frequently underestimate this kind of learning exercise, claiming that pupils are incapable of managing their own education and that they lack adequate control over the process. In addition, it provides theoretical background of teaching through independent studies as well as gives feasible notions from prominent pedagogues.

**Key words:** autonomous work, instructional activity, goal, interaction, scope, substance.

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada chet tillarini o'rganishda mustaqil ishlardan yetarli darajada foydalanmaslik muammosi ko'rib chiqiladi. O'qituvchilar ko'pincha ushbu turdagi o'quv faoliyatini kam baholaydilar, chunki talabalar o'z ta'limlarini mustaqil ravishda boshqarishga qodir emaslar va ular jarayonni yetarli darajada nazorat qila olmaydilar. Bundan tashqari, u mustaqil tadqiqotlar orqali o'qitishning nazariy asoslarini ta'minlaydi, shuningdek, taniqli o'qituvchilarning amaliy tavsiyalarini beradi.

**Kalit so'zlar:** avtonom ish, instruksion mashg'ulot, maqsad, o'zaro ta'sir, ko'lami, mohiyati.

**INTRODUCTION (KIRISH).** Due to its social, cognitive, and developmental roles, a foreign language holds a distinctive place in the current educational system as a method of communication and cognition of the outside world.

Learning a foreign language is linked to the growth of other aspects of personality as well as thinking and feeling. The process of learning a

foreign language helps students develop their creative independence because it provides them with the opportunity to work independently on creative tasks and exercises that teach them how to use language material to express themselves in both dialogic and monologue speech.



## **MATERIALS AND METHODS / (ADABIYOTLAR TAHLILI VA METOD).**

The practical goal is the most important one, and educational, developmental, and educational goals are all achieved in the process of students mastering English under the conditions of active cognitive speech-thinking activity. Teaching English can and should ensure the achievement of these closely related goals.

**RESEARCH METHODOLOGY.** Both qualitative and secondary data analysis methodologies were used in this research to identify the benefits of inclusive education in terms of improving teachers' strategies and skills. These methods ensure a comprehensive understanding of both the theoretical foundations and practical application in real-world contexts. The study extensively analyzed inclusive education and instructional approaches for children with impairments in education. In addition, different experiments were conducted with seasoned educators and subject matter experts to collect perspectives on practical applications.

**ANALYSIS AND RESULTS.** The primary findings from the experiments and literature study are presented in the results section.

It highlights diversified teaching approaches as a crucial strategy that enables instructors to adapt lessons and assessments to meet the individual learning needs of each student. The importance of multisensory methods in engaging various activities for comprehension is emphasized. Moreover, there is a discussion on how assistive technology could transform accessibility and involvement. The significance of multimedia tools is proved with specific examples. Individualized Education Plans (IEPs) and peer-assisted instructions are identified as effective methods for fostering the social learning of gifted students [6].

**DISCUSSION.** The findings indicate the importance of using a range of instructional methods to create an inclusive and supportive learning environment for children with impairments. Employing diverse learning strategies boosts engagement, and individual strengths and weaknesses are recognized through personalized education. Additionally, the integration of assistive technology enables accessible learning, while collaboration and Individualized Education Plans (IEPs) provide comprehensive support. Peer-mediated education is also crucial for enhancing social integration and skill development among children with disabilities.

**CONCLUSION.** In conclusion, the paper summarizes the key findings of the research, highlighting the importance of employing diverse instructional methods to address the needs of children with disabilities. The primary aim is to establish an inclusive and welcoming learning environment that fosters social integration and academic progress. The summary stresses the ongoing need for further study and innovation in inclusive education to develop strategies and approaches.

#### REFERENCES:

1. <https://lex.uz/docs/-6779571>
2. Anne M. Hayes, Jennae Bulat. (2017, July). Disabilities Inclusive Education Systems and Policies Guide for Low- and Middle-Income Countries. Retrieved from National Institutes of Health:  
<https://www.ncbi.nlm.nih.gov/books/NBK554622/>

3. Vaughn, S., Bos, C., & Schumm, J.S. (2007). Teaching students who are exceptional, diverse, and at-risk (4<sup>th</sup> Edition). Boston: Pearson.
4. Teaching Strategies for Students with Learning Disabilities. (2020, July). Retrieved from Indian Institute of Management Bangalore: [https://www.iimb.ac.in/sites/default/files/inline-files/LD\\_Note\\_Tutors\\_July\\_2020](https://www.iimb.ac.in/sites/default/files/inline-files/LD_Note_Tutors_July_2020).
5. Robinson, Suzanne M. (1999, March). Meeting the needs of students who are gifted and have learning disabilities. *Intervention in School and Clinic*, 34, 195-204.
6. Effective Teaching Strategies for Students with LD. Retrieved from National Association of Special Education Teachers: [https://www.naset.org/fileadmin/user\\_upload/LD\\_Report/Issue\\_\\_6\\_LD\\_Effective\\_Teach\\_Strategies](https://www.naset.org/fileadmin/user_upload/LD_Report/Issue__6_LD_Effective_Teach_Strategies).
7. Ford, J. (2013). Educating Students with Learning Disabilities in Inclusive Classrooms. *Electronic Journal for Inclusive Education*, 3(1), 18-20.





## OILAVIY HAYOT SIKLLARIDA SHAXSLARARO MUNOSABATLAR ETNOPSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI VA BARQARORLIGINI TA'MINLASHNING IJTIMOIIY OMILLARI

*Khudayberdiyeva Sevara Bohodir qizi, Yashnobod tumani  
204- maktab psixologi*

## SOCIAL FACTORS IN ENSURING THE ETHNOPSICHOLOGICAL CHARACTERISTICS AND STABILITY OF INTERPERSONAL RELATIONSHIPS IN FAMILY LIFE CYCLES

*Khudayberdiyeva Sevara Bokhodir kizi, Yashnabad  
district 204 - school psychologist*



[https://orcid.org/  
0009-0004-5714-4686](https://orcid.org/0009-0004-5714-4686)

*e-mail:*  
[seva3ziyo41@gmail.com](mailto:seva3ziyo41@gmail.com)

## ЭТНОПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ И СОЦИАЛЬНЫЕ ФАКТОРЫ ОБЕСПЕЧЕНИЯ УСТОЙЧИВОСТИ МЕЖЛИЧНОСТНЫХ ОТНОШЕНИЙ В ЖИЗНЕННЫХ ЦИКЛАХ СЕМЬИ

*Худайбердиева Севара Бахадировна, психолог школы  
№ 204 Яшнабадского района*

**Annotatsiya:** Zamonaviy oila psixologiyasida oilaga tizimli yondashuv eng obro'li hisoblanadi. Tizimli yondashuv paradigmasi doirasida oila atrof-muhit bilan doimiy almashinadigan ochiq, o'zini o'zi tashkil etuvchi ijtimoiy tizim sifatida qaraladi. Oilaning faoliyati bir-birini to'ldiruvchi ikkita asosiy qonunga bo'ysunadi: gomeostaz qonuni (doimiylik va barqarorlikni saqlashga qaratilgan) va rivojlanish qonuni.

**Kalit so'zlar:** oilaviy hayot sikli, psixologik rivojlanish, oila tarkibidagi bolalar, psixologik o'zgarishlar, turmush o'rtog'i, yosh xususiyatlar.

**Key words:** family life cycle, psychological development, children's psychological changes in the composition of the family, spouse, age characteristics.

**Аннотация:** В современной семейной психологии наиболее авторитетен системный подход к семье. В рамках парадигмы системного подхода семья рассматривается как открытая, самоорганизующаяся социальная система, постоянно обменивающаяся с окружающей средой. Функционирование семьи подчиняется двум основным законам, которые дополняют закон гомеостаза (направленный на поддержание постоянства и стабильности) и закон развития.

**Ключевые слова:** жизненный цикл семьи, психологическое развитие, психологические изменения детей в составе семьи, супруга, возрастные особенности.

**KIRISH (ВВЕДЕНИЕ / INTRODUCTION).** "Oila taraqqiyoti sikli" atamasi birinchi marta 1948-yilda [1]E.Dyuval va R.Xill tomonidan qo'llanilgan. Oila taraqqiyoti

dinamikasini ko'rib chiqish E.Eriksonning oila rivojlanishining har bir bosqichida shaxs tomonidan hal qilinadigan vazifalarning o'ziga xosligi haqidagi g'oyasiga asoslanadi. Uning hayot aylanishining har

bir bosqichi muayyan rivojlanish vazifalariga mos keladi.

Oila rivojlanishining hayot aylanishi obyektiv hodisalar (tug‘ilish, o‘lim) bilan belgilanadi va barcha oila a‘zolarida yoshga bog‘liq o‘zgarishlar sharoitida amalga oshiriladi. Har bir oila a‘zosining shaxsiyatiga ta’sir qiluvchi yoshga bog‘liq psixologik o‘zgarishlar ikkinchisining hayotini tubdan o‘zgartiradi: shaxsning ehtiyojlari va motivlari tizimi, uning xatti-harakati va faoliyati usullari, oila a‘zolarining ijtimoiy mavqei va natijada muloqot uslubi va umuman oila faoliyatining tabiati o‘zgaradi. Oilaviy hayot siklining mavjud davrlarini ko‘rib chiqish, ularning barchasi oila tarkibidagi bolalar o‘rnini o‘zgartirish mezoniga va turmush o‘rtoqlar tomonidan tarbiyaviy funksiyani amalga oshirishga asoslangan, degan xulosaga kelishimizga imkon beradi [2]. E.K.Vasilyeva oilaviy hayot siklining besh bosqichini belgilaydi, ularning har biri o‘z rivojlanishining o‘ziga xos muammolarini hal qiladi. Birinchisi, birinchi bolaning tug‘ilishidan oldin oilaning paydo bo‘lishi; ikkinchisi, bolalarning tug‘ilishi va tarbiyalanishi – kamida bitta bolaning mehnat hayotining boshlanishi bilan tugaydi. Uchinchi bosqich kamida bitta bolaning mehnat hayotining boshidan to ota-ona qaramog‘ida bironta ham bola qolmagan paytgacha oilaning tarbiyaviy funksiyasi tugashi bilan bog‘liq. To‘rtinchi bosqichda katta yoshli bolalar ota-onalari bilan yashaydilar va ulardan kamida bittasi o‘z oilasiga ega emas. Nihoyat, oxirgi, beshinchi bosqichda, turmush o‘rtoqlar yolg‘iz yoki o‘z oilalari bo‘lgan bolalari bilan yashaydilar [5]. R.Noyber birgalikda hayot bosqichlarini belgilaydi; bolalar tug‘ilgandan keyin, ularning tarbiyasi; o‘rta maktab yoshidagi bolalarni tarbiyalash; bolalarni ota-onadan ajratish va nevaralarni tarbiyalash [6]. V.Barkai davriylashtirishda biz bosqichlarning shunga o‘xshash ketma-ketligini ko‘ramiz: bolasiz oila; yosh bolalari bo‘lgan oila; bolalari bolalar bog‘chasiga boradigan oila; maktab yoshidagi bolalari bo‘lgan oila; bolalar qisman mustaqillikka erishgan oila; nihoyat, bolalar qoldirgan oila. Muayyan darajada oilaning tarbiyaviy funksiyasining ahamiyati [8] M.Erikson davriyligida o‘z aksini topgan bo‘lib, bu yerda

oilaning hayotiy sikli uchrashish, nikohdagi xatti-harakatlar, bolaning tug‘ilishi va u bilan o‘zaro munosabat, yetuk davrlardan iborat. turmush qurish, bolalarni ota-onadan ajratish, pensiya va qarilik [10].

**ADABIYOTLAR TAHLILI VA METOD (JIITEPATYPA II METOD / MATERIALS AND METHODS).** B.Karter va M.Makgoldriklar tomonidan taklif qilingan davrlashtirishga asoslangan oilaning hayot sikli. Ushbu davrlashtirishning mezonlari quyidagi oilaviy xususiyatlardir: 1)hayotiy maqsadlar; 2)ushbu maqsadlarga erishish uchun amalga oshiriladigan vazifalar; 3)tarkibi; 4)oila tizimining yangi hayotiy munosabatlariga mos ravishda bir bosqichdan ikkinchi bosqichga o‘tish. Oxirgi mezon, bizning fikrimizcha, oilaning me‘yoriy inqirozidan boshqa narsa emas, chunki yangi bosqichga o‘tish, birinchi navbatda, butun oila tizimini qayta qurishni talab qiladi. Hayotiy siklning har bir bosqichida oila rivojlanishining ikkita senariysi mavjud: turmush o‘rtoqlar duch keladigan muammolarni muvaffaqiyatli hal qilishlarini o‘z ichiga olgan farovonlik senariysi va oilaning buzilishi natijasida yuzaga kelgan muammolar, oilaning halokatli rivojlanishi senariysi. Bu muammolarni hal qila olmasligi. Ushbu ikkita ekstremal variant o‘rtasida oila rivojlanishining individual trayektoriyalarining uzluksizligi mavjud bo‘lib, ular uning uyg‘unlik darajasini va faoliyat samaradorligini belgilaydi. Har bir keyingi bosqich muammolarini hal qilish, ular o‘rtasida uzluksizlik va o‘zaro bog‘liqlik mavjud bo‘lganda, oldingi bosqich muammolarini hal qilishning muvaffaqiyati bilan belgilanadi. Oilaning hayot aylanishi olti bosqichni o‘z ichiga oladi: nikohdan oldingi davr, nikoh va yangi er-xotinning shakllanishi, kichik bolali oila, o‘smir bolali oila, bolalarning kattalar maqomiga ega bo‘lish davri va ularning ajralishi. Hatto oilaviy hayot aylanish bosqichlarining oddiy ro‘yxati ham zamonaviy oilaning eng muhim asosiy vazifasi ota-onalik va bolalarni tarbiyalash funksiyasi ekanligini ishonchli tarzda ko‘rsatadi. Nikohning davomiyligi oilaviy hayot siklining bosqichini belgilamaydi. Oila rivojlanishining sifat jihatidan yangi bosqichga o‘tishi farzand ko‘rish va tarbiyalash muammolarini hal qilish bilan

belgilanadi. Bosqich 1. Nikohdan oldingi davr (nikoh ittifoqidan tashqarida yoshi kattalar). Maqsad: shaxsning hissiy va iqtisodiy mustaqilligiga erishish, o'zi va taqdiri uchun javobgarlikni o'z zimmasiga olish. Maqsadlar: o'z-o'zini ota-ona oilasidan hissiy jihatdan farqlash, shaxsning avtonomiyasi, mustaqillikka ega bo'lish; shaxslararo munosabatlarda [12] (E.Erikson bo'yicha) yaqinlikni rivojlantirish, qarama-qarshi jins vakillari bilan shaxslararo munosabatlarda sevish va sevilish qobiliyati, turmush o'rtog'ini izlash; kasb-hunar egallash va iqtisodiy mustaqillikka erishish orqali shaxsning shakllanishi. Kelajakdagi oilaning rivojlanishi va faoliyati ko'p jihatdan ushbu muammolarni hal qilishning muvaffaqiyati bilan belgilanadi. Agar muammolar hal etilmasa, ular kechiktiriladi va ularni hal qilish oila rivojlanishining keyingi bosqichlariga o'tkaziladi, bu, shubhasiz, yangi tashkil etilgan oila faoliyatining past samaradorligi bilan to'la. 2-bosqich. Nikoh, yangi turmush qurgan juftlikning shakllanishi yoki dyad vaqti. Maqsad: nikohga asoslangan yangi oila tizimini shakllantirish. Maqsadlar: umumiy oilaviy qadriyatlar va oila tuzilishini rivojlantirish va muvofiqlashtirish; hukmronlik masalalarini hal qilish va etakchilikni o'rnatish; rollarni taqsimlash, ularni amalga oshirish uchun er-xotinning javobgarligini o'z zimmasiga olish; oilaning moliyaviy-iqtisodiy holatini aniqlash, oila byudjetini tashkil etish, oilaning hududiy muammosini (yashash muammosini) hal etish; dam olishni tashkil etish; turmush o'rtoqlarning oilaviy va oilaviy moslashuvi oiladagi hayotga moslashish sifatida; Biz oilaviy o'ziga xoslikni shakllantirish, oila kelajagi bo'yicha umumiy pozitsiyani shakllantirish, asosiy hayotiy maqsadlarni rejalashtirish; katta oila (har bir turmush o'rtog'ining ota-onasi va qarindoshlari) bilan munosabatlarni o'rnatish.

Oilaviy hayotdan qoniqish so'rovnomasi (V.V.Stolin, T.M.Romanov, G.G.Butenko oilada er-xotin o'rtasidagi munosabatlar tadqiqot obyekti sifatida davriylashtirilgan oila olingan bir yillikdan tortib ko'p yillik tajribali oilalar olindi. Tadqiqotda er-xotin o'rtasidagi munosabatlar, oila qadriyatlari o'rganildi.

**MUHOKAMA (ОБСУЖДЕНИЕ / DISCUSSION).** Agar har bir turmush o'rtog'ining ota-ona oilasi normal munosabatlarga ega bo'lsa, ular bolalarning o'sishining barcha bosqichlarini normal tarzda bosib o'tgan bo'lsa, bola va uning onasi va otasi o'rtasida yaxshi munosabatlar o'rnatilgan bo'lsa, unda o'z oilasida bunday bolaga osonroq bo'ladi. O'z farzandlarining ko'rinishini qabul qiladi. Aks holda, rashk, xiyonat va tashlab ketish hissi pozitsiyalari bo'lishi mumkin. *Katta oilalar uchun chegaralarni sinovdan o'tkazish.* Agar bu chegaralar juda aniq va qat'iy ifodalangan bo'lsa, oila ota-onalarning yordami yetishmasligidan aziyat chekishi mumkin (Bola nafaqat ota-onaga tegishli, balki oilaga tegishli) va qarindoshlarning ortiqcha yordami yuk bo'lishi mumkin. Munosabatlar uchburchagini shakllantirish. Ona bolaga eng yaqin. Agar ona bolaga g'amxo'rlik qilishga haddan tashqari berilib ketgan bo'lsa, ota o'zini uzoqlashtiradi va ishlashga ko'proq vaqt ajrata boshlaydi. Ota-onalar orasidagi masofani nazorat qilishda bola asosiy rol o'ynashi mumkin. Qo'shimchalar 2 yoshgacha bo'lgan bolalarda, odatda, bolalarning hissiy ehtiyojlariga darhol javob beradigan kattalarga xosdir. 2 yoshdan 5 yoshgacha bo'lgan, tarbiyachiga ishonchli bog'lanishni shakllantirgan bolalar ijtimoiy va shaxsiy muammolarni hal qilish ko'nikmalarini muvaffaqiyatli o'zlashtiradilar. Shunday qilib, bolaning hayotining birinchi yillarida ota-onalarning hissiy sezgirligi keyingi yillarda uning muvaffaqiyatli psixologik faoliyati uchun asos yaratadi. bolalar tashqi ijtimoiy tuzilmalarga (bolalar bog'chasi, maktab) kiradi. Oilaning ichki tizimi tashqi tizim bilan to'qnashadi. Bundan tashqari, bu davrda ota-onalar birinchi marta bolaning avtonomiyasi va bir kun kelib oilani tark etishini anglash bilan duch kelishadi. Oila oilaviy qoidalar va strategiyalarning navbatdagi sinovidan o'tmoqda, oila chegaralarini sinovdan o'tkazmoqda va yangi vazifalarni bajarish uchun qayta tashkil etilishi kerak. Oila mas'uliyatni qayta taqsimlash va yangi chegaralarni belgilash zarurati bilan duch keladi. Bolaning bolalar bog'chasiga, maktabga borishi: qaysi ota-ona bolani ta'lim muassasasiga olib boradi, bola kasal bo'lganda uyda kim qoladi, ota-onalar yig'ilishiga, ertaklarga va boshqa

tadbirlarga kim boradi, kim tashkil etish bilan shug'ullanadi. *Bolaning maktabdan tashqari rivojlanishi*. Uy xo'jaligi sohasi: qaysi ota-ona uy vazifalari (pishirish, do'konga borish, tozalash va boshqalar) uchun javobgar bo'ladi; Dam olish sohasi: oila bo'sh vaqtini qanday va qayerda o'tkazishi. Bo'lishi mumkin bo'lgan muammolar: Ijtimoiy tizimga nisbatan chegaralarni tekshirish. Agar oila chegarasi juda qattiq bo'lsa, unda oilaning ichki qoidalari tashqi qoidalaridan juda farq qilishi mumkin. Agar oila tashqi tizim bilan hamkorlik qilishga tayyor bo'lmasa, oila maktab qoidalarini rad etadi. Bu tashqi tizim bilan kurashga olib keladi va bola bu kurashning garoviga aylanadi. Boshqa ekstremal – bu oilaning o'ziga xos chegaralari va qoidalari bo'lmasa. Keyin, tashqi tizim bilan uchrashganda, uning barcha qoidalari hech qanday tanqidsiz qabul qilinadi. Bola tashqi qoidalarga qarshi himoyasiz, bolaning ovozi eshitilmaydi (“O'qituvchi sizni aybdor deb aytgani uchun, siz aybdorsiz”). Oltin o'rtalikka intilish kerak. Onalik ta'tilida bo'lgan ota-onaning avtonomiyasi. Ko'pincha bu ona, shuning uchun biz u haqida gaplashamiz, garchi vaziyat aksincha, otasi bolani tarbiyalashda ko'proq ishtirok etgan bo'lsa ham. Onalik ta'tilida bo'lgan ona ko'proq bo'sh vaqtga ega bo'lib, ishga borishi, sevimli mashg'ulotini boshlashi va do'stlari bilan tez-tez uchrashishni boshlashi mumkin. Er-xotin uchun bu inqirozga aylanishi mumkin, chunki er xotining uyda bo'lishiga o'rganib qoladi. Va ayol avtonomiya qo'rquvini boshdan kechirishi mumkin, u o'zining haddan tashqari himoyasi bilan bolaga yopishadi. Bu quyidagi alomatlar olib kelishi mumkin: bolada psixosomatika bor va onaning ishga bormaslik uchun sababi bor. *Oila ichidagi muammolarning namoyon bo'lishi*. Agar ota-onalar o'rtasida kelishmovchilik bo'lsa, er-xotin endi bolaning yordami bilan muammolarni hal qilishga harakat qilishlari mumkin. Ba'zi hollarda, bola nikoh uchun yagona asos bo'lib qoladi. Bola tug'ilishidan oldin ham hal etilmagan muammolar er-xotinda yana keskinlashadi. Agar turmush o'rtoqlar kelishuvga erisha olmasalar va birgalikda ota-ona strategiyasini ishlab chiqmasalar, bu har bir kishi bolani o'z tomoniga tortishga harakat qiladigan urushga olib kelishi mumkin. Ona bolaga

haddan tashqari g'amxo'rlik ko'rsatishi mumkin, ota esa uni butunlay “buzmaslik” uchun ataylab uzoqlashishi mumkin. Bundan tashqari, agar ota bolaga o'z talablarini qo'yishni boshlasa, onasi aralashib, ularni yumshatadi yoki qadrsizlantiradi va shu bilan otaning tarbiyada ishtirok etish urinishlariga putur yetkazadi. Bu sikl, ota-onadan birortasi bolaga haqiqatan ham ta'sir o'tkaza olmasdan takrorlanishi mumkin. *Nizolar turmush o'rtoqlarni birlashtirish usuli sifatida*. Bu qanchalik paradoksal tuyulmasin, ota-onalar ko'pincha bahslashish yo'lini ular uchun mavjud bo'lgan yagona muloqot formati sifatida tanlaydilar. Chunki turmush o'rtoqlar kelishuvga erishganlarida, ular o'zaro muloqot qilish uchun hech qanday sababga ega bo'lmaydilar. Bu holat bolaga ota-onalar tomonidan manipulyatsiya qilish uchun keng maydon yaratadi, bu esa uning vertikal munosabatlarga asoslangan har qanday boshqa muhitga moslashishini murakkablashtiradi. Oilaning ushbu bosqichdagi inqirozlardan qanday omon qolishi ota-onalarning farzandlari bilan aloqa doirasini kengaytirishga qanchalik tayyorligiga bog'liq; uning o'sib borayotgan mustaqilligini qo'llab-quvvatlash qobiliyatidan; oila tizimining moslashuvchanligi va shunga mos ravishda o'zgarishlarga tayyorligi to'g'risida; muloqot qilish istagi va turmush o'rtoqlarning o'zaro munosabatlarning yangi qoidalarini kelishib olish qobiliyati to'g'risida.

**NATIJARLAR (РЕЗУЛЬТАТЫ / RESULTS).** Ko'p yillik oilalarda oilaning mustahkamligi, qadriyatlarini, oilaning jipsligi va ijtimoiy munosabatlari, er-xotin o'rtasida iliq munosabatning shakllanganligi yuqori bo'ladi.

Kam yillik tajribaga ega oilalarda oilaning ijtimoiy munosabatlarda tushunmovchiliklar ko'p uchrab turishi aniqlandi. Oilada psixologik muhitning o'zgarishi kuzatildi. Oilaviy hayot siklining birinchi batafsil tavsifi [7] J.Haleyning “G'ayrioddiy psixoterapiya” kitobida paydo bo'ldi. U bir bosqichdan ikkinchi bosqichga o'tish davrida oilada shaxsning shakllanishi davrida yuzaga keladiganlarga o'xshash tabiiy rivojlanish inqirozlarini boshdan kechirishini ta'kidladi. O'tish davrida oila a'zolari o'z munosabatlarini sezilarli



darajada qayta qurishni talab qiladigan yangi muammolarga duch kelishadi.

Har bir yangi bosqich oila tuzilishining barcha asosiy parametrlarining o'zgarishi bilan bog'liq. Ko'pgina oilalar bu vaziyatni qayta qurish va yangi sharoitlarga moslashish orqali muvaffaqiyatli hal qilishadi. Bu jarayon odatda oila a'zolarining shaxsiy o'sishi bilan birga keladi.

#### **XULOSA (ЗАКЛЮЧЕНИЕ / CONCLUSION).**

Oiladagi qiyinchiliklar va stresslarni yengib o'tishning umum oilaviy jarayoni sifatidagi oiladagi yengish mexanizmlari, oilaning rivojlanish dinamikasi bilan oiladagi engishning o'ziga xos xususiyatlari o'rtasidagi bog'liqlik, qobiliyat yoki qobiliyatsizlikni belgilovchi shart-sharoitlar va omillar yetarlicha o'rganilmagan. *Oilalarda paydo bo'lgan qiyinchiliklarni yengish va stressdan xalos bo'lish.*

Zamonaviy rus psixologiyasidagi ko'pgina tadqiqotlar disfunktsiyali oilalarni o'rganishga, oiladagi o'zaro munosabatlardagi og'ishlar va buzilishlarni aniqlashga, oila rivojlanishining normal jarayoniga aralashish va to'siqlarni aniqlashga qaratilgan. Shu bilan birga, muqarrar ravishda inqiroz lahzalariga duchor bo'lgan, qiyinchilik va stressni boshdan kechiradigan, lekin ayni paytda o'z funktsionalligini saqlab qolish uchun kuch va qobiliyat topadigan "shartli farovon" oilalar haqida bir nechta tadqiqotlar mavjud.

#### **ADABIYOTLAR RO'YXATI (ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА / REFERENCES):**

1. Королёв Ю. А. [Семья как субъект права](#) [Архивная копия](#) от 24 декабря 2013 на [Wayback Machine](#).
2. Соловьёва А.В. Семья как фактор профессионального самоопределения молодёжи // Научные исследования в образовании, № 5, 2008. С. 58—60.
3. Кравченко А.И. Глава 16: Семья и брак // Социология. — М.: Проспект, 2010. — С. 272—352. — 544 S. — ISBN 978-5-392-01322-7.
4. Сатир В. Как строить себя и свою семью. М., 1992, С. 11.
5. Антонова Л. И., Цветкова Н.А. Роль семейных традиций и ритуалов в представлениях старших школьников о семье // Современные гуманитарные исследования, № 1, 2006
6. Андреева Е.Н. Переживание проблем в области взаимоотношений с родителями и стратегии совладающего поведения асоциальных и просоциальных подростков // Психологические проблемы современной российской семьи. В 2-х частях. Ч. 2. — М., 2003.



## YOSHLARDA INTELLEKTUAL SALOHIYATNI SHAKLLANTIRISH MUAMMOLARI

*Sadiqova Roza Ismailovna, Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat  
instituti katta o'qituvchisi*

## PROBLEMS OF FORMING INTELLECTUAL COMPETENCE IN YOUNG PEOPLE

*Sadikova Roza Ismailovna, senior teacher of the Tashkent  
Textile and Light Industry Institute*

## ПРОБЛЕМЫ ФОРМИРОВАНИЯ ИНТЕЛЛЕКТУАЛЬНОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ У МОЛОДЁЖИ

*Садикова Роза Исмаиловна, старший преподаватель  
Ташкентского института текстильной и легкой  
промышленности*



[https://orcid.org/  
0009-0001-4509-1378](https://orcid.org/0009-0001-4509-1378)

*e-mail:*  
[Roza.sodykova@mail.ru](mailto:Roza.sodykova@mail.ru)

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada yoshlar intellektual salohiyatini shakllantirishda davlatning jamiyatdagi boshqaruv imkoniyatlari va vazifalari mezonlari va muammolari yoritildi. Davlatning jamiyat intellektual salohiyatini shakllantirishidagi faoliyati tahlil qilindi.

**Kalit so'zlar:** jamiyat, davlat, yoshlar, aql, intellect, ta'lim, fan, texnologiya, taraqqiyot, bilimdon, islohot, metodologiya.

**Abstract:** This article highlights the criteria and problems of the opportunities and tasks of public administration in society for the formation of the intellectual potential of youth. The activities of the state in the formation of the intellectual potential of society are analyzed.

**Key words:** society, state, youth, intelligence, education, science, technology, development, scientist, reform, methodology.

**Аннотация:** В данной статье выделены критерии и проблемы возможностей и задач государственного управления в обществе по формированию интеллектуального потенциала молодежи. Проанализирована деятельность государства по формированию интеллектуального потенциала общества.

**Ключевые слова:** общество, государство, молодежь, интеллект, образование, наука, технологии, развитие, учёный, реформа, методология.

**KIRISH.** O'tgan asrning 70-80-yillariga kelib xalqaro miqyosda ta'lim sohasini rivojlantirishga qaratilgan keskin ilmiy qarashlar yanada dolzarblashganligi bilan ahamiyatlidir. Natijada "Ta'lim revolyutsiyasi" nomi ostida xalqaro ta'lim islohotlari davri boshlandi. Dastlab, u ilmiy-texnikaviy revolyutsiyaning "ijtimoiy

natijalari" dan biri sifatida tahlil qilinadi. Aslida esa bu – tub qayta qurish jarayoni bo'lib, natijada ta'lim sohasi nafaqat iqtisodiy, ilmiy-texnikaviy taraqqiyotni balki, ijtimoiy statusni belgilaydigan hal qiluvchi faktorga aylandi. Ta'lim revolyutsiyasining dastlabki ko'rinishi ta'limni keskin demokratlashuvida namoyon bo'ldi. U

umumiy jihatdan rivojlangan davlatlarning ta'lim tizimini butunlay qamrab olgan holda, rivojlanayotgan davlatlarga o'z ta'sirini ko'rsata boshladi. Ayni paytda dunyo hamjamiyati, xususan, rivojlangan davlatlarning ko'pchiligi o'z oldilariga ta'lim olishning umuminsoniyat uchun yanada qulay va umuminsoniy (gumanistik) bo'lishi lozimligini bildiruvchi masalani ko'ndalang qo'ydilar. Jamiyatning intellektual salohiyati uzoq vaqt davomida shakllantirilib, rivojlantirilib boriladi. Jamiyat intellektual salohiyatini shakllantirish va rivojlantirishga xizmat qiluvchi omillar deganimizda, uning vujudga kelishi va rivojlanishi uchun sabab bo'lgan xususiyatlar: ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy munosabatlar, shart-sharoitlar va imkoniyatlarni hisobga olish zarur. Lekin jamiyatdagi barcha munosabatlar ham intellektual salohiyatni rivojlantirishga xizmat qilavermaydi va salbiy ta'sirga ega omillar sifatida namoyon bo'ladi. Shuning uchun, jamiyat intellektual salohiyati rivojiga ta'sir etuvchi omillarni: ijobiy ta'sir etuvchi omillar va salbiy ta'sir etuvchi omillarga bo'lamiz. Jamiyatning intellektual salohiyati shakllanishi va rivojlanib borishi ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy munosabatlar asosida yuzaga keladi. Tarixiy meros va tajriba omili borki, jamiyat o'zidan oldingi avloddan qanday tarbiyaviy ko'nikmalar, ta'lim va ma'rifatchilik sohasidagi an'analarni, ilmiy, aqliy bilimlarni ishlab chiqarishga qo'llash qadriyatlarini meros qilib olganligi bilan bog'liq. U uzoq tarixiy davrda jamiyat qanday ishlab chiqarish vositalari, ishlab chiqarish usullari va munosabatlaridan foydalanib kelganligi asosida vujudga keladi. Shu kabi mehnat resurslarining qaysi sohalarda sanoat, ilmiy-texnik yoki qishloq xo'jaligida bandligi ham tarixiy meros va tajriba omilining shakllanishiga ta'sir ko'rsatadi. Bu esa, jamiyatning bir necha o'n yillar, balki asrlar davomida ilmga intilish, o'rganish, o'zlashtirish qobiliyatining rivojlanishiga olib keladi va xalqning ijtimoiy ruhiyatini shakllantiradi, moddiy, ma'naviy ehtiyojlarini qondirish vositasi sifatida ijtimoiylashadi. Ijtimoiy-ruhiy omil esa, aholining ilm-fan sirlarini egallashiga, mutaxassis kadr bo'lib yetishishiga intilish kayfiyatining qay darajada ekanligidir. Ijtimoiy-ruhiy omil uzoq tarixiy rivojlanish

mobaynida shakllanadi va ehtiyoj, manfaat sifatida paydo bo'lib, e'tiqod darajasigacha ko'tariladi.

**ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA.** Jahon mamlakatlari tajribalaridan ma'lumki, birorta davlat yetuk intellektual salohiyatsiz rivojlanmaydi. Chunki, intellektual salohiyat davlatni rivojlantirishdagi asosiy g'oyalarni ishlab chiqadi va uni amalga oshirishda yetakchilik qiladi. Shuning uchun ham, intellektual salohiyatni shakllantirish davlat faoliyatining asosiy yo'nalishini tashkil qiladi. Intellektual salohiyatni rivojlantirishni ta'minlovchi, unga ko'mak beruvchi huquqiy, iqtisodiy, ijtimoiy, mafkuraviy sohalarida davlat siyosiy boshqaruvida qo'llaniladigan usul, vositalar va imkoniyatlar davlat siyosati omili hisoblanadi. Bu davlatning siyosiy boshqaruv maqsad va vazifalaridan kelib chiqadi. "Siyosiy boshqaruv o'z mazmuniga ko'ra jamiyat siyosiy hayotining izdan chiqishining oldini olishga xizmat qiluvchi jarayon hisoblanadi. U siyosiy tizimni barqarorlashtiradi va uni jamiyatning iqtisodiy, ijtimoiy va ma'naviy tizimi bilan muvozanatini ushlab turishga xizmat qiladi" [1]. O'z navbatida siyosiy boshqaruv ijtimoiy bashorat, rejalashtirish, qonunlar, qaror, farmon, farmoyishlar qabul qilish va ularning bajarilishini nazorat qilish kabi ishlar orqali amalga oshiriladi.

"Boshqaruv ilmi bilan shug'ullanuvchi olimlar boshqaruvning quyidagi oldindan ko'rish (anglash), rejalashtirish, tashkil qilish, tartibga solish va muvofiqlashtirish, nazorat, rag'batlantirish funksiyalarini ajratib ko'rsatadilar. Ushbu funksiyalar mikro va makro darajadagi barcha iqtisodiy va siyosiy boshqaruvlar uchun xos [2]. O'z navbatida davlat siyosiy boshqaruvi alohida xususiyat va imkoniyatlarga ham ega. Davlat ma'lum bir hududda ko'plab mikro darajadagi boshqaruvlarni o'z ichiga olgan makro darajada boshqaruvni amalga oshiradi. Uning jamiyatdagi boshqaruv imkoniyatlari va vazifalari siyosiy hokimiyatning legitimligidan kelib chiqadi. Ya'ni jamiyatda siyosiy obyektlar siyosiy hokimiyatning tashkiliy, me'yoriy tizimlar, obro', kuch ishlatish vositalari orqali boshqarish, ta'sir o'tkazish huquqi va vakolatini qonuniy jihatdan tan oladilar. Shuning uchun, siyosiy hokimiyat jamiyatning turli

sohalarini, jumladan, ta'lim tizimi, kadrlar siyosati, fanni, ishlab chiqarish sohalarini rivojlantirishda ustuvor boshqaruv imkoniyatlariga ega bo'ladi va hech qanday tashkilot davlat hokimiyatichalik imkoniyatlarga ega bo'la olmaydi. Bu davlat siyosiy hokimiyati siyosiy boshqaruv sohasida jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy hayotida intellektual salohiyatni yuksaltirishga xizmat qiladigan bir qator funksiyalarni bajarishida ham namoyon bo'ladi.

**NATIJARLAR.** Davlat ma'lum ma'noda novatorlik funksiyasini ham bajaradi, yangiliklarni, yangi o'qitish metodlarini ta'lim tizimiga, yangi texnika-texnologiyalarni ishlab chiqarishga, yangi boshqaruv usullarini boshqaruv tizimlariga joriy qilishda yetakchilik qiladi. Davlatning jamiyat intellektual salohiyatini shakllantirishidagi faoliyatini ikkita umumiy yo'nalishga bo'lishimiz mumkin.

**Birinchi,** bevosita intellektual salohiyatni shakllantirish faoliyati.

**Ikkinchi,** bilvosita, ya'ni jamiyatning intellektual salohiyatini shakllantirish uchun kerakli siyosiy, iqtisodiy, mafkuraviy sohalarda shart-sharoitlar yaratish.

Davlatning bevosita intellektual salohiyatni shakllantirish faoliyati ta'lim siyosati, fanni rivojlantirish siyosati, kadrlar siyosati, ma'rifatchilikni qo'llab-quvvatlash siyosati, qabul qilingan qonunlar, qarorlar, ta'lim sohasini, ilmiy muassasalarni rivojlantirish dasturlari va ularning davlat budjetidan mablag' bilan ta'minlanishini qamrab oladi.

**MUHOKAMA.** Jamiyat intellektual salohiyatini shakllantirishda bu yo'nalish asosiy va belgilovchi hisoblanadi. Shuning uchun ham, dunyoning yetakchi davlatlarining ko'pchiligida XXI asrda ta'limni yanada rivojlantirishga e'tibor qaratilmoqda. Masalan, Germaniyada "2000-yilda ta'lim", AQSHda "Amerikaliklar uchun XXI asr ta'limi", Fransiyada "Kelajak ta'limi", Yaponiyada "XXI asr uchun ta'lim modeli" qabul etildi" [3].

Rivojlangan davlatlarning yangi asr arafasida bunday dasturlar qabul qilishiga sabab ta'lim tizimiga taraqqiyotning o'zi yangidan-yangi talablarni qo'ymoqda. Shuning uchun, dunyo mamlakatlarida oliy o'quv yurtlariga kiruvchilar

miqdori ham oshib bormoqda. Masalan, Yaponiyada kadrlarni yuz foiz oliy ma'lumotli qilishga harakat qilinmoqda.

**XULOSA.** Intellektual salohiyatni rivojlantirish va rag'batlantirish kadrlar tayyorlash, ularni joy-joyiga qo'yish, ulardan samarali foydalanishda ham namoyon bo'ladi. Kadrlar tayyorlash va shakllantirish faqat ta'lim tizimi bilan cheklanib qolmasdan, balki bevosita amaliyotni, ishlab chiqarishni ham qamrab olishini bildiradi. Shuning uchun ham, biz kadrlar tayyorlash siyosatini tadqiq qilar ekanmiz, kadrlar shakllanishiga ta'sir etuvchi ishlab chiqarishdagi shart-sharoitlarni ham o'rganish lozim bo'ladi. Jamiyatdagi barcha masalalarni kadrlar hal qiladi. Kadrlar kuchli salohiyatga ega bo'lsalar, jamiyat barqaror rivojlanadi, ya'ni jamiyat ravnaqi bevosita kadrlarning bilim darajasiga bog'liq. Bu intellektual kadrlarning jamiyat intellektual salohiyatidagi o'rni ham belgilab beradi, ya'ni ular intellektual salohiyatning bir qismi bo'lib, turli sohalarda kashfiyotlar, yangiliklar yaratish, ularni ishlab chiqarishga qo'llash va ilmiy bilimlarning jamiyatda ommalashishiga ham xizmat qiladi. Jamiyat intellektual salohiyati tarraqqiyotning real kuch-qudratiga aylanishi kadrlarning ilmiy, texnikaviy bilimlarni amaliyotda joriy eta olishi va takomillashtira olishi bilan belgilanadi. Jamiyatning intellektual salohiyatini rivojlantirishga xizmat qiluvchi qator omillar borki, ular ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy munosabatlar, shart-sharoitlar va imkoniyatlardan tashkil topgan bo'ladi. Ularni ijobiy va salbiy omillarga bo'lib, ijobiy ta'sir etuvchi omillarni rag'batlantirib, salbiy ta'sir etuvchi omillarni bartaraf qilib borish zarur hisoblanadi.

#### **ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. Politologiya. S.Otamuratov, I.Ergashev, Sh.Akramov, A.Qodirov - Toshkent: O'zbekiston, 1999. - B. 130-b.
2. M.Sharifxo'jayev, Yo.Abdullayev. Menejment. Oliy o'quv yurtlari bakalavr va magistrantlar uchun darslik. - Toshkent: O'qituvchi, 2001. - 78-79 b.
3. A.To'xtaboyev. Ma'muriy menejment. - Toshkent: Moliya, 2003, - B. 62-63 b.



## ЁШЛАР АХЛОҚИЙ ТАРБИЯСИНИНГ МУАММОЛАРИ

Абдунасилова Халима Эрдтиллаевна, Тошкент  
тўқимачилик ва енгил саноат институти катта ўқитувчиси

## PROBLEMS OF MORAL EDUCATION OF YOUTH

Abdunasirova Halima Erdtillaevna, senior teacher of the  
Tashkent Textile and Light Industry Institute

## ПРОБЛЕМЫ ПРАВСТВЕННОГО ВОСПИТАНИЯ МОЛОДЕЖИ

Абдунасилова Халима Эрдтиллаевна, старший  
преподаватель Ташкентского института текстильной и  
легкой промышленности

**Аннотация:** Ушбу мақола ёшларни баркамол авлод қилиб тарбиялаш, хусусан, замонавий талабанинг тарбияси ва ахлоқи, талаба шахсининг шаклланишига таъсир қилувчи омиллар муҳокама қилинади.

**Калим сўзлар:** инсон, ёшлар, ахлоқ, талаба, шахс, тарбия, баркамол авлод, илм, психология, онг, технология, касб-хунар, маънавий омиллар, тафаккур.

**Annotation:** This article examines the factors influencing the formation of the personality of a modern student, in particular, the education and morality of a modern student.

**Key words:** person, youth, population, student, person, education, mature generation, science, psychology, consciousness, technology, profession, thinking.

**Аннотация:** В данной статье рассматриваются факторы, влияющие на формирование личности современного студента, в частности, образование и нравственность современного студента.

**Ключевые слова:** человек, молодежь, население, студент, человек, образование, зрелое поколение, наука, психология, сознание, технология, профессия, мышление.

**КИРИШ.** Донолар табиат гўзаллигини тараннум қилганларида инсон гўзаллигини инкор қилмаганлар. Дунёда энг гўзал ҳилқат инсондир. Жисмоний ва маънавий гўзал инсонга қараб, завқ оласан киши. Инсоннинг ташқи гўзаллигини инкор этмаган ҳолда, ҳақиқий инсонийликнинг чинакам мезони маънавий-ахлоқий фазилятлар эканини ёддан чиқармаслигимиз лозим. Халқда шундай нақл бор: яхшилигинг ҳам, ёмонлигинг ҳам ўзингга қайтади. Ҳазрат Навоий айтадилар: “Мазлумга бахшойиш кўргузки, золимдан осойиш кўргайсан... Дўст висолин тилар бўлсанг, ошиқ бўл ва агар ўзлугинг билан бўла олмасанг, ошиқлар теграсида ўгрул”. Зеро, одамларга яхшилиқ қилган инсон ўзи ҳам руҳан шод

бўлади, кўнгли кўтарилади, бировнинг юкини енгил, муҳтожликдан озод қилганлигидан севинади. Дарҳақиқат, ҳар бир талаба илм ва маърифатни эгалламоғи учун унга энг аввало чинакам инсоний фазилятларни, маънавий етукликни ва ахлоқий баркамолликни сингдириш бирламчи вазифадир. Ёш авлоднинг ҳар томонлама баркамол вояга етиши, замонавий билим ва касб-хунарларни пухта ўзлаштириши, истеъдод ва салоҳиятини юзага чиқариши учун зарур шароитлар яратилгани баробарида “Замонамиз талабаси илм толибими?”, “Замонавий талабанинг маънавий-ахлоқий киёфасидаги нуқсон нимадан?” каби саволлар туғилиши шубҳасиздир. Талабалик – жамиятнинг куйи қатлами ҳисобланмиш ёшлар



<https://orcid.org/>

[0009-0001-3669-5292](https://orcid.org/0009-0001-3669-5292)

e-mail: [Halima.72@mail.ru](mailto:Halima.72@mail.ru)

учун берилажак энг олий мақомдир. Талабалик бахтига ҳар ким ҳам муяссар бўлолмайди. “Талаба” ёхуд “толиб” сўзларининг луғавий маъносига диққат қаратсак, куйидаги маъноларнинг гувоҳи бўламиз: طالب [талаба] – талаб қилмоқ, сўрамоқ; طالب [толибун] – талаб қилувчи, сўровчи; طلب [талабун] – 1) талаб қилиш, қидириш, сўраш; 2) талаб, таклиф, сўров; 3) буюртма бериш; طلب [талаба] – 1) сўрамоқ, қидирмоқ; 2) талаб қилмоқ; 3) тиланмоқ. Айнан нимани талаб қилмоғи ҳақида сўз кетганда, “толиби илм” атамаси бизга жавоб беради. Талаба ва толиб, кўриб турганимиздек, араб тилида бир хил мазмунга ва шаклга эга сўзлардир. “Талаба” сўзи форсий изофа орқали ифодаланган “толиби илм” бирикмасининг якка ҳолдаги кўринишидир. Демак, талаба ҳам, толиб ҳам илм талаб қилувчидир.

**АДАБИЁТЛАР ТАҲЛИЛИ ВА МЕТОДОЛОГИЯ.** Толиби илм деб, асосан, мадраса ва исломий таълимга йўналтирилган муассаса тарбияланувчиларига нисбатан айтилиши одат тусига кирган атамдир. Шу ўринда бир ойдинлик киритиш зарурати бор. Агар толиби илм мадрасада таълим олувчи йигит ёки қиз бўлса, демак у диний илмларни, талаба эса дунёвий илмларни ўрганади, деган нотўғри хулоса пайдо бўлмаслиги керак. Чунки Қуръон оятлари ва ҳадисларда зикр этилган илм, нафақат диний илмлар, балки ҳамма “фойдали илмлар” эканини алоҳида таъкидлаш зарур. Дарҳақиқат, Ислом диничалик илмни улуғлаган дин, тузум ёки фалсафа йўқ. “Илм талаб қилиш ҳар бир муслим ва муслимага фарздир”[1], дейилади Ҳадису шарифда. Муаммо шундаки, талабалик шарафига эга бўлган ёшларимизнинг аксарияти толиби илм бўлолмаптилар. Бунинг сабаблари синчковлик билан ўрганилса, жавоби бора-бора битта сўзга тақалади. Бу – Интернет. Тадқиқотлар шуни кўрсатяптики, аксарият ҳолларда янги Интернет – психологиянинг таъсири кучли бўлмоқда. Интернет ахборот тарқатишнинг энг етакчи манбаига айланиб бормоқда. Ҳозирги кун талабалари кутубхонама-кутубхона юриб, маълумот изламайди, мустақил ишларни ҳам кўлэзма шаклида ёзиб ўтирмайди. Ахир Интернет бор-

ку! Барча муаммоларнинг ечими шунда. Чексиз мавзуларда турфа маълумотларни ўзида жамлаган улкан ахборотлар омбори ҳисобланмиш Интернет бугунги кун талабасининг тенгсиз дастёридир. Талаба фикр юритиб, бошини оғритиб, изланиб ўтирмасдан, тайёр реферат, курс ишлари, мустақил иш, мақолаларни Интернетдан кўчириб олади-да, ўз номини қўйиб, ўқитувчига тақдим этади. Бир зумда иш ҳам тайёр, баҳо ҳам тайёр. Бироқ бу кўчирмачилик оқибати нимага олиб келади? Бундай лаганбардорлик фарзандларимизни тафаккурсиз роботга айлантириб қўймайдими? Энг қизиғи шундаки, Интернетдек чексиз маълумотлар уммонида сузиб юрган ёшлар на ақли, на тафаккури, на илми билан ўтмиш аждодларимиздан устун бўлолмапти. Тўғри, техника, технология соат сайин жадал ривожланмоқда. Ёшлар онг-у савияси-чи? Фақат кўчирмачиликка суяниб, олийгоҳларни битираётган талаба-ёшларимиздан келажакда нималарни кутиш мумкин? Унинг билими сийқалашиб кетишининг олдини олувчи омил борми? Ўнлаб қомусий олимларни етиштириб берган заминимизда Уйғониш даврида ҳозирги имкониятларнинг юздан бири ҳам бўлмаган. Лекин Ибн Сино ва Беруний, Ал Хоразмий ва Форобий, Улуғбек ва Навоий каби мутафаккирлар инсоният цивилизациясининг тамал тошини қўйган аждодларимиздир. Ахир Интернет олами бизга бераётган ахборотлар заминидан ёшларимиз мактаб давридаёқ даҳо бўлиб кетиши керак эмасми? Мантиқан олганда, ахборот кўпайгани сари илм кучайиши керак эмасми? Шайх Шиблий шундай деган экан: “Тўрт минг ҳадис ўқидим, тўрт юзини ёд туширдим, шундан тўрттасига амал қилдим ва мақсадимга етдим”. Демак, ҳамма гап қабул қилинаётган ахборотларнинг одам мияси ва тафаккурида қайта ишланиши билан боғлиқ. Қайта ишланмаган ахборот кераксиз тош, ортикча юк. Бундай юкнинг фойдасидан зарари кўпроқ. Ахборот онгнинг овқати, у ҳазм бўлиши, қайта ишланиши, илмга ва фикрга айланиши керак. Узлуксиз ахборот қабул қилаётган мия тўхтовсиз овқат еб, ҳазм қилмаётган ошқозонга ўхшайди. Ошқозон

овқатни ҳазм қилсагина овқат қувват ва қонга айланади. Аксинча бўлса, у ошқозонни ишдан чиқаради. Фалсафада *анализ, синтез* деган тушунчалардан фойдаланилади. Буни айни кунда Интернет ва бутун ташқи оламдан олинаётган ахборотга нисбатан қўллаш айни муддаодир. Анализ, яъни таҳлил қилиш, сўнгра синтез, яъни керакли-кераксизга ажратиш – мана шу икки амални бажарган тарзда ташқи олам информацияларини тафаккур чиғириғидан ўтказиш биз истаган натижага – илм эгаллашга олиб келиши мумкин. Талабалар ҳар кунлик – 24 соат мобайнидаги вақтини, албатта, фақат Интернет билан ўтказмайди. Қувонарлиси шундаки, айрим талабалар ҳам ўқиш, ҳам ишни бир пайтда олиб борадилар (масалан, халқаро институт талабалари ҳафтада 2-3 кун мобайнида дарсга келадилар, қолган вақтини ўз ихтиёрига кўра сарфлаш имкониятига эга). Айрим талабалар ўзлари чуқур ўрганган фанлардан репетиторлик қилишса, яна бировлар илмий ижод ва илм билан шуғулланишни афзал биладилар. 60-70% талабалар эса ўқишдан ташқари бўш вақтини “вақти чоғлик” билан ўтказишни маъқул кўришади.

Афсуски, инсоннинг қулай, тўла-тўқис, фаровон яшаши учун яратилаётган барча шарт-шароитлар енгил-елпи ҳаёт тарзига ҳам сабаб бўлиб қолмоқда. Хусусан, талаба ёшлар ҳақида гап кетганда, улар шарқоналикка мутлақо зид бўлган – оммавий маданият тақлидчиларига айланиб қолишмоқда. Оммавий маданият эса, кўпроқ Ғарб маданияти билан боғлиқ ҳодиса эканини, тадқиқотчи Шухрат Ғойибназаров таъбири билан айтганда: “...бузғунчи ғояларни, янги ноанъанавий қадриятларни ҳамда ҳаётнинг ғайриахлоқий нормаларини тарғиб қилишнинг жуда муҳим ва ғоят самарали воситаларидан бири” [2] эканини назарда тутсак, бундай “маданият”нинг натижаси ачинарли экани аён бўлади. Буни қарангки, Шарқ ҳам, Ғарб ҳам таълимни юксак поғоналарга қўтаришда бири-биридан қолишмайди. Бироқ фарқ шундаки, Ғарбда таълимга восита сифатида қаралса, Шарқда мақсад деб қаралади. Ҳиндистон мустақиллиги учун кураш олиб борган ҳинд сиёсий арбоби Абулқалам Озод (1888-1958)

1951 йил 13 декабрда Дехлида “Инсон тушунчаси ва Шарқу Ғарбдаги таълим муаммолари” мавзусига бағишлаб ўтказилган симпозиумда сўзлаган нутқида мана бу сўзларни келтирган: “Инсон онги ўхшаш бўлишига қарамай, турли минтақаларда яшовчи одамлар бир қатор умумий муаммоларга турлича ёндаша бошладилар. Инсон тўхтовсиз ривожланаётган жонзот, деган ғарбча қарашнинг зидди ўлароқ Шарқда биз мутлақо бошқа инсон тушунчасига дуч келамиз. Шарқча инсон тушунчаси одамни “ҳазрати инсон” дея улуғлар экан, унда комиллик, олимлик, қодирлик каби Аллоҳга хос кўпдан-кўп хусусиятларни кўришни истади” [3].

### НАТИЖАЛАР.

Шунингдек, Абулқалам Озоднинг мана бу хулосаси, илм-фан ривожланиши туфайли Шарқ ва Ғарб яқинлашган бугунги кунда шахсга, жамиятга нисбатан жиддий таҳдид солаётган оммавий маданиятнинг нечоғли хавфли эканини яна бир бор тасдиқлайди: “Ғарб назарияси инсоннинг маънавий асосига етарли эътибор қаратмагани сабабли унинг илм-фан соҳасидаги ютуқлари инсоният ҳаёти учун таҳдид манбаига айланиб қолди. Шу боис Ғарб илм-фаннинг ютуқлари инсон ва худонинг маънавий бирлиги ҳақидаги шарқона ғоя билан бирлаштирилса, илм-фан вайронагарчилик қуролига эмас, инсониятнинг тотувлиги, тараққиёти ва фаровонлигига эришиш воситасига айланган бўлур эди” [4]. Ушбу сўзлар ярим аср муқаддам айтилганига қарамасдан, ҳозирги кун учун ҳам ўз аҳамиятини йўқотмаган.

**МУҲОКАМА.** Зеро, дипломга эга бўлиш, том маънодаги зиёли бўлиш деган гап эмас. Талабаларимиз ва қолаверса, ҳар бир инсон маънавий жиҳатдан шаклланмас экан, энг ривожланган АҚШ ёхуд Европа давлатлари кишиларининг кийиниши, юриш-туриши, соч турмаклаши-ю одоб-ахлоқи ва муносабат-муомаласига қанчалик тақлид қилмасин, ҳеч қачон ўта замонавий ҳам, ўта маданиятли ҳам бўлиб қолмайди. Фақат ўзлигини йўқотгани қолади, холос. Хўш, талабаларимиз чин маънодаги толиби илм бўлишлари учун нимани эътибордан соқит қилишимиз? Аввало,

жамиятнинг бошланғич бўғини бўлмиш оила бу борада энг катта масъулиятни ўз зиммасига олмоғи лозим. Шахсий намуна – энг дастлабки ва кучли қуролдир. Бу гап, аввало, бутун меҳр-этиборини олдида турган фарзандига эмас, кўлидаги тўртбурчак “олам”га бағишловчи ота-оналарга тааллуқлидир. Нафақат талаба ёшидаги, балки боғча ёшидаги фарзандимизга нисбатан озгина этиборсизлигимиз, аввало, ўзимизга хуш келмайдиган натижаларга олиб келиши мумкин. Абу Наср Фаробий “Бахт-саодатга эришув ҳақида”ги рисоласида ёзганидек, “...камолотга бир кишининг ўзи ёлғиз эришуви мумкин эмас. Ҳар бир инсоннинг туғма табиатида ва унга лозим бўлган ҳар қандай иш ва ҳаракат жараёнида бошқа бир инсон ёки кўпчилик билан муносабатда бўлиш, ўзаро алоқа қилиш хосияти бор, одамзот жинсида бўлган ҳар қандай инсоннинг аҳволи шу: у ҳар қандай камолотга эришувида бошқаларнинг кўмаклашувларига ва улар билан бирлашишга муҳтож ва мажбурдир”.

**ХУЛОСА.** Ҳар қандай вазиятда, энг аввало, фарзанднинг келажаги ва тақдири учун ўзини жавобгар деб чуқур ҳис этган ота-онанинг шахсий намунаси кўзга ташланиши лозим. Фарзандларини илмли ва баркамол инсон қилиб

тарбиялашни орзу қилган ҳар бир ота-она китоб мутолаасига урғу бермоғи, илм-фан билан бир қаторда адабиётга нисбатан ҳавас уйғотмоғи лозим. Талаба ёшидаги фарзандларимизнинг том маънодаги илм толиби бўлмоқлари учун бир неча омиллар, яъни ота-она ва атроф-муҳит намунаси ҳамда илм-фан, адабиёт, санъат ва маданиятнинг нечоғли муҳим аҳамият касб этишини назарда тутмоқ лозим. Одамларимизнинг онгу тафаккури, дунёқараши ва кайфияти тубдан ўзгариб бораётган бугунги кунда кучли эътиқодли, қатъиятли ва баркамол ёшларгина юртимиз истиқболини таъминлашга кодир бўладилар.

#### **АДАБИЁТЛАР РЎЙХАТИ:**

1. Шайх Муҳаммад Содиқ Муҳаммад Юсуф. (2003). Ҳадис ва ҳаёт. Ният, ихлос, илм. 3 жуз. – Т.: Шарқ.
2. Ш.Ғойибназаров. (2012). Оммавий маданият. – Т.: Ўзбекистон. 227-б.
3. Абулқалам Озод. (2015). Инсон шахсга айланмаган жойда жамият мукамал бўлолмайди // Маънавий ҳаёт, № 2. 73-б.
4. Абулқалам Озод. (2015). Инсон шахсга айланмаган жойда жамият мукамал бўлолмайди // Маънавий ҳаёт, № 2. 73-б.





## PIRLS TOPSHIRIQLARI ASOSIDA MANTIQUIY TAFAKKURNI SHAKLLANTIRISH METODIKASI

*Hasanova Sabohat Komil qizi, Termiz davlat pedagogika instituti talabasi*

## МЕТОДОЛОГИЯ ФОРМИРОВАНИЯ ЛОГИЧЕСКОГО МЫШЛЕНИЯ НА ОСНОВЕ ЗАДАЧ PIRLS

*Хасанова Сабохат Комил кызы, студентка Термезского государственного педагогического института*

## METHODOLOGY OF FORMATION OF LOGICAL THINKING BASED ON PIRLS TASKS

*Hasanova Sabohat Komil qizi, Student of Termiz State Pedagogical Institute*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada PIRLS xalqaro baholash dasturi va uning imkoniyatlari haqida batafsil ma'lumot berilgan bo'lib, topshiriqlarni bajarish davomida o'quvchilar mantiqiy fikrlashini shakllantirish metodikasini bilib olasiz.

**Kalit so'zlar:** PIRLS topshiriqlari, savollar, boshlang'ich sinf o'quvchilari, natija, tafakkur, mantiqiy fikrlash.

**Abstract:** This article provides detailed information about the PIRLS international assessment program and its capabilities, and you will learn the methodology of forming students' logical thinking while completing tasks.

**Keywords:** PIRLS tasks, questions, elementary students, result, thinking, logical thinking.

**Аннотация:** В данной статье представлена подробная информация о программе международного оценивания PIRLS и ее возможностях, а также вы узнаете методику формирования логического мышления учащихся при выполнении заданий.


**Ключевые слова:** задания PIRLS, вопросы, ученики младших классов, результат, мышление, логическое мышление.

**KIRISH.** Bilamizki, ta'lim tizimimiz rivojlanishi, takomillashishi natijasida yurtimizga turli xil metodlar, manbalar, texnika va shu qatorda xalqaro baholash dasturlari ham kirib keldi. Natijada ta'lim tizimimizda yoshlar uchun keng imkoniyatlar yaratildi.

Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi uchun PIRLS xalqaro baholash dasturi ahamiytlidir. Negaki, 4-sinf o'quvchilarimiz dunyo miqyosida har besh yilda imtihondan o'tishadi. Ular ko'rsatgan natijalar

esa, O'zbekistonning reytingini belgilaydi. Ushbu mas'uliyatli vazifaga tayyorgarlik jarayonida o'qituvchi, sinf rahbarlaridan katta mashaqqat talab etiladi. Ular sinf o'quvchilarini tadqiqotga tayyorlashni rejalashtirishdan oldin avvalo o'zlari talab doirasidagi talablarga javob berishi, o'z ustilarida tinimsiz ilmiy izlanishlar olib borishi zarur.

**MAVZUNING DOLZARBLIGI VA HOZIRGI HOLATI.** PIRLSning maqsad-vazifasi



<https://orcid.org/>

[0009-0001-5500-3642](tel:0009-0001-5500-3642)

e-mail:

[Hasanovasabohat915@gmail.com](mailto:Hasanovasabohat915@gmail.com)

shundan iboratki, u o'quvchilarni ma'naviy, mantiqiy dunyoqarash, shaxsiy fikr, tahlilga ega bo'lishga chorlaydi. Negaki, zamon talabiga javob beradigan o'quvchi, talaba yoinki mutaxassis o'z MENiga ega bo'lishi zarur. Dunyoda boshqacha ko'z bilan qaray oladigan, o'z orzu-maqсадlarini keraksiz va samarasiz narsalardan ustun qo'ya oladigan, irodali shaxs bo'lishi zarur.

Xalqaro miqyosda tashkil etilgan ushbu loyiha, bir xil yoshdagi, bir xil tal'im-tarbiya olayotgan yoshlarni o'qib-tushunish jarayonlarini tekshirish, mamlakatlar orasida eng namunali ta'lim tizimini aniqlash, namunali deb topilgan mamlakatlarni yanada qo'llab-quvvatlash, past natija ko'rsatgan mamlakatlarga ilmiy yordam berish nazarga olingan.

Rivojlangan mamlakatlar yoshlar ta'limining jamiyat taraqqiyoti va inson rivojlanishidagi o'rnini muhim deb hisoblaydi. Shu bois ham ular ta'lim sifatiga alohida e'tibor qaratadi. Rivojlanib borayotgan ta'lim tizimimizda amalga oshirilayotgan islohotlar natijasida ulkan iqtisodiy o'sish ko'rsatkichlariga erishilayotganligi barcha sohalarda malakali kadrlar va yetuk mutaxassislariga bo'lgan talabni yanada oshirmoqda. Bu o'z-o'zidan o'quvchilarimizning darslarga qiziqish xususiyatini oshirish va o'qituvchilarning har tomonlama ta'lim-tarbiyaga e'tiborini kuchaytirishni talab etadi. Ayni davrda yurtimizda ham ta'lim sohasidagi sifat tushunchasi ancha ommalashib ulgurdi. Kelajak yosh avlodning intellektual salohiyatini oshirish, keng dunyoqarashini shakllantirish nafaqat muayyan bir mamlakat uchun, balki, xalqaro hamjamiyat uchun ham muhim hisoblanadi.

PIRLS xalqaro tadqiqoti boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'qib tushunish ko'nikmalarini qay darajada rivojlanganligi haqidagi ma'lumotlarni xalqaro miqyosda taqqoslash imkonini beradigan, o'qish va o'qitishni yaxshilashda ta'lim sohasidagi davlat siyosatiga xizmat qilishi mumkin bo'lgan tahlillarni taqdim etadi. Ko'p imkoniyatlarni rivojlantirishga xizmat qilayotgan bu baholash dasturi O'zbekiston ta'lim tizimida ham ahamiyatli deb topilgan va amalda qo'llash joriy etildi. Shunga binoan, hozirgi vaqtda PIRLS ta'rifi ko'ra, o'qish savodxonligi jamiyat tomonidan talab qilinadigan va inson tomonidan qadrlanadigan yozma til

shakllarini tushunish va ulardan foydalanish, shuningdek, matnlardan turli shakllarda ma'no hosil qila olish qobiliyati hamdir. O'quvchi bu jarayonning faol qatnashuvchisi bo'lib, ma'no yaratadi, matn ustida mushohada yuritadi va samarali o'qish strategiyalarini ongli ravishda tanlab qo'llaydi. Har bir matn turi odatiy shakl va qoidalarga amal qilgan holda o'quvchiga matnni sharhlashga yordam beradi.

**TAJRIBA QISMI (TADQIQOTNI AMALGA OSHIRISH).** 2021 – yilda o'quvchilarimiz ushbu xaqlaro baholash dasturida ishtirok etishdi. 57 ta davlar orasida tashkillashtirilgan ushbu ilmiy jarayonda Vatanimiz 49 o'rinni egalladi. O'qib tushunish va tahlil qilish jarayonida xatoliklarga yo'l qo'yilgan. Ushbu jarayon yana takrorlanmasligi uchun mukammal tayyorgarlik jarayoni olib borilmoqda.

PIRLS talablari asosida mustaqil ishlar tashkil etilmoqda, uslubiy-metodik qo'llanmalar, hikoyalar to'plamlari chop ettirilmoqda. Bu jarayon albatta, o'zini oqlashiga ishonaman. Negaki, o'zimiz yaratgan hikoyalar bilan 1-2-sinf o'quvchilarida immunitet hosil qilib, 3-4-sinfda chet el adabiyotlaridan foydalansak samarali bo'ladi. Maqsad-vzaifasini, topshiriqni bajarish tartibi, baholash mezonini anglab tushunib olishgandan so'ng, tadqiqotda tushunish va tahlil qilish jarayonida albatta yuqori natijani egallashadi deb hisoblayman.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining imkoniyatlari muallif tomonidan ishlab chiqilgan uslubiy qo'llanma vositasida tahlil qilindi. Erishilgan natijalardan ma'lum bo'ldiki, PIRLS xalqaro baholash dasturida berilgan topshiriqlarda asosiy obyekt o'quvchi hisoblanadi, ushbu toshiriqlarini bajarish orqali o'quvchilarning kreativ fiklashi, tanqidiy tahlili, hamkorlik qobiliyati va ijtimoiy munosabatlari shakllantiriladi.

PIRLS hikoyalari zamonaviy ta'lim uchun ahamiyatlidir. Hikoyalarning mazmun-mohiyatini xulosalash orqali boshlang'ich sinf o'quvchilari bilan birgalikda tarbiyaviy jarayonni ham tashkillashtirish mumkin. Bu jarayonni amalga oshirish uchun o'qituvchilardan ijodiy fikrlash talab etiladi. PIRLS xalqaro dasturi talablaridan kelib chiqib tayyorlangan topshiriqlardan

foydalanilganda, o'quvchilarning qiziqishi, kreativligi sezilarli darajada faollashdi.

Hozirgi vaqtda bo'lajak mutaxassislariga, ya'ni boshlang'ich ta'lim yo'nalishi talabalariga PIRLS asosida mustaqil ta'lim soatlarini ajratish, ular bilan PIRLS ustida amaliy ishlar bajarib, uslubiy qo'llanmalar yaratish nazarda tutilmoqda. Va tez orada ushbu jarayon amaliyotga tatbiq etiladi, degan umiddamiz.

#### **OLINGAN NATIJALAR TAHLILI.**

PIRLS talablari asosida hikoyalar to'plami ustida ishladik. 1 yil davomida uni yetarli darajada takomillashtirdik. Hozirgi unda chop etilgan "Kichik yong'oq daraxti" to'plamimiz maktablarga amaliyotda qo'llash uchun topshirilgan. Maktablarga kitobimning taqdimoti o'tkazilishi uchun yuborildim va natijadan shu ma'lum bo'ldiki, Surxondaryo viloyati chekka hudud tumanlarida PIRLS haqidagi tushunchalar rivojlanmagan va amalda topshiriqqa tayyorgarlik jarayoni ham tashkil etilmagan. Bu holat alabttta, achinarli. Shuning uchun ham PIRLS tadqiqotlarini yanada takomillashtirish va chekka, oz komplimentli maktablarda samarali tashkil etish uchun uslubiy qo'llanmalar ustida ishlamoqdamiz. Shuni ham aytib o'tishim joizki, mustaqil ta'limni qo'llab-quvvatlash va amaliyotga tatbiq etish zarur.

O'quvchilar mantiqiy tafakkurini shakllantirish uchun balki ma'lum muddat kechikkandurmiz, ammo yangi darslik 4K modeli, PIRLS asosida yaratilayotgan topshiriqlar to'plamlaridan foydalanib, samarali ilmiy faoliyatni tashkil etishimiz mumkin.

Tadqiqot doirasida asosiy e'tibor tushunishni namoyon qilishdan o'zlashtirilgan ma'lumotlarni qanday qilib yangi loyihalar va vaziyatlarda qo'llay olish qobiliyatlarini namoyon qilishga qaratilmoqda. O'quvchi bu jarayonning faol qatnashuvchisi bo'lib, ma'no yaratadi, matn ustida mushohada yuritadi va samarali o'qish strategiyalarini ongli ravishda tanlab qo'llaydi

Bugun dunyoda yuz berayotgan to'rtinchi sanoat tamaddunining dvigateli — harakatga keltiruvchi kuchi kreativlikdir. Atrofga boqsangiz, har tomonda inson ijodkorligining beqiyos va hayratlanarli namunalari duch kelasiz: elektron xizmatlar, virtual reallik, to'rtburchak tarvuzlar,

tuproqsiz hosil olish... Bularning barchasi inson tasavvuri, tafakkuri mahsuli. Bugun biz uchun odatiy tuyulgan kitob, musiqa, bino, samolyot, hatto lampalar ham qachonlar orzu va tasavvurda bo'lgan, keyinchalik aql-idrok samarasi o'laroq yaratilgan.

**XULOSA.** Mehnat bozorida kreativ fikrlovchi mutaxassislariga talab oshib borayotgan ekan, ta'lim jarayonida o'quvchi-talabalarning noodatiy fikrlash qobiliyatini shakllantirish, rivojlantirish dolzarb vazifadir. Haligacha ta'lim tizimida ko'plab yondashuv va metodlar ijodiy fikrlash emas, talqin va tahlilga, ya'ni berilgan ma'lumotni tushunib, to'g'ri yetkazishga, nari borsa, bir necha axborotni umumiy lashtirib, xulosa chiqara olishga yo'naltirilgan.

Xo'sh, ta'lim oluvchilarni qanday qilib kreativ fikrlashga o'rgatish mumkin? Innovatsiya yaratish uchun tafakkurda qanday o'zgarishlar kechishi lozim?

**Tasavvur bilimdan muhim(mi?)** Shaxsda kreativlik sifatlarini rivojlantirish uchun dastlab bu tushunchaning mazmunini bilish lozim. Kreativlik inglizcha "create" dan olingan bo'lib, yaratish ma'nosini bildiradi. Kreativlik deganda insonning yangilik yaratish, muammolarni yechishga qaratilgan ijodiy qobiliyati tushuniladi. Uning tagzamidida originallik, amaliylik, noodatiylik va erkinlik yotadi. Shuningdek, kreativ fikrlash muayyan masala yuzasidan har tomonlama fikrlash, bir nuqtaga turli rakursdan yondashishni anglatadi.

Kreativlik shaxsni rivojlantiruvchi kategoriya sifatida inson tafakkuri, ma'naviyatining ajralmas qismi hisoblanadi, u shaxs ega bo'lgan bilimlarning ko'pqirrali ekanligida emas, balki yangi g'oyalarga intilish, o'rnatilgan stereotiplarni isloh qilish va o'zgartirishda, hayotiy muammolarni yechish jarayonida kutilmagan va noodatiy qarorlar chiqarishda namoyon bo'ladi. Ya'ni, berilgan bilimlarni takrorlash orqali kreativlikka erishib bo'lmaydi, ijodiy fikrlash jarayonida yangi fikr, yangi g'oyaning paydo bo'lishi asosiy shartdir. Masalan, ingliz tilida so'zlarni yodlab, grammatika qoidalarini "suv qilib ichib yuborgan" bo'lsangiz ham, insho yozolmasangiz, barchasi bekor. Shuning uchun kreativ fikrlash jarayonida tasavvur muhim rol o'ynaydi. Albert Eynshteyn "Tasavvur — bilimdan muhim" deganida aynan mana shu jihatni

nazarda tutgan. Ko‘pincha noodatij fikrlar, yechimlar kutilmaganda inson xayoliga keladi. Buning uchun, avvalo, fikrlash jarayonidagi bir xillikka, odatiylikka barham berilishi lozim.

#### ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Kichik yong‘oq daraxti |Mat|: / Hasanova Sabohat Komil qizi. “Kitob Nashr”. 2024-yil. 105-b.
2. Hasanova Sabohat Komil qizi. “O‘qish savodxonligi darslarida PIRLS hikoyalarini qo‘llash metodikasi” “integrational conference on interdisciplinary science”, 2024.
3. Hasanova Sabohat Komil qizi. “Ona tili va o‘qish savodxonligi darslarida PIRLS xalqaro baholash dasturini takomillashtirish”. Zamonaviy Boshlang‘ich ta’lim: innovatsiyalar, muammolar va rivojlantirish istiqbollari. Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya, 2023.
4. “Mechanisms for using the new textbooks in the planning of pearls assignments”. Hasanova

daughter of Sabohat Kamil 24th - International Conference on Research in Humanities, Applied Sciences and Education Hosted from Berlin, Germany <https://conferencea.org> April 27th 2024.

5. “Methodology of using new textbooks in organizing pearls tasks (as an example from natural science)”. Hasanova Sabohat. International Conference on Advance Research in Humanities, Sciences and Education <https://conferencea.org> Hosted from London, The UK March 30th 2024
6. O‘qish savodxonligi darslarida PIRLS hikoyalarini qo‘llash metodikasi. International conference on interdisciplinary science Volume 01, Issue 02, 2024 USA-2024. Hasanova Sabohat Komil qizi.
7. PIRLS tadqiqotlariga tayyorlov jarayonida interfaol metodlardan foydalanish. For participation in the scientific-online conference “International conference on medicine, science and education” with an article entitled 26.03.2024. Hasanova Sabohat Komil qizi.





## BOLALAR TA'LIM-TARBIYASIDA VIRTUALLIK VA VIRTUAL REALLIKNING TA'SIRI

*Muhammadiyev Husan Hamroqulovich, Toshkent axborot texnologiyalari universiteti Samarqand filiali katta o'qituvchi*

## INFLUENCE OF VIRTUALITY AND VIRTUAL REALITY IN CHILDREN'S EDUCATION

*Muhammadiev Husan Hamroqulovich, Senior Lecturer of Samarkand Branch of Tashkent University of Information Technologies*

## ВЛИЯНИЕ ВИРТУАЛЬНОСТИ И ВИРТУАЛЬНОЙ РЕАЛЬНОСТИ В ОБРАЗОВАНИИ ДЕТЕЙ

*Мухаммадиев Хусан Хамрокулович, старший преподаватель Самаркандского филиала Ташкентского университета информационных технологий*



<https://orcid.org/0009-0001-6876-3248>

*e-mail:*  
[muhammadiyevh3@gmail.com](mailto:muhammadiyevh3@gmail.com)

**Annotatsiya:** Insoniyat tarixiga nazar tashlaydigan bo'lsak, har bir davrda bola ta'lim-tarbiyasi ustuvor vazifa bo'lib kelgan. Hozirgi axborot texnologiyalari va internetning shiddat bilan rivojlanishi virtual reallik shakllanishiga olib keldi, hamda bu reallikning bolalar dunyoqarashiga, ta'lim-tarbiyasiga ta'siri ham ijobiy, ham salbiy jihatdan o'zini namoyon qilmoqda. Bu ta'sirlar o'z navbatida, ta'lim tizimidagi fanlardan bolalarga chuqur bilim berib, uning fikrlash doirasini shakllantirishga yo'naltirish kerakligini ko'rsatmoqda.

**Kalit so'zlar:** internet, kompyuter, virtual reallik, virtual o'yin, tarbiya, bilim, dunyoqarash, ijtimoiy fanlar, jamiyat, hayot, ota-ona.

**Аннотация:** В каждую эпоху истории человечества приоритетом было образование детей. С развитием современных информационных технологий и интернета возникла виртуальная реальность, оказывающая как положительное, так и отрицательное воздействие на восприятие и образование детей. Эти эффекты подчеркивают важность глубоких знаний по предметам образовательной программы и развитие критического мышления у детей.

**Ключевые слова:** интернет, компьютер, виртуальная реальность, виртуальная игра, образование, знания, мировоззрение, социальные науки, общество, жизнь, родители.

**Abstract:** In every era of human history, children's education has been a priority. With the development of modern information technology and the Internet, virtual reality has emerged, which has both positive and negative effects on the perception and education of children. These effects highlight the importance of deep knowledge of curriculum subjects and the development of critical thinking in children.

**Key words:** internet, computer, virtual reality, virtual game, education, knowledge, worldview, social sciences, society, life, parents.

**KIRISH.** Hozirda kompyuter texnologiyasi va boshqa sun'iy texnik qurilmalar, hamda, internet orqali turli virtual jarayonlar va obyektlarni yaratish va ular bilan ishlash bolalar faoliyatiga yangi mazmun beradi, hayot tarzini o'zgartirishi mumkin bo'lgan xilma-xil ehtiyojlarni hosil qiladi, ularni qondiradi. Ammo kompyuter va internetdagi virtual olam bolalarga ijobiy imkoniyatlar berish bilan birga o'zining salbiy oqibatlarini ham ko'rsatmoqda. Bu esa o'z navbatida falsafiy tahlilga muhtoj bo'lgan ijtimoiy muammolarni keltirib chiqaradi. Ayniqsa, pedagog, psixolog va sotsiologlar bolalarni internetdagi onlayn roli o'yinlariga butunlay bog'lanib qolishlaridan, ludomanlarning (ludus – o'yin) soatlab, kunlab virtual dunyoda qolib ketishayotganidan tashvishga tushmoqdalar. Internet bilan do'st tutingan bolalarda o'z-o'zidan atrofidagi kishilar bilan muloqot qilishga bo'lgan ehtiyoj kamayadi, ruhiyatida o'zgarish sodir bo'ladi. U o'zini kuchli va go'zal, hamma narsaga qodirdek his qilish holatlarini kuzatmoqdamiz.

Mana shunday masalalarni hal qilishda maktab ta'lim tizimida ijtimoiy-gumanitar fanlarni chuqur o'rgatib bolalarni g'oyaviy jihatdan tarbiyalab internet va kompyuterdan unimli foydalanish malakasini oshirish muhim ahamiyat kasb etadi. Bu fanlar bolalar e'tiqodi va dunyoqarashini shakllantiradigan fanlar sohasidir [1]. Shu bois, ijtimoiy-gumanitar fanlardan ta'lim beradigan o'qituvchidan zarur umumkasbiy sifatlardan tashqari, fanning mazmuni, an'analari hamda hozirgi yangi ijtimoiy va gnoseologik funksiyalariga to'g'ri keladigan (tolerantlik, hurfiylik, hamkorlik pedagogikasi, informatsion va innovatsion texnologiyalar tavsiyalariga tayanish va boshqa) fazilatlariga ega bo'lish talab qilinadi.

**ADABIYOTLAR TAHLILI VA METOD.** Kompyuter va internet olamidagi virtual reallikning bolalar ongiga ta'sirini ijobiy tomonga shakllantirishda maktab ta'lim dusturiga ijtimoiy fanlarni o'quv predmeti sifatida o'qitish metodikasi kiritilgan. Ijtimoiy-gumanitar fanlar bolalarni ma'naviy va g'oyaviy jihatdan qurollantirish

imkoniyatini beradigan muhim nazariy-uslubiy ta'lim sohasidir.

Hozirgi axborot texnologiyalari asrida bolalar tarbiyasiga virtual reallik kuchli ta'sir o'tkazmoqda. Shu yerda virtuallikning qisqacha tarixiga nazar tashlab o'tsak. Virtuallik tushunchasi lotinchadan olingan bo'lib, "virtus" – "faraziy", "xayoliy" degan ma'nolarni anglatadi. G'arbiy Rim madaniyatida "virtus" so'zini to'rt ma'noda tushunishgan: birinchidan, bu axloqiy qadriyat, yaxshilik, (masalan, ingliz tilida "virtus" – yaxshi fazilat degani); ikkinchidan, bu qandaydir aktual, mavjud, hamda ta'sir etuvchi reallik; uchinchidan qandaydir artefakt; to'rtinchidan, virtuallik ko'proq xayoliy, faraziy, potentsiallik, noreallik kabilarga sinonim [2].

Umuman olganda virtual reallikni quyidagicha ta'riflash mumkin: virtual reallik – bu reallikning bir turi bo'lib, real hodisalar, jarayonlar va voqealar asosida hosil bo'lgan yoki vujudga keltirilgan noborliqdan borliqqa o'tishni belgilaydigan, moyillik, oraliq holat, potentsiallik, imkoniyat, model kabi xossalarda namoyon bo'ladigan, oldingi va keyingi konstant realliklarni bog'lovchi holatni bildiradi. Virtual reallik tushunchasi hozirda ko'plab sohalarda qo'llanilmoqda. Biz asosan kompyuter va internet olamidagi virtual reallikning bolalar ongiga salbiy va ijobiy ta'siri masalasiga ijtimoiy-falsafiy jihatdan yondashib yoritamiz.

**MUHOKAMA.** Internetdagi virtual reallikni hosil qilish monitor, multimediyasi, modem va boshqa artefaktlardan tashkil topgan kompyuter texnologiyasi orqali amalga oshiriladi. Bu virtual reallikning o'ziga xos xususiyati shundaki, u inson tomonidan yaratilgan sun'iy makon va muhitdir, turli modellar va obrazlar fazosidir. Internetdagi virtual reallik muhitida ishlash yengil tarzda sodir bo'lib, o'yinga o'xshab ketadi, kompyuter va undan foydalanuvchining bir butunligi his etiladi. Natijada virtual obyektlarning ta'siri bolalar tomonidan xuddi "odatdagi" reallik kabi qabul qilinadi. Aynan virtual reallikning mana shunday interaktiv imkoniyatlari o'quvchi-bolalar uchun o'ta darajada ahamiyatli bo'lib borishiga olib kelmoqda. Internet

tizimdan foydalanish bir qator ijtimoiy-ma'naviy xarakterdagi muammolarni keltirib chiqardi.

Ayniqsa, pedagog, psixolog va sotsiologlar bolalarni internetdagi onlayn roli o'yinlariga butunlay bog'lanib qolishlaridan, ludomanlarning soatlab, kunlab virtual dunyoda qolib ketishayotganidan tashvishga tushmoqdalar.

Individning internetga mukkasidan ketishining dastlabki belgilari quyidagilar:

- uzoq vaqt tarmoq ichida bo'lish;
- internetdan hech qanday maqsadsiz foydalanish;
- virtual olam tufayli boshqa qiziqishlardan voz kechish;
- internetdan foydalana olmaganida kayfiyatning tushishi, jahldorlik kabi holatlarning kuzatilishida ko'rishimiz mumkin.

Vaqt o'tgani sayin bolalarga internet olamining ta'siri muammosi tobora chuqurlashib borayotgan bir paytda, global tarmoqning yashirin yoki nooshkora xavflariga faqatgina ta'siriga tushib qolishni emas, balki ekstremistik xarakterdagi sekta va turli xil uyushmalar saytlarining foydalanishga ochiqligi, virtual firibgarlikka keng yo'l qo'yilganlikni ham ko'rsatish mumkin [3]. Bolalarning qiziquvchan tabiati ularni yuqorida tilga olingan turdagi saytlarga yetaklashi, bu veb-sahifalarda ularning ruhiy yoki jismoniy sog'lig'iga xavf soluvchi ma'lumotlarni ko'rishiga olib kelishi mumkin. Elektron pochta manzillari orqali olingan xabarlar kuchli ruhiy ta'sir o'tkazib, bolalarni internet doirasida va undan tashqarida ham jinoyatga undashi hech gap emas. Bank yoki kredit kartochkasidagi hisob raqamlarni bilgan bolalar onlayn savdolarda qatnashish imkoni bilan birga oddiy o'yinchoqdan tortib to eng so'nggi rusumdagi mashina sotib olish imkoniyatiga ega degani. Bu narsa ularni virtual firibgarlarning nishoniga aylantiradi.

Hozirgi kunda nihoyatda murakkab, ayni paytda, bunyodkorlik ishlari bo'layotgan davrda maktab ta'lim tizimida ijtimoiy-gumanitar fanlarni

chuqur o'rgatish bolalarni g'oyaviy-mafkuraviy jihatdan tarbiyalab, ularning ma'naviy dunyoqarashini shakllantirishda muhim rol o'ynamoqda. Jamiyatda, fanda, ta'lim tizimida, o'quvchi va o'qituvchining ijtimoiy roli va salohiyatida ham katta o'zgarishlar, tub yangilanish sodir bo'lmoqda. Bu esa, ijtimoiy fanlarni o'qitish jarayoniga, mazmuni va strukturasi katta ta'sir ko'rsatadi.

Ijtimoiy-gumanitar fanlar bolalar e'tiqodi va dunyoqarashini shakllantiradigan fan sohasidir [4]. Shu bois, ijtimoiy-gumanitar fanlardan ta'lim beradigan o'qituvchidan zarur umumkasbiy sifatlardan tashqari, fanning mazmuni, an'analari hamda hozirgi yangi ijtimoiy va gnoseologik funksiyalariga to'g'ri keladigan (tolerantlik, hurfiylik, hamkorlik pedagogikasi, informatsion va innovatsion texnologiyalar tavsiyalariga tayanish va boshqa) fazilatlariga ega bo'lish talab qilinadi. Turli fanlardan olingan bilimlar hamda ular qanchalik aniq va asosli bo'lmasin, tabiat, jamiyat, inson borlig'i va mohiyatini tushunish, yuqori ma'naviyatli va malakali mutaxassis bo'lib yetishish uchun yetarli emas. Bu xislatlarga ega bo'lishda ijtimoiy-gumanitar fanlarning roli va ahamiyati beqiyosdir.

**NATIJALAR.** Ma'lumki, voqelikni bilish jarayonida hissiy qabullash va abstrakt tafakkur (mavhum) bir-biriga ta'sir qiladi va o'quvchining tasavvurlarini boyitib boradi. Olamni bilish hissiy qabullashdan boshlanadi, keyin obraz va tasavvurlar shaklida abstrakt (mavhum) tafakkurga o'tiladi. Hissiy-konkret obrazlar abstrakt tushuncha va umumlashtirish uchun asosdir. Bu yerda abstraktlik virtual holatni ifodalaydi. O'quvchilar bilimni shakllantirishda virtual reallik abstrakt tushunchalarni shakllantirishda namoyon bo'ladi [5]. Ta'lim esa, abstrakt tushunchalarda ifodalangan bilimni o'quvchi tomonidan o'zlashtirilishini bildiradi. Bunday holatda bilish, ayniqsa, ijtimoiy-gumanitar fanlarda, hissiy qabullashdan boshlanishi shart emas, bu yerda predmetni o'rganish nazariy tushunchalar mazmunini tushunish va tushuntirish orqali sodir bo'ladi. Bu esa, o'qituvchilarda ma'lum qiyinchilik tug'diradi. Ko'pincha, o'qituvchi

tomonidan biron-bir ijtimoiy mavzuni tushuntirganda ba'zi bir mavhum ma'noni o'quvchilar aniq-ravshan qabul qila olmasliklari mumkin. Mana shunday vaziyatda, ko'rgazmali qurol ta'lim jarayonini faollashtiradi, obraz va virtual modellarni shakllantiradi, hamda bir g'oyani konkretlashtirishga yordam beradi.

Pedagog va ruhshunoslarning ta'kidlashicha, ta'lim jarayonida hissiy-konkret obrazlar (virtual obraz), virtual modellar va tasavvurlar bo'lmasa tafakkurda harakat bo'lmaydi. Ta'limda ko'rgazmalilik mavhum fikrlash qobiliyatini o'stirishga olib keladigan konkret va abstraktlik o'rtasidagi aloqani ta'minlaydi. Bu esa, o'quvchi ongida virtuallik va reallik o'rtasida o'zaro bog'lanish mavjudligini ko'rsatib beradi. Biz asosan virtual ko'rgazmali qurollar asosida ijtimoiy-gumanitar fanlarni o'qitishda bolalar duyoqarashini shakllantirish haqida to'xtalamiz. Virtual ko'rgazmali qurol kompyuter texnologiyalari asosida vujudga keltiriladi va harakatlantiriladi. Virtual ko'rgazmali qurolni ta'lim jarayonida ishlatish o'qituvchiga katta yordam ko'rsatadi, uning darsini, ravshan, tushunarli qiladi, isbot va asoslashni kuchaytiradi, jarayonlar va hodisalarni keraklicha tezlatib, sekinlatish, orqaga qaytarish imkoniyatlarini beradi.

Virtual ko'rgazmali jarayonlarni ifodalashda asosan kompyuter va internet tarmog'idan foydalaniladi. Bularning ta'lim jarayoniga kirib kelishi ta'limga oid yangicha tushuchalarni shakllantirdi. Xususan, "virtual ta'lim", "virtual laboratoriya", "virtual kutubxona", "elektron darslik" va boshqalar shular jumlasidandir.

Auditoriyada turli virtual ko'rgazmalar asosida dars o'tishning asosiy maqsadi o'quvchida virtual oqimni tasavvur shaklida ko'rishni shakllantirish emas, balki bir vaqtda bo'ladigan har xil voqealar, tovush shakllarini emotsional his qilishni shakllantirib, nazariy tahlil darajasini kuchaytirishdir [6]. Bu doim insonning ichki ekraniga – o'quvchining keng qamrovli ongiga kelayotgan har xil informatsion jarayonlarni obrazli sintezlab yangi fikrlarni tug'diradi.

Virtual ko'rgazmali vositalar yordamida biron-bir ijtimoiy-hayotiy muammoni tahlillab analiz qilish o'quvchida shu masala yuzasidan bashorat qilish imkoniyatlarini yaratmoqda. Chunki virtual ko'rgazmali vositalar insonning oldin bo'lgan, hozir ko'rib o'tgan va kelajakda bo'ladigan har xil aniq vaziyatlarni virtual esga olib sintezlash jarayonigacha olib boradi. Bu yerda o'quvchi predmetlar haqidagi yaqqol ko'zga tashlanib turadigan obrazlarni mujassamlashtirib qolmasdan, balki obrazlarning ifodalanishi, vujudga kelishi, oldin uchratmagan yangi reallikni, yangi pedagogik sistemani, yangi qiyofalarni umumlashtirib ijodiy fikrini shakllantiradi.

**XULOSA.** Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, Zamonaviy texnologiyalarning tez sur'atlarda o'sishiga qaramay, ba'zan odamlar ulardan oqilona foydalanish qanday kechishi kerakligini to'liq anglab yetmaydi. Kompyuter va internetgacha bo'lgan davrda o'sib-ulg'aygan ko'plab ota-onalar va muallimlarning katta qismi, agar bola internetdan foydalana boshlasa, buning, albatta, foydasidan zarari ko'proq deb o'ylaydi. Bolani kompyuter yoki internetdan chalg'itish harakati zamirida, aslida, boshqa bir muammo, ya'ni kattalarning bu masalada nisbatan savodsiz ekani aniqlandi. Biroq, agar ular o'zlari avval texnologiyalar savodsizligi masalasiga jiddiyroq yondashib, buni bartaraf etishsa, maqsadga muvofiq bo'lardi. Negaki, savodsizlik masalasidan qochish orqali bolani texnologiyalardan ajratib qo'yish to'g'ri emas. Boz ustiga, yana bir jihat e'tiborga loyiq: aynan kattalarning tutgan yo'lidan kelib chiqqan holda bolalarda kibernetik do'stiga nisbatan munosabat shakllanadi. Shubhasiz, internet bilim va kerakli axborotni olish uchun ulkan imkoniyatlar yaratadi, biroq tarmoqqa joylashtiriladigan katta hajmdagi axborotning barchasini ham ishonchli va foydali deb bo'lmaydi. Foydalanuvchilar ma'lumotlarning to'g'riligini aniq ajrata bilishi uchun tanqidiy fikrlash qobiliyatiga ega bo'lishi talab etilarkan, bu jihat "Internetda bo'lsa, demak, to'g'ri", – deya fikrlaydigan bolalarga ham tegishlidir. Bu borada ularga internetda xohlagan inson o'z sahifasini yaratishi, unga har qanday ma'lumotni joylashtirishi va bunda unga hech kim



toʻsqinlik qilolmasligini vaqtida tushuntirish zarur. Bolalarni keng doiradagi manbalardan foydalanishga yoʻnaltirish natijasida faktlardan fikrlardan farqlashga, toʻgʻriligi tasdiqlanmagan axborotdan himoyalashga oʻrgatish mumkin.

#### ADABIYOTLAR ROʻYXATI:

1. Salievich K. S. The paradigm challenge to reflexive sociology //Thematics Journal of Social Sciences. – 2022. – Т. 8. – №. 2.
2. Хаккулов Н.К., Ризаев И.И. Цифровая культура и неприкосновенность личности //Новые технологии в учебном процессе и производстве. – 2023. – С. 605-606.
3. Khotambekovna E.M. Systematic Analysis of Education //Journal of Pedagogical Inventions and Practices. – 2021. – Т. 3. – С. 31-35.
4. Тураев Б.О., Ризаев И.И. Особенности проявления искусственного интеллекта в бытии человека //Новые информационные технологии и системы (НИТиС-2022). – 2022. – С. 361-363.
5. Usmonov F. Ethics of responsibility and unity: the relationship of science, culture and spirituality in the conditions of modern development //Conferencea. – 2023. – С. 42-48.
6. Samatov X.U., Sh T.I. Abu Rayhon Beruniy maʼnaviy merosining yoshlar tarbiyasidagi oʻrni //Образование наука и инновационные идеи в мире. – 2024. – Т. 36. – №. 6. – С. 252-257.
7. Мардонов Р.С., Ризаев И.И. Проблемы в инновационном развитии (на примере Узбекистана) //Географические и экономические исследования в контексте устойчивого развития государства и региона. – 2022. – С. 244-246.
8. Muhamadiyev H. Virtuallik yangi falsafiy kategoriya sifatida //Fargʻona davlat universiteti. – 2023. – №. 3. – С. 74-74.
9. Kubayeva S. Language Games in cognitive processes: constructive-semantic approach //Conferencea. – 2023. – С. 156-159.
10. Yuldasheva D. Philosophical Aspects of Bioethics Problems in Modern Science //Open Access Repository. – 2023. – Т. 4. – №. 3. – С. 1362-1368.
11. Ризаев И. Chaos and order in the dynamics of the social system //Oʻzbekiston Milliy universiteti xabarлари. – 2022. – Т. 1. – №. 7.
12. Nasirdinovich U.F., Rakhmatullaevna U.L. History and contemporary social and moral approach to rationalism //Web of Scientist: International Scientific Research Journal. – 2022. – Т. 3. – №. 5. – С. 1796-1801.
13. Kubayeva S. Intellectual Games: Stimulating the Development of The Human Mind //International Journal of Scientific Trends. – 2023. – Т. 2. – №. 12. – С. 74-78.
14. Muminova Z. O. Objective and subjective factors that forms humans moral being //Theoretical and applied science. Philadelphia, USA. – 2016. – Т. 2.
15. Тураев Б.О., Ризаев И.И. Философия искусственного интеллекта: возможности человеческого познания //Цифровая трансформация образования: современное состояние и перспективы. – 2022. – С. 194-196.



## DEHQONCHILIK MASHG'ULOTLARIDA QADIMIY DINIY E'TIQODLAR VA MAROSIMLAR

*Ergashov Isroil Abdumalik o'g'li, Termiz davlat universiteti Tarix  
fakulteti o'qituvchisi*

## ANCIENT RELIGIOUS BELIEFS AND CEREMONIES IN AGRICULTURAL ACTIVITIES

*Ergashov Isroil Abdumalik ogli, a teacher at the Faculty of History of  
Termiz State University*

## ДРЕВНИЕ РЕЛИГИОЗНЫЕ ВЕРОВАНИЯ И ЦЕРЕМОНИИ В СЕЛЬСКОХОЗЯЙСТВЕННОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ

*Эргашов Исроил Абдумалик оглы, преподаватель исторического  
факультета Термезского государственного университета*

**Annotatsiya:** Yer yuzida insoniyat paydo bo'lganidan buyon qattiq mashaqqatlar va qiynchiliklarni boshidan kechirdi, tirik qolish maqsadida dastlab termachilik va ovchilik bilan shug'ullanishdi. Odamlarning ko'payib borishi natijasida oziq-ovqatga bo'lgan tanqislik va ehtiyoj termachilik va ovchilik asos bo'lgan ziroatchilik, dehqonchilik hamda chorvachilikning paydo bo'lishiga zamin yaratdi.

**Kalit so'zlar:** fenologiya, diniy, mifologiya, udumlar, tabiat, urfodat, animizm, baliq (hut) burji, qo'y (hamal) burji, chorvador, omoch.

**Abstract:** Since the beginning of the human race on earth, they have experienced severe hardships and hardships, and in order to survive, they first engaged in leather breeding and hunting. As a result of the increase in the number of people, the lack of food and the need for food created the basis for the emergence of agriculture, farming and animal husbandry based on hunting and gathering.

**Key words:** phenology, religion, mythology, Udums, nature, tradition, animism, fish (hut) zodiac sign, sheep (hamal) zodiac sign, herdsman, plow.

**Аннотация:** С момента возникновения человеческого рода на земле они пережили тяжелые лишения и чтобы выжить, сначала занялись кожевенным животноводством и охотой. В результате увеличения численности населения, нехватки продовольствия и потребности в пище создали основу для возникновения земледелия и животноводства, основанных на охоте и собирательстве.

**Ключевые слова:** фенология, религия, мифология, удумы, природа, традиция, анимизм, знак зодиака рыба (хижина), знак зодиака овца (хамал), пастух, плуг.

**Kirish.** Insoniyat sivilizatsiyasining qadimgi markazlari shakllanishi va taraqqiyotida dehqonchilik madaniyati muhim rol o'ynagandir. Shu o'rinda ta'kidlash joizki, Sharq sivilizatsiyasida dehqonchilik madaniyati rivoji sug'orma dehqonchilikka asoslanganligi bilan ajralib turadi. Tarixiy tadqiqotlardan ma'lumki, qadimgi Misr va

Mesopotamiyada miloddan avvalgi VII; Hindiston, Eron va O'rta Osiyoning janubiy mintaqalarida esa, miloddan avvalgi VI ming yillikdan boshlab insoniyat ilk dehqonchilik va hunarmandchilik bilan shug'ullana boshlagan.

**Adabiyotlar tahlili.** Tabiat oldidagi qadimgi odamlarning oqizligi va tabiat injiqliklari



[https://orcid.org/  
0009-0004-5377-  
2343](https://orcid.org/0009-0004-5377-2343)

**e-mail:**  
[isroil.ergashov.94  
@mail.ru](mailto:isroil.ergashov.94@mail.ru)

tufayli diniy va mifologik e'tiqodlar va marosimlar paydo bo'lgan. Bu soha bo'yicha sovet va mustaqillik davrida ko'plab tarixiy adabiyotlar va monografiyalar yaratildi. Jumladan, o'zbek xalqi turmushida saqlanib qolingan qadimiy e'tiqodlar haqida ilmiy izlanishlar olib borgan A.Ashirov[1], G.Snesarevlarni [4] aytishimiz mumkin. O'zbekiston xalqining an'anaviy dehqonchiligi va urf-odatlar haqidagi ma'lumotlarni K.Shoniyozov[5], F.Rahmonov [6] va M.Jo'rayevlarning monografiya va maqolalarida uchratishimiz mumkin.

**MUHOKAMA.** Insoniyat dastlab chorvachilikni yo'lga qo'ygan, ya'ni odam tabiat in'omlarini o'zlashtirib ko'rmasdan, o'zi ham yaratuvchilik faoliyatini boshlay olmas edi. O'rta Osiyo zaminidagi eng qadimgi ziroatchilik madaniyati "Joytun madaniyati" bo'lib, u miloddan avvalgi VI—V ming yilliklarda shakllanganidir[1].

O'rta Osiyoda ziroatchilik qadim zamonlardan oq kurtak yoza boshlagan. Astasekinlik bilan o'ziga xos ziroatchilik madaniyati va bilimlari shakllana boshlagan. O'zbekiston hududidagi ziroatchilik madaniyatining tarixi, sug'orma dehqonchilik shakllanishi va rivojlanish bosqichlari hamda u bilan bog'liq bo'lgan urbanistik jarayonlar doimo dolzarb muammolardan biri hisoblanib kelgandir.

Agrar kultlar borasida jahon tarixi fanida boy tajriba to'plangan. Bunga misol tariqasida nemis folklorshunosi V.Mannxardt ilk bora dehqonchilik bilan bog'liq, turli afsonalar va obrazlarda o'simliklar olamining jonlanishi sirlarining namoyon bo'lishi muammosini ilgari surgan. V.Mannxardtning ta'kidlashicha, marosimlar va kultlar asosida inson tabiatdagi o'zga mavjudotlar singari o'simliklarda yashashi mumkin deb hisoblaydi. O'z navbatida shuni ham qayd etish lozimki, dehqonchilik – o'zbeklarning qadimgi mashg'ulotlaridan biri hisoblangan. Asrlar davomida tajriba va usullar, nozik fenologik kuzatishlar asosida o'ziga xos dehqonchilik an'ana va marosimlari shakllanib kelgan.

O'rta Osiyoning boshqa xalqlari qatori Surxon vohasi o'zbeklari an'anaviy dehqonchiligi ham sharq xalqlarining taqvimini asosida olib borilgan. Bahordagi dala ishlari,

mahalliy taqvimga ko'ra, yangi yil – quyoshning baliq (hut) burjidan qo'y (hamal) yulduzlar turkumiga o'tgan vaqtdan boshlangan. Hozirgi amaldagi oy kalendari bo'yicha bu 21-martdan boshlanib, 21-aprelgacha bo'lgan davrni o'z ichiga olgan. Boshqaqachasiga aytganda, dastlabki dehqonchilik yumushlari Navro'z tantanalari bilan bir paytga kelib boshlangan. Navro'z ayyomi dehqonlarning faoliyatida muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Chunki yuqorida ta'kidlanganidek, aynan shu kunlarda ekin ekish, dala, bog' yumushlariga kirshilgan. Dehqonlar, bog'bonlar va chorvadorlar ayozli kunlardan eson-omon chiqib olib, bahorning iliq kunlarini intiqlik bilan kutib, katta dehqonchilik ishlariga jiddiy tayyorgarlik ko'radilar. Omoch-bo'yinturuq, molalarni sozlab, taxt qilganlar, otlar sovutilgan, aravalar tuzatilib ishga yaroqdi holga keltirib qo'yilgan. Asosiy ishchi kuchi hisoblangan ho'kizlar yaxshi parvarishlanib, ular yer haydashga olib chiqilar edi. Shu boisdan ham o'rta asrlarda Buxoroda bu dehqonchilik bayrami "Navro'zi kishavarzon" — "dehqonlar bayrami" deb nomlangan ekan[2]. Zahmatkash dehqonlar aynan ushbu kun dalaga qo'sh chiqarib, yerga dastlabki urug'ni qadashar ekan. Surxon vohasi o'zbeklarida bahorda yer haydashni shanba kuni boshlash lozim deb hisoblaganlar. Qashqadaryo o'zbeklari orasida esa hosil barakali bo'lishi uchun dushanba va chorshanba kunlari yer haydab ekin ekishni xayrli amal hisoblaganlar. Boshqa kunlari yer haydash xosiyatsiz deb hisoblangani bois haftaning boshqa kunlari ushbu faoliyat taqiqlangan. Yer kunduz kuni bo'lsa shimolga, kechasi esa janubga qarab haydalgan.

XX asrda an'anaviy dehqonchilik mashg'uloti zamonaviy texnika taraqqiyoti bilan uyg'unlashgan davrda ham bahorgi dehqonchilik yumushlarini boshlashdan avval marosimiy qurbonlik qilish odatini saqlab qolgan va hatto bugunga qadar davom etib kelmoqda. Jumladan, Surxondaryo viloyati Sho'rchi tumani Hurlik qishlog'ida bahorgi dala ishlarini boshlashdan avval fermerlar uyushmasidagi traktorchilar mashinatraktor parkida to'planib Piri Dovudga bag'ishlab xo'roz so'yib qurbonlik qiladilar. Bu, birinchidan, bahorgi dala yumushlarini boshlashdan avvalgi qurbonlik bo'lsa, ikkinchidan, traktorchilarning

marosimiy qurbonlik qilishlari temirchilik piri hisoblanuvchi Hazrati Dovudga bo'lgan ehtiromlari ramzidir.

O'rta Osiyo xalqlarining islomgacha bo'lgan dinlarida muhim ahamiyatga ega bo'lgan dehqonchilik kultlari juda tez unutilib ketgan. Buning sababi, ular rasmiy kultlar hisoblanib, bir guruh kohinlar tasarrufida bo'lgan va islom kirib kelgan damlardan boshlab kohinlikning yo'q qilinishi bilan birga ushbu kultlar ham unutilgan. Lekin bu kultlar rasman butkul kundalik hayotdan chiqib ketgan bo'lsa-da, xalq orasida ular bilan bog'liq alohida an'analar, inonchlar va marosimlar saqlanib qolgan.

Vohaning ko'plab hududlarida bahoriy ishlar oldidan masjid yoki mozarlar yaqinida "xudoyi ehson" qilinadi. Oltinsoy tumani dehqonlarining Surxondaryo viloyatidagi mashhur So'fi Olloyor ziyoratgohida, Sherobod tumanidagilarning Sulaymon ota ziyoratgohida xudoyi-ehson o'tkazish an'anasi hozirga qadar saqlanib qolgan. Mazkur marosim ko'pincha mart oyi boshlarida keksa dehqonlar, oqsoqollar boshchiligida o'tkaziladigan bo'lgan. Avvallari har bir xonadondan bug'doy va oziq-ovqat mahsulotlari to'plangan bo'lsa, keyingi vaqtlarda ma'lum miqdorda mablag' ham qo'shib yig'moqdalar. To'plangan pulga bozordan buzoq yoki qo'y sotib olishib, qurbonlik uchun so'yiladi. Taom tayyorlangunga qadar qishloq erkaklari tomonidan uch-to'rt guruhga bo'linib, qishloq ariqlari tozalangan va bahorgi shudgor oldidan "is chiqarish" marosimini o'tkazishadi. Har bir oilada ayollar bo'g'irsoq, suzma pishirishadilar.

Umuman, o'zbek va tojik dehqonlari orasida bahorda dastlabki yerni haydovdan oldin ho'kizlar shoxlari va bo'yinturug'ini yog' bilan moylash odati keng tarqalgan. Qashqadaryodagi o'zbek mang'itlari orasida bahorda dastlabki yerga ekin ekishda "Hazrati odamning haqqiga" deb ho'kizlarning shoxi moylangan. Bu marosim Surxondaryodagi o'zbeklar orasida ham o'tkazilgan va "Shox moylar" deb nomlangan. Axborotchilarning ma'lumotlariga ko'ra, ho'kizlar shoxlarini "is" yog'i bilan moylash bilan birga dalaga olib chiqilayotgan ho'kizlarni yomon ko'zdan asrasin, degan niyatda ularga tumor taqish

odati ham bo'lgan. Keksalarning ta'kidlashlaricha, ushbu marosimda shoxlari moylanib, baquvvat bo'lgan ho'kiz yil bo'yi hormay-tolmay ishlasin, degan maqsadda amalga oshirilgan.

Sho'rchi tumanidagi Joyilma, Boysun tumanidagi Machay, Oltinsoy tumanidagi Zardaquo'l, Chinor, Denov tumanidagi Sina, Debola qishloqlarida avvallari dalaga dastlabki qo'sh chiqarilayotganda dehqonlar yangi liboslarini kiyib, ushbu kunni to'kin-sochinlik va shod-u xurramlikda o'tkazganlar. Udumga binoan birinchi qo'shni qishloqning yoshi ulug' kishilaridan biri boshlab bergan. Axborotchilarning ta'kidlashlaricha, ushbu kunning bunday tantana bilan o'tkazilishi birinchi kun magiyasiga aloqador emish. Birinchi kun magiyasiga ko'ra, biror-bir faoliyat yoki yilning boshlanishi qanday boshlansa, o'sha faoliyat yil nihoyasiga qadar ana shunday ruhda davom etadi, degan tasavvur hukmronlik qiladi deb hisoblashgan. Qolaversa, keksa yoshli, bola-chaqasi, nevarachevarasi ko'p pir-u badavlat, ishi doimo oldinga ketadigan tadbirkor, obro'li kishining birinchi qo'shni haydab berish odati uning xo'jalik yuritishdagi boy tajribasi bilangina bog'liq bo'lmagan. Bu o'rinda uzoq umr ko'rgan, serfarzandligi yetishtiriladigan hosilga o'tadi deb niyat qilingan [3]. Dehqonlarning birinchi marta yer haydash uchun qo'sh va ho'kizlarni ham maxsus tayyorlash odati ma'lum ma'noda qadimgi agrar urf-odat va marosimlar bilan bog'liqdir. O'rta Osiyoda qadimda ho'kiz serpushtlik ramzi hisoblangan va shu bois yerni omoch bilan haydash orqali uning g'ayritabiiy xususiyati yerga va yetishtiriladigan hosilga o'tishi mumkin deb hisoblashgan.

Mashhur etnograf olim G.P.Snesarevning qayd etishicha, Xorazm viloyatining Hazorasp tumanida istiqomat qiluvchi dehqonlar dalaga bug'doy bilan birga bir hovuch jiyda sochadilar[4]. Chunki jiyda baraka va serhosillik timsoli sifatida qaralar ekan.

Umuman olganda, "Qo'sh chiqarish", "Shox moylar", "Qo'sh oshi" nomlari bilan ataluvchi marosimlar dehqonlarning yil boshidagi birinchi ish kuni bo'lganligi sababli uni imkoni boricha shod-u xurramlik bilan kutib olishga harakat qilinar ekan.



Birinchi qo'sh marosimi bilan bog'liq, arxaik inonchlarning asl ko'rinishlari bugunga kelib asosan unutilib ketgan.

Yuqoridagi fikrlarni tasdiqlagan holda shuni ta'kidlab aytishimiz mumkin, ajdodlarimiz qadimdan dehqonchilikda afsonaviy tabiat kultini antropomorf shaklda tasavvur qilganlar va uni o'zlarining mifologik homiysi deb bilganlar. Keyinchalik mazkur kultga bo'lgan e'tiborning o'zgarishi natijasida unutila boshlangan va aynan dehqonchilik bilan bog'liq ayrim urf-odatlaridagina qoldiq ko'rinishi tarzida saqlanib qolganligini ko'ramiz.

Surxon vohasi Qo'ng'iro't va Juzlari orasida yerga dastlabki urug'ni sochishdan avval duoyi fотиha qilingan va keksa dehqon qo'lidan donga uch marta kuf-suf qilinib dam solgan holda yerga sochishgan. Dehqonlar birinchi urug'ni sochishda doimo qurt-qumursqalar haqi deb sochganlar. Dehqonchilikka oid risolada yozilishicha: "Garchi dehqonlarning gunohlari qum barxanlariday bo'lsa-da, qushlar ularning barcha gunohlari uchun istig'for keltirib turadilar", deb hisoblaganlar. Mashhur elshunos olim K.Shoniyozov bu odatni qadimiy diniy tasavvurlar bilan bog'liq bo'lsa kerak, deb talqin qilgan[5].

Voha o'zbeklari har bir dehqonchilik ishini boshlashdan oldin "Dehqonotabobo" va "Bog'bonotabobo" larning haqqiga bittadan jonliq so'yib yoki hech bo'lmaganda osh (palov) qilinib duoyi fотиha qilib, qur'on tilovat qilishgan. Undan keyingina maqsad qilingan dehqonchilik yoki bog'dorchilik ishi boshlangan.

Dehqonchilik bilan bog'liq an'analar va marosimlar tizimida yozgi, ayniqsa, bug'doy o'rini bilan bog'liq marosimlar o'ziga xos udumlarga boyligi hamda ko'plab qadimiy e'tiqodlarga daxldor holda o'tkazilishi bilan farqlanib turganligini ko'rishimiz mumkin. Aynan mazkur davrda o'tkazilgan marosimlardan biri "xayri xudoyi" bo'lib, u o'rim boshlanishidan oldin o'tkazilar ekan. Elshunos olim F.Raxmonovning yozishicha, Qashqadaryo o'zbeklarida xayri xudoyini boshlashdan avval 3, 5, 7 ta suzma pishirilib, is chiqarilishi kerak. Uy egasi yoki paykal a'zolari jonliq so'yib qon chiqarganlar. Xayri xudoyida hasharchilar, din peshvolari va keksalar ishtirok

etganlar. Taom iste'mol qilib bo'lingach, qishloq mullasi Qur'ondan oyatlar o'qib, Xudodan, Bobo dehqondan, So'fi Olloyordan, avliyo va anbiyolardan donning mo'l bo'lishini, xirmonning barakasini so'rashgan[6]. Oqsoqollar xayri xudoyi kunida o'rim uchun omadli, fayzli kunni belgilar ekanlar. O'rimga (hasharga) nopok deb hisoblangan kishilar chaqirilmagan. Xirmon o'rimida hasharchilar yerdagi har bir boshhoqqacha tozalab terib olishga harakat qilishgan, sababi yoshi ulug' kishilar tomonidan yerdagi bitta boshhoq bu nonning bir bo'lagi, nonni esa isrof qilib bo'lmaydi, deya o'qitilgan.

**XULOSA.** Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, o'zbek xalqi turmushida ko'plab arxaik diniy tasavvurlar va marosimlar saqlanib qolgan. Ba'zilari esa tashqi omil ta'sirida foydalanilmasdan unutilib ketgan. Ayrim hollarda qadimgi e'tiqodiy urf-odatlarining islomiy e'tiqodlar bilan aralashib ketganini ko'rishimiz mumkin. Umuman olganda bu marosim va urf-odatlarining barchasi xalqimizning dehqonchilik va bog'dorchilikning hosildorligini, hamda chorvachilikning barakasini oshirishda, mahsulotlarni turli xildagi balo va qazolardan saqlashda katta xizmat qilgan.

#### **ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. A.Ashirov. O'zbek xalqining qadimiy e'tiqod va marosimaari. Toshkent — 2007. 127-b.
2. Dala yozuvlari. Oltinsoy tumani To'xtamish, Vaxshivor, Obishir qishloqlari. 2024-yil.
3. Dala yozuvlari. Oltinsoy tumani Zarda'qo'l, Chinor qishloqlari. 2024-yil.
4. Снесарев Г.П. Реликты домусульманских верований и обрядов у узбеков Хорезма. С-126.
5. Шаниязов К. К этнической истории узбекского народа. С 174.
6. Рахманов F. Qashqadaryo vohasi an'anaviy ziroatchilik marosimlari. Tarix fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya qo'lyozmasi.
7. Jo'rayev M. "O'zbek xalq agrar marosimlari tizimida "shox moylar" yoki "birinchi qo'sh" udumi. Uzbekiston hududida dehqonchilik madaniyatining tarixiy ildizlari va zamonaviy jarayonlar. T, 2006.
8. <https://ziyonet.uz/ru>.

## INNOVATION TAFAKKUR VA KREATIV QOBILIYATLARINI SHAKLLANTIRISH

*Musayev Umidjon Saidkamolovich, Ma'mun universiteti  
"Falsafa" kafedrasi dotsenti, f.f.d., (PhD)*

## FORMATION OF INNOVATIVE THINKING AND CREATIVE ABILITIES

*Musayev Umidjon Saidkamolovich, Mamun University  
"Philosophy" associate professor of the department, f.f.d., (PhD)*

## ФОРМИРОВАНИЕ ИННОВАЦИОННОГО МЫШЛЕНИЯ И ТВОРЧЕСКИХ СПОСОБНОСТЕЙ

*Мусаев Умиджон Саидкамоллович, доцент кафедры  
"Философия" университета Мамуна, д.ф.н., (PhD)*



[https://orcid.org/  
0009-0000-3398-8674](https://orcid.org/0009-0000-3398-8674)

*e-mail:*  
*musayev.umidjon92@  
mail.ru*

**Annotatsiya:** Maqolada kreativ, ijodiy va innovatsion fikrlashni shakllantirishning mexanizmlarini ochib berishga kreativ va innovatsion uslublardagi yondashuvlar tahlil etilgan. Mamlakat ertasi hisoblangan yoshlarni kreativ va innovatsion fikray olishga o'rgata olsak, bu bora-bora o'z mevasini albatta beradi. Shu maqolada aynan innovatsiyalar, innovatsion fikrlash va kreativ tafakkurni shakllantirish haqidagi olimlarning fikr-mulohazalarini atroflicha tahlil qilib ochib berilgan.

**Kalit so'zlar:** ta'lim, o'qituvchi, o'quvchi, talaba, yoshlar, kreativ, innovatsiya, kreativ tafakkur, innovatsion tafakkur, innovatsion va kreativ qobiliyatlar.

**Abstract:** In the article, the mechanisms of formation of creative, creative and innovative thinking are analyzed by approaching them in creative and innovative ways. If we can teach the youth, who are considered the future of the country, to think creatively and innovatively, it will surely bear its fruits. In this article, the opinions of scientists about innovations, innovative thinking, and the formation of creative thinking are revealed through detailed analysis.

**Key words:** education, teacher, student, student, youth, creative, innovation, creative thinking, innovative thinking, innovative and creative abilities.

**Аннотация:** В статье анализируются механизмы формирования творческого, креативно-инновационного мышления на основе подхода креативно-инновационных методов. Если мы сможем научить молодежь, которую считают будущим страны, мыслить творчески и новаторски, это обязательно принесет свои плоды. В данной статье посредством детального анализа раскрываются мнения учёных об инновациях, инновационном мышлении, формировании творческого мышления.

**Ключевые слова:** образование, учитель, ученик, студент, молодежь, творчество, инновации, творческое мышление, инновационное мышление, инновационные и творческие навыки.

**KIRISH.** Hozirgi global jarayoni mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy salohiyatini belgilovchi omil bo'lib hisoblanadi. Ta'lim tizimida aniq yangiliklarni ishlab chiqish va ularni amaliyotga joriy etishni bugungi davr va zamon talab etmoqda.

Barcha yangiliklarga o'ta ehtiyotkorlik bilan yondashadigan, boy hayotiy tajribalar ruhida

tarbiyalangan, barqarorlikni yoqlaydigan keksa pedagoglarni ham tushunish mumkin. Bunday holatda "innovatsion jarayonlar ortidan quvish" bugungi kun hayotimizning ajralmas qismi hisoblanadi. Xohlaymizmi yoki yo'qmi bizning ta'lim muassasalarimiz o'rtasidagi raqobat tushunchasi mavhumligicha qolmoqda.

Ta'lim muassasalarining raqobatchilik qobiliyati shakllantirish va bozor munosabatlariga asoslanish, ta'lim sifatini oshirish orqali samaradorlikka erishish, kadrlar tayyorlashning zamon talablariga mos uslublarini qo'llash, talab va taklif fenomenini inobatga olishni taqozo etmoqda. Bugun barcha sohalarida raqobat va sifat birlamchi o'rinni egallab bormoqda. Bu esa, o'z navbatida, davlatning rivojlanish ko'rsatkichlariga o'z ta'sirini o'tkazib boraveradi.

Innovatsion ta'lim tizimini yuksaltirish, ya'ni ta'lim jarayoniga yangi istiqbolli g'oyalarni qo'llash uning ustuvor sharti bo'lib hisoblanadi. Shu o'rinda, ta'limga qo'yilgan maqsadga, mazmunga hamda tayyorlanayotgan kadrlarning bilim salohiyati va raqobatbardoshligiga bog'liq.

Shundan ko'rinib turibdiki, bizning ta'lim tizimimiz oldida turgan asosiy maqsad, "innovatsion insonni", "kreativ avlod"ni tarbiyalash, ta'lim-tarbiya jarayoni bo'ladimi, doimo innovatsiya va yangi bilimlarga moyil bo'lishi, o'z ustida tinmay mehnat qilishi kerak bo'lgan avlodni tarbiyalashdan iborat.

Umuman olganda, innovatsiya, innovatsion tafakkur va unga bog'liq masalalar hozirgi kunga kelib turli fanlarning doimiy diqqat markaziga ko'tarildi. Biron bir faoliyat sohasidami yoki turida, ilm-fandami yoki texnikada, inson ongi yoki tafakkurida yangilik vujudga kelsa, tabiiyki, o'z-o'zidan innovatsiya tushunchasi ham tilga olinadi. Innovatsiya, innovatsion tafakkur, innovatsiya fanlar, sohalar, faoliyatlar, texnika, hattoki inson ongi va tafakkuriga ham xos tushuncha hisoblanadi. Masalan, fanlarda ta'lim-tarbiya berishning yangi zamonaviy usul va vositalari misolida, sohalarida qo'llaniladigan terminlar va texnologiya, faoliyat turlarida inson ongida vujudga keladigan doimiy yangi fikr va mulohazalar misolida ko'rishimiz mumkin.

Innovatsiya nihoyatda jozibali va serqirra tushuncha. Uni ochib berish, mohiyat va funksional jihatdan tahlil qilish borasida hali-hanuzgacha aniq xulosaga kelingani yo'q.

**ADABIYOTLAR TAHLILI VA METOD.** Hozirgi globallashgan dunyoning rivojlangan mamlakatlarida texnik-texnologik yutuqlar va innovatsion yondashuvlar bilan belgilanadi. Ba'zi

adabiyotlar va olimlarning qarashlarida innovatsiyaga shunday ta'rif berilgan: "Innovatsiya deb yangi turdagi mahsulot va texnologiyalarni ishlab chiqish, yaratish va tarqatish, yangi tashkiliy shakllarni joriy etishga qaratilgan ijodiy faoliyat natijasi"[1; 80], - deya ta'riflanadi.

Innovatsiya tushunchasi fanga XX asrning birinchi choragida iqtisodiyot sohasi va fanining terminologik tushunchasi sifatida kirib kelgan. Innovatsiya tushunchasi ingliz tilidan tarjimasi "innovation"– kiritilgan yangilik, ixtiro, ya'ni, iqtisodiyotda ilm-fanda yoki boshqa sohalarida qo'llanilib kelinayotgan usul va uslublar, texnikalardan mutlaqo farq qiluvchi usul va uslublar, texnikalarni kiritish, ularni amalda qo'llash va qo'llab-quvvatlashdir. Buning yordamida sifat, miqdor va samaradorlikni oshirish orqali oldingi foydalanilib kelinayotgan vositalarni mutlaqo rad etish deymaydi. Agarda, shunday deb tushuniladigan bo'lsa, uning inkor etishi undan keyin yana yangidan kiritilishi va qo'llanilishi mumkin bo'lgan innovatsiyalarning ham uni inkor etishiga to'g'ri keladi. Bu esa, innovatsiyaning qonuniyatini buzib yuborib, xuddi jang maydoniga taqlid qilishdir.

Aslida qo'llanilayotgan innovatsiya oldindan qo'llanilib kelayotgan usul va vositalarni inkor etishi emas, balki, ularni ham yangilanishga undashi kerak bo'ladi. Iqtisodchi olim Aleksandr Busiginning ta'rif berishicha, innovatsiya – bu asosiy kapital yoki ishlab chiqarilayotgan mahsulotni ilm-fan, texnika va texnologiyalar yordamida yangilashdir[2; 328].

Ilm-fanga, ta'lim sohasiga nisbatan qo'llaydigan bo'lsak, ta'lim-tarbiya olayotgan yoshlarimizga nisbatan ishlatilganda, ularning bilimni oshirishda qo'llanilib kelayotgan usullardan voz kechish degani emas, aksincha, yangilarini qo'llash, yanada ko'proq yangi usul va vositalarni kiritish hamda ularni davomli ravishda qo'llashning shu yo'li orqali ta'lim olayotgan, yetishib chiqayotgan kadrlar salohiyatini yanada yuksaltirish, kadrlarning raqobatbardoshligini oshirish deganidir.

**MUHOKAMA.** Innovatsiya o'zi aslida, ilg'or texnika va texnologiya, boshqarish va boshqa sohalaridagi yangiliklar va ularning turli sohalarida qo'llanilishi[3; 212]. Shu o'rinda qayd etish

lozimki, jahon miqyosida 2008-2018-yillarda ilmiy-tadqiqot ishlarini investitsiyalash hajmlari rivojlangan davlatlar mexanizmiga qaraydigan bo'lsak, Xitoyda 3,8 barobarga, Koreya Respublikasida – 2,3 barobarga, Germaniya, Fransiya, Isroil kabi davlatlarda esa 1,5 barobardan ko'proqqa o'sgan"[4; 5]. Bu va dunyoning rivojlangan davlatlarining rivojlanishinig asosiy sababi ham barcha sohalar va ilm-fanga kiritilayotgan sarmoyaning mahsulidir.

Bu mamlakatlarda yangilik kiritish, yangi fikr, mulohazalar doimo diqqat markazida turadi. Innovatsiya – bu davr talabi va ehtiyoji hamdir. Bu haqda Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ta'бири bilan aytganda: “Bugun biz davlat va jamiyat hayotining barcha sohalarini tubdan yangilashga qaratilgan innovatsion rivojlanish yo'liga o'tmoqdamiz. Bu bejiz emas, albatta. Chunki zamon shiddat bilan rivojlanib borayotgan hozirgi davrda kim yutadi? Yangi fikr, yangi g'oyaga, innovatsiyaga tayangan davlat yutadi. Innovatsiya – bu kelajak degani. Biz buyuk kelajagimizni barpo etishni bugundan boshlaydigan bo'lsak, uni aynan innovatsion g'oyalar, innovatsion yondashuv asosida boshlashimiz kerak"[5], deya O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2017-yil Oliy Majlisga qilgan Murojaatnomasida alohida to'xtalib o'tilgan. Binobarin, Prezidentimiz fikriga ko'ra, jamiyatning barcha sohalarida tub islohotlarni amalga oshirish bilan jamiyatimiz insonlarining ham fikrlashini innovatsion tarzga o'tkazish va ularni ham shunday fikrlashga o'rgatishimiz kerak.

Bu vazifalarni amalga oshirish xalqimiz farovonligi yo'lida xizmat qiladigan yosh va shijoatli mutaxassislarni tayyorlashni talab etadi.

Ta'kidlash joizki, o'tgan davrlardan farqli o'laroq, yangi asrdagi oliy ta'lim muassasalarining topshiriqlari va vazifalari o'zgarib innovatsiyaga quyidagicha yondashuvlarni ko'rish mumkin:

- “ijtimoiy tovar” ekanligini e'tirof etish yetarli emas;

- oliy ta'lim muassasasi raqobatbardosh bo'lishi uchun u global bozor o'zgarishlariga monand ravishda tezkor va yetarli darajada innovatsiyani qo'llashi zarur;

- oliy ta'lim izolyatsiya emas, balki innovatsiya orqali yashovchan bo'ladi.

“Mamlakatimizda ilmiy va innovatsion faoliyatni rivojlantirish uchun avvalo yosh, iqtidorli kadrlar zarur”[6; 173]. Demak, ta'lim muassasalari, jumladan, oliy ta'lim professor-o'qituvchilari jamiyat va tabiatdagi bo'layotgan o'zgarishlarni, yangiliklarni vaqtida his etadigan hamda talabalarga yetkazadigan ustozlar bo'lmog'i lozim. Shu tufayli mamlakatimizda ta'lim tizimini modernizatsiyalashga yo'naltirilgan chora-tadbirlarni millat kelajagini yaratish va global kenglikdagi istiqbolini belgilashdir, deb e'tirof etsak bo'ladi.

Har qanday jarayonda innovatsiyani turli xil usul va vositalar yordamida qo'llash mumkin. Innovatsiyani qo'llash har bir sohada va shu bilan birgalikda ta'lim tizimida ham o'ziga xos qonun-qoidasi mavjud, har bir soha o'zidan kelib chiqib, qonun-qoidalar kiritishi mumkin.

Innovatsiya bu yangilanish va o'zgarish. Yuqordagilardan xulosa qilgan holda quyidagi qoidaviy mexanizmlarini e'tirof etish mumkin (qo'llanilayotgan innovatsiya uchun):

- qo'llanilayotgan innovatsiyada maqsadning ifodalanishi va natijadorligi mexanizmi;

- dars jarayoniga qiziqishini va ishtiyoqni uyg'ota olishi mexanizmi;

- talabalarni ilhomlantirishi mexanizmi;

- butun e'tiborni, diqqatni talabaga va o'tilayotgan darsga yo'naltirilganligi mexanizmi;

- auditoriyani butunlay o'zgacha fikrlash va liderlar jamoasiga aylantirish mexanizmi;

- dars jarayonida noodatiy usullardan davomli foydalanish mexanizmi;

- dars mashg'ulotining maqsadni ifodalagan holda yakunlanish mexanizmi.

Ta'lim jarayonida qo'llanilayotgan innovatsiyalarga har bir pedagogning o'zining yondashuvidan kelib chiqib, mashg'ulot olib borayotgan fan doirasida qoidalarga o'zgartirish kiritishi mumkin. Shunga mos ravishda innovatsiyani qo'llayotgan o'qituvchiga ham bir qancha talablar qo'yish mumkin:

- o'z-o'ziga nisbatan talabchanlik;

- maqsadni ifodalay olish;



- auditoriyani ishonitirish va ergashtira olish;
- zamonaviy ilm-fan yutuqlaridan foydalana olish;
- fidoiy pedagog bo'lish, an'anaviy pedagoglardan farq qilishi;
- o'quvchi va talabalar orasidan liderlar poygasini tashkil etish.

Ta'lim jarayonida innovatsiya – ta'lim jarayonida foydalanish uchun kiritilgan yangi usul va vositalar yig'indisi orqali, ta'lim sifati va samaradorligini oshirish uchun zarur. “Hozirgi raqobat va kurash maydonida yer osti va yer usti resurslarni, moddiy boyliklar, yer va hududlarni qo'lga kiritish muhim bo'lmay qoldi, balki barcha soha va yo'nalishlarda innovatsiyalarni yaratish va iste'molga kiritish asosiy ahamiyat kasb etmoqda”[7; 26]. Ta'limdagi innovatsiyaga har qanday turdagi kiritilayotgan yangiliklar sifatida emas, aksincha mavjud ta'lim tizimining samaradorligini yuqori darajada oshiradigan omil sifatida qarash kerak. Juda ko'p o'rinlarda qo'llaniladigan ta'lim yoki har qanday jarayonga kiritilgan yangilik innovatsiya bo'la olmaydi. Innovatsiya bo'lishi, shu kiritilgan jarayonga yengillik, qulaylik yaratishi va yutuqlarga erishishi kerak bo'ladi.

Ta'lim jarayonidagi innovatsion o'zgarishlar, tizimga har qanday yangilikning kiritilishi bevosita o'qituvchi faoliyatini yangilash va o'zgartirish orqali amalga oshiriladi. Innovatsion faoliyat – bu uzluksiz ravishda yangiliklar asosida ishlash bo'lib, u uzoq vaqt davomida shakllanadi va takomillashib boradi. Innovatsion faoliyat – yangi ijtimoiy talablar bilan an'anaviy me'yorlarning mos kelmasligi yoxud amaliyotning yangi shakllanayotgan me'yorining yuzaga kelgan me'yor bilan to'qnashuvi natijasida vujudga kelgan qator muammolarni yechishga qaratiladi.

Innovatsiyalar doimiy ravishda pedagogik faoliyatga yangiliklar olib kirish orqali ta'lim rivojiga hissa qo'shadi, pedagogik faoliyatga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Bu o'z navbatida yetuk malakali kadrlar tayyorlashning doimiy tarzda takomillashib boradigan, samarali tizimini shakllantirishni talab etadi, boshqacha qilib aytganda, ta'lim tizimini innovatsiyalashtirmasdan, iqtisodiyot va mamlakat taraqqiyoti mavhumligicha qolib ketadi. Ta'limda innovatsiyani qo'llash innovatsion tafakkurni shakl-

lantirish demakdir. Innovatsion tafakkur – tafakkur qilishning yangi, faol va liderlik shaklidir[8; 192].

Bundan kelib chiqqan holda, fan va ta'lim tizimi oldida turgan dolzarb vazifalardan biri mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlar va o'zgarishlarning rivojini ta'minlovchi, yosh avlodni intellektual salohiyatga ega bo'lgan shaxslar etib tarbiyalashda zamonaviy ta'lim, axborot va kommunikatsion texnologiyalarga tayanish, zamonaviy intellektual tafakkurga ega bo'lgan yoshlarni tarbiyalash zaruriyatini keltirib chiqaradi.

Innovatsiya (lot, innovation) yangilash, yangilik hisoblanib, birgina ta'lim sohasini emas, quyidagicha sohaviy mexanizmlarni ham o'z ichiga oladi:

- 1) yangilik, yangi narsalarni joriy etish, modernizatsiya qilish, isloh qilish;
- 2) Ishlab chiqarish sohasida – yangi texnika-texnologiyalarni qo'llash;
- 3) iqtisodiyotda – yangi texnologiyaga, mehnatni tashkil etish va boshqarishning yangi shakllariga investitsiya;
- 4) tilshunoslikda – yangi tadqiqotlar, tilda yangilik (fonetik yangilik emas);
- 5) falsafada – yangi qarashlar va yondashuvlar;
- 6) tibbiyotda – yangi davo va davolash usullari;
- 7) Inson va uning ongida – yangi, fikr va g'oyalar;
- 8) ta'limda – yangi o'qitish usullari, vositalari.

Demak, innovatsion tafakkurni yangilikka xizmat qiluvchi va uning muvaffaqiyatli qadamini ta'minlovchi alohida tafakkur turi sifatida qarash mumkin.

Ba'zi yondashuvlarga ko'ra, “innovatsion tafakkurning quyidagi xususiy mexanizmlari mavjud: kreativlik; ilmiy-nazariy; ijtimoiy, pragmatik, konstruktiv”[9;96].

Boshqa tadqiqotchilar fikriga ko'ra, innovatsion tafakkurni kreativlikka aynanlashtirib talqin qilishadi. “Innovatsion tafakkur – bu muammoli vaziyatlarni hal qilishda deduktiv usuldan (qolipdan) chetga chiqishdir”[10; 58].

Insonda innovatsion tafakkurni shakllantirish bir-muncha og'ir va sermahsul jarayon bo'lib, birdaniga hech bir insonda tezkor innovatsion tafakkur shakllantirib bo'lmaydi. Bundan xulosa shuki, inson tafakkur serqirraligi va qobiliyat bilan tug'ilmaydi. Aksincha, innovatsion tafakkurni insonda shakl-

lantirish uchun ta'lim-tarbiya, oila, ijtimoiy-ma'naviy muhitning ta'siri hamda insonning o'z-o'ziga nisbatan tanqidiy layoqat, izlanuvchanlik va tirishqoqligining mahsuli hisoblanadi.

Shuning uchun ham, yoshlar innovatsion tafakkurini shakllantirish mexanizmlarini yettita turga bo'lish mumkin:

1. Tarixiy taraqqiyot bosqichi;
2. Irsiy davr bosqichi;
3. Oiladagi shakllanish bosqichi;
4. Ijtimoiy muhit bosqichi;
5. Ta'lim-tarbiya bosqichi;
6. Mehnat va kasbiy jamoa bosqichi;
7. Moddiyat va rag'batlantirish bosqichlariga ajratish mumkin.

Innovatsion ta'lim G'arbiy Yevropa va AQShda o'tgan asrning 60-yillarida paydo bo'lgan. Bu davrga kelib mamlakatning nufuzi va o'rnini uning kuchi-qudrati emas, aqliy potentsiali belgilab berishi davr ruhida o'z aksini topdi.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev qayd etganidek, "...Barqaror ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotni innovatsion rivojlanishsiz, keng ko'lamli ilmiy-texnik kooperatsiyasiz va yangi texnologiyalar, ilm-fan va texnika yutuqlarini joriy etmasdan tasavvur qilib bo'lmaydi"[11; 36].

**NATIJALAR.** Tadqiqotning asosiy maqsadi ham shundan iboratki, hozirgi rivojlanib borayotgan dunyoda o'z o'rnini va mustaqil fikriga ega, tafakkur olami keng hamda serqirra insonni tarbiyalashda zarur bo'ladigan innovatsion texnologiyalarni tatbiq etishdan iborat.

Bugungi kunda mamlakatimizda ta'lim tizimini isloh qilish jarayoni jadal sur'atlar bilan amalga oshirilmoqda. Misol uchun, Prezident maktablari, ijod maktablari va turli fanlarga ixtisoslashtirilgan maktablar, Oliy va O'rta maxsus ta'lim vazirligi va Innovatsiya vazirligining o'zaro jipislashtirilishi ham fikrimiz isboti hisoblanadi.

**XULOSA.** Taklif sifatida, yanada ixtisoslashtirilgan matematiklar uchun – al-Xorazmiy, astronomlar uchun – Mirzo Ulug'bek, yozuvchi-shoirilar uchun – Alisher Navoiy, shifokorlar uchun – Ibn Sino, arxitektorlar uchun – Binoiylar va boshqa bir qancha ellik, yuzlab ixtisoslashgan maktablarni tashkil etish kerak.

Ular o'z sohasiga ixtisoslashib, oliy ta'lim bilan birgalikda yetuk mutaxassis tayyorlash mexanizmini yaratishlari kerak. Zero, raqobat rivojlanish asosidir. Har bir tumanda ixtisoslashgan maktablarni tashkil etish orqali iste'dodli yoshlarni tanlab olish, ta'lim tizimini isloh qilish mamlakatimizning ertangi istiqbolini belgilab beradi. Yurtimiz kelajagi hisoblangan yoshlarni yuksak bilimli, ijtimoiy-siyosiy faol, erkin fikrlash qobiliyatiga tarbiyalashga yo'naltiriladi.

Ta'lim muassasalarida yoshlarning dars mashg'ulotiga nisbatan qiziqishini oshirishda, mustaqil fikrlashni, faollikni, innovatsion tafakkurni o'stirishda innovatsion usullarni qo'llash istiqboldagi vazifalarni belgilashda muhim ahamiyat kasb etadi.

#### ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Горохов В.Г., Халипов В.Ф. Научно-технический прогресс /Словарь. Сост. – М., 1987. - С. 80.
2. Вахобов А.В., Хожибакиев Ш.Х., Мўминов Н.Г. "Хорижий инвестициялар". Ўқув кўлланма. – Тошкент: Молия, 2010. – Б. 328.
3. Мадвалиев А. "Ўзбек тилининг" изоҳли луғат. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2013. – Б. 212.
4. <http://stats.oecd.org/>; 2018 Global R&D Funding Forecast. Winter 2018: - С. 5.
5. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг 2017 йил Олий Мажлисга қилган Мурожаатномаси.
6. Мирзиёев Ш.М. Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз. 1-жилд. –Тошкент: Ўзбекистон, 2017. –Б.173.
7. Crazier M. L'entreprise a l'econte. Apprendre le management postindustriale. – P., 1991: - P. 26.
8. Файзихўжаева Д. "Мантик" изоҳли луғат. – Тошкент: Тамаддун, 2015. – Б. 192.
9. Шамало Т.Н. Понятие инновационного мышления. - Россия. - 2014. - № 1: - С. 96.
10. Утемов В.В. Задачи открытого типа как инструмент формирования инновационного мышления // Молодой ученый. - 2011. - №1: - С. 58.
11. Мирзиёев Ш.М. Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз. 1-жилд. –Тошкент: Ўзбекистон, 2017. – Б.35-36.

## ФИЛОСОФСКИЕ ВЗГЛЯДЫ КАРЛА ПОППЕРА О ДЕМОКРАТИЧЕСКОМ ОБЩЕСТВЕ

*Жомурадов Икром Илхом оглы, преподаватель  
Каршинского университета экономики и педагогики*  
**KARL POPPERNING DEMOKRATİK JAMIYAT  
HAQIDAGI FALSAFIY QARASHLARI**

*Jomurodov Ikrom Ilhom o'g'li, Qarshi iqtisodiyot va  
pedagogika universiteti o'qituvchisi*

## KARL POPPER'S PHILOSOPHICAL VIEWS ON DEMOCRATIC SOCIETY

*Jomurodov Ikrom Ilhom o'g'li, Teacher of Karshi University of  
Economics and Pedagogy*



[https://orcid.org/  
0009-0001-8897-1201](https://orcid.org/0009-0001-8897-1201)

*e-mail:*  
[jomurodovikrom@gmail.com](mailto:jomurodovikrom@gmail.com)

**Аннотация:** В данной статье проводится философский анализ научно-философских взглядов Карла Поппера, философии постпозитивизма в Западной Европе XX века, открытого общества и его противников. Освещаются анализ значения философских идей в развитии современной науки, изучение научного наследия Карла Поппера и сведения о его социально-философских взглядах.

**Ключевые слова:** постпозитивизм, социально-философские взгляды, открытое и закрытое общество, западноевропейская философия XX века, комплекс человеческих мотивов.

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada Karl Popperring ilmiy-falsafiy qarashlari, XX asr G'arbiy Yevropadagi postpozitivizm falsafasi, ochiq jamiyat va uning dushmanlari asaridagi ijtimoiy-falsafiy qarashlarini falsafiy tahlil qilish, ochiq va yopiq jamiyat haqidagi qarashlarini o'rganish va tadqiq etish, Karl Popperring ilmiy merosini o'rganish va uning ijtimoiy-falsafiy qarashlari haqida ma'lumotlar atroflicha yoritilgan.

**Kalit so'zlar:** postpozitivizm, ijtimoiy-falsafiy qarashlar, ochiq va yopiq jamiyat, XX asr G'arbiy Yevropa falsafasi, inson motivlari majmuasi.

**Abstract:** This article provides a philosophical analysis of the scientific and philosophical views of Karl Popper, the philosophy of postpositivism in Western Europe of the twentieth century, the open society and its enemies. The analysis of the significance of philosophical ideas in the development of modern science, the study of the scientific heritage of Karl Popper and information about his social and philosophical views are covered.

**Key words:** Karl Popper and his philosophical views, postpositivism, socio-philosophical views, open and closed society, 20th century Western European philosophy, complex of human motives.

**ВВЕДЕНИЕ.** Один из самых влиятельных философов науки XX века, Поппер известен своим неприятием классических индуктивистских взглядов на научный метод в пользу эмпирической фальсификации. Согласно Попперу, теория в эмпирических

науках никогда не может быть доказана, но ее можно фальсифицировать, что означает, что ее можно (и нужно) тщательно исследовать с помощью решающих экспериментов. Поппер был против классического оправдательного подхода к познанию, кото-

рый он заменил критическим рационализмом, а именно «первой в истории философии философией критики, не имеющей оправдания».

В политическом дискурсе он известен своей энергичной защитой либеральной демократии и принципы социальной критики, которые, по его мнению, сделали возможным процветающее открытое общество. Его политическая философия охватывала идеи основных демократических политических идеологий, включая социализм социал-демократию, либертарианство классический либерализм и консерватизм и попытался их примирить.

«Открытое общество и его враги» — книга политической философии австрийского философа науки Карла Раймонда Поппера, в которой философ объясняет свои идеи об «открытом обществе», а также свои мысли о «его врагах». Основная идея книги вращается вокруг возражений против метода телеологического историзма, утверждающего, что историческое развитие неизбежно проходит по пути индивидуального развития. Как сказал Президент Шавкат Мирзиёев: «Труды многих великих философов, признанных в мире, еще не изданы на узбекском языке, поэтому большинство интеллектуалов, особенно наша молодежь, не знакомы с их идеологическими взглядами. Нам необходимо сделать книги современных философов, таких как Сократ, Платон, Ницше и Фрейд, понятными и издать их на узбекском языке с пояснениями и комментариями [1].

Также в первые годы независимости наш президент подчеркнул, что пришло время серьезно изучить редкие рукописи, воплощающие в себе жизненный опыт, религиозные, нравственные и научные воззрения наших предков, собранные на протяжении веков. Среди них важное место занимают восточная и западная философии. Поппер развивает свои представления об историческом процессе и говорит об открытом

обществе в своей книге «Открытое общество и его враги». Говоря об открытом обществе, Поппер раскрывает правовые, моральные, экономические и политические принципы такого общества. Напротив, говорит он, раскрытие этих законов ведет к историчности. А историзм, по его мнению, есть иррационализм. В своих философских взглядах Поппер выдвигает доктрину открытого общества [2].

**ОБСУЖДЕНИЕ.** Что такое открытое общество? Открытое общество, по Попперу, является демократическим обществом. Такое общество будет основано на принципах индивидуальности. Точно так же, как никогда не существовало власти без управления (как и нового современного общества), пока народ остается народом, не может быть абсолютной или неограниченной управляющей власти. Каким бы физически и морально ни был силен правитель, ему все равно нужны помощники для управления.

Управленческую власть можно разделить на две части. Первый тип основан на законных выборах, без кровопролития. Второй тип — это метод управления, не желающий ни с кем делиться властью и использующий единоличную власть. По мнению Поппера, термин «демократия» относится к первому типу власти, а термин «диктатура» — ко второму типу.

#### **ЛИТЕРАТУРНЫЙ АНАЛИЗ.**

Период конца XIX - начала XX века отличается тем, что философские школы развивали идеи мыслителей, творивших во второй половине XIX века, и пытались объединить накопленные научные знания вокруг одного философских оснований постгегелевского периода.

Распад новой позитивистской доктрины привел к возникновению ряда принципов философии науки, известных под общим названием постпозитивизм. Основателем этого направления был Карл Поппер, создатель критического рационализма. К постпозитивизму применимы взгляды таких крупных западных философов, как И.Лакатос, Т.Кун, С.Тулмин, Д.Агасси,



П.Фейербенд. Главной задачей этих философов было устранение позитивистского стиля мышления в философии науки [3]. В области социальной философии Поппер критикует марксизм и историзм. Он отрицает объективные закономерности общественного развития и возможность предсказывать судьбы развития общества.

### **МЕТОДОЛОГИЯ ИССЛЕДОВАНИЯ.**

Методологическую основу исследования сыграли методические, научно-теоретические указания Президента Республики Узбекистан Ш.М.Мирзиёева по изучению западной философии, а также развитию общества, которые были выдвинуты в его труды, лекции и выступления. В процессе исследования соблюдались принципы объективности, логики, историчности и системности научных знаний.

С этой точки зрения значимость исследования определяется следующим.

Прежде всего важно объективно изучить исторические условия, культурную и духовную среду в Европе XIX-XX веков и сделать соответствующие выводы. Во-вторых, изучить мысли Карла Поппера о философии, истории и социальной философии в сравнении со взглядами других философов и учёных, проанализировать значение этих мыслей в обществе.

**РЕЗУЛЬТАТЫ.** Поппер приходит к выводу, что к концу XX века крах «реального социализма» и распад «социалистической системы» приведут к разрушению общественного порядка в некоторых отдельных странах и в мире в целом на благо пролетариат, который объявлен воплощением мирового развития, показал, что теоретические построения о неизбежности и необходимости принудительного замещения беспочвенны и практически вредны.

Поппер понимал понятие историчности очень широко. Эта концепция включает в себя различные противоречивые доктрины. Например, историческими становятся учения Гераклита, Платона, Аристотеля, Гегеля и Маркса. В основе

иррационального понимания историчности лежит человеческий дух. Поппер также критикует своих современников. Келлер и Тойнби обвиняют свои взгляды в историчности[4]. Такому историзму Поппер противопоставляет свой рационализм. Итак, какова позиция Поппера?

Открытое общество – демократическая форма народной власти. Эта форма включает свободу слова, мнений и частную собственность. Подобные формы народной власти, по мнению Поппера, существовали в Древней Греции в Афинах. Афинский демос боролся против тогдашней аристократии. Позже эта форма открытого общества переместилась в Европу. Совершенная форма открытого общества существует сегодня в странах Западной Европы и Северной Америки. Итак, основа открытого общества – фанатизм. Здесь мы видим саморазвитие и самосовершенствование человеческой мысли. В своей теории Поппер понимает общество как развитие мышления.

Тоталитарная система – это общество, которое борется с частной собственностью и суевериями. Тоталитаризм всегда пропагандирует идею идеального государства. Он утверждает, что в идеальном государстве, вечном и неизменном, каждый член общества неизбежно достигнет счастья [5].

По мнению Поппера, такое идеальное государство является препятствием на пути развития. Фантастикой являются и идеи утопистов о равенстве, сотрудничестве, братстве и дружбе, выдвигающих идеальное общество[6]. Идея идеального государства хотя и утопична, но и вредна. Она всегда является авторитетом общества. После этого интерес отдельного человека подчиняется коллективному, в результате отмирает суеверие, перестают развиваться различные формы частной собственности.

**ВЫВОДЫ.** Подводя итог, в результате исследования и анализа философских, моральных и социальных мыслей, выраженных в книге Карла Поппера

«Открытое общество и его враги» и других работах, мы пришли к следующим выводам:

-Карл Поппер находился под влиянием логического позитивизма, но противопоставлял неопозитивизму свои философские концепции критического рационализма, теории увеличения научного знания и фальсификационизма. Поппер выдвинул проблему демаркации (отделения научного знания от ненаучного знания) как одну из главных задач философии вопреки мнению логических эмпириков, что критерием научного рассуждения является принцип проверки;

-в области социальной философии Поппер критикует марксизм и историзм. Он отрицает объективные закономерности общественного развития и возможность предсказывать судьбы развития общества. В дальнейшем идеи Поппера получили развитие в концепциях И.Лакатоса, У.Бартли,

Дж.Агасси, а также в различных направлениях критического рационализма.

#### **ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА:**

1. Sh.M.Mirziyoyev. Asarlar. 1-jild. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz”.
2. Альтерматт У. Философия нового времени в Европе. -М.: Российский гос. гуманитар. ун-т, 2000. -293 с.
3. Виппер Р.Ю. Философия нового времени. -М.: Черо, 1999. -454 с.
4. К. Поппер. Логика и рост научного знания. 1983 — с. 8—11.
5. Karl Popper — The Formative Years, 1902—1945. Архивная копия от 13 ноября 2014 на Wayback Machine.
6. К.Поппер. Архивная копия от 25 октября 2014 на Wayback Machine // Русская геополитическая энциклопедия. — 2010.



## EKOLOGIK DUNYOQARASH VA UNING QADRIYATLAR TIZIMIDAGI O'RNI

*Qabulov Qosimboy Pirjonovich, Urganch davlat universiteti dotsenti, psixologiya fanlari doktori (DSc)<sup>1</sup>*

*Mingbayev Raxim Xujayevich, tadqiqotchi, Jizzax davlat pedagogika universiteti<sup>2</sup>*

## ECOLOGICAL WORLDVIEW AND ITS PLACE IN THE SYSTEM OF VALUES

*Kabulov Kasimboy Pirjonovich, Doctor of Psychology, Associate Professor, Urgench State University<sup>1</sup>*

*Mingbaev Rakhim Khudzhaevich, researcher, Jizzakh State Pedagogical University<sup>2</sup>*

## ЭКОЛОГИЧЕСКОЕ МИРОВОЗЗРЕНИЕ И ЕГО МЕСТО В СИСТЕМЕ ЦЕННОСТЕЙ

*Кабулов Касымбой Пиржонович, доктор психологических наук, доцент, Ургенчский государственный университет<sup>1</sup>*

*Мингбаев Рахим Худжаевич, исследователь, Джизакский государственный педагогический университет<sup>2</sup>*

*Annotatsiya: Ushbu maqolada ma'naviy qadriyatlar tizimida ekologik dunyoqarashning o'rni va ahamiyati yoritib berilgan. Shuningdek, maqolada ekologik dunyoqarashning shakllanishi va rivojlanishi, uning milliy qadriyatlar tizimida tutgan o'rni tahlil qilingan.*

*Kalit so'zlar: ekologiya, ekologik munosabat, qadriyat, ekologik qadriyat, ekologik dunyoqarash, tolerantlik.*

*Аннотация: В данной статье описывается роль и значение экологического мировоззрения в системе нравственных ценностей. Также в статье анализируется становление и развитие экологического мировоззрения, его роль в национальной системе ценностей.*

*Ключевые слова: экология, экологическое отношение, ценность, экологическая ценность, экологическое мировоззрение, толерантность.*

*Abstract: This article describes the role and significance of the ecological worldview in the system of moral values. The article also analyzes the formation and development of the ecological worldview, its role in the national value system.*

*Key words: ecology, environmental attitude, value, environmental value, ecological worldview, tolerance.*

<sup>1</sup><https://orcid.org/0000-0002-1478-0330>

<sup>1</sup>e-mail:

[gosimboy86@mail.ru](mailto:gosimboy86@mail.ru)

<sup>2</sup><https://orcid.org/0009-0001-1095-2932>

<sup>2</sup>e-mail:

[mingbaev.raxim@gmail.com](mailto:mingbaev.raxim@gmail.com)

**KIRISH.** Insonning ekologik faoliyatini boshqarish jarayonida ijtimoiy ong shakllarining tizimli-tuzilmaviy mujassamlashuvi, mushtaraklashuviga qaramasdan, har biri o'ziga xos, nisbatan mustaqil ekologik funksiyani bajaradi. Shu jumladan, din ijtimoiy ongning maxsus shakli sifatida, "tabiat jamiyat – inson" munosabatini muvofiqlashtirish vositasi bo'lib kelgan, insonning tabiatni o'zgartirishi bugun insoniyat tarixiga oid bo'lib, uning ekologik salbiy oqibatlarini hamma vaqt eslatib turgan. Hatto, o'zining sodda moddiy bazasiga qaramasdan, ibtidoiy jamoa davri ham bundan mustasno emas[2.149].

Ibtidoiy jamoa davrida kishilarning yashash sharoitlari bevosita bog'liq bo'lgan tabiiy muhitni muhofaza qilish ehtiyojlariga, manfaatlariga mos diniy-axloqiy normalar vujudga kelgan. Bu normalar kishilarning kundalik hayot faoliyatlarida ularning ekologik munosabatlarini regulatsiya qiluvchi qonun funksiyasini bajargan. Dinning qadimgi shakllaridagi yaxshilik va yomonlik, ezgulik va yovuzlik o'rtasidagi munosabat predmeti insonning bevosita tabiatga ekologik munosabatiga borib taqaladi. Masalan, eramizgacha 2-1-ming yilliklarda Markaziy Osiyoda vujudga kelgan zoroastrizmning afsonaviy payg'ambari Zaratushtra ta'limotida dualizmning ekologik mazmuni ko'zga tashlanib, yaxshilik va yomonlik, ezgulik va yovuzlik faqat insonga nisbatan emas, balki insonni o'rab turgan tabiatga nisbatan ham olib qaraladi.

**ADABIYOTLAR TAHLILI.** Dinning qadimgi shakllarida insonning tabiatga ekologik munosabati o'z mohiyatini stixiyali sodda tarzda izohlash namunasidir. Masalan, totemizmda tabiatdagi barcha mavjudlikning o'zaro qonqardoshlik aloqadorligini e'tirof etish unga insonparvarlik munosabati xarakterini belgilab turgan. Fetishizmda tabiat sirli kuchlarning inson ustidan hukmronligini mutlaqlashtirish, ilohiylashtirish, unga faqatgina qo'rqqanidan yoki ojizligidan e'tiqod qilishni emas, balki hayotni davom ettirish zaruratini ham ta'kidlab turgan. Keyinchalik, animizm va animatizm dinlarida tabiatni jonli, ruhga ega mavjudlik deb tushunish, shunga xos bo'lgan ekologik munosabatlar shakllarini vujudga keltirgan. Yirik etnograf, tarixchi olim V.R.Kabo

Avstraliya va Tasmaniya aborigenlarining tabiatni muhofaza qilish sohasidagi faoliyatini tarixiy jihatdan o'rganib, dinning bu shakllari alohida ahamiyatga ega bo'lganligini ta'kidlaydi[2.155]. R.F.Its esa, "Tayvanliq tog'liklar ijtimoiy ishlab chiqarish birlashmalarining arxaik shakllari" nomli kitobida kishilarning ovchilik faoliyatlarida tabiatni muhofaza qilishni diniy-mistik normalar yordamida chegaralash xususiyatlarini chuqur tahlil qilib, ularning axloqiy tamoyillari, gumanistik mohiyatini ko'rsatib bergan edi[3.139-141].

#### **TADQIQOT METODOLOGIYASI.**

Ishda ilmiy bilishning: tarixiylik, mantiqiylik, obyektivlik, subyektivlik, tizimlilik, vorisiylik, qiyosiy tahlilga oid turli muqobil falsafiy ta'limot metodlaridan foydalanildi.

**TAHLIL VA NATIJALAR.** Dinning ibtidoiy shakli inson va tabiat o'rtasidagi munosabatlarni regulatsiya qilish vositasi sifatida o'z davri uchun nisbatan mukammal ekologik amaliy urf-odat, diniy mifologik ong, axloqiy normalar tizimini vujudga keltirgan. Keyinchalik, aynan shu elementlar rivojlanib va siyosiy ustqurma bilan organik tarzda uyg'unlashib, ular ekologik faoliyat doirasidagi funksional yaxlitlikni tashkil qilganini ko'ramiz. Atrof-muhitni muhofaza qilish muammosining umumbashariy xarakteri turli xalqlarning millati, irqi, siyosiy mavqei, diniy e'tiqodidan qat'iy nazar birlashishini, umumiy maqsad uchun yakdil kurashishni taqozo qilmoqda.

Tarixiy tajribalar xulosalari hozirgi vaqtda, desekulyarizatsiya hodisasi vujudga kelayotganini ko'rsatib turibdi. Ayniqsa, ekologiya sohasidagi muammolar ijtimoiy ong shakllarini mushtaraklashtirish, mujassamlashtirish ehtiyojlari desekulyarizatsiya hodisasini envayronmentalizm yo'nalishida namoyon qilmoqda. Envayronmentalizm g'oyalari iqtisodiy, siyosiy, ma'naviy yo'nalishlaridan tashqari, teologiya sohasida ham keng tarqalmoqda. Bu yo'nalishning g'oyaviy asoschilari Sidney universiteti professori Ch.Birch, amerikalik ekolog-iqtisodchi G.Dali jahon iqtisodchilarining 1979-yil AQSHda bo'lib o'tgan "E'tiqod, fan va kelajak" anjumanida "Tabiat teologiyasi"ni vujudga keltirish nazariyasini ilgari surib, dinning g'oyaviy va amaliy jihatlarini ekologik faoliyat bilan bog'lash zaruratini asoslashga [1.31-44] harakat qilgan edilar. Bu



qarashlar, o'z mazmuniga ko'ra, an'anaviy teologiyaga nisbatan ekologik panteizm xarakteri bilan ajralib turadi.

Darhaqiqat, hozirgi davrda umuminsoniy manfaatlarning ekologik muammolar "chorrahalarida" kesishish nuqtasi, nafaqat fan va din, balki siyosat, ma'naviyat, mafkura sohalarining ham mushtaraklashuvini taqozo qilmoqda. Bu jarayonni oqilona tashkil qilish muayyan manfaatlar doirasida chegaralanib qolmasligi kerak. Aks holda, ayrim dunyoqarashlarning mafkura frontida ustuvorligini saqlab qolishga urinish, o'jarlik bilan o'z mavqeini sun'iy ravishda partiyaviylashtirish, sinfiylashtirish qanday oqibatlariga olib kelganligini tarixiy tajribalar ko'rsatib berdi. Albatta, biz ekologiya sohasida ham mafkuralarni bir andoza bilan belgilash, ularning qarashlaridagi farqlarni metafizik-mexanistik ravishda bartaraf qilish fikridan yiroqmiz. Chunki fikrlar muqobilligi umumiy manfaatlar, maqsadlar birligidagina, haqiqatga erishishning turli yo'llarini ko'rsatishi mumkin. Bundan tashqari, masalani haddan tashqari soddalashtirish, ekologik manfaatlar doirasida ijtimoiy ong shakllarini subyektiv tarzda mutlaqlashtirish, primitivizm, prinsisiizlik ekologik barqaror taraqqiyotga salbiy ta'sir o'tkazadi.

Hozirgi fan va din rivojlanishidagi umumiy tomonlarni topishga urinishni dinning mavjudlik holatini saqlab qolish uchun modernizatsiyalashish hodisasi sifatida emas, balki uning ijtimoiy-tarixiy rivojlanishi umumiy qonuniyati tarzida qaralishi kerak. L.Uayt, G.T.Odumteva boshqa G'arb olimlari diniy ekologik ong tarkibiy qismiga aylantirish uchun uning ekologiyalashish tendensiyasini kuchaytirishni yoqlab chiqadilar [5. 528]. Xususan, dinning amaliy tomonlarini ekologik faoliyatga yo'naltirishga, dinning qadimgi shakllaridagi tabiat hodisalariga e'tiqod qilishdan iborat an'analarni tiklashga harakat qiladilar. Zero, yuqorida aytganimizdek, qadimgi din shakllari va mifologiyasida tabiat hodisalariga sig'inish, unga zarar yetkazadigan harakatlarini taqiqlash biosfera muvozanatini saqlash ehtiyojlaridan kelib chiqqan va ularning tabiiy-tarixiy yashash shart-sharoitlari ekologik munosabatlar xarakterini belgilab turgan.

Maxsus teoekologiya adabiyotlarida tabiatni muhofaza qilish muammolarini dinga

e'tiqod, Xudo g'oyasiga sadoqat bilan hal qilish mumkin, degan fikr ustuvor bo'lib, uni jamiyatning dindorlik koeffitsiyentini belgilaydigan hodisa, deb talqin qilinadi. Vaholanki, aksincha, ekologik vaziyatning keskinlashib ketishi, Xudo g'oyasiga skeptik munosabatni, hatto, ateistik yo'nalishni ham vujudga keltirmoqda.

Diniy e'tiqod va ilmiy bilishning ekologik muammolarga munosabatida fidsizm nuqtayi nazaridan ekologik vazifalarni faqat din yordamida hal qilish mumkin. Bunda bir-biri bilan bog'liq ikki tendensiya namoyon bo'ladi. Birinchisi, dinni ekologiyalashtirish, ikkinchisi, ekologiyani dinlashtirish. Yuzaki qaraganda bu qarashlarda prinsipial farq bo'lmasa ham, ularning funksional faoliyatlari, pirovard natijada, o'z oldiga qo'ygan asosiy maqsadlarida farq mavjud. Dinning tabiatga, barqaror ekologik taraqqiyotga munosabati:

- a) ortodoksal-dogmatik;
- b) konservativ-tolerant;
- v) ratsional-sufizm yo'nalishlariga ajratish metodologik jihatdan maqsadga muvofiq.

Ortodoksal – dogmatik qarashlar kishining kundalik hayotidagi umuminsoniy, diniy normalarga zid bo'lgan salbiy hodisalarni (aksariyat holda, teologik savodsizligi natijasida, dinning tub ijtimoiy-siyosiy, mafkuraviy ahamiyatini bilmaganliklaridan) diniy e'tiqodga bevosita aloqasi bo'lmagan, hatto, unga zid hodisalarni zo'rlab, sun'iy ravishda yopishtiradilar yoki anti-ekologik xatti-harakatlarini din yordamida oqlashga harakat qiladilar.

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy hayot doimiy rivojlanib borganligidan, ijtimoiy munosabatlar tizimi va ularning xarakteri doimiy o'zgarib turadi. Shunga mos ravishda, dinning uzluksiz reformasiyalashib, modernizatsiyalashib borishi ba'zan perspektiv manfaatlariga zid kelib qoladi. Bunday holda ayrim diniy arboblardan, dindorlardan ijtimoiy-siyosiy munosabatlarni ilohiy "limitlovchi omil" yordamida chegaralariga, dinning rolini mutlaqlashtirishga harakat qiladilar. Agar bu hodisa chuqurlashib, ziddiyatlar keskinlashib ketsa, diniy fundamentalizmga imkoniyat yaratiladi.

Ratsional - sufizm islom dini vujudga kelgan davrdanoq, iqtisodiy, siyosiy, axloqiy, huquqiy va boshqa ijtimoiy munosabatlar tizimini

oqilona tashkillashtirish, boshqarish, nazorat qilishni takomillashtirib borgan. Zero, islomning jahon dinlaridan biriga aylanishi, uning aynan shu vazifani bajarishi bilan bevosita bog'liq. Shuning uchun ham O'zbekistonning birinchi Prezidenti Islom Karimov O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi birinchi majlisida so'zlagan ma'ruzasida: "Ko'hna tariximizning qaysi davrini eslamaylik, din har doim odamlarni o'z-o'zini idora etishga, yaxshi xislatlarini ko'paytirib, yomonlaridan xalos bo'lishga chorlagan. Har bir alohida insonga, oila, jamoa, mintaqa, bir so'z bilan aytganda, umumxalqqa rahnamo bo'lgan. Uni og'ir-og'ir sinovlarga bardosh berishga, yorug' kunlarga intilib yashashga da'vat qilgan, ishontirgan. Bunday da'vat, o'z navbatida, odamlarga kuch-quvvat bag'ishlagan, irodasini mustahkam qilgan, bir-biriga mehr-oqibatini oshirgan", deb islom tariqatining buyuk namoyandalari Xoja Ahmad Yassaviy, Xoja Bahouddin Naqshband, Najmiddin Kubro g'oyalari yuqori baho bergan[4.40-41].

Dinning "tabiat - jamiyat - inson" munosabatlarini boshqarishdagi axloqiy, huquqiy, siyosiy mazmunini tashkil qiluvchi umuminsoniy qadriyatlar davlat siyosatining tarkibiy qismiga aylanmoqda. Bu jarayonda ekologik-ijtimoiy munosabatlardagi turli ijtimoiy ong shakllarining "funktional subordinatsiyasi" mutlaqo nisbiy xarakterga ega bo'lib, ularning ichki birligini taqozo qiladi. Shu bilan birga, milliy rivojlanish konsepsiyasida muayyan ijtimoiy ong shakllarining hukmron, dominant mavqeidan voz kechish kerak. Chunki biror ijtimoiy ong shaklining ustuvor rivojlanishi, ularning ichki funkional bog'lanishlariga putur yetkazishi mumkin. Xususan, ekologik munosabatlarda dinning regulativ funksiyasini mutlaqlashtirish, boshqa ijtimoiy ong shakli ahamiyatini diqqatdan chetda qoldirish orqali diniy fundamentalizmning paydo bo'lishiga qulay imkoniyat yaratishi mumkin. Shu bois, jamiyatning umummilliy ma'naviyatini rivojlantirish maqsadida ijtimoiy ong shakli faoliyatini umuminsoniy manfaatlar, ehtiyojlar doirasida qonun bilan belgilab qo'yilishi ularning mutanosib rivojlanishini ta'minlaydigan huquqiy asoslarini vujudga keltirib, mafkuraning monopoliyalashish hodisasini bartaraf etadi.

Keyingi paytda jamiyatning demokratiyalashuvi, ekologik ta'lim-tarbiyaga majmuaviy-tizimli yondashish zarurati, bu vazifa yechimini topishda dinning ahamiyatini o'rganishni kun tartibiga qo'yimoqda.

Ma'lumki, jamiyatning umumiy inqirozlari keskinlashgan davrda obyektiv va subyektiv sabablarga ko'ra, dinning kuchayishi kuzatiladi. Shu nuqtayi nazardan, hozirgi vaqtda dinning ma'lum ma'noda tarixiy qadriyat shakli sifatida o'z rolini kuchaytirib borishini, faqatgina ekologik vaziyatning keskinlashib ketishi bilan bog'lab qo'yish noto'g'ri bo'lar edi. Zero, ekologik vaziyatning keskinlashib ketishi, boshqa sohalaridagi inqirozlarning bevosita sababi bo'lmasdan, bir vaqtning o'zida, ularning oqibati hamdir.

O'zbekiston milliy mustaqillikka erishib, iqtisodiy, siyosiy, ma'naviy o'z-o'zini anglashi jarayonida, milliy qadriyatlar tarkibiy qismi bo'lgan islom dini reformatsiyasi ko'zga tashlanmoqda. Zero, islom dinining ijtimoiy, iqtisodiy, ma'naviy-mafkuraviy hodisalarga nisbatan desekulyarizatsiya jarayoni reformatsiyasi va modernizatsiyasining tarixiy zarurati ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy-mafkuraviy hayotni tashkillashtirish, boshqarish va nazorati mushtarak-mujassam vazifalaridan kelib chiqadi. Ayniqsa, milliy-ma'naviy qadriyatlarining diniy e'tiqod bilan uzviy bog'liqligi ularning ijtimoiy-siyosiy hayotdagi dominantlik mavqei, aynan shu sohada, ma'naviy-ma'rifiy ishlarni kuchaytirishni taqozo qilmoqda.

**XULOSA.** Tarixiy tajribalar asrlar davomida shakllangan va rivojlangan ijtimoiy ong shakllari majmuasi o'zaro munosabatlarini, funkional bog'lanishlarini subyektiv-volyuntaristik tarzda buzishning salbiy oqibatlarini yaqqol ko'rsatdi. Bugungi kunda ijtimoiy-tarixiy taraqqiyot obyektiv qonuniyatlari jamiyatning mavjudlik hollarini, rivojlanish tendensiyasini belgilaydigan har qanday ijtimoiy ong shaklining umuminsoniy mazmunini boyitish, jamiyatda o'z o'rnini topish vazifalarini davlat siyosati darajasiga ko'tardi. Shu jumladan, "tabiat - jamiyat - inson" munosabatlari tizimini regulatsiya qilishning usul va vositasi bo'lgan ijtimoiy ong shakllari potensial imkoniyatlaridan to'liq foydalanish zarurati va

imkoniyatini vujudga keltirdi. Darhaqiqat, jahon miqyosidagi umumiy taraqqiyot, odamlar dunyoqarashining o'zgarishi, kommunikatsiyalar yuksalishi, xalqaro munosabatlarning rivojlanishi va uning odamzod hayotiga ta'siri davlatlar, xalqlar o'rtasida o'zaro birlashishga intilishni kuchaytirmoqda. Ayni vaqtda, milliy xususiyatlar va an'analarni, siyosiy va ma'naviy merosni saqlab qolish tamoyillari ham yaqqol sezilmoqda.

#### **ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. Birch GF (1996) Sediment-bound metallic contaminants in Sydney's estuaries and adjacent offshore, Australia. *Estuarine, Coastal and Shelf Science* 42, 31–44. doi:10.1006/ecss.1996.0003.
2. Кабо В.Р. Первобытное общество и природа. М.: Наука, 1981. С.149.
3. Капиц Р.Ф. Архаические формы социально-производственных объединений Тайванских герцев / Охотники, собиратели, рыболовы. Л.: Наука, 1972 С139-141.
4. Karimov I.A. O'zbekistonning siyosiy-ijtimoiy va iqtisodiy istiqbolining asosiy tamoyillari // *Vatan sajdagoh kabi muqaddasdir*. 3-tom. Toshkent: O'zbekiston, 1996. 40- 41-bet.
5. Уайт Л. Теория эволюции в культурной антропологии // Уайт Л. *Избранное: Эволюция культуры*. — М.: [РОССПЭН](#), 2004. — С. 582.



## BOSHLANG'ICH SINFLARDA TABIIY FANLARNI O'QITISH METODIKASINI VIRTUAL TA'LIM TEKNOLOGIYALARIDAN FOYDALANGAN HOLDA TAKOMILLASHTIRISH

*Djurayeva Nargis Narkulovna, Iqtisodiyot va pedagogika  
universitet NTM o'qituvchi*

## IMPROVING THE METHODOLOGY OF TEACHING NATURAL SCIENCES IN ELEMENTARY GRADES USING VIRTUAL EDUCATIONAL TECHNOLOGIES

*Djurayeva Nargis Narkulovna, Teacher of NTM University of  
Economics and Pedagogy*

## СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ МЕТОДИКИ ПРЕПОДАВАНИЯ ЕСТЕСТВЕННЫХ НАУК В НАЧАЛЬНЫХ КЛАССАХ С ИСПОЛЬЗОВАНИЕМ ВИРТУАЛЬНЫХ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ ТЕХНОЛОГИЙ

*Джураева Наргис Наркуловна, преподаватель Университета экономики и педагогики НТМ*

*Annotatsiya:* Zamonaviy ta'lim muassasalarida barcha sohalarida bo'lgani kabi sifat masalasi birinchi o'ringa ko'tarilmoqda. Bugungi kunda tabiiy fanlar ta'limini boshlang'ich sinflarda virtual ta'lim texnologiyalaridan foydalangan holda takomillashtirishni yo'lga qo'yish ta'lim sifatini samarali borishiga sabab bo'ladi. Ushbu maqolada aynan boshlang'ich sinflarda virtual ta'lim texnologiyalaridan foydalanish maqsadi, vazifalari, yo'nalishlari va uning natijalari to'g'risida so'z yuritiladi.

*Kalit so'zlar:* tabiiy fanlar, ta'lim, virtual ta'lim, 3D gologramma, axborot kommunikatsiya, platforma, elektron ta'lim, virtual taqdimotlar.

*Abstract.* In modern educational institutions, as in all fields, the issue of quality comes to the fore. Today, the improvement of natural science education in elementary grades with the help of virtual educational technologies is the reason for the effective development of the quality of education. This article talks about the purpose, tasks, directions and results of using virtual educational technologies in primary classes.

*Keywords:* natural sciences, education, virtual education, 3D hologram, information communication, platform, electronic education, virtual presentations.

*Аннотация.* В современных образовательных учреждениях, как и во всех сферах, на первый план выходит вопрос качества. Сегодня совершенствование естественнонаучного образования в начальных классах с помощью виртуальных образовательных технологий является причиной эффективного развития качества образования. В данной статье говорится о цели, задачах, направлениях и результатах использования виртуальных образовательных технологий в начальных классах.

*Ключевые слова:* естественные науки, образование, виртуальное образование, 3D-голограмма, информационная коммуникация, платформа, электронное образование, виртуальные презентации.



[https://orcid.org/  
0009-0007-5211-  
2599](https://orcid.org/0009-0007-5211-2599)

*e-mail:*

[djurayevanargis644@  
gmail.com](mailto:djurayevanargis644@gmail.com)



**KIRISH.** Hozirgi vaqtda, butun jahon ta'lim tizimida axborot kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish imkoniyati takomillashganligi sababli, tarmoq orqali virtual ta'lim texnologiyalaridan foydalanish odatga aylandi. Tadqiqotchilar butun diqqatlarini ushbu yangiliklardan ta'lim tizimida samarali foydalanishga qaratmoqdalar. Shu bois boshlang'ich ta'limda tabiiy fanlar fanining o'quv jarayoniga virtual ta'lim texnologiyalarini kengroq tatbiq etish maqsadida Internet tarmog'ida axborot ta'lim platformasi yaratildi. Mazkur platformaning afzalliklaridan biri talabalarning boshlang'ich ta'limda tabiiy fanlar ta'lim jarayonida mustaqil ta'lim olishlarini, ijodiy fikrlashlarini, malaka va ko'nikmalarini shakllantirish orqali o'quv materiallarini hamda ilmiy ma'lumotlarni har tomonlama chuqur o'zlashtirilishiga mo'ljallanganligidadir.

**ADABIYOTLAR TAHLILI VA METOD.** J.J.Karbozovanning "Bo'lajak o'qituvchilarni elektron ta'lim resurslarini loyihalashga tayyorlash" nomli ilmiy ishida Tabiiy fanlar fanidan 3D formatli virtual ta'lim texnologiyalarini qo'llab o'qitish, bugungi kunning ta'lim va tarbiya jarayonining yangi bosqichi sifatida e'tirof etilib, an'anaviy hamda masofaviy o'qitish tizimlaridan foydalanilib kelinmoqda. Bu esa o'quvchilar tomonidan fanni mustaqil o'zlashtirish uchun keng ko'lamlı imkoniyatlar yaratishini aytib o'tgan [1].

Virtual ta'lim texnologiyalarida didaktik, texnik va tashkiliy qarashlar hisobga olinib, unda pedagogik ta'sirni faollashtirish va xilma-xilligini oshirish ko'zda tutilgan, chunki u har xil elektron ko'rinishdagi axborotlarni o'z ichiga oladi (rasmlar, chizmalar, jadvallar, diagrammalar, audio va video, virtual taqdimotlar) [2]. **Ошибка! Источник ссылки не найден.**]. Bu esa o'quvchilarni tabiiy fanlar fanidan ko'nikmalarini shakllantirishda muhim pedagogik dasturiy vosita hisoblanadi.

U.B.Baxodirovanning fikricha, umumiy o'rta ta'lim muassasalarida 3D formatli virtual ta'lim texnologiyalaridan foydalanishga oid shakl va usullarni yanada takomillashtirish lozim. Buning natijasida o'quvchilarda fikrlash va tizimli tahlil, ijodiy faollik hamda ularda mustaqil faol ko'nikmalarni vujudga kelishiga zamin yaratiladi [3].

Ijod mahsuli bo'lgan virtual ta'lim texnologiyalari professor-o'qituvchi va o'quvchilarning o'quv jarayonidagi turkum muammolarni sezilarli darajada hal etish imkoniyatini yaratadi. Shuningdek, vaqtni tejash va mustaqil ish faoliyatlarini faollashtirish uchun muhim pedagogik vosita hisoblanadi [4]. O'quvchilarning tabiiy fanlar fanidan bilim ko'nikmalarini shakllantirish umumiy o'rta ta'lim muassasalarida o'qituvchilarning eng muhim vazifasi hisoblanadi. Bu vazifani amalga oshirishda Internet tarmog'ida yaratilgan virtual ta'lim platformasidan foydalanish samaralidir.

**MUHOKAMA.** Virtual ta'lim platformasini tashkil etuvchi resurslar grafik, animatsiya, rasmlar, ovozli, matnli ma'lumotlardan iborat bo'lishi mumkin. Ya'ni, virtual ta'lim platformasi bitta tarkibda birlashgan axborotni taqdim etishning har xil vositalarining uyg'unligini o'zida aks ettiradi (matn, grafika, video va audio taqdimotlarining birlashtirgan holda axborotni o'zlashtirishni sodda shaklda yetkazishni ta'minlaydi). Shuningdek, o'quvchilarning motivatsiyasini oshirish hamda yangi bilim va ko'nikmalarining shakllanishiga imkon beradi. O'quvchilarning tabiiy fanlardan ijodiy izlanuvchanlik faoliyatini rivojlantirish uchun zamonaviy virtual ta'lim texnologiyalarini ishlab chiqish zarur.

Birinchiidan, kompyuterlar o'rganilayotgan jarayonlarni modellashtirish va vizuallashtirishga yordam beradi. O'rganilgan bu jarayonlarning ko'pchiligi, masalan, fizikada atomlarning parchalanish jarayonlari, mexanik va elektromagnit tebranishlar, issiqlik almashinuvi paytida haroratni tenglashtirish, bizning galaktikamizning tuzilishi va boshqalar o'lehamlari – kompyuterda modellashtirish va vizualizatsiyalash usullari raqamli ta'lim muhiti-ning ajralmas qismi ekanligi bilan ahamiyatlidir.

Ikkinchiidan, kompyuter vaqtni tejaydi. Bu o'qituvchining darslarga tayyorlanish vaqti. Vizual modellarni tayyorlash va namoyish qilish uchun darsning o'zida sarflangan vaqt. Teskari aloqani olish, o'rganilayotgan tabiiy fanlar mavzulari bo'yicha o'quvchilarning tushunish va bilim darajasini nazorat qilish uchun zarur bo'lgan vaqt.

Uchinchiidan, raqamli ta'lim vositalari o'quvchilarga nafaqat yonma-yon, balki birgalikda ishlash imkoniyatini yaratadi. Raqamli texnologiyalardan foydalangan holda tabiiy fanlarni o'qitish

metodlarini takomillashtirishda ta'lim oluvchilarning bilimlarini nazorat qilish, fan o'qituvchilari bilan o'zaro hamkorlik qilish, yangi elektron resurslarni birgalikda ishlab chiqish va metodik takomillashtirish yaxshi samara beradi. Elektron darsliklarni tayyorlash hamda ulardan virtual muhitda foydalana olish tajribasini har bir pedagogda rivojlantirish zarur. Raqamli texnologiya vositalaridan foydalanish bilan birga, global kompyuter tarmog'iga kirishni ham ta'minlaydi, bu yerda o'quvchilar qo'shimcha ma'lumot olishlari, shuningdek, an'anaviy tashkil etilgan o'quv muhitidan qisman chiqib, virtual ta'lim imkoniyatlaridan foydalangan holda o'z olgan bilimlarini rivojlantirib boradi.

Ta'lim muassasalarida, mustaqil topshiriqlar bajarishni o'z ichiga oladi jumladan, boshlang'ich ta'limda tabiiy fanlar fanidan an'anaviy o'qitish usullari ma'ruzalarni tinglash. Ushbu mashg'ulotlarni olib borishda virtual ta'lim texnologiyalari boshqa ta'lim vositalariga nisbatan ajralib turadi (ko'rsatishning imkoniyati bo'lmagan jarayonlarni virtual ta'lim texnologiyalari orqali amalga oshirish imkoniyati mavjud). Ta'lim sifatini oshirish va rivojlantirish uchun texnologiyalardan samarali foydalanish imkoniyatini yaratish lozimdir. Bilimli avlod, professional kadrlar, bu jamiyatning keng miqyosda rivojlanishi garovidir.

**NATIJALAR.** Ma'lumki, har jabhada rivojlanib kelayotgan O'zbekistonimizda ham aniq va tabiiy fanlarning o'qitilishida oliy va umumiy o'rta ta'lim muassasalarini moddiy texnika bazasini yangilash, shuningdek, oliy ta'lim muassasalarida o'quv jarayoniga zamonaviy axborot kommunikatsiya texnologiyalari va "Elektron ta'lim" tatbiqi 2020-2025-yillarda innovatsion rivojlanishning kelajak trayektoriyasi va texnologik yo'l xaritasini ishlab chiqish ishlari amalga oshirilmoqda.

Elektron darsliklarni qay ko'rinishda bo'lishini loyihalashdan avval ko'p jihatlari o'rganiladi, ya'ni uni o'qitish bo'yicha tadqiqotlar olib boriladi. Natijada yaratilayotgan o'quv darsliklar bilim olish jarayonida qiziqarli, yengil, esda qolarli va zararsiz bo'lishiga yo'naltiriladi. Birgina sahifada bir vaqtning o'zida ham matnli, ham audio tovushli tushuntirish, ham video rolik,

ham 3D-animatsiya bo'lishi mumkin. Bunday darsliklar asosan fizika va anatomiya darsliklari ustida olib borilgan tadqiqotlarga ko'ra, darsliklar virtual, multifomatli va interaktiv bo'lganligi sababli ishtirokchilarning 80 foizi axborotni eslab qola oladi.

Ta'lim oluvchining o'quv jarayoniga qamrab olishini rejadagi darslarga bilim va ko'nikmalarini hosil qilishda 3D animatsiyadan foydalanish ham maqsadga muvofiqdir. 3D gologrammali virtual laboratoriyaning afzalligi shundaki, barcha tabiiy fanlar (fizika, kimyo, biologiya va geografiya) o'qituvchilari o'quvchilarga bilim berishda, jismlarni 3D gologrammali virtual ko'rinishini ularning ko'z o'ngida namoyon bo'lishi bilan ahamiyatlidir. Buning uchun avvalo bizga 3D gologramma hosil qiluvchi qurilma, video tasvir hosil qiluvchi ekran (televizor, planshet, noutbukdan ham foydalanish mumkin) o'lchamiga qarab esa, qurilma o'lchamlari olinadi.

**XULOSA.** Umumiy o'rta ta'lim muassasalarining tabiiy fanlar fanidan virtual ta'lim texnologiyalarini loyihalashtirish va ulardan foydalanib o'qitish uchun mashg'ulotlarni ilmiylik, tizimli va izchillik, o'quv materialining o'zaro ta'siri, muvofiqlik, vizual o'qitish, ta'lim muammolarini ta'minlash, mustaqil ta'lim olish, o'quv materialini tarqatish, qiziqtirish, nazariyaning amaliyot bilan bog'lanish va ergonomik tamoyiliga tayanish lozim.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Карбозова Ж.Ж. Подготовка будущих учителей к проектированию электронных образовательных ресурсов: автореферат дис. ... кандидата педагогических наук. Душанбе, 2018. - 25 с.
2. Артемьева В.В. Дидактические условия обучения младших школьников естествознанию средствами компьютерных технологий // Автореферат. Дисс.. кан. пед. наука. Екатеринбург 2007. 26 с.р8.
3. Ваходирова У.В. Микробиология fanini o'qitishda virtual ta'lim texnologiyalaridan foydalanish metodikasini takomillashtirish (Pedagogika oliy ta'lim muassasalari misolida) // Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun tayyorlangan dissertasiya. – Qarshi, 2020. – 156 b.
4. Данилкевич А.В. Информатизация как целевая ориентация и стратегический ресурс образования: сборник статей Международной научно-

## KASB TANLASH – JAMIYAT TARAQQIYOTINI TA'MINLASHNING MUHIM OMILI

<sup>1</sup>*Qabulov Qosimboy Pirjonovich, psixologiya fanlari doktori  
(DSc), Urganch davlat universiteti dotsenti*

<sup>2</sup>*Raximova Mo'minaxon Zokirjonovna, (PhD)Urganch davlat  
universiteti dotsenti*

## CHOICE OF PROFESSION IS AN IMPORTANT FACTOR IN ENSURING SOCIETY DEVELOPMENT

<sup>1</sup>*Kabulov Kasimboy Pirjonovich, Doctor of Psychology,  
Associate Professor, Urgench State University*

<sup>2</sup>*Rakhimova Muminaxon Zakirjonovna, (PhD), Associate  
Professor, Urgench State University*

## ВЫБОР ПРОФЕССИИ – ВАЖНЫЙ ФАКТОР ОБЕСПЕЧЕНИЯ РАЗВИТИЯ ОБЩЕСТВА

<sup>1</sup>*Кабулов Касымбой Пиржонович, доктор психологических  
наук, (DSc), доцент, Ургенчский государственный университет*

<sup>2</sup>*Рахимова Муминахон Зокиржоновна, (PhD), доцент,  
Ургенчский государственный университет*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada kasb tanlash masalasi va uning ijtimoiy-psixologik ahamiyati, kasb tanlash tizimi mezonlarining tanlanishi, kasb tanlashga ta'sir qiluvchi omillar ko'rsatilgan bo'lib, bunda o'quvchilarni kasbga yo'naltirish, ularni erkin kasb tanlashga o'rgatish masalalari yoritilgan. Shuningdek, maqolada kasb tanlashga munosabat omili mezonlari tanlanishining ilmiy-nazariy va amaliy-uslubiy jihatlari hamda ularni tadqiq qilishning jihatlari o'rganilgan.

**Kalit so'zlar:** kasb, motivatsiya, kasbga yo'naltirish, ta'lim, tarbiya, islohot, o'qituvchi, o'quvchi, innovatsiya.

**Annotation:** This article reveals the problem of choosing a profession and its socio-psychological significance, highlighting the criteria for the system of choosing a profession, factors influencing the choice of a profession, questions of student orientation to a profession. teaching free choice of profession. The article also discusses the scientific-theoretical and practical-methodological aspects of the choice of criteria for the factor of attitude to the choice of profession, as well as aspects of their study.

**Key words:** profession, motivation, career guidance, education, training, reform, teacher, student, innovation.

**Аннотация:** В данной статье раскрывается проблема выбора профессии и ее социально-психологическая значимость, выделение критериев системы выбора профессии, факторы, влияющие на выбор профессии, вопросы ориентации учащихся на профессию, обучающие свободному выбору профессии. Также в статье рассматриваются научно-теоретические и практико-методические аспекты выбора критериев фактора отношения к выбору профессии, а также аспекты их исследования.



<sup>1</sup>[https://orcid.org/  
0000-0002-1478-0330](https://orcid.org/0000-0002-1478-0330)

e-mail:

<sup>1</sup>[qosimboy86@mail.ru](mailto:qosimboy86@mail.ru)



<sup>2</sup>[https://orcid.org/  
0000-0003-1876-7982](https://orcid.org/0000-0003-1876-7982)

e-mail:

<sup>2</sup>[muminarahimova37@  
gmail.com](mailto:muminarahimova37@gmail.com)

*Ключевые слова: профессия, мотивация, профориентация, образование, обучение, реформа, учитель, ученик, инновации.*

**KIRISH.** Ma'lumki, har qaysi jamiyatning ravnaqi, uning ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy barqarorligi va taraqqiyoti unda yashovchi fuqarolarining aqliy va axloqiy salohiyatini yuksak darajada rivojlanganligiga bog'liq. Zero, jamiyatimizning ma'naviy yangilanishi, iqtisodiyotining yuksalishida, jahon hamjamiyatida munosib o'ringa ega bo'lishida, umuman aytganda kuchli demokratik huquqiy davlat barpo qilishda kadrlar tayyorlashning milliy masalasi ustuvor mezon sifatida qaraladi.

#### **ADABIYOTLAR**

O'quvchilarning kasbiy tasavvurlarini shakllantirish, kasbga yo'naltirish, kasb tanlashlariga ko'maklashish, bu bir tomondan, o'quvchilarni muayyan kasbni egallash va jamiyatda o'z o'rnini topish, ehtiyojlarini qondirish imkonini bersa, ikkinchi tomondan davlatga muayyan darajada ijobiy foyda keltirish, unda progressiv o'zgarishlarga sabab bo'ladi. S.M.Sayles fikricha, o'smirlik yoshida kasb tanlash yetakchi faoliyat sanaladi. O'quvchi – yoshlar ertangi taqdiri haqida o'ylashga majbur. Chunki, ular oldida jiddiy hayotiy masala – kasb-hunar tanlash muammosi turadi. Ular kasb-hunar sohalarining ahamiyatli jihatlariga alohida e'tibor qarata boshlaydilar. Shu bois ham, ularning yoshlik davridagi o'zgarishlar kasb tanlash va kasbning ahamiyatiga chuqur nazar solishga olib keladi. Bu esa ularning hayotda o'z o'rnini topish majburiyatini ko'ndalang qo'yadi [5. 339].

Shuningdek, I.I.Chesnakova [8.144] tadqiqotlaridagi shaxs munosabatlari tizimiga daxldor bo'lgan boshqaruv motivatsiyasi, V.S.Merlin [4.120] tadqiqotlaridagi shaxs va kasbning induvidial motivatsiyasi, P.M.Yakobsonning munosabat motivatsiyasi va ijtimoiylashuvi kabi nazariy qarashlarning yaratilishi munosabat tizimida ma'lum metodologik asoslarni izohlab berishga xizmat qiladi.

**TADVIQOT METODOLOGIYASI.** Ishda maqsadli kuzatuv, suhbat, qayd qiluvchi eksperiment, E.A.Klimovning DDS, ya'ni "Differensial-diagnostik so'rovnomasi",

R.V.Ovcharovanning "Kasb tanlash motivlarini aniqlash" metodikasidan foydalandik.

**TAHLIL VA NATIJALAR.** Aytish mumkin, barkamol insonning shakllanishi, uning munosib kasb-korni egallashi, jamiyat taraqqiyoti uchun baholi qudrat o'z hissasini qo'shib yashashi va shu orqali jamiyatda o'zligini namoyon etishi shaxsning har tomonlama kamol topishiga bog'liq hisoblanadi. Albatta, bu jarayon shaxsning kasbiy shakllanishi bilan birgalikda kechadi. Keng ma'noda kasbiy shakllanish deganda insonning o'z aqliy qobiliyatlari, jismoniy imkoniyatlari u yoki bu sohaga bo'lgan layoqatlari, qiziqish va intilishlari, xohishi va ehtiyojlari, shuningdek qadriyat va dunyoqarashlariga ko'ra biror bir kasb sohasida tanlashi, ta'lim olishi keyinchalik shu sohaga kirishib, kasbga moslasha borishi va nihoyat yillar davomida yetuk va malakali mutaxassis bo'lib yetishishi tushuniladi. Bu cheksiz, murakkab, orqaga qaytarilmaydigan muhim jarayon bo'lib, unda inson manfaatlarini, xususan kasb tanlash yoshidagi o'quvchilarni kasbga to'g'ri yo'naltirish, ularga kasb tanlashlarida ko'maklashish muhim masalalardandir.

O'quvchilarning kasbiy shakllanishda kasbiy sifatlar hamda taraqqiyot jarayoni bir-biri bilan uzviy bog'liq jarayondir: kasbiy sifatlar bir tomondan kasbiy taraqqiyot jarayonida shakllansa, ikkinchi tomondan shaxsning mutaxassis sifatida shakllanishida muhim ko'rsatkich hisoblanadi.

O'quvchilarni kasb tanlashga yo'llash – umuminsoniy madaniyatni shakllantirish jarayonining tarkibiy qismlaridan biri bo'lib, yosh avlodning kasbiy shakllana borishi, tug'ma layoqatlarini rivojlantirishga ko'maklashish, insonga kasbiy o'zligini anglashiga yordam beruvchi maxsus chora-tadbirlar majmuasi bo'lib, uning imkoniyat va ehtiyojlarini hisobga olgan holda maqbul kasb tanlashida namoyon bo'ladi.

Kasb tanlashga yo'llashning bosh maqsadi o'ziga xos usullar yordamida mutaxassisning mehnat bozoridagi raqobatbardoshligini kuchaytirish va aholining samarali bandligini oshirishga erishishdan iborat. Kasb tanlashga yo'llashdan ko'zlangan asosiy maqsadi – yosh



avlodni ongli va mustaqil ravishda ta'lim yo'nalishini tanlashiga yoki shaxsning psixofiziologik xususiyatlari, qiziqishi, qobiliyati, moyilliklari va jamiyatning kadrlarga bo'lgan ehtiyojidan kelib chiqqan holda mehnat qilish sohasini tanlashga tayyorlashdan iborat.

K.M.Guriyevich mehnat faoliyati motivlari xilma-xil bo'lib, ular o'ziga xos omillar bilan belgilanadi.

Birinchi guruh omillariga jamoaviy xarakterning uyg'onishi bilan bog'liqlari kiritilib, bunda jamoaga foyda tegishini anglash, boshqa insonlarga yordam berish istagi, mehnat faoliyatida ijtimoiy ustanovkaning zarurligi va boshqalarga nisbatan tobelikni xohlamaslik kabi motivlar hisoblanadi.

Ikkinchi guruh omillari o'zi va oilasi uchun moddiy mablag'larning orttirilishi, moddiy va ma'naviy ehtiyojlarning qondirilishi uchun pul ishlab topish motivlaridir.

Uchinchi guruhga o'zini o'zi faollashtirish, rivojlantirish, o'zini namoyon qilish ehtiyojlarining qondirilishi va boshqalar kiradi. Ma'lumki, insonlar tabiatan biror-bir faoliyat bilan shug'ullanmasdan turolmaydilar[9. 20].

Qator tadqiqotlar kasb tanlash, kasbiy faoliyatga yaroqlilik va shaxsning kasbiy o'zligini anglashi masalalari, kasbiy faoliyatning psixologik talablari va individ faoliyatining psixofiziologik asoslari, kasbiy qiziqishlarning shakllanishini o'rganishga bag'ishlangan. Bu yo'nalishlarda M.X.Titma, Ye.A.Klimov, E.A.Golubeva, A.P.Chernyavshkaya, Ye.A.Golomshtok, K.M.Guriyevich, N.D.Levitov va boshqalarning olib borgan tadqiqot ishlarini misol qilib keltirish mumkin[2.44].

Kasbiy o'zlikni anglash borasidagi izlanishlarning tahlilidan kasbiy faoliyatning har bir bosqichiga tizim sifatida qarash kerak, degan xulosani chiqarish mumkin. V.S.Magun, N.D.Levitov, Yu.M.Zabrodinlar o'z tadqiqotlarida kasbiy kamolotning bosqichlaridan biri hisoblangan kasbiy maslahatga alohida e'tibor qaratib, uni shaxsning ma'lum kasbiy faoliyatga moslashuvi jarayonining yo'naltiruvchisi sifatida baholaydilar hamda faoliyat samaradorligini shaxsning qobiliyatlariga bog'lab tushuntiradilar [1.100].

Kasbiy kamolot masalasi inson hayotida muhim o'rin tutadigan faoliyat yo'nalishidir. Bu faoliyat yo'nalishini to'g'ri tanlash va belgilash keng ko'lamdagi shaxsiy muammolarni hal etishga olib keladi. Shunga ko'ra, quyidagi mulohazaga e'tibor qaratish eng muhimdir. *"Kasb tanlash"* – kasb bitiruvchilaridan kelib chiqib, bir qancha variantlar orasidan shaxsiy xususiyatlari va xislatlari ustuvorligiga ko'ra munosibrog'ini tanlashni bildiradi. Kasb tanlash kasbiy yo'nalganlikka nisbatan birmuncha murakkabroq jarayon. Chunki shaxsda kasbga xos xususiyatlar – muayyan kasbni egallashga tayyorgarlik (bilim, tajriba, dunyoqarash doirasining kengligini) darajasining mavjudligini aniqlash talab etiladi [1.102].

XXI asrning boshidagi kasb-korlikka doir axborotlar ko'laminin ortganligi, inson ehtiyojlarining o'sib borayotganligi, yangi sohalarning paydo bo'layotganligi, kasb yo'nalishlarining o'zgarib borishi va shaxsning hayotga munosabati o'zgarayotganligi sifatleri bilan xarakterlanadi.

Sh.B.Saparovning o'qituvchilarining shaxsiy-kasbiy xususiyatlarini o'rganishga bag'ishlangan tadqiqotida ta'kidlanadiki, o'qituvchining shakllanishi va rivojlanishi ularning kasbiy faoliyatida amalga oshadi, ya'ni namoyon bo'lish darajasi va sifati o'qituvchilarning yoshi va ish stajiga uzviy bog'liqdir [6.26].

Yu.M.Asadovning dissertatsiyasida umumta'lim maktabi o'qituvchisining malaka oshirish tizimidan kasbiy-shaxsiy o'sish yo'nalishini belgilovchi psixologik xususiyatlari o'rganiladi. Bu bosqichda mahoratni mustahkamlash, kasbiy tiklanish samaradorligi ko'p jihatdan psixologik xususiyatlarga bog'liq. Bundan tashqari, tadqiqot ishida maktab ta'limini rivojlantirish davlat umummilliy Dasturi talablaridan kelib chiqqan holda kasb mahorati rivojlanishi omillari sifatida o'quvchining individual-psixologik xususiyatlarini o'rganishning dolzarbligi ilgari surilgan. Unda o'quvchida kasb mahoratining shakllanishi yaxlit komponentlarini tasniflovchi "o'quvchining kasb mahorati", "o'quvchining individual-psixologik xususiyatlari", "o'quvchining psixologik tipi" kabi tushunchalarni belgilovchi o'qituvchining individual-psixologik

xususiyatlarni psixologik tiplarda integrallashuvi va ularning malaka oshirish tashkiliy shakllarini tanlash motivatsiyasiga ta'sirini izohlovchi individual-psixologik xususiyatlarning o'qituvchi kasb mahoratini rivojlantirish omillari sifatida ahamiyatini ochib beruvchi ilmiy asoslangan ma'lumotlar keltirilgan. So'nggi yillarda o'zbek olimlari kasb tanlash, kasbiy motivlarni shakllantirish va kasbiy o'zini o'zi belgilanish masalalari bo'yicha bir qator tadqiqotlar olib borishgan. Masalan: Nasiba Xolyigitova, Ulug'bek Jumayev, B.N.Sirliyev, O.E.Hayitov, R.Z.Asomova va boshqalar.

Nasiba Xolyigitova o'zining "O'quvchilardagi kasb motivlari barqarorligiga guruhij jipslikning ta'siri" nomli dissertatsiya ishida, kasbiy motivlarning mustahkam bo'lishi bir qator omillarga bog'liqligini ko'rsatib, unga guruhdagi status, emotsional ekspansivlik, o'zaro hamjihatlik, guruh a'zolarining guruhdagi o'rni, ularning o'zaro bir-birini e'tirof etishi, qo'llab-quvvatlashi (referentometrik), oilaning nufuzi, ota-onaning kasbga qiziqirish layoqati va qo'llab-quvvatlashlari (kasb tanlash qadriyatlarini) kabi o'quvchilarda kasbiy motivlarning shakllanishiga ta'sir ko'rsatuvchi ijtimoiy-psixologik omillar ta'siri katta ekanligi ko'rsatib bergan [7. 234].

B.N.Sirliyev "O'rta maxsus kasb-hunar o'quv yurtlari ustalari kasbiy kamolotining psixologik jihatlari" mavzusidagi tadqiqot ishi kasb-hunar o'quv yurtlarining ustalari misolida kasbiy kamoloti va kasbiy o'zini o'zi belgilanishning dolzarb muammolarini tadqiq qilishga bag'ishlangan. Tadqiqot ishida ishlab chiqarish ustalarini kasbiy moslashish, adaptatsiya va kasbiy mahorat bosqichlarida tayyorlashni va ularning shaxsiy-kasbiy o'sishlarini takomillashtirish muammosining psixologik jihatlari ochib beriladi. Shuningdek, mavzuga aloqador tadqiqot ishlaridan O.E.Hayitov tadqiqotlarida "Tadbirkorlik kasbi faoliyati motivatsiyasining etnopsixologik xususiyatlari" o'rganilgan bo'lib, unda tadbirkorlik faoliyatiga ta'sir ko'rsatuvchi etnopsixologik omillar ochib berilgan [10.124].

**XULOSA.** Kasb tanlash motivatsiyasi o'ziga xos ijtimoiy-psixologik muammo sifatida xorijiy, Rossiyalik hamda O'zbekistonlik olimlar tomonidan turli xil ilmiy mezonlar orqali tahlil qilinadi. "Inson – kasb – ishlab chiqarish muhiti" tizimi o'z-

o'zicha ko'p bosqichli, ko'p qirrali, juda murakkab bo'lib, respublikamizda ushbu tizimda davlat miqyosida inson omiliga g'amxo'rlik qilinadi. Kadrlar tayyorlash sohasida davlat siyosati har tomonlama rivojlangan shaxs fuqaroni uzluksiz ta'lim tizimi orqali tarbiyalashni ko'zda tutadi. Shunday qilib, insonning kasbiy shakllanish muammolarini o'rganish ham fundamental, ham amaliy tadqiqotlarning dolzarb vazifalaridan sanaladi. Ularning kasbiy tiklanishining turli bosqichlarini o'rganishga bag'ishlangan tadqiqotlari tahlilida rivojlanishning shaxsiy omillari, shaxsning kasbiy faoliyati doirasida tiklanishining hal qiluvchi roliga asosiy e'tibor qaratiladi.

#### ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Забродин Ю.М., Сосновский Б.А. Мотивационно-смысловые связи в структуре направленности человека. // Вопросы психологии. 1989, №6. С.100-106.
2. Левитов, Н.Д. О психических состояниях человека. Н.Левитов. Москва: Машиностроение, 2010. – 344 с.
3. Леонтьев А.Н. Проблемы развития психики. – М.: Изд. МГУ, 1981. - 584 с.
4. Мерлин В.С. Лекции по психологии мотивов человека. – Пермь: Изд. ПГПИ, 1971. 120 с.
5. Sayles S.M. Supervisory seyle and produceiviey: review and eheory. – In: Readings in induserial and organizaecional psychology. New York.1972. pp.339-341.
6. Сапаров Ш.Б. Личностно-профессиональные особенности преподавателей специальных дисциплин средних специальных, профессиональных учебных заведений: Автореф. дисс. канд. психол. наук. – Ташк. Гос. пед. ун-т им. Низами. –Т., 1999. –26 б.
7. Хольигитова N., Abdumajidova D.R. "Kasbiy psixologiya". O'quv qo'llanma, -T.: "Iqtisod-Moliya", 2019. – 544.
8. Чеснакова И.И. Проблема самосознания в психологии. – М.: Наука, 1977. – 144с.
9. Қабулов Қ.П. Ўқувчи шахсида касб танлаш мотивацияси шаклланишининг ижтимоий-психологик механизмлари. Монография. IJOD-PRINT MCHJ нашриёти. 2023 йил. 286-бет.

## ЖЕНСКИЕ ОБРАЗЫ В РОМАНЕ УТКИРА ХОШИМОВА “МЕЖДУ ДВУХ ДВЕРЕЙ”

*Обидова Фарангиз Акмаловна, магистрант  
Термезского государственного университета*  
FEMALE IMAGES IN UTKIR KHOSHIMOV'S  
NOVEL “BETWEEN TWO DOORS”

*Obidova Farangiz Akmalovna, Master's student at Termez  
State University*

## O‘TKIR HOSHIMOVNING “IKKI ESHIK ORASI” ROMANIDAGI AYOL OBRAZLARI

*Obidova Farangiz Akmalovna, Termiz davlat universiteti  
magistranti*

**Аннотация:** В данной статье анализируются женские образы в романе Уткира Хашимова «Между двух дверей». В романе ярко показаны образы женщин, которые пожертвовали своим счастьем, рассказывается о нелёгкой доле девушки Роби, также сложность войны, нарушившей мир, была изображена с большим мастерством. Смелость, упорство, человечность и терпение женщин, созданных писателем являются символом национального духа.

**Ключевые слова:** кровавая война, отдельные персонажи, человечество, рассказ, вселенский пафос, Роби, Рагно, роман судеб.

**Abstract:** This article analyzes female characters in Utkir Khashimov's novel “Between Two Doors.” The novel vividly shows the images of women who sacrificed their happiness, talks about the difficult lot of the girl Robia, and the complexity of the war that disrupted the peace was depicted with great skill. The courage, perseverance, humanity and patience of the women created by the writer are a symbol of the national spirit.

**Key words:** bloody war, individual characters, humanity, story, universal pathos, Robiya, Rano, romance of destinies.

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada O‘tkir Hoshimovning “Ikki eshik orasi” romanidagi ayol qahramonlar obrazlari tahlil qilinadi. Romanda o‘zini fido qilgan ayollar obrazlari yorqin aks ettirilgan, Robiyaning og‘ir taqdiri haqida so‘z yuritilgan, tinchlikni buzgan



[https://orcid.org/  
0000-0003-0515-7809](https://orcid.org/0000-0003-0515-7809)

**e-mail:**  
[bafada.0407@mail.ru](mailto:bafada.0407@mail.ru)

*urushning murakkabligi yuksak mahorat bilan tasvirlangan. Adib yaratgan ayollar obrazlarining mardligi, matonati, odamiyligi, sabr-toqati milliy ma'naviyat timsolidir.*

**Kalit so'zlar:** qonli urush, individual personajlar, insoniylik, hikoya, umuminsoniy pafos, Robiya, Ra'no, taqdiralar romantikasi.

**ВВЕДЕНИЕ.** Узбекский писатель, лауреат Государственной премии Республики Уткир Хошимов, является одним из представителей поколения, которое вступило в литературу в 60-х годах. Он автор многих интересных, оригинальных рассказов, повестей и романов. Романы Уткира Хошимова завоевали сердца читателей своей новизной сюжета, оригинальным толкованием повседневных событий, яркими персонажами, увлекательными интригами, легкостью стиля и образностью языка. Интересно, что Хошимов, несмотря на ожидания социалистического реализма, предпочел отображать жизнь без прикрас и добился значительного признания и успеха. Произведения Уткира Хошимова привлекали читателей своим художественным очарованием, обладая двумя важными особенностями. Одной из них было то, что писатель не использовал художественное творчество как средство примитивной пропаганды и не возводил лозунги о текущих проблемах времени. Напротив, в своих работах он стремился к художественному освещению важных универсальных человеческих вопросов. В его прозе особое внимание уделялось утраченным человеческим ценностям.

**ЛИТЕРАТУРА И МЕТОДЫ.** Роман Уткира Хошимова «Между двух дверей» признается одним из наиболее важных произведений писателя. В нем прослеживаются достоинства узбекского народа, его великодушие и вера в любую ситуацию, доброта и глубокие чувства. Писатель мастерски описывает жизнь, судьбы и трудности узбекского народа в годы войны, представляя ряд сложных и запутанных судеб за почти сорок лет.

Несмотря на переменные времена, национальный дух сохраняет представления о человеческом достоинстве. Через судьбы героев, которые несмотря ни на что находят

радость даже в самых тяжелых временах, Хошимов исследует тему любви и мира, призывая к мирной и счастливой жизни. Роман отмечает собой зрелость на творческом пути писателя и был тепло принят читателями. Он был признан одним из лучших произведений 1986 года и удостоен Республиканской Государственной премии. Роман «Между двумя дверями» затрагивает важные проблемы своего времени. Роман «Между двумя дверями», написанный в 1986 году, убеждает читателя великим профессионализмом автора, который глубоко изучил события, описанные в романе.

**ОБСУЖДЕНИЕ.** Каждый эпизод оказывает серьезное воздействие на сердце благодаря естественной и искренней манере изображения сцен из жизни, межличностных отношений и диалогов. Роман, состоящий из семи частей и сорока семи глав, уникален своей композиционной структурой. Писатель мастерски связывает истории девяти персонажей, вовлеченных в события романа. Такой поэтический прием требует высокого мастерства, чтобы избежать разрывов в сюжетной линии и сохранить ее цельность. Однако сила воздействия и внутренняя логика романа оставляют на читателе прочное впечатление.

В литературных произведениях по всему миру, а также в «Между двумя дверями», мы встречаем несколько храбрых женщин, таких как Зеби, Башорат и Парча, которые во многом схожи друг с другом. Автор раскрывает трагические судьбы этих женщин, вынужденных работать как мужчины из-за требований социальной среды. Они ведут тракторы и работают на полях день и ночь, не зная покоя. Они несут на себе огромные ответственности, и их личная жизнь страдает от этих тяжелых обязанностей. Одной из трагических героинь является Башорат, которая потеряла своего мужа и единственную дочь в результате войны.



Образ женщины также изображен в произведении с большим мастерством. Она особенно выделяется своим персонажем Кора Амма. Этот персонаж отличается своей добротой, терпимостью и простотой. Ее любовь и нежность, типичные для узбекских матерей, легко узнать из следующих слов: «Где ты, дитя мое? В каких странах вы побывали?! Всё в порядке? Ну, даже если ты безногий человек, я бы хотел, чтобы кто-нибудь понес тебя на носилках! Я носил его на ладони! Твой отец встал на твой путь. Теперь хоть закопайте меня в землю своими руками! Нет, я не плачу, детка! Я не заплачу. Даже если я плачу... Нет, сын мой. Ты расстраиваешься, когда я плачу. Робия горит. Глаза моей дочери все еще на двери. Ожидаящие. Она ждет вас. Если была другая девушка... Я снова это воображаю? Кто я, милое дитя, прости твою грешную мать! Я знаю, не дай Бог, если ты мученик, твой призрак будет кричать. Если ты жив, то завтра придешь и возьмешь меня за шиворот. Ты говоришь: «Что ты наделала, шумкампир, ты моя мать, у тебя нет веры!» Здесь также мать считает себя грешницей, взвешивает на себе всю вину, лишь бы ее ребенок остался жив. Для нее весь мир становится светильником. В этом образе писательница олицетворяет идеал узбекских матерей того времени, которые терпеливо преодолевали все трудности и находили в себе силы для жизни. В романе

также значимую роль играют образы Раъно и Умара-закунчи.

**ЗАКЛЮЧЕНИЕ.** В образе Раъно эффектно раскрывается сложная судьба, сопровождаемая сожалением и трагедией прокаженной невесты, отправившейся на фронт и потерявшей верность своему мужу Шомуроду. Раъно – женщина, чья жизнь омрачена болезненными чувствами, раскаянием и тоской, ибо ее страсть превзошла ее способности к терпению. Читатель, знакомясь с этим персонажем, неизбежно испытывает негативные эмоции к ней.

#### **ЛИТЕРАТУРА:**

1. Эшматова Й.Б. Художественная интерпретация женской психики в узбекских рассказах периода независимости. – Ташкент, 2020, 167с.
2. Саттарова Г.Й. Интерпретация образа женщины в современных рассказах. Международный Научный журнал – 2020.
3. Хашимов У. Между двух дверей. Ташкент, 2013.
4. Касымбаева С.Н. «Национальное усовершенствование поэтического духа в романе «Между двух дверей». Научная статья.
5. Дусенбоев О. О романе «Между двух дверей».
6. Болтабоев Х. Любимый писатель народа. Ташкент, 2011.



## ОСОБЫЙ СЛОЙ ЛЕКСИКОНА ТЕРМИНОВ В РУССКОМ ЯЗЫКЕ

*Усманова Гульшад Мадхатовна, преподаватель Термезского  
государственного университета*

## SPECIAL LAYER OF THE LEXICON OF TERMS IN THE RUSSIAN LANGUAGE

*Usmanova Gulshad Madkhatovna, Teacher, Termiz State  
University*

## RUS TILIDA TERMINLAR LEKSIKANING MAXSUS QATLAMI SIFATIDA

*Usmanova Gulshad Madkhatovna, Termiz davlat universiteti  
o'qituvchisi*

**Аннотация:** Терминология как наука появилась не более века назад, когда началось бурное развитие этой отрасли языкознания. Термин «терминоведение», объектом рассмотрения которого являются термины, предметом изучения – терминологические системы, закономерности возникновения и функционирования терминологических единиц и терминосистем, был введён в научный оборот в 1970-1980-х годах. Наука терминоведение охватывает подходы лингвистики, логики и других специальных дисциплин.

**Ключевые слова:** терминология, терминологические системы, отрасли языкознания, комплекс терминов, лингвистическая дисциплина.

**Summary:** Terminology as a science appeared no more than a century ago, when the rapid development of this branch of linguistics began. The term "terminology", the object of consideration of which are terms, the subject of study - terminological systems, patterns of emergence and functioning of terminological units and terminological systems, was introduced into scientific circulation in the 1970-1980s. The science of terminology covers the approaches of linguistics, logic and other special disciplines.

**Key words:** terminology, terminological systems, branches of linguistics, complex of terms, linguistic discipline.

**Annotatsiya:** Terminologiya fan sifatida bir asrdan ko'proq vaqt oldin, tilshunoslikning ushbu tarmog'ining jadal rivojlanishi boshlangan paytda paydo bo'lgan. Terminlar, o'rganish predmeti – terminologik tizimlar, terminologik birliklar va terminologik tizimlarning paydo bo'lish va faoliyat ko'rsatish qonuniyatlari bo'lgan "terminologiya" atamasi 1970-1980-yillarda ilmiy muomalaga kiritilgan. Terminologiya fani tilshunoslik, mantiq va boshqa maxsus fanlarning yondashuvlarini qamrab oladi.



[https://orcid.org/  
0000-0007-0524-7823](https://orcid.org/0000-0007-0524-7823)

e-mail:  
[gulshadusmanova@gmail.com](mailto:gulshadusmanova@gmail.com)

*Kalit so'zlar: terminologiya, terminologik tizimlar, tilshunoslikning bo'limlari, atamalar majmuasi, lingvistik fan.*

**ВВЕДЕНИЕ.** Терминология как наука возникла более века назад, когда началось бурное развитие этой отрасли языкознания. «Терминология — это научно сложная наука языкознания, практическая наука о терминах» [Жуков, 2013: 622], «совокупность терминов, обозначающих какую-либо область знания или деятельности или те или иные понятия естественного языка, а также совокупность терминов, их грамматической структуры и представляет собой самостоятельную лингвистическую науку, изучающую закономерности деятельности» [Даниленко, 1977: 15].

Лингвисты выделяют две позиции: по мнению группы исследователей (И.В.Арнольд, З.И.Комарова, Д.С.Лотте, А.А.Реформатский, А.В.Суперанская, Е.И.Ханпира и др.) иная; другая группа ученых (К.Я.Авербух, А.А.Брагина и др.) считают терминологию составной частью словаря любого литературного языка.

Проблемы терминологии (Л.Б.Ахманова, Г.Р.Винуршина, Г.А.Виновин, Н.П.Даниленевин, Н.К.Замрич, Н.К.Заинриев, Н.К.Замрич, Н.К.Заинриев, И.Г.Зубубаирова, Е.Г.Зуббердин, Г.Г.Г.Эркарманов, И.С.Квитко, Дж.Г.Кизкбаев, Т.Л.Канделаки, Л.А.Капанадзе, Р.Ю.Кобрин, А.Ф.Лесохия, Д.С.Лотте, Н.В.Подольская, А.А.Реформатский, А.В.Суперанская, В.А.Татаринов, П.А.Флоренский, Г.Н.Ягафарова и другие).

В узбекском языкознании В.В.Решетов, Х.Дадабоев, А.Ходжиев, Л.В.Решетова, Д.Худойбергана, М.Юсупов, А.Касимов, И.Р.Ерматов, Ш.Абдуллаева, С.А.Азизов, П.Нишонов, Х.Д.Палуанова, Д.Х.Кадирбекова, С.Т.Мусаева, Г.Абдурахмонов, О.С.Ахмедов, Г.М.Исмоилов и другие ученые внесли свой вклад в развитие области терминологии результатами своих исследований.

В литовском языкознании известны работы А.Ауксориюте, К. Гайвенис, Я.Климавичюс, С.Кейнис, И.Луобикиене, А.Юнявичюс, В.Шчиглиене, Д.Пракапене,

П.Грецевичюс, А.Армайтиенес, Д.Лабанаускайтес, А.Анужис, Л.Анужене, А.Армайтене, Э.Йонайтене, Р.Дапкус, А.Балежентис, Б.Журомскайте, П.Грецевичяус, А.Семашка, И.Жалиене, А.Сабаляускайте и другие работы ученых по терминологии и туризму.

**МЕТОДЫ.** Термины, предмет изучения — терминологические системы, терминологические единицы и закономерности возникновения и функционирования терминологических систем. Термин «терминология» был введен в научный оборот в 1970-1980 гг. Наука терминология охватывает подходы лингвистики, логики и других специальных наук.

Понятия «термин», «терминология» и «терминосистема» анализировались как практически, так и теоретически во многих научных и лингвистических исследованиях. Тем не менее, Р.Ю.Кобрин, К.Я.Авербух, Т.Р.Кияк, Б.Н.Головин и др. в своих работах по терминологии показывают, что не существует существенной, четкой трактовки приведенных выше основных понятий терминологии.

Исследователи дают разные определения понятию «термин». «Термин — это слово (словосочетание), выражающее целостность фонетического содержания и связанного с ним понятия в системе определений, относящихся к определенной области науки и техники» [Лотте, 1968: 119]; «это слово или словосочетание... вступает в систематическую связь с другими словами и словосочетаниями, вместе с ними образует в каждом конкретном случае и в определенное время замкнутую систему, высокую информативность, характеризующуюся конкретностью, точностью и экспрессивной нейтральностью» [Квитко, 1976: 23].

Термин — это «слово с определяющей функцией, т.е. слово, определяющее понятие» [Виноградов, 1947: 2-13], «номинативная специальная лексическая единица (слово или словосочетание) специального языка

употребляется для четкого обозначения специальных понятий» [Гринёв-Гриневиц, 1993: 34]; «слово (или словосочетание) особой области применения, являющееся наименованием специального понятия и требующее определения» [Даниленко, 1971: 25]; «слово или придаточное словосочетание, имеющее особое значение, выражающее и образующее профессиональное понятие, употребляющееся в процессе изучения и освоения научных и профессионально-технических объектов и связей между ними» [Головин, Кобрин, 1987: 4]; «признак особой семиотической системы, обладающей познавательной-определяющей функцией» [Никитина, 1987: 7].

В толковом словаре узбекского языка слова «термин» и «терминология» определяются следующим образом:

**РЕЗУЛЬТАТЫ.** Термин (лат. «terminus» — проверка, предел) — слово или словосочетание, являющееся четким и устойчивым выражением определенного понятия, специфичного для области науки, техники, профессии; срок.

«Терминология (лат. «terminus» — граница + греч. «logos» — знание) 1. Совокупность терминов, используемых в области науки, техники, профессии. Техническая терминология. Военная терминология. Научная терминология. Туристическая терминология. Терминология узбекского языка. 2. Область языкознания, занимающаяся изучением и регулированием терминов. Терминолог. Раздел терминологии». [Аннотированный словарь узбекского языка, 2020:73-74]

По мнению С.Усманова, М.Мирхамидова, Ш.Гасанова: «...значение слова «термин» шире, чем значение слова термин, под ним понимается название всех вещей, и этот термин употребляется в определенное узкое поле — это формализованное слово. В этом смысле концепт «термин» представляет собой научно-

лексическую единицу, входящую в состав понятия «термин» [Палуанова Х.Д. 2011:88].

Термин — это обозначение конкретного понятия в специализированной области. Термин может состоять из одного слова (простой термин) или множества слов (сложный термин). Термин также может быть символом или формулой.

**ЗАКЛЮЧЕНИЕ.** Термины могут быть похожи на слова в обычном языке. Однако то, что отличает термины от слов в обычном языке, — это конкретное и детальное значение, которое они имеют в своем контексте или специализированной области.

Среди многочисленных научных работ по проблеме систематизации терминов заслуживает внимания работа «Лингвистические основы учения о терминах» (М., 1987), где показана семантическая классификация терминов. С точки зрения авторов, термины можно разделить на четыре группы: 1) термины науки; 2) термины технологии и производства; 3) термины менеджмента; 4) термины культуры и спорта.

#### **СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ:**

1. Авербух К.Я. Терминологическое разнообразие: теоретические и практические аспекты // Проблемы языкознания. - 1986. - № 6. - стр. 38-49.
2. Ахмедов О.С. Лингвистический анализ и проблемы перевода налоговых и таможенных терминов на английском и узбекском языках. - Филол. доктор наук... дисс. – Ташкент, 2016. – 21 с.
3. Ахмедов О.С. Лингвистический анализ и проблемы перевода налоговых и таможенных терминов на английском и узбекском языках. - Филол. доктор наук.... дисс. – Ташкент, 2016. – 254 с.
4. Бархударов Л.С. Язык и перевод (вопросы общей и частной теории перевода). - М. Международные отношения, 1995. - 02 с.
5. Бейсенова Ж.С. Промышленная терминология: типология, классификация, эксплуатация. Аннотация... Доктор Филол. наук. – Астана, 2009. – с.



## O'ZBEK VA TURK TILLARIDAGI AYRIM SOMATIK FRAZELOGIZMLARNING QIYOSIY TAHLILI

<sup>1</sup>Xushboqova Xurshida Qo'ldosh qizi, TerDU 2-bosqich magistranti

<sup>2</sup>Amonturdiyev Nurali Rashidovich, TerDU "O'zbek tilshunosligi" kafedrasida katta o'qituvchisi, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori

## COMPARATIVE ANALYSIS OF SOME SOMATIC PHRASEOLOGISTS IN UZBEK AND TURKISH LANGUAGES

<sup>1</sup>Khushbakova Khurshida Koldosh qizi, 2nd stage graduate student of TerDU

<sup>2</sup>Nurali Rashidovich, Senior Lecturer of the Department of Uzbek Linguistics, TerDU, Doctor of Philosophy in Philology

## СРАВНИТЕЛЬНЫЙ АНАЛИЗ НЕКОТОРЫХ СОМАТИЧЕСКИХ ФРАЗЕОЛОГИЗМОВ В УЗБЕКСКОМ И ТУРЕЦКОМ ЯЗЫКАХ

<sup>1</sup>Xushbakova Xurshida Kuldoosh qizi, magistrantka 2- kursa TerDU

<sup>2</sup>Амонтурдиев Нурали Рашидович, старший преподаватель кафедры узбекского языкознания ТерДУ, доктор философии по филологическим наукам

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada frazeologik birliklarning o'ziga xos jihatlari haqida ma'lumot berilib, turkiy tillarda somatik frazeologizmlarning qo'llanilishi o'zbek va turk tillari misolida qiyosiy tahlil qilingan. Ikki qardosh tilda qo'llaniladigan somatik frazeologik birikmalarning o'xshash va ayni damda bitta til oilasiga mansub bo'lishiga qaramay, ayrim farqli xususiyatlari bir qancha misollar yordamida qiyosiy tahlilga tortilgan.

**Kalit so'zlar:** turkiy til, frazeologiya, ibora, deyim, qiyoslash, somatik frazeologizmlar, frazeologik birlik.

**Abstract:** This article provides information about the specific aspects of phraseological units, and the use of somatic phraseology in Turkish languages is comparatively analyzed on the example of Uzbek and Turkish languages. Despite the fact that the somatic phraseological combinations used in two languages are similar and at the same time belong to the same language family, some of their different features have been subjected to a comparative analysis using several examples.

**Key words:** Turkish language, phraseology, phrase, idiom, comparison, somatic phraseologisms, phraseological unit.

**Аннотация:** В данной статье представлена информация о специфических аспектах фразеологизмов, а также на примере узбекского и турецкого языков проводится сравнительный анализ употребления соматической фразеологии в турецких языках. Несмотря на то, что соматические фразеологические сочетания, используемые в двух родственных языках, схожи и в то же время принадлежат к одной языковой семье, некоторые их различные особенности подвергнуты сравнительному анализу на нескольких примерах.



1

<sup>1</sup><https://orcid.org/0000-0003-0504-7811>

e-mail:

<sup>1</sup>[xurshida@gmail.com](mailto:xurshida@gmail.com)

**Ключевые слова:** турецкий язык, фразеология, словосочетание, сравнение, соматические фразеологизмы, фразеологизм.

**KIRISH.** Frazeologik birliklar xalq madaniyati va mentalitetini namoyon qiluvchi asosiy manbalardan biri hisoblanadi. Mashhur rus tilshunosi B.A.Larinning yozishicha, “Frazeologizmlar har doim xalq dunyoqarashi, jamiyat tuzilishi va o‘z davrining milliy mafkurasini bilvosita aks ettiradi” [1,90]. Negaki har bir tilning frazeologik birliklarida muayyan bir xalqqa tegishli urf-odatlar, an‘analar, udumlar, madaniy va ma‘naviy axloq kabi tasavvurlar mujassamlashgan bo‘ladi.

**Frazeologiya** atamasi yunoncha *phrasis* – fraza, *logos* – tushuncha, ta‘limot ma‘nolarini anglatib, tilshunoslikning frazeologik birliklarini, ya‘ni iboralarni o‘rganuvchi bo‘limi hisoblanadi. Ibora ikki va undan ortiq so‘zdan tashkil topgan, ma‘no jihatidan bitta so‘zga teng keladigan lug‘aviy birlikdir. Tilshunoslik ilmida esa ular frazeologizmlar, frazemalar, frazeologik birliklar, ibora, shuningdek, idioma kabi atamalar nomi ostida o‘rganilib kelinadi. Hozirgi turk adabiy tilida esa ibora **“deyim”** atamasi nomi bilan yuritiladi.

Kelib chiqishi jihatidan frazeologik birliklar juda qadimiy bo‘lsa-da, ularning tilshunos olimlar tomonidan o‘rganilishi va tadqiq etilishi nisbatan keyinroq yuzaga keldi. Frazeologiya nazariyasiga dastlab fransuz tilshunosi Sh.Balli asos soldi. Keyinchalik Ferdinand de Sossyur frazeologizmlarga tildagi birliklar sifatida qaray boshladi. Frazeologik birliklar haqida amerikalik tilshunos olim Uolles L.Cheyf esa quyidagi fikrlarni bildirib o‘tgan edi: “Til taraqqiyotining ma‘lum bosqichida yuzaga kelgan o‘zgarishlar yangi ma‘nolarni yaratadi, ularni ifodalash uchun alohida qoliplar shart bo‘lmasdan, aksincha biror eski, aniqrog‘i tilda oldindan mavjud bo‘lgan materiallardan foydalaniladi” [5,21].

**ADABIYOTLAR TAHLILI.** Binobarin, rus tilshunos olimlarining ham frazeologiya sohasida o‘rni ahamiyatlidir. Dastlab iboralar A.Shaxmatov hamda A.Peshkovskiy kabi rus tilshunoslari tomonidan o‘rganilgan bo‘lsa-da, keying yillarda B.A.Larin, V.Vinogradov, A.Kunin, V.Jukov, N.Shanskiy, A.Smirnitskiy,

A.I.Molotkov, I.Arangeliskiy kabi rus tilshunoslari olimlari tarafidan atroflicha tadqiq etilib, ular borasida bir qancha tadqiqot ishlari amalga oshirilgan.

Xususan, frazeologik birliklarning grammatik, leksik-semantik va uslubiy xususiyatlari o‘zbek tilshunoslari Sh.Rahmatullayev, B.Yo‘ldoshev, A.Shomaqsudov, M.Xusainov, U.Rashidova, Sh.Almamatovalarning tadqiqotlarida tadqiq etilgan. Jumladan, Sh.Rahmatullayevning tadqiqot ishida o‘zbek tilida mavjud fe‘l turkumiga oid frazeologik birliklarning grammatik xususiyatlari ochib berilgan. Keyinchalik Sh.Usmonovning “O‘zbek va turk tillarida somatik frazeologizmlar” mavzusidagi nomzodlik dissertatsiyasida frazeologik birliklarning leksik – semantik va grammatik – qurilish jihatlari ikki qardosh til misolida qiyoslangan va shu asosida ularning mushtarak hamda xususiy jihatlari batafsil aks ettirilgan.

**MUHOKAMA.** Frazeologizmlarning ko‘pi insonning hayoti, faoliyati, turmush tarzi va jismoniy holati bilan bog‘liq holda yuzaga keladi. Shu bois ham frazeologik birliklar tarkibida somatik leksemalar asosiy o‘rin tutadi. Mazkur maqolamizning ham asosiy maqsadi ikki qardosh til: o‘zbek va turk tillari misolida somatik frazeologizmlar (*somatik deyimlar*) va ularning qiyosiy tahlilini ko‘rib chiqishdir.

**Somatizm** grekcha so‘zdan olingan bo‘lib, *“soma”* – *“tana”* ma‘nosini ifodalaydi. Frazemani tashkil etuvchi komponentlardan birining inson tanasi a‘zosi nomi bilan hosil qilingan ko‘chma ma‘nodagi birliklar somatik frazeologizm deb ataladi. Tilshunoslikda ilk bor *“somatik”* atamasi F.Vakk tomonidan qo‘llanilgan bo‘lib, u eston tilidagi inson tana a‘zolari bilan bog‘liq frazeologik birliklarni *“somatizmlar”*, *“somatik frazeologizmlar”* deb atagan edi.

Turkiy tillarda qadimdan qo‘llanilayotgan anatomik nomlar, ya‘ni inson tana a‘zolari bilan bog‘liq nomlar iboralarning shakllanishida muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, *bosh*, *ko‘z*, *og‘iz*, *qosh*, *qo‘l*, *oyoq*, *quloq*, *yurak* kabi so‘zlar somatik iboralarda maqsadni ifodalovchi asosiy

elementlardan biri sanaladi. Jumladan, *bosh og'rig'i bo'lmoq, ko'z-quloq bo'lmoq, og'zi qulog'ida, boshi osmonda, boshi ko'kka yetmoq, boshiga ko'tarmoq, ko'ngli toza, qo'lga kirmoq, qo'ldan chiqmoq* kabi frazeologizmlar somatik iboralardir. Somatik frazemalarga xos xususiyatlardan biri shundaki, uning tarkibidagi har bir a'zoning nomi majoziy ma'noni ifodalaydi. Turkiy millatlarning dunyoqarashi tajriba va bilimning tabiiy natijasi sifatida tarix qa'ridan bizgacha yetib kelgan va ixcham ifoda qoliplari sifatida mavjud bo'lib kelayotgan somatik iboralar o'zining asl ma'nosidan tashqari konnotativ va ko'chma ma'nolarga ega bo'lgan. Masalan, turkiy shevalarning deyarli barchasida mavjud iboralarda qo'llanilgan **yurak** va **ko'ngil** so'zlari asosan shodlik, achinish va tushkunlik kabi his-tuyg'ularni ifodalash bilan bir qatorda mardlik, qahramonlik bilan birga qo'rqqoqlikni ham ifodalaydi. Jumladan, turk tilidagi **yüreği hopla** – biror biror bir voqea oldida to'satdan qo'rqib hayajonlanmoq, **yüreği parçalan** – yuragi parchalanmoq, **yüreği yan** – yuragi yonmoq, **yüreği ağzına gel** – yuragi og'ziga kelmoq va o'zbek tilidagi *yuragi o'ynamoq, yuragi ezilmoq, yuragi qon bo'lmoq, yuragi tutday to'kilmoq, yuragi yo'q* kabi bir qator yurak somatik leksemasi bilan yuzaga kelgan iboralarda aynan yuqoridagi ma'nolarni ko'rishimiz mumkin.

**METODOLOGIYA.** O'zbek tilining frazeologik leksikonida **ko'z** somatik leksemasi bilan hosil bo'lgan frazeologik iboralar o'zining ko'pligi va xilma-xilligi bilan ajralib turadi. Masalan, o'zbek tilining frazeologik lug'atida mazkur leksema asosida shakllantirilgan 59 ta frazeologizm qayd etilgan (variantlarsiz) [2,149]. Ularning aksariyatida esa, *ko'z* somatizmi fe'l turkumiga oid so'zlar bilan birikib ikki komponentli fe'l iboralarni shakllantirishga xizmat qilgan. Bunday hollarda ko'z leksemasi o'z ma'noda emas, aksincha, ko'chma ma'noda qo'llanilib, frazeologik ma'no yuzaga kelishiga asos bo'lgan. *Ko'z yummoq, ko'zini olmoq, ko'z ochmoq, ko'z qirini tashlamoq, ko'z qismoq, ko'zini bog'lamoq, ko'z olaytirmoq, ko'z tikmoq, ko'zga yaqin bo'lmoq, ko'zdan kechirmoq, ko'zga chalinmoq* kabi o'zbek tilidagi iboralarda ko'z leksemasi turli xil ma'nolarni ifodalashga xizmat qilgan bo'lsa, turk

tilidagi **gözde olmak** – sevimli bo'lmoq, **göz dikmek** – muayyan joydan ko'z uzmasdan turib kuzatmoq, tomosha qilmoq, kutmoq, **gözle yemek** – biror narsaga haddan tashqari ishtiyoq bilan qarash, undan ko'z uzolmaslik, ko'z oldiga keltirmoq, **gözünde kalmak** – istagan narsasiga erisha olmaganidan xafa bo'lish, **gözünü sevdiğim** (erkalash ma'nosida qo'llaniladigan ibora), **gözü gibi sakinmak** – bir narsaga nihoyatda qiziqmoq, uni himoya qilmoq, avaylab saqlamoq, **gözünüz aydın** (quvonchli voqeaga javoban aytilgan qutlov so'z) kabi frazeologizmlarda esa asosan sevish, qadrlash, quvonish ma'nolarini shakllanishida muhim rol o'ynagan.

**NATIJALAR.** Shuningdek, ikki qardosh til, ya'ni o'zbek va turk tillarining lug'at fondida **bosh** somatizmi vositasida hosil bo'lgan iboralar ham ko'proq uchrashi bilan ahamiyatlidir. Ikki tilda ham bosh leksemasi asosida turli semantik, leksik-grammatik (ot, sifat, fe'l, ravish) guruhlariga oid va turli xil (ikki, uch va undan ortiq) komponentli iboralar shakllangan. Tilimizdagi *boshiga ko'tarmoq, bosh ko'tarib yurmoq, boshiga yetmoq, bosh egmoq, boshini qotirmoq, boshiga chiqib olmoq, boshida yong'oq chaqmoq, boshini ikki qilmoq, bosh ko'tarib yurolmay qolmoq, boshiga suv quymoq, boshini xam qilmoq* kabi iboralarning ma'nosi tanish bo'lgan holda, quyida turk tilidagi bosh somatizmi bilan bog'liq ayrim iboralarning ma'nosini ko'rib chiqamiz:

**Baş ağrısı olmak** - sikkinti vermek ( azob, tashvish keltirmoq);

**(Bir şeyden) Baş alamamak** - o iş yüzünden başka bir şey için zaman ve fırsat bulamamak (nimadir ish tufayli boshqa narsaga vaqt va imkoniyat topa olmaslik);

**Baş başa kalmak** - biriyle yalnız kalmak, iki kişi bir arada yalnız olmak (birov bilan yolg'iz qolmoq, ikki kishi yolg'iz qolmoq). *Henüz baş başa kalıp da bir kelime konuşmadık. (Y.K.Karaosmanoğlu) – Hanuz birga yolg'iz qolib bir og'iz gaplashmadik.*

**Baş göz etmek** - evlendirmek, evermek (uylanmoq, turmushga bermoq). *Askerliğini bitirip dönünce hemen baş göz ettiler. – Harbiy xizmatdan qaytgach darrov uylandi.*

**Başı üstünde yeri olmak** – her zaman iyi qarşilamak, ağırlamak, saygı duymak ya da yeğlemek gibi anlamlarda kullanılır (har doim yaxshi kutib olmoq, mehmon qilmoq, hurmat qilmoq yoki afzal ko'rmog ma'nolarida qo'llaniladi). *Her neyse, geldin ya, ne için gelirsen gel, başım üstünde yerin var. (Y. Kemal) – Nima bo'lganda ham keldingmi, nima maqsadda kelishingdan qat'i nazar boshim tepasida o'rning bor. (Y.Kamol)*

**Orqa** leksemasi esa ba'zi turkiy tillarda "sirt", ba'zilarida esa "orqa" ma'nosida ishlatiladi. Biroq biz tadqiq qilayotgan o'zbek va turk tillarida ko'chma ma'noda vosita, tayanch va tayanch bo'lmoq tushunchalarini ifodalash uchun xizmat qiladi. Birovning vositasi va himoyasi orqali huquqqa ega bo'lish ma'nosida qo'llaniladi va bu ma'no iboralarda ham o'z aksini topadi. Masalan, turk tilidagi **arkasi olmak** (moddiy va ma'naviy jihatdan qo'llab-quvvatlamog), **arka arkaya vermek** (bir-birini himoya qilish uchun kuchlarini birlashtirmog, bir-biriga yordam bermog, hamjihat bo'lmoq), **arka bulmak** (himoyachi topmog), **arka çikmak** (birovni kimdandir himoya qilmog) va o'zbek tiliga oid **orqasiga pichoq urmog, ishi orqaga ketmog, orqa qilmog, orqa burmog, orqasiga ishonmog** kabi frazeologik birliklarda

aynan orqa leksemasi asosan tayanch, ba'zan esa tayanchga ega emaslik ma'nolarini ifodalash uchun asos vazifasini o'taydi.

**XULOSA.** Ko'rib turganingizdek, iboralar tilimizning eng qadimgi elementlaridan biri hisoblanadi. Chunki milliy falsafamizning asosiy va sodda ifoda qoliplari bo'lgan iboralarda nafaqat bir til uchun, balki bir til oilasini tashkil etuvchi tillar uchun mushtarak tushuncha, mushtarak mantiq, mushtarak dunyoqarash va mushtarak o'ziga xoslik o'z ifodasini topgan. Shunga qaramay, bu qarodosh tillardagi mavjud iboralarning o'ziga xos boshqa tillarda uchramaydigan struktur-semantik xususiyatlarini yoki bir tilda haqiqiy ma'nosini yo'qotgan iboralar ikkinchisida asl ma'nosini saqlab qolganligini ko'rishimiz mumkin.

#### ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Usmonova Sh.R. Lingvokulturologiya (Darslik). – Toshkent, 2019, – B.90.
2. Маматов А.Э. Ўзбек тили фразеологияси. – Тошкент, 2019, – Б.149.
3. Рахматуллаев Ш. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. – Тошкент, 1992.
4. Yusuf Çotuqsöken. Türkçe atasözler ve deyimler sözlüğü. – İstanbul, 2004.





## LEXICAL SEMANTIC ANALYSIS OF LEXICAL UNITS RELATED TO THE FIELD OF JEWELRY IN ENGLISH AND UZBEK LANGUAGES

<sup>1</sup>*Kayumova Shakhnoza Kabiljonovna, Termez State University,  
doctor of philosophy on philological sciences (PhD)*

<sup>2</sup>*Boriyeva Aziza Abduvait qizi, Master student of Termez State  
University*

### INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA ZARGARLIK TERMINLARINING LEKSIK-SEMANTIK TAHLILI

<sup>1</sup>*Qayumova Shaxnoza Qobiljonovna, Termiz davlat universiteti  
o'qituvchisi*

<sup>2</sup>*Bo'riyeva Aziza Abduvait qizi, Termiz davlat universiteti talabasi*

### ЛЕКСИКО-СЕМАНТИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ ЮВЕЛИРНЫХ ТЕРМИНОВ НА АНГЛИЙСКОМ И УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКАХ

<sup>1</sup>*Каюмова Шахноза Кабилжоновна, преподаватель  
Термезского государственного университета*

<sup>2</sup>*Бориева Азиза Абдуваит кызы, студент Термезского  
государственного университета*

**Annotation:** This article provides information related to jewelry terms and types of jewelry available in English and Uzbek languages. Jewelry has always been a favorite of women in all countries. The terms related to jewelry in two languages are introduced and compared.

**Key words:** Jewelry terms, English and Uzbek jewels, gems, gemstones, precious stones.

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada ingliz va o'zbek tillarida mavjud bo'lgan zargarlik atamalari va zargarlik buyumlari turlariga oid ma'lumotlar keltirilgan. Zargarlik buyumlari har doim barcha mamlakatlarda ayollarning sevimli narsasi bo'lgan. Ikki tilda zargarlik buyumlariga oid atamalar kiritiladi va taqqoslanadi.

**Kalit so'zlar:** zargarlik atamalari, ingliz va o'zbekcha taqinchoqlar, qimmatbaho toshlar.

**Аннотация:** В этой статье содержится информация о ювелирных терминах и видах ювелирных изделий, доступных на английском и узбекском языках. Ювелирные изделия всегда были любимы женщинами всех стран. Представлены и сопоставлены ювелирные термины на двух языках.


**Ключевые слова:** ювелирные термины, английские и узбекские ювелирные изделия, драгоценные камни.



<sup>1</sup><https://orcid.org/0000-0005-0544-6813>

*e-mail:*

<sup>1</sup>[Shaxnoza.kayumova@gamil.com](mailto:Shaxnoza.kayumova@gamil.com)



**Introduction.** In the following article, the definitions of women's clothes decorations are given and explored in terms of size that serve to make them more attractive. With the passage of time, over centuries jewelry has enriched and polished each other. It is explained that jewelry that has not lost its value is called differently in two languages. A comprehensive understanding of jewelry is given and explained. In everyday speech, a phrase may refer to any group of words. In linguistics, a phrase is a group of words (or sometimes a single word) that form a constituent and so function as a single unit in the syntax of a sentence. A phrase is lower on the grammatical hierarchy than a clause. There are many phrases containing jewelry lexicon in English and Uzbek languages, for example, in black slangs we meet such phrases. Black slang is a form of informal spoken language whose origins are most of ten associated with African American teenagers and young adults. However, other individuals use these type of expressions as well. e.g. bling: flashy jewelry, wearing a lot of bold pieces, grills: Can refer to teeth or teeth jewelry, or even just the face or mouth.

**Methods.** There are also idioms containing jewelry lexicon: · ring a bell — to stir up a memory; sound familiar · ring down the curtain — 1. to signal for a theater curtain to be lowered 2. to end something — · ring in (or out) 1. to punch in (or out) 2. to usher in (or out) · ring of f — Chiefly Brit. to end a telephone call; hang up · ring up — to record or enter (a specified amount) on a cash register · ring up the curtain — 1. to signal for a theater curtain to be raised 2. to begin something · run rings around — Informal: 1. to run much faster than 2. to excel greatly · ring a bell — Informal: 1. To arouse an often indistinct memory. · ring down the curtain — 1. To end a performance, event, or action. 2. chimes · ring (someone's) /bells — Slang: To knock (an opponent) out by physical or other force. · ring up the curtain — To begin a performance, event, or action. English speaking people use more proverbs and sayings in their speech everyday-life, which contain jewelry lexicon such as: · Like an earring of gold or an ornament of fine gold is a wise man's rebuke to a listening ear.

**Conclusion.** Like a nose-ring of gold and an ornament of the best gold, is a wise man who says sharp words to an ear ready to give attention. · Wise correction to an ear that listens is like a gold earring or jewelry of fine gold. · Like a gold earring, like a fine gold necklace is a wise reprover to a receptive ear. · As an earring of gold and a bright pearl, so is he that reproveth the wise, and the obedient ear. · (As) A golden earring, and a shining pearl is he, that reproveth a wise man, and an ear obeying. (Like a golden earring, and a shining pearl, is a wise person who rebuketh someone with an obedient ear.) · A ring of gold, and an ornament of pure gold, [Is] the wise reprover to an attentive ear. · Like an earring of gold or an ornament of fine gold is the rebuke of a wise judge to a listening ear. In Uzbek language, people often use proverbs, sayings and phraseological units containing jewelry lexicon such as: *Мурфак* — this word means chickens, new born as a lexeme form but as a jewelry it is a necklace. *Узукка кўз кўйгандай* — it means suitable, fitted. *Момоларимиз ўғитларини бўйнимизга мунчоқ тизгандек уқиб олишимиз керак.* — The underlined phrase means that we should follow every advices of our grannies. *Кўзимнинг нури, ўзимнинг кўзмунчоғим.* — By this jewelry lexicon we can identify about child. Uzbek literature is also rich with lexemes containing jewelry lexicon such as *Узун қўнғир сочлар ўтирганда ер ўпар, билагузук таққан билаклари оппоқ, беғубор эди.* (С.Зуннунова, Олов). *Бобур унинг (Ойша бегимнинг) юзига ботиниб қарай олмай, кўкрагидаги олтин баргақларга кўз ташлади.* (П.Қодиров, Юлдузли тунлар) Studying key concepts for the consideration of particular features of conceptualization in related and unrelated linguocultures and gives interesting material for the researcher in the fields of comparative linguistics, translation theory and practice, and intercultural communication. We have specified some cognitive qualifiers of the concept “jewelry” by means of the structural form in the form of the frame; we also have defined similarities and distinctions which, first of all, are connected with cultural features of the respective

countries, with their respective traditions and national symbolic jewelry.

Uzbek language lexicology is also rich in a variety of jewelry terms which passed from generation to generation over centuries and have been used by people to make their clothes more attractive. The earliest jewelry antedates to the 17th century BC and was found near the source of the Chirchik River. Amu Darya's treasure was also unique to Bactrian jewelers. Uzbek women have always been worn, unlike jewelry items from ancient times. Our great-grandmothers had utilized adornments that have been considered a part of the Uzbek people's culture. And one thing should be mentioned that there is a proverb among Uzbek people. "Do not show your mother to your father without jewelry..." Some glorious and shining jewelry terms will be introduced to your attention: ZARGAR – the word means a person who makes jewelry from metal. They are jewelry masters. TILLIYA-KOSH the crown of the bride. It is usually made from gold or gilding. It was a headgear. MARDZHON – a necklace that is made from the coral bunch which was adored by Uzbek women. ZEBIGUARDON -zebiguardon was placed at the center of the Necklace and was made from precious stones. In conclusion, we can say that the lexicology of the English and Uzbek language has a lot of modern and ancient words typical of jewelry, and they serve to enrich the language.

#### REFERENCES:

1. Ахмедова Ш.М., Каюмова Ш.К. Тестирование как одна из форм обучения

иностранному языку //Вестник современной науки. – 2016. – №. 3-2. – С. 61-64.

2. Каюмова Ш.К., Хушвактова Х.С. Глобализация и молодёжь Узбекистана //Стратегические ориентиры инновационного развития АПК в современных экономических условиях. – 2016. – С. 524-526.

3. Мардонова Р.О., Каюмова Ш.К. Сравнение видо-временных форм глагола и случаев их употребления в современном английском языке //Вестник современной науки. – 2016. – №. 6-1. – С. 101-104.

4. Каюмова Ш.К., Абдуллаев А.Б.У. Важность использования аудиторных занятий //Развитие и актуальные вопросы современной науки. – 2018. – №. 3. – С. 53-57.

5. Каюмова Ш.К. Сложность семантического перевода ювелирных названий на английском и узбекском языке //Гуманитарный трактат. – 2018. – №. 23. – С. 27-28.

6. Каюмова Ш.К. Сложность семантического перевода ювелирных названий на английском и узбекском языке //Гуманитарный трактат. – 2018. – №. 23. – С. 27-28.

7. Каюмова Ш.К. и др. Значения самостоятельного образования для речевого языка в уровне В2 //Гуманитарный трактат. – 2018. – №. 23. – С. 29-30.

8. Каюмова Ш.К. и др. Значения самостоятельного образования для речевого языка в уровне В2 //Гуманитарный трактат. – 2018. – №. 23. – С. 29-30.



## TIKUV BUYUMLARINI KONSTRUKSIYALASH FANIDA NAZARIYA VA AMALIYOT INTEGRATSIYASI

*Baymurova Nigora Raximovna, Termiz davlat universiteti o'qituvchisi*

## INTEGRATION THEORY AND PRACTICE IN THE AREA OF CONSTRUCTION

*Baymurova Nigora Rakhimovna, Teacher at Termez State University*

## ИНТЕГРАЦИЯ ТЕОРИИ И ПРАКТИКИ В ОБЛАСТИ КОНСТРУИРОВАНИЯ ОДЕЖДЫ

*Баймурова Нигора Рахимовна, преподаватель Термезского  
государственного университета*



[https://orcid.org/  
0000-0005-0644-  
6811](https://orcid.org/0000-0005-0644-6811)

**e-mail: Nigora-  
baymurova@  
gmail.com**

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada zamonaviy kiyim assortimenti va tavsifi, kiyim haqida umumiy ma'lumotlar, aholi razmer tipologiyasi va antropologik razmer standartlari, kiyim razmerlari, shakli va konstruksiyasi, kiyimdagi qo'shimchalar, kiyim konstruksiyalash usullari, bel kiyimlari va yelka kiyimlarini konstruksiyalash xususiyatlariga doir badiiy va texnik masalalar yechimini o'z ichiga olgan. Kiyim nuqsonlari, kiyimlarni konstruktiv modellashning umumiy prinsiplari, buyum konstruksiyasi shaklini o'zgartirmay konstruktiv modellash usullari, buyum konstruksiyasi shaklini o'zgartirib konstruktiv modellash usullari, turli shakl va modeldagi yoqalarni konstruksiyalash, bo'yin o'mizini konstruktiv modellash usullari haqida ma'lumotlar keltirilgan.

**Kalit so'zlar:** aholi razmer tipologiyasi va antropologik razmer standartlari, kiyim razmerlari, shakli va konstruksiyasi.

**Аннотация:** В данной статье представлены ассортимент и описание современной одежды, общие сведения об одежде, размерная типология и антропологические нормативы размеров, размеры, форма и конструкция одежды, фурнитура одежды, способы конструирования одежды, в том числе решение художественных и технических задач, связанных с особенностями конструкции поясной и плечевой одежды. Даны сведения о дефектах одежды, общие принципы конструктивного моделирования одежды, методы конструктивного моделирования без изменения формы конструкции изделия, методы конструктивного моделирования с изменением формы конструкции изделия, построения воротников различных форм и моделей, методы конструктивного моделирования шеи.

**Ключевые слова:** типология численности населения и антропологические стандарты размеров, размеры, форма и конструкция одежды.

**Annotation:** In this state, the assortment and description of modern clothing, general information about clothing, size typology and anthropological normative dimensions, sizes, shapes and construction of clothing, clothing fittings, clothing construction methods, and the full number of God-given solutions i tekhnicheskikh zadach, svyazannyx s osobennostyami konstruksii poyasnoy i plechevoy odejdy. Dany svedeniya o defectakh odejdy, obshchie principy konstruktivnogo modelirovaniya odejdy, metody konstruktivnogo modelirovaniya bez izmeneniya formy konstruksii izdeliya, metody konstruktivnogo modelirovaniya s izmeneniem formy konstruksii izdeliya, postroeniya vorotnikov razlichnyx form i modeley, metody konstruktivnogo modelirovaniya shei.

**Key words:** population size typology and anthropological size standards, clothing sizes, shape and construction.



**KIRISH.** O‘zbekiston Respublikasidagi kichik tikuvchilik korxonalari, qo‘shma korxonalar va yakka buyurtma asosidagi tikuvchilik korxonalari keng iste‘molchilar ommasi ehtiyoji va didini qondiradigan xilma-xil kiyimlar ishlab chiqarmoqda. Bu sohani rivojlantirishda xizmat qiluvchi kichik mutaxassislar kasb-hunar kollejarida tayyorlanadi. Ularga maxsus fan sifatida “Tikuv buyumlarini loyihalash, modellar yaratish, asosiy andozalarini tayyorlash, modellar yaratish, asosiy andozalardan model andozalarini chiqarish va unga bezaklar tanlash shu fanning asosiy maqsadidir. Loyihalash –

bu murakkab ijodiy jarayon bo‘lib, unda har qanday buyumning, jumladan, kiyimning ham loyahasini ishlab chiqish ko‘zda tutilgan. Kiyimni loyihalash deganda, kiyimni tashkil etadigan detallar va materiallar kompleksi, shuningdek ularni o‘zaro ulab tikib, muayyan o‘lchovdagi va shakldagi yaxlit buyum holiga keltirish usullari, vositalari tushuniladi. Loyihalash jarayonida buyumning hajmli detallarini, tekislikdagi tasvirini hosil qilishdan iborat bo‘ladi.

#### **METODOLOGIYA VA NATIJALAR.**

Detallarning o‘lchov soni va shakli ular yig‘ilganda xuddi shu o‘lchov va ko‘rinishini beradi. Kiyimlarni loyihalashda gavdadan o‘lchov olish qoidalari va o‘lchovlar asosida buyum asos chizmasini chizish, so‘ng chizmadan andoza chiqarib tayyorlash qoidalarini o‘rgatiladi. Kiyimni loyihalash bilan turli muassasalar shug‘ullanadi. Bular – modalar uyi, tikuvchilik korxonalarining tajriba sexlari, maxsus loyihalash idoralari, ilmiy-tekshirish institutlari va laboratoriyalardir. Kiyimlarni modellashtirishda kiyim modelini ijod qilish va asosiy andozadan model andozasini tayyorlash yo‘llari o‘rgatiladi. Bunda asos chizmasiga eskiz bo‘yicha model chiziqlari kiritilib, yangi model andozasi hosil qilinadi. Kiyimlarni badiiy bezashda esa kiyimga turli bezaklarni kiyim turiga va vazifasiga qarab, ularni bezatish yo‘llari o‘rgatiladi. Bunda kiyimning assortimentiga, gazlamasiga, kiyimning kimga mo‘ljallanganligiga qarab, bezak

unsurlarini tanlash ijodiy jarayon ekanligi yaqqol ko‘rinadi.

Kiyim, kiyim tarixidan ma‘lumot. Zamonaviy kiyim murakkab tizim bo‘lib, unga xos loyihalashning shakllanish qonuniyatlarini tushunmoq uchun, kiyimning uzoq o‘tmishdagi ko‘rinishi haqida ma‘lumotga ega bo‘lish kerak. Kiyim hozirgi mukammal ko‘rinishiga murakkab bosqichlar orqali yetib kelgan. U odamzod rivojlanishining ilk bosqichlarida iqlim ta‘siridan himoya topmoq vositasi sifatida paydo bo‘lgan. Kiyimning dastlabki ko‘rinishlari ibtidoiy davr odamlarining qabila bo‘lib yashagan vaqtiga to‘g‘ri keladi. Bu davrda insonlar daraxt barglari, poxollar, hayvon terilarini tanaga beldan bog‘lab yurishgan. Kiyim insonning ijtimoiy hayoti, mehnat faoliyati va ongining rivojlanishi tufayli rivojlanib bordi.

**XULOSA.** Kiyimning keyingi ko‘rinishi turli o‘simlik va hayvonot mahsulotlaridan to‘qilgan oddiy gazlamalarni tanaga o‘rab yurishdan iborat edi. Qadimgi Gretsiyada erkaklar kiyimi ikki qismdan – xiton va gimatiydan iborat bo‘lgan. Xiton – bu ichki kiyim bo‘lib, jun yoki zig‘ir tolali gazlamadan tayyorlangan. Erkaklar biror yumush bilan ko‘chaga chiqayotganda ustki kiyim – gimatiyni kiyib olishgan. Gimatiy to‘g‘ri to‘rtburchak shakldagi, 1,7x4 m o‘lchamdagi gazlamadan iborat bo‘lib, uni yelka ustida bog‘lab yoki yelkaga tashlab qo‘yib, gavdaning tabiiy go‘zalligi va harakat bemaloliligini ko‘rsatadigan hamda unga xalaqit bermaydigan nafis taxlamalar tushirib drapirovka qilib qo‘yilgan. Ishlab chiqarish sharoitida model detallarining dastlabki, ya‘ni original andozalari model tavsiya qilingan razmerlar va to‘lalik guruhining faqat bitta o‘rta bo‘y va razmeriga tayyorlanadi. Andozalarning qolgan razmer hamda bo‘ylari esa dastlabki bo‘y hamda razmerdagi andozalarni proporsional ravishda rasmiy qoidalarga ko‘ra kattalashtirish yoki kichraytirish orqali olinadi. O‘rta razmer va bo‘ydagi tikuv buyumining andozalari asosida modelda tavsiya qilingan qator razmer hamda bo‘ydagi andozalar komplektlarini loyihalash jarayoni andozalar gradatsiyasi deyiladi. Bir xil razmer va bo‘ydagi tipaviy qomatlar tanasining

tuzilishi har xil to‘lalik guruhida farqlanadi, shu bois gradatsiya bir to‘lalik guruhi ichida razmer va bo‘ylar bo‘yicha alohida-alohida ishlanadi, lekin to‘lalik guruhlari bo‘yicha andozalar ko‘paytirilmaydi. Andozalar gradatsiyasi tipaviy qomatlar o‘lchamlarining o‘zgaruvchanligi bilan bog‘langan bo‘ylararo hamda razmerlararo orttirmalar yordamida amalga oshiriladi. Andozalar gradatsiyasi dastlabki andozalar komplektidan tashqari andozalar nomerlarini olish jarayonini osonlashtiradi va tezlatadi. Lekin, ayni holda, noto‘g‘riliklar yuz berishi tufayli chetdagi razmerlar konstruksiyasida qomatda kiyim o‘rnashuvining sifati pasayishi mumkin. Shu bois gradatsiya paytida konturi o‘zgartirilgan barcha bo‘y va razmerdagi andozalar silueti va proporsiyasining bazaviy razmer va bo‘y bo‘yicha etalonga mosligi asosiy talablardan biri hisoblanadi. Andozalar o‘lchamlarining farqlanishi tipaviy qomatlar o‘lchamlarining o‘zgaruvchanligi bilan aloqador. Shu bois gradatsiyada detallar o‘lchamlari yetakchi o‘lchamlar o‘zgaruvchanligiga bog‘liq holda bo‘ysungan o‘lchamlar o‘zgarishiga asoslangan. Teng bo‘yliklarda nafaqat ko‘ndalang, balki bo‘ylama o‘lchamlar ham o‘zgaradi. Yoki teng razmerlilarda nafaqat bo‘ylama, balki ko‘ndalang o‘lchamlar ham o‘zgaradi. Ushbu qonuniyatlarga binoan razmerlar bo‘yicha gradatsiyada chiziqli

o‘lchamlar ham bo‘ylama, ham ko‘ndalang o‘zgarishi sababli konstruktiv nuqtalar to‘g‘ri burchakli to‘rtburchakning diagonalini bo‘yicha suriladi. Muayyan razmerdagi kiyim detallari bo‘ylar bo‘yicha ko‘paytirilganda ba‘zi o‘lchamlarning ko‘ndalang orttirmasi kichik bo‘lganligi sababli hisobga olinmaydi, konstruktiv nuqtalari faqat vertikal yo‘nalishda siljiriladi.

#### ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. З. Давлетшева. Тикув буюмларини тайёрлаш технологияси. Ўқув қўлланма. Тошкент “Сано стандарт” нашриёти, 2017.
2. Г.К.Хасанбаева. Кийим моделини ишлаш ва конструкциясини тайёрлаш. Ўқув қўлланма. Тошкент. Ўқитувчи, 1990 йил.
3. Э.К.Амирова и др. Конструирование одежды: Учеб. пособие, М.: Издательский центр «Академия», 2005.
4. Е.М. Гнеушева и др. Конструирование одежды. Конструирование и технология изготовления детской одежды: учебное пособие для вузов / – Орел: ОрелГТУ, 2010.
5. Чижикова Л.П. Кружок конструирования и моделирования одежды. Пособие для руководителей кружков шк. И внешкольных учреждений. – М.: Просвещение, 1990.



## SURXON MILLIY LIBOSLARIDAGI KASHTA VA NAQSHLARNING MA'NOLARINI TAHLIL QILISH

*Salimova Mohigul Abduxoliq qizi, Termiz davlat universiteti o'qituvchisi*

## ANALYSIS OF THE MEANINGS OF EMBROIDERY AND PATTERNS IN SURKHAN NATIONAL COSTUMES

*Salimova Mohigul Abdulkholiq qizi, Teacher of Termiz State University*

## АНАЛИЗ ЗНАЧЕНИЙ ВЫШИВКИ И УЗОРОВ В СУРХАНСКИХ НАЦИОНАЛЬНЫХ КОСТЮМАХ

*Салимова Мохигуль Абдухалик кызы, преподаватель Термезского государственного университета*



<https://orcid.org/0000-0005-0644-0011>

**e-mail:**  
[SALIMOVAMOHIGUL@gmail.com](mailto:SALIMOVAMOHIGUL@gmail.com)

**Annotatsiya:** *Kashta* (**forscha:** – *chizilgan, tortilgan*) – amaliy bezak san'atining keng tarqalgan turi; igna bilan tikib tushirilgan gul, tasvir, naqsh. *Kashta* qo'lda (**igna**, ilmoqli igna, ilgakli bigiz bilan) yoki mashinada, asosan, mato (**bo'z, chit, satin, shoyi, baxmal, movut** va boshqalar) va charm (**etik, mahsi, pichoq qini, kamar, ot jabduqlari** va boshqalar)ga tikiladi. *Kashta* mujassamotida o'simliksimon naqshlar, handasiy shakllar, fazoviy jismlar, **meva** va **hayvonlarning** uslublashtirilgan tasvirlari, baytlar, hamda kishilarning qiyofalari, me'moriy obidalarning ifodalari ham tasvirlanadi.

**Kalit so'zlar:** *zargarlik atamalari, ingliz va o'zbekcha taqinchoqlar, qimmatbaho toshlar.*

**Abstract:** *Embroidery* (Persian: - drawn, drawn) is a common type of applied decorative art; a flower, image, pattern sewn with a needle. Embroidery by hand (needle, loop needle, hook stitch) or machine, mainly fabric (grey, chit, satin, silk, velvet, movut, etc.) and leather (boots, mahsi, knife scabbard, belt, horse harness, etc.) bet on Plant-like patterns, geometric shapes, spatial objects, stylized images of fruits and animals, verses, as well as figures of people and expressions of architectural monuments are depicted in the embroidery.

**Key words:** *jewelry terms, English and Uzbek jewelry, precious stones.*

**Аннотация:** *Вышивка* (перс. — *нарисованная*) — распространенный вид прикладного декоративного искусства; цветок, изображение, узор, вышитый иглой. Вышивка ручная (игла, петлевая игла, крючок) или машинная, преимущественно по ткани (серый, чит, атлас, шелк, бархат, мовут и др.) и коже (сапоги, махси, ножны для ножа, пояс, конская сбруя и др.) ставка на вышивке изображаются растительные узоры, геометрические фигуры, пространственные объекты, стилизованные изображения фруктов и животных, стихи, а также фигуры людей и выражения памятников архитектуры.

**Ключевые слова:** *Ювелирные термины, английские и узбекские ювелирные изделия, драгоценные камни.*

**KIRISH.** Iqtidorli yosh professional sanʼat namoyandalarining bilim va koʻnikmalarini rivojlantirishga yoʻnaltirilgan oʻqitishning zamonaviy shakl va uslublari, samarali pedagogik texnologiyalar, elektron axborot resurslaridan keng foydalangan holda taʼlim jarayonining yuqori darajada olib borilishini taʼminlash; Oʻquv jarayoniga zamonaviy pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etishni hisobga olgan holda qayta tayyorlash va malaka oshirish kurslarining oʻquv rejalari va dasturlarini tizimli ravishda takomillashtirish; Badiiy taʼlim yoʻnalishlaridagi pedagog va mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish kurslarining oʻquv-metodik bazasini shakllantirish va faoliyatini muvofiqlashtirish hamda ularga tashkiliy-metodik rahbarlikni amalga oshirish toʻgʻrisida koʻplab dasturlar ishlab chiqildi. Kashta tikish turli usullarda matoga avvaldan axta (andaza) yordamida tushirilgan gul, tasvir, naqsh asosida, baʼzan matodan iplari sugʻurilib tayyorlangan asosda sanama usulida bajariladi. Bunda [jun](#), [ip](#), [ipak](#) (rangli), zigʻir tolali tabiiy va sunʼiy (sintetik) tolalardan, [metall](#) ([tilla](#), [kumush](#)) dan tayyorlangan iplardan foydalaniladi, shuningdek, dur, nozik, piston, baʼzan qimmatbaho tosh va [tangalar](#) keng ishlatiladi. Mato, moʻyna, charmlardan applikasiya (quroq) tikishda kashtadan foydalaniladi.

Kashta buyumlar (palak, soʻzana, choyshab, gulkoʻrpa, kirpech, dorpech, zardevor va b.), kiyimlar ([koʻylak](#), [doʻppi](#), [nimcha](#), peshonaband, [kamar](#) va boshqalar), mustaqil bezaklarda keng ishlatiladi.

## **METODOLOGIYA**

## **VA**

**NATIJALAR.** Oʻrta Osiyoda 130 dan ziyod nom bilan ataluvchi hunar boʻlganligi ham hunarmandchilikning qay darajada rivojlanganligi bilan tanishtiriladi. Oliy oʻquv yurtlarida va taʼlimda bakalavriat yoʻnalishi talabalariga amaliy sanʼat darslarida naqsh va uning turlarini oʻrgatishning bir nechta metodikalari va turlari mavjud. Bir qancha darsda yuzaga keladigan kamchiliklar va muammolar ham mavjud. Naqsh, uning turlarini chizgandan soʻng asosiy

muammolarga uchraydi va talabalar naqsh chizgilarini chizgandan soʻng ranglash etaplariga oʻtishadi, aynan shunda talabalar ranglar maʼnolarini yaxshi tushunmaganligi sababli turli xil muammolarga duch kelishadi. Bizni dunyodagi ranglar va tuslarni oʻrganish uchun butun umrimiz ham yetmay ketishini barchamiz bilamiz, chunki ranglarning ham sir-sinoatlari, maʼno-mazmuni juda koʻpdir. Rangni ilmiy oʻrganish uchun Rangshunoslik fani yuzaga kelgan. Talaba-yoshlarning bilimini, tayyorlanayotgan kadrlarning saviyasini oshirishda rang-tuslar juda katta ahamiyatga ega ekanligini hisobga olgan holda quyidagi yirik masalalarni hal qilish maqsadga muvofiq deb bilamiz: Rangshunoslik ilmiy-tadqiqot instituti tashkil etish. Respublikada rang instituti yoki ilmiy laboratoriyasi tashkil etish. Rangshunoslikka oid mukammal ilmiy asoslangan dasturlar tuzish. Taʼlim tizimida ranglardan foydalanish modelini tuzish va ilmiy tadqiqot ishlari olib borish. Rangshunoslikka oid adabiyotlarni chop etish. Oʻquvchi, talabalarga yoshlikdan ranglarning mohiyatini oʻrgatish. Zamonaviy kompyuterlar yordamida rangshunoslikka oid ilmiy tadqiqot ishlari olib borish. Talabalar taʼlim olayotganda tasviriy va amaliy sanʼat darslarida oʻqituvchilar amaliy mashgʻulotlarni koʻproq olib boradilar. Bu esa, talabalarining mustaqil ishlashiga yanada koʻproq imkoniyat yaratadi. Amaliy sanʼat darslarida naqsh turlarini ishlashda oʻqituvchi va avvalo talabalarni naqshning turlari, uning kelib chiqish tarixi, naqsh elementlari bilan tanishtirib oʻtadilar. Shuningdek, naqsh turlari ranglash jarayonida ranglarni bir-biriga mutanosib va toʻgʻri tanlash kerakligi va bu jarayonda bir-biri bilan ranglar uygʻunlikda boʻlgan holatda ranglar ritmida naqshning turlari yanada maromiga yetib koʻrinadi. Talabalar taʼlim olayotganda tasviriy va amaliy sanʼat darslarida oʻqituvchilar koʻproq amaliy mashgʻulotlarni koʻproq olib boradilar. Bu esa, talabalarni mustaqil ishlashiga yanada koʻproq imkoniyat yaratadi. Nazariy bilimlarni oʻzlashtirgan talabalar amaliyotda olgan bilimlarini qoʻllay boshlaydilar. Naqsh turlarini ishlashda talabalarining uchraydigan



muammolariga kelib to'xtaladigan bo'lsak, avvalo amaliyda ishlaydigan o'quv qurollarning yetshmasligi va texnik baza bilan to'la ta'minlanmaganligidan kelib chiqadi. Naqsh turlarini ishlashda kompozitsiyaning o'zida ham bir qancha kamchiliklar bo'lishi mumkin.

**XULOSA.** Kiyimning keyingi ko'rinishi turli o'simlik va hayvonot mahsulotlaridan to'qilgan oddiy gazlamalarni tanaga o'rab yurishdan iborat edi. Qadimgi Gretsiyada erkaklar kiyimi ikki qismdan – xiton va gimatiydan iborat bo'lgan. Xiton – bu ichki kiyim bo'lib, jun yoki zig'ir tolali gazlamadan tayyorlangan. Erkaklar biror yumush bilan ko'chaga chiqayotganda ustki kiyim – gimatiyni kiyib olishgan. Gimatiy to'g'ri to'rtburchak shakldagi, 1,7x4 m o'lchamdagi gazlamadan iborat bo'lib, uni yelka ustida bog'lab yoki yelkaga tashlab qo'yib, gavdaning tabiiy go'zalligi va harakat bemaloliligini ko'rsatadigan hamda unga xalaqit bermaydigan nafis taxlamalar tushirib drapirovka qilib qo'yilgan. Ishlab chiqarish sharoitida model detallarining dastlabki, ya'ni original andazalari model tavsiya qilingan razmerlar va to'lalilik guruhining faqat bitta o'rta bo'y va razmeriga tayyorlanadi. Andazalarning qolgan razmer hamda bo'ylari esa dastlabki bo'y hamda razmerdagi andazalarni proporsional ravishda rasmiy qoidalarga ko'ra kattalashtirish yoki kichraytirish orqali olinadi. O'rta razmer va bo'ydagi tikuv buyumining andazalari asosida modelda tavsiya qilingan qator razmer hamda bo'ydagi andazalar komplektlarini loyihalash jarayoni andazalar gradatsiyasi deyiladi. Bir xil razmer va bo'ydagi tipaviy qomatlar tanasining tuzilishi har xil to'lalilik guruhida farqlanadi, shu bois gradatsiya bir to'lalilik guruhi ichida razmer va bo'ylar bo'yicha alohida-alohida ishlanadi, lekin to'lalilik guruhlari bo'yicha andazalar ko'paytirilmaydi. Andazalar gradatsiyasi tipaviy qomatlar o'lchamlarining o'zgaruvchanligi bilan bog'langan bo'ylararo hamda razmerlararo orttirmalar yordamida amalga oshiriladi. Andazalar gradatsiyasi dastlabki andazalar komplektidan tashqari andazalar nomerlarini olish jarayonini osonlashtiradi va tezlatadi. Lekin, ayni

holda, noto'g'riliklar yuz berishi tufayli chetdagi razmerlar konstruksiyasida qomatda kiyim o'rnaviningsifati pasayishi mumkin. Shu bois gradatsiya paytida konturi o'zgartirilgan barcha bo'y va razmerdagi andazalar silueti va proporsiyasining bazaviy razmer va bo'y bo'yicha etalonga mosligi asosiy talablardan biri hisoblanadi. Andazalar o'lchamlarining farqlanishi tipaviy qomatlar o'lchamlarining o'zgaruvchanligi bilan aloqador. Shu bois gradatsiyada detallar o'lchamlari yetakchi o'lchamlar o'zgaruvchanligiga bog'liq holda bo'ysungan o'lchamlar o'zgarishida asoslangan. Teng bo'yliklarda nafaqat ko'ndalang, balki bo'ylama o'lchamlar ham o'zgaradi. Yoki teng razmerlilarda nafaqat bo'ylama, balki ko'ndalang o'lchamlar ham o'zgaradi. Ushbu qonuniyatlarga binoan razmerlar bo'yicha gradatsiyada chiziqli o'lchamlar ham bo'ylama, ham ko'ndalang o'zgarishi sababli konstruktiv nuqtalar to'g'ri burchakli to'rtburchakning diagonal bo'yicha suriladi. Muayyan razmerdagi kiyim detallari bo'ylar bo'yicha ko'paytirilganda ba'zi o'lchamlarning ko'ndalang orttirmasi kichik bo'lganligi sababli hisobga olinmaydi, konstruktiv nuqtalari faqat vertikal yo'nalishda siljtiladi.

#### **ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. З.Давлетшева. Тикув буюмларини тайёрлаш технологияси. Ўқув қўлланма. Тошкент, “Сано стандарт” нашриёти, 2017.
2. Г.К.Хасанбаева. Кийим моделини ишлаш ва конструкциясини тайёрлаш. Ўқув қўлланма. Тошкент.Ўкитувчи, 1990 йил.
3. Э.К.Амирова и др. Конструирование одежды: Учеб. пособие, М.: Издательский центр «Академия», 2005.
4. Е.М.Гнеушева и др. Конструирование одежды. Конструирование и технология изготовления детской одежды: учебное пособие для вузов / – Орел: Орел ГТУ, 2010.
5. Чижикова Л.П. Кружок конструирования и моделирования одежды. Пособие для руководителей кружков шк. И внешкольных учреждений.

## XOTIN-QIZLAR VA OILANING IJTIMOYIY MUHOFAZASINI TA'MINLASH – DAVLAT SIYOSATINING USTUVOR YO'NALISHI

<sup>1</sup>Atayeva Dilfuza Pulatovna, Urganch davlat universiteti "Tarix" kafedrası dotsenti, tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

<sup>2</sup>Yuldasheva Mardona Alisher qizi, Urganch davlat universiteti 2-bosqich magistranti

## ENSURING THE SOCIAL PROTECTION OF WOMEN AND THE FAMILY-IS A PRIORITY OF THE ESTATE POLICY

<sup>1</sup>Atayeva Dilfuza Pulatovna, Urganch State University Associate Professor of History, Doctor of Philosophy in History (PhD)

<sup>2</sup>Yuldasheva Mardona Alisher qizi, Daughter Graduate student of the 2nd stage of Urganch State University

## ОБЕСПЕЧЕНИЕ СОЦИАЛЬНОЙ ЗАЩИТЫ ЖЕНЩИН И СЕМЬИ – ПРИОРИТЕТНОЕ НАПРАВЛЕНИЕ ГОСУДАРСТВЕННОЙ ПОЛИТИКИ

<sup>1</sup>Атаева Дилфуза Пулатовна, доцент кафедры «История» Ургенчского государственного университета

<sup>2</sup>Юлдашева Мардона Алишер кызы, магистрант 2-курса Ургенчского государственного университета

**Annotasiya:** Mamlakatda oila institutini mustahkamlash, xotin-qizlarning huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilish, ularning sog'ligini mustahkamlash hamda munosib mehnat va turmush sharoitini yaratish, onalik va bolalikni himoyalash, ijtimoiy-maishiy shart-sharoitlarni yaxshilash va boshqa qator masalalarda hukumat tomonidan qabul qilingan Farmon va qarorlar asosida keng ko'lamli ishlar amalga oshirib kelindi.

Joylarda og'ir hayotiy vaziyatga tushib qolgan xotin-qizlarni, shu jumladan, nogironligi bo'lgan ayollarni o'z vaqtida aniqlash, ular bilan yakka tartibda hamda aniq maqsadga yo'naltirilgan ishlarni olib borish bo'yicha muayyan tizim yo'lga qo'yildi.

**Kalit so'zlar:** oilaviy munosabatlar, oila instituti, ijtimoiy siyosat, onalik va bolalik himoyasi, sog'liqni saqlash tizimi, xotin-qizlar bandligi, ayollar migratsiyasi.

**Abstract:** The decision adopted by the government on strengthening the institution of the family in the country, protecting the rights and legitimate interests of women, strengthening their health and creating decent working and living conditions, protecting motherhood and childhood, improving social and living conditions and other issues based on its decisions, large-scale work was carried out. A special system has been launched for the timely identification of women in difficult life situations, including women with disabilities, and individual and targeted work with them.

**Key words:** family relations, family institution, social policy, motherhood and child protection, health care system, women's employment, women's migration.



<sup>1</sup><https://orcid.org/0000-0002-6487-2268>

e-mail:

<sup>1</sup>pulatovnaatayevadilfuza1976@gmail.com



**Аннотация:** Принятое правительством постановление об укреплении института семьи в стране, защите прав и законных интересов женщин, укреплении их здоровья и создании достойных условий труда и жизни, охране материнства и детства, улучшении социально-бытовых условий и других вопросах на его основе решений были проведены масштабные работы.

Запущена специальная система своевременного выявления женщин, находящихся в трудной жизненной ситуации, в том числе женщин с инвалидностью, и индивидуальной и адресной работы с ними.

**Ключевые слова:** семейные отношения, институт семьи, социальная политика, охрана материнства и детства, система здравоохранения, женская занятость, женская миграция.

## **KIRISH(BВЕДЕНИЕ/INTRODUCTION).**

O'zbekistonda mustaqillik yillarida oilani ijtimoiy va huquqiy himoya qilish, oilaviy munosabatlarning huquqiy asoslarini takomillashtirish masalasiga alohida e'tibor qaratib kelindi. Uning jamiyatdagi o'rni va mavqeyini oshirish eng muhim vazifa sifatida izchil ro'yobga chiqarilmoqda. Zero, oila mustahkamligi jamiyatning iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy, milliy ravnaqi, taraqqiyotini belgilovchi hal qiluvchi omil hisoblanadi. Davlat ijtimoiy siyosatining tarkibiy qismi hisoblangan oila siyosati aholi, jumladan, xotin-qizlar bandligini va real daromadlarini izchil oshirib borishga, ular farovonligini oshirishga, ijtimoiy muhofaza qilish va sog'liqni saqlash tizimini takomillashtirishga qaratilgan. Bu esa, ayollarning davlat va jamiyat hayotidagi ishtiroki kengayib, ularning oiladagi mavqeyi mustahkamlanib borishini ta'minlamoqda.

Mamlakatda oila institutini mustahkamlash, xotin-qizlarning huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilish, ularning sog'ligini mustahkamlash hamda munosib mehnat va turmush sharoitini yaratish, onalik va bolalikni himoyalash, ijtimoiy-maishiy shart-sharoitlarni yaxshilash va boshqa qator masalalarda hukumat tomonidan qabul qilingan Farmon va qarorlar asosida keng ko'lamli ishlar amalga oshirib kelindi.

## **TADQIQOT OBYEKTI (ОБЪЕКТ ИССЛЕДОВАНИИ/RESEARCH OBJECT).**

O'zbekiston taraqqiyotining yangi bosqichida ayollarning turmush sharoitini yanada yaxshilash, huquqiy, iqtisodiy va ma'naviy manfaatlarini davlat darajasida himoya qilish, jamiyat hayotining barcha jabhalarida ularning ishtirokini kuchaytirish borasida amalga oshirilayotgan islohotlar jarayoni.

## **QO'LLANILGAN METODLAR (ИСПОЛЬЗОВАННЫЕ**

**МЕТОДЫ/METHODS USED).** Tarixiylik, tizimlilik, muammoviy-xronologik, mantiqiylik qiyosiy tahlil.

O'zbekistonda oilani rivojlantirishga global darajada Birlashgan Millatlar Tashkilotining Barqaror taraqqiyot maqsadlari doirasida, shuningdek, 2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi doirasida e'tibor qaratib kelindi. Harakatlar strategiyasining "Ijtimoiy sohani rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari" deb nomlangan to'rtinchi yo'nalishida "...fuqarolarni ijtimoiy himoya qilish va ularning salomatligini saqlash, ...aholining muhtoj qatlamlariga ko'rsatiladigan ijtimoiy yordam sifatini oshirish, xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy hayotdagi maqomini oshirish, sog'liqni saqlash sohasini isloh qilish" chora-tadbirlari belgilanib, bu borada qator ishlar amalga oshirildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash va oila institutini mustahkamlash sohasidagi faoliyatni tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni qabul qilinganligi buning yorqin ifodasidir. Mazkur Farmon bilan xotin-qizlarning huquq va qonuniy manfaatlariga so'zsiz rioya qilinishini ta'minlash, onalik va bolalikni har tomonlama qo'llab-quvvatlash, shuningdek, oila institutini mustahkamlashga alohida e'tibor qaratildi. Ushbu Farmon xotin-qizlarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini ta'minlashni sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqib, ularning oila va jamiyatdagi o'rni hamda mavqeyini mustahkamlash, salohiyatini to'la namoyon etishi, oilalardagi ijtimoiy-ma'naviy muhitni yanada sog'lomlashtirishga xizmat qildi. Prezident Farmoniga muvofiq, Xotin-qizlarni va oilani

qo'llab-quvvatlash jamoat fondi tashkil etildi[1]. Joylarda og'ir hayotiy vaziyatga tushib qolgan xotin-qizlarni, shu jumladan, nogironligi bo'lgan ayollarni o'z vaqtida aniqlash, ular bilan yakka tartibda hamda aniq maqsadga yo'naltirilgan ishlarni olib borish bo'yicha muayyan tizim yo'lga qo'yildi. 2018-yilda O'zbekiston Xotin-qizlar qo'mitasi va uning hududiy bo'linmalari tomonidan og'ir vaziyatdagi, nogironligi bo'lgan xotin-qizlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash, ularni uy-joy va bandlik masalalaridagi muammolarini o'rganish va amaliy yordamlar tashkil etish yuzasidan respublika bo'yicha 47000 nafarga yaqin og'ir turmush sharoitida yashayotgan, shundan 14600 nafar nogironligi bo'lgan xotin-qizlarning ro'yxatlari shakllantirilib, ular bilan manzilli ishlar olib borildi. Alohida dastur asosida 10 000 nafarga yaqin og'ir turmush sharoitida yashayotgan ayollar bandligi ta'minlandi va bunga 38 mlrd 261 mln so'm mablag' yo'naltirildi. Ularning 14 000 nafariga tibbiy yordam ko'rsatildi, 13500 nafarining bandligi ta'minlandi, 22000 nafariga 21 mlrd so'm miqdoridagi moddiy yordamlar berildi. Xotin-qizlarni va oilani qo'llab-quvvatlash jamoat fondi mablag'lari hisobidan 1464 nafar og'ir turmush sharoitida yashayotgan va nogironligi bo'lgan xotin-qizlarga arzon uy-joylar uchun 54,6 mlrd so'm boshlang'ich badal pullari to'lab berildi. Mahallalarda 9000dan ortiq xotin-qizlar bilan ishlash va oilalarda ma'naviy-axloqiy qadriyatlarni mustahkamlash bo'yicha mutaxassis ish olib bormoqda[2]. Mazkur Farmon Xotin-qizlar qo'mitalari faoliyatida tub burilish yasadi. Chunki bu Farmon Xotin-qizlar qo'mitalari va xotin-qizlar hamda oilalar manfaatlarini himoyalovchi muhim huquqiy asoslardan biriga aylandi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi "Oila ilmiy-amaliy tadqiqot markazi faoliyatini tashkil etish" chora-tadbirlari to'g'risida"gi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 14-martdagi 229-sonli Qaroriga muvofiq, oila institutining jamiyatdagi nufuzini oshirish va mustahkamlash maqsadida vazirlik maqomiga ega tuzilma tashkil etildi[3]. Oilalardagi barqarorlikni muhofaza qilish maqsadida markazning joylarda hududiy boshqarmalari, tuman, shahar bo'limlari faoliyati yo'lga qo'yildi.

2018-yil davomida "Oila" ilmiy-amaliy tadqiqot markazining hududiy boshqarmalari, tuman va shahar bo'limlari tomonidan 21200 dan ziyod jismoniy va yuridik shaxslarning murojaati qabul qilinib, ular muammolariga ijobiy yechim topildi. Jumladan, tashkilot tomonidan oilaviy muammolar, ish bilan ta'minlash, moddiy yordam, huquqiy maslahat va tibbiy yordam ko'rsatish yuzasidan qilingan murojaatlar bo'yicha fuqarolarga, xususan, xotin-qizlarga tegishli ko'mak berildi. Bugungi kunda mamlakatimizda 8 milliondan ortiq oila bor. Ularning 2 milliondan ortig'i yosh oila hisoblanadi, – deydi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi "Oila" ilmiy-amaliy tadqiqot markazi direktorining o'rinbosari Dilbar Alimjonova. Binobarin, jamiyatdagi har qanday qusur va kamchiliklarning tub ildizi aksar hollarda oilalardagi ijtimoiy-ma'naviy muhitdan kelib chiqadi. Shunday ekan, barqaror va farovon mamlakat negizini, avvalo, mustahkam oilalar tashkil etadi[4].

2018-yil 27-iyun kuni oilalar mustahkamligi yo'lida keng ko'lamlı islohotlar amalga oshirilishini ta'minlash maqsadida "O'zbekiston Respublikasida oila institutini mustahkamlash Konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi Prezident qarori imzolandi. Konsepsiyaning bosh g'oyasi "Farovon oila-jamiyat ravnaqining asosi" deb belgilandi. Ushbu Konsepsiyani amalga oshirishdan ko'zlangan asosiy maqsad mamlakatdagi har bir oilaning huquq va manfaatlarini to'liq ro'yobga chiqarish, ular uchun munosib turmush sharoitini yaratish, oilaviy munosabatlar muvozanatini ta'minlash, oila farovonligini oshirish, umuman olganda, oila institutini har tomonlama qo'llab-quvvatlagan holda davlatning izchil va barqaror taraqqiyotiga erishishdan iboratdir.

**NATIJALAR (РЕЗУЛЬТАТЫ/RESULTS).** Oilaning ijtimoiy muhofazasi, onalik va bolalik masalalariga mas'ul bo'lgan Xorazm viloyati Xotin-qizlar qo'mitasi tomonidan oilalar mustahkamligini ta'minlashda qator chora-tadbirlar amalga oshirib kelindi. Xorazm viloyati bo'yicha 2016-yilda 14932ta nikoh qayd etilgan bo'lsa, nikohdan ajralish holati 1152tani tashkil etgan (20-ilovaga qarang). 2017-yilda 16397ta nikoh va 1325ta oilaviy ajrimlar



qayd etilgan. 2018-yilda FHDYO bo'limlarida 16000ta nikoh va 1000ta ajralishlar ro'yxatga olingan[5]. 2018-yilda 2017-yilga nisbatan oilaviy ajralishlar soni 1325dan 1025taga kamayganligini kuzatish mumkin. 1543ta ajralish yoqasiga kelib qolgan oilalarning 1394tasi yarashtirib qo'yildi. Nikohdan ajralganlik holatlari o'rganilib, tahlil qilinganida, ajralishlar Urganch shahri, Urganch, Shovot va Qo'shko'pir tumanlarida yuqori ko'rsatkichligicha qolganligi kuzatildi. Sabablari tahlil qilinganda, oilaviy kelishmovchiliklar bilan 578ta, farzandsizlikdan 154ta, uzoq muddat birga oila bo'lib yashamaslikdan 52ta, ichkilik va giyohvandlikdan 38ta, xiyonat oqibatida 32ta oilalar buzilib ketgan. 1073ta notinch oilalarning manzillari shakllantirilib, ular bilan profilaktik ishlar olib borilishi natijasida 951ta oilada tinch va farovon hayot ta'minlangan[6].

2019-yilda Urganch shahrida 257ta notinch oilalar aniqlanib, shulardan 137tasining notinchligi bartaraf qilindi. Qolgan 120tasi muntazam janjal bo'lib turadigan oilalar bo'lib, ularga mahallalardagi namunali oila vakillari biriktirilgan va mahalla fuqarolar yig'inlari tomonidan doimiy nazoratga olingan.

2018-yil 28-noyabr kuni O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 2-iyuldagi "Ijtimoiy reabilitatsiya qilish va moslashtirish, shuningdek oilaviy-maishiy zo'rlik ishlatishning oldini olish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3827-sonli qaroriga asosan Urganch shahar Xotin-qizlar qo'mitasi tomonidan oilaviy nizolarning oldini olish, ulardagi muammolarni erta aniqlash va bartaraf etish, ruhiy tushkunlikka tushgan ayollarga psixologik, ruhiy, tibbiy va boshqa tezkor ijtimoiy yordam ko'rsatish maqsadida viloyat va shahar hokimligi, xotin-qizlar qo'mitasi tomonidan Ijtimoiy moslashuv markazi tashkil qilindi. Markazda ayollarni kasb-hunarga o'rgatish maqsadida yangi tikuv mashinalari bilan jihozlangan tikuvchilik xonasi, ma'naviyat xonasi, ona va bola dam olish xonalari, psixolog, huquqshunos va ichki ishlar xodimi uchun xonalar, zamonaviy jihozlangan oshxona faoliyat olib boradi. Markazga 123 nafar xotin-qizlar murojaat qilib, ularning 21 nafariga huquqiy, 23 nafariga kredit olish, 33 nafariga psixologik yordam,

16tasiga tibbiy yordam ko'rsatish, 13 nafarining oilaviy ajrimlari oldini olish, 17 nafarining bandligini ta'minlash bo'yicha amaliy yordam ko'rsatilgan. Nizoli vaziyatlar, oilaviy, psixofizik zo'rlik ishlatish va o'z joniga qasd qilishga moyil xulq-atvorning oldini olish bo'yicha davlat organlari va boshqa tashkilotlar o'rtasida idoralararo hamkorlik tartibi va jamoatchilik nazorati amalga oshirilmoqda. Shaharda ushbu noxush holatlarning oldini olish bo'yicha ta'lim muassasalari, idora va tashkilotlar hamda mahallalarda 116ta davra suhbatlari va uchrashuvlar o'tkazilgan bo'lib, bunda 13000 nafardan ortiq xotin-qizlar qamrab olingan. Urganch shahri bo'yicha 2019-yilda 205 nafar fuqarolar fuqarolik ishlari bo'yicha sudlarga nikohdan ajralish uchun da'vo ariza bilan murojaat qilgan bo'lib, ularning 35tasi rad qilingan, 21tasi qanoatlantirilgan, 8tasi ko'rmasdan qoldirilgan, 10tasi tugatilgan. 159ta oila "Oila" markazi va Xotin-qizlar qo'mitasi hamkorligida oilalarda ajrimlarning oldini olish bo'yicha ishchi guruhi tomonidan muhokama qilingan bo'lib, ushbu oilalardan 97tasi yarashtirilgan. Har shanba kuni shahar FHDYO bo'limida xotin-qizlar qo'mitasi, FHDYO, "Oila" markazi, shahar bosh imomi, otinoyilar, shifokor, ruhshunoslar hamkorligida "Yosh oila quruvchilar" uchun seminar o'tkazilib kelinadi. Har haftaning shanba kuni FHDYO bo'limiga nikohlarini rasmiylashtirish bo'yicha ariza bilan murojaat qilgan yoshlar bilan suhbat o'tkazilishi, ushbu yoshlar 4 hafta davomida bo'lib o'tadigan suhbatlarga jalb qilinishi yo'lga qo'yilgan. Shuningdek, yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash, yosh kelin-kuyovlarning hayotiy tajribalari, oilaviy munosabatlarining ma'naviy-axloqiy asoslari, oila iqtisodiyoti va budjetini yuritish, reproduktiv salomatlik bo'yicha bilim va ko'nikmalarini shakllantirish maqsadida xotin-qizlar qo'mitasi va "Oila" markazi hamkorligida 2018-yilning 29-noyabr kuni Urganch shahrida "Bo'lg'usi kelin-kuyovlar innovatsion maktabi" ish boshladi. Ushbu maktabda FHDYO bo'limlariga nikoh tuzish maqsadida ariza topshirgan juftliklar, turmush qurishni rejalashtirayotgan yigit-qizlar juftliklari, kasb-hunar kollejariga va umumta'lim maktablarining bitiruvchi sinf o'quvchilari bepul

o'qishlari mumkin. Albatta, bu kabi tadbirlar yoshlarda oila mas'uliyatini oshirishga xizmat qiladi.

Ayollar migratsiyasi o'ziga xos murakkab va ziddiyatlarga boy bo'lgan jarayon bo'lib, migratsiya natijasida muayyan oilaning ijtimoiy-iqtisodiy ahvoli yaxshilanadi, ammo ota-onalardan biri yoki har ikkisinin ishtirokisiz oilani saqlab qolish va farzandlar tarbiyasini to'laqonli tashkil etish imkoni kamayadi. Migratsiya muammosining o'ziga xosligi shundaki, jamiyat hayotining turli ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy sohalarini qamrab olib, o'zining keng qamrovli ta'sirini namoyon etadi[7].

Shuning uchun ham, oilaviy ajrimlarning oldini olishda yosh oilani mustahkamlashga qaratilgan ma'naviy-ma'rifiy va tarbiyaviy ishlarni keng jamoatchilik tomonidan olib borilishini kuchaytirish, ayollar ro'zg'or yumushlarini va farzand tarbiyasini jamoat ishlari bilan uyg'un holda olib borishida maishiy qulayliklarni yaratib berish maqsadga muvofiqdir.

Bu borada Xorazm viloyati xotin-qizlar qo'mitasi tomonidan ham qator samarali tadbirlar amalga oshirilgan. Xususan, 2018-yil 17-avgust kuni Yoshlar markazi binosida "Eng ibratli oila" ko'rik tanlovining viloyat bosqichi bo'lib o'tdi. Tanlovda viloyatning barcha tuman bosqichi g'oliblari bo'lgan oilalar ishtirok etishdi. Tanlovning viloyat bosqichida Urganch shahridagi al-Xorazmiy mahallasidan Masharipovlar oilasi g'olib bo'ldi.

Xotin-qizlar salomatligini ta'minlashda siyosiy partiyalar tomonidan tashkil etib kelinayotgan loyihalar ham samarali natijalarni bermoqda. Xususan, O'zLiDeP Xorazm viloyat Kengashi tomonidan "Sog'lom oila – mustahkam oila" loyihasi doirasida 2016-yil davomida 176 marotaba bepul tibbiy ko'riklar tashkil etilib, ularda 11467 nafar xotin-qizlar bepul tibbiy ko'rikdan o'tkazildi[8]. Mazkur loyiha doirasida 2017-yil davomida O'zLiDeP Xorazm viloyat Kengashi tomonidan belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ko'maklashish maqsadida 49 marotaba bepul tibbiy ko'riklar tashkil etilib, ularda 8954 nafar xotin-qizlar bepul tibbiy ko'rikdan o'tkazildi. 2018-yilda esa 3602 nafar xotin-qizlar 57 marotaba bepul tibbiy ko'riklardan o'tkazildi. Bulardan,

Urganch shahar, Urganch tumani, Hazorasp, Xiva tumani, Yangibozor tumanlarida tibbiy ko'riklar yaxshi tashkil etilgan bo'lsa, Bog'ot, Yangiariq tumanlarida ko'riklar o'tkazish bo'yicha sustkashliklarga yo'l qo'yilgan[9]. 2019-yilda 48 ta tadbir o'tkazilib, ularda 2398 nafar xotin-qizlar ishtirok etdi. Mazkur tadbirlarda 11 marotaba bepul tibbiy ko'riklar tashkil etilib, ularda 1003 nafar xotin-qizlar bepul tibbiy ko'rikdan o'tkazilgan[10].

Partiyaning "Farovon oila" loyihasi doirasida jami 32 ta tadbir tashkil etilib, ularda 1354 nafar ishtirokchi qatnashgan. Mazkur loyiha bo'yicha Hazorasp va Shovot tumanlarida tadbirlar yaxshi tashkil etilgan.

Ayollar salomatligini ta'minlashda va ularning tibbiy madaniyatini yuksaltirishda siyosiy partiyalar tomonidan xotin-qizlar qo'mitasi, sog'liqni saqlash vazirligi bilan hamkorlikda ko'plab bepul tibbiy ko'riklar tashkil etib kelindi. Jumladan, 2018-yil 25-may kuni O'zLiDeP Xorazm viloyat Kengashi Xotin-qizlar qo'mitasi bilan hamkorlikda Hazorasp tuman tibbiyot birlashmasida "Aholiga sifatli onkologik xizmat ko'rsatishni takomillashtirish istiqbollari" mavzusida davra suhbat tashkil etilgan. Tadbirda keyingi yillarda mamlakatda onkologiya muassasalarini zamonaviy asbob-uskunalar bilan jihozlash, saratonga tashxis qo'yish va davolashning samarali usullarini joriy etish bo'yicha keng ko'lamli ishlar amalga oshirilayotgani ta'kidlandi.

#### **XULOSA (ЗАКЛЮЧЕНИЕ/CONCLUSION).**

Xulosa qilib aytganda, kuzatuvlar tahlilidan kelib chiqib ta'kidlash joizki, oila mustahkamligini ta'minlashda ayol ma'naviyati muhim ahamiyatga ega. Chunki o'zbek ayollariga xos bo'lgan sharqona xususiyatlar oiladagi sog'lom ma'naviy muhitni ta'minlashda muhim omillardan biri sanaladi. Ularning ma'lumotlilik darajasi oiladagi mavqeyini mustahkamlashda va o'z o'rniga ega bo'lishida alohida ahamiyat kasb etadi.

#### **ADABIYOTLAR RO'YXATI**

#### **(ИСПОЛЬЗОВАННЫЕ**

#### **ЛИТЕРАТУРЫ/REFERENCES):**

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 14-martdagi "Xotin-qizlarni va oilani qo'llab-quvvatlash davlat

maqsadli jamg'armasi faoliyatini tashkil etish to'g'risidagi" 201-son Qarori//www.lex.uz. Тошкент shahri. 2018-yil 14-mart.

2. Ayollar manfaatiga e'tiborni kuchaytirib//www.uza.uz/oz/culture/ayollar-manfaatiga-etiborni-kuchaytirib-27-07-2019.

3. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 14-martdagi "Xotin-qizlarni va oilani qo'llab-quvvatlash davlat maqsadli jamg'armasi faoliyatini tashkil etish to'g'risidagi" 201-son Qarori//www.lex.uz. Тошкент shahri. 2018-yil 14-mart.

4. Konstitutsiya oila totuvligining mezoni //www.uza.uz/oz/society/konstitutsiya-oila-totuvligining-mezoni-27-11-2018.

5. Xorazm viloyati bo'yicha tuzilgan nikohlar va ajrimlar soni. //www.xorazmstat.uz/uz/rasmiy-statistika.

6. Bekchanova D. Ayol rozi bo'lsa, oila baxtli, jamiyat tinch bo'ladi // gujum.uz/ozbekiston/xorazm-viloyati-xotin-qizlar-qomitasi-raisi-gulsara-qurbanbayeva-ayol-rozi-bolsa-oila-baxtli-jamiyat-tinch-boladi/

7. Murtazayeva R.H.Globallashuv sharoitida aholi migratsiyasining feminizatsiyalashuvi. "Xotin-qizlar ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish –

mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlarning muhim omili" mavzusida Respublika ilmiy-amaliy anjumani maqolalar to'plami. 26-fevral 2019-yil.

8. Tadbirkorlar va ishbilarmonlar harakati – O'zbekiston Liberal demokratik partiyasi Xorazm viloyati Kengashi "Ayollarning siyosiy faolligini, jamiyatdagi o'rni va mavqeyini oshirish" bo'limining 2016-yil davomida amalga oshirilgan ishlari yuzasidan hisoboti.// joriy arxiv 2016-yil ma'lumotlari.//Urganch, 2016.

9. Tadbirkorlar va ishbilarmonlar harakati - O'zbekiston Liberal – Demokratik partiyasi Xorazm viloyat Kengashi "Ayollarning siyosiy faolligi, jamiyatdagi o'rni va mavqeyini oshirish" bo'limining yillik yakuniy natijalari bo'yicha tahliliy ma'lumoti // joriy arxiv 2018-yil ma'lumotlari.// Urganch, 2018.

10. Tadbirkorlar va ishbilarmonlar harakati – O'zbekiston Liberal demokratik partiyasi Xorazm viloyati Kengashi "Ayollarning siyosiy faolligini, jamiyatdagi o'rni va mavqeyini oshirish" bo'limining 2019-yil davomida amalga oshirilgan ishlari yuzasidan hisoboti// joriy arxiv 2019-yil ma'lumotlari, Urganch, 2019.



## САТИРА В РУССКОЙ ЛИТЕРАТУРЕ НАЧАЛА XX ВЕКА

*Балаболова Галина Геннадьевна, преподаватель Термезского  
государственного университета*

## SATIRE IN RUSSIAN LITERATURE OF THE EARLY XX TH CENTURY

*Balabolova Galina Gennadievna, Teacher, Termiz State University*

## XX ASR BOSHLARI RUS ADABIYOTIDA SATIRA

*Balabolova Galina Gennadievna, Termiz davlat universiteti o'qituvchisi*

**Аннотация:** Уже в первом десятилетии XX века в русской сатирической литературе ясно обозначились два резко отличающихся друг от друга направления: сатира пролетарская и сатира «Сатириконе». Первое направление, представленное творчеством Демьяна Бедного и рабочих поэтов, продолжало традиции политической сатиры и служило целям революционной борьбы.

**Ключевые слова:** сатира, традиция, отрасли языкознания, комплекс терминов, лингвистическая дисциплина.

**Annotation:** Already in the first decade of the 20th century, two sharply different directions were clearly identified in Russian satirical literature: proletarian satire and the satire of the "Satyricon". The first direction, represented by the work of Demyan Bedny and the workers' poets, continued the traditions of political satire and served the goals of the revolutionary struggle.

**Key words:** satire, tradition, branches of linguistics, complex of terms, linguistic discipline.

**Annotatsiya:** XX asrning birinchi o'n yilligida rus satirik adabiyotida ikkita keskin farqli yo'nalish aniq belgilandi: proletar satirasi va "Satirikon" satirasi. Demyan Bedniy va ishchi shoirlar ijodi bilan ifodalangan birinchi yo'nalish siyosiy satira an'alarini davom ettirdi va inqilobiy kurash maqsadlariga xizmat qildi.

**Tayanch so'zlar:** satira, an'ana, tilshunoslikning bo'limlari, atamalar majmuasi, til fanlari.

**ВВЕДЕНИЕ.** Второе направление возникло благодаря основанному в 1908 году журналу «Сатириконе», редактором которого был Аркадий Аверченко. Целью журнала было объявлено «моральное исправление» общества средствами сатиры, при этом политических тем «сатириконцы» принципиально избегали. Среди сотрудников журнала были талантливые поэты: Саша Черный (Александр Гликберг), Пётр Потёмкин, В.Князев. Из прозаиков в

«Сатириконе» печатались А.Куприн, А.Толстой, Л.Андреев, Н.Тэффи. Одним из ярчайших сатирических поэтов стал уроженец Одессы, сын аптекаря **Саша Чёрный**, он же **Александр Михайлович (Менделевич) Гликберг (1880 – 1932)**. Переехав в Петербург в 1905 году, он уже после первых публикаций стал пользоваться огромной популярностью. По словам Корнея Чуковского, читатели, получая



[https://orcid.org/  
0000-0017-0424-  
7123](https://orcid.org/0000-0017-0424-7123)

**e-mail:**  
[galina@gmail.com](mailto:galina@gmail.com)



очередной номер журнала (поэт сотрудничал с журналами «Зритель», «Альманах», «Маски», а с 1908 года - с «Сатириконом»), в первую очередь искали в нём стихи Саши Чёрного.

Объектом осмеяния в его поэзии оказываются дураки, пьяницы, представители некоторых течений в искусстве и т.д. Поэт высмеивает быт и идеалы русского обывателя, пустоту жизни людей, считающихся интеллигентами. Сборники: *«Всем нищим духом»* (1909), *«Сатиры»* (1910) и *«Сатира и лирика»* (1913), а также сборник прозы *«Несерьёзные рассказы»* (1928). Юмор в поэзии Саши Чёрного всегда сочетается с горькой иронией и скепсисом.

**МЕТОДЫ.** Крупнейший прозаик-сатирик начала XX века – уроженец Севастополя, сын купца **Аркадий Тимофеевич Аверченко (1881 – 1925)**. Литературный дебют писателя состоялся в 1903 году: в харьковской газете «Южный край» был опубликован его рассказ «Как мне пришлось застраховать жизнь», хотя сам он вёл отсчёт своего творчества от рассказа «Праведник» (1904). В январе 1908 года переезжает из Харькова в Петербург и оказывается редактором нового сатирического журнала «Сатирикон», который основали сотрудники утратившего подписчиков известного журнала «Стрекоза». В 1918 году в связи с закрытием журнала «Новый Сатирикон» и неприятием власти большевиков возвращается в родной Севастополь, занятый белыми войсками, работает в газете «Юг». За несколько дней до взятия Севастополя красными Аверченко на пароходе отправляется в Константинополь. С 1922 года жил в Праге. Скончался, не дожив нескольких дней до 45-летия, от склероза почек и ослабления сердечной мышцы.

Тема сатир Аверченко – быт города, жизнь обывателя, новые течения в искусстве. Аверченко как сатирик был скорее созерцателем, чем борцом, хотя верил, что жизнерадостный смех может исправить жизнь.

Сборники, изданные в России: *«Рассказы для выздоравливающих»* (1907),

*«Весёлые устрицы»* (1910), *«Круги по воде»* (1912), *«О хороших в сущности людях»* (1914), *«Чудеса в решете»* (1915), *«О маленьких – для больших»* (1916).

Сборники, изданные в эмиграции: *«Дюжина ножей в спину революции»* (1921), *«Записки простодушного»* (1923).

**ОБСУЖДЕНИЕ.** Особую популярность как писатель-сатирик приобретает дочь Санкт-Петербургского адвоката, первая русская юмористка **Надежда Александровна Тэффи**, она же **Лохвицкая**, она же **Бучинская** (1872 – 1952). Литературный дебют – публикация стихотворения «Мне снился сон, безумный и прекрасный...» - состоялся в 1901 году против воли писательницы: дело в том, что её сестра, Мирра Лохвицкая, уже давно была известной поэтессой, и Надежда Александровна считала неправильным, если вся семья «полезет в литературу». Однако, по её собственным словам, всё решил принесённый гонорар за первую публикацию. Она стала публиковаться в журнале «Нива», в газете «Речь», а затем в аверченковских журналах «Сатирикон» и «Новый Сатирикон». В эмиграции с 1919 года.

Юмор Тэффи более психологичен, чем у Аверченко. Если Аверченко был склонен к буффонаде, то Тэффи свойственна элегическая ирония.

Сборники: *«Юмористические рассказы»*, *«Семь огней»* (1910), *«И стало так...»* (1912), *«Карусель»* (1913), *«Дым без огня»* (1914), *«Ничего подобного»* (1915), *«Неживой зверь»* (1916), *«Тихая заводь»* (1921), *«Вечерний день»* (1924), *«На чужбине»* (1927), *«Всё о любви»* (1946), *«Зимняя радуга»* (1952).

**РЕЗУЛЬТАТЫ.** Истоки сатиры лежат в далекой древности. Сатиру можно найти в произведениях санскритской литературы, литературы Китая. В Древней Греции сатира отражала напряжённую политическую борьбу (язвительные ямбы Архилоха, сатирическая комедия Аристофана). Как особая

литературная форма сатиры формируется впервые у римлян, где возникает и самоназвание (лат. «satira», от «satura» - обличительный жанр в древнеримской литературе развлекательно-дидактического характера, сочетающий прозу и стихи). Успехов в ней достигли Гораций, Персий и Ювенал, которые определили её позднейшую форму на все времена.

«Сатира (лат. satira - переполненное блюдо, мешанина) – «Произведение искусства (чаще - литературы), в котором резко, язвительно обличаются, осмеиваются отрицательные явления действительности...»

**ЗАКЛЮЧЕНИЕ.** В разные времена сатира принимала разные формы. Однако, все времена объединяет тот факт, что сатира была активным приемом современников против несправедливости в обществе, пороках человека, несовершенство власти и т.д. Учитывая исконное доверие человека к печатному слову – сатира в литературе являлась и является грозным оружием писателя. Сатира – это акт борьбы идеологической, перенесенной в сферу литературного производства, точнее – акт

идеологической борьбы в эстетических формах. Именно поэтому одни из самых значимых и популярных русских писателей XIX – начала XX века одновременно являются сатириками своего времени. Наиболее яркие из них – Н.В.Гоголь, А.П.Чехов, М.М.Зощенко, Булгаков и конечно Ильф и Петров.

#### СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ:

1. Тер-Минасова С.Г. Язык и межкультурная коммуникация. –Москва, 2013 . С.260.
2. Тухтасинов И.М. Развитие профессиональной компетенции на основе эквивалентности при подготовке переводчиков. Дисс. док. пед. наук (Dsc).- Ташкент, 2018. С.203.
3. Шукин А.Н. Методика обучения речевому общению на иностранном языке. Учебное пособие для преподавателей и студентов языковых вузов МИКАР.
4. Хуторский А.В. Инновации в общеобразовательной школе. Методы обучения. Сборник научных трудов/ под ред А.В.Хуторского.- М.:ГНУИСМО РАО, 2006. С.29



## BOSHLANG'ICH SINFLAR O'QUVCHILARIDA

## KOMMUNIKATIV NUTQNI

## MEDIATEXNOLOGIYALAR ORQALI

## RIVOJLANTIRISH METODIKASI

*Bekberganova Nazokat Oybek qizi, Urganch innovatsion universiteti o'qituvchisi*

## METHODS OF DEVELOPING

## COMMUNICATIVE SPEECH IN PRIMARY CLASS

## STUDENTS THROUGH MEDIA TECHNOLOGIES

*Bekberganova Nazokat Oybek qizi, Teacher of Urganch Innovation University*

## МЕТОДЫ РАЗВИТИЯ КОММУНИКАТИВНОЙ

## РЕЧИ УЧАЩИХСЯ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ С

## ПОМОЩЬЮ МЕДИАТЕХНОЛОГИЙ

*Бекберганова Назокат Ойбек кызы, преподаватель Ургенчского инновационного университета*



<https://orcid.org/0009-0002-2825-0928>

e-mail:  
bekberganovanazokat8@gmail.com

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada mediatexnologiyalar orqali o'quvchilar nutqini rivojlantirish, ta'lim jarayonini zamonaviy va qiziqarli tashkil qilish va o'quvchilarni mantiqiy fikrlashga o'rgatish metodlari haqida so'z boradi.

**Kalit so'zlar:** rivojlantirish, kichik maktab yoshidagi bolalar, nutqiy savodxonlik, xususiyatlar, og'zaki nutq, yozma nutq, audiomatn, lug'at diktant, rasmi diktant, darslik, elektron darslik, multimedia.

**Annotation:** This article talks about the role of cultural tourism in the development of students' spiritual and educational qualities and the educational significance of making them aware of spirituality, art, seeing, learning and researching historical places and various cultural objects.

**Key words:** tourism, historical and pilgrimage sites, cultural sites, analysis of cultural tourism, spiritual and educational education, critical thinking, creativity and problem solving skills.

**Аннотация:** В данной статье говорится о роли культурного туризма в развитии духовно-познавательных качеств студентов и образовательной значимости ознакомления их с духовностью, искусством, осмотром, изучением и исследованием исторических мест и различных культурных объектов.

**Ключевые слова:** туризм, исторические и паломнические места, культурные объекты, анализ культурного туризма, духовное и образовательное образование, критическое мышление, креативность и навыки решения проблем.

**KIRISH.** Har bir mamlakatning taraqqiyoti, istiqboli, farovonligi, ma'naviy yuksalishi, jahonning eng rivojlangan davlatlar qatoridan o'rin olishi –

bilimli, yuqori intellektual salohiyatli, qalbiga va ongiga ezgu fazilatlarini mujassamlagan yoshlarga bog'liq hisoblanib, har jihatdan yetuk va barkamol, Vatan taqdiri uchun sidqidildan xizmat

qiladigan, fidoyi, iymonli avlodni voyaga yetkazish, o'qitishni sifatli va mazmun jihatdan yuqori pog'onalariga olib chiqish awalo o'qituvchi va tarbiyachi-murabbiylar zimmasiga sharafli va ayni paytda mas'uliyatli vazifani yuklaydi[4].

Kommunikativ nutq, o'quvchi-yoshlar orasidagi munosabatlarda o'z ahamiyatiga ega bo'lgan, maqsadli va samarali muloqotni ta'minlaydigan

nutq shakli. Ushbu nutqning asosiy maqsadi, fikr almashish, ma'lumot almashish va fikrlar bilan o'zaro tanishish orqali, biror mavzuga oid o'z fikrlarini ifodalash, qabul qilish, va ko'rsatishni o'rganishdir. Kommunikativ nutq odatda maqsadli va maqsadga muvofiq bo'ladi. O'quvchilar o'rtasida ma'lum bir maqsadni tanlash, uning ustida muloqot olib borish, va o'zlarining fikrlarini ifodalash orqali muaffaqiyatga erishishni o'z ichiga oladi. Kommunikativ nutqda qatnashuvchilar o'zlarining o'zaro munosabatlarini mustaqil ravishda rivojlantirishadi. Bu fikrlarni almashish, ma'lumot almashish va bir-birlarining qarashlarini tushuntirishga imkon beradi.

**ADABIYOTLAR TAHLILI VA METOD.** Ona tili ta'limi jarayonida o'quvchilar nutqi va tafakkurini rivojlantirish masalasi o'tgan asrning 60-70-yillarida S.Dolimov, Y.Abdullayev, Q.Abdullayeva va K.Qosimovalar, 80-90-yillarida B.Turdiyev, A.G'ulomov, M.Qodirov, Sh. Yusupova, B.To'xliyev, M.Shamsiyeva, T.Ziyodovalar, 2000-yillarda A.Hamroyev, Sh.U.Nurillayeva, O'.Ro'ziboyeva, G.M.Ahmedova, Sh.Yuldasheva, U.Masharipova, H.Bakiyeva kabi olimlar tomonidan tadqiq qilingan. Mazkur metodistlar ayrimlari adabiyot darslarida, ayrimlari ona tili va o'qish darslarida og'zaki va yozma nutqni o'stirish masalasiga doir qimmatli metodik tavsiyalar ishlab chiqqanlar [1.551-bet].

Nutqning yaxshi rivojlanishi o'quvchilarning fikr bildirishiga yordam beradi. Bu o'quvchilarga erkin fikr bildirish va fanlarning mahoratlarini o'zlashtirish uchun muhim imkoniyatlar yaratadi. O'qituvchilar o'quvchilarning fikrini qadrlash va mukofotlash orqali ularning o'z fikrini bildirishini rag'batlantirishadi. Bu ularga o'zini o'zgartirish, hodisalarni bayon qilish va kreativlikni rivojlantirish imkoniyatini beradi.

O'quvchilar nutqning yaxshi rivojlanishi va o'z fikrini bildirishga imkoniyat yaratish uchun ta'lim jarayonida interaktiv dars metodlarini kuzatishlari va turli zamonaviy mediatexnologiyalardan foydalanishlari kerak bo'ladi. Bu yordamida o'quvchi o'z fikrini o'zlashtirib, kreativlik va tafakkur qobiliyatini kengaytiradi.

Mediatexnologiyalar asosida kommunikativ nutqni rivojlantirish metodikasi boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun uzluksiz ta'lim jarayonida qo'llash juda ma'qul yo'l hisoblanadi. Ushbu metodikalar orqali o'quvchilar o'zlarining so'zlashuv, yozuvlashuv, tinglovchilik va ko'rsatuv jarayonlarini rivojlantirishlari mumkin. Bu yo'lda, sinflarda so'zlashuv va tinglovchilikni oshirish uchun texnologiyalardan, masalan, interaktiv ta'lim dasturlaridan, videolar va audiolardan foydalanish imkoniyati mavjud. Buning natijasida o'quvchilar nutq madaniyatini shakllantirishi, berilgan ma'lumotni izohlashi va faol to'g'ri matn tuzish ko'nikmalarini rivojlantirishi mumkin. Bu metodikalar ta'lim jarayonini zamonaviy, qiziqarli va tushunarli qilib o'quvchilarni ilg'or ta'lim olishga undaydi.

Bundan tashqari, mediatexnologiya o'quvchi va o'qituvchilarga ta'lim jarayonida qulaylik yaratadi va o'rganish imkoniyatlarini oshiradi, yangi tajribalarni olishda yordam beradi. Bu texnologiyalar va usullar o'quvchilarning motivatsiyasini oshirish, ma'lumotlarni tushuntirish va o'rganishni rag'batlantirishda muhim rol o'ynaydi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida kommunikativ nutqni mediatexnologiyalardan foydalanib rivojlantirishning bir nechta metodikalari mavjud:

1. Interaktiv dasturlar va ilovalar: interaktiv darsliklar va o'yinlar o'quvchilarga nutqni rivojlantirishda samarali usul bo'lib xizmat qiladi. Bu darsliklar va o'yinlar o'quvchilarni so'z o'rganish, gaplashish, va fikr bildirishda rag'batlantiradi. Interaktiv dasturlar va ilovalar yordamida berilgan so'zlardan murakkab gaplar tuzishi mumkin. Bu turli dasturlar o'quvchilarga o'rganishlarini o'yinlar orqali sodda va qiziqarliroq qiladi.

2. Audio-video materiallar: O'quvchilarga nutqni o'rganishda audio-video materiallardan (qo'shimcha darsliklar, videolar, podcastlar) foydalanish foydali bo'ladi. Bu materiallar orqali, o'quvchilar nutqni tinglash, izlash va tushuntirish qobiliyatlarini rivojlantirishlari mumkin. Ular shuningdek, o'quvchilarni qiziqitirish, ularga qo'shimcha ma'lumotlar berish va ularning



o'rganish motivatsiyasini oshirishda ham o'z vazifasini bajaradi. Hatto imkoniyati cheklangan (ko'zi ojiz) bolalar ham audiomatnlr orqali butun bir asarni tinglab tushunish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Shuningdek, audio-video materiallardan foydalanish, o'quvchilarga har qanday vaqtda foydalanish imkoniyatini beradi. Ayniqsa xorijiy tillarni o'rganish jarayonida audiolug'atlardan foydalanib so'zlarni yodlashi mumkin. Darsliklarga nisbatan qulay tomoni shundaki, o'quvchilar video va podcastlarni yo'lda, mashinada yoki xonada tinglashlari va o'rganishlari oson bo'ladi. Bu qulay va samarali o'rganish usulidir.

3. Virtual darsliklar va internet resurslari: mediatexnologiyalardan foydalanish boshlang'ich sinflardagi o'quv jarayonini yanada samarali va o'quvchi uchun qiziqarli qiladi. Internet o'quvchilarni jamiyat bilan bog'laydi va u bilan doimiy aloqada bo'lishni ta'minlaydi. O'quvchilar dunyo bo'ylab sayohat qiladilar, boshqa davlatlarda yashovchi tengqurlari hayoti bilan tanishadilar va ular bilan birgalikda o'rganish, fikrlash va munosabat yaratish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Internet o'quvchilarga dunyo bo'ylab eng yangi ma'lumotlarga tez kirish imkoniyatini beradi.

Bundan tashqari, mediatexnologiyalar orqali o'quvchilarning ta'lim jarayoniga qiziqishi va motivatsiyasi oshadi. Ular fanni kompyuterlar, onlayn darslar va mobil ilovalar orqali o'rganadilar va o'z tasavvur dunyosini kengaytiradilar. Bu mediatexnologiyalar orqali o'quvchilar masofaviy ta'lim, virtual muhitlar va interaktiv o'quv usullari bilan tanishishlari mumkin. Ma'lum sabablarga ko'ra yuqoridagi qolgan o'quvchilar ushbu mediatexnologiyalar yordamida onlayn yoki masofaviy dars olishlari mumkin.

4. Ko'rsatish va tushuntirish: Mediatexnologiyalar orqali o'quvchilarga ko'rsatish va tushuntirishning murakkab qonuniyatlarini yaqinlashish imkoniyatini beradi. Audio-video materiallar, interaktiv dasturlar va virtual ko'rsatish orqali o'quvchilarga ma'lumotlarni ko'rsatish va tushuntirish fursatini beradi. Masalan, o'quvchilarga o'zlarini qiziqtiradigan va ularga qiziqish yaratadigan interaktiv darsliklar va elektron dasturlar orqali nutq ko'nikmalarini rivojlantirish osonroq bo'ladi. Bu

dasturlar o'quvchilarga o'zlarining nutqini tinglovchi voqealarni so'zlar va ifodalar ustida amallar bajargan holda o'rganish imkonini beradi.

5. Guruh ishlar va hamkorlik: mediatexnologiyalardan foydalanib, o'quvchilarga guruh ishlarida yoki jamoaviy vazifalarda hamkorlik qilish juda foydali bo'ladi. Birgalikda vazifalarni hal qilish orqali o'quvchilar nutqni rivojlantirish, tanqidiy fikrlash va muloqot qobiliyatlarini rivojlantirishlari mumkin. Bundan tashqari o'quvchilar birga ta'limiy vazifalarni bajarish orqali tajribalarini oshiradilar va qat'iylik, jiddiylik va kelishuv o'rganishning muhimligini tushunadilar.

Guruh bilan hamkorlik, o'quvchilarga qarshilikni his qilish, fikr bildirish va muhokama qilishni o'rganishga imkoniyat beradi. Bu jarayonda o'quvchilar bir-birining fikrini taklif etish, muhokama qilish va birikishni o'rganadilar. Ularning nutqni rivojlantirish, tanqid qobiliyatlarini joriy etish va fikrlarini chiroyli ta'minlashda hamkorlikning ahamiyati juda katta.

6. O'quvchilarga ko'p o'qish imkoniyati taqdim etish: boshlang'ich sinf o'quvchilariga nutqni rivojlantirishning eng kerakli muhim jarayonlaridan biri ko'p o'qishdir. Bu o'quvchilarga kitoblar, maqollar, hikoyalar o'qish, audiomatnlr eshitish, videolar ko'rish va boshqa matnlr orqali so'z zamonini kengaytirishda yordam beradi. Boshlang'ich sinf o'quvchilarini nutqini rivojlantirish metodikalari o'quvchilarning nutq ko'nikmalarini rivojlantirish, tinchlik va ishonch hissiyotini oshirish va ularni nutqda muvaffaqiyatli bo'lishiga yordam beradi. Bu metodikalarni mavjud darsliklar, elektron dasturlar, interaktiv materiallar va boshqa pedagogik usullar bilan birgalikda foydalanish orqali o'quvchilarning nutqini samarali ravishda rivojlantirish mumkin.

#### **MUHOKAMA VA NATIJALAR.**

Savollar va ilmiy jurnal o'qish o'quvchilarning fikr va muhokama qobiliyatlarini rivojlantiradi. Bu usul o'quvchilarga muhim savollarni o'rganish, ularni mantiqiy ravishda o'ylash va javob berish jarayonlarini o'rganishga yordam beradi. Ilmiy jurnal o'qish esa, o'quvchilarga muhim mavzular haqida o'rganish, xabarlar va ma'lumotlarni tahlil

qilish, shuningdek, o'z fikrlarini ifodalashni o'rganish imkonini beradi.

**XULOSA.** Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, mediateknologiyalar boshlang'ich sinf o'quvchilarini hozirgi dunyoga tayyorlashda ahamiyatli vazifani bajaradi. Shuningdek, mediateknologiyalar o'quv jarayonini murakkablashtiradi, ijtimoiy va professional rivojlantirishga, o'quvchilar qobiliyatini yuzaga chiqarishga, ularni kommunikativ nutqini rivojlantirishga imkon beradi va boshlang'ich sinf o'quvchilarini hozirgi dunyoga tayyorlashda ahamiyatli vazifani bajaradi. Ya'ni, bu texnologiyalar o'quvchilarning dunyoga o'rganganlarini joriy etishi va amalda qo'llashiga yordam beradi.

#### **ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. "Boshlang'ich sinflarda ona tili o'qitish metodikasi". O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida". Toshkent sh., 2019-yil 8-oktabr, PF-5847-sonli.
2. Adizova N., The role of the fun genre in children's spiritual development. Middle european scientific bulletin ISSN 2694-9970 Published: 09.09.2020. – P.38-40.
3. Asqarova M. va boshqalar. Kichik yoshdagi bolalar nutqini o'stirish. — T.: 2001.
4. Babayeva D.R. "Nutq o'stirish nazariyasi va metodikasi" —T.:2018



## AYOLLAR REPRODUKTIV SALOMATLIGIDAGI O'ZGARISHLARNING UMUMIY PSIXOFIZIOLOGIK JIHLARI

*Latipova Umida Yusufboyevna,  
Urganch davlat universiteti,*

*“Pedagogika va psixologiya” kafedrasi dotsent v.b*

## ОБЩИЕ ПСИХОФИЗИОЛОГИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ ИЗМЕНЕНИЙ РЕПРОДУКТИВНОГО ЗДОРОВЬЯ ЖЕНЩИН

*Латыпова Умида Юсуфбоевна,*

*Ургенчский государственный университет,*

*Кафедра "Педагогика и психология" доцент и.о*

## GENERAL PSYCHOPHYSIOLOGICAL ASPECTS OF CHANGES IN WOMEN'S REPRODUCTIVE HEALTH

*Latipova Umida Yusufboyevna,  
Urgench State University,*

*Associate professor of the Department “Pedagogy and psychology”*

*Annotatsiya: Ushbu maqolada reproduktiv salomatlik tushunchasi va uning tibbiy, fiziologik hamda psixofiziologik jihatlari borasida olib borilgan ilmiy nazariy xulosalar bayoni keltirib o'tilgan.*

*Kalit so'zlar: Salomatlik, reproduktiv salomatlik, ruhiy holat, kasallik, ayol, jinsiy bezlar, aqliy va ijtimoiy farovonlik holati, avlod.*

*Аннотация: В этой статье приводится изложение научных теоретических выводов, сделанных в отношении концепции репродуктивного здоровья и ее медицинских, физиологических и психифизиологических аспектов.*

*Ключевые слова: здоровье, репродуктивное здоровье, психическое состояние, болезнь, женщина, гонады, психическое и социальное благополучие, поколение.*

*Annotation: This article presents a summary of scientific theoretical conclusions made regarding the concept of reproductive health and its medical, physiological and psychophysiological aspects.*

*Key words: health, reproductive health, mental state, disease, woman, gonads, mental and social well-being, generation.*

**KIRISH.** Salomatlik nafaqat tibbiy tushuncha sanaladi, balki ko'p miqdorda ijtimoiy-iqtisodiy kategoriya hisoblanib, u jamiyatning iqtisodiy jihatdan taraqqiy etish darajasi, aholining ozodalik madaniyati, tabiiy omillar, ijtimoiy, tibbiy, huquqiy va reabilitatsiya yordami deyishimiz mumkin. Shu bilan bir qatorda, inson salomatligi uning ota-onasining genetik, jismoniy va ruhiy holati bilan belgilanadi. Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti unu

quyidagicha izohlaydi, salomatlikning asosiy fundamental qismlariga somatik, jismoniy va ruhiy komponentlar bilan bir qatorda reproduktiv salomatlik ham egallaydi[1].

Reproduktiv yosh davri (shuningdek, farzand ko'rish yoki tug'ish yoshi) — bu ayol hayotidagi farzandli bo'lish va tug'ish imkoniyatiga ega bo'lgan davr. Demografiyada ushbu davrning davomiyligi uning chegaralarini ko'rsatish bilan



<https://orcid.org/>

[0009-0005-1699-3531](https://orcid.org/0009-0005-1699-3531)

*E-mail:*

[ulatipova933@gmail.com](mailto:ulatipova933@gmail.com)

*Tel.:* +998975130486

tavsiflanadi. Ayollar uchun reproduktiv davr 15-49 yoshni belgilaydi (tugʻilish darajasi nisbatan kam boʻlgan mamlakatlarda — 15-44 yosh). Qoida sifatida, reproduktiv yoshdagi ayollarning umumiy ulushi bir qancha barqaror va 25-30% ni tashkil etadi[9].

**MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI.**

Reproduktiv salomatlik - bu reproduktiv tizim, uning vazifalari va jarayonlari bilan bogʻliq barcha masalalar boʻyicha toʻlaqonli fiziologik, intellektual va ijtimoiy jihatdan farovonlik holati, shu jumladan avlodlarni koʻpaytirish va oiladagi ruhiy-jinsiy munosabatlar tizimida mutanosiblik hisoblanadi. Reprodukativ salomatlikni saqlab qolish va tiklash muhim vazifalardan biri boʻlib, uni muvaffaqiyatli hal qilish turni koʻpaytirish va sogʻlom genofondni saqlab qolish imkoniyatlarini belgilaydi. Yoshlar har bir millatning reproduktiv salohiyatining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi[2].

**TADQIQOT METODOLOGIYASI.** Maqola oʻrganilgan maʼlumotlarga asoslanib izchillik, ketma-ketlik, mantiqiy tahlil tamoyillariga asoslangan holda reproduktiv salomatlikning umumiy psixofiziologik asoslari tadqiq qilindi.

**MUHOKAMA.** Endi reproduktiv tizimning tibbiy fiziologik asosini koʻrib chiqamiz. Reprodukativ tizim (ichki va tashqi jinsiy aʼzolariga boʻlinadi) gametalarni (sperma yoki tuxum) tashish, ayollar organizimida esa urugʻlantirish, implantatsiya, bachadonda perinatal davr va farzand dunyoga keltirish uchun asos hisoblanadi.

Ayollardagi sut bezlari ham reproduktiv tizimga tegishli boʻlib, tugʻilgandan keyin bolaning ovqatlanishini va immunitetini himoya qiladi.

Sogʻlom odamning karyotipi (xromosomalar toʻplami) 44 ta autosomadan va 2 ta jinsiy xromosomadan iborat (**rasm. 1.1**).


Har doim X xromosomasini olib yuradigan tuxum Y xromosomasini tashuvchi spermatozoid bilan birlashganda embrion rivojlanadi, uning shakllanishi erkak turiga (XY jinsiy xromosomalari toʻplami) koʻra davom etadi, tuxum esa X xromosomalari bilan birlashganda. X xromosomasini tashuvchi sperma, embrion ayol turiga (XX xromosomalar toʻplami) koʻra rivojlanadi. Shunday qilib, erkak jinsiy bezlarning shakllanishi uchun Y xromosomasining mavjudligi zarur. Y xromosomasi gaploid genomning atigi 2% ni oʻz ichiga oladi va shu bilan birga, jinsning rivojlanishiga kelsak, uning taʼsiri X xromosomasi tomonidan hech qanday tarzda bloklana olmaydi[3].

Endi bevosita genom atamasiga toʻxtalib oʻtadigan boʻlsak, “Genom” atamasi Oksford entsiklopedik lugʻatida bu atama “gen” va “xromosoma” soʻzlarining birikmasidan hosil boʻlganligi taʼkidlangan[4].

Homiladorlikning 6-haftasiga kelib, jinsiy bezlarda germinal, qoʻllab-quvvatlovchi va stromal hujayralar mavjud boʻlib, ular ikkala jinsda ham steroidogen hujayralarga aylanadi.

Dastlab, embrionda erkak - jinsiy traktning uretral boʻlmagan segmentlariga (epididimis, urugʻ kanali va vesikulalarni chiqaradigan) farqlash potentsialiga ega boʻlgan ikkita volfov kanali va ayol jinsiy traktining koʻp qismida (tuxum - suv, bachadon, boʻyin va proksimal uchdan bir qismi) farqlash potentsialiga ega boʻlgan ikkita Myuller kanalini hosil qiladi.

**Rasm: 1.1. Inson karyotipi (xromosomalar toʻplami)**





Shunday qilib, ushbu bosqichda embrion jinsiy rivojlanishga nisbatan bipotensialdir. Erkak homilada ichki va tashqi jinsiy a'zolarining shakllanishi faol jarayondir, chunki buning uchun erkak jinsiy a'zolarining primordiyalari-embrion moyaklar ishlashi kerak. Ayol jinsiy a'zolarini shakllantirish uchun tuxumdonlarning ishlashi talab qilinmaydi ("passiv jarayon"), balki testikullarning yo'qligi yetarli hisoblanadi[3].

**NATIJALAR.** Tadqiqotimizning navbatdagi bosqichida Kazakova Yu.A tomonidan olib borilgan ilmiy xulosalarga tayanamiz olim reproduktiv salomatlikni baholash uchun klinik tekshiruv o'tkazadi, unda bemorlarning shikoyatlarini batafsil o'rganib, bolalik va o'smirlik davridagi kasalliklar, qizlar va ularning onalarida surunkali kasalliklar mavjudligi to'g'risidagi ma'lumotlarni aniqlaydi. Bemorlarda menstruel funktsiya batafsil o'rganiladi (menarxning yoshi, hayz ko'rish funktsiyasining shakllanish davri, hayz ko'rishning muntazamligi, ularning davomiyligi, ko'pligi, og'rig'i). Jinsiy aloqaning boshlanishi haqida ma'lumot aniqlanadi[5].

Bundan tashqari, Mejitinova E.A, Trubkina E.V tadqiqotlarida esa tos a'zolarining yallig'lanish kasalliklari hozirgi kunga qadar ginekologik kasalliklar tarkibida birinchi o'rinlardan birini egallashi va klinik amaliyotda eng dolzarb muammo bo'lib, uning ahamiyati nafaqat ushbu kasalliklarning chastotasi, ularning takrorlanish tendentsiyasi va surunkali bosqichga o'tishi bilan belgilanadi, balki ayolning hayz ko'rish va reproduktiv funktsiyalarining tez-tez buzilishiga olib kelishini takidlaydi[6,7].

Latipova U.Yu tadqiqotlarida esa surunkali yod tanqisligi va qalqonsimon bez faoliyatining buzilishi zehning susayishi, depressiya, teri qurishi, qabziyat, ich ketishlar, bepushtlik, jinsiy faoliyatning susayishi, soch to'kilishi, suyak rivojlanishining o'zgarishi, bo'yingning past bo'lishi va osteporoz, gipertoniya va ateroskleroz kabi xastaliklarga sabab bo'ladi[8].

**XULOSA VA TAKLIFLAR.** Xulosa o'rnida shuni alohida ta'kidlashimiz joizki reproduktiv yoshdagi ayollarning umumiy hissasi bir muncha barqaror va 25-30% ni tashkil etadi, bu esa o'z navbatida reproduktiv salomatlik fenomeni naqadar

muhimligini va bu davrdagi ayollarning nafaqat tibbiy holatini balki ruhiyatini ham o'rganish dolzarbligini izohlaydi. Ushbu davrda ayollar ruhiyatini muhofaza qilish esa barkamol shaxsni tarbiyalashda juda muhim mezonlardan biridir.

#### **ADABIOTLAR RO'YXATI:**

1. Венедиктов, Д. Здоровье населения как системообразующий фактор и критерий эффективности в реформах здравоохранения / Д.Д. Венедиктов // Здоровье населения Российской Федерации и пути его улучшения: мат. I науч. практ. конф. НПО «Медсоцэкономинформ». – М., 1994. – С. 49-52
2. С.И.Ведищев, А.И.Жирняков, А.А. Иванова, Аспекты репродуктивного здоровья женщин /Вестник ТГУ, т.18, вып.6, 2013
3. А.В. Древаль Репродуктивная эндокринология. Геотар-Медиа, 2019-240 с.
4. Oxford dictionaries: genome (англ.). OED. Дата обращения: 13 ноября 2012. Архивировано 19 ноября 2012 года.
5. КАЗАКОВА Ю. А. Особенности репродуктивного здоровья девушек-подростков с пролапсом митрального клапана: автореф. дис. ... канд. мед. наук. Ростов-на-Дону., 2009
6. Межевитинова Е.А. Внутриматочная контрацепция // Практическая гинекология / под ред. В.И. Кулакова, В.Н. Прилепской. М., 2006. С. 600-614.
7. Трубкина Е.В. Репродуктивное здоровье женщин, использующих внутриматочную контрацепцию: автореф. дис. ... канд. мед. наук. М., 2004.

#### **Bibliografik ma'lumotlar.**

8. Yusufboyevna L. U. ENDOKRIN KASALLIKLARNING SHAXS PSIXIKASIGA TA'SIRI //O'ZBEKISTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILMIY TADQIQOTLAR JURNALI. – 2023. – T. 2. – №. 19. – С. 804-806.
9. Главный редактор Д.И. Валентей. Репродуктивный возраст // Демографический энциклопедический словарь. — М.: Советская энциклопедия. — 1985. «Демографический энциклопедический словарь». — М.: «Советская энциклопедия». Главный редактор Д. И. Валентей. 1985 год. // demography.academic.ru

## ZAMONAVIY O‘ZBEKCHA TAFSIRLAR VA ULARNING MATNIY TADQIQI

*Soliyev Elyorbek Muhammadmo‘sa ug‘li*  
*Yangi asr universiteti “Mumtoz sharq filologiyasi” kafedrasida*  
*o‘qituvchisi,*  
*Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat*  
*o‘zbek tili va adabiyoti universiteti tadqiqotchisi*



[https://orcid.org/  
0009-0000-5290-3496](https://orcid.org/0009-0000-5290-3496)  
[soliyevmuhammad89@  
gmail.com](mailto:soliyevmuhammad89@gmail.com)  
+998951311242

## СОВРЕМЕННЫЕ УЗБЕКСКИЕ ИНТЕРПРЕТАЦИИ И ИХ ТЕКСТОЛОГИЧЕСКОЕ ИССЛЕДОВАНИЕ

*Солиев Эльёрбек Мухаммедмосаевич,*  
*Преподаватель кафедры “Классическая восточная филология”*  
*Университета «Yangi asr»,*  
*научный сотрудник Ташкентского государственного университета*  
*узбекского языка и литературы имени Алишера Навои*

## MODERN UZBEK INTERPRETATIONS AND THEIR TEXTUAL RESEARCH

*Soliyev Elyorbek Muhammadmosaevich*  
*Lecturer at the Department of Classical Oriental Philology at Yangi*  
*Asr University,*  
*Researcher of Tashkent state University of Uzbek Language and*  
*Literature named after Alisher Navoi*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada “Tafsiri bahr” kitobi va undagi yangiliklar hamda tafsirlarning rivojlanishida so‘nggi yillarda yozilayotgan tafsirlar va ualr orasidagi ayrim farqlar ilmiy asoslar bilan ochib berilgan.

**Kalit so‘zlar:** Qur‘on, tafsir, tasavvuf, tarjima, sharh, hoshialar.

**Аннотация:** В данной статье, книге «Тafsiri Бахр» и новостях в ней и развитии тafsиров, с научными основаниями раскрываются некоторые различия между тafsирами и уалрами, написанными в последние годы.

**Ключевые слова:** Коран, толкование, суфизм, перевод, комментарий, поля.

**Abstract:** In this article, the book “Tafsiri Bahr” and the news in it and the development of tafsirs, some differences between tafsirs and walrs written in recent years are revealed with scientific grounds.

**Key words:** Koran, interpretation, Sufism, translation, commentary, fields

### KIRISH

Tarjima ma‘nolarini ta‘rifiga kirishishdan oldin uni asli nima, qaysi tildan bizlarga kirib kelgan hamda hozir qanday holda qo‘llanilmoqda kabi masalalarga e‘tibor berishni lozim deb topdim. Aslida ham, Ilmiy sanatica ko‘ra shu borada tanishtirish lozim. Bu hozirda ko‘pchilik tarafidan e‘tirof qilingan qarash. Ulamolar tarjima so‘zining

o‘zida ham ko‘p fikrlar bildirishgan ulardan o‘zim hamda katta ulamolarimiz e‘tirof etgan istilohlarni keltirib o‘taman.

“Tarjima” so‘zi arab tilidan olingan bo‘lib “tarjima qilish, ifodalsh va tushuntirish” degan ma‘nolarni anglatadi. Arablar tarjima so‘zining turli xil ma‘nolarda ishlatgani sababidan uni to‘rt turga bo‘lishgan.

1. تَبْلِيغُ الْكَلَامِ لِمَنْ لَمْ يَبْلُغْهُ. “bir insonga yetmagan gapni yetkazish” degan ma’noda ishlatishgan.

2. تَفْسِيرُ الْكَلَامِ بِلُغَتِهِ الَّتِي جَاءَ بِهَا. “inson o’ziga yetib kelgan ma’lumotni tushuntirib berish” degan ma’noda ishlatganlar. Unga misol tariqasida Abdulloh ibn Abbas roziallohu anhuri “Qur’on tarjimoni” deb e’tirof qilganlari ham keltirilgan ma’lumotni quvvatlaydi.

3. تَفْسِيرُ الْكَلَامِ بِلُغَةٍ غَيْرِ لُغَتِهِ. “inson o’ziga boshqa tildan yetib kelgan ma’noni tushuntirib berishi”

4. نَقْلُ الْكَلَامِ مِنْ لُغَةٍ إِلَى أُخْرَى. “kalomni bir tildan boshqa tilga tarjima qilish”

Shu o’rinda hozirgi kunda urfiy ma’nosini ham keltirish maqsadga muvofiqdir.

هِيَ التَّعْبِيرُ مِنْ مَعْنَى كَلَامٍ فِي لُغَةٍ بِكَلَامٍ أُخَرَ مِنْ لُغَةٍ أُخْرَى  
مَعَ الْوَفَاءِ بِجَمِيعِ مَعَانِيهِ مَقَاصِدِهِ

“Bir kalomning ma’nosi borasida boshqa tildagi kalomni ibora keltirish hamda maqsad, ma’nolariga rioya qilingan holda”.

- «تَعْبِيرٌ» degan so’z, bu odatda undan so’ng biron-bir qoida yoki qayd keladi;

- «عَنْ مَعْنَى كَلَامٍ» Ushbu kalomni yoritish bilan tafsir ham kirib ketadi;

- «بِكَلَامٍ أُخَرَ» Shu gapni keltirish bilan tafsirlar, ya’ni o’z tilida tafsir qilingan kitoblar chiqib ketadi.

- «مِنْ لُغَةٍ أُخْرَى» Asldagi til bilan qilingan tafsirlar chiqib ketadi.

- «مَعَ الْوَفَاءِ بِجَمِيعِ مَعَانِي الْأَصْلِ وَ مَقَاصِدِهِ» Tafsirning barcha turlari chiqib ketadi.

### ASOSIY QISM

Ilmiy ishlarni har tomonlama izlab o’rganib chiqish maqsadida uni hozirgi zamonaviy lug’atlarda ko’rib chiqildi.

**Tarjima** - bir tildagi matnni boshqa tilda qayta yaratish san’atidan iborat adabiy ijod turi. Tarjima millatlararo muloqotning eng muhim ko’rinishi. Uslubiyat va qayta tiklangan matn xususiyatiga qarab badiiy tarjima, ilmiy tarjima va boshqa turlariga ajratiladi. Asl nusxani aks ettirish tarziga ko’ra tafsir, tabdil, sharh kabi ko’rinishlarga ham ega bo’lishi mumkin. Tarjima davrlarda turli qabilaga mansub kishilar orasidagi o’zaro aloqa, muloqot ehtiyoji tufayli yuzaga kelgan. Tilmochlik deb ataladigan bu og’zaki turi hozirda ham saqlangan. Zamonlar osha tarjimaga bo’lgan talablar yangilana boradi. Ammo uning ijodiy

xarakteri, qayta yaratish san’ati ekanligi o’zgarmaydi. Tarjimaning ko’lami va taraqqiyoti har bir xalqning ma’rifiy darajasiga bog’liq va o’z navbatida, u millatning ijtimoiy tafakkuriga samarali ta’sir etadi. «Tarjima» termini bir tildan ikkinchi tilga o’girish jarayonini, shuningdek, tayyor tarjima asarini anglatadi. Badiiy tarjimaning asosiy xususiyati tilning badiiy vazifasidan kelib chiqadi.

Ilmiy tadqiqot yoki badiiy asar natijasida yozilgan asarlarni tarjima qilish ko’plab jihatlardan o’sha asarning tilini, muallifining ijodini, u yashagan zamon, u mansub bo’lgan tamaddunni bilish bilan o’zaro chambarchas bog’liqdir. Ushbu xususiyatlarga e’tibor qaratmasdan o’sha asarni mukammal holda tarjima qilish imkonsizdir.

Gap Qur’oni karim va hadisi shariflar haqida borganda esa, arab tilini bilishning o’zi yetarli bo’lmaydi.

Qur’oni karim oyatlarining ma’nolar tarjimasi xalqimiz e’tiboriga mana, oxirgi yigirma yil mobaynida bir necha bor havola etildi.

Qur’oni karim oyatlarining tarjimasini amalga oshirish eng murakkab, eng mas’uliyatli ishdir. Ushbu tafsir va tarjimalar ommabop ilmiy tarzda bo’lib, muhtaram tarjimonlarimiz imkonlari va ilmiy salohiyatlariga ko’ra oyati karimalarning tarjimalarini muvaffaqiyatli amalga oshirganlar. Taniqli adabiyotshunos olim va mohir tarjimon Ibrohim G’afurov o’zining “Qur’on tarjimalari: tajribalar” maqolasida tarjimaning balog’at va fasohatli bo’lishi kerakligini alohida ta’kidlagan. Olimimizning bu talabi o’rinlidir.

Bahriddin Umurzoqovning “Tafsiri bahr” kitobi (Qo’lyozma kitoblar asosida Qur’oni karim oyatlari ma’nolarining ilmiy-izohli tarjimasi, tafsirlari va ta’villari (29-30 juz’). Toshkent islom universiteti nashriyot-matbaa birlashmasi, 2010-y.) mazkur va boshqa ilmiy talablarga javob beradigan asardir. Bu kitob muhtaram olimimizning uzoq yillik zahmatli mehnatining samarasidir.

“Tafsiri Bahr” qo’lyozma kitoblar asosida yozilgan jiddiy ilmiy asar, ya’ni yangi zamonaviy ilmiy tafsirdir. Bu kitobda ko’proq akademik nashr xususiyatlari o’z aksini topganligi uchun ham u soha mutaxassisleri ehtiyojlarini e’tiborga olgan holda nashrga tayyorlangan.

“Tafsiri Bahr” dagi ilmiy yangiliklar quyidagi jihatlarda namoyon bo‘ladi:

1. Tarjimon “Tafsiri Bahr” kitobiga asos qilib tanlab olgan manbalar qo‘lyozma asarlardir. Bu qo‘lyozma asarlarning sanog‘i ikki yuzdan ko‘p bo‘lib, O‘zR Fanlar akademiyasi Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti qo‘lyozmalar xazinasida saqlanadi. Bu manbalarning o‘nga yaqini mashhur mufassir zotlarning dastxatlari deb taxmin qilingan nodir nusxalar hisoblanadi.

Chunonchi, X asrda bitilgan tafsirlar va ularning hoshiyalari, XI asrda yozilgan tafsirlar va ularning hoshiyalari, XIII-XV asrlar oralig‘ida yozilgan tafsirlar, XV-XVIII asrlar mobaynida yozilgan tafsirlar shular jumlasidandir.

Ma‘lum bo‘lmoqdaki, kitobxon “Tafsiri Bahr” orqali, balki zamonamiz ilm ahllari va soha mutaxassislari ham bexabar bo‘lgan ko‘plab tafsir kitoblar bilan tanishish baxtiga sazovor bo‘ladi.

“Tafsiri Bahr”da siz o‘nlab Xojagon-naqshbandiyya mashoyixlarining tafsir kitoblari bilan ham tanishasiz. Natijada ulardagi ilmiy asoslangan va dalillar asosida bayon qilingan tafsirga oid daqiq ma‘nolardan bahramand bo‘lasiz. Binobarin, “Tafsiri Bahr”da biz Qur‘oni karim oyatlarining tafsirlarini shariat olimlaridan tashqari tariqat pirlari tafsirlari bilan qiyoslash imkoniga ega bo‘lamiz.

“Tafsiri Bahr” mutolaasidan so‘ng shunga amin bo‘lasizki, shak-shubhasiz, Xojagon-naqshbandiya ulamosi va shayxlari tafsir ilmida ham o‘ziga xos maktab barpo qilganlar va bu sohada boy ilmiy meros qoldirganlar. Bu nafaqat bizning yurtimizda, hatto xorijlik tadqiqodchilar nazaridan Naqshbandiyaning hozirgacha e‘tiborsiz qolib kelayotgan muhim qirralaridan biridir.

2. “Tafsiri Bahr”dagi ikkinchi o‘ziga xoslik: muallif ko‘p o‘rinlarda izoh qismida oyatlarning tafsir va ta‘villaridan keyin o‘sha oyatga bevosita aloqador mavzularda aqiyda, fiqh va tasavvufga oid ma‘lumotlarni ilova qilgan. Bu o‘ziga xoslik **Masalai aqiyda, Masalai fiqh, Nukta, Nafha** degan eslatmalar bilan ta‘kidlab bayon qilingan. Bu ma‘lumotlar Ahli sunnat va-l-jamoaning eng mashhur aqiyda kitoblari: Imom Abu Haniyfaning “*Al-Fiqhu-l-akbar*”, Imom

Nasafiyning “*Aqoyidi Nasafiyya*”, Imom Tahoviyning “*Aqiyda-yi Tahoviyya*” va boshqa shu kabi aqiydaga doir matn ilmiy asarlardan olingandir. Fiqhga doir masalalar esa “*Hidoya-yi sharif*”, “*Muxtasaru-l-viqoya*”, “*Fatavoyi ulamoi Hanafiyya*”, “*Multaqo-l-abhur*”, “*Nuru-l-iyzoh*” va boshqa shu kabi hanafiy fiqhiga tegishli yuzga yaqin muhim ilmiy asarlardan olingan. Tasavvuf ma‘lumotlari esa O‘rta Osiyo mintaqasida yashagan, o‘z davrining muqtadosi va piru murshidlari bo‘lgan muhtaram zotlar – *Xoja Abdulxoliq G‘ijduvoni*, *Xoja Sayyid Amir Kulol*, *Xoja Bahouddin Naqshband*, *Xoja Ubaydulloh Ahror*, *Maxdumi A‘zam Dahbediy*, *Xoja Ishoq Valiy* kabi valiy zotlarning asarlari, manoqiblari, tazkiralaridan keltirilgan. Bu manbalarning barchasi muhtaram olimimiz ishlayotgan Sharqshunoslik qo‘lyozmalar xazinasida ba‘zilari nodir nusxada, ba‘zilari esa o‘nlab qo‘lyozma kitoblar holida saqlanadi.

Tarjimonning o‘z tafsiriga bu uch muhim xususiyatni jo qilganligi bejiz emas, balki zaruriyat jihatidandir. Zero, bugungi beqaror dunyoda yurtimizda o‘zaro hamjihatlikni saqlash, tinchlikni asrash yo‘lida Ahli sunnat va-l-jamoa aqiydasi asoslaridan, Hanafiy mazhabi fiqhidan puxta boxabar bo‘lishimiz lozimligi barchamizga kunday ravshan haqiqatlardandir. “Tafsiri Bahr”dagi bu ma‘lumotlar xalqimizga g‘oyat manfaatli, zarur narsadir. Ayni chog‘da, Qur‘on oyatlarining ma‘nolarini sog‘lom aqida, ota-bobolarimiz amal qilgan muborak hanafiy mazhabi asoslari va talablariga muvofiq o‘qishimiz, anglashimiz ham Qur‘oni karimni mukammal tushunishimizga yordam beradi.

Shu o‘rinda tafsir ilmiga taalluqli g‘oyat muhim bir jihatni eslatish o‘rinli va foydadan xoli bo‘lmas: muhtaram olimimiz “Tafsiri Bahr”da Xojagon tariqati shayxlarining tafsirlaridan ko‘proq zohiriy mazmunlarnigina saralab olgan. “Tafsiri Bahr” sohibining shunday yo‘l tutishi Ahli sunnat va-l-jamoa aqiydasi talabiga ko‘radir. Zero, bu xususda ehtiyot bo‘lmoqlik avlodir.

“Tafsiri Bahr” mutolaasidan chiqariladigan yana bir xulosa shuki, ajdodlarimiz boshqa ilm sohalarida qanday dunyo ahliga ustozlik qilgan



bo'lsalar, diniy ilmlarda, ayniqsa, tafsir sohasida ham komil ustoz bo'lganlar.

Bu ulkan davr mobaynida Qur'oni karimga yuzlab tafsirlar yozilgan. Ularning ko'pi arab tilida, bir qismi esa fors va turk tilida bitilgan. Bu yangi tafsirning eng muhim jihati: u zamonaviy bosma kitoblar asosida emas, balki O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Sharqshunoslik instituti qo'lyozmalar xazinasida saqlanayotgan ikki yuzdan ortiq arab va fors tilidagi Qur'oni karim tafsir kitoblari asosida yozilganligidir. Mazkur qo'lyozma tafsirlarni yaqin o'ttiz-qirq yil mobaynida shu zahmatli olimimizdan boshqa hech kim batafsil tadqiq qilmagan.

“Tafsiri Bahr”ni o'qir ekansiz, yurtimizda yashab, ulkan ilmiy meros qoldirib ketgan zabardast mufassir olimlarimizning tafsirlarini zamonaviy bosma tafsirlarga (masalan, o'zbek tilidagi “Tafsiri Hilol”ga va yoki boshqa shu kabi yangi bosma nashrlarga ham) bemaol qiyoslash imkoniga ega bo'lasiz. Bugina emas, “Tafsiri Bahr”da keltirilgan o'nlab qo'lyozma tafsir kitoblaridagi ma'lumotlar va xususan, Xojagon-naqshbanddiya shayxlarining tafsirlaridagi daqiq va ajib ma'no kashflari, tafsirlar va ta'villar ham yuksak didli kitobxonlarimizni aslo befarq qoldirmaydi, degan umiddaman.

Xorijda ham, Markaziy Osiyoda hududida ham Oltinixon To'ra, Pokistonda To'ra Sohib nomi bilan mashhur bo'lgan adib, shoir, mufassir va muhaddis Sayyid Mahmud ibn Sayyid Nazir xorijdagi turkistonlik vatandoshlarimizning iltimoslariga binoan Qur'on-i karim matnini keng tafsiri bilan turkiy tilga birinchi bo'lib tarjima qildi va kitob holatida 1956-yili Bombayda, 1975-yili Korochida, 1980-yili Jiddada hamda 1993-yili Qatarda nashr ettirdi. Ushbu tabdil Korocho nashridan amalga oshirildi. Oltinixon To'ra matnida ham, nashrlarda ham juz'lar (birinchi juz', ikkinchi juz' kabi...) qo'yilmagan, shuning uchun biz Qur'on nashrlarining tartibiga ko'ra juz'larni birin-ketin qo'yib chiqdik va tarjima matnini to'g'ri tik harflarda, izohlarni kursivlarda ko'rsatdik. Oltinixon To'ra tarjimini eski o'zbek tilida amalga oshirganligi uchun ba'zi so'zlar kitobxonlarga tushunarsiz bo'lganligini hisobga olib, kitob so'nggida keng lug'at, shuningdek Hoji Ismatulloh

Abdulloh tomonidan tuzilgan Qur'on oyatlaridagi hukmlar ko'rsatkichi ham ilova qilingan.

Tarixiy shaxslar va joylar nomini asliga to'g'ri, ya'ni Iyso, Masih, Oisha, Madina tarzida yozilgan. Alloh taoloning ismlarini ham Qur'oni Karimga asoslanib: Alloh, Rohman, Rohiyim, Fafur, Kariym, Hakiym... tarzida yozilgan. Ayni paytda, Alloh taoloning ismlari bo'lmagan tangri, xudo, parvardigor kabi so'zlarni ayrim joylardagina qo'llanilgan. Din (asli diyn), tahorat (asli toharat) kabi so'zlar jonli ilde asliga to'g'ri talaffuz qilinsada, ba'zi bir mulohazalarga ko'ra, hozircha ularni adabiy til normalariga mos shaklda yozilgan. Adabiy tilda nisbatan ko'p uchraydigan ba'zi bir so'zlarni esa bevosita tafsirda o'zbek tilidagi variantini, oyatlar tarjimasida esa asl holatini berilgan. Masalan: juma – jumu'a, manba – manba' va hokazo. Shu o'rinda alohida ta'kidlab o'tish lozim bo'lgan yana bir jihat bor. Odatda, zidlov bog'lovchilari va teng bog'lovchilar gap boshida kelsa, ulardan so'ng vergul qo'yilmaydi. Ammo, mazkur tafsirning ko'p o'rinlarida bu holatning aksini ko'rishingiz mumkin. Chunki bizning fikrimizcha, gap boshida kelgan “ammo, biroq, lekin, chunki, va, ham, holbuki” kabi bog'lovchilar o'zidan keyin kelgan gapdagi ma'noni alohida ta'kidlashga xizmat qilishini inobatga olib “Tinish belgilari va yozma nutq” (prof. K.Nazarov) kitobi asosida shakllantirilgan. Tushuntirish uchun qo'shilayotgan so'zlarni qavslar – ( ) ichiga berib ketilgan. Ba'zi oyatlarning tushish sabablari haqida rivoyatlar kelgan bo'lsa, ularni, ayrimlarida esa tarixiy voqealarni, qissalarni keltirish orqali berilgan. Ba'zi shaxslar, qavmlar haqida qisqacha ma'lumotlar ham berib ketilgan. Tafsir muallifi ushbu asari haqida “O'quvchining e'tiborini Qur'oni Karim matnidani chetlatadigan ma'lumotlarni zikr qilmaslikka harakat qildik. Misol uchun, Alloh taolo osmonni beka mu ko'st yaratib qo'ygani haqidagi oyat tafsirida osmon haqidagi ilmiy ma'lumotlarni xohlagancha keltirish mumkin, lekin biz o'quvchilarimiz bu kabi ma'lumotlarni boshqa manbalardan o'qib olishgan yoki o'qib olishar, degan fikrda ortiqcha bayonga yo'l qo'ymaslikka harakat qildik” deb keltirgan bo'lib, bu ham asarning matniy xususiyatlariga daxldor masalalardandir.

Shayx Usmonxon Temurxon Samarqandiy hazratlarining qalamlariga mansub olti jildlik «Tafsiri Irfon» - Qur'oni Karim ma'nolarining o'zbekcha tarjima va tafsir kitoblaridir. Ushbu asar ham zamonaviy yangiliklarni, ilm-fandagi oxirgi kashfiyotlarni ham mohirona kiritib yozilgan o'ziga xos zamonaviy tafsirlardandir.

Tafsiri hilol va Tafsiri irfon matnlarida juda kata farqlar mavjud emas. Tarjima va uslub bir-biriga juda yaqin. Suralarning berilishida «Tafsiri hilol» da «Tafsiri irfon» ga nisbatan biroz ko'proq ma'lumot berilgan. Ikkila tafsirning u qadar farq qilmasligini tasdiqlaydigan yana bir holat, har ikki tafsirning hajmi ham bir xil, ya'ni 6 ta jilddan iboratligidir.

Ushbu ma'nolar tarjimasida va tafsir asari boshqalaridan shu bilan farqlanadiki, unda oyatlar ma'nosi zamondosh o'quvchilarimizga iloji boricha tushunarli, sodda va ravon bo'lishiga harakat qilindi. «Tafsiri hilol» muallifidan farqli ravishda «Tafsiri irfon»da oyatlar tarjimasida qavs ichidagi izohlardan iloji boricha voz kechilganligi ta'kidlanadi. Oyatlarni tafsir qilishda o'tmishdagi va hozirdagi ulug' mufassirlar tafsirlaridan keng istifoda qilish bilan bir qatorda zamonaviy fan-texnika yutuqlari va kashfiyotlari bayon etilgan ilmiy kitoblardan ham foydalanilgan.

#### **XULOSA**

Yuqorida keltilgan har ikkala tafsir ham kirill alifbosida berilgan bo'lib, amaldagi normativ-huquqiy hujjatlarga va keng kitobxon ommasi foydalanayotgan alifboga ko'ra ushbu tafsirlarni

lotin yozuviga asoslangan O'zbek alifbosidagi nashrlarini ham chiqarilsa foydadan xoli bo'lmas edi.

Bugungi kunda Qur'oni Karimning ma'nolar tarjimalari yana boshqa mualliflar tomonidan ham amalga oshirib kelinmoqda. Shunday ishlardan eng so'nggisi sifatida «Qur'oni Karim oyatlari mazmun-ma'nosining o'zbekcha izohli tarjimasida» kitobi bo'lib, A.Inoyatov hamda G'.Zikrillayevlar tomonidan 2022-yilda nashr ettirildi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Shayx Abdulaziz Mansur. «Qur'oni karim ma'nolarining tarjimasida»; Toshkent, 2001.
2. Obidov R.K. «Ilohiy kitoblar»; TDSHL, 2000
3. Ibn Kasir. «Kisasul-anbiyo», Kohira.
3. Afif Abdul-Fattoh. «Ma'al-anbiyo fil-Qur'on»; Lubnon. 226-b.
4. A. Soguniy. «Tarixi Muhammadiy»; Toshkent, 1997.
5. F. Sulaymonova. «Sharq va G'arb»; Toshkent, O'zbekiston, 1997.
6. «Ilohiy mo'jizalar»; Toshkent, 1995. 8. «Tafsiri ibn Kasir»; Bayrut, 1969. 1-4 tomlar.
7. «Manahil ul-Irfon fi ulumil qur'on». Sayx Muhammad Abdul Aziym Zarqoniy nashri, 1998-yil.
8. Al-Itqon fi ulumil-Qur'on . Hofiz Jaloliddin Abdurahmon as-Suyutiy. – Qohira: Darul-G'oddi al-Jadiyd; 2006 m – 4-juz
9. <http://tafsirihilol.uz/main/14>
10. Ziyo.uz



## CHINGIZ AYTMATOVNING “SOMON YO‘LI” QISSASIDA MILLIY QADRIYATLAR TALQINI

*Anvar Allambergenov Erkabayevich, filologiya fanlari  
bo‘yicha falsafa doktori (PhD), O‘zRFA O‘zbek tili, adabiyoti va  
folklori instituti katta ilmiy xodimi*

## INTERPRETATION OF NATIONAL VALUES IN CHINGIZ AITMATOV'S STORY “MILKY WAY”

*Allambergenov Anvar Erkabayevich, doctor of philosophy in  
philological sciences (PhD), senior researcher at the Institute of  
Uzbek Language, Literature and Folklore of UzRFA*

## ИНТЕРПРЕТАЦИЯ НАЦИОНАЛЬНЫХ ЦЕННОСТЕЙ В ПОВЕСТИ ЧИНГИЗА АЙТМАТОВА «МЛЕЧНЫЙ ПУТЬ»

*Алламбергенов Анвар Эркабаевич, доктор философии по  
филологическим наукам (PhD), старший научный сотрудник  
института Узбекского языка, литературы и фольклора  
УзРФА*



[https://orcid.org/  
0009-0009-1497-0343](https://orcid.org/0009-0009-1497-0343)

e-mail:  
[anvarallambergenov11  
@gmail.com](mailto:anvarallambergenov11@gmail.com)

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada Chingiz Aytmatovning “Somon yo‘li” qissasida talqin qilingan milliy qadriyatlar tahlilga tortilgan. Obrazlarning vaziyati, holati va harakatlari orqali milliy qadriyatlarga misol bo‘ladigan o‘rinlardan iqtiboslar keltirilgan.

**Kalit so‘zlar:** qissa, talqin, tahlil, milliy qadriyat, umuminsoniy qadriyat, matonat, ziddiyat.

**Abstract:** This article analyzes the national values interpreted in Chingiz Aitmatov’s short story “The Milky Way”. Quotations are given from places that exemplify national values through the situation, condition and actions of the images.

**Key words:** story, interpretation, analysis, national value, universal value, resilience, conflict.

**Аннотация:** В статье анализируются национальные ценности, интерпретированные в рассказе Чингиза Айтматова «Млечный Путь». Приводятся цитаты из мест, которые иллюстрируют национальные ценности через ситуацию, состояние и действие изображений.

**Ключевые слова:** история, интерпретация, анализ, национальная ценность, универсальная ценность, устойчивость, конфликт.

### KIRISH (ВВЕДЕНИЕ / INTRODUCTION).

Butun turkiy dunyoning faxri, iftixori, jahon adabiyotining yorqin namoyandasi Chingiz Aytmatovdan o‘lmas adabiy meros qoldi. Uning qator qissalari, romanlari o‘zidan keyingi qirg‘iz hamda jahon adabiyotining yosh ijodkorlariga ta’siri katta bo‘lgan. Buning natijasida boshqa xalqlar adabiyotida chingizona mavzuda, chingizona usulda ko‘plab asarlar yozilgan.

Dunyoga mashhur adib xalqaro miqyosdagi mukofotlar bilan taqdirlangan. Chingiz Aytmatov shaxsi va ijodi haqida ko‘plab ijodkorlar o‘zlarining samimiy fikrlarini bildirib o‘tgan. “Adabiyot maydoniga XX asrning 50-yillarida kirib kelgan va millionlab kitobxonlarning qalbiga tez yo‘l topa olgan g‘oyat go‘zal va sermazmun asarlari bilan ularni ohanrabodek o‘ziga tortib, sehrab olgan, hatto Lui Aragon, Nikolay Tixonov, Eduardas

Mejelaytes, Muxtor Avezov, Rasul Hamzatov singari jahonga mashhur sehrgarlarning tahsiniga sazovor bo'lgan buyuk iste'dod sohiblaridan biri afsonaviy yozuvchi – Chingiz Aytmatovdir. Tinimsiz mehnat, izchil ijodiy izlanish Chingiz Aytmatovni nafaqat turkiy xalqlar, balki butun jahon xalqlari kitobxonlarining ardoqli yozuvchisiga aylantirdi<sup>1</sup>. Uning mavzu, tasvir va talqin jihatidan takrorlanmaydigan “Jamila”, “Yuzma-yuz”, “Sarviquomat dilbarim”, “Birinci muallim”, “Bo'tako'z”, “Oq kema” kabi qissalarida milliy va umumbashariy qadriyatlar tarannumining bir-biriga o'xshamaydigan beqiyos talqinlarini kuzatish mumkin. “Chingiz Aytmatov uslubining diqqatga sazovor bo'lgan xususiyati shundaki, uning asarlarida deyarli birona ham ortiqcha tafsilot, noo'rin detal yoki nomatlub harakat yo'q. To'g'ri, yozuvchi “ikir-chikirlar”ga katta e'tibor bilan qaraydi, chunki bu “ikir-chikirlar” va ayrim mayda detallar asar voqeasi rivojida muhim o'rin tutgan katta voqealar yoki asosiy g'oyani ochishga, asoslashga xizmat qiladi<sup>2</sup>.

**ADABIYOTLAR TAHLILI VA METOD (JIITEPATYPA II METOD / MATERIALS AND METHODS).** Adibning “Somon yo'li” qissasi ham yuqorida ta'kidlangan jihatlarni o'ziga qamrab olgan holda yozilgan. Bu asar yozilgunga qadar muallifning “Yuzma-yuz”, “Jamila”, “Bo'tako'z”, “Birinci muallim” kabi qissalari e'lon qilingan. “Somon yo'li”gacha yozuvchida ijodiy tajriba va ko'nikma hosil bo'lgan. Bevosita asar haqida to'xtaladigan bo'lsak, u 1963-yilda yozilgan, ikkinchi jahon urishi ortidagi urushning dahshatli fojialari o'ta ta'sirli holda tasvirlangan. Qissa 8 bobdan iborat. Asarning qahramonlari Ona Yer, To'lg'anoy, Suvonqul, Qosim, Aliman, Maysalbek, Jaynoq, Oysha, Bektosh, Jonbo'lotlarning harakatlari, holatlari, kechinmalari, barcha-barchasi Ona Yer va To'lg'anoyning dialoglari asosida tasvirlangan. Umuman olganda qissa boshdan oxir dialog asosiga qurilgan. To'lg'anoyning uch o'g'li Qosim, Maysalbek, Jaynoq, eri Suvon urushga ketadi.

Ularning barchasi halok bo'ladi. To'lg'anoy kelini Aliman bilan, bir uyda ikki xotin beva bo'lib qoladilar. Ularni hayotning ayovsiz va achchiq sinovlari kutib turardi. Aliman oldin qaynonasini o'ylab, uni yolg'iz tashlab ketishga ko'zi qiymaydi. Alimanning akalari uni olib ketishga kelganida “hayotimga aralashmanglar”, deya ularni jerkib tashlaydi. Xullas, hayot ekan, u beva holda homilador bo'lib qoladi. Ko'zi yorish vaqtida olamdan o'tadi. Qissa Ona zamin va To'lg'anoy suhbatini asosiga qurilganligi boisidan Alimanning ichki kechinmalari berilmaydi. Mullif ham uni o'quvchilar qatorida turib kuzatadi. Shu boisidan u haqda qat'iy xulosa chiqarish qiyin masala. Balki u zo'rlangandir. Balki u aldangandir. Balki u o'z xohishi bilan bu ishga rozi bo'lgandir. Hayotning past-balandini, achchiq-chuchugini ko'rgan, birdaniga uch o'g'lidan, umr yo'ldoshidan ayrilgan To'lg'anoy ham kelinining homilador ekanligini bilsa-da bu haqda na keliniga, na boshqalarga og'iz ochmaydi.

Qissada yana shunday obrazlar borki, ular xokisor, kamtar, kamsuqum va qo'lidan kelganicha boshqalarga yordam berishga shay, hojatbarorlar. Qissada yordamchi obraz tarzida talqin qilingan Oysha va Bektosh kabilar borligi uchun ham insonlar orasidagi mehr, oqibat, odamgarchilik, insof, e'tiqod kabi tuyg'ular yashayotganligiga ishonch hosil qilish mumkin. Lekin bu hayotda yaxshilikning ziddi yomonlik, adolatning ziddi haqsizlik bo'lganidek, vatanga fidoyilikning, sadoqatning ham ziddi mavjud. Yozuvchi boshqa asarlaridagidek “Somon yo'li”da ham mavzu talqiniga jiddiy yondashgan. Qissada oq oqligicha, qora qoraligicha ko'rsatilgan, ko'rsatilganda ham haqqoniy, hayotiy ko'rsatilgan. Tarix ham asarda keltirilgan voqealarning haqiqat ekanligiga guvohlik beradi. Hayotiy voqealar mullifning betakror uslubi, ijodiy mahorati bilan qissaning badiiy qimmatini yanada oshirgan.

Asardagi Jekshenqul obrazi o'quvchida kuchli nafrat uyg'otadi. Bu obraz insoniy, milliy va umumbashariy qadriyatlarga mutlaqo zid ishlar qiladi. Vatanga xiyonat, oilaga xiyonat, o'g'irlik,

<sup>1</sup> Aytmatov Ch. Tanlangan asarlar. Qissalar. Toshkent “Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi Bosh tahriryati. 2018-yil. 655-bet.

<sup>2</sup> Aytmatov Ch. Tanlangan asarlar. Qissalar. Toshkent “Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi Bosh tahriryati. 2018-yil. 659-bet.



yolgʻonchilik, hatto mushtipar bir ayolning qotili boʻlib qolishiga bir bahya qoladi. Qotili boʻlishi ham mumkin edi. Lekin xudo saqlagan holda, Toʻlgʻanoy tirik qoladi. Qanchadan-qancha odamlar jang maydonlarida jon olib, jon berib yotgan bir paytda oʻz jonini oʻylab qoʻrqqoqlik qilib qochib kelgan, qoʻrqqoq, qochoq va oʻgʻri Jekshenqul oʻsha davrdagi urushdan qochgan, el-ulusdan berkinib yurgan odamlarning tipik obrazi hisoblanadi. Jekshenqul ismiga yashringan ramziy maʼno ham obrazdagi salbiylikni ham yanada kuchaytirmoqda.

**MUHOKAMA (ОБСУЖДЕНИЕ/ DISCUSSION).** Endi asardagi milliy qadriyatlar masalasiga oʻtsak. Qissadagi milliy qadriyat talqinlarining dastlabki koʻrinishi bosh obrazlar Toʻlgʻanoy va Suvonqulning suhbatlarida boʻy koʻrsata boshlaydi. Va bu suhbat asnosida shaxsiy qadriyatlar bir-biriga ulanib milliy qadriyatlarni tashkil qilishini kuzatamiz. “Men unga erkalanib: “Suvon, nima deysiz, biz baxtli boʻlamizmi, a? – desam, esingdami oʻshanda aytgan gaplari: “Yer-suv elga teng boʻlsa, bizning ham ekin ekadigan yerimiz boʻlsa, biz ham el qatori yer haydab, ekin ekib, xirmon koʻtarsak, bizning baxtimiz oʻsha. Bizga bundan ortigʻining nima keragi bor, Toʻlgʻon. Dehqonning ulushi ekan ekinida”, – demaganmidi”<sup>3</sup>. Koʻrinyaptiki, bu yerda ikki yoshning baxtli boʻlishi uchun, baxtga yetish uchun yer va suv boʻlishi, halol mehnat qilinishi kerak ekan. Demak, qorakoʻz dehqon uchun ekin ekiladigan yer boʻlsa, boʻlganda ham elga teng boʻlsa, *el qatori yer haydab, ekin ekib, xirmon koʻtarsa baxt shu*. Bu yerda baxtli boʻlish uchun ikki oʻrkachli qizil tuyalar (arab diyorlarida zamona taraqqiy etguniga qadar qizil tuya eng qimmatbaho ulov hisoblangan) soʻralmayapti. Yoki har yili ikki marotaba oʻnta, oʻn beshtadan bolalaydigan semiz oq choʻchqalar (bunday choʻchqalar Yevropa va Osiyo hududlarida maxsus boqiladi, tez yetiluvchanligi hamda sermahsulligi uchun qadrlanadi) soʻralmayapti. Bu yerdagi ikki yosh Oʻrta Osiyo hududlariga xos boʻlgan yetakchi tirikchilik manbai hisoblanmish dehqonchilik

qilishga sharoit va halol mehnat qilishni orzu qiladi. Qissa qahramonlari Toʻlgʻanoy va Suvonqulning hayoti deyarli shu baxt ogʻushida kechadi. Qosim, Maysalbek, Jaynoq kabi oʻgʻillarni dunyoga keltirib, tarbiyalab, el-yurt koriga yaraydigan qilib voyaga yetkazadilar. Afsuslar boʻlsinki, uch oʻgʻil ham ularning otasi ham urushda halok boʻldi.

Qadriyatlar deganda asosan xalq tomonidan uzoq yillardan beri qadrlanib, amal qilinib kelayotgan rasm-rusmlar tushiniladi. “Kechki payt oʻroqchilarga atalgan yangi bugʻdoy noni ham tayyor boʻldi. Yangi nonga birinchi boʻlib oʻroqchilarning oʻgʻzi tegishi ilgari qolgan rasm emasmi. Biz u nonning unini anhorning chetidan oʻrib olingan bugʻdoylardan tuyib tayyorlagan edik. Yangi bugʻdoyning noniga ogʻzim tekkanda har qachon xosiyatli taom totgandek boʻlaman. Koʻrinishdan qora boʻlsa ham, xamiri yumshoq yoʻgʻrilgan yangi non uncha koʻpchib pishmagani bilan uning dumbul taʼmiga va quyosh, yer, tutun anqigan tansiq hidiga nima yetsin!”<sup>4</sup> Mehnat odamni ulugʻlaydi, qadrlaydi, mehnat qilgan odam rohat koʻradi, deganlaridek bu misolda ham oʻroqchilar mehnati shu zaylda qadrlanyapti, eʼzozlanyapti. Bu qadriyat asar voqealariga mos ravishda, maromiga yetkazib tasvirlangan. Non, tuz masalasi milliy qadriyat sifatida faqatgina qirgʻiz xalqining emas, balki boshqa xalqlar hayotida ham muhim ahamiyat kasb etishi bilan umumbashariy qadriyatlar sirasiga kiradi.

Milliy qadriyat deganda rasm-rusm, urf-odatlardan tashqari turmush tarzi, odamlarning bir-biri bilan muomala munosabati ham tushuniladi. “E Jaynoq, – dedim men, – sen stansiyaga qatnab turibsan, qanday, urushning toʻxtaydigan siyogʻi bordaymi?” “Yoʻq, ona, – dedi u oʻshanda, – hozircha ahvol ogʻir. Nemislar bostirib kelyapti. Biznikilar endi oʻshalarni toʻxtatib, qaddini rostlasa, kuch yigʻib olardik. *Sen, ona, uni-buni oʻylayverma, koʻp nima boʻlsa, biz ham shu-da...*” A-a, sadagʻang ketay. U meni yupatmoqchi. Koʻzimni koʻr, qulogʻimni kar qilsam ham qanday oʻylamay

<sup>3</sup> Aytmatov Ch. Tanlangan asarlar. Qissalar. Toshkent “Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi Bosh tahriryati. 2018-yil. B 240.

<sup>4</sup> Aytmatov Ch. Tanlangan asarlar. Qissalar. Toshkent “Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi Bosh tahriryati. 2018-yil. 245-bet.

bo'radi"<sup>5</sup>. Turkiy xalqlarning qichpoq guruhiga mansub xalqlarida yaqinlariga "sen" shaklida murojaat qilish bo'rtib ko'rinadi. Xususan, yuqoridagi parchadan ham anglashiladiki, To'lg'anoyning kichik o'g'li Jaynoq o'z onasiga "sen" tarzida murojaat qilyapti. Bu holat qissaning boshqa o'rinlarida ham kuzatiladi. Masalan, To'lg'anoyning nabirasi Jonbo'lat ham enasiga sen deb murojaat qiladi. "Yuragim allaqanday bo'lib ketdi. Shunda maqtanib: "O-o, men o'rganib oldim, ena. *Qarab tur hozir!*" – deb velosipedining egariga bo'yi yetmay bir yoq tomonga qiyshayib yopishib haydab ketdi"<sup>6</sup>. Bunday misollar qissada talaygina. Quyida bu bilan bog'liq yana bir parchaga e'tibor qaratsak. "Nari-beri kuymanib, Maysalbegim o'rtoqlari bilan uyning ovqatidan totib ketsin, deb, bo'g'irsoq, yupqa, go'sht pishirib, o'sha kuniyoq Aliman ikkimiz aravaga tushib jo'nab qoldik. Avval, Jaynoq bilan borsammikin, deb o'ylanib turdim. Shunday desam, Jaynoqning o'zi: "*Qo'y, ona, Aliman borsin, men uyda qolayin. Menga qaraganda Alimanning borishi zarur*", – dedi. Juda to'g'ri ish qilgan ekan kenja bolam"<sup>7</sup>. Bu parchada Jaynoqning onasiga ikkinchi shaxs birlikda murojaat qilishidan tashqari, butun turkiy xalqlar uchun, butun dunyo onalari uchun xos bo'lgan yana bir jihat ham yorqin ko'rinadi. To'lg'anoyning o'qishga ketgan o'g'li Maysalbek o'qib yurgan yeridan to'g'ri urushga ketadi. Bir shahardan ikkinchi shaharga poyezd orqali ketayotib, ovulga yaqin yerdagi stansiyadan o'tib ketishi haqida, shu yerda ozgina vaqt, juda ham oz vaqt to'xtab o'tishini xabar qilib telegramma yuboradi. Bu xabarni eshitgan ona *Maysalbegim o'rtoqlari bilan uyning ovqatidan totib ketsin, deb, bo'g'irsoq, yupqa, go'sht pishirib* stansiyaga o'tlanadi. Bo'g'irsoq va yupqa qizg'iz va o'zbek xalqining dasturxonida alohida ahamiyatga ega yegulik sanaladi. To'y va marakalarda, yig'in va gap-gashtalarda dasturxonni bo'g'irsoq va yupqasiz tasavvur qilish qiyin. Bu yerda To'lg'anoyning bag'rikengligi ham,

<sup>5</sup> Aytmatov Ch. Tanlangan asarlar. Qissalar. Toshkent "Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi Bosh tahriryati. 2018-yil. 251-bet.

<sup>6</sup> Aytmatov Ch. Tanlangan asarlar. Qissalar. Toshkent "Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi Bosh tahriryati. 2018-yil. 297-bet.

uning onalarcha mehr bilan faqat o'zining o'g'lini o'ylab emas, uning yonidagilarini ham o'ylab shuncha pishiriqlar pishirishi, uni boshqalarga ham ilinishni niyat qilishi, butun ona zotiga xos bo'lgan tuyg'u, butun onalarga xos bo'lgan qadriyat hisoblanadi.

Diniy qadriyatlarga ko'ra ishning boshi bismillo hisoblanadi. Har xayrli ishni "bismillohir rahmonir rahim" bilan boshlash, yoshi ulug'larning duo-yu fotihasini olish, butun musurmonlar uchun, xususan, qirg'iz xalqi uchun ham xos fazilat sanaladi. Ayniqsa bobodehqon yerga urug' qadashdan oldin, yaxshi niyat bilan ko'pning rizqiga yaratgandan baraka so'rash, keksalarning duosini olish bor gap. "Omoch tishlari endigina yer bag'rini tilib, nam tuproqning iliq tafti yurakni qitiqlayotgandek edi, traktor orqasidan bamaylixotir odimlab borarkanman, yerga: hosildor, barakali bo'l, urushda yurganlarga quvvat bo'l, deb, Suvonqul bilan Qosimdan ko'pdan buyon xat-xabar uzilganini eslab, o'zimcha o'ylanib tursam, ovuldagi qariyalardan biri kelib qoldi. "E, oqsoqol, kelib qolibsiz, ish boshida bir fotiha berib yuboring!" – dedim. "Dehqon bobom, Xizr nazar qilsin, xirmon barakali bo'lsin, huzurini el ko'rsin!" – deb, u kishi ot ustida fotiha qildi-da: – To'lg'anoy, tumandan kelgan vakil, brigadir kelsin, deb chaqiryapti, yurgin", – dedi"<sup>8</sup>. Oqsoqolning duosida ham faqatgina To'lg'anoy emas, butun el-ulus bor. Xizrning nazari tilanishida ham ramziy ma'no yashirin. U zotning nomi islom dinining muqaddas kitobi Qur'oni Karimda zikr etilgan. Xalq orasida Xizr nazar qilgan inson baxtli bo'lishiga, orzulariga yetishiga ishonch mavjud. Shu sababli ham oqsoqol, qiyomatgacha barhayot deb ishoniladigan Xizr nazarini tilayapti. Bu tilak o'z ichiga juda ko'plab narsalarni qamrab oladi. Xizr nazari To'lg'anoy uchun so'rallyotgan bo'lsa, xirmonning barakali bo'lishi barcha uchun manfaatli. Barcha deganda nafaqat ovuldagi odamlar, balki urush maydonida jang qilib, qon kechayotganlar uchun ham juda muhim.

<sup>7</sup> Aytmatov Ch. Tanlangan asarlar. Qissalar. Toshkent "Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi Bosh tahriryati. 2018-yil. 257-bet.

<sup>8</sup> Aytmatov Ch. Tanlangan asarlar. Qissalar. Toshkent "Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi Bosh tahriryati. 2018-yil. 264-bet.

Milliy qadriyatlar haqida gap ketar ekan, qipchoq turkiylariga xos bo'lgan milliy qadriyatlardan biri kelin erining aka-ukalari, jiyanlarini ismi bilan chaqirmaydi. Ularga ko'rinishidan, fe'l-atvoridan, oilada nechanchi farzand ekanligi va shu kabilardan kelib chiqqan holda o'ziga yarasha nomlaydi. Masalan, qayinsingillar va qiz jiyanlarga nisbatan qorasoch, suluvqiz, qorako'z, oyqiz, katta qiz, kichkina qiz, chaqqon qiz, qayin ukalar va qaynog'alarning o'g'illariga nisbatan mirza bola, mirza yigit, oq bola, oq yigit, oy bola, oy yigit, biy bola, biy yigit kabi. Qirg'iz kelinlari ham bundan mustasno emas. "Somon yo'li"da Aliman eng kichik qaynisi Jaynoqqa "kichkina bola" deb murojaat qiladi va u haqda kimgadir gapirayotsa ham kichkina bola deb uni nazarda tutgan holda gapiradi. "Ivtilgan makkajo'xoridan Aliman katta bir changal olib chiqib: "Ena, shu makkajo'xori dumbul bo'lguncha kichkina bola omon-esson qaytib kelsin!" – deb niyat qilgan urug'ini yerga sohib yubordi. Alimanning o'shandagi qiyofasi ko'z o'ngimdan sira ketmaydi. Bulut orasidan yalt etib chiqib, hozirgina ko'tarilgan qip-qizil cho'g'dek, oftob tekkanda, yomg'irdan keyin nam bo'lgan qora tuproqni yalangayoq bosib, qadam sayin shudgorga oltin sochayotgandek urug' sepib, bu xosiyatli mehnatni yaxshi niyat, yaxshi umidga bog'lab, Alimanim jo'xori emas, yaxshilik urug'i sepib yurgandek edi. Ko'rasiz-ku, ena, mening aytganlarim to'g'ri chiqadi. Nasib bo'lsa, kichkina bolaga dumbulni o'zim o'tga ko'mib, pishirib beraman"<sup>9</sup>.

**NATIJALAR (РЕЗУЛЬТАТЫ / RESULTS).** Qissadan olingan uzundida ikki xil diqqat tortar jihat bor. Bulardan birinchisi Aliman qaynisi Jaynoqni o'z ismi bilan emas, "kichkina bola" deya chaqirishi bo'lsa, ikkinchisi har bir ishdan hikmat izlash, yaxshilik axtarish, yaxshi niyat qilish kabi tushunchalarning jamlangan bir holati, yerga har qanday urug' qadalayotgan vaqtda ezgu niyat qilish rasm-rusmlarining ham borligi alohida ahamiyat kasb etadi. Bundan tashqari, dom-daraksiz ketgan Jaynoq haqida qora xat emas, bedarak yo'qoldi

degan xabar kelmaganligi uchun uning o'ylamagan bir vaqtda tirik qaytishini istash kabi yaxshi niyatlari ham urushda bedarak yo'qolgan butun askarlarning oila a'zolari tomonidan qilingan umidlarning, duolarning, istaklarning tipik bir ko'rinishi deyishimiz ham mumkin.

*Oq ko'ynagim etagi  
Hilpir-hilpir etarmi.  
Askarga ketgan otamning  
Bir xabari kelarmi?*<sup>10</sup>

Asarda kelganidek, yosh bolalarning, o'yin bolalarining aytgan aytimi-yu, qo'shiqlarida ham urushdagi otaning, akaning, amakining kelishi yoki undan xat kelishi, hech bo'lmasa biror yaxshi xabar kelishini istashi ularning o'yin paytida aytadigan qo'shiqlariga ham ko'chgan.

Qissa oxirida ona zaminning bir savoli va To'lg'anoyning javobi beriladi. Yuraklarni titratadigan bu birgina savol va uning javobini qissaning prologi deyishimiz ham mumkin.

- Ketdingmi, To'lg'anoy?

- Ketdim. Xayr, omon bo'l, o'lmasam yana kelarman.

Qissa boshidan hayajon bilan mutolaaga tutingan o'quvchi asarning portlash nuqtasi shu yerda ekaniga amin bo'ladi. Shuncha dardni, yo'qotishni, ayriliqni chidam bilan ko'tarib yurgan To'lg'anoyga achinadi, uni ayaydi, unga hamdard bo'ladi.

**XULOSA (ЗАКЛЮЧЕНИЕ / CONCLUSION).** Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, Chingiz Aytmatov "Somon yo'li" qissasida talqin qilingan voqealar orqali Ikkinchi jahon urushi ortidagi odamlar hayotida yuz bergan dahshatli fojialariga emas, milliy va umuminsoniy qadriyatlarni ham mahorat bilan ko'rsata olgan.

#### **ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi, 10-jild. T.: "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" davlat ilmiy nashriyoti, 2005.
2. Aytmatov Ch. Tanlangan asarlar. Qissalar. Toshkent "Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi Bosh tahriryati, 2018.

<sup>9</sup> Aytmatov Ch. Tanlangan asarlar. Qissalar. Toshkent "Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi Bosh tahriryati. 2018-yil. 283-bet.

<sup>10</sup> Aytmatov Ch. Tanlangan asarlar. Qissalar. Toshkent "Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi Bosh tahriryati. 2018-yil. 261-bet.

**XORAZM TURKIY TARIXNAVISLIGIGA OID  
MANBALARDA DAVLAT BOSHQARUVCHISI  
TUSHUNCHASINI IFODALOVCHI AYRIM  
ATAMALAR TADQIQI**

*Eshmurodov Madamin Jumabayevich, filologiya fanlari  
nomzodi*

**A STUDY OF SOME TERMS EXPRESSING THE  
CONCEPT OF STATE ADMINISTRATOR IN THE  
SOURCES OF KHORAZM'S TURKISH  
HISTORIOGRAPHY**

*Eshmurodov Madamin Jumabayevych, candidate of  
philological sciences*

**ИЗУЧЕНИЕ НЕКОТОРЫХ ТЕРМИНОВ, ВЫРАЖАЮЩИХ  
ПОНЯТИЕ ГОСУДАРСТВЕННОГО ПРАВИТЕЛЯ В  
ИСТОЧНИКАХ ИСТОРИОГРАФИИ ХОРЕЗМА**

*Эшмуродов Мадамин Джумабаевич, кандидат  
филологических наук*



<https://orcid.org/0009-0008-6972-5217>

*e-mail:*  
*Innovatsionuniversity@  
gmail.com*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada Xorazm turkiy tarixnavisligiga oid manbalar leksikasida uchraydigan davlat boshqaruvchisi tushunchasini ifodalovchi ayrim atamalarning ma'no semantik tahlili amalga oshirilgan. Ular qatnashgan birikmalarning o'ziga xosliklari aniqlangan.

**Kalit so'zlar:** turkiy tarixnavislik, tarixiy leksika, etimologiya, davlatchilik terminologiyasi, tarixiy manba.

**Abstract:** This article provides a semantic analysis of the meaning of some terms expressing the concept of a public manager found in the vocabulary of sources related to the Turkish historiography of Khorezm. The features of the phrases in which they participated are determined.

**Key words:** Turkish historiography, historical vocabulary, etymology, state terminology, historical source.

**Аннотация:** В данной статье проводится семантический анализ значения некоторых терминов, выражающих понятие государственного управленца, встречающихся в лексике источников, относящихся к турецкой историографии Хорезма. Определены особенности словосочетаний, в которых они участвовали.

**Ключевые слова:** турецкая историография, историческая лексика, этимология, государственная терминология, исторический источник.

**KIRISH.** Xorazm turkiy tarixnavisligiga oid manbalarda turli mavzuga doir davlatchilik atamalarini uchratishimiz mumkin. Ularning mavzuiy-semantik guruhlarini ajratish, har bir mavzuiy guruhga xos bo'lgan so'zlarni aniqlash hamda ularning o'ziga xos xususiyatlarini tahlil qilish, etimologik, tarkibiy jihatdan o'rganish, ularning qaysi til lug'at qatlamiga oid ekanligini

aniqlashtirish bugungi kunda tilning tarixiy qatlamini o'rganish va leksikologiya rivoji uchun muhim ilmiy xulosalar chiqarishga ko'mak beradi.

**ADABIYOTLAR TAHLILI VA METOD.** Shu nuqtayi nazardan, biz quyida Xorazm turkiy tarixnavisligiga oid manbalardagi davlat boshqaruvchisi tushunchasi bilan bog'liq bo'lgan ayrim atamalarning semantik tahlillarini, ular



qatnashgan izofiy birikmalar, ushbu atamalar asosida yasalgan yasama soʻzlarni tahlil qilamiz.

**MUHOKAMA. Xusrav** – shoh, tojkor, podshoh soʻzlariga sinonim tarzida eski oʻzbek adabiy tilida keng qoʻllangan. Xususan, badiiy adabiyotda *xusrav* podshoh soʻziga sinonim tarzda hamda Eron podshohi *Xusrav Parviz kabi hukmdor, badavlat shoh* maʼnosida qoʻllangan. Eski oʻzbek adabiy tiliga fors tili orqali kirib kelgan oʻzlashma davlatchilik termini hisoblanadi. Navoiy asarlarida va Navoiydan keyingi davr turkiy adabiyotda Navoiy taʼsirida *mutakabbir, mol-dunyoga berilgan, xudbin, ishq-muhabbatda soxta* maʼnosini ifodalagan holda ham qoʻllangan. Xorazm turkiy tarixnavisligiga oid manbalarda *xusrav* soʻzi, asosan, *shoh, badavlat shoh* maʼnolarida istifoda etiladi hamda *xusravona, xusravoniy, xusraviy* kabi sodda yasama soʻzlarning, *xusravi zarrinkuloh* – tillodan kuloh kiygan podshoh, *xusravi anjumsipoh* – yulduzlarday hisobsiz lashkarga ega podshoh, *xusravi magʻfur* – gunohlari kechirilgan, marhum podshoh, *xusravi gʻoziy* – gʻazot qiluvchi, urushlarda goʻlib boʻlgan podshoh, *xusravi mulkgir* – mulk, mamlakatlarni fath qiluvchi, egallovchi podshoh, *xusravi komkor* – nasibali, iqboli, sarafroz podshoh, *xusravi sulaymonmakon* – makoni, maqomi Sulaymon (a.s.) kabi yuksak boʻlgan podshoh, *xusravi ofoq* – ufqlar podshohi (yetti iqlim podshohi), *xusravi makramatdastgoh* – karam qilishni oʻziga kasb qilib olgan podshoh, *xusravi anjumlivoyi zarrinin* – zarrin yulduzlarni bayrogʻiga qadagan podshoh, *xusravi jahon* – jahon podshohi, *xusravi olam* – olam podshohi kabi oʻnlab izofiy birikmalar hosil boʻlishida ishtirok etgan:

*Shahekim qadridur rafʼatda mehri osmon yongligʻ, Eruru kishvarsitonligʻ ichra Temur Koʻragon yongligʻ.*

*Quyosh davrida koʻb sohibqironni koʻrmish ammo, yoʻq.*

*Biri Sayid Muhammad – xusravi sohibqiron yongligʻ<sup>1</sup>.*

Shuningdek, xusrav asosida hosil qilingan *xusravona* davlatchilik termini ham Xorazm turkiy tarixnavisligiga oid manbalarda juda faol qoʻllangan.

**Sulton.** Eski oʻzbek tiliga arab tili orqali kirib kelgan davlatchilik termini. Arab tili orqali kirib kelgan oʻzlashma soʻz, yaʼni muarrab. Arabiy sinq koʻpligi *salotin*. Demak, ushbu soʻzni arab tili qonun-qoidalariga boʻysundirilgan muarrablar qatorida sanashimiz mumkin. Oliy hukmdor, podshoh, musulmon davlatlarida amir, xon, shohlar unvoni. Koʻchma maʼnoda oʻzgaralar ichida eng oldingisi, sarasi, shohi<sup>2</sup>. Ushbu soʻz hozirgi oʻzbek adabiy tilida asosan arab mamlakatlari boshqaruvchisi maʼnosida qoʻllanmoqda: xususan Ummon sultoni, Maskat sultoni, Bruney sultoni kabi. Eski oʻzbek adabiy tilida juda faol qoʻllangan. Chunki X asrda musulmon mamlakatlari boshqaruvchisi *sulton* deyilgan. Keyinchalik saljuqiylar hukmdorlardan boshlab arab xalifaligidan mustaqil davlatlar hukmdorlari ushbu unvonni olgan. Moʻgʻul imperiyasi inqirozidan soʻng podshohlik qilmagan chingiziylar *sulton* deb yuritilgan<sup>3</sup>. Xususan, Xorazm turkiy tarixnavisligiga oid manbalarda *sulton* quyidagi maʼnolarda istifoda etilgan:

1) Muayyan istilohiy mazmun – oʻzini chingiziylardan hisoblovchi koʻchmanchi xonlar maʼnosida: *“chingziya xonadonining podshohi pafeʼul-makoni shavkatu izzatnishon sulton Temurxon...”<sup>4</sup>.*

2) Xon soʻzining maʼnodoshi sifatida: *“Ul hazratning valodati lozimu-sh-sharofati jaddi buzurgvori sultoni firdavsmakon Muhammad Rahim Bahodirxonning...”<sup>5</sup>*

3) Valiahdga nisbatan ham qoʻllanish holatlari kuzatiladi<sup>6</sup>:

<sup>1</sup> Комёб. Таворих ал-хавонин. 142<sup>a</sup> вар.

<sup>2</sup> Ўзбек тилининг изоҳли луғати. IV том. –Т.: Ўзбекистон миллий энциклопедияси. 2008. –В. 585.

<sup>3</sup> Чориев З. Тарих атамаларининг қисқача луғати. – Тошкент: Шарқ, 1999. – Б. 54.

<sup>4</sup> Мухаммад Ризо Эрниеъбек ўғли Огаҳий. Асарлар. IV жилд. Риёзу-д-давла. Нашрга тайёрловчи А.Ўрозбоев. – Тошкент. Шарқ. 2020. – Б. 48.

<sup>5</sup> Мухаммад Ризо Эрниеъбек ўғли Огаҳий. Асарлар. III жилд. Зубдату-т-таворих. Нашрга тайёрловчи ва изоҳлар муаллифи Н.Жабборов. – Тошкент. Шарқ. 2019. – Б. 38.

<sup>6</sup> Ўразбоев А. Огаҳий тарихий асарлари лексикаси. Филол. фан. док. (DSc) дис. – Тошкент, 2018. –Б. 38.

*Shahzodai Rahmonquli sulton  
Nomi maymuni o'st dar xotam*<sup>7</sup>.

Mazkur davlatchilik termini Xorazm turkiy tarixnavisligiga oid manbalarda *sultoniy*, *sultonlig'* kabi soda yasama so'zlarning yasalishida asos vazifasini o'tagan bo'lsa, *sultoni mabrur* – barcha uchun yaxshi, suyukli bo'lgan sulton, *sultoni shahriro'z* – shaharlarni yorituvchi sulton, *sultoni olam* – olam dunyo sultoni, *sultoni zarrinalam* – zarrin bayroqli sulton, *sultoni sohibqiron* – qiron sohibi bo'lgan sulton, *sultoni mag'fur* – gunohlari kechirilgan, marhum sulton, *sultoni jamjoh* – Jamshid boyligiga ega bo'lgan sulton, *sultoni mag'firatnishon* – gunohlari mag'firat qilingan (marhum) sulton, *bandi sulton* – sulton to'g'oni, bandi, *sultoni karamparvar* – karam qilishni suyuvchi sulton, *sultoni firdavsmakon* – makoni firdavs bo'lgan (marhum) sulton, *sultoni g'ufroonishon* – gunohlari kechirilgan sulton, *sultoni jannatmakon* – makoni jannat bo'lgan (marhum) sulton, *sultoni behishtnishon* – jannatliy bo'lgan sulton, *sultoni sulaymonmakon* – makoni, maqomi Sulaymon (a.s.) kabi yuksak bo'lgan sulton, *sultoni mamoliksiton* – barcha mamlakatlar yurtlar sultoni, *sultoni volotabor* – avlod-u ajdodlari ulug' bo'lgan sulton kabi o'nlab forsiy izofalarning hosil bo'lishida muhim qism sifatida ishtirok qilgan bo'lsa, *sulton us-salotin* – sultonlarning sultoni, *sulton ibn us-sulton* – sultonning farzandi bo'lgan sulton, *sulton ul-orifin* – oriflarning sultoni kabi ko'plab arabiy izofalarning yuzaga kelishiga asos vazifasini o'tagan. Keltirib o'tilgani kabi bir qancha arabiy va forsiy izofiy birikmalar, sodda yasama so'zlar, sulton+fe'l tipidagi ko'plab qo'shma fe'llarning hosil bo'lishida mazkur davlatchilik atamasining faol qo'llanganini e'tiborga olsak, Xorazm turkiy tarixnavisligiga oid manbalarda *sulton* davlat boshlig'i ma'nosidagi arab tili orqali o'zlashgan davlatchilik terminining faol qo'llangani haqida xulosa qilishimiz mumkin. Ushbu termin

Xorazm turkiy tarixnavisligiga oid manbalarning nasriy qismida ham, poetik bezaklarda ham asosan “davlat boshlig'i” ma'nosida yoki “xon” so'zining sinonimi sifatida so'z takrorining oldini olishda, qolaversa, *tavzi*, *tanosub*, *ishtiqoq*, *sa'j* kabi badiiy-tasviriy vositalarini hosil qilishda ushbu davlatchilik terminining o'rni va ahamiyati katta.

**Xadiv (xadev, xidev).** Ushbu davlatchilik termini eski o'zbek adabiy tiliga fors tilidan o'zlashgan va dastlab *yakka*, *yagona*, *sohib*, *ega* kabi ma'nolarni ifodalagan. Keyinchalik ushbu so'z ham podshoh so'ziga sinonim holatda qo'llana boshlangan. Alisher Navoiy asarlarida ham ushbu davlatchilik terminining *xadiv* yoki *xidev* shaklida ayni *davlat boshlig'i*, *podshoh*, *ega*, *xo'jayin* ma'nolarida qo'llanishini kuzatamiz:

*Bu so'zlar degach shohi kishvarxidev,  
Ulus chektilar ko'kka yaksar g'irev*<sup>8</sup>.

Xorazm turkiy tarixnavisligiga oid manbalarda mazkur davlatchilik terminining faol tarzda qo'llanganini kuzatdik: Muhammadjon ibn Mavlonberdi uydachikim, bag'oyat daler va mutahhavar yigit erdi va faqirg'a qarobat va qaynotalig' nisbati bor erdi, hazrat **xadivi** komkorning farmoni qazojarayoni bila ba'zi dilovarlarni otashandozlig'g'a targ'ib-u tahrir qilur erdi<sup>9</sup>.

Ayniqsa, ushbu davlatchilik termini she'riy bezaklarda turli ma'no-mazmun ifodalagan holda, rang-barang funksiyalarni bajargan holda qo'llanishini kuzatishimiz mumkin:

*Shahi purdil-u hukmroni jahon,  
Xadivi falakqadru sohibqiron*<sup>10</sup>.

Ushbu terminning *xidevi jahonbon* – jahon ustidan nazorat qiluvchi podshoh, *xidevi jahongir* – jahonni egallagan podshoh, *xidevi komkor* – nasibali, iqboli, sarafroz podshoh, *xidevi behamol* – tengsiz, barchadan ustun podshoh, *xidevi guhartoj* – gavhar tojli podshoh, *xidevi asr* – asr (zamona)ning tengsiz podshohi, *xidevi zafartoj* –

<sup>7</sup>Муҳаммад Ризо Эрнийезбек ўғли Огаҳий. Асарлар. III жилд. Зубдату-т-таворих. Нашрга тайёрловчи ва изохлар муаллифи Н.Жабборов. – Тошкент. Шарк. 2019. – Б. 61.

<sup>8</sup> Аlisher Navoiy. Мукамал асарлар тўплами. XI том. Т. Фан. 1992. –Б. 546.

<sup>9</sup>Шермухаммад Авазбий мироб ўғли Мунис, Муҳаммад Ризо Эрнийезбек ўғли Огаҳий. Асарлар. II жилд. 1-китоб.

Фирдавсу-л-икбол. Нашрга тайёрловчи И.Бекчонов, Н.Полвонов. – Тошкент. Шарк. 2019. – Б. 300.

<sup>10</sup> Муҳаммад Ризо Эрнийезбек ўғли Огаҳий. Асарлар. IV жилд. Риёзу-д-давля. Нашрга тайёрловчи А.Ўрозбоев. – Тошкент. Шарк. 2020. – Б. 248<sup>b</sup>.

yurishlarda, janglarda zafar quchuvchi (zafartojli) podshoh, *xidevi do'stnavoz* – do'stlari ko'p bo'lgan (ko'p do'st orttiruvchi) podshoh, *xidevi beahmol* – yuksiz podshoh, *xidevi jahon* – jahon podshohi, *xidevi falakjanob* – falakdek yuqori darajali, martabasi ulugʻ, qudratli podshoh, *xidevi xurshidmaknat* – quyoshdek abadiy, kuchli, qudratli podshoh, *xidevi komravo* – maqsadiga yetishgan, barcha narsadan xabardor podshoh, *xidevi mohchehra* – oʻz yuzi, goʻzal yuzli podshoh, *xidevi garduntavon* – har ishga qodir podshoh, *xidevi iskandarnishon* – Iskandar kabi dunyoni egallagan, qudratli podshoh, *xidevi maullomakon* – oliy makonli, baland martabali podshoh, *xidevi magʻfiratkuh* – kechirimli boʻlishni odat qilgan podshoh, *xidevi purtadbir* – har ishning tadbirini biladigan, dono podshoh, *xidevi jamiqtidor* – barcha xislatlarni oʻzida jamlagan, iqtidorli podshoh kabi oʻnlab forsiy izofalarning yuzaga kelishida ayni *xidev* davlatchilik termini asos vazifasini oʻtagan.

**Volii (voli).** Hokim, hokimiyat vakili maʼnosini anglatuvchi ushbu davlatchilik termini eski oʻzbek tiliga arab tilidan oʻzlashgan. Arab tilidagi *وَلِيّ* (valiyya) feʼlining *egalik qilmoq* maʼnosi asosida hosil qilingan ism. Eski oʻzbek tilida *viloyat hukmdori* yoki *podshoh* soʻziga sinonim holda qoʻllangan. Xorazm turkiy tarixnavisligiga oid manbalarda, asosan, quyidagi maʼnolarda istifoda etiladi:

1) maʼlum bir qoʻrgʻon boshqaruvchisi: Va ul manzili saodatshomilda Yoʻloʻtan qoʻrgʻonining **voliyi** maslahatdoni idqoyin va ixloskamin Muhammadaminbek solur xalqining mashohir va maorifi bila istiqbolgʻa chiqib, ostoni falaknison turobboʻsligʻi davlatigʻa istisʻod topib, oʻz hollarigʻa loyiq tuhfa va peshkash oʻtkardilar<sup>11</sup>;

2) maʼlum shahar boshqaruvchisi: ... Saripul **voliyi** Mahmduxon va Shohimardon xoni

Shujoʻiddinxon va Balx hukmroni eshon Oʻrogʻ va Andxu nigahboni Shoh Valixongʻa rikobi humoyun mulozimi jonsiporlaridin surʻatnishon, xizmatlavʻamon Bobo yamutni irsol qildi<sup>12</sup>;

3) maʼlum viloyat boshqaruvchisi: Yakshanba kuni oyning oʻn toʻqquzida Marv **voliyi** amir Nosiriddin Din Nosir toʻradinkim, Shohmurod valiniʻaminning ikkinchi oʻgʻli va Mir Haydarning inisdur, rasul kelib, itoat arizadoshtin arzʻga yetkurdi<sup>13</sup>;

4) maʼlum urugʻ boshqaruvchisi: Chahorshanba kuni Qipchoq hikimi Yaxshiliq biy va Qangli **voliyi** Oʻroziq biyni ogʻo-inilari bila tashorifi inoyatidin sarafroz qilib, rikobi muovadatgʻa muborak qadamin qoʻyub, Gurlan jonibigʻa inoni otifatin maʼtuf etti<sup>14</sup>;

2) yurt, mamlakat boshligʻi, hukmdor, podshoh soʻziga maʼnodosh holda qoʻllangan: Qutlugʻ Murodxon vafotining ifhomi va baʼzi badiʻ voqealar vuquʻi paygʻomigʻa mushʻir muhabbatnoma topshurub, Xoʻqand diyorining **voliyi** voloshoni Xudoyorxongʻa irsol qildi<sup>15</sup>.

Mazkur davlatchilik termini garchi yuqoridagi sanab oʻtilganlar kabi izofiy birikmalar hosil qilishda oʻta faol boʻlmasa-da, ammo Xorazm turkiy tarixnavisligiga oid manbalarda bir necha izofiy birikmalarni aniqlashga muvaffaq boʻldik. Chunonchi, *voliyi maslahatdon* – hududni boshqarishda xonga maslahat beruvchi, kichik hududni boshqaruvchi shaxs, *voliyi viloyat* – viloyat boshqaruvchisi, *voliyi mazkur* – zikr qilingan boshqaruvchi, *voliyi hukmron* – kichik hududda hukmron boʻlgan boshqaruvchi, *voliy, voliyi din* – din himoyachisi boʻlgan hukmdor, *voliyi Buxoro* – Buxoro hukmdori, *voliyi bilistiqlol* – mustaqil boʻlgan boshqaruvchi kabi fosriy izofalar shular jumlasidandir.

**Shahriyor.** Eski oʻzbek adabiy tiliga fors tilidan oʻzlashgan davlatchilik termini. Mumtoz

<sup>11</sup> Мухаммад Ризо Эрнийезбек ўғли Огаҳий. Асарлар. III жилд. Зубдату-т-таворих. Нашрга тайёрловчи ва изоҳлар муаллифи Н.Жабборов. – Тошкент. Шарқ. 2019. – Б. 396<sup>a</sup>.

<sup>12</sup> Мухаммад Ризо Эрнийезбек ўғли Огаҳий. Асарлар. III жилд. Зубдату-т-таворих. Нашрга тайёрловчи ва изоҳлар муаллифи Н.Жабборов. – Тошкент. Шарқ. 2019. – Б. 400<sup>a</sup>.

<sup>13</sup> Shir Muhammad Mirab Munis and Muhammad Riza Agahi. Firdavs al-iqbal: History of Khorezm / Edited by Yuri

Bregel. T.J.Brill. – Leiden–New York–Kobenhavn–Koln, 1988. –P. 351.

<sup>14</sup> Мухаммад Ризо Эрнийезбек ўғли Огаҳий. Асарлар. VII жилд. Шоҳиду-л-икбол. Нашрга тайёрловчи Н.Шодмонов. – Тошкент. Шарқ. 2019. – Б. 37.

<sup>15</sup> Мухаммад Ризо Эрнийезбек ўғли Огаҳий. Асарлар. VI жилд. Гулшани давлат. Нашрга тайёрловчи А.Ўрозбоев. – Тошкент. Шарқ. 2019. – Б. 49.



adabiyot namunalarida asosan podshoh soʻziga sinonim holda qoʻllangan. Xususan, mazkur davlatchilik termini Alisher Navoiy asarlarida asosan, *buyuk podshoh*<sup>16</sup> maʼnosida istifoda etilgan:

Tugatgach soʻzin dedi: “Ey **shahriyor**,  
Ki boʻlsun sanga doimo baxt yor!”<sup>17</sup>

Xorazm turkiy tarixnavisligiga oid manbalarda ham podshoh, ulugʻ xoqon maʼnosida istifoda etilgan: Hazrati **shahriyori** karamshiorning iltifoti shohonasi oning inisi Bobo Udaychining holigʻa shomil boʻlib, biylik mansabi bila aqroni ashbohi orasida sarafrozligʻ topdi<sup>18</sup>.

Ushbu davlatchilik termini ham *shahriyorligʻ* sodda yasama soʻzi yasalishiga asos boʻlgan hamda Xorazm turkiy tarixnavisligiga oid manbalarda ayrim forsiy izofalarning yuzaga kelishida ishtirok qilgan: *shahriyori zuliqtidor* – oʻta iqtidorli podshoh, *shahriyori shijoatshior* – shijoatli boʻlishni shior qilib olgan podshoh, *shahriyori pokizaguhar* – asl zotli, nasli ulugʻ boʻlgan podshoh, *shahriyori oqil* – oqil podshoh, *shahriyori shijoatosor* – oʻta shijoatli podshoh, *shahriyori asann* – yaxshi xulqli, yaxshilik qilishni shior qilib olgan podshoh, *shahriyori murassa* – mukammal, kamchiliksiz podshoh, *shahriyori jannatmakon* – makoni jannatda boʻlgan (marhum) podshoh, *shahriyori falakmiqdor* – falakdek yuksak, buyuk, ulugʻ podshoh, *shahriyori qadriqtidor* – buyuk iqtidor egasi boʻlgan podshoh, *shahriyori falak* – osmon podshohi (Xorazm turkiy tarixnavisligiga oid ayrim manbalarda ayrim hollarda podshoh quyoshga qiyoslanib shunday taʼriflanadi), *shahriyori jamjanob* – Jamshid podshohdek yuqori martabali podshoh, *shahriyori mulk-u davlat* – mulk, mamlakat va davlatning podshohi, *shahriyori iskandarshavkat* –

Iskandarday shavkatli, nomdor podshoh, *shahriyori xovar* – Sharq mamlakatlari podshohi, *shahriyori sohibixtiyor* – ixtiyor egasi boʻlgan podshoh kabi izofiy birikmalar shular jumlasidan.

**Xalifa.** Oʻrinbosar, noib. Eski oʻzbek tili va hozirgi oʻzbek adabiy tilida ushbu davlatchilik terminining quyidagi maʼnolari mavjudligini taʼkidlash joiz: 1) musulmonlar jamoasi va musulmon davlatining diniy, ayni bir paytda dunyoviy boshligʻi; ruhoniylar hukmdori; paygʻambarimiz Muhammad (s.a.v.)ning vorisi, Allohning yerdagi noibi; 2) Buxoro xonligida: shariat aqidalarining bajarilishini tekshirib turuvchi mansabdor shaxs<sup>19</sup>. Xorazm turkiy tarixnavisligiga oid manbalarda ushbu soʻz a) Allohning yerdagi noibi maʼnosida: *Hakimekim, hikmati komilasi bila maloyikayi muqarrabinning xalifayi sohibizzatin ibo-u nafaronligʻ jihatidin*<sup>20</sup>; b) mamlakat, imperiya boshqaruvchisi, hukmdori maʼnosida: ... *ittifoq bila mashvarat qilib, andoq maslahat koʻrdilarkim, bir kishini saforati rasmiy bila yiborib, Xorazm podshohi va Rum xalifasidin madad va koʻmak tilagaylar*<sup>21</sup>; c) shariat hukmlariga qatʼiy rioya qiluvchi hukmdor (xon taʼrifida) maʼnosida: ... *xalifatu-z-zamon, sultoni sohibqiron al-muayad, bi inoyat al-malik al-mannon Abu-l-muzaffar va-l-mansur Muhammad Rahim Bahodirxon*...<sup>22</sup> d) xon tomonidan maxsus topshiriq olgan vakil, elchi maʼnosida: *Va hamul kun qadimiy xizmatkorlardin ixlosnishon Mirzoxon xalifani Hirot viloyatining voliyi voloshoni shoh Komrongʻakim*...<sup>23</sup>; e) yordamchi maʼnosida: *Abdurrahmon eshonkim*,

<sup>16</sup> Алишер Навоий асарлари тилининг изоҳли луғати. Фан. Том III. Т.: 1984. – Б. 517.

<sup>17</sup> Алишер Навоий. Мукамал асарлар тўплами. XI том. Т. Фан. 1992. – Б. 546.

<sup>18</sup> Муҳаммад Ризо Эрнийезбек ўғли Огаҳий. Асарлар. V жилд. Жомеъу-л-воқеоти султоний. Нашрга тайёрловчи И.Исmoilов. – Тошкент. Шарқ. 2019. – Б. 80.

<sup>19</sup> Ўзбек тилининг изоҳли луғати. IV том. –Т.: Ўзбекистон миллий энциклопедияси. 2008. –Б. 379.

<sup>20</sup> Муҳаммад Ризо Эрнийезбек ўғли Огаҳий. Асарлар. IV жилд. Риёзу-д-давла. Нашрга тайёрловчи А.Ўрозбоев. – Тошкент. Шарқ. 2020. – Б. 17.

<sup>21</sup> Муҳаммад Ризо Эрнийезбек ўғли Огаҳий. Асарлар. VII жилд. Шоҳиду-л-икбол. Нашрга тайёрловчи Н.Шодмонов. – Тошкент. Шарқ. 2019. – Б. 38-39.

<sup>22</sup> Шермухаммад Авазбий мироб ўғли Мунис, Муҳаммад Ризо Эрнийезбек ўғли Огаҳий. Асарлар. II жилд. 1-китоб. Фирдавсу-л-икбол. Нашрга тайёрловчи И.Бекчонов, Н.Полвонов. – Тошкент. Шарқ. 2019. – Б. 195.

<sup>23</sup> Муҳаммад Ризо Эрнийезбек ўғли Огаҳий. Асарлар. III жилд. Зубдату-т-таворих. Нашрга тайёрловчи ва изоҳлар муаллифи Н.Жабборов. – Тошкент. Шарқ. 2019. – Б. 66-67.



*hazrati shayxu-l-islomi shahidning xalifa va noyibi manobi erdi*<sup>24</sup> qo'llanishini kuzatdik.

Mazkur davlatchilik termini ham Xorazm turkiy tarixnavisligiga oid manbalarda *xalifalik*, *xilofat*, *dorulxalifa* kabi sodda va qo'shma yasama davlatchilik terminlarining yasalishida hamda bir qancha forsiy izofalar hosil qilinishida asosiy ahamiyat kasb etadi. Xususan, *xalifayi sohibizzat* – izzat sohibi bo'lgan podshoh, xalifa, *xalifayi zamon* – zamon podshohi, xalifasi, *xalifayi mazkur* – zikr qilingan xalifa, *xalifayi barhaq* – haqiqatgo'y va doimo haqiqat tarafdori bo'lgan xalifa, podshoh kabi forsiy izofalar hosil qilinishida; *xalifat ur-rahmon* – rahmli zot bo'lgan Yaratganning xalifasi, *xalifat uz-zamon* – zamon xalifasi, podshohi, *xalifat ud-davron* – davr xalifasi, podshohi kabi arabiy izofalarning yuzaga kelishida mazkur davlatchilik termini asos vazifasini o'tagan.

**XULOSA.** Yuqoridagi tahlillardan xulosa qilish mumkinki, Xorazm turkiy tarixnavisligiga oid manbalarda davlat boshlig'i ma'nosini anglatuvchi ko'plab atamalar uchraydi. Ularning har biri tarixiy asar lug'at qatlamida asosiy ahamiyat kasb etuvchi davlat boshlig'i ma'nosini anglatuvchi terminlardir. Xorazm turkiy tarixnavisligiga oid manbalar tilini tahlil qilish jarayonida shunga amin bo'lish mumkinki, mazkur semantik guruhdagi terminlar ko'plab yasama so'zlarni hosil qilishda, qolaversa, bir qancha forsiy va arabiy izofiy birikmalarni yuzaga keltirishda asos vazifasini o'taydi. Manbalarning nasriy qismida ham, she'riy bezklarda ham davlat boshlig'i tushunchasini ifodalovchi terminlar juda faol qo'llanadi va ko'plab badiiy-tasviriy vositalarning yuzaga chiqishida ham muhim ahamiyat kasb etadi.

#### ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Shir Muhammad Mirab Munis and Muhammad Riza Agahi. *Firdavs al-iqbal: History of Khorezm* / Edited by Yuri Bregel. T.J.Brill. –

Leiden–New York–Kobenhavn–Koln, 1988. –P. 351.

2. Алишер Навоий асарлари тилининг изоҳли луғати. Фан. Том III. Т.: 1984. –Б. 517.

3. Алишер Навоий. Мукамал асарлар тўплами. XI том. Т. Фан. 1992. –Б. 546.

4. Комёб. Таворих ал-хавонин. 142<sup>a</sup> вар.

5. Мухаммад Ризо Эрнийезбек ўғли Огаҳий. Асарлар. III жилд. Зубдату-т-таворих. Нашрга тайёрловчи ва изоҳлар муаллифи Н.Жабборов. – Тошкент. Шарқ. 2019. – Б. 38.

6. Мухаммад Ризо Эрнийезбек ўғли Огаҳий. Асарлар. IV жилд. Риёзу-д-давлат. Нашрга тайёрловчи А.Ўрозбоев. – Тошкент. Шарқ. 2020. – Б.. 48.

7. Мухаммад Ризо Эрнийезбек ўғли Огаҳий. Асарлар. V жилд. Жомеъу-л-воқеоти султоний. Нашрга тайёрловчи И.Исмоилов. – Тошкент. Шарқ. 2019. – Б. 80.

8. Мухаммад Ризо Эрнийезбек ўғли Огаҳий. Асарлар. VI жилд. Гулшани давлат. Нашрга тайёрловчи А.Ўрозбоев. – Тошкент. Шарқ. 2019. – Б. 49.

9. Мухаммад Ризо Эрнийезбек ўғли Огаҳий. Асарлар. VII жилд. Шоҳиду-л-икбол. Нашрга тайёрловчи Н.Шодмонов. – Тошкент. Шарқ. 2019. – Б. 37.

10. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. IV том. –Т.: Ўзбекистон миллий энциклопедияси. 2008. –В. 585.

11. Ўрозбоев А. Огаҳий тарихий асарлари лексикаси. Филол. фан. док. (DSc) дис. – Тошкент, 2018. –Б. 38.

12. Чориев З. Тарих атамаларининг қисқача луғати. – Тошкент: Шарқ, 1999. – Б. 54.

13. Шермухаммад Авазбий мироб ўғли Мунис, Мухаммад Ризо Эрнийезбек ўғли Огаҳий. Асарлар. II жилд. I-китоб. Фирдавсу-л-икбол. Нашрга тайёрловчи И.Бекчонов, Н.Полвонов. – Тошкент. Шарқ. 2019. – Б. 300.

<sup>24</sup>Мухаммад Ризо Эрнийезбек ўғли Огаҳий. Асарлар. IV жилд. Риёзу-д-давлат. Нашрга тайёрловчи А.Ўрозбоев. – Тошкент. Шарқ. 2020. – Б.. 149.

## GEOGRAFIYA SOHASIGA OID ELEKTRON TA'LIMYIY RESURSLARDAN FOYDALANIB O'QITISH STRATEGIYALARINI RIVOJLANTIRISH

Zaripova Aziza Shaxobiddinovna, SamDCHTI tayanch doktoranti

## DEVELOPMENT OF TEACHING STRATEGIES USING ELECTRONIC EDUCATIONAL RESOURCES IN THE FIELD OF GEOGRAPHY

Zaripova Aziza Shakhobiddinovna, PhD student at SamDCHTI

## РАЗРАБОТКА СТРАТЕГИИ ОБУЧЕНИЯ С ИСПОЛЬЗОВАНИЕМ ЭЛЕКТРОННЫХ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ РЕСУРСОВ В ОБЛАСТИ ГЕОГРАФИИ

Зарипова Азиза Шахобиддиновна, докторант  
СамГИИЯ



[https://orcid.org/  
0000-0003-3049-6943](https://orcid.org/0000-0003-3049-6943)  
e-mail:  
[Zaripovaaziza23@gmail.  
com](mailto:Zaripovaaziza23@gmail.com)

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada geografiya sohasiga oid elektron ta'limiy resurslardan foydalanib o'qitish strategiyalarini rivojlantirish yoritilgan. Bundan tashqari, mutaxassislik mantlarida tarjima mashqlarini o'rgatish bo'yicha foydali metodlar haqida bilib olishingiz mumkin.

Kalit so'zlar: o'qitish strategiyalari, sohaviy terminlar, Online orqali o'rgatish, masofaviy ta'lim, platforma, terminologik baza, elektron ta'limiy resurslar.

**Annotation:** This article describes the development of teaching strategies using electronic educational resources in the field of geography. In addition, you can learn about useful methods for teaching translation exercises in specialized fields.

**Key words:** teaching strategies, field terms, online teaching, distance education, platform, terminological base, electronic educational resources.

**Аннотация:** В этой статье описывается разработка стратегий обучения с использованием электронных образовательных ресурсов в области географии. Кроме того, вы можете узнать о полезных методах обучения переводческим упражнениям в профильных областях.

**Ключевые слова:** стратегии обучения, отраслевые термины, онлайн-обучение, дистанционное образование, платформа, терминологическая база, электронные образовательные ресурсы.

**KIRISH.** Hozirgi kundagi muhim ustuvor masalalardan biri bu chet tillarni o'rganish hisoblanadi. Bu borada esa, nafaqat ingliz tili filologlari, balki boshqa soha vakillarining ham tillarni o'rganishi bugungi kunning talablaridan bo'lib qolmoqda. Xususan, geografiya yo'nalishi talabalari uchun ingliz tilini o'rgatish, darslarni

qiziqarli va samarali o'tkazish borasida ham bir qancha ishlar olib borilgan. Quyida ushbu soha vakillariga chet tillarni o'rgatishning bir nechta yo'llarini ko'rib o'tamiz.

**MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI.** Samarali va qiziqarli o'quv jarayonlarini tashkil qilish hozirgi kungacha ham dolzarb masalalardan

biri bo‘lib kelmoqda. Mamlakatimizda xorijiy tilni o‘qitish masalalari G.X.Bakiyeva, L.T.Axmedova, J.J.Jalolov, T.K.Sattarov, M.Djusupov, D.Djumanova, D.U.Xoshimovalar, ingliz tilini o‘qitish metodikasi bo‘yicha F.M.Rashidova, F.Sh.Alimov, M.Gulyamova, F.Ikromxonova, B.G.Kulmatov, I.M.Tuxtasinov, M.A.Nazarova, T.Madrahimov, X.Mamatqulov, K.Riskulovalar ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borishgan.

#### **TADIQIQOT METODOLOGIYASI.**

Mutaxassislik matnlarida tarjmani o‘rgatish bo‘yicha ikki, bir-biridan keskin farq qiladigan metodika mavjud: birinchisida nutq faoliyati turlarini (gapirish, tinglab tushunish, o‘qish, yozuv) o‘rgatish jarayonida bajariladigan tarjima mashqlarni, ikkinchisida esa, tarjmani qo‘shimcha nutq faoliyati turi (chet tildan filololik va pedagogik ixtisoslikda) yoki maxsus nutq faoliyati turi (tarjimon tayyorlovchi o‘quv yurtlarida) maqomida o‘rgatishga oid nazariy va amaliy ma‘lumotlar majmui hisoblansa-da, demak tarjima, mashq, nutq faoliyatining qo‘shimcha turi va mutaxassislik sohasi bo‘lib, uchtasi ham o‘rgatish uch mazmundagi o‘qitish metodikasini tashkil etadi [13].

Tarjima jarayonida lingvistik vositalar, usullar, strategiyalar va texnikalarni tanlash tarjima nazariyasining asosiy masalalaridan biridir. T.A.Kazakova tarjima strategiyalari (usullari) sifatida co‘zma-so‘z, semantik va kommunikativ tarjima usullarini keltirib o‘tadi. Semantik tarjima strategiyasi aslyat matni komponentlarining kontekstual ma‘nosi tarjima tili birliklari bilan maksimal darajada yaqinligiga asoslanadi. Mazkur strategiya, odatda, yuqori ijtimoiy va madaniy mavqega ega matnlar, shu jumladan, muhim tarixiy hujjatlar, mumtoz adabiyot va noyob epos namunalari, shuningdek, huquqiy mazmundagi hujjatlar, texnik qo‘llanmalar va ilmiy nashrlar tarjimasida qo‘llaniladi. Kommunikativ tarjima strategiyasi manba matnini shunday yetkazishni nazarda tutadiki, bunda tarjima matnining o‘quvchiga pragmatik ta‘siri aslyat manbasi bilan adekvat munosabatda bo‘ladi. Badiiy adabiyot va jurnalistik nashr namunalari aksariyati, nazariy va ilmiy-ommabop matnlar tarjimasida qisman mazkur strategiyadan foydalaniladi [3].

**TAHLIL VA NATIJALAR.** Terminlarni tarjima qilishga yordam beruvchi terminologik bazalar mavjud. Terminologik baza – bu turli tillardagi terminlar ro‘yxati va ulardan foydalanish qoidalarini o‘z ichiga olgan ma‘lumotlar bazasi. Lug‘atning aniq tartibi va uni asl va maqsadli tilda boshqarish tufayli terminologik asoslar tarjimaning eng aniq variantini tanlashga va tarjimonning samaradorligini oshirishga yordam beradi

V.A.Juchkevichning “Umumiy toponimika” o‘quv qo‘llanmasi universitetlar va pedagogika institutlarining fakultativ kursi bo‘yicha geografik va filologik mutaxassisliklari uchun yaratilgan. Toponimikaning umumiy tamoyillari va xorijiy mamlakatlarning yirik geografik hududlari bo‘yicha geografik nomlarning tavsifi berilgan. O‘quv qo‘llanma o‘qituvchilar, mahalliy tarixchilar uchun mo‘ljallangan [2].

V.Belenkayaning “Ingliz tilidagi toponimika insholari” qo‘llanmasi ingliz tilining leksik tizimining bir qismi sifatida ingliz geografik nomlarini o‘rganish muammolariga bag‘ishlangan. Kitob uch qismdan iborat bo‘lib, unda Angliya, AQSh va Avstraliya toponimikasi masalalari yoritilgan. Muallif tomonidan izchil olib borilgan sinxron tadqiqot prinsipi o‘quvchiga ingliz tilidagi toponimikaning zamonaviy holati bilan chuqur tanishish imkonini beradi [1].

V.A.Nikonovning “Toponimikaga kirish” nomli kitobida joy nomlari, ularning kelib chiqishi, semantik ma‘nosi, rivojlanishi, hozirgi holati, imlosi va talaffuzini o‘rganadigan toponimika – fan asoslarini taqdim etishga bag‘ishlangan. Ushbu asar toponimik tadqiqotlar bo‘yicha qo‘llanma emas va muallifning so‘zlariga ko‘ra, “netoponimistlar uchun toponimika”dir. Qiziqarli shaklda, yorqin misollardan foydalangan holda, unda toponimika nima uchun kerakligi, dunyodagi barcha geografik obyektlar nomlanganmi, nima uchun ularning ba‘zilari vaqt o‘tishi bilan nomlarini o‘zgartiradimi, toponimikani boshqaradigan naqshlar va boshqalar haqida hikoya qilinadi [7].

N.Sindalovskiyning “O‘zgarishlar Kitobi. Shahar folkloridagi Peterburg toponimikasi taqdiri” kitobida 1703-yildan hozirgi kungacha Neva shahridagi 10 mingdan ortiq toponimlar yig‘ilgan.



Ko'chalar, maydonlar, xiyobonlar va qirg'oqlarning nomlari 1400dan oshiq berilgan [6].

A.V.Superanskayaning "Toponimika nima? Geografik nomlar tarixidan" kitobida joy nomlari – toponimlar tilda bajaradigan funksiyalari va jamiyatdagi o'rni bilan bog'liq holda maxsus o'rganish, buyurtma berish va ehtiyotkorlik bilan himoya qilishni talab qiladigan maxsus so'zlar sifatida har tomonlama tasvirlangan. Asar geografik terminlar tarixidan ma'lumot beradi, yangi yaratilgan terminlarga qo'yiladigan talablarni belgilaydi. Kitobning oxirida qisqacha terminologik lug'at mavjud. Kitob filologiya yo'nalishi universitetlarining ilmiy xodimlari, talabalari, rus tili o'qituvchilari, shuningdek geograflar, tarixchilar va barcha qiziqqan o'quvchilarga qaratilgan [8].

E.M.Murzayevning "Xaritada so'z. Toponimika va geografiya" kitobida maxsus turdagi ma'naviy madaniyat yodgorligi tarixiy-geografik nomlar-shaharlari, ko'chalar va maydonlar, zastavalar va bog'larning nomlari keltirilgan. Ular vaqt va makonda qo'llanma bo'lib xizmat qiladi [5]. E.M.Pospelovning "Dunyoning geografik nomlari. Toponimik lug'at"ida Yerning eng muhim obyektlari: davlatlar, shaharlar, dengizlar, daryolar, tog'lar va boshqalar nomlari keltirilgan [11].

Geografiya sohasiga oid elektron ta'limiy resurslarini tavsiya etamiz. Ingliz tilida geografiya sohasiga oid terminlarni o'rganish uchun quyidagi loyihalardan foydalanish lozim:

[IB DP Geography Key Terms](#) – key terms available by unit, which can be viewed on the screen, downloaded as a PDF or as a file to be uploaded to various flashcard platforms.

[IB DP Geography exam style questions](#) – a bank of exam-style questions searchable by unit, sub-unit, command term and marks available. Feedback is welcomed upon individual exam-style questions.

[IB DP Geography Geographic Skills](#) – is designed to outline the geographic skills needed for students' and educators' success in the DP Geography course.

[podcasts.geographyalltheway.com](#) – an online app that curates 200+ podcasts by IB DP Geography unit and geographyalltheway.com lesson.

[The gatw Pre IB DP Geography course menu](#) – is designed for students who are about to start the IB DP Geography course so that they can feel ready and prepared [10].

Amaliyotda sinovdan o'tilgan metodikalar mavjud. *Birinchi metodika* faktlarni (obyektlar, misollar, hodisalar) tanlashga asoslangan, kiritilgan termini tushunishga imkon beradigan voqealarni o'rganish talab etiladi. *Terminlar bilan ishlashning ikkinchi metodikasi* talabalar ma'no va tovush jihatidan o'xshash tushunchalarning mohiyatini o'rganadilar, ularni geografik faktlar, hodisalar bilan bog'laydilar. *Uchinchi metodika* ba'zi terminlarning o'xshash xususiyatlari bilan ishlashni o'z ichiga oladi. *Terminlar bilan ishlashning to'rtinchi metodikasi* u yoki bu terminning mohiyatini tushunish uchun rasmlar (rasmlar, fotosuratlar, videofilmlar)dan foydalanishni o'z ichiga oladi. *Terminlar bilan ishlashning beshinchi metodikasi* monologik hikoyadan oldin terminlar ta'rifini tarqatishni o'z ichiga oladi [12].

Toponimik adabiyotlarda ko'pincha toponimik apellyatsiya, geografik atama, mahalliy geografik atama, xalq geografik atamasi, dialektik geografik atama, geografik nomen, geografik determinativ va determinant, geografik ko'rsatkich kabi atamalar qo'llaniladi. Tadqiqotchilar ularni ma'nosiga yaqin atamalar sifatida belgilashlari odatiy hol emas. Ushbu maqola ushbu atamalarning ma'nosini tahlil qilish va taqqoslashga harakat qiladi. Toponimika bo'yicha fundamental ishlar va zamonaviy tadqiqotlarni tahlil qilish tushunchalarni farqlash va umumiylikni aniqlash imkonini beradi. Shunday qilib, toponimik apellyatsiya – toponimni tashkil etuvchi va noaniqlik va geografik obyekt bilan o'zaro bog'liqlik yo'qligi bilan tavsiflanadigan so'z; agar geografik atama bilan ifodalangan bo'lsa, nomlangan obyektning jinsini ko'rsatishi mumkin.

Uolles, Surong va Li-Xuan o'qituvchi tomonidan o'qishni o'rgatishda uch xil umumiy muammo borligini ta'kidlaydilar:

a) lug'atga yo'naltirilgan o'qitish. Bunda o'qituvchilar asosan lug'atga e'tibor beradi;

b) o'qituvchilar kamdan-kam hollarda talabalarning ehtiyojlariga e'tibor berishadi. Bunda o'qituvchilar o'zlarining tajribalari yordamida



matnlar va mashqlarning tabiiy tartibiga qat'iy rioya qilishadi;

c) E.Wallace fikri bo'yicha nazariy bilimlarning yetishmasligi ham ba'zida ko'rinadi. Shunday qilib, aksariyat o'qituvchilar ko'pincha faqat stolda o'tirib, butun matnni talabalarga taqdim etib, lug'atdan notanish bo'lgan barcha so'zlarni qidirib topib, o'zingiz uchun saqlab qo'yish tariqasida darsni o'tkazishadi, bu esa talabada zerikishni va fanga bo'lgan qiziqishni yo'qolishiga sabab bo'ladi.

Terminlar bilan ishlashning uchinchi metodikaga misol uchun geografik joy nomlarini olamiz. Geografik joy nomlari juda turli-tuman, ba'zi nomlar g'aroyib, g'alati bo'lib, ularning kelib chiqishi ham juda xilma-xil. Ularni til qoidalari nuqtayi nazaridan, shakllanish bosqichlari, bunyodga kelishi, nimalar bilan bog'langanligiga ko'ra turlarga ajratiladi.

**XULOSA VA TAKLIFLAR.** Yuqoridagi tavsifga asoslanib, shunday xulosaga kelish mumkin: materiallarni to'g'ri tanlash va moslashtirish o'qitish jarayonini samarali amalga oshirish uchun foydalidir. Shunday qilib, o'qish faoliyatini mazmunli qilish uchun o'qituvchi talabalarga o'qish materialini o'zlari tanlashga ruxsat berishi kerak. Atwell ta'kidlaganidek, o'qish materialini mustaqil tanlash o'quvchining ravonligiga, o'qish tezligiga va tushunishiga kuchli ta'sir qiladi. Shuningdek, Winter talabalarining motivatsiyasini oshirish uchun o'qituvchilar turli janrlar va mavzularni qamrab oluvchi matnlarni taqdim etishlari kerak. Bundan tashqari, Nuttall ta'kidlaganidek, har xil turdagi matnlarning xilma-xilligi o'quvchini qiziqtiradigan narsani topishini osonroq qiladi. Qo'shimcha tariqasida, talabalarining o'qish qobiliyatini rivojlantirish va darsdan zavqlanishlari uchun o'qishga turli xil usullar orqali undashlari mumkin.

#### ADABIYOTLAR RO'YXATI:



1. Беленькая В. Очерки англоязычной топонимики. <https://www.livelib.ru/selection/24509-toponimika?ysclid=lulf76gim4393336585>
2. Жучкевич В.А. Общая топонимика. <https://www.livelib.ru/selection/24509-toponimika?ysclid=lulf76gim4393336585>
3. Казакова Т.А. Практические основы перевода. English ↔ Russian. - Серия: Изучаем иностранные языки.- СПб.: «Издательство Союз», 2001. – С.102.
4. Милосердова Е.М. Методика преподавания профессиональной терминологии в условиях дистанционного обучения // Вестник Тамбовского университета. Серия: Гуманитарные науки, 2021. - Т. 26. - № 193. – С. 120-125.
5. Мурзаев Э.М. Слово на карте. Топонимика и география <https://www.livelib.ru/selection/24509-toponimika?ysclid=lulf76gim4393336585>
6. Наум Синдаловский. Книга перемен. Судьбы петербургской топонимики в городском фольклоре. <https://www.livelib.ru/selection/24509-toponimika?ysclid=lulf76gim4393336585>
7. Никонов В.А. Введение в топонимику. <https://www.livelib.ru/selection/24509-toponimika?ysclid=lulf76gim4393336585>
8. Суперанская А.В. Что такое топонимика? Из истории географических названий <https://www.livelib.ru/selection/24509-toponimika?ysclid=lulf76gim4393336585>
9. Успенский Лев. Загадки топонимики. <https://www.livelib.ru/selection/24509-toponimika?ysclid=lulf76gim4393336585>
10. Online IB DP Geography Resources by [Richard Allaway](http://www.richardallaway.com). [www.richardallaway.com](http://www.richardallaway.com)

## ISLOM GNOSEOLOGİYASINI O'RGANISHDA G'AZZOLIYNI BILISH FALSAFASINING O'RNI

*Ulug'murodov Elyor Saydulloyevich, Samarqand davlat chet  
tillar instituti, falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)*

## THE ROLE OF GHAZALI'S PHILOSOPHY OF KNOWLEDGE IN THE STUDY OF ISLAMIC GNOSEOLOGY

*Ulug'murodov Elyor Saydulloyevich, Samarkand State Institute  
of Foreign Languages Doctor of Philosophy (PhD)*

## РОЛЬ ФИЛОСОФИИ ПОЗНАНИЯ ГАЗЗОЛИ В ИЗУЧЕНИИ ИСЛАМСКОЙ ГНОСЕОЛОГИИ

*Улугмуродов Эльёр Сайдуллоевич, Самаркандский  
государственный институт иностранных языков, доктор  
философских наук (PhD)*



[https://orcid.org/  
0009-0008-1663-5939](https://orcid.org/0009-0008-1663-5939)

e-mail:

[eulugmurodov@mail.  
ru](mailto:eulugmurodov@mail.ru)

**Annotatsiya:** G'azzoliy ta'limotining gnoseologik tizimi ratsional va irfoniy jihatlari bilan ajralib turadi. Mutafakkir tomonidan bilish falsafasida bir tomondan inson haqiqatni anglay olishga qodirmi va ushbu haqiqat nimadan iborat, degan savol qo'yilsa, ikkinchi tomondan qaysi bilish yo'li eng to'g'ri yo'ldir, aqlning roli qanday, inson aqldan ham ustun bo'lgan qobiliyatga egami, xudoni qanday bilish mumkin, degan savollar qo'yiladi. Maqolada G'azzoliy bilish falsafasida ratsional va irfoniy jihatlari ijtimoiy-falsafiy tahlil qilinadi.

**Kalit so'zlar:** gnoseologiya, bilish, islom, tasavvuf, tajriba, fan, axloq, shariat, tariqat, haqiqat, sufiy.

**Annotation:** The epistemological system of Ghazali's teaching is distinguished by its rational and mystical aspects. In the philosophical philosophy of knowledge, on the one hand, the question of whether a person is capable of understanding the truth and what this truth consists of is asked, on the other hand, which way of knowing is the most correct way, what is the role of the mind, whether a person has abilities superior to the mind, and how to know God. In the article, rational and mystical aspects of Ghazali's philosophy of knowledge are analyzed socio-philosophically.

**Key words:** epistemology, knowledge, Islam, Sufism, experience, science, morality, Sharia, sect, truth, Sufi.

**Аннотация:** Гносеологическая система учения Газзоли отличается рациональным и мистическим аспектами. В философской философии познания, с одной стороны, задается вопрос о том, способен ли человек познать истину и в чем состоит эта истина, с другой стороны, какой путь познания является наиболее правильным, что такое роль разума, есть ли у человека способности, превосходящие разум, и как познать Бога. В статье социально-философски анализируются рациональный и мистический аспекты философии познания Газзоли.

**Ключевые слова:** эпистемология, знание, ислам, суфизм, опыт, наука, мораль, шариат, секта, истина, суфий.

**KIRISH.** Imom G'azzoliy diniy-ilmiy ijodi, siyosiy-mafkuraviy faoliyati, diniy-falsafiy qarashlari, ta'limoti muhim rol o'ynaydi. Ayniqsa, uning "Bilish nazariyasi"da ilmiy bilish shakl va usullari, o'sha davrda eng ilg'or, qudratli hisoblangan har bir muammo, xulosani obyektiv

ilmiy dalillash, tahlil va tadqiq usul va shakllarini qo'llagan holda, muayyan xulosaga – "Qiyos ilmi" (mantiq)dagi sillogistik – apodeyktik isbot asosida hukm chiqarishga erishish katta ahamiyat kasb etadi.

**ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA.** Abu Homid G‘azzoliy o‘z-o‘zini bilish muammosini o‘rganishdan oldin, islom falsafasiga xos bo‘lgan va mutafakkirning fikrlashiga ta’sir qilgan tipologik ma’noga ega bo‘lgan dioxotomik tamoyilni inobatga olish lozim. Qadimgi Sharq, yunon va shuningdek, o‘rta asr islom falsafasiga xos bo‘lgan voqea-hodisalarni tushunish hamda tafakkur qilish antitezali atama va muxolif iboralarni ajratishni nazarda tutadi. G‘azzoliy asarlarida ham bilish obyektini ikki qismga ajratilishini va tushunchalarning dualistik qarama-qarshi qo‘yilishini kuzatishimiz mumkin.

G‘azzoliyning o‘z-o‘zini bilish nazariyasi hozirgi musulmon modernizatorlik harakatlariga asos bo‘ladi. Misrlik sotsiolog Hasan as-Sa’atyi “Imom G‘azzoliyning pozitivistik metodi” ma’ruzasida G‘azzoliyning pozitivizm asoschisi Ogyust Kontning o‘tmishdoshi [1-B.47] deb aytadi. O.Kont ijtimoiy hayotni qayta qurish, ijtimoiy va siyosiy vaziyatni yaxshilash va fransuz jamiyati hamda butun Yevropani xaosdan qutqarishga harakat qilganidek, G‘azzoliy ham asarlarida ijtimoiy hayotni insonlar xulqini tuzatish va ularni haq yo‘lga da’vat etish yordamida isloh qilishga harakat qiladi. Mutafakkir tasavvufga tayansa-da, aql-idrokka asosiy rol ni ajratadi.

**MUHOKAMA.** G‘azzoliy ashyolarning qadr-qimmatini birlamchi zaruriy ilmlar bilan aniqlanadi. Bu ilm hislardan, yoki tajribadan, yoki aql-idrokning tabiiy mulohazasidan kelib chiqadi, deydi. G‘azzoliy aql-idrokni “g‘arizat al-aql” – aql instinkti deb ataydi. U buni tug‘ma qobiliyat, insonda tug‘ilganidan jo bo‘lgan sifat yoki fikrlash shakli ma’nosida tushunadi. U tajriba bilan g‘arizani bir-biri bilan taqqoslaydi. Birlamchi bilimlar “al-ulum ul-avvaliya” Arastuning aksiomalariga to‘g‘ri keladi. “Az-zaruriya”, ya’ni zarur tushunchasi ham yunonlardan olingan bo‘lib, mutafakkir bu iborani botiniylarga qarshi yozgan “Al-Mustazhiriy” asarida “fikr yuritishni talab etmaydigan, ashyolarning zarurligi deganda barcha aql-idroki borlar uni tushunadi, degan ma’noni bildiradi” [2-B. 25] deb izohlaydi. G‘azzoliy tavsiflanadigan narsaga nisbatan hukm chiqarish uchun “avvaliyot”larga qarashga undaydi. Botiniy bilan bahsga kirishar ekan, shunday misol keltiradi:

“Masalan, agar qorni shishgan xachirni ko‘rgan kishi, uning homilasi bor deydi. Ammo aqlli kishi biladiki, xachir tug‘maydi. U kishi: “Men buni tajribamdan bilaman”, deydi. Sen esa: “Bu xachir ekanligini bilasanmi?” - deb so‘raysan. U: “Ha, buni hissim va ko‘zim bilan bildim”, - deb javob beradi. Shunda sen aytasan: “Endi sen uning homilador emasligini bilasanmi?” U esa, ikki mulohazani (uslayn) bilgach, bunga shak-shubha qila olmaydi, chunki ulardan biri tajribaviy va ikkinchisi hissiydir. Uning homiladorligi to‘g‘risidagi ilm zaruriy ilm bo‘lib, u esa oldingi ikki ilmdan kelib chiqqandir. Sening mezonning to‘g‘riligi haqidagi ilming tajribaviy ilmdan kelib chiqdi, og‘ir tosh (saqil) bosadi va shuningdek, hissiy ilmdan kelib chiqib, hech qaysi palla boshqasiga nisbatan og‘ir kelmaydi” [3-B.26].

Shuningdek, G‘azzoliy bilish falsafasida insonni o‘z-o‘zini bilish darajasiga katta e’tibor qaratgan. G‘azzoliyning ash’ariylardan farqi uning ta’limoti markazida individual inson turadi. Individual xudoni taniy oladigan va o‘zida ilohiy qudratning ibtidosini jo qilgan ilohiy yaratq (maxluq) sifatida murojaat qilish orqali G‘azzoliy o‘zining tasavvufiy qarashlarini ifodalaydi. Inson hayotdagi o‘z vazifasini anglashi, o‘z-o‘zini bilishi so‘fiylar ideali va maqsadi hisoblanadi. Insonning o‘z-o‘zini bilishi inson mohiyatini o‘ziga xos tushunishga ilohiy mazmun ato etadi. Shu ma’noda G‘azzoliy boshqa tasavvuf vakillari singari Ali ibn Abu Tolibning: “I’raf nafsak, ta’rif Rabbak”, ya’ni “O‘zingni bilgin, shunda Parvardigoringni taniysan”, deb aytgan iborasidan kelib chiqib, “Man arafa nafsahu fa-arafa Rabbahu”, ya’ni “Kimki o‘zini (nafsini) bilsa, Parvardigorini taniydi” degan shiorni o‘rtaga tashlaydi.

Bilish yo‘llari borasida mutafakkir insonning turli qobiliyatlari konsepsiyasini ishlab chiqadi. G‘azzoliy bilish falsafasida ularning ikki asosiy qobiliyat – aql va o‘ta kuchli hissiy qobiliyatni ajratib ko‘rsatish mumkin. O‘z-o‘zini bilishda G‘azzoliy qalb ilmini alohida ko‘rsatadi. Ushbu javhar qalb, aql, nafs va ruh deb ham ataladi. “Munjiyot”da mutafakkir uni eshitish, ko‘rish, hid bilish va boshqa hislar bilan qiyoslaydi: “Qalbdan yana shunday nomlanadigan qobiliyat mavjudki, uni “nuri ilohiy” deyдилar. U yana aql, “basirat

botiniya” (ichki nazar), “nur ul-imon” (imon nuri) yoki “yaqin” (haqiqiy ilm) deb atalishi mumkin” [4-B.26].

Demak, o‘z-o‘zini bilishda yuksak qobiliyat bu basirat bo‘lib, u mohiyatni anglashga imkon beradi. Ushbu qobiliyat, shubhasiz, aqldan ustun turadi. Basirat insonning ichki substansiyasi hisoblanadi, uning aksidensiyasi ilm bo‘lib, bu ilm maxsus, o‘ziga xos ilmdir. Bu qobiliyat ilmdan ustun ekanligi tavhid va tavakkul bobida keltiriladi. Inson hodisalarni o‘zida boradigan murakkablik chegarasi vositasida biladi. Ushbu chegaralar uchta olam orqali o‘tadi. Birinchi olam bu aniq va his etiladigan olam bo‘lib, u bilishning hissiy bosqichiga to‘g‘ri keladi. Chunki bular hislar orqali taniladigan moddiy predmetlar hisoblanadi. Ikkinchisi ma’naviy olam hodisalari – kuch, iroda, bilim bo‘lib, aql orqali taniladi. Bilimdan yo‘l sirlar olamiga, sirli mavjudotlarga olib boradi va Xudoni tanish bilan tugallanadi. Bu sirlar olamidagi hodisalarning moddiy ko‘rinishi past olamlardagi hodisalar hisoblanadi.

**NATIJALAR.** G‘azzoliy tasavvufiy tajriba irfoniy bilishning muammosi ekanligi, radikal empiriklar va rasionalistlardan farqli ravishda bu bosqichning asosiy hissiy hamda aqliy bilim ekanligi asoslangan va ular asosida mukoshafa, mushohada, muoyana, basirat darajalariga yetish mumkinligi isbotlangan. G‘azzoliy o‘z-o‘zini bilishda aqlning ahamiyatini ko‘rsatadi. Aql haqida fikr yuritganda, undagi tadbir, ehtiyotkorlik, ilm turlari, bilim uzluksizligi, hikmat, donishmandlik, basirat, mulohazakorlik va foydali narsalarni zararli bo‘lganlaridan ajrata olish qobiliyati kabi insonni hayratga soladigan juda ko‘p xususiyatlar borligi ko‘zga tashlanadi.

Mutafakkir dastlab ratsional xarakterdagi ilmlar bilan shug‘ullanib, keyinchalik imonni aqliy va zohiriy tahlil etish qoniqtirmaganidan so‘ng, Tangrini bilishning shaxsiy yo‘llarini izlay boshlaydi. U tasavvufga ilmsiz amal qilish, shug‘ullanishni nafaqat foydasiz va ma’nisiz narsa, balki ziyonli bir ish deb uqtiradi. Alloma fikriga ko‘ra, tasavvufiy tajribadagi riyozat tana riyozati bilan birga, xususiy ravishda, ruhni asosli dalillarga tayantirib, ilm va hikmat bilan sug‘orishdan iborat bo‘lgan riyozatga aylanadi. G‘azzoliy mulohazalariga ko‘ra, vahdat va ilohiyot dengizida g‘avvoslik qilish uchun o‘qish, o‘rganish va asosli ilm kerak.

**XULOSA.** Xulosa qilib aytish mumkinki, G‘azzoliyning bilish falsafasi islom aqidasi, Qur‘on va sunnat asosida qurilgan. Buni uning “Al-hikmatu fi maxluqoti-Allah”, “Al-kashf vat-tabyin fi g‘urur al-xalq ajma’in”, “Kimyoi saodat” va “Ihyo” asarlarida ko‘rishimiz mumkin. Islom falsafasiga ko‘ra o‘z-o‘zini bilish ilohiy o‘zlikni anglashga olib keladi.

#### **ADABIYOTLAR RO‘YXATI:**

1. Al-Djanabi, Maysem Muxammed. Teologiya i filosofiya al-Gazali. M. : Izd. dom Mardjani, 2010. –S.71.
2. Encyclopedia of Islam. New Ed. Leyden – London, 1978. – 650 s.
3. Jabre Farid. Al-Ghazali. – MIDEO. Vol. 1. 1954. – 180 p.
4. Абу Хамид ал-Газзоли. Воскрешение наук о вере (Ихуа ulum ad-din). Избранные главы / Пер. с араб., исслед. и коммент. В.В.Наумкина. Москва, 1980. –376 с.





## QADIMGI XORAZMDA URBANISTIK JARAYONLARNING O'RGANILISHI MASALALARI

*Baxtiyarov Sirojbek Ilxombek o'g'li, Urganch davlat  
universiteti mustaqil tadqiqotchisi*

## ISSUES OF STUDYING URBAN PROCESSES IN ANCIENT KHOREZM

*Bakhtiyarov Sirojbek Ilkhombek ogli, Independent researcher  
of the Urgench state university*

## ВОПРОСЫ ИЗУЧЕНИЯ УРБАНИСТИЧЕСКИХ ПРОЦЕССОВ В ДРЕВНЕМ ХОРЕЗМЕ

*Бахтияров Сирожбек Илхомбек оглы, независимый  
исследователь Ургенчского государственного университета*

**Annotatsiya:** Maqolada qadimgi Xorazmdagi urbanistik jarayonlarning arxeologik va yozma manbalar asosida o'rganilishi tarixi bayon qilingan. Urbanizatsion jarayonlarni o'rganish bilan bog'liq munozarali masalalar tahlil qilingan. Qadimgi Xorazmdagi ilk shaharlar – Ko'zaliqir, Xumbuztepa, Hazoras p qal'alari to'g'risida ma'lumot berilgan.

**Kalit so'zlar:** qadimgi Xorazm, urbanizatsiya, Ko'zaliqir, Xumbuztepa, Hazoras p, Amudaryo.

**Abstract:** The article describes the history of the study of urban processes in ancient Khorezm based on archaeological and written sources. The problems associated with the study of urbanization processes are analyzed. Information is given about the early cities of ancient Khorezm - Kuzeligir, Khumbuztepa, Khazarasp.

**Key words:** ancient Khorezm, urbanization, Kuzeligir, Khumbuztepa, Khazarasp, Amudarya.

**Аннотация:** В статье описывается история изучения урбанистических процессов в древнем Хорезме на основе археологических и письменных источников. Анализируются проблемы, связанные с изучением процессов урбанизации. Даны сведения о ранних городах древнего Хорезма – Кюзелигур, Хумбузтепа, Хазарасп.

**Ключевые слова:** древний Хорезм, урбанизация, Кюзелигур, Хумбузтепа, Хазарасп, Амударья.


### KIRISH(ВВЕДЕНИЕ / INTRODUCTION).

Keyingi yillarda tarix fani sohasida urbanizatsiya jarayonlarini o'rganishga e'tibor oshib bormoqda. Urbanizatsion jarayonlar insoniyat tarixining rivojlanishini belgilovchi muhim omil sanaladi. Urbanizatsiya – fransuzcha “urbanisation”, lotincha “urbanus” so'zidan olingan bo'lib, shahar, shaharga oid degan ma'nolarni beradi. Ilk shaharlar mil. avv. III-II ming yilliklarda Misrda, Mesopotomiyada, O'rta Osiyoda, Xitoy, Suriya, Hindistonda vujudga kelgan.

O'zbekiston hududida urbanizatsiya bronza davridan Qadimgi Sharq sivilizatsiyasining ta'sirida shakllangan [1]. U O'rta Osiyoning janubi-

g'arbidan boshlanib, shimoli-sharq tomonga siljib, kengayib borgan [2, 156]. Dastlab ilk urbanizatsiya mil.avv. II ming yillikning ikkinchi yarmida Parfiya, Marg'iyona, Baqtriyada kuzatilgan. Tadqiqotlar natijasida qadimgi Xorazmda bu jarayon mil.avv. VI–V asrlarga to'g'ri kelishi aniqlangan.

**ADABIYOTLAR TAHLILI VA  
METODLAR (ЛИТЕРАТУРА И МЕТОД /  
MATERIALS AND METHODS).** Xorazm vohasida qadimgi davrga oid urbanistik jarayonlarni asosan arxeologik va yozma manbalar asosida o'rganishimiz mumkin. Hududning qadimgi davrga oid urbanizatsiya jarayonlarini o'rganish bilan



[https://orcid.org/  
0009-0005-6596-5975](https://orcid.org/0009-0005-6596-5975)

e-mail:  
s\_baxtiyarov96@mail.ru

ishlarni S.P.Tolstov, B.I.Vaynberg, O.A.Vishnevskaya, V.N.Yagodin, S.B.Bolelov, kabi olimlarning arxeologik tadqiqotlari natijalaridan o'rganishimiz mumkin. Keyingi yillarda A.Asqarov, M.Mambetullayev, G'.Xodjaniyozov, S.Baratov, N.A.Egamberdiyeva tadqiqotlaridan so'nggi ma'lumotlar asosida Xorazmdagi urbanizatsiya jarayonlari xususida ma'lumotlarni olishimiz mumkin.

Maqolada ilmiy tadqiqotning umume'tirof etgan bir nechta uslublari, jumladan ma'lumotlarning tahlili, qiyosiy tahlil, sintez, shuningdek tarix yozishning davriy ketma-ketligi, xolisligi, realligi kabi prinsiplaridan foydalanildi.

### **MUHOQAMA VA NATIJALAR (ОБСУЖДЕНИЕ И РЕЗУЛЬТАТЫ /DISCUSSION AND RESULTS).**

Qadimgi Xorazmda urbanizatsiya jarayonining boshlanishi masalasi tarixdagi yana bir eng muammoli masalalardan biri hisoblanadi. Qadimgi Xorazm tarixida mil.avv. VI asrda iqtisodiy jihatdan tub o'zgarishlar kuzatiladi. Bu o'zgarishlar hududdagi tarixiy taraqqiyot bilan bog'liq bo'lmagan holda kechadi. Mil.avv. X-VIII asrlarda qadimgi Xorazm hududida chayla, yarim yerto'lalarda istiqomat qilgan, ibtidoiy qair dehqonchiligi va yaylov chorvachiligi bilan shug'ullangan Amirobod madaniyati aholisi yashab kelgan. Mil. avv.VIII-VII asrlarda Sariqamish havzalarida suv ko'payishi bilan bu yerga ham chayla va yarim yerto'lalarda istiqomat qiluvchi turli etnik guruhlar kelib o'rnamshgan. U fanga Quyisoy madaniyati nomi bilan kirgan [3, 23].

Mil.avv. VI asrda qadimgi Xorazmning rivojlanishida ikki xil yo'nalish kuzatiladi. Birinchi yo'nalish yarim o'troq chorvadorlar madaniyati, ikkinchi yo'nalish yuqori sivilizatsiyaga asos solgan dehqon va hunarmandlar madaniyati hisoblanadi.

Qadimgi Xorazmning mil.avv.VI asr tarixini tahlil qilganda, uni 2 davrga, ya'ni ahamoniylar bosqiniga qadar bo'lgan davr va ahamoniylar hukmronligi davriga ajratish muhim [4]. Qadimgi Xorazmda urbanizatsiya jarayonining boshlanishi masalasi shu bilan bog'liq. Tadqiqotchilar bu borada turli fikrlarni ilgari suradilar.

Arxeologik tadqiqotlar jarayonida hududda aniqlangan ilk shaharlar – Ko'zaliqir va Xumbuztepa yodgorliklari hisoblanadi. Keyingi yillardagi arxeologik tadqiqot ishlari natijalarini va yozma manbalardagi ma'lumotlarning qiyosiy tahliliga ko'ra, Hazorasp qal'asi ham ilk shaharlar qatoriga kiritilmoqda. Lekin yer osti suvlari yuqori bo'lganligi uchun, yodgorlikning eng pastki madaniy qatlamini aniqlash imkoni bo'lmagan.

O.A.Vishnevskaya, V.N.Yagodin, M.Mambetullayev, S.B.Bolelov, S.R.Baratovlar o'z tadqiqotlarida Ko'zaliqir va Xumbuztepa yodgorliklarga mil.avv. VII asrning oxirlari – VI asrning boshlarida asos solingan degan fikrni bildirishadi [5]. S.R.Baratov Saraxs vohasidagi Yozpeta II (mil.avv. 650–500 yillar) va qadimgi Xorazm hududidan topilgan sopol idishlarning bo'yin qismining qizil rang bilan bo'yalganligida va kanallarning qurilishida o'xshashlik borligini ko'rsatadi. S.R.Bolelov Xumbuztepaning sopol buyumlarning ishlanish uslubini tahlil qilib, uning birinchi bosqichini mil.avv. VII asrning oxirlari – VI asrlarga oidligini ko'rsatadi [6, 35].

Qadimgi Xorazm tarixini yozma manbalar va arxeologik tadqiqotlar asosida tahlil qilgan akademik A.Asqarov antik davr mualliflari Skilak, Gerodot, Gekatey va "Avesto" ma'lumotlari tahlili asosida, xorazmliklar Hirot vodiysi hududlarida yashagan. Doro I ning soliq siyosati natijasida, ya'ni mil.avv. 513-yildan keyin hozirgi Xorazm hududiga ko'chib kelganlar, degan g'oyani ilgari suradi [7,6 – 84]. Qadimgi Xorazmda ilk shaharlar qurilishini ham shu bilan bog'lab, ko'chib kelgan xalq dastlab qirga, ya'ni Ko'zaliqir yodgorligiga kelib o'rnamshganlar, degan fikrni beradi.

Qadimgi Xorazmning urbanizatsiya jarayonini tahlil qilganda yozma manbalar va mahalliy xalq orasida saqlanib qolgan afsonalar tahlili ham muhim hisoblanadi. Ularda Amudaryoning quyi oqimiga ko'chib kelgan xalq to'g'risida ma'lumotlar saqlanib qolgan. Yunon yozma manbalarida xorasmiylar Parfiyadan sharqda yashagan deb yozib qoldirilgan. Gerodotning Akes daryosi haqidagi ma'lumoti ham ilgari Xorazmliklar hozirgi yashayotgan hududlaridan janubda yashaganligini ko'rsatadi. Bu ma'lumotlarning tahlili jarayonida ham

tadqiqotchilar orasida ikki xil yoʻnalish shakllangan. Birinchi guruh olimlar xorasmiylarning dastlab janubda yashab, keyinchalik quyi Amudaryo boʻylariga koʻchganlar, deb hisoblasa, ikkinchi guruh olimlar ularning azaldan quyi Amudaryo boʻylarida yashaganliklarini eʼtirof etishadi. Bu jarayonda “Katta Xorazm” ilmiy farazi ilgari surilgan. Bugungi kunda olib borilgan tadqiqotlar asosida “Katta Xorazm” ilmiy farazi rad qilinib, Xorazmliklarning dastlab janubda yashab, keyinchalik quyi Amudaryo boʻylariga koʻchib kelganliklari haqida gʻoyalar asoslanmoqda [2, 42].

Qadimgi Xorazm hududida shakllangan ilk shahar Koʻzaliqir yodgorligi Turkmanistonning Toshhovuz viloyati Aktepe etrapida (rayonida) joylashgan. Uning qurilish uslubi janubiy Xorazm hududidan topilgan Xumbuztepa va Hazorasp qalʼalaridan farq qiladi. Koʻzaliqir yodgorligi XX asrning 30-40-yillarida S.P.Tolstov, M.G.Vorobyevalar tomonidan [8], shu asrning 80-yillarida O.A.Vishnevskaya, Yu.A.Rapoport tomonidan tadqiqot ishlari olib borilgan [9].

Koʻzaliqir qalʼasi 25 gektar hududni egallagan. Koʻrinishi uchburchaksimon boʻlgan tepalik ustiga qurilgan. Koʻzaliqir yoʻlaksimon toʻrt qator mudofaa devori bilan oʻralgan. Qalʼa devorining har 36 m masofasida yarim aylanasimon burjlar boʻlgan. Qalʼa ichkarisining katta qismida hech qanday binolar yoki turar joylar bunyod qilinmagan. Tadqiqotchilar fikricha, bu yerda dushman bosqinlari davrida aholining chorvalari saqlangan boʻlishi mumkin. Koʻzaliqir qalʼasining janubiy-gʻarbiy qismida saroy izlari topilgan [10, 26-27]. Saroy 20dan ortiq xonalardan iborat boʻlgan.

Xumbuztepa yodgorligida dastlabki tadqiqot ishlari M.Mambetullayev tomonidan XX asrning 70-yillaridan boshlangan. XX asrning 90-yillari va XXI asrning boshlarida S.R.Bolelov, XXI asrning boshlarida S.R.Baratov, M.S.Abdullayev va B.P.Saʼdullayevlar tomonidan oʻrganilgan. Yodgorlik mil.avv.VII asrning oxiri – mil.avv.VI asrning birinchi yarmida vujudga kelganligi va uning qadimgi Xorazmning kulolchilik markazi boʻlganligi asoslangan. S.B.Bolelov Xumbuztepaning uchta rivojlanish davrini

aniqlagan [11, 5-19]. S.R.Baratov yodgorlikdan zardushtiylik diniga oid ibodatxonani ochgan. Ibodatxona mil.avv. V asrga oidligi aniqlangan.

Hazorasp shahrida XX asrning 50 – 60-yillarida Xorazm arxeologik-etnografik ekspeditsiyasi aʼzolari M.G.Vorobyeva, M.S.Lapirova-Skoblo, Y.E.Neraziklar tomonidan tadqiqot ishlari olib borilgan [12, 157-201]. Tadqiqot jarayonida yodgorlikning eng pastki madaniy qatlami mil.avv. IV asrlarga oid deb koʻrsatilgan. Lekin u yerdan topilgan sopol buyumlarning ishlanishi Koʻzaliqir yodgorligidan topilgan sopol buyumlarga oʻxshashligi qayd etilgan. Tadqiqotchilar bunday oʻxshashlikni anʼanalarning saqlanishi deb izoh beradilar.

Qadimgi Xorazmda mil.avv. VI asrda qurilgan ilk shaharlar tabiiy tepalik ustida qurilgan. Shaharlarning tarhini tepalikning shakli belgilagan. Qalʼalar mustahkam mudofaa tizimiga ega boʻlishgan. Bu davr qalʼalari poydevor ustiga qurilmagan, otish yoʻlaklari ancha pastroqda joylashgan [13,81]. Nayzasimon shinaklar oʻrnatilgan. Minoralarning ustki qismi ochiq boʻlib, devor chizigʻidan boʻrtib turgan tarzda ishlangan. Koʻzaliqir qalʼasida shinaklar 62 metr uzunlikdagi devorga shaxmat tarzda oʻyib ishlangan [14,109]. Shinaklarning bunday qurilishi qalʼa himoyasi paytida jangchilarning ham tik turgan, ham tizza bilan oʻtirgan holatda jang qilish imkonini yaratgan.

**XULOSA (ЗАКЛЮЧЕНИЕ/CONCLUSION).** Mil.avv. VI asrda qadimgi Xorazmda dehqonlar va hunarmandlar tomonidan yaratilgan qalʼalar – Koʻzaliqir, Xumbuztepa, Hazorasp qalʼalari boʻlib, ular hududda urbanistik jarayonni boshlab berganlar va oʻziga xos sivilizatsion taraqqiyot yoʻlidan borganlar. Tadqiqotlar natijasida qadimgi Xorazmda urbanizatsion jarayonning oʻziga xos jihatlaridan biri sifatida shaharlarning sugʻorish tarmogʻi hududlarida shakllanishi hisoblanadi.

**ADABIYOTLAR ROʻYXATI /  
(ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА /  
REFERENCES):**

1. Асқаров А. Ўзбек халқининг келиб чиқиш тарихи. – Тошкент: Оʻzbekiston, 2015 – Б. 275; Боқиев А., Шайдуллаев А., Йўлдошева З. Окс цивилизацияси. – Тошкент: YANGI NASHR, 2015. –Б.15

2. Egamberdieva N.A. Amudaryo havzasi hududlarining qadimgi madaniyati (mil.avv. VIII-mil. IV asrlar). – Тошкент. Innovatsiya-ziyo, 2020.
3. Вайнберг Б.И. Памятники Куюсайской культуры, // Кочевники на границах Хорезма. (Труды ХАЭЭ – XI). – Москва: Наука, 1979.
4. Мамбетуллаев М. О формировании и развитии городской культуры в Хорезме. // Приаралье на перекрестке культур. – Самарканд–Ташкент. 2013. –С. 83; Болелов С.Б. Древний Хорезм на пороге государственности. Социально-экономический аспект. Доклад С.Б.Болелова на конференции в Музее Востока. М., 2014. [www.archaeologyca.su](http://www.archaeologyca.su).
5. Вишневская О.А., Рапопорт Ю.А. Городище Кюзелигыр. К вопросу о раннем этапе истории Хорезма.// ВДИ.1997. №2. –С.153; Ягодин В.Н. Генезис и формирование раннехорезмийской государственности. /История государственности Узбекистана. Т.1.-Т., 2009. 111-бет; Мамбетуллаев М. О формировании и развитии городской культуры в Хорезме. –С. 83; Баратов С.Р. Некоторые проблемы археологических исследований древних культур Хорезма. // Ўзбекистон тарихи. №-4. 2007. – С. 29-30.
6. Болелов С.Б. К вопросу о формировании ранний земледельческой культуры в низовьях Амударьи. // Scripta antiqua. Вопросы древней истории, филологии, искусства и материальной культуры. Альманах. Том 5. – Москва: Собрание, 2016.
7. Асқаров А. Қадимги Хоразм тарихига доир. // Ўзбекистон этнологияси: янгича қарашлар ва ёндашувлар. –Тошкент, 2004.
8. Толстов С.П. Древний Хорезм. –М.:МГУ, 1948; Воробьева М.Г. Керамика с городища Кюзели-гыр. // ТХАЭЭ, т. II, –М., 1958.
9. Вишневская О.А., Рапопорт Ю.А. Городища Кюзели-гыр. К вопросу о раннем этапе истории Хорезма //Вестник древней истории, 1997, № 2.
10. Рапопорт Ю.А. Хорезм в древности. / Рапопорт Ю.А., Незарик Е.Е., Левина Л.М. В низовьях Окса и Яксарта. Образы древнего Приаралья. –М.: 2000.
11. Болелов С.Б. Ранний этап становления ремесленного производства на территории Хорезма (вторая половина I тыс. до н.э.). / Приаралье на перекрестке культур. – Самарканд – Ташкент: МИЦАИ, 2013.
12. Воробьева М.Г., Лапиров–Скобло М.С., Незарик Е.Е., Археологические работы в Хазораспе в 1958–1960 гг. // МХЭ. – Москва: Наука, 1963. Вып.6.
13. Ходжаниязов Ф. Қадимги Хоразм мудофаа иншоотлари. Т.: 2007.
14. Ходжаниязов Г.Х. Фортификация древнего Хорезма (VI в. до н. э. — IV в. н.э.). Дисс. ...канд. ист. наук. Нукус, 1996.





**OUTDATED WORDS: FEATURES OF  
HISTORICISMS AND ARCHAISMS**

*Sadikova Shakhlo Jalolovna, Teacher of 2 Department of  
integrated English course, Uzbekistan state world languages  
university*

**ESKIRGAN SO‘ZLAR: TARIXIY VA ARXAIAK  
SO‘ZLARNING XUSUSIYATLARI**

*Sadikova Shaxlo Jalolovna, O‘zbekiston davlat jahon tillari  
universiteti, Ingliz tili integrallashgan kursi №2 kafedrasini  
o‘qituvchisi*

**УСТАРЕВШИЕ СЛОВА: ОСОБЕННОСТИ  
ИСТОРИЗМОВ И АРХАИЗМОВ**

*Садыкова Шахло Жалоловна, преподаватель  
кафедры №2 интегрированного курса английского языка  
Узбекского государственного университета мировых языков*



[https://orcid.org/  
0009-0008-9882-4863](https://orcid.org/0009-0008-9882-4863)

*e-mail:*  
**sadikovashakhlo82@gmail.  
com**

**Abstract:** *Obsolete words not used in the dictionary fall into two groups: archaisms and historicisms. There are certain differences between them. The given article gives detailed about historicism and archaism together with their history and their use in modern society.*

**Key words:** *historicism, archaism, terminology, synonym, dictionary, society, monarch, speech.*

**Аннотация:** *Устаревшие слова, не используемые в словаре, делятся на две группы: архаизмы и историзмы. Между ними существуют определенные различия. В данной статье подробно рассказывается об историзмах и архаизмах, их истории и использовании в современном обществе.*

**Ключевые слова:** *историзм, архаизм, терминология, синоним, словарь, общество, монарх, речь.*

**Annotatiya:** *Lug‘atda ishlatilmaydigan eskirgan so‘zlar ikki guruhga bo‘linadi: arxaizm va tarixiy. Ikkalasi o‘rtasida ma‘lum farqlar mavjud. Ushbu maqolada tarixiy so‘zlar va arxaizmlar, ularning tarixi va zamonaviy jamiyatda qo‘llanilishi batafsil bayon etilgan.*

**Kalit so‘zlar:** *tarixiy so‘z, arxaizm, terminologiya, sinonim, lug‘at, jamiyat, monarx, nutq.*

**INTRODUCTION.** Words that are outdated and no longer included in dictionaries can be categorized into two groups: archaisms and historicisms. These two classifications possess distinct characteristics that set them apart from each other. Archaisms mostly represent objects, events, processes, and concepts; they can reflect events and concepts that are currently happening. They are often not related to the language itself, but modern

tools can be a substitution for them. The process of creating archaisms is called the process of archaization.

**DISCUSSIONS AND RESULTS.** Archaisms are divided into several groups according to the degree of age of words and how the majority of people use in the language: linguistic, lexico-semantic, grammatical, morphological, poetic and lexical. It is hard for the average high

school student to understand the terminology and explain of how archaisms are different from historicisms. These word groups are obsolete and belong to passive vocabulary. However, there are still archaisms and historicisms in beauty and film, so it would be helpful to find out what is the distinction between them. Everything bounces off him like a rubber ball from the wall.(G), What are you, brother, nervous (T), critics, following the interests of the public, try, compete with each other, wrote more and more articles. About Shakespeare (L.T.), pencil portraits of Lyuba (Widow) Of.

Historicism is a complex and multifaceted concept that encompasses several academic disciplines, historical periods, and philosophical perspectives. Historicism is basically the belief that history is necessary to understand and interpret human society and culture. It is the view that historical context, social forces and cultural factors shape and influence people's actions, beliefs and ideas. In this 1,000-word study of historicism, we explore its origins, development, key concepts, and importance in modern science.

Historicisms do not have synonyms, since this is the only designation of the disappeared concept and the object or phenomenon behind it. Historicisms are quite diverse thematic groups of words:

1.Names of ancient clothes: zipun, camisole, caftan, etc.

Zipun is a traditional Chinese silk or satin garment usually worn by members of the imperial court. A camisole is a sleeveless shape-shifting undergarment worn by women in the 19<sup>th</sup> and early 20<sup>th</sup> centuries. A kaftan is a long, loose-fitting dress worn by men and women in many Middle Eastern and North African cultures.

2. Names of monetary units: altyn, grosh, polushka, etc;

Altyn was a historical unit of currency used in several Central Asian countries, including Turkmenistan and Uzbekistan. It was usually made of silver and was the same as three rubles in the Russian Empire. Grosh was a small silver coin used in Central and Eastern European countries during the Middle Ages and early times. Polushka, also

known as half-kopek, was a small copper coin used in Russia in the 17<sup>th</sup> and 18<sup>th</sup> centuries.

3.Names of titles: boyar, nobleman, king, etc.

In Eastern Europe, especially Russia and Romania, boyar was a noble title in the Middle Ages and early times. Boyars were the highest members of the nobility, often serving as advisers to rulers and wielding considerable political power. A nobleman was a title given to individuals of high social or hereditary status, usually in feudal societies. Nobles often had privileges and power, owned land, and participated in government. The title of king refers to a male ruler who rules over a kingdom, often inheriting his position to the next royal generation.

4. Names of officials: city governor, clerk, etc;

A city governor was an official who oversaw the management and administration of a city, appointed by higher authorities to monitor and enforce laws and regulations inside the city. A clerk was a professional administrator responsible for records and accounting, usually in state agencies, courts, or businesses.

5. Names of weapons: pishchal, shestoper, etc;

The pishkhal was a type of early Russian firearm similar to the musket or arquebus commonly used in the 16<sup>th</sup> and 17<sup>th</sup> centuries. The Shestoper was a six-barreled hand cannon used in Russia at the same time, known for its fast firing capability.

Archaism is an obsolete word that was substituted by a synonym in modern speech. Archaisms entails words and expressions that have become obsolete and are out of use in modern speech as they have equivalent synonyms, or on the other hand, archaisms include words that do not have synonyms because the concepts expressed by those words have ceased to have any meaning. . modern social life. In English lexicology, archaisms, which are words that later emerge from a language marked as "old", are indicated by the term "obsolete words". Their meanings are understandable, but they are almost never used. Today we hardly hear the following words: here, there. The reason for the appearance of archaisms is

the development of the language and the addition of its dictionary. Archaisms are divided into the following types:

1. Linguistic archaisms: These are obsolete linguistic elements, such as spelling, pronunciation or grammar, which were once commonly used but have fallen out of everyday use over time. Linguistic archaisms can include outdated words, phrases or grammatical structures that prevailed in an earlier period.

2. Lexico-semantic archaisms: These archaisms refer to words or phrases whose meanings have evolved or changed over time, resulting in their obscure or obsolete usage. These archaisms may retain their original definition from an earlier period, making them unrecognizable or limited in the modern context.

3. Grammatical Archaisms: Grammatical archaisms refer to obsolete grammatical structures or rules that were once common but have largely fallen into disuse or meaning in the modern language. These archaisms may include old-fashioned verb conjugations, sentence structures, or syntactic patterns that were common in the past.

4. Morphological Archaisms: Morphological archaisms include obsolete word formations or morphological patterns that have become obsolete in modern language use. These archaisms may include obsolete prefixes, suffixes or word derivatives that were once common but rarely used today;

5. Poetic archaisms: Poetic archaisms are components of language or style that are considered old-fashioned or outdated and are often used in literary works for artistic or poetic effect;

6. Vocabulary Archaisms: Lexical archaisms refer to obsolete or obsolete words that have fallen out of common use and are considered archaic or historical relics in the modern language. These archaisms may include words that were once in common use but have since been replaced by newer expressions or fallen out of favor.

**CONCLUSION.** In general, linguistic archaisms are an interesting aspect of language, showing the development and transformation of languages over time. Be it a linguistic, lexical, grammatical, morphological, poetic or archaic

dictionary, we see how languages change and adapt to the needs of speakers. While some archaisms have been forgotten, others have survived in literary works or have been used for stylistic purposes in modern writing. Linguistic archaisms remind us of the rich history and cultural heritage of languages, which allows us to observe the origin and evolution of words and turns that were once common. Through the study of archaisms, linguists and language enthusiasts can get an idea of the social, political and historical contexts in which the language developed. Through the study and evaluation of linguistic archaisms, we can learn more deeply about the complexity and nuances of language and better understand how language reflects the culture and society in which it is applied. Ultimately, linguistic archaisms are an integral part of the language, providing valuable information about the history, development and diversity of languages. By continuing the study of linguistic archaisms, we can deepen our understanding of language and its role in shaping our world. Historicism is a linguistic term for a word that refers to something that no longer exists in today's world. Historicisms, unlike archaisms, are not obsolete, but they still survive, at least in part, but are used only in statements about the past and are therefore words that are only partially familiar to experts.

#### References:

1. "The Cambridge Encyclopedia of Language" by David Crystal.
2. "A Dictionary of Linguistics and Phonetics" by David Crystal.
3. "The Oxford Handbook of the History of English" edited by Terttu Nevalainen and Elizabeth Closs Traugott.
4. "The Cambridge History of the English Language" edited by Richard M. Hogg
5. "The Oxford Companion to the English Language" edited by Tom McArthur.
6. "The Oxford Dictionary of English Etymology" edited by C. T. Onions.
7. "A History of English" by Barbara Fennell.
8. "Historical Thesaurus of the Oxford English Dictionary" edited by Christian Kay, Jane Roberts, Michael Samuels, and Irené Wotherspoon.

## “УСТА ФОТИХА” МАРОСИМИ ВА УНДА КАЛОНТАРНИНГ ЎРНИ

*Salaev Ikhtiyor Bakhtiyorovich, Yangi asr universiteti  
“Ummumta’lim fanlar” kafedrasasi v.b. doçenti, tarix  
fanlari бўйича фалсафа доктори (PhD)*

## “USTA FATIHA” CEREMONY AND THE ROLE OF KALONTAR IN IT

*Salaev Ikhtiyor Bakhtiyorovich, Assistant Professor  
of “General education” department of “Yangi asr”  
University, PhD in History*

## ЦЕРЕМОНИЯ “УСТА ФАТИХА” И РОЛЬ КАЛОНТАРА В НЕЙ

*Salaev Ikhtiyor Bakhtiyorovich, i.o. doçent kafedry  
“Общеобразовательные предметы” университета  
“Янги аср”, доктор философских наук (PhD)*



[https://orcid.org/  
0009-0007-7215-9781](https://orcid.org/0009-0007-7215-9781)

e-mail:  
salayev\_2019@inbox.ru

**Аннотация:** Ушбу мақолада Хоразм меъморчилик мактабининг ижтимоий аҳамиятга эга бўлган муҳим анъаналардан бири “Уста потия (фотиҳа)” маросимининг ўзига хос жиҳатлари ҳамда маросимнинг ташкилий жараёнларида муҳим аҳамиятга эга шахслардан бири бўлган калонтар ва унинг вазифалари ҳақида маълумот берилди.

**Калит сўзлар:** устоз, шогирд, дуо, ҳунар, маросим, вазифа, ҳурмат, муносабат, иш қуроли, йиғилиш, моҳир, даромад.

**Abstract:** In this article, one of the important social customs of the Khorezm school of architecture, “Usta potiya” ceremony, is presented, as well as information about “kalontar”, one of the most important person in the organizational processes of the ceremony, and his duties.

**Keywords:** master, disciple, prayer, craft, ritual, duty, respect, relationship, tool, meeting, master, income.

**Аннотация:** В данной статье представлена одна из важных социально значимых традиций хорезмийской школы архитектуры, специфика ритуала “Уста потия (фотиҳа)”, а также подробности о “калонтаре” и его обязанностях, одной из важных фигур в организационных процессах ритуала.

**Ключевые слова:** учитель, ученик, благословение, ремесло, ритуал, задача, уважение, отношение, рабочее оружие, сборка, умелый, доход.

**КИРИШ.** Қадим-қадимдан ҳар қандай ҳунармандчилик тури, ўргатиш ва ўрганиш “устоз-шогирд” тамойилларига асосланган ҳолда олиб борилган. Махсус мактаблар бўлмаган бу даврда касбининг моҳир усталари ўз ҳунарларини авлоддан авлодга “ўргатиш усули” орқали ўтказиб келишган.

Моҳир усталар ҳеч қачон ўз касб-ҳунарларига даромад манбаи деб қарашмаган. Ўз ҳунарига кучли эътиқод қўйишган ва ёшларга

ҳаётда муносиб ўринларини топиш мақсадида касб-ҳунар сирларини ўргатишган. Шогирд тайёрлаш устанинг энг яхши фазилатларидан бири, шунингдек, энг муҳим ва олий даражали бурчи ҳисобланган. Уста қанчалик буюк бўлмасин, ўзидан кейин ҳунарини ишончли шогирдга қолдирмаса, унинг ишлари охир-оқибат йўқ бўлиб кетишига сабаб бўлган. Шогирдсиз устоз мевасиз дарахтга қиёсланган. Шунинг учун, усталар шогирдга ўз ишининг муваффақиятли



давомчиси сифатида қараганлар. Бутун куч-гайратини, билимини, тажрибасини, маҳоратини шогирдининг ҳар томонлама етук қилиб камолга етказиш учун сарф қилишган.

**АДАБИЁТЛАР ТАҲЛИЛИ ВА МЕТОД.** “Уста фотиҳа” маросими билан боғлиқ маълумотларни ўрганиш жараёнида бир қанча адабиётлар ўрганилди ва таҳлил қилинди. Жумладан, Р.Қиличевнинг “Бухоро шаҳрида хунармандчилик”[1] ва “XIX асрнинг иккинчи ярми - XX аср бошларида Бухоро шаҳрида хунармандчилик” асарларида[2] ушбу маросимнинг ўтказилиш тартиби Бухоро вилояти мисолида ўрганилган. Бу маълумотлар маросим тартибларини Хива билан таққослаган ҳолда ўрганишда муҳим манбалардан бири ҳисобланади.

Хоразм тарихининг билимдони, этнограф олим И.Жабборовнинг Хоразм археологик-этнографик экспедицияси материаллари чоп қилинадиган тўпламнинг 1959 йил 4-сонида эълон қилинган “Хоразмда кулолчилик тарихига оид янги материаллар” мавзусидаги [5,11,16] ва “Ўрта Осиё этнографик тўплами”нинг 1971 йилда нашр этилган 3-тўпламидаги “XIX аср охири – XX аср бошларида Жанубий Хоразм ўзбекларининг хунармандчилиги” мавзусидаги мақолаларида [12,17] калонтарнинг сайланиш тартиби ва унинг маросимдаги иштироки тўғрисида маълумотлар берилди.

С.Булатовнинг “Устоз-шогирд педагогикаси” асарида [13], С.Р.Тураевнинг “XVIII асрнинг иккинчи ярми - XIX асрнинг 70 йилларида Хива хонлиги хунармандчилиги тарихи” мавзусида тарих фанлари номзоди даражасини олиш учун ёзилган диссертацияси[15] ҳамда М.Йўлдошевнинг “Хива хонлигида феодал ер эгаллиги ва давлат тузилиши” асарида[8] калонтарнинг маросимдаги вазифалари ва унга тўланадиган маошнинг миқдори ҳақида маълумотлар берилган.

Шунингдек, “XIX ва XX аср бошларига оид Хива қозилик ҳужжатлари” каталогида [4,7], М.Йўлдошев таҳрири остидаги “XIX аср Хива давлат ҳужжатлари”нинг 2-тўпламида [9,10], “Марказий Осиёдаги замонавий қишлоқ” тўпламининг 1926 йилда чоп этилган 2-тўпламида[6] ва В.Екимованинг Хоразм археологик-этнографик экспедицияси материаллари чоп қилинадиган тўпламнинг 1959 йил 4-со-нида эълон қилинган “Хива туманида кулолчилик” мавзусидаги мақолаларида[3] мавзуга оид қимматли маълумотлар келтирилади.

**МЕТОД.** Ушбу мавзунини ёритиш давомида илмий тадқиқотнинг умумэтироф этган бир нечта услублари, жумладан, маълумотларнинг таҳлили қиёсий таҳлил, синтез, шахсий кузатув, шунингдек эмпирик билим эгалари, респондентлар маълумотларини ҳамда дала материалларини тасниф, тадқиқ ва талқин қилиш усулларидан фойдаланилди.

**МУҲОКАМА.** Шогирд хунар сирларини мукамал ўрганиб, ўзи мустақил равишда ишлай оладиган даражага етганида, устоз томонидан шогирдга фотиҳа берилган. Маълум бир касб-хунар тармоғига янги аъзонинг кириши билан боғлиқ бўлган ушбу маросим Хоразмда *Уста потия, Уста рози, Етти пир* каби номлар билан юритилган бўлса, Қашқадарё воҳасида *Камарбандон*, Бухорода *Миёнбанди* ёки *камарбанди (бел боғлаш)*[1.34], Самарқандда *Қўлберши* ёки *қўл олиш* деб номланган.

Уста потия маросимини ташкилий жараёнларида *калонтар\** ва *пейкол\**нинг ўрни алоҳида аҳамиятга эга бўлган. Шу сабабли, бу шахслар ва уларнинг вазифалари ҳақида қисқача маълумот бериб ўтмоқчимиз. Ўрганилаётган даврда хонликда ҳар бир касб-хунар тури бўйича хунармандчилик уюшмалари мавжуд бўлиб, улар *касаба* деб номланган. Уюшма бошлиғи калонтар ва унинг ёрдамчиси пейколдан иборат бўлган. Касаба аъзолари *улпагар\** дейилган. Бухоро

\* *Калонтар* – уста боши. Калонтар – форсча сўз бўлиб, *энг катта, энг буюк* деб таржима қилинган.

\* *Пейкол* – хабарчи. Хоразмда туй, аза ва шунга ўхшаш маросимлар ҳақида эркакларга хабар берувчи киши.

\* *Улпагар* – ўхшаш ҳамда бир хил касбга мансуб бўлган уста-хунармандлар. Улпагар сўзи арабча *улфат* – дўстлик, ҳамдардлик, яқинлик ва форсча *-гар* қўшимчасидан келиб чиққан. Умуман олганда, уни *касбадаги шериклик* деб таржима қилиш мумкин.

амирлигида калонтар вазифасини бажарувчи шахс *бобо*, унинг ёрдамчиси эса *оқсоқол* деб юритилган. Бобо яхши обрўга эга бўлган юқори малакали усталар орасидан танланган ва уюшма аъзолари йиғинида сайланган. Шаҳар қози калони томонидан тасдиқланган. Бухоро аҳолиси бобони *пирзода* ёки *рисолачи* деб ҳам аташган [2.124].

Калонтар ҳунармандчиликнинг ҳар бир соҳасида энг катта нуфузга эга шахс бўлиб, ҳунармандлар манфаатларини ҳимоя қилган ва уларнинг ишларини назорат қилган. Шунингдек, ҳунармандлар учун зарур бўлган хом ашёларни сотиб олиш ва тайёр маҳсулотни сотиш билан боғлиқ барча масалаларни тартибга солган. Айрим манбаларда келтирилишича, калонтарга бир қатор маъмурий вазифалар ҳам юклатилган бўлиб, ўз ҳудудида тўловлар тўланишини назорат қилган. Бу калонтарнинг ҳунармандлар билан вилоят маъмурий органлари ўртасида воситачи бўлганлигини англатади [3.349]. Калонтар ҳунармандлар уюшмасига тегишли жамоатнинг аъзоларидан бири белгиланган қонун-қоидаларга хилоф иш юритадиган бўлса, унга нисбатан жазо тайинлаши мумкин бўлган. Бундай ҳоллардан бири ҳақида чиқарилган расмий хулоса қози-ул-қуззот қози Муҳаммад Сафо ибн Аваз Муҳаммад (1280-1863-1864) томонидан тасдиқланган [4.200].

Калонтар уюшма йиғилишларида сайланган. Ушбу йиғилиш маросим характерига эга бўлиб, эски усталардан бири калонтарликка номзод кўрсатади. Агар кўрсатилган номзод мажлис аъзоларини қониқтирса, кекса усталар таклиф қилган номзод калонтар қилиб сайланган. Баъзи ҳолларда хон ҳукумати калонтар сайловларига бевосита аралашган [5.380]. Мамлакат ҳаётида муҳим ўрин тутган ҳунарлар, хусусан қурувчилик ҳунарида калонтар маҳаллий ҳукмдор (ҳоким) томонидан тайинланган ва хон томонидан тасдиқланган [6.83]. Калонтарлик отадан болага мерос тариқасида ўтган ҳолатлар ҳам мавжуд. Хива хонларининг 1892 йилга оид архив ҳужжатларидаги маълумотлар ҳам буни тасдиқлайди [7.240].

Хива хонлиги архивининг 60, 61, 62, 63, 64, 65 ва 89-дафтарларида хонлик амалдорлари-

нинг номлари, уларнинг мансаблари ва оладиган маошлари кўрсатилган жуда қимматли маълумотлар бор. 1848 йилдан 1858 йилгача бўлган ёзма ҳужжатлар жамланган ушбу дафтарларда ҳар йили маълум миқдорда хонлик ғазнасида пул тўланадиган унвон ва мансаблар қаторида *калонтар* ва *лойкаш* (*ғишт терувчи*) номлари ҳам қайд этилган. Маошлар мансаб ва вазифаларига қараб белгиланарди. Юқори мансабларга хоннинг ўзи маош белгилар, куйи мансабларга эса кушбеги, меҳтар ва девонбегилар белгиларди [8.233-234]. Шунингдек, Хива хонлиги давлат ҳужжатлари архивида давлат ғазнасида маош белгиланган Раҳматулло калонтар ҳақида қуйидаги маълумотлар келтириб ўтилади:

“Йўнуғчи\* усто Раҳматулло калонтарга беш тилло берилди” [9.151].

“Сувчининг калонтари Раҳматуллога ўн тилло берилди” [10.285].

Уста потия маросимида калонтарнинг иштироки мажбурий деб ҳисобланган. Шогирд илтимосини ўз устозига бошқа уста ёки калонтар орқали етказган. Калонтар устоздан шогирднинг барча хислатлари (итоаткорлиги, меҳнатсеварлиги, ҳунарни мукамал эгаллаганлиги ва ҳаказолар)ни сўраб олади. Устоз фотиҳа бериш учун рози бўлса, шогирдга хабар берилган ва катта усталарнинг вақтини инобатга олган ҳолда маросим ўтказиладиган кун бир ҳафта олдин белгиланган. Одатда, маросим ҳунармандларнинг йиғилишлари бўлиб, жума кунлари ўтказилган. Таклиф этилган барча усталар жума намозидан кейин, масжиддан чиқиб, *уста* мақомини олувчи шогирднинг уйига боришган [11.382]. Хонқалик пойафзал тикувчилар ушбу маросим олдида асл имтиҳондан ўтишган. Шогирд ўзи мустақил равишда оёқ кийим ясаб, бозорга олиб чиқади. Маҳсулотларнинг сифат даражаси калонтар томонидан кўздан кечирилади. Агар оёқ кийимлар сифатсиз бўлса, жойида йиртиб ташланган ва бўлажак уста (шогирд) бозордан ҳайдаб юборилган. Маҳсулотининг сифати калонтар томонидан маъқулланган шогирдларгина ўз устозидан фотиҳа олиш ҳуқуқига эга бўлишган [12.131]. Бундай урф-

\* *Йўнуғчи* – дурадгор.

одатларнинг ҳар хил турлари бўлган. Баъзан шогирдга бирор бир уйни мустақил безаш топширилади. Уй битганидан кейин бошқа усталар шогирднинг ишини текширадилар ва баҳо берадилар. Агар иш устага маъқул келса, шогирдга *уста* деган унвон берилган [13.54].

Кулолчиликда шогирдга уста мақомини бериш маросими ўзига хос тарзда уюштирилган. Маросим ўтказиш учун уста шогирдига ўз маблағларидан битта хумдон тўла идишларни мустақил пиширишга рухсат берган. Ундан келган даромад шогирдини хисобланиб, маросимга сарфланган [14.132].

Калонтар ўз вазифаларини бажариш ва асосан тантанали йиғилишлар масаласида ёрдамчиси, *пейкол* хизматларидан фойдаланган. Пейкол ҳам ёш усталар орасидан сайланган. У калонтарнинг топшириғи билан маросимга катта усталарни таклиф қилган. Қишлоқларда хунармандлик уюшмалари бўлмаган. Шу сабабли, бу ерда *фотиҳа олиш* маросими бошқачароқ тартибда ўтказилган. Маросимга албатта етти хил касб-хунарнинг машхур усталаридан биттадан вакил чақирилган. Воҳа аҳолиси орасида бу маросим *етти тир маросими* деб ҳам юритилиши бежизга эмас. Етти хунар усталари турли касбларда турли хил бўлган. Масалан, элакчилар маросимида темирчи, этикчи, сартарош, ғассол, пичоқчи, тикувчи каби хунарларнинг бир вакили иштирок этган [15.126].

Калонтар уста ва шогирд ўртасида боғловчи вазифасини ҳам бажарган. Ҳайр-эхсон сифатида кўчқор сўйилган ва маросим учун таомлар тайёрланган. Мехмондорчиликдан кейин, калонтар томонидан фотиҳа бериш маросими бошланади. Калонтар янги сарполар кийган шогирдни даврага олиб чиқади. Шогирд хонанинг ўртасида икки кўлини кўксига қўйиб туради. Калонтар устага ва шогирд мурожаат қилиб, ўзаро розилигини сўрайди.

Шундай кейин калонтар ва усталар шогирдни дин ва шариат, инсонлар ўртасидаги ҳақ-хуқуқ ва муносабатлар, устоз-шогирд

ўртасидаги ҳурмат, бир-биридаги ҳақлари, касбга садоқат, ҳалоллик ва бошқа бир қатор мавзуларда савол-жавоб қилинади.

Савол-жавобларда шогирд умуман хато қилмаслиги лозим. Агар бу жараёнда шогирд адашса ёки саволларга жавоб бера олмаса, шогирдга тайёргарлик кўриш учун яна вақт берилган. Усталар ўз шогирдининг фақатгина ўрганган хунари соҳасида эмас, барча жабҳаларда ҳар томонлама мукамал бўлишига қаттиқ эътибор қаратганлар.

Савол-жавоблардан ўтган шогирднинг белига хунар ўргатган устаси томонидан белбоғ боғланган. Устоз шогирдига совға сифатида ўз хунари доирасида ишлатиладиган асосий иш қуролларидан бирини берган. Ушбу иш қуроли шогирднинг белбоғига жойлаштирилган. Ушбу иримнинг замирида устанинг “шогирдим шу иш қуроли билан келажакда рўзгорини тебратсин, фаровон яшасин!” деган яхши нияти ҳам мужассам бўлган. Шогирд ҳам ушбу иш қуролларини “устозим томонидан берилган табаррук иш қуроли” деб ўз фаолиятида ишлатган.

Масалан, қурувчи усталар томонидан шогирдга *теша*, *йилмала*, *ражжса*, *чўкич*, *капча*\* каби иш қуроллари берилган. Шогирдлар устоз томонидан берилган иш қуролини жуда асраб-авайлашган. Хоразм кулоллари уста потия маросимида шогирдларига иш қуроллари беришмаган. Кулолчилик буюмлари ишлаб чиқаришнинг маркази бўлган Хонқа туманининг Мадир қишлоғида уста шогирдига ўз устахонасини очиши учун *хумбуз* қуришга ёрдам берган [16.383].

Маросим якунида шогирд усталикка муносиб деб топилса, калонтар ва асосий (хунар ўргатган) уста томонидан фотиҳа берилган. Сўнгги фотиҳадан кейин шогирд сарпо сифатида ўз устасига чопон, калонтарга кўйлак беради. Агар шогирд ўзига тўқ бадавлат оиладан бўлган бўлса, у бошқа усталарга ҳам сарпо ва совғасаломлар қилган [17.132]. Шундан кейин

\* *Теша* – гишт синдириш учун ишлатиладиган асбоб; *йилмала* – андава, лой сувашда ишлатиладиган асбоб; *ражжса* – деворнинг тўғри чиқиши учун усталарнинг ипдан

бўлган, ўлчайдиган асбоби; *чўкич* – миҳ ёки бирор бир учли нарсаларни қоқиш учун ишлатиладиган асбоб; *капча* – юқорига лой отиш учун ясалган махсус белкурак.

шогирднинг отаси дуои-фотиҳа қилиб, барча усталарга миннатдорчилик билдирган.

**НАТИЖАЛАР.** Ўрганилаётган маросим ўзбек халқида асрлар давомида шаклланиб, авлоддан авлодга ўтиб улуғланган ва ҳатто қадрият даражасига кўтарилган маросимлардан бири бўлган. Чунки устознинг жамиятда ёки соҳа вакиллари орасидаги даражасига унинг етиштирган шогирдлари орқали баҳо берилган. Маросимда ўз касбининг моҳир уста (пир)ларидан фотиҳа олган шогирд ўзининг келгусидаги ҳаёти фаровон бўлишига ишонган. Шунингдек, устозлар шогирднинг ҳаёти ва фаолиятида муҳим аҳамиятга эга шахслардан бўлиб, инсонларни фақат яхшилик ва эзгулик томон етаклаган. Чунки, усталар ўз шогирдларига фақатгина касб-хунар сирларини ўргатмасдан, уларнинг маънавий оламини ҳам тарбиялаганлар. Бу эса уста ва шогирд муносабатларида таълим ва тарбия ҳамоҳанг тарзда олиб борилганлигининг исботидир.

Бугунги кунда ушбу маросим халқ хунарамандчилигидаги деградацион жараёнлар натижасида, секин-асталик билан йўқолиб бормоқда. Хиванинг машҳур ёғочсоз хунарамандлари ҳозирги кунда қадар ҳам қатъий амал қилаётган ушбу маросим, бошқа хунарамандчилик соҳаларида сезиларли ўзгаришларга учраган.

**ХУЛОСА.** Хоразм хунарамандчилиги ва у билан боғлиқ жараёнларни тарихий ва этнографик материалларга таянган ҳолда таҳлил қилар эканмиз, қуйидаги хулосага келинди. “Уста потия (фотиҳа)” маросими азалдан маданий ва маънавий мерос сифатида авлоддан авлодга ўтиб улуғланиб келган. Ўзбек халқининг этник жиҳатлари, миллий руҳияти, маънавияти ва тафаккурининг соддалиги ва феъл-атвори шаклларини ўзида акс эттирувчи ушбу маросимни миллий қадрият сифатида янада чуқур ўрганиш лозим. Бинобарин, ушбу тарихий қадриятлар бугунги шароитда аста унутилиб бормоқда.

#### **АДАБИЁТЛАР РЎЙХАТИ:**

1. Қиличев Р. Бухоро шахрида хунарамандчилик. – Тошкент, 1996.

2. Қиличев Р. XIX асрнинг иккинчи ярми XX аср бошларида Бухоро шахрида хунарамандчилик. – Тошкент, 1997.

3. Екимова В. Гончарное производство в Хивинском районе (По материалам поездки в Узбекистан в 1930 г.) ТХАЭЭ Вып. IV. – Москва, 1959.

4. Каталог Хивинских казийских документов XIX начала XX вв. – Тошкент-Киото. 2001.

5. Джаббаров И. Новые материалы к истории гончарного ремесла Хорезма. ТХАЭЭ. Вып IV. – Москва, 1959.

6. Современный кишлак Средней Азии. Вып II. – Ташкент, 1926.

7. Каталог Хивинских казийских документов XIX начала XX вв. – Тошкент-Киото, 2001.

8. Йўлдошев М. Хива хонлигида феодал ер эгаллиги ва давлат тузилиши. – Тошкент: Ўзбекистон ССР Давлат нашриёти, 1959.

9. XIX аср Хива давлат ҳужжатлари. II том. (М.Йўлдошев таҳрири остида). – Тошкент, 1960. 8-дафтар, 38 а.

10. XIX аср Хива давлат ҳужжатлари. II том. (М.Йўлдошев таҳрири остида). – Тошкент. 1960. 7-дафтар, 13 б.

11. Джаббаров И. Новые материалы к истории гончарного ремесла Хорезма. ТХАЭЭ. Вып IV. – Москва. 1959.

12. Джаббаров И. Ремесло узбеков Южного Хорезма в конце XIX - начале XX в. (Историко-этнографический очерк). // Занятия и быт народов Средней Азии. Среднеазиатский этнографический сборник III. – Ленинград. Наука, 1971.

13. Булатов С. Устоз-шогирд педагогикаси. – Тошкент. Фан ва технологиялар, 2020.

14. Қиличев Р. XIX асрнинг иккинчи ярми XX аср бошида Бухоро шахрида хунарамандчилик. Тарих фанлари номзоди илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация. – Бухоро, 1997.

15. Тураева С.Р. XVIII асрнинг иккинчи ярми XIX асрнинг 70 йилларида Хива хонлиги хунарамандчилиги тарихи. Тарих фанлари номзоди даражасини олиш учун ёзилган диссертация. – Тошкент, 2010.

16. Джаббаров И. Новые материалы к истории гончарного ремесла Хорезма. ТХАЭЭ. Вып IV. – Москва, 1959.

17. Джаббаров И. Ремесло узбеков Южного Хорезма в конце XIX - начале XX в. (Историко-этнографический очерк). // Занятия и быт народов Средней Азии. Среднеазиатский этнографический сборник III. – Ленинград: Наука, 1971.



## BOLALARNI MAKTAB TA'LIMIGA SIFATLI VA SAMARALI TAYYORLASH

*Kurbanbayeva Muqaddas Kozibayevna,  
Beruniy pedagogika kolleji "Maktabgacha ta'lim" kafedrasida katta  
o'qituvchisi*

## QUALITY AND EFFECTIVE PREPARATION OF CHILDREN FOR SCHOOL EDUCATION

*Kurbanbayeva, Kozibayevna, Muqaddas  
Senior lecturer of the Department of "Preschool education", Beruniy  
Pedagogical College*

## КАЧЕСТВЕННАЯ И ЭФФЕКТИВНАЯ ПОДГОТОВКА ДЕТЕЙ К ШКОЛЬНОМУ ОБУЧЕНИЮ

*Курбанбаева Мукаддас Козибаевна,  
Старший преподаватель кафедры "Дошкольное  
образование" Берунийского педагогического колледжа*

*Annotatsiya: Ushbu maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarni maktabga samarali va tayyorlashga qaratilayotgan e'tibor haqida so'z boradi.*

*Kalit so'zlar: maktabgacha ta'lim, maktab ta'limi, psixologik tayyorgarlik, jismoniy tayyorgarlik, "Ilk va maktabgacha yoshdagi bolalarga qo'yiladigan Davlat talablari", "Ilk qadam" Davlat dasturi, "Ilm yo'li" variant dasturi.*

*Abstract: This article talks about the attention paid to the effective preparation of preschool children for school.*

*Key words: preschool education, school education, psychological preparation, physical preparation, "State requirements for children of primary and preschool age", "Ilk Kadam" State program, "Ilm Yoli" variant program.*

*Аннотация: В данной статье говорится о внимании, уделяемом эффективной подготовке детей дошкольного возраста к школе.*

*Ключевые слова: дошкольное образование, школьное образование, психологическая подготовка, физическая подготовка, «Государственные требования к детям младшего и дошкольного возраста», Государственная программа «Илк кадам», вариантная программа «Илм йули».*

**KIRISH (INTRODUCTION).** Uzluksiz ta'lim insonning aqliy, ijtimoiy, axloqiy, ma'nan boy bo'lib voyaga yetishida zarur shart-sharoitlarni yaratadi. Uzluksiz ta'limning dastlabki bo'g'ini maktabgacha ta'lim va tarbiya bo'lib sanaladi. Mamlakatimizda maktabgacha yoshdagi bolalarning har tomonlama rivojlanishiga so'nggi yillarda katta ahamiyat berilmoqda.

Davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev O'zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishish tantanali marosimiga bag'ishlangan Oliy

Majlis palatalarining qo'shma majlisidagi nutqida "Farzandlarimiz bizdan ko'ra kuchli, bilimli, dono va albatta, baxtli bo'lishlari shart!" degan hayotiy da'vat har birimizning, ota-onalar va keng jamoatchilikning ongi hamda qalbidan mustahkam o'rin egallaganini ko'rish qiyin emas. Kelajagimiz egalariga yaratib berilayotgan shart-sharoitlar oldingi davrlardan tubdan farq qilmoqda. Maktabgacha ta'limning sifatini yaxshilash uchun uning moddiy texnik bazasini yaxshilash, tizimda faoliyat yuritayotgan pedagog-xodimlarning bilim, malakasini har



[https://orcid.org/  
0009-0005-7245-273X](https://orcid.org/0009-0005-7245-273X)

[qurbanbayevamuqad  
das9@mail.com](mailto:qurbanbayevamuqaddas9@mail.com)

+99897 355 75 40

qachongidan ham oshirish, tizimda yangi innovatsion-texnologik metodlarning keng qo'llanilishi bugungi kunning asosiy vazifalaridan biri bo'lib qoldi. Bular davlat siyosati darajasida mustahkamlab kelinmoqda.

Maktabgacha ta'limga qo'yiladigan Davlat talablari O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 29-dekabrda PQ-2707-son "2017-2021-yillarda maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori hamda Vazirlar Mahkamasining 2004-yil 5-avgustdagi 372-son O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi faoliyatini takomillashtirish to'g'risida"gi qaroriga asosan maktabgacha yoshdagi maktabgacha ta'lim muassalarida har tomonlama rivojlantirish, ta'lim tarbiya berish, ko'nikma va malakalarini shakllantirish hamda maktab ta'limiga tayyorlash bo'yicha davlat talablarini belgilaydi. Maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo'yiladigan Davlat talablari «Ta'lim to'g'risida»gi Qonun, Kadrlar tayyorlash Milliy dasturiga muvofiq ishlab chiqilgan.

Maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo'yiladigan Davlat talablari aniq bir yoshdagi bolaning rivojlanish standartlarini va bolaning yutuqlari va rivojlanish darajasini baholash imkoniyatini beruvchi indikatorlarni belgilaydi.

Maktabgacha ta'lim jadal rivojlanayotgan ta'lim sohasi bo'lib, u butun dunyo va mamlakatimizdagi ta'lim sohasi mutaxassislari va tadqiqotchilarining diqqat markazida bo'lib kelmoqda. 2018-yil "Ilk qadam" Davlat o'quv dasturi qabul qilingan edi. Hozirgi kunda O'zbekistonda maktabgacha ta'lim tizimini tubdan isloh qilish ishlari amalga oshirilmoqda. Shu munosabat bilan davlat o'quv dasturiga (2018-yil) o'zgartish va qo'shimchalar kiritish hamda ikkinchi nashrini yaratish zarurati tug'ildi (2022-yil). Maktabgacha ta'lim tashkilotlari uchun davlat o'quv dasturi O'zbekiston Respublikasining ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo'yiladigan davlat talablariga muvofiq ishlab chiqilgan me'yoriy-huquqiy hujjat bo'lib, unda maktabgacha ta'lim tashkilotining maqsad va vazifalari, ta'lim va tarbiya jarayonining maqsad va tamoyillari, shuningdek, bolaning keyingi ta'lim bosqichiga o'tishdagi

tayanch kompetensiyalari belgilangan.

Bolalarni maktabga tayyorlashda muhim hujjat sifatida qabul qilingan (2019-yil) "Ilm yo'li" variativ dasturidir. "Ilm yo'li" variativ dasturi bolaning to'laqonli rivojlanishi, tarbiyalanishi va o'qishini, uning maktabda ta'lim olishga samarali tayyorlanishini ta'minlashga qaratilgan, bolalarni maktabga tayyorlash bo'yicha xalqaro tajribalarni hisobga olinib ishlab chiqilgan hujjat bo'lib sanaladi.

#### **ADABIYOTLAR TAHLILI VA METOD (MATERIALS AND METHODS)**

Maktabga tayyorgarlik muammosi yangi emas. Zamonaviy hayotning tarbiya va ta'limni tashkil etishning o'ta yuqori talablari bizni o'qitish uslublarini hayot talablariga moslashtirishga qaratilgan yangi, yanada samarali psixologik va pedagogik yondashuvlarni izlashga majbur qiladi. Shu ma'noda maktabgacha yoshdagi bolalarning maktabda o'qishga tayyorligi muammosi alohida ahamiyatlidir.

Uzoq vaqt davomida bolaning o'qishga tayyorligi mezonlari uning aqliy rivojlanish darajasi ekanligiga ishonishgan. L.S. Vygotskiy birinchilardan bo'lib maktabga o'qishga tayyorgarlik g'oyalarning miqdoriy zaxirasida emas, balki bilim jarayonlarining rivojlanish darajasida bo'ladi degan fikrni olg'a surdi. L.S. Vygotskiyning so'zlariga ko'ra, maktabga o'qishga tayyor bo'lish, avvalambor, atrofda dunyo obyektlari va hodisalarini tegishli toifalarda umumlashtirish va farqlashni anglatadi. O'qish qobiliyatini shakllantiradigan fazilatlar majmuasi sifatida maktabga o'qishga tayyorlik konsepsiyasini A.V. Zaporozets, A.N. Leontev, V.S. Muxina, A.A. Lyublinskayalar ishlab chiqdilar. Ular bolaning ta'lim vazifalarining ma'nosini tushunishini, ularning amaliy vazifalardan farqini, harakatni amalga oshirish usullaridan xabardorligini, o'zini o'zi boshqarish va o'zini o'zi qadrlash qobiliyatlarini, irodaviy fazilatlarni rivojlantirishni o'rganishga tayyorlik konsepsiyasiga kiritdilar.

#### **MUHOKAMA (DISCUSSION)**

Bola tarbiyasiga juda kichik yoshligidan e'tibor berish kerakligi sharq va g'arbning eng yetuk olimlari tomonidan ilgari surilib kelingan va hamon ijobiy fikrdagi olimlar salmoqli hissani tashkil qiladilar. Abu Rayhon Beruniy, Abu Nasr Forobiy, Ibn Ali Ibn Sino, Mahmud Qoshg'ariy, Alisher

Navoiy, Abdulla Avloniy va boshqalar, g'arb olimlaridan Yan Amos Komenskiy, K.D.Ushinskiy, J.J.Russo va boshqalar farzand tarbiyasida oila, jamiyat, ilm dargohlarining o'rni beqiyos ekanligini ta'kidlaganlar.

Xitoyning Samarqanddagi elchisi Vey Szining hisobotlarida: «Samarqand aholisi mohir savdogarlardir. O'g'il bola besh yoshga to'lar ekan, unga savod o'rgata boshlaydilar», - deb qayd qilingan. Zardushtlik dinining muqaddas kitobi «Avesto»da ham ta'lim-tarbiya masalalariga katta ahamiyat berilgan. Unda «Tarbiya hayotning eng muhim tirgagi, tayanchi bo'lib hisoblanishi lozim. Har bir yoshni shunday tarbiyalash lozimki, u avvalo yaxshi o'qishni keyin esa yozishni o'rganishi bilan eng yuksak pog'onaga ko'tarilsin» deyilgan. Farobiy ta'lim-tarbiyaga bag'ishlangan asarlarida inson takomilida ta'lim-tarbiyaning muhimligi, unda nimalarga e'tibor berish zarurligi, ta'lim-tarbiya usul va uslublari haqida fikr yuritadi. «Fozil odamlar shahri», «Baxt saodatga erishuv to'g'risida», «Aql ma'nolari to'g'risida», «Ilmlarning kelib chiqishi» kabi maorifiy asarlarida olimning ijtimoiy tarbiyaviy qarashlari o'z ifodasini topgan. Beruniyning bilimlarni egallash yo'llari haqidagi fikrlari hozirgi davr uchun ham dolzarbdir. O'quvchilarga bilim berishda ularni zeriktirmaslik; uzviylik, izchillik, yangi mavzularni qiziqarli, asosan ko'rgazmali bayon etish va hokazolarga e'tibor berish kerakligini uqtiradi. Olim bilim oluvchilarga qalbni yomon, o'zi sezishi mumkin bo'lmagan holatlardan, behuda raqobatdan, shon-shuhratdan saqlanish zarurligini aytdi. Beruniy inson kamolotida uch narsa muhimligini ta'kidlaydi. Bu irsiyat, muhit, tarbiyadir. Ibn Sino insonlarni kamolotga erishishning birinchi mezonini sanalgan bilim egallashga da'vat etadi. Bilimsiz kishilar johil bo'ladi, ular haqiqatni bila olmaydilar, ular yetuk bo'lmagan kishilar deydi. Ibn Sino bilim olishda bolalarni maktabda o'qitish zarur deb biladi. U ta'limda quyidagi talablarga rioya etish zarurligini ta'kidlaydi: bolaga bilim berishda birdaniga kitobga band qilmaslik, ta'limda yengildan og'iriga borish orqali bilim berish, olib boriladigan mashqlar bolaning yoshiga mos bo'lishi, o'qitishda jamoa bo'lib o'qitishga e'tibor berish, ta'lim berishda bolani qiziqishini va qobiliyatini hisobga olish, o'qitishni jismoniy mashqlar bilan birga olib borish.

Abu Ali Ibn Sino aqlning rivojlanish bosqichlarini ishlab chiqqan. O'z davrining yirik ma'rifatchilaridan hisoblangan Abdulla Avloniy ham yoshlarni ilmli bo'lishga chaqiradi. U aql va ilmni ulug'laydi hamda «Aql insonning piri komili, murshidi yagonasidir. Ruh ishlovchi, aql boshlovchidir» deb yozadi. Muallif o'z fikrini aniqroq va ravshanroq anglashi uchun shunday deb aytadi: «Hayvonlar o'zlariga bo'laklar tarafidan qiladurg'on zulm va jabrlarni shox, tish, tirnoqlari ila qaytarurlar. Lekin inson aql idroki soyasida o'ziga keladurg'on zarar va zulmlardan saqlanur, yer yuzidagi hayvonlarni asir qilib, bo'ynidan bog'lab iplari uchini qo'llariga bergan insonlarning aqlidir».

Maktabgacha tarbiya yoshdagi bolalarga ta'lim berish g'oyasi birinchi bo'lib chet el pedagogikasida chex pedagogi Yan Amos Komenskiy (1592-1670) tomonidan yaratilgan. U ona rahbarligida 6 yoshgacha bo'lgan bolalarga ta'lim-tarbiya berish mumkinligini ko'rsatib berdi. Shu davrda bolani yoshini e'tiborga olgan holda kishi o'rganishi lozim bulgan hamma narsaga o'rganish lozim deydi. Demak, maktabgacha yoshdagi bolalarga ya'ni biz ta'lim-tarbiya beradigan bolalarga har tomonlama bilim, ko'nikma va malakalarni singdirishimiz mumkin. U 19 bo'limdan iborat maktabgacha ta'lim dasturini tuzdi. Ya.A.Komenskiy «Onalar maktabi» kitobida kichik bolalarni ta'lim-tarbiyasiga, o'qish metodikasiga katta e'tibor bergan [2].

#### NATIJARLAR (RESULTS)

Bolalar asosan quyidagi jihatlardan maktabga tayyor bo'lish kerakligi zamonaviy pedagogikada ham ilgari surillmoqda:

**Bolalarning maktabga psixologik tayyorgarligi.** Maktabning bola shaxsiga qo'yadigan asosiy talablaridan biri psixologik tayyorgarlikdir. Bolaning psixologik tayyorligi uning jamiyatdagi ijtimoiy mavqeini o'zgarishi va kichik maktab yosh davridagi bolalar o'quv faoliyatining o'ziga xosligi bilan uzviy bog'liq.

Shuni ta'kidlab o'tish joizki, maktabga psixologik tayyorgarlik doimiy, o'zgarmas hisoblanmaydi, balki u doimo o'zgarib boyib boradi. Psixologik tayyorlikning tarkibiy jihatlari: intellektual (aqliy), ma'naviy va irodaviy tayyorgarlikdan iboratdir. Aksariyat hollarda bolaning aqliy rvojlanganlik darajasi haqida

gapirilganda uning soʻz boyligi zaxirasi bilan aniqlanadigan aqliy bilimlari miqdoriga koʻprok eʼtibor beriladi. Ota-ona, hatto ayrim oʻqituvchilar ham bola qanchalik koʻp bilsa, u shunchalik rivojlangan boʻladi, deb oʻylaydilar. Aslida esa unday emas, fan-texnika, ommaviy axborot vositalarining keng tarqalganligi tufayli bugungi kun bolalari goʻyo maʼlumotlar ummonida suzib yurgandek boʻlmoqdalar. Har xil axborot xurujlaridan bolalarni asrash esa kattalarning birday vazifasidir.

**Bolaning maktabda oʻqishga jismoniy tayyorligi.** Bolani maktabda oʻqishga jismoniy tayyorligi oʻqishning muvaffaqiyatli boʻlishida katta ahamiyatga egadir. Maktabga chiqish munosabati bilan bola turmush tarzining qayta qurilishi, kun tartibining oʻzgarishi, jiddiy oʻquv mehnati, darslarning davomiyligi undan sezilarli jismoniy zoʻr berishni talab qiladi. Maktabga jismoniy tayyorlik koʻpgina tarkibiy qismlardan tarkib topadi. Bu birinchi navbatda bola salomatligining yaxshi boʻlishi, organizimning chiniqqanligi, maʼlum darajada chidamliligi va ish qobiliyati, kasalliklarga qarshilik koʻrsata olishidir. Bolalarni maktabga tayyorlashda barmoq mayda muskullarining rivojlanishi alohida oʻrin egallaydiki, bu yozuvni muvaffaqiyatli egallashning zaruriy sharti hisoblanadi.

Maktabga jismoniy tayyorlik, shuningdek, bola tomonidan madaniy gigiyenik malakalarni egallanishini, ularda shaxsiy gigiena qoidalariga rioya qilish odatini tarbiyalashni nazarda tutadi.

**Bolaning maktabda oʻqishga aqliy tayyorligi.** Maktabga aqliy tayyorlikning muhim tarkibiy qismi maktabga oʻqishga kirayotgan bolada atrof, dunyo haqida yetarlicha keng bilim boyligining mavjud boʻlishidir. Bilimlarning bu fondi oʻqituvchi oʻz ishini tashkil etishda tayanadigan zarur asos hisoblanadi. Bolani maktabga aqliy tayyorligida bolalar egallagan bilimlarning sifati ahamiyatlidir. Bilimlar sifatining koʻrsatkichi birinchi navbatda ularni bolalar tomonidan ongli egallaganligi; tasavvurlarining aniq va tabaqalashtirilganligi; oddiy tushunchalar mazmuni va hajmining toʻliqligi; oʻzlariga tushunarli oʻquv va amaliy vazifalarni hal

etishda bilimlarni mustaqil qoʻllana olish qobiliyatlari; muntazamlilik, yaʼni maktabgacha tarbiya yoshidagilarning narsa va hodisalar oʻrtasidagi tushunarli, muhim aloqa hamda munosabatlarni aks ettira bilish qobiliyatidir. Bolani maktabga aqliy tayyorgarligining tarkibiy qismi bola bilish faoliyatining muayyan darajada rivojlangan boʻlishidir. [3]

### **XULOSA (CONCLUSION)**

Har qanday 7 yoshli bola maktabga qabul qilinishi mumkin. Buning uchun u jismonan, ruhan hamda aqliy jihatdan taʼlim olishga tayyor boʻlishi kerak. Shu bilan bir qatorda maktabning moddiy-texnik bazasi 6-7 yoshli bolalarga taʼlim berish imkoniyatiga ega boʻlishi shart[4]. Bolaning maktabga toʻlaqonli tayyor boʻlishida tarbiyachining ham roli juda kattadir. Taʼlim tizimimizning dastlabki boʻgʻinida faoliyat yuritadigan kadrlarni tayyorlashda shu faktorlarni yoddan chiqarmasligimiz zarur. Tarbiyachining pedagogik-psixologik bilim darajasi, axloq-odobi va shaxsiy sifatlari olti yoshli bolalarga taʼlim va tarbiya berish uchun loyiq boʻlganda u 6-7 yoshli bolalarni oʻqitish huquqiga ega boʻladi. Shuning uchun ham 6-7 yoshli bolalar, ularni qabul qiladigan maktablar hamda bu bolalarni oʻqitadigan tarbiyachilar pedagogik-psixologik nuqtayi nazardan alohida-alohida diagnostika qilinishi va shundan keyingina taʼlim jarayoniga kiritilishi kerak.

### **ADABIYOTLAR ROʻYXATI (REFERENCES)**

1. “2017-2021-yillarda Oʻzbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yoʻnalishi boʻyicha Harakatlar strategiyasi”. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-sonli Farmoni.
2. Z.K.Alimova. Maktabgacha pedagogika. Shahrizabz-2019.
3. Акрамова.М.Т..Болаларни мактабга тайёрлаш методикаси. Ўқув қўлланма. Бухоро – 2021.
4. Sh.Sodiqova. Maktabgacha pedagogika. “Tafakkur boʻstoni”. Toshkent-2013.